

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TOJIXON SABITOVA

O'ZBEK FOLKLORI

*(Universitetlar va pedagogika institutlarining
O'zbek filologiyasi fakultetlari uchun darslik)*

Toshkent
«ZEBO PRINT»
2024

UO'K 39(575.1)(09)
KBK 72(30')ya5
O'22

T. Sabitova. O'zbek folklori. Darslik. – T.: “ZEBO PRINT”, 2024.
374 b.

Mas'ul muharrir:

Nasimxon Rahmonov - *filologiya fanlari doktori, professor.*

Taqrizchilar:

Shomirza Turdimov - *filologiya fanlari doktori, professor.*

Abdimurod Tilavov - *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

«O'zbek folklori» darsligi mazkur fanning fan, o'quv va ishchi dasturi asosida yaratilgan. Ushbu darslikda o'zbek folklorining mohiyati, tadqiqi va tatbig'i, uning asosiy janrlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, og'zaki adabiy namunalarning xalq hayotida tutgan o'rni, ahamiyati, milliy qadriyatlar va urf-odatlar haqida ham atroflicha fikr yuritilgan.

Mazkur darslik filologiya yo'nalishi bakalavriat va magistratura talabalariga mo'ljallangan bo'lib, ta'limning ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar hamda mustaqil ta'lim shakllarining mavzulari mohiyatini o'z ichiga oladi. Mazkur fan asoslarini o'zlashtirish «Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim sharti» ekanligi bilan belgilanadi. «O'zbek folklori» fani ijtimoiy islohotlar natijasini talabada amaliy his qildirish masalalarini qamraydi.

Darslik universitetlar va institutlarning filologiya fakulteti talabalari, magistrarlari, doktorantlar, filolog mutaxassislar, keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 3-martdagi 55-sonli buyrug'i bilan nashrga tavsiya etilgan. O'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi raqami 127-411.

ISBN

KIRISH

Xalq og'zaki ijodi so'z san'ati sifatida. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari

Mustaqilligimizning 31 yilligi tadbirlarida muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 5ta ustuvor yo'nalishning birinchisini ta'lim sohasi deb aytdilar. Zero bu sohada ilmiy salohiyat eng yuqori o'rinda turmog'i lozim. Chunki qayerda ilm-ma'rifat bo'lsa, o'sha joyda ma'naviyat, qadriyat, jonajon Vatanga bo'lgan sadoqat va boshqa insoniy fazilatlar rivojlanaveradi. Shuning uchun bu masalalarga davlat siyosati darajasida katta e'tibor berilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobining to'rtinchi bo'limida ta'lim, tarbiya, ilm-fanga hammaga tegishli fikrlarni bejiz aytmadilar: "Yana bir bor ta'kidlayman: men -Yangi O'zbekistonni -obod va farovon, demokratik mamlakatni, Uchinchi Renessansni barpo etishda pedagoglar, professor-o'qituvchilar, ijodkor ziyolilarni eng katta kuch, tayanch va suyanch" ¹deb ilm ahliga ishonch bildirdilar. Shunday ekan, biz professor-o'qituvchilar har birimiz o'z sohamizni halol mehnatimiz bilan rivojlantirishimiz va ilm-fanni yuksak marralarga yetkazishimiz lozim. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlarimizni amalga oshirishimiz zarur, zero folklorshunoslik ilmida ham. Shu nuqtai nazardan bu darslikni yaratishga harakat qildim. Muhtaram Yurtboshimiz aytganlaridek, bu darslik folklor ilmi bilan shug'ullanuvchi bakalavr, magistr talabalarga va doktorantlarga amaliy yordam berar degan umiddaman.

Jahon folklorshunosligidagi asarlarning nazariyasi, poetikasi va metodikasini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biridir.

Dunyo folklorshunosligi mundarijasida turkiy xalqlar, jumladan o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari alohida o'rin egallaydi. Bu asarlar millat tarixi singari qadimiy va boy ekanligi diqqatga sazovordir. Turkiy xalqlarning kechmishi, xalq va davlat sifatida

¹ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston.-2022, 223 b.

bosib o'tgan yo'li og'zaki ijod asarlarida o'z aksini topgan.

O'zbek xalqi o'zining g'oyat qadimiy madaniyati va serqirra ijodiy salohiyati bilan jahon tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Zero, xalq og'zaki ijodi namunalari bebaho badiiy qadriyatlar silsilasidir. Hamisha bunyodkorlik va yaratuvchilikni tarannum etib kelgan bu tafakkur durdonalarida xalqimizning eng oliyjanob va ulug'vor maqsadlarga yo'naltirilgan ezgu g'oyalari o'z ifodasini topgan. Ona diyorimizda yuksak madaniyatni bunyod etgan ijodkor xalqimizning dunyoqarashi, turmush tarzi, orzu-intilishlari, urf-odat va marosimlari, Qadri abad an'analari-yu o'zbekona samimiyatini o'ziga xos tarzda badiiy ifoda etuvchi folklor asarlari o'nlab janrlarni o'z ichiga olgan g'oyat nodir ma'naviyat bo'stonidir. Xalq og'zaki ijodiyoti milliy qadriyatlarimizning eng yashovchan, qadimiy, ardoqli va hamisha yangilanib, har bir avlod badiiy tafakkurining sarchashmasidan quvvat olib sayqallanib boradigan, ya'ni doimiy harakatdagi ijodiy jarayon hisoblanadi.

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi yurtdoshlarimizning turmush tarzi, yashash sharoitlari va ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib, otadan o'g'ilga, ustozdan shogirdga, ajdoddan avlodga o'tib, doimiy ravishda sayqallashib, mukammallashib, tobora an'anaviylashib boravergan va, nihoyat, kasbiylik (professionallik) kasb etgan hamda jonli ijro orqali bizgacha etib kelgan. Xalq ijodiyotining qadimiy namunalari esa yozma manbalarda, xususan, mamlakatimizda yaratilgan ulkan yodgorlik – «Avesto»da, shuningdek, tarixchi va adiblarning asarlarida, qoyatoshlar suratlarida (Sarmishsoy, Zarautsoy rasmlari kabi), arxeologiya va arxitektura yodgorliklarida, mehnat qurollari va uy-ro'zg'or buyumlarida o'ziga xos tarzda saqlanib qolgan.

Jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining kuchaya borishi bilan xalq ijodi turlari va janrlariga nisbatan ayrim iste'dodli shaxslarning ixtisoslashuvi osha borgan. Shu tariqa baxshilar, ertakchilar, roviylar, masxarabozlar, qiziqchilar, askiyabozlar, qo'g'irchoqbozlar, qo'shiqchilar, go'yandalar, xalfalar, qissaxonlar san'ati yuzaga kelgan. Ammo xalq

ijodi namunalarining yaratilishi, o'zlashtirilishi va amalga oshirilishida ko'pchilikning ishtiroki, har bir ijro va amaliyotning qadimdan qaror topgan mustahkam an'analar doirasida voqe' bo'lishi saqlanib qolgan. Shu sababli ham har qanday badiha, har bir ijodiy harakat, davomchi tomonidan kiritilgan qay bir yangilik barqaror an'analar doirasida, ustoz-shogirdlik qobig'ida ro'y bergan. Shu tariqa, bir tomondan, an'analarning o'zi rivojlana borgan, ikkinchi tomondan, har bir ijro va amaliyot davomida xalq ijodining an'anaviy namunalariga o'zgartirishlar, yangiliklar kiritila borgan, yangi asarlar, yangi variantlar, yangi yechimlar yuzaga kelgan hatto qay bir namunalar unutilib, ijro va amaliyotdan tushib qolgan.

O'zbek folklorining qadimgi namunalari asl holida to'la ravishda bizgacha yetib kelmagan. Qadimgi miflar, afsona va rivoyatlar, maqol, topishmoq va qo'shiqlar, epos parchalari turli xarakterdagi yozma yodnomalar, Yunon, Xitoy, Arab manbalari, tarixchilarning ma'lumotlari, arxeologik topilmalar orqali, shuningdek, keyingi davrlarda yozib olingan folklor asarlari tarkibida saqlanib qolgan. Qayumars, Jamshid, Gershasp, Siyovush, Afrosiyob, Rustam, Iskandar, Elikbek, To'maris, Shiroq, Zariadr va Odatida, Zarina, Oysuluv, Guldursun, odami Od, Er Hubbi haqidagi afsona va rivoyatlar, qahramonlik eposlari, «Devoni lug'otit turk»da keltirilgan folklor namunalarining yaratilishida o'zbek xalqi qadimiy ota-bobolarining ham munosib hissasi bor. Bu qadimiy folklor namunalarida tasvirlangan yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va qabohat, to'g'rilik va egrilik, adolat va haqsizlik o'rtasidagi kurash motivlari keyinchalik o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodida qayta ishlanib, xalqimizning ijtimoiy munosabatlari va kurashlari bilan uyg'unlashib ketgan.

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining qadimiy namunalari mehnat va mavsum-marosim qo'shiqlaridir. Ular qo'shiq yaratuv- chilarning amaliy faoliyati: ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan bevosita bog'langan va mehnatkash ommaning qadimiy urf-odatlar, xilma-xil marosimlari va e'tiqodlari negizida yashab kelgan. Mehnat

qo'shiqlari turli mehnat jarayonlari bilan bog'liq. Masalan, xirmon yanchishda «Xo'p-mayda» yoki «Maydagul», sigir, qo'y, echkilarni sog'ish va buzoq, qo'zi, uloqlarni emizishda «Xo'sh-xo'sh», «Turey-turey», «Churey-churey» qo'shiqlari kuylangan. Yer haydash, o'rim, yorg'ichoq tortish, charx yigirish va bo'z to'qish jarayonlarida maxsus qo'shiqlar aytilgan. Insonning yashash va hayot kechirish tarzi, turli-tuman inonchlar, urf-odatlar, mavsumiy yumushlar, marosimlar va bayramlar bilan bog'liq ravishda juda ko'p folklor namunalari yaratilgan. Masalan, onalar va buvilar tomonidan aytiladigan allalar hamda otalar va bobolar tomonidan kuylanadigan huyyalarda ezgu orzu-havaslar, farzandning kelajagi haqidagi umidbaxsh niyatlar tasvirlanadi, bola tarbiyasiga oid xalqona qarashlar bayon etiladi. Farzandning tug'ilishi, chaqaloqning beshik davri, ulg'ayishi, jismoniy va nutqiy barkamolligi, yosh va sunnat to'ylari, ulg'ayish ehtirolari bilan bog'liq aytim-olqishlar, erkalama, ovutmachiq, yalinchoq, hukmlagich, chalg'itma, chorlama, guldur-gup, sanama, aytishma, tegishmachiq, masxaralamalardan iborat butun bir bolalar folklori tizimi yaratilgan. Nikoh to'yi marosimi bilan bog'liq ravishda yor-yor, lapar, o'lan, kelin salom, kuyov salom kabi qo'shiqlar kuylangan. Bularda kelin-kuyovning ta'rif-tavsiflari, to'yning shavq-zavqi, shuningdek, ijtimoiy hayot va tengsiz nikohdan norozilik motivlari tasvirlangan. Qadrdon kishining vafoti munosabati bilan yig'lab aytiladigan qo'shiqlarda esa marhumning eng yaxshi sifatlari, shafqatsiz o'lim tufayli boshga tushgan musibat, judolik dardi g'am-alam bilan izhor etiladi. Yil qurg'oqchilik kelganda yomg'ir chaqirishga bag'ishlangan «Sust xotin», qattiq shamol bo'lganda uni to'xtatish uchun «Choymomo» marosimi va qo'shiqlari ijro etilgan.

«Boychechak», «Barot keldi», «Yo Ramazon» kabilar ham turli mavsum-marosimlar bilan bog'liq. Bayramlar, jumladan, Navro'z bayrami haqida turkum folklor namunalari yaratilgan.

Xalq badiiy ijodining kattagina qismini lirik va satirik qo'shiqlar, termalar tashkil etadi. Lirik qo'shiqlarda ishq-muhabbat, oila, ijtimoiy va maishiy hayot hodisalari keng

yoritilsa, satirik qo'shiqlarda jamiyatdagi salbiy hodisalar, ayrim nojo'ya ishlar tanqid qilinadi. Qo'shiqlar dilraboligi, yoqimli ohangi, to'q qofiyalari, obrazlilik, tasviriy usul va vositalarning xilma-xilligi bilan inson ruhiyatini g'oyatda teran aks ettirib, muhim g'oyaviy-estetik vazifani o'taydi.

O'zbek folklorining eng ommaviy janrlari maqollar va topishmoqlardir. Xalqning asriy tajribalari, pand va nasihatlarini o'zida ifodalagan maqollar hajman qisqa, biroq keng ma'noli obrazli nutq mevasidir. Maqollarda xalqimizning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy- ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari ifodalangan. Ularda vatanparvarlik, mardlik, qahramonlik, mehnatsevarlik, do'stlik, vafodorlik, ilm-hunar o'rganish kabi oliyjanob fazilatlar ulug'lanadi, qo'rqqoqlik, nodonlik, yomonlik, egrilik, umidsizlik, yolg'on gapirish, yalqovlik, ochko'zlik, tamagirlik kabi yaramas sifatlar inkor etiladi. O'zbek xalqi bisotida o'ttiz mingga yaqin maqol bo'lib, ular g'oyaviy va tematik jihatdan boy va rang-barang.

Xalq orasida topishmoqlar ham juda keng tarqalgan. Ular narsa hodisalarning muayyan belgilarini boshqa predmetlarga qiyosan yashirib, yashirilgan narsa va hodisani topishga mo'ljallangan badiiy asarlardir. Shunga ko'ra topishmoq ikki qismdan iborat bo'ladi: yashirilgan narsa va hodisalar haqidagi obrazli ifodalar, ya'ni topishmoqning o'zi va uning javobi. Tog' va o'rmonlar, daryo va ko'llar, cho'l va biyobonlar, bo'ron, sel va toshqinlar, yer va osmon, yil va uning fasllari, hayvonlar va o'simliklar olami, uy- ro'zg'or va maishiy jihozlar haqida ko'plab topishmoqlar yaratilgan. Topishmoqlar ham maqollar singari tuzilish jihatidan ba'zan nasriy, ko'pchilik hollarda she'riy shaklda bo'ladi.

Afsona va rivoyatlar, naql, latifa va loflar, ertaklar o'zbek folklorining nasriy janrlarini tashkil etadi. Xabar, axborot berish tarzidagi xayoliy uydirmalarga asoslangan qisqa syujetli bayoniy hikoyalar afsonalarni tashkil etadi. Shuning uchun ham tadqiqotchilar afsonalarga haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on hikoyalar, deya baho beradilar. O'zbek xalqi olamning

ibtidosi va intihosi, osmon jismlarining harakati, sahro, cho'l, dasht, tog', ko'l, daryo va dengizlarning paydo bo'lishi, ba'zi inshootlarning qurilishi va vayron bo'lishi, avliyo-anbiyolar, xayoliy qahramonlarning turmush tarzi va maqomatlari haqida yuzlab afsonalar yaratgan. «Shirin qiz», «Dev qal'a», «Kaltaminor», «Ilonbuzgan», «Er Hubbi», «Anbar ona», «Iskandar Zulqarnayn» kabilar shular jumlasidandir.

Qachonlardir bo'lib o'tgan yoki bo'lganligiga ishonilgan voqea va hodisalar, tarixiy shaxslarning u yoki bu ishlari haqida xabar beruvchi bayon tarzidagi qisqa syujetli hikoyalar rivoyatlar hisoblanadi. Rivoyatlar syujet tuzilishi, bayoniy tarzi, axborot berish xususiyatlari bilan afsonalarga o'xshaydi. Ammo tarixiy voqealar va shaxslar, urug' va joy nomlariga doir ma'lumotlar, faktik hodisalar haqida axborot berishligi bilan ulardan farq qiladilar. Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Ulug'bek, Mashrab kabi tarixiy shaxslar haqidagi rivoyatlarda bu shaxslar bilan bog'liq qiziqarli voqealar bayon etilib, ularning yuksak fazilatlar, donishmandliklari ibrat qilib ko'rsatilgan. Afsona va rivoyatlar xalqning e'tiqodiy va mifologik qarashlarini, tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy (empirik) bilimlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Xalq badiiy ijodining kattagina qismini lirik va satirik qo'shiqlar, termalar tashkil etadi. Lirik qo'shiqlarda ishq-muhabbat, oila, ijtimoiy va maishiy hayot hodisalari keng yoritilsa, satirik qo'shiqlarda jamiyatdagi salbiy hodisalar, ayrim nojo'ya ishlar tanqid qilinadi. Qo'shiqlar dilraboligi, yoqimli ohangi, to'q qofiyalari, obrazlilik, tasviriy usul va vositalarning xilma-xilligi bilan inson ruhiyatini g'oyatda teran aks ettirib, muhim g'oyaviy-estetik vazifani o'taydi.

Xalq dostonlarining katta bir turini romanik epos namunalari tashkil etadi. XII – XVII asrlarda yaratilgan bunday dostonlar o'z davrining ijtimoiy-siyosiy munosabatlari bilan bog'liq bo'lib, ularning mohiyatini sevgi mojarolari, qo'rqinchli sarguzashtlar, ertakka xos fantastik voqealar, shu bilan birga hayotiy hodisalar tasviri belgilaydi. Romanik dostonlarning syujet tuzilishi nihoyatda bir-biriga o'xshash bo'lib, odatda

qahramon g'oyibona oshiq bo'lgan go'zalni izlab safarga otlanadi, ajoyib-g'aroyib hodisalarni, qiyin sarguzashtlarni boshidan kechiradi, g'ayritabiiy kuchlar bilan to'qnashadi, barcha qiyinchiliklarni yengib o'z maqsadiga erishadi. Biroq bu dostonlarning har biri kompozision qurilishi, obrazlari, motivlarining ishlanish xarakteri va mazmunlari jihatidan mustaqil bo'lib, bir-birlaridan farqlanadilar. Romanik dostonlarning tarkibi nihoyatda murakkab. Qahramonlik dostonlarida romanik eposga xos jihatlar bo'lganidek, romanik dostonlardan qahramonlik unsurlari, jangnomalar xususiyatlari ham mustahkam o'rin olgan. Hatto ba'zi dostonlarda bir necha mavzu baravar ishlangan. Qahramonlik- romanik dostonlarda («Rustamxon» turkumi, «Yakka Ahmad», «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi bir qancha asarlar) qahramonlik yo'nalishi ustun tursa, ishqiy-romanik dostonlarda («Kuntug'mish», «Orzigul», «Go'ro'g'li» turkumining so'nggi halqalari) sevgi mojarolari, sarguzashtli voqealar tasviriga alohida e'tibor beriladi.

O'zbek xalq dostonlari jonli og'zaki ijroda asrlar davomida boy yozma adabiyot namunalari bilan yonma-yon yashab keldi. Mumtoz adabiyotning dostonchilikka ta'siri barakali bo'ldi. Bunday jarayon XVII asrdan keyin yanada kuchaydi. Oqibatda romanik eposning bir turi sifatida kitobiy dostonlar yuzaga keldi. Bunday dostonlar mumtoz she'riyat namunalarining baxshilar tomonidan folklorga xos ravishda qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan yoki yaratilishi jihatidan yozma adabiy manbaga ega bo'lgan, shuningdek, bevosita yozma adabiyot ta'sirida yaratilgan asarlardir. «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Bahrom va Gulandom», «Yusuf va Zulayho», «Varqa bilan Gulshoh», «Vomiq bilan Uzro», «Zevaxxon» va boshqalar shu xil dostonlardandir. XVIII asrning oxirlaridan, xususan, XIX asrning ikkinchi yarmida folklor asarlarini yozma adabiyotga yaqin ruhda qayta ishlash yoki, aksincha, yozma adabiyot namunalarini «folklorlashtirish» jarayoni nihoyatda kuchaydi. Buning natijasida turli xarakter va mazmundagi qissalar («Xalq kitoblari») paydo bo'ldi, ayrim baxshilar ijodida yozma adabiyot unsurlari ko'rina boshladi.

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarining muayyan qismi bugungi kunga qadar o'zining jonli ijrochilik an'alarini saqlab kelmoqda. Xususan, mamlakatimizda baxshichilik san'ati va dostonchilik an'alari faol davom ettirayotganligi, marosim qo'shiqlari, bolalar folklori, o'lan va lapar ijrochiligi, askiya, qiziqchilik va xalq ommaviy tomosha san'ati, afsona, rivoyat, latifa, naql va ertaklar saqlanib qolganligi fikrimiz dalilidir.

Ma'naviy qadriyatlarni keng ko'lamda targ'ib va tadqiq etish borasida ulkan ishlar amalga oshirilayotgan yangi O'zbekistonda xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini har tomonlama chuqur o'rganish, ilgari yozib olinmagan folklor asarlarini izchil to'plash va arxivlashtirish, xalq ijodi namunalarini badiiy tafakkur durdonasi sifatida har tomonlama chuqur o'rganish tamoyili shakllandi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-son «Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida»gi, 2019-yil 14-maydagi PQ-4320-son «Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi», 2021- yil 10-apreldagi PQ-5070-son «II xalqaro baxshichilik san'ati festivaliga tayyorgarlik ko'rish va baxshichilik san'atini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-apreldagi VMQ-304-son «Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2021-yil 21-apreldagi VMQ-228-son «Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish tartibi to'g'risida»gi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda xalq og'zaki badiiy ijodiyotini har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa, bu sohadagi yosh iste'dodlarni kamol toptirishdek g'oyat muhim vazifalar belgilanganligi folklor an'alarida o'z ifodasini topgan ezgu qadriyatlarni keng ko'lamda targ'ib etish uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Mamlakatimizda folklor asarlarini to'plash, nashr etish va ilmiy o'rganish borasida hozirga qadar bajarilgan ilmiy-ijodiy

tajribalar jahon andozalari darajasiga ko'tarildiki, endilikda ana shu ilmiy natijalarni umumlashtirgan holda o'zbek folklori yuzasidan yangi avlod darsliklar yaratish, o'quv qo'llanmalari va majmualar yaratish ehtiyoji yuzaga keldi. Binobarin, bunday darsliklar xalqimiz poetik tafakkurining boqiy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan folklor yodgorliklarini yosh avlod ongiga badiiy qadriyatlarni yanada chuqurroq singdirish hamda ularni dunyo ma'naviy tamadduniga o'zining benazir ijodiy qudrati bilan munosib hissa qo'shgan o'zbek xalqi og'zaki ijodida tarannum etilgan ezgu g'oyalar ruhida kamol toptirishga xizmat qiladi.

Folklorshunoslik tarixiga bir nazar

Xalqimiz istiqloлга erishgan kunidanoq, asrlar davomida uning g'ururi, tarixi, qadriyatlarining manbayi bo'lgan o'zbekona urf-odatlar, rasm-rusumlar, asrlar davomida yaratilgan dostonlar, ertaklar, qo'shiqlar, maqollar haqida alohida g'urur bilan gapirila boshlandi. O'zbek xalqining ma'naviyati, madaniyati, adabiyoti, tarixi tamaddun beshigi bo'lgan desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Chunki xalqimizning donishmandligi og'zaki ijodda yaratilgan allalardagi halovatda, katta-kichikda ma'rifat urug'ini sepuvchi, aqlni charxlovchi janrlarda, moziy va kelajakning orzu-umidi bo'lgan dostonlardagi xalq qahramonlarida qad ko'tardi.

Har bir inson biror sohaning mutaxassisi bo'lishdan tashqari o'z xalqining farzandi bo'lmog'i lozim. Yaqin o'tmishda alla bilmaydigan kelinlarni, doston eshitmagan yigitlarni yoki askiya aytib ko'ngil chigillarini yozmagan o'zbeklarni uchratish mushkul bo'lgan. Kishilik jamiyatining taraqqiyoti rang-barang obraz va timsollarda, nuqtadonligi badiiy serjilo va hozirjavob bahri baytlarda kamol topdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta'kidlanganidek, «Istiqlol yillarida erishgan yutuqlarimizga tayanib, **milliy tiklanishdan – milliy**

yuksalish sari dadil qadam qo'ymoqdamiz»² Demak, bugungi globallashuv jarayonida xalq og'zaki adabiyot namunalarini qadriyatlarimiz kaliti sifatida keng tadqiq va tadbiq etishimiz inkor etib bo'lmas ehtiyojdir. Biz o'tgan yillar davomida Alpomish, Shiroq, To'maris kabi millatimiz qahramonlari nomini tikladik, endi esa xalqimizning azaliy siymolarini millatimiz ongida, shuurida, surati va siyratida yuksaltirishimiz lozim.

O'zbek xalqining asrlar davomida yaratgan og'zaki so'z san'ati namunalari milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir xalqning asrlar idealini aks ettiruvchi og'zaki ijodi bo'lganidek, o'zbek xalqi ham qadimiy tarixga boy va rang- barang og'zaki adabiyot durdonalariga ega bo'lgan xalqlardan biridir.

Xalq ommasi tomonidan yaratilib xalqning talantli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, olqish va duolar, topishmoq va qo'shiqlar, latifa va naqlar, ertak va dostonlar o'zbek xalq og'zaki ijodini tashkil qiladi.

O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning bosh omillari belgilanar ekan, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, «Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi»³. Dastlabki ikki renessans tamadduni ta'siri badiiy adabiyotning ham og'zaki, ham yozma turiga islom va tasavvuf an'alarini olib kirdi. Xalq ijodi namunalari janriy va badiiy estetik takomilida islom motivi unsurlari kirib keldi. Shunga ko'ra yuksak nafasat va

² Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <http://uza.uz/posts/3452>

mangu hikmat xazinasini bo'lgan og'zaki adabiyot manbalarida ham ajdodlarimizning urf-odatlarini va an'analarini, odob-axloqi va madaniyati, tarixi va milliy qadriyatlari, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, badiiy-falsafiy va diniy qarashlari o'zining yorqin ifodasini topgan. Xalq yaratgan asarlar, o'z navbatida, qadimgi o'zbek xalqining e'tiqodi va dunyoqarashini o'rganishda, folklor namunalarida ilgari surilgan ilg'or g'oyalar, umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni bilib olishda asl manba bo'lib ham xizmat qiladi.

Folklor o'zining muhim tomonlari bilan ijodkor uchun har jihatdan e'tiborli va qimmatli ekanini qadimiy va hozirgi zamon adabiyoti tajribalari ko'rsatib berdi. O'zbek yozuvchilari folklor asarlarini chuqur o'rganib borganlari va undan ijodiy foydalanganlari sari folklor va yozma adabiyotning o'zaro munosabati tobora takomillashib, o'z samarasini bera boshladi.

Xalq og'zaki ijodi yozuvchi va shoirlarning g'oyaviy-badiiy jihatdan o'sishida, uslub xilma-xilligini yaratishda katta ijodiy maktab bo'lib qoldi. Yozma adabiyotda o'z ifodasini topgan folklor sujetlari va motivlari yozuvchi mahorati tufayli qayta sayqal topib, original asar sifatida yozma adabiyot mulkiga aylandi.

So'z san'atining bu ikki shakli o'rtasidagi o'zaro ta'sir tarixi juda qadim zamonlarga, ya'ni yozma adabiyotning yuzaga kelish davrlariga borib taqaladi. Qadim zamonlardan har bir davr ijodkorlari ertak mavzularidan foydalanib keladilar. Ko'hna Sharqda Abulqosim Firdavsiy, Rudakiy, Nizomiy, Jomiy, Navoiy, Bedil, Fuzuliy, Berdaq, Gulxaniy, Muqimiy kabi buyuk siymolar o'z ijodxonalarida xalq og'zaki ijodidan oziqlanib, ajoyib samaralarga erishdilar, o'lmas obrazlar yaratishda folklor xazinasidan qanday ta'lim olish, nimalarni o'rganishning ibratli tajribalarini berdilar.

XX asr yangi o'zbek adabiyotining chinakam xalqchilligi va yuksak badiiyati uchun kurashgan, uning mustahkam poydevorini qurishda jonbozlik ko'rsatgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Hamza xalq og'zaki ijodi materiallarini qayta ishlashda ibrat bo'larli o'ziga xos maktab yaratishdi. G'afur

G'ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Sulton Jo'ra singari o'zbek yozuvchilari bu maktab an'alarini o'ziga xos yo'lda izchil rivojlantirdilar. Hozirgi adabiy jarayonda ijod qilayotgan yozuvchi va shoirlarimiz ham bu an'alarni davom ettirishmoqda.

So'z san'ati bilan xalq og'zaki ijodining o'zaro ta'siri va munosabati xususida so'z borganda, san'atkorning folklor asarlariga ko'r-ko'rona ergashmasligi, ularga taqlid qilmay, o'z ijodiy niyati, uslubi, qarashi jihatidan yondashishi ko'zda tutiladi. Folklor haqidagi fan – **folklorshunoslik (folkloristika)** bo'lib, og'zakiso'z san'atining o'ziga xos xususiyatlari, folklorning paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari, jtimoiy tabiati va g'oyaviy mohiyati, shuningdek, janrlar spetsifikasi kabi masalalaridan bahs yuritadi. Folklorshunoslik sotsiologiya, etnografiya, til, tarix, arxeologiya, san'atshunoslik, musiqashunoslik va boshqa fanlar bilan aloqadorlikda ish ko'radi.

Chunki folklor sinkretik so'z san'ati sifatida san'atning barcha turlari bilan chambarchas bog'langan.

Folklorshunoslik fani uch tarmoqdan tarkib topgan holda shakllangan:

A) xalq ijodiyoti namunalarini to'plash;

B) xalq og'zaki ijodiyoti bo'yicha to'plangan namunalarni nashr etish;

D) xalq og'zaki badiiy ijodini tadqiq qilish.

Folklor asarlari xalq urf-odatlarini, rasm-rusumlarini chuqur aks ettiradi. Bu jihatdan, ayniqsa, marosim folklori namunalari alohida ajralib turadi. Ana shu jarayonlarni tadqiq etishda folklorshunos etnografiyaga tayanadi. Aks holda, uning tadqiqoti biryoqlama bo'lib qoladi.

Bundan ma'lum bo'ladiki, ilmiy jamoatchilik tomonidan folklor maktabi rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Folklorning o'rganish tarixi unga nisbatan faqat ilmiy maqsadlarda yondashilganlikni kuzatish bilan cheklanmaydi, balki insoniyat tafakkuri taraqqiyotida unga turlicha munosabatda bo'lgan ilm-fan va madaniyat arboblarning

adabiy qiziqishlarini ham hisobga olishni taqozo etadi. Shu ma'noda, folklorshunoslik asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi.

Folklor namunalarini yozib olishdagi dastlabki tajribalar XI asrdan boshlab ko'zga tashlanadi. Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit-turk» asaridagi xalq og'zaki ijodi namunalari buning yorqin misolidir. XI asrning mashhur tilshunos olimi Mahmud Koshg'ariy turkiy so'zlarning lug'aviy ma'nosini izohlash maqsadida qo'shiq, maqol, afsona kabi folklor namunalaridan ham foydalangan. Unda XI asr og'zaki adabiyoti namunalari bilan birga eng qadimgi davrlarda, hatto, eramizdan oldingi zamonlarda yaratilgan, asrdan asrga, avloddan avlodga ko'chib yurgan ko'plab xalq maqollari, rang-barang qo'shiqlar, afsona va naqllar to'planib izohlanganki, bu asar muallifining faqat tilshunos olim bo'lib qolmasdan, balki o'z davrining adabiyotshunosi, etnografi va folklorshunosi bo'lganligidan ham dalolat beradi.

O'zbek folkloridan ayrim namunalarni dastlab yozib oluvchi, tekshiruvchi va nashr etuvchilar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yashagan Yevropa sayyohlari, elchilari va olimlari bo'ldilar. A.A.Kushakevich, N.Lyapunova, A.Vasilyev, A.N.Samoylovich kabi olimlarning kundaliklari va asarlarida o'zbek xalqining maishiy turmushi, urf-odatlar, og'zaki ijodi bo'yicha muhim qaydlar uchraydi. Chunonchi, xalq qo'shiqlari, masxarabozlik, qiziqchilik san'ati, xalq sayillari haqidagi taassurotlari bayon qilingan, ba'zi og'zaki drama, ayrim ertaklarning tafsilotlari berilgan.

O'zbek xalq ertaklari, topishmoqlari, maqol va matallari hamda og'zaki teatr namunalarini to'plash va nashr etishda N.P.Ostroumovning faoliyati salmoqlidir. U aslida missionerlik maqsadlarini ko'zlagan bo'lsa-da, bu sohadagi ishlari obyektiv ravishda o'zbek folklorini o'rganishga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Xuddi shu davrlardan boshlab o'zbek folklorining ayrim namunalari dunyo miqyosida ham tanila boshladi. Bunda mo'jor (venger) olimi va sayyohi H.Vamberining xizmatlari kattadir.

U 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan «Chig'atoy tili darsligi» xrestomatiya qo'llanmasida yuzdan ortiq xalq maqollarini, «Yusuf va Ahmad» dostonidan olingan parchalarni nemischa tarjimada o'zbekcha matn bilan birgalikda nashr etdi. 1911-yilda esa «Yusuf bilan Ahmad» dostonining Xorazm versiyasini to'laligicha nashr ettirdi.

XIX asrda ayrim folklor va kitob ishqibozlari, shuningdek,

baxshilar tashabbusi bilan xalq dostonlarining ayrim qo'lyozma nusxalari yuzaga kela boshladi. Bunday nashrlar tarjima qilish yoki xalq dostonlari va ertaklarini qayta ishlash natijasida yaratildi. Shu xildagi asarlar jumlasiga «Hikoyati Go'ro'g'li sulton», «Yusufbek bilan Ahmadbek», «Tulumbiy», «Chor darvesh», «Rustami doston», «Tohir va Zuhra», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Sanobar», «Bo'z o'g'lon», «Bahrom va Gulandom», «Hurliqo va Hamro», «Aldarko'sa» kabilarni kiritish mumkin.

Xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va tadqiq qilish ishlari, asosan, XX asrning 20-yillaridan boshlab jonlandi.

O'zbek bilim hay'atining topshirig'i bilan Toshkent, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida xalq ijodi yuzasidan kuzatishlar olib borgan G'ozi Olim Yunusov 1922-yillarda shu joyda tarqalgan ko'plab ertak, qo'shiq, topishmoq va maqollarni to'pladi. Eposshunoslik tarixida birinchi marta Fozil Yo'ldosh o'g'li Hamroqul baxshidan «Alpomish» dostonining bir qismini yozib oldi. Olim o'z kuzatishlarining natijasini umumlashtirib maqola yozdi va unda o'zbek eposining yuksak namunalari: «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Yusuf va Ahmad» kabi dostonlar haqida ilk bor fikr yuritildi. Shu narsa diqqatga sazovorki, tadqiqotchi «Alpomish» dostonini jahon adabiyotida muhim o'rin tutgan mashhur «Odisseya», «Iliada» kabi eposlarga qiyoslab o'rganadi.

Yigirmanchi yillarning oxiriga kelib xalq san'atining turli tomonlarini tekshiruvchi tadqiqotlar yuzaga kela boshladiki, bu o'zbek folklorshunosligi o'z ilmiy yo'nalishiga ega bo'lib, uning asosi yaratilganligidan dalolat berardi. Bu asosning

yaratilishida, ayniqsa, taniqli folklorshunos Hodi Zarifovning xizmatlari salmoqli bo'ldi.

O'ttizinchi yillargacha qator maqolalari bilan tanilgan H.Zarifov 1939-yilda oliy o'quv yurtlari uchun «O'zbek folklori» qo'llanmasini yaratdi. Mazkur o'quv majmuasi olimning chuqur izlanishlari, muhim ilmiy xulosalari natijasida yuzaga keldi. O'ttizinchi yillarda o'zbek folklorshunosligiga Mansur Afzalov, Sharifa Abdullayeva, Miyonbuzruk Solihov, Yusuf Sultonovlar kirib kelishdi. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Shokir Sulaymon, Sharif Rizo kabi yozuvchi va shoirlar ham folklor bilan shug'ullandilar. Mansur Afzalov (1910-1973) atoqli o'zbek shoiri Islom Nazar o'g'li repertuarini, ijodini qunt bilan o'rgandi. Dostonchi ijodi haqida ko'plab maqolalar e'lon qildi. Undan «Orzigul» dostonini yozib olib, uni 1941-yilda nashr ettirdi. O'zbek xalq og'zaki ijodini to'plash va o'rganishda sezilarli yutuqlar qo'lga kiritilgan bo'lsa-da, bu yutuqlarni umumlashtiruvchi monografik tadqiqotlar yaratilmagan edi. 1947-yilda akademik V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar hamkorligida yaratilgan «O'zbek xalq qahramonlik eposi» kitobi mana shu ehtiyojlar tufayli yuzaga keldi. Ushbu monumental tadqiqotda birinchi marta o'zbek xalq dostonlari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilindi. Bu kitobning yaratilishi o'zbek folklorshunosligida muhim voqea bo'ldi. Keyinchalik mazkur kitob o'zbek xalq dostonlari haqida yangi-yangi tadqiqotlarning yuzaga kelishida asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

«O'zbek xalq qahramonlik eposi» kitobining birinchi bobida o'zbek xalq dostonlari va baxshichilik san'atining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Asarning ikkinchi bobida o'zbek xalq dostonlari janr xususiyatiga ko'ra qahramonlik, romanik, jangnoma, tarixiy va kitobiy kabi turlarga ajratib tasnif qilingan. Uchinchi bobda esa xalq dostonlarining g'oyaviy mazmuni, obrazlari, poetik xususiyatlari tahlil etilgan. Dostonlarning yaratilish davri haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Kitobning so'nggi bobi keyingi davrlarda yaratilgan yangi dostonlar tahliliga qaratilgan. «O'zbek xalq qahramonlik

eposi» kitobi 1958-yilda Germaniyada nemis tilida nashr etildi. Bu monumental tadqiqotning yaratilishi bilan o'zbek folklorshunosligida, xususan, xalq dostonlarini o'rganishda yangi bosqich boshlandi.

1950-yillarda o'zbek xalq eposini har jihatdan o'rganish va to'plash borasida Hodi Zarifov, Mansur Afzalov, Muzayyana Alaviya, Zubayda Husainovalar samarali ish olib bordilar. Ularning sa'y-harakatlari natijasida «O'zbek folkloridan namunalar» to'plami bosilib chiqdi. «Oysuluv», «Ravshan», «Malika ayyor», «Kuntug'mish», «Yodgor», «Orzigul», «Shirin bilan Shakar», «Rustamxon», «Intizor», «Murodxon» kabi dostonlar hamda «Alpomish» dostonining Fozil shoir varianti, shuningdek, «O'zbek xalq dostonlari» ikki tomligining nashr etilishi folklorshunoslikdagi muhim voqealardan biri bo'ldi. 1959-yilda folklorshunos olim Muzayyana Alaviyaning o'zbek xalq qo'shiqlari borasida olib borgan tadqiqotlari natijasi sifatida «O'zbek xalq qo'shiqlari» kitobi bosilib chiqdi.

1960-80-yillar orasida o'zbek folklorini ilmiy-nazariy o'rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, juda katta madaniy boyligimiz bo'lgan xalq dostonlarini har tomonlama o'rganish folklorshunoslikning diqqat markazida bo'ldi. Folklorshunos olimlar M.Saidovning «Malika ayyor» dostoni, «O'zbek xalq dostonlarida badiiy mahorat», T.Mirzayevning «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari» monografiyalari, M.Murodovning «Go'ro'g'li» turkumi dostonlari haqidagi tadqiqotlari o'zbek folklorshunosligiga qo'shilgan munosib hissa bo'ldi. Ayniqsa, H.Zarifovning «O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari», «Xalq ijodini nashrga tayyorlash prinsiplari» kabi maqolalari fan taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Akademik V.M.Jirmunskiyning 1974-yilda nashr etilgan «Turkiy xalqlar eposi» kitobida «Manas», «Alpomish», «Ediga» dostonlari haqida, shuningdek, «O'g'uz» qahramonlik eposi va «Kitobi dada Qo'rqut» kabi tadqiqotlari, «O'rta Osiyo xalq baxshilari» haqidagi tadqiqotlari jamlangan.

Keyingi yillarda folklorshunoslikda xalq baxshilari

ijodini o'rganishga alohida e'tibor berildi. Folklorshunoslar T.G'oziboyevning «Fozil Yo'ldosh o'g'li», O.Sobirovning

«Islom Nazar o'g'li», T.Mirzayevning «Xalq baxshilarining epik repertuari», M.Murodovning «Sarchashmadan tomchilar» kabi onografiyalari yaratildi.

O'zbek xalq ertaklari haqidagi dastlabki yirik tadqiqot M.Afzalovning «O'zbek xalq ertaklari haqida» nomli kitobidir. Muallif unda ertak turlari, uning o'ziga xos xususiyatlari haqida atroflicha fikr yuritgan.

Folklorshunos K.Imomovning «O'zbek satirik ertaklari» monografiyasida bu xildagi ertaklarning janr xususiyatlari, ularda an'anaviy sinov motivi, ertak va doston munosabatlari kabi muhim masalalar yoritilgan.

G'.Jalolovning «O'zbek xalq ertaklari poetikasi» monografiyasida esa, sehrli-fantastik ertaklarning genezisi va morfologiyasi masalalari tahlil qilingan.

Keyingi yillargacha og'zaki prozaning ertakdan boshqa namunalari tadqiqotchilar nazaridan chetda qolmoqda edi. Shu jihatdan qaraganda, Q.Imomovning «O'zbek xalq og'zaki prozasi», B.Sarimsoqovning «O'zbek adabiyotida saj'» kabi monografiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganishda M.Alaviyaning «O'zbek xalq marosim qo'shiqlari» kitobi alohida o'rin tutadi. Unda olimlar turli marosimlar bilan bog'liq qo'shiqlarning tarixiy ildizivaasosiy xususiyatlarini ilkmartatatsnif qilgan. Shuningdek, Sh.Turdimovning lirik qo'shiqlar, U.Jumanazarovning tarixiy qo'shiqlar, J.Qobulniyozovning «Xorazm xalq qo'shiqlari» to'plamlari bosilib chiqdi.

Yaqin yillarga qadar marosim folklori haqidagi tekshirishlar bir tomonlama bo'lib, ular, asosan, qo'shiq doirasida o'rganib kelinar edi. Bunday chalkashliklarga B.Sarimsoqov tadqiqotlari barham berdi. Uning «O'zbek marosim folklori» monografiyasida mavsumiy marosim va so'z shehri bilan bog'liq folklor turlari atroflicha tahlil etildi.

Folklorshunoslikda topishmoq, maqol singari kam o'rganilgan janrlarni tadqiq etish va nashr qilishda ham

muayyan yutuqlarga erishildi. Bu borada Z.Husainova va M.Afzalov xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Z.Husainova dastlab o'zbek xalq topishmoqlari to'plamini so'zboshi bilan nashr ettirdi, keyinchalik esa mazkur janr ustida olib borilgan kuzatishlarini maxsus monografik tadqiqot sifatida nashr ettirdi.

Monografiyada topishmoq janrining asosiy xususiyatlari, turlari, ularning kelib chiqishi, ma'rifiy-estetik ahamiyati chuqur tahlil etilgan. «O'zbek xalq maqollari» (1987-1988) ikki tomligining yuzaga kelishi o'zbek folklorshunosligining jiddiy yutuqlaridan biridir. O'n uch mingga yaqin maqolni o'z ichiga olgan bu to'plam akademik xarakterdagi salmoqli ishlardan biri hisoblanadi.

O'zbek folklorshunosligida kamo'rganilgan janrlar bo'yicha ham katta-kichik tadqiqotlar olib borildi. M.Qodirovning «O'zbek xalq og'zaki dramasi» (1963) monografiyasi xuddi shunday tadqiqotlardan bo'lib, muallif unda o'zbek xalq teatrining xarakteri, turlari, xalq aktyorlarining mahorati, g'oyaviy yo'nalishi, masxarabozlar repertuari kabi masalalarni batafsil tahlil qiladi.

Folklor asarlarida hajviy yo'nalish muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan qaraganda, H.Razzoqovning Farg'ona vodiysi ma'lumotlari asosida yaratilgan «O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va yumor» monografiyasi (1965) xarakterlidir.

Yozma adabiyot va folklorning o'zaro munosabatlarini o'rganish folklorshunoslikning ma'lum bir qismini tashkil qiladi. Bu borada professor N.M.Mallayevning «Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti» (1974) monografiyasi bu sohada qilingan ishlar orasida salmoqli o'rin egallaydi. Mazkur tadqiqotda Alisher Navoiyning folklorga munosabati, Alisher Navoiy asarlarida mifologiya, «Xamsa» qahramonlarining folklordagi zamini, Navoiy dostonlarining xalq variantlari, xalq og'zaki ijodida Alisher Navoiy obrazi kabi masalalar atroflicha yoritilgan.

M.Hakimovning «Alisher Navoiy lirikasi va xalq og'zaki ijodi» (1979) monografiyasi ham folklorshunoslik va adabiyotshunoslik uchun muhim bo'lgan tadqiqotlardan

biridir. Olimning ushbu monografiyasida Alisher Navoiyning xalq og'zaki ijodiga ilmiy-nazariy qarashlari, Navoiy lirikasining yetakchi janri bo'lgan g'azallarga xalq ijodining ta'siri hamda Navoiy she'riyatida xalq maqollarining tutgan o'rni va ahamiyati o'rganilgan.

Og'zaki va yozma adabiyot munosabatlarini o'rganishda muhim yo'nalishlardan biri folklor va yozma adabiyot zaminida yuzaga kelgan qissalarni (xalq kitoblari) tadqiq etishdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, V.Abdullayevning «O'zbek adabiyoti tarixi» darsligidagi mulohazalar, R.Majidovning «Xurshed va malikayi Dilorom», H.Oqbo'tayevning «Tohir va Zuhra» qissalari asosidagi kuzatishlari diqqatga sazovordir.

Bolalar folklorini o'rganish borasida ham muhim tadqiqotlar yuzaga keldi. Chunonchi, G'.Jahongirovning «O'zbek bolalar folklori» (1974) monografiyasida bolalar folklorining o'ziga xos xususiyatlari, turlari, tez aytishlar, topishmoqlar, bolalar qo'shiqlari va ertaklari, o'yin folklori kabilar tahlil qilingan.

Bundan tashqari, ushbu yo'nalishda O.Safarovning «Bolalarni erkalovchi xalq poeziyasi» (1981), «O'zbek bolalar poetik folklori» (1985) monografiyalarida o'zigacha o'rganilgan alla, bolalar qo'shiqlari, o'yinlari va boshqa janrlarni yangi ma'lumotlar bilan to'ldirib, bolalar folkloriga xos turli xususiyatlar aniqlangan.

O'zbek folklorshunosligi taraqqiyotidagi muhim yutuqlardan biri shundaki, folklor asarlarini ilmiy tadqiq qilish va nashr etishda samarali natijalarga erishildi. 1964-yildan boshlab «O'zbek xalq ijodi» ko'p tomligini nashr etishga kirishildi. Hozirgacha xalq og'zaki ijodining doston, ertak, qo'shiq, maqol va boshqa janrlariga kiruvchi ko'plab to'plamlar bosilib chiqdi.

Ajdodlarimiz og'zaki ijodini o'rganishdagi zarur ishlardan biri «O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar» seriyasining yuzaga kelishi bo'ldi. «Ergash shoir va uning dostonchilikda tutgan o'rni» (1971), «Fozil shoir» (1973), «Po'ltan shoir» (1976), «Islom shoir va uning xalq poeziyasida tutgan o'rni»

(1978) kabi davomli tadqiqotlarda xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari, atoqli baxshi-shoirlarning hayoti va ijodi, repertuari kabi masalalar o'rganildi. Shuningdek, «O'zbek folklorining epik janrlari» (1981), «O'zbek folklori ocherklari» (1988-1990) uch tomligi yaratildiki, umumlashtiruvchi xarakterdagi ushbu tadqiqotlarda xalq og'zaki ijodi janrlariga xos xususiyatlar, ularning taraqqiyot bosqichlari kabi masalalar chuqur ilmiy asosda yoritildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda xalqning azaliy orzusi bo'lgan mustaqillikka erishilgach, turli sohalarda bo'lganidek folklorshunoslikda ham yangi davr boshlandi.

Ma'naviyatimiz va madaniyatimiz tarixini chuqur o'rganib, targ'ib qilish, kishilarni xalqparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida ulardan foydalanish, madaniy yodgorliklarni tiklash, tarixiy obidalarni asrash, milliy urf-odatlarini, xalq og'zaki ijodini keng miqyosda obyektiv o'rganish va ularning namunalarini to'plash, hozirgi kunda yaratilayotgan moddiy va ma'naviy mulkni kelajak avlodlarga to'la yetkazish uchun barcha zarur choralarni ko'rish, yosh iste'dodlarning kamol topishiga har tomonlama ko'maklashish ana shu vazifalar sirasiga kiradi. Mana shu nuqtayi nazardan qaraganda, istiqlol yillarida milliy qadriyatlarimizning ajralmas bir qismi bo'lgan xalq ijodini o'rganish va targ'ib qilish uchun ham keng imkoniyatlar yaratildi.

O'zbek xalqining milliy iftixori bo'lgan «Alpomish» dostonining to'la ravishda xalqimizga yetkazilishi madaniy taraqqiyotimizdagi ulkan voqealardan biri bo'ldi. Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan «Alpomish» dostonining mukammal nashri 1998-yili taniqli eposshunos To'ra Mirzayevning «Dostonlarning gulto'ji» nomli so'zboshisi bilan chop etildi.

«Alpomish» dostonining 1998-yilda prof.T.Mirzayev tomonidan amalga oshirilgan akademik nashri Oysu Shimshek va Oynur Oz tomonidan turk tiliga o'girilib, 2000-yilda Anqarada bosilib chiqdi. Shuningdek, doston rus, nemis, ingliz va boshqa tillarga tarjima qilindi.

Ajdodlarimiz ijodiy dahosining bebaho badiiy yodgor-

liklaridan yana biri «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlardir. Rahmatulla Yusuf o'g'li repertuaridagi 27 ta bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan silsila dostonlar ham istiqlol yillarida nashr etildi. Mazkur turkumdagi dostonlar to'rt qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi 1996-yili «Go'ro'g'lining tug'ilishi» nomi bilan, ikkinchi qismi 1997-yili «Avazxon» nomi bilan e'lon qilindi. Va nihoyat, 2006-yilda dostonning to'rt jildi ham yaxlit holda chop etilib, o'quvchilarga taqdim qilindi.

Istiqlol yillarida xalq ijodiga bo'lgan e'tiborning kuchayishi natijasida folklorshunoslikda ilmiy-nazariy ahamiyatga molik bo'lgan ko'plab tadqiqotlar yaratildi va yaratilmoqda. I.Yormatovning «O'zbek xalq qahramonlik eposi badiiyati» (1994), S.Mirzayevaning «O'zbek xalq romanik dostonlari poetikasi» (2002), J.Yusupovning «Xorazm ertagi va hayot haqiqati» (1997), M.Jo'rayevning «O'zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar» (1991), M.Murodov, A.Ergashevlarning «Alpomishnoma» (1999), O.Madayevning ««Alpomish» bilan suhbat» (1999), «Xalq og'zaki poetik ijodi» (2001), A.Musaqulovning «O'zbekxalqlirikasi» (1995), Sh.Turdimovning «Soqibulbul» (1996), «O'zbek folklorshunosligi masalalari» (2006), M.Jo'rayevning «Folklorshunoslikka kirish» (2008), «Folklorshunoslik asoslari» (2009), M.Jo'rayev, U.Sattorovning «Bobolardan qolgan naqlar» (1998), T.Sabitova «O'zbek xalq dostonlarining nazariy asoslari va badiiyati» kabi o'zbek folklorining turli janrlarini o'rganishga qaratilgan monografiya va risolalarning, darsliklarning yaratilishi, shuningdek, «O'zbek xalq ijodi yodgorliklari» 100 jildligining nashr etilayotganligi, ko'plab xalq ijodi namunalarning chop etilishi o'zbek folklorshunosligining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

I QISM

1-Mavzu. Mustaqillik davrida “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”ni o‘rganishning yetakchi masalalari. Folklor ma’naviy tarbiyaning poydevori. Xalq og‘zaki ijodi so‘z san’ati sifatida

1. Xalq og‘zaki ijodi fanining maqsad va vazifalari.
2. Fanning asosiy manbalari, mazmuni va uning tarkibi.
3. Xalq og‘zaki poetik ijodining o‘ziga xos belgilari.
4. Xalq og‘zaki poetik ijodi haqida umumiy ma’lumot.

Tayanch iboralar: O‘zbek folklori, maqsadi va vazifa, manba, mazmun, tarkib, xalq og‘zaki poetik ijodi.

Darsning maqsadi. «O‘zbek folklori» fanining maqsadi va vazifalari haqida atroflicha ma’lumot berish.

Darsning vositalari. Ko‘rgazmali o‘quv qurollari, folklorshunos olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

Darsning metodi. Blits-so‘rov, an’anaviy ma’ruza, suhbat, loyihalar usuli, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. So‘z san’atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo‘lishi bilan yuzaga kela boshladi. Xalq og‘zaki poetik ijodi – o‘zbek folklori mehnatkash omma ijodi, xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, xalq san’atining boshqa turlaridan (musiqqa, teatr, raqs, o‘yin, tasviriy va amaliy san’at hamda boshqalardan) o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og‘zaki so‘z san’atidir. Har bir xalqning asrlar orzusini aks ettirgan boy og‘zaki so‘z san’ati bo‘lganidek, o‘zbek xalqining ham og‘zaki adabiyoti durdonalari mavjud. Mehnatkash omma tomonidan og‘zaki tarzda yaratilib, xalqning iste’dodli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan badiiy asarlar o‘zbek xalq poetik ijodini tashkil etadi.

Og‘zaki adabiyot xalq og‘zaki badiiy ijodi yoki «folklor» deb yuritiladi. «Folklor» termini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo‘llangan. Inglizcha

folk – *xalq*, *lore* – *bilim*, *donolik* *donishmandlik*, ya'ni «xalq bilimi», «xalq donoligi», «xalq donishmandligi» demakdir. Folklor – **sinkretik** xususiyatga ega bo'lib, xilma-xil san'at turlariga xos elementlarni o'zida mujassamlashtirgan. Uning ba'zi namunalari so'z va kuy uyg'unligida ijro etiladi. Doston va termalarni do'mbira jo'rligida kuylash an'anaviy bo'lsa, qo'shiq dutor va childirma jo'rligida kuylanadi.

O'zbek folklorshunosligiga «folklor», «o'zbek folklori» terminlarini birinchi marta Hodi Zarif kiritdi (1932, 1935). U oliy o'quv yurtlari uchun tuzilgan birinchi xrestomatiya kitoblarini «O'zbek folklori» deb atadi (1939, 1941). Ungacha «El adabiyoti», «Og'zaki adabiyot», «O'zbeklarda og'zaki adabiyot» kabi atamalar ishlatilar edi. Bu atamalar sohani aniq ifodalamasligi tufayli iste'moldan chiqib ketdi va hozirgi kunda «O'zbek folklori», «O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi» terminlari fanda mustahkam o'rnashib qoldi.

Milliy mustaqillik xalqimizning o'z bobolari zakovati tufayli yaratilgan ulkan madaniy merosga bo'lgan munosabatini tubdan yangilab, ajdodlarimiz tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlarini tizimini keng ko'lamda targ'ib etishning misli ko'rilmagan imkoniyatlarini ochib berdi. Istiqlol sharofati bilan dunyoqarashimizda, ongimizda ro'y bergan yangilanish, ruhiy poklanish va ma'naviy tiklanish jarayoni folklor san'atining taraqqiyotida ham yaqqol aks etmoqda. Zero, folklor san'ati an'analari «Mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalash»dek ulug'vor maqsadlarga xizmat qiladi.

O'lkamiz mustaqillikka erishganidan keyin xalq og'zaki ijodiyotiga bo'lgan qiziqish kuchaydi va bu narsa folklorini o'rgatuvchi, xalq og'zaki badiiy ijodi bo'yicha dars beruvchi, folklor san'ati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar oldiga ham dolzarb vazifalarni qo'ydi. Ayniqsa, an'anaviy folklorini tadqiq etish, uning qadimiy uzvlarini tiklash, nodir ijro yo'llari, folklor janrlari va ularning badiiyati haqida darslik, o'quv qo'llanmalari va dasturlar yaratish folklorshunoslikning kechiktirib

bo'lmaydigan vazifalaridan biriga aylandi.

Ajdodlarimizning ko'p asrlik badiiy tafakkur durdonalarini bebaho milliy qadriyatlar tizimi sifatida saqlab qolish, targ'ib va tadqiq etish, uning eng nodir namunalarini keng ommalashtirishda folklorshunoslik fanining xizmatlari benihoya kattadir. Asrlar davomida xalqimizni yuksak ma'naviy komillik ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadga xizmat qilib kelgan ana shu badiiy qadriyatlarni to'plash, folklor asarlarini arxivlashtirish, uning eng yaxshi namunalarini nashr etish, ilmiy o'rganish va ommalashtirish folklorshunoslikning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Folklorshunoslik fanining asosiy maqsadi va vazifalari bu fanning o'ziga xos ilmiy mezonlari va kriteriylarini ko'rsatish, folklorshunoslikdagi asosiy metodlar va ilmiy maktablar, hozirgi kunga qadar erishilgan asosiy natijalar, o'zbek folklorini mustaqillik davrida o'rganishning yangicha tamoyillari va bu fanning istiqbollari haqida chuqur bilim berishdan iboratdir.

Folklor asarlarida musiqa, raqs, teatr san'ati elementlari qo'shilib ketadi, shu sababdan folklor sinkretik san'at deyiladi. Ayni vaqtda, folklor asarlari san'atning boshqa turlaridan o'ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Folklorda so'z, kuy va ijro birligi doimo saqlanadi. Xalq og'zaki ijodi uzoq davrlardan beri tarixning yo'ldoshi, uning chinakam aks sadosi bo'lib kelgan.

Xalq og'zaki badiiy ijodini o'rganuvchi fan folklorshunoslik yoki folkloristika deb yuritiladi. Folklorshunoslik turli davrlarda va turli mamlakatlarda goh etnografiya, goh adabiyotshunoslik va musiqashunoslik, goh madaniyat tarixi, goh antropologiyani va, hatto, sotsiologiyani bir qismi kabi qaralib kelingan. Bizning mamlakatimizda esa xalq og'zaki badiiy ijodi mustaqil va maxsus fan sifatida rivojlandi. Shu bilan birga, folklorshunoslik tekshirish predmetining ko'lami va xilma-xilligi jihatidan adabiyotshunoslik va musiqashunoslik, etnografiya va antropologiya kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Tarixchilar tarixiy voqealarning xalq og'zaki ijodida qanday aks etganini o'rganadi; etnograflarni xalqning urf-odatlarini qiziqtiradi; san'atshunoslar esa folklordagi musiqa, raqs,

o'yin, xoreografiya va boshqalarni o'rganadilar; tilshunoslar xalq ijodi tilining lahja va dialektlari bilan, adabiyotshunoslar folklor asarlarining yozma adabiyot bilan munosabatlarini tekshiradilar.

Xalq poetik ijodi yozuv paydo bo'lmasdan ko'p zamonlar ilgari yuzaga kelgan. Uning yaratilishi va tarqalishi jonli og'zaki an'ana bilan bog'liqdir. Og'zakilik xususiyati uni xalq san'atining boshqa turlaridan (masalan, musiqa, raqs, o'ymakorlik) ajratib turadi. Folklor asarlarining uzoq asrlar davomida og'zaki yaratilishi va og'zaki ijro etilishi uning shakl va mazmuniga ta'sir etmasdan qolmas edi. Ma'lumki, ayrim tarixiy faktlarning to'liq esda qolmasligi, zamon taqozosi bilan unutilishi natijasida ularning asardan tushib qolishi yoki o'zgarishi, qorishtirib talqin etilishi mumkin. Shuning uchun ham tarixiy voqea va hodisalar folklorda aynan aks etavermaydi. Ba'zan esa dostonlarda mavjud bo'lgan she'riy parchalarning unutilishi mazkur janrni ertak shakliga keltirib ham qo'yishi mumkin. Yoki aksincha, ertakning dostonga aylanishi ham ehtimoldan holi emas. Folklor asarlarida yuz berishi mumkin bo'lgan bunday hodisa uning g'oyaviy-badiiy, estetik qimmatini kamaytirmaydi. Chunki har bir folklor asarida, u qaysi forma va janrda bo'lmasin, ijodkor xalqning voqelikka bo'lgan faol munosabati ifodalanadi. Shuning uchun ham, folklor asarlari g'oyaviy-badiiy jihatdan puxta ishlanadi.

Xalq og'zaki ijodining o'z ijodiy metodi mavjudligi. Uni shartli ravishda romanizm tipidagi ijodiy metod deyish mumkinligi, chunki folklor asarlarida fantastika, badiiy uydirmalar, hayotiy asos bo'lishi, yo'g'rilgan xayoliy voqea va hodisalar hayotni tasvirlashning o'ziga xos uslubi sifatida namoyon bo'lganligi.

«Folklor» termini haqida tushuncha. Xalq og'zaki badiiy ijodi tarixi va uning asosiy janrlari. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi va boshqa xalqlar folklorining mushtarakligi, farqli tomonlari va an'alarining badiiy ifodasi sifatida.

Xalq og'zaki poetik ijodining asosiy xususiyati ijodiy jarayon- yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining kollektivlik

xarakteriga egaligi. Uning og'zakilik, variantlilik, ommaviylik, traditsionallik, anonimlik kabi belgilari, kollektiv tomonidan yaratilgan poetika elementlari, an'anaviy uslub vositalari asosida yuzaga kelishi. U muayyan eshituvchilar guruhiga mo'ljallangan bo'lishi va kollektiv tomonidan e'tirof etilgandagina ijtimoiy va tarixiy ahamiyat kasb etishi.

Folklor namunalari og'zaki yaratilib, og'zaki ijro etilishi. Xalq og'zaki poetik ijodining kollektivlik xarakteri individual ijodkorlar faoliyatini inkor etmasligi. Iste'dodli ijodkorlar folklor namunalari saqlab qolishi va keng ommalashtirish bilan birga og'zaki an'analar doirasida uni yanada mukammallashtirgan holda yangilarining yaratilishi.

Folklor asarlari o'zining hayotiyligi, ijtimoiy tabiati, g'oyaviy mohiyati hamda o'ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xalqning mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g'alabalari uning mavzusi va g'oyaviy mazmunida aks etadi. Bu xususiyat, asosan, tom ma'nodagi so'z san'ati, doimo mehnatkash el manfaati, orzu va istagi, intilishlariga mos keladi. Folklor so'z san'atining boshlang'ichi, yuksak mahoratli badiiy tuzilishidir. Xalq og'zaki ijodining har bir namunasi asrlar davomida ko'plab iste'dodli xalq ijodkorlari tomonidan yuksak san'at namunasi darajasiga ko'tarilgan. Bugina emas, folklor san'atning boshqa turlari adabiyot, teatr, musiqa, kino va boshqalarning taraqqiyotida ham muhim rol o'ynadi va o'ynamoqda.

Folklori o'rganish tarixi, unga nisbatan faqat ilmiy maqsadlarda yondashilganlikni kuzatish bilangina cheklanmaydi, balki insoniyat tafakkuri taraqqiyotida unga turlicha munosabatda bo'lgan ilm-fan va madaniyat arboblarning adabiy qiziqishlarini ham hisobga olishni taqozo etadi. Shu ma'noda, folklorshunoslik asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to'g'risidagi ilk fikrlari folklorshunoslik uchun muhimdir. Folklori yozib olishdagi birinchi tajribalar XI asrdan boshlab

ko'zga tashlanadi (Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asaridagi folklor materiallari). Ayni paytda yozuvchilar tomonidan xalq ertaklari, miflar, afsona va rivoyatlarini qayta ishlash jarayoni ham boshlanadi. XX asrning boshlarigacha o'zbek folklori bilan hech kim shug'ullanmagan, unga nisbatan qiziqish bo'lmagan, degan ma'no chiqmaydi, albatta. Mahmud Koshg'ariy yig'gan mehnat, urf- odat, mavsum-marosim qo'shiqlari, afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, ularning mazmuni, qo'llanish o'rni haqidagi ma'lumotlar, Abulqosim Mahmud Zamaxshariyning maqol va matallarning badiiy xususiyatlari haqidagi mulohazalari, Alisher Navoiy, G'iyosiddin Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Darvish Ali Changiy, Vosifiy asarlaridagi mavjud qayd va izohlar folkloristika tarixi uchun muhim ahamiyatga ega.

XX asrning II choragidan boshlab xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va u haqidagi ilmiy tadqiqotlarni e'lon qilish ancha izga tushdi. Elbek, G'.O.Yunusov, G'ulom Zafariy kabi olimlar xalq og'zaki ijodiga oid bo'lgan ayrim janrlarni yozib olishga va ilmiy maqolalar e'lon qilishga erishdilar. Bu o'rinda folklorshunos olimlardan Hodi Zaripov, To'ra Mirzayevning xizmatlari kattadir.

Akademik To'ra Mirzayev xalq og'zaki ijodining yirik janri bo'lgan dostonlarni Fozil Yo'ldosh o'g'lidan, Ergash Jumanbulbul o'g'lidan, Po'ltan shoir tilidan «Alpomish», «Shayboniyxon»,

«Rustamxon», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Hasanxon», «Avazxon», «Yunus pari», «Misqol pari» kabi dostonlarni yozib oladi. Folklorshunos olimlardan Mansur Afzalov, Muzayana Alaviya ham xalq og'zaki ijodini to'plab nashr ettiradilar. Xususan, Muzayana Alaviya xalq qo'shiqlarini to'plab, birinchi marta e'lon qildi. Keyinchalik folklorshunos olimlarning qatoriga X.Imomov, Z.Husainova, B.Sarimsoqov, Z.Mirtursunov, J.Qobilniyozov kabi olimlar qo'shildilar va qator monografiya, risolalar e'lon qildilar. Eng diqqatga sazovor tomoni shundaki, 1964-yildan boshlab 45 tomga mo'ljallangan o'zbek xalq ijodi asarlarini nashr etishga kirishildi va bir necha tomlari, jumladan, «Intizor», «Dastagul», «Murodxon», «Orzigul» va

boshqa dostonlar nashr ettirildi.

Yuqorida amalga oshirilgan ishlardan so'ng folklorshunos olimlar M.Saidov, M.Murodov, B.Sarimsoqov kabilarning xalq dostonlariga doir tadqiqotlari e'lon qilindi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, xalq baxshilari Ergash Jumanbulbul o'g'lining, Fozil Yo'ldosh o'g'lining, Islom shoirning, Po'ltan shoirning asarlarini o'rganishda yangi bosqich boshlandi. Xalq og'zaki ijodining ikkinchi nasriy turi ertaklar haqidagi birinchi tadqiqot M.Afzalov tomonidan «O'zbek xalq ertaklari» haqida kitobi nashr ettirildi. K.Imomovning esa «O'zbek satirik ertaklari» monografiyasida ham ertak janri xususiyatlarini yoritib berildi. Shu bilan birga, ertaklarni nashr etishga ham alohida e'tibor berildi. M.Afzalov, Z.Husainova, X.Rasulovlar tomonidan «O'zbek xalq ertaklari»ning ikki tomligi nashr ettirildi. Xalq qo'shiqlarini o'rganishda esa M.Alaviyaning «O'zbek xalq marosim qo'shiqlari» monografiyasi alohida o'rinda turadi.

O'zbek folklorshunosligining yetakchi ilmiy maktablari va ularning asosiy nazariyalari, folklori o'rganishning asosiy metodlari to'g'risida ham mufassal ma'lumot beriladi. Chunki o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodini o'rganuvchi mutaxassis folklorshunoslik tarixida «Fin maktabi», «Mifologik maktab», «Tarixiy maktab», «Antropologik maktab», «Ritual-mifologik maktab» kabi nomlar bilan atalgan ilmiy maktablarning izlanishlari va ular tomonidan yaratilgan ilmiy-nazariy konsepsiyalarning xalq ijodini tadqiq etishdagi ahamiyatini yaxshi bilishi, ularning filologik tadqiqotlar tizimida tutgan o'rniga to'g'ri baho bera bilishi lozim.

O'zbek folklori xilma-xil janrlardan tarkib topgan behad qadimiy so'z san'ati bo'lib, unda o'tmishda yashagan ajdodlarimizning turish-turmushi, dunyoqarashi va e'tiqodi, kurash va mag'lubiyatlari ifodalangan. V.M.Miller xalq ijodiyotiga «xalqshunoslikning tarkibiy qismi»⁴ sifatida qarab, uning xalq rasm-rusumlarini ifodalagan etnografik mohiyatini ta'kidlaydi. Folklorning betakror so'z san'ati sifatidagi mohiyati xalq

⁴ Миллер В.Ф. Лекции по истории русской народной словестности. М., -1911.

turmushini ifodalaganligi tufayli etnografiya bilan, xalq ruhiyati va e'tiqodiy qarashlarini aks ettirib ruhshunoslik va din tarixi bilan, xalq axloqiy qarashlarini ifodalab tarbiyashunoslik bilan, musiqa, raqs va harakatlarga omuxtaligi bois san'atshunoslik bilan va, nihoyat, jonli so'zlashuv tilida yaratilganligi sababli tilshunoslik fanlari bilan singishganligida namoyon bo'ladi.

Folklorda an'anaviylik o'ziga xos xususiyatlardan bo'lib, uning g'oyaviy – estetik mohiyatini belgilaydi. An'anaviylik xalq ijodida u yoki bu asar matnining og'izdan og'izga o'tishi jarayonida nisbatan barqarorliknigina anglatib qolmay, balki o'sha asarning avloddan avlodga o'tish jarayonida dastlabki ijrosiga xos xususiyatlarni, kuyi va shaklini, ifodaviy vositalari va qahramonlarini nisbatan o'zgarmagan holda saqlab qolganligini ham anglatadi.

Xalq ijodiyotida an'anaviylik g'oyaviy-badiiy mazmunda keng ko'lamga ega. Zero, mavzu mohiyatiga ko'ra uning barcha tur va janrlaridagi namunalarida Vatan, xalq va mehnatni ulug'lash, adolatsizlikka nafrat bilan qarash, do'stlik va birodarlikni qadrlash, chin insoniy muhabbatni sharaflash mushtarak an'anaviy motivlardir. Shuningdek, an'anaviylik folklorning har bir turi va janrining kompozitsion tarkibiga xos unsurlar umumiylikni ham namoyon etadi. Aytaylik, qo'shiq janri tabiatiga daxldor an'anaviy unsurlarning hammasi ham doston janri tabiatiga to'g'ri kelavermaydi. Dostonlargagina xos an'anaviy epik ko'lamdorlik, epik qoliplar, umumiy tipik o'rinlar va boshqalar qo'shiqlarda uchramaydi. Lekin bular xalq eposi uchun an'anaviy unsurlar sanaladi. Yoki xalq eposini an'anaviy boshlanma va tugallanma, otni egarlash va ta'riflash, otda bahodirona chopish, janglar tasviri, safarga otlangan qahramonga nasihat qilish, jangga kirish oldidan o'zini maqtashi, sevishtganlar uchrashadigan chorbog'lar tavsifi, malikalar, kanizaklar, ko'sa va maston kampirlar tasvirisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bularsiz dostonlarda an'anaviy sujet qurilmasini tasavvur qilish qiyin.

An'anaviylik folklorninggina emas, balki xalq musiqasi, raqsi va amaliy san'atining ham o'ziga xos belgisi sanaladi.

An'anaviylik o'zining ijtimoiy-tarixiy manbalariga ega. Chunonchi, folkorning ilk namunalari ibtidoiy jamiyatda yaratilgan, ularda o'sha zamon kishilarining nisbatan qaror topgan urf-odatlar va hayotga oid qarashlari aks etgan. Bu hol folklor asarlari shakli, obrazlari va motivlari muayyan barqarorlik kasb etishini ta'minlagan. Folklor asarlari jonli ijro jarayonidagina yashaydi. Uning ayrim janrlarida so'z va kuy omuxtaligi yetakchi bo'lsa, ayrimlarida sahna san'ati unsurlari ustun turadi. Bu hol folklor asarlariga qorishqlik (sinkretiklik) xususiyatini baxsh etgan. Folklor namunalari ijrosi xilma-xil san'at turlariga xos unsurlarni o'zida mujassamlashtirgan. Uning talay namunalari so'z va kuy uyg'unligida ijro etiladi. Chunonchi, doston va termalarni do'mbira jo'rligida kuylash an'anaviy bo'lsa, qo'shiq dutor, childirma jo'rligida kuylanadi. Aksariyat folklor asarlarida so'z yetakchi o'rinni egallaydi. Ertak, afsona, naql, rivoyat, latifa, maqol va topishmoq janrlari shunday xarakterga ega. Xalq ertaklarida, xalq dramasida harakat va mimika muhim qiymat kasb etadi. Biroq ko'pgina asarlar ijrosida kuy g'oyaviy-badiiy mazmunni ifodalashda bir qadar qiymat kasb etsa-da, baribir so'z mazmunini ochuvchi asosiy vosita bo'lib qolaveradi. Bu folklorning so'z san'ati sifatidagi mohiyatini to'la-to'kis tasdiqlaydi.

Xalq – folklorning ijodkori. Folklor qabila, urug', elat, xalq yoki millatning mafkurasi va ruhiyatini aks ettiradi. Uning paydo bo'lishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ibtidoiy jamiyatda folklor hayot bilan mustaqil kurash vositasiga aylanib shakllandi. Qoyalardagi tasvirlar, bolta va boshqa mehnat qurollari qadimiy ajdodlarimizning tabiiy tuyg'ularini shakllantira bordi, hayvonlardan farqli o'laroq, badiiy ijod qilish iqtidorini uyg'ota boshladi, ulardagi ma'naviy kuchning qo'pol amaliy ehtiyojlar asirligidan qutulishiga ko'maklashdi. Xayolga erk berish zaminida ibtidoiy odamda estetik tuyg'u shakllana bordi, go'zallikni tushunish va anglash teranlashdi va shular zaminida xalq og'zaki ijodiyotining dastlabki namunalari yuzaga keldi. Mehnat jarayoni, ijtimoiy taraqqiyot tufayli mehnatning turli tarmoqlarga taqsimlanishi esa, o'z navbatida, so'z san'atini

ham shaklan, ham mazmunan xilma-xil xarakter kasb etishini ta'minladi.

Jamiyat taraqqiyoti o'zgargan sari ijtimoiy tabaqalanish chuqurlasha bordi: xalq ikki ijtimoiy guruhga hukmronlik mavqeyidagi xo'jayinlar va ularga itoat qilishga mahkum qilingan mehnatkashlar toifalariga bo'lindi. Bu hol manfaatdorlik nuqtayi nazaridan ular o'rtasida ma'lum ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Natijada, folklorda zolimlardan norozilik, zolim kuchlarga nafrat motivlari paydo bo'la boshladi. Mazlum omma hayot haqidagi tushunchalarini, ijtimoiy- siyosiy, tarixiy-falsafiy, badiiy-estetik, diniy-axloqiy qarashlarini ifoda etish bilan folklor asarlarining g'oyaviy mazmundorlik jihatidan xalqchilligini ta'minladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida aks etgan ijtimoiy-tarixiy voqealar hamisha oddiy mehnat kishilari – umumxalq manfaatlari nuqtayi nazaridan baholanadi. Folklorda xalq optimizmi yengilmas qudratga ega pafos darajasiga ko'tarilgan.

Folklor qadimiy so'z san'ati sifatida nafaqat chuqur g'oyaviyligi, balki yuksak badiiyligi bilan ham ajralib turadi. Unda voqelikni ifodalashning doston, ertak, maqol qo'shiq, topishmoq, afsona, rivoyat va askiya singari xilma-xil janrlari shakllangan.

Folklor asarlari tili – jonli so'zlashuv tili, shu bilan birga, arxaik ifodalar va dealektizmlar ular uchun norma sanaladi. Bu xususiyati bilan folklor tili adabiy jihatdan sayqallangan badiiy adabiyot tilidan farq qiladi. Folklor tili – muttasil harakatdagi jonli so'zlashuv tili bo'lib, hamma zamonlarda ham adabiy tilning boyish manbayi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi.

O'zbek xalq ijodiyotida ifodaviy-tasviriy vositalarning badiiy adabiyotdan farq qiluvchi o'ziga xos butun bir tizimi ishlangan. Bu xalq qo'shiqlaridagi ramziy obrazlar, doimiy sifatlashlar, an'anaviy qoliplar (klishe'lar), turg'un iboralarning farovonligida, folklor asarlari tilida erkalovchi, kichraytiruvchi qo'shimchalarning serobligida, ayniqsa, muvoziylik (parallelizm), mubolag'a va saj'ning behad faol va o'ziga xos qo'llanilishida yorqin ko'rinadi.

Folklor asarini aniq ijodkorga nisbat berib bo'lmaydi.

Ularning yaratilishi paytini ham aniq ko'rsatishning imkoni yo'q. Chunki folklor asari uzoq muddatli ijodiy jarayonda og'izdan og'izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib yuzaga keladi va yashaydi. Badiiy adabiyot namunasining muallifi ham, yozilgan vaqti ham ma'lum bo'ladi. Folklor asarlari muallifining noaniqligi – anonimligi (grek. *anonymis-noma'lum*) o'sha asarning qachonlardir individual ijodkor tomonidan yaratilganligini inkor etmaydi. V.G.Belinskiy aytganidek, folklorda «mashhur nomlar yo'q, uning muallifi hamisha xalqdir. Uning navqiron xalq yoki qabila ichki va tashqi hayotining jimjimalarsiz va aniq tasvirlangan oddiy va soddagina qo'shiqlarini kim to'qiganini hech kim bilmaydi. Bu qo'shiq urug'dan urug'ga, avloddan avlodga o'tadi va vaqtlar o'tishi bilan o'zgarib boradi. Goh uni qisqartirishsa, goh uzaytirishadi, goh yangidan to'qishadi, goh unga boshqa qo'shiqni ulashsa, goh unga qo'shimcha qilib boshqa bir qo'shiqni to'qishadi – shunda qo'shiqdan doston chiqadi. Faqat xalq unga o'zini muallif sanay oladi. Adabiyot – boshqa ish, endi xalq emas, balki xalq hayotining turli tomonlarini o'z aqliy faoliyatlarida aks ettiruvchi alohida shaxslar uning arbobi. Adabiyotda shaxs to'la huquq bilan maydonga chiqadi va adabiy bosqich hamisha shaxslarning nomi bilan ajralib turadi».⁵ Ko'rinayotirki, folklor asarlari qachonlardir noma'lum shaxs (indiv) tomonidan to'qilsa-da, og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tish jarayonida jamoa (kollektiv) ijodkorligi namunasiga aylanadi, jamoa ijodiy salohiyatidan to'lishib, mukammallashib, g'oyaviy-badiiy kamolot kasb eta boradi.

Abdurauf Fitrat bu masalaga o'z munosabatini bildirar turib, og'zaki va yozma adabiyotlarning o'zaro tafovutli xususiyatlariga to'xtalarkan, «buning ayirmasi yozma bo'lmasligida, yo egasining ma'lum emasligini»ni ta'kidlab, «har bir doston, maqol, topishmoq, ashula, asosan, bir kishi tomonidan chiqoriladir-da, so'ngra umumiy lashib ketadir», - deya folklor asari ham individual ijoddan boshlanajagiga, so'ngra «umumiy lashib» jamoa ijodi mahsuliga aylanishiga

⁵ Белинский В.Г. Полн. Собр. Соч. В. 13 томах. – Т. 5, М., 1954. с. – 625

ishora qiladi. Shu bilan birga, u folklorning asl mohiyatini xalqona ruhga sug'orilganligida ko'radi. Shu ma'noda, folklor betimsol og'zaki badiiy-ma'naviy boylik ijodkori bo'lgan xalqning o'zi haqidagi fandir.

Shuni aytish o'rinliki, folklor qadim zamonlarda jamoaning ommaviy ijodi sifatida yuzaga kelgan edi. Ilk namunalariyoq hammabop va ommabop to'qilgan bo'lib, uning ijrosiga mo'ljallangan. O'sha zamonlarda shaxsiy ijodkor jamoadan hali to'la-to'kis ajralib chiqmagan edi. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarining takomillasha borishi, xalq estetik tafakkurining o'sishi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi jarayonida davrlar o'tishi bilan alohida ijrochilar – qo'shiqchilar, ertakchilar, baxshilar, qissasoz-u qissaxonlar, latifago'ylar (bazlago'ylar), hazzollar (hazilkashlar), qiziqchilar, xalfalar o'z mahoratlari bilan yarqirab ko'rina boshladilar. Ammo bu talantlar ham jamoa dahosi bilan to'qilib, og'izdan og'izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan asarlarni kuylar, ijro etar va, albatta, shu jarayonda o'zidan ham nimanidir qo'shib, individual mahoratlarini namoyon etar edi. Tilla kampir, Sulton kampir, Jolmon baxshi, Bo'ron shoir, Jumanbulbul, Josoq, Xonimjon xalfa, Bibi shoira, Ernazar baxshi, Riza baxshi, Suyar baxshi, Amin baxshi, Yo'ldoshbulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Xidir shoir, Yo'ldosh shoir, Suyar shoir, Sherna yuzboshi, Mulla Xolnazar, Haybat soqi, Qunduz soqi, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'lkan Jonmurod o'g'li, Islom Nazar o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Abdulla shoir, Umir Safar o'g'li, Nurmon Abduvov o'g'li, Xolyor Abdukarim o'g'li, Bola baxshi, Bolta baxshi, Qodir baxshi Rahim o'g'li va boshqalar o'z individual ijrochiliklari tufayli jamoa dahosi bilan yaratilgan asarlarni avloddan avlodga etkazib keldilar. Ularning ba'zilar esa shu jamoa ijodkorligiga xos an'analarga mustahkam tayangan holda o'zlari ham ijod eta boshladilar, aniqrog'i, an'anaviy dostonlar kuychisi darajasida qolib ketmay, baxshilikdan shoirlik darajasigacha ko'tarildilar. Folklor – og'zaki ijod. Og'zakilik – xalq ijodining yashash va yaratilish tarzi. Chunki u hali yozuv kashf qilinmagan uzoq

o'tmishdagi ajdodlarimiz turish-turmushining, dunyoqarashi va e'tiqodining, kurashlardagi zafari va mag'lubiyatlarining ifodachisi sifatida yuzaga kelgan. Folklor og'izdan og'izga o'tib yashasa, badiiy adabiyot yozuv vositasida yashaydi. Folklor asari og'zaki aytiladi (ertak, maqol, topishmoq, rivoyat, afsona, latifa, naql va boshqalar), ijro etiladi (doston, og'zaki drama, lof, askiya va boshqalar), kuylanadi (qo'shiq). Badiiy adabiyot esa faqat o'qiladi, ijrosiga xos xususiyatlar esa folklordan ijodiy o'zlashtirilgan. Og'zakilik folklorning o'zgarimas shakli bo'lib, o'z navbatida, xotirada saqlamoqni, yodlab eslamog'ni taqozo etadi. Buning uchun esa kuchli hofiza zaruriyatga aylanadi. O'zbek baxshi va shoirlari orasida qirqdan ziyod an'anaviy dostonlarni, tag'in qanchadan qancha termalarni bilgan, kuylagan, yana o'zi to'qiganlarning borligi shu an'anaviy ehtiyojning hosilasidir.

Folklor asari og'izdan og'izga o'tishi tufayli shaklan va mazmunan qanaqa o'zgarishga uchramasin, bu hol uning g'oyaviy- badiiy, ijtimoiy-estetik qimmatini tushirmaydi. Chunki unda ijodkor xalqning voqelikka munosabati aks etgan. Folklor asarlarining og'izdan og'izga o'tib, uzoq asrlar davomida yashab kelayotganining asosiy sababi shunda.

Davrlar o'tishi bilan ayrim folklor janrlari badiiy tizimida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, yangi dostonlarda, garchi an'anaviy dostonchilikka xos, epiklikka, tayyor qoliplarga, motivlarga suyanilsa-da, biroq bular endi an'anaviy dostonlardagidek g'ayritabiiylik asosida emas, balki hayotiy reallikka, obyektivlikka asoslangan holda ifodalanadigan bo'ldi. An'anaviy dostonlarning ideal qahramonlari g'ayritabiiy kuchlar madadkorligida harakat qilib g'alaba qozonsa, yangi dostonlarning qahramonlari real tarixiy shaxslar bo'lib, ular yangi voqelikka suyanib harakat qiladi va o'z maqsadiga erishadi. Bunday farqni an'anaviy dostonlar bilan yangi dostonlar konfliktini misolida ham ko'rish mumkin. Konflikt an'anaviy dostonlarda yakka shaxs manfaati taqozosi, yangi dostonlarda esa omma manfaatlari taqozosi hosilasidir. Binobarin, yangi dostonlar konfliktini hayotiy zaminga ega va uning yechimi ham realdir.

Xalq ijodiyoti namunalari jonli ijro jarayonida xilma-xil variantlardagina yashaydi. Variantlik – folklarning jonli yashash tarzi. «Variantlik, – deb yozadi T.Mirzayev, – folklor tabiati, uning estetikasi, yaratilishi va jonli og‘zaki ijroda yashash qonuniyatlari hamda funksiyasidan kelib chiqqan xususiyatidir. U folklarning hamma tomonlari va elementlarini – sujeti, obrazlilik, stilistikasini, umuman, poetikasi va janr xususiyatlarini qamrab oluvchi belgisidir».⁶ Binobarin, variant – ma’lum bir asarning jonli og‘zaki epik an’ana zaminida vujudga kelgan, bir-birini inkor etmasdan yonma-yon yashay oladigan va o‘zaro faqlanuvchi turli-tuman matnlaridir. Chunonchi, «Alpomish» dostoninng yigirma sakkiz dostonchidan yozib olingan o‘ttiz uchta to‘liq parcha va mazmunidan iborat variantlari mavjud.

Variantlar na mazmun, na shakl jihatlaridan farq qilmasligi mumkin. Lekin ularda qay bir ma’nosi yaqin so‘z almashingan bo‘lsa- da, motiv an’analigiga xalal yetmaydi.

Anoring dona-dona, Ko‘yingda men devona.

Ikkilikning bu varianti ikkinchi shaxsdagi «anoring» so‘zi keyingi variantda uchinchi shaxsdagi «anori» shaklini olgan, «ko‘yingda» so‘zi «ishqida» so‘zi bilan almashingan: natijada, birinchi ikkilikda qahramon lirik «sen»ga, ikkinchisida esa lirik «u»ga izhori ishq aylayotir. Motivdagi shu tafovutning o‘ziyoq ularning har biriga mustaqil asar, aniqrog‘i, el orasida keng tarqalgan qo‘shiqning bir-biridan farqlanuvchi variantlari sifatida qarashga asos bo‘la oladi:

Anori dona-dona, Ishqida men devona.

Xalq ijodiyotida variantlar bir-birlaridan, avvalo, asar matnining saqlanishi, ya’ni to‘laligi, qisqarganligi, parcha holiga kelganligi yoki kontominatsiya (lotincha: contaminatio – bir-biriga tegdirmoq, aralashtirmoq, qorishtirmoq)ga uchraganligi, so‘ngra esa badiiy shaklining o‘zgarib turishi, aytaylik, band yo bayt tarkibining o‘zgarib turishi, bir matnning goh u va goh boshqa bir janr tarkibida o‘rin almashtirishi natijasida farqlilik kasb etadilar. Shu sababli folklorda har bir variant to‘la va teng huquqqa ega mustaqil asar sanaladi.

⁶ Mirzaev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. –T.: «Fan», 1979, 71-b.

Variantlikning muhim xususiyati versiya ichida harakat qilishidir. Binobarin, versiya mohiyatan ancha keng hodisa bo'lib, «kompozitsion va g'oyaviy-badiiy tasvir vositalari jihatidan bir- biridan prinsipial ravishda keskin farq qiluvchi xalq og'zaki poetik ijodining bir sujet va janrdagi namunalari (tekstlari)»⁷ dan tashkil topgan. Chunonchi, «Alpomish» dostonining o'zbek, qoraqalpoq, qozoq va boshqa xalqlarga mansub versiyalari kabi. Gohida birgina doston birgina xalqning o'zida ham ikki va undan ortiq versiyaga ega bo'lishi mumkin. Masalan, «Alpomish», «Shirin bilan Shakar» va «Sohibqiron» dostonlari o'zbek xalqi orasida ikki versiyada tarqalgan.

Variantlilik folklor asarlarining xalqchilligini hamda tarqalish chegarasini belgilaydi, folklorda kechayotgan o'zgarishlarning sabablarini o'rganish asosida xalq ijodiyotidagi jarayonlarga xos qonuniyatlarni ochish uchun boy material beradi.

Demak, badiiy adabiyot, o'z navbatida, ikki yirik turga bo'linadi: xalq og'zaki adabiyoti (folklor), yozma adabiyot (individual ijod). Xalq og'zaki ijodi deb atalgan adabiyot yozma adabiyotdan bir necha xususiyatlari bilan farqlanadi.

An'anaviylik. An'ana deganda, uzoq vaqt davomida xalq tajribasidan o'tib odat tusiga kirgan tadbir yoki amal tushuniladi. Xalq og'zaki ijodidagi an'anaviylik bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Jumladan:

a) folklor asarlarining og'zaki tarzda yaratilishida (bu haqda og'zakilik yuzasidan fikr yuritilganda ma'lumot beriladi);

b) og'zaki ijod asarlarining matnida;

c) mazkur asarlarning ijrosida.

Xalq yaratgan asarlarning matni janrlarga ko'ra uzoq muddat davomida doimiy ravishda takrorlanib turadigan qismlarga ega. Ertaklarning boshlanishi, yakunlanishi, xalq dostonlaridagi qahramonlarning ot egarlashi, poygada qatnashishi, dushman bilan jang olib borishi kabi lavhalari, folklor asarlaridagi an'anaviy motivlar asardan asarga

⁷ O'sha asar, 75-b.

ijrochining ixtiyori va mahoratiga ko'ra ko'chib o'taveradi. Undan tashqari, doston va ertaklarda ko'pincha takrorlanib turadigan farzandsizlik, farzandga ega bo'lish, shartning buzilishi, safarga chiqish, turli to'siqlarni bosib o'tish, to'y kabi voqealar ham an'anaviylikka xosdir. Agar biz xalqimiz yaratgan og'zaki ijod asarlari bilan yaxshiroq tanishsak, ertakdagi suluv qiz yuzining o'n to'rt kunlik oyga o'xshatilganligini, jahli chiqqan qahramonimiz mo'ylovida qirov paydo bo'lganligini yoki shu qahramon bir oyog'ini daryoning o'ng qirg'og'iga, ikkinchi oyog'ini chap qirg'og'iga qo'yib, narsalarni u qirg'oqdan bu qirg'oqqa o'tkazayotganini bilamiz.

Ma'lum bo'ladiki, og'zaki ijodiyotimizdagi asarlarda o'xshatish, sifatlash, mubolag'a kabi tasvir vositalarida ham an'anaviylik namoyon bo'lar ekan. Shuningdek, biz folklorda ajdar, dev, yalmog'iz kampir, pari, uchar ot, uchar gilam, sehrli pat kabi obrazlarga duch kelamiz. Bu o'rinda ham an'anaviylik ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazganligiga guvoh bo'lamiz. Shunday qilib, og'zaki ijod asarlari matnidagi an'anaviylik deganda, an'anaviy parchalar, tasvir vositalari, obraz yaratish kabi bir necha jihatlar nazarda tutiladi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini ijro etishda ham an'anaviylik mavjuddir. Avvalo aytish kerakki, O'zbekistonda xalq dostonlarini ijro etish an'anasi uch ko'rinishga egadir. Ularni Samarqand, Xorazm, Farg'ona dostonchilik an'analari deb ataydilar. Samarqand dostonchiligida baxshi dostonni yakka holda do'mbira jo'rligida ichki ovozda aytadi. Xorazmda esa doston tor, doira, dutor, garmon jo'rligida ochiq ovozda aytiladi. Ko'rinib turibdiki, o'zbek xalq og'zaki ijodining salmoqli qismini tashkil etuvchi dostonlar ijrosi uzoq muddat davomida o'ziga xos an'anada shakllangan. Shuningdek, uzoq o'tgan zamonlarda xalq topishmoqlari ko'pincha qish kechalarida, qiziq-qiziq shartlar (qo'shiq aytib berish, raqsga tushish, hatto, qor kurash) bilan aytilgan. Qo'qon, Namangan, Xorazm va boshqa viloyatlardagi maxsus tayyorgarlik ko'rgan odamlar ertakni aytishdan avval atrofiga suv, isiriq, non, tuz, supurgi va boshqa shunga o'xshash narsalarni hozirlar, ertak ijrosi jarayonida ulardan foydalanar

edilar. Askiya ulfat yigitlarning gap-gashtaklarida, o'zaro yig'ilib osh-palov qilish paytlarida aytilgan. Ammo ko'pincha bu janr asarlari an'anaviy sunnat to'ylarida, hofizlar dam olayotgan paytda, tarafma-taraf bo'lgan holda ijro etilgan. Marosim qo'shiqlari ham to'ylarda, sayillarda maxsus tayyorgarlik ko'rilgan holda ijro etilgan.

Ma'lum bo'ladiki, xalqimiz og'zaki ijodidagi an'anaviylik asarlarning matniga, yaratilishi usuliga, ijrosiga singib ketgan xususiyat hisoblanar ekan.

Og'zakilik. Xalq ijodidagi so'z san'atiga oid asarlar yozuv madaniyati kashf qilinmasdan oldin ham yaratilgan, ijro etilgan. Og'zaki ijoddagi topishmoqlardan tortib maqollargacha, dostonlardan qo'shiqlargacha og'zaki tarzda aytiladi. Har bir ijrochi o'zi aytayotgan ijod namunasiga hayot tajribasini, dunyoqarashini, yonveridagi yurtdoshlari bilan bo'lgan munosabatini singdirib ijro etgan. Yaqin kunlargacha og'zaki ijod namunalari avloddan avlodga meros bo'lib o'tar ekan, folklor namunasi sayqal topib boradi, degan tushuncha mavjud edi. Aslini olganda, og'zaki ijod asarining badiiy jihatdan mukammallashuvi yoki zaiflanishi ijrochining mahoratiga bog'liqdir. Agar asarni yaxshi ustoz ko'rgan, badiiy ijod qilish iste'dodiga ega bo'lgan shaxs ijro etsa, asar badiiy jihatdan sayqal topadi. Aks holda, asarning go'zalligiga zarar yetishi ham mumkin. Ijrodagi og'zakilik ijobiy va salbiy xususiyatga ega bo'ladi. Xususan, og'zakilik folklor asarining keng tarqalishiga, xalq orasida ommalashuviga bosh sabablardan bo'lgan omildir. Bu -og'zakilikning ijobiy jihati. Ammo shu bilan birga, og'zaki ijod asari o'tmish zamonlarda yozma tarzda saqlab qolinmaganligi uchun mohir ijrochining vafot etishi asarning ham yo'q bo'lib ketishiga olib kelgan. Xalq dostonlari va ertaklarini o'qir ekanmiz, faraz yo'li bilan ularning naqadar mukammal va go'zal nusxalari mavjud bo'lganini payqaymiz. Ammo asarlarning og'zaki tarzda ijro etilishi bugungi kunda u nusxalarning yo'qolib ketishiga olib kelgan. Improvizatorlik bevosita og'zakilik xususiyati bilan bog'liqdir. Bu atama badihago'ylik ma'nosini bildiradi. Baxshi doston ijro etar ekan, asarga tinglovchilarni qiziqtirish

uchun yo'l-yo'lakay o'zgarishlar kiritadi. Bunday o'zgarishlarni qo'shiq, ertak, askiya, latifa kabi janrlar ijrosida ham kuzatish mumkin. Jumladan, hamma taniydigan tinglovchilarning nomini, mahalliy hududda ro'y bergan o'ta qiziqarli voqealarni yoki mamlakat miqyosidagi ijobiy yoki salbiy hodisalarni eslab o'tish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, to'ylarda ijro etiladigan askiyalarni improvizatsiyasiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki og'zakilik bilan bog'liq bu xususiyat har bir asar ijrosini jonlantiradi, qiziqish darajasini oshiradi, unga alohida fayz bag'ishlaydi. Ba'zan ilhomi kelib turgan baxshi tinglovchilarning qo'llab-quvvatlashi oqibatida o'zi bilgan an'analarga suyangan holda tomomila boshqa mazmundagi yangi asarni yaratib yuborishi ham mumkin bo'ladi.

Jamoalik. Jamoalik deganda biron ish-harakatning ma'lum bir guruh odamlar ishtirokida birgalikda amalga oshirish nazarda tutiladi. Jamoa bo'lib imorat qurish mumkin, paxta terish yoki yer chopish, hosil yig'ishtirish mumkin bo'ladi. Ammo biron asarni jamoa bo'lib yaratish nisbiy tushunchaga egadir, chunki doston, ertak, qo'shiq kabi badiiy asar namunalarini misrama-misra, jumlama-jumla yaratish amaliy jihatdan mumkin emas. To'g'ri, folklorshunoslik tarixida ba'zan qo'shiq janriga oid badiiy asarni bir guruh odamlar aynan jamoa bo'lib yaratgan hollar bo'lgan, bunda qo'shiq misralari har biri kelishgan holda bitta-bitta guruh vakili orqali aytilgan va oxir pirovard qo'shiq vujudga kelgan. Ammo baribir bu asar badiiy jihatdan talabga javob bermagani tufayli omma e'tiboridan chetda qolib ketgan. Binobarin, xalq og'zaki ijodiga oid boshqa janr namunalarining yaratilishida ham jamoaning ishtirokini yuqorida qayd qilganimizdek, hosil yig'ish, imorat qurish kabi mehnat ko'rinishlari bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodi asarlari qaysi janrga mansub bo'lishidan qat'i nazar uni badiiy ijod qilish iqtidoriga ega bo'lgan yakka shaxs yaratadi. Yaratilgan asar omma tomonidan ma'qullangan taqdirda boshqa ijodkor xalq vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va ularga asta-sekinlik bilan ijodiy o'zgarishlar kiritiladi. Yaratilgan asar og'zaki shaklda vujudga kelgani tufayli turli o'zgarishga duch

kelishi rasmiylashtirilmaydi, ya'ni ijod namunasining qaysi qismi kim tomonidan yaratilgani aynan qaysi o'rinlarga kim o'zgarishlar kiritgani qayd etilmaydi. Natijada, ma'lum muddat o'tgandan so'ng, asarning dastlabki nusxasi juz'iy yoki muhim yangiliklarga ega bo'la boshlaydi. Shunday qilib, mazkur ijod namunasini birinchi yaratgan ijodkor o'z-o'zidan mualliflik da'vosini qilolmaydi. Xalq og'zaki ijodi asarlarini to'plash uchun chiqilgan ekspeditsiyalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, xalq orasida yashab og'zaki ijod xazinasiga o'zining iste'dodi bilan hissa qo'shgan ko'pchilik yurtdoshlarimiz mazkur asarlarga muallif yoki muallifdosh bo'lishni tabiatan xohlamaydilar ham. Bunday odamlar o'z ijodlarini xalqqa bag'ishlagan bo'ladilar. Har qanday tamagirlik ular uchun yotdir. Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, bunday odamlar o'zlari yaratgan namunalarni boshqa yurtdoshlari tomonidan ijro etilganini bilib, olam-olam bahra oladilar.

Biz, o'zbeklar, millatdoshlarimiz o'rtasida ana shunday oliyhimmat odamlar borligidan faxrlanmog'imiz lozim. Shunday qilib, bugungi kunda hech qanday moddiy qimmat bilan baholab bo'lmaydigan og'zaki ijod xazinasiga yuqorida aytganimizdek, olijanob va o'z xalqi uchun beminнат xizmat qiladigan ajdodlarimiz tomonidan jamoa bo'lib yaratilgandir.

Xalq og'zaki ijodi asarlari sayqal topishida, ko'pincha yangi namunalar bilan to'lib borishida oddiy tinglovchilar jamoasining bilvosita ishtirok etishini ham aytib o'tish foydadan xoli emas. Biz ertakchi, qo'shiqchi, doston aytuvchi baxshi, askiyachi va boshqa janr ijrochilarining tabiatan nozik hissiyotga beriluvchi odam bo'lishlarini unutmashligimiz lozim.

Asarni ijro etish paytida tinglovchilar eshitayotgan san'at namunasiga nihoyatda qiziqish bilan munosabatda bo'lsalar, ijrochi o'zi aytayotgan asarga yo'l-yo'lakay yangi obrazlarni, yangi lavhalarni kiritib yuboradi. Bunday ehtirosli damlarda yangi asar namunasining rejasi tuziladi. Natijada, oddiy tinglovchi bo'lib o'tirgan xalq o'zi bilmagan holda yangi asarning paydo bo'lishiga yoki juda bo'lmaganda, avvaldan an'anaviy tarzda aytib kelingan asarga muhim o'zgarishlar kiritilishiga

hissa qo'shadi. Shunday qilib, xalq og'zaki ijodining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishida umumxalq vakillari ijodkor yoki ehtirosli tinglovchi sifatida jamoa bo'lib ishtirok etadilar. Demak, xalq og'zaki ijodidagi jamoalik xususiyati deganda, asar yaratilishida jamoaning ishtirokini aynan sodda tarzda emas, nisbiy tushunmog'imiz ma'qul bo'ladi.

Variantlilik va versiyalilik. Bir asarning sujet va kompozitsiyasida muhim o'zgarishlar bilan bir necha nusxalarga ega bo'lishi xalq og'zaki ijodidagi variantlilik xususiyatini hosil qiladi. Avvalgi mavzularni bayon qilishda biz og'zaki ijod namunasiga ijrochi o'z dunyoqarashini, ijod usulini, kasb-kori xususiyatlarini singdirishi haqida ma'lumot bergan edik. Bir asarni yoshi, yashash sharoiti, kasbi, tabiati, fe'l-atvori turlicha bo'lgan odam ijro qilganida, shubhasiz, ijro etilayotgan asarda muhim, nomuhim o'zgarishlar bo'ladi. Jumladan, bir ijrochi qahramonlik voqealarini mukammalroq aytadi. Ikkinchi ijrochi ishq-muhabbat, sevgi lavhalarni ehtiros bilan ta'sirli qilib aytadi. Shuning ta'sirida bir asardagi qahramonlik, jasorat-mardlik bilan bog'liq qismlar mukammallik kasb etadi. Boshqa ijrochida esa aynan shu qismlar qisqaradi, ammo ishq-muhabbat lavhalari atroflicha, tafsilotlar bilan bayon etiladi. Folklorshunoslar mashhur «Alpomish» dostonining o'ttizdan ortiq variantlari borligini qayd etganlar. Qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, ba'zan bir ijrochining o'zi kayfiyatining haddan tashqari yaxshiligi yoki o'tayomonligi oqibatida ham yangi variantni vujudga keltirib qo'yishi mumkin. «Alpomish» dostonini Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'ltan Jonmurod o'g'li va boshqa o'nlab baxshi-shoirlar ijro etganlar. Har bir ijroda baxshining bayon usuli, fe'li, hayot tajribasi o'z izini qoldirgan. Shuning uchun «Alpomish» dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti, «Alpomish» dostonining Ergash Jumanbulbul o'g'li varianti degan tushunchalar vujudga kelgan.

Ko'rinib turibdiki, xalq og'zaki ijodidagi variantlilik bilan yozma ijoddagi variantlilik ma'no jihatdan farq qilmasa ham, amaliy jihatdan katta farqqa ega.

Versiyalik og'zaki ijodda variantlilikdan kengroq

tushuncha hisoblanadi. Agar variantlilikda obrazlar tavsifi, voqealar tizimi, bayon usuli boshqacharoq ko'rinishga ega bo'lsa, versiyada asarlarning nomi ham, voqealarning rivoji ham keskin farqlanadi. Jumladan, folklorshunoslikda «Alpomish» dostonining to'rtta versiyasi qayd etilgan bo'lib, ular: qo'ng'iroq, o'g'iz, qipchoq, oltoy versiyalari nomi bilan yuritiladi. Bu versiyalar faqat ayrim umumiy voqealar bayoni bilangina «Alpomish» dostonini eslatadi, xolos. Shuningdek, «Tohir va Zuhra» dostonining qozoq xalqida «Qo'zi Ko'rpeshe va Bayan Suluv» versiyasi mavjud.

Anonimlik. Anonimlik deganda, asar yaratuvchisi nomining noma'lum ekanligi nazarda tutiladi. Biz og'zakilik haqida fikr yuritganimizda, ko'pchilik yurtdoshlarimiz og'zaki ijod namunalari yaratishlarida o'z nomlarining yashirin qolishini ma'qul ko'rishlarini aytib o'tdik. Bu yurtdoshlarimiz o'z ijodlarini xalq og'zaki ijodi an'anasida yaratganliklari uchun ham (an'anaviylikning matnda namoyon bo'lishi haqidagi fikrlarga qarang) o'z ismlarini baralla aytishga iymangan bo'lishlari mumkin. Ammo yozma ijod namunasi muallifining nomi yo'qolganligi bilan og'zaki ijoddagi anonimlikning farqi bor. Bunday vaziyatda masalani mavjud asarning yaratilishi an'anasiga qarab belgilash mumkin. Agar asar og'zaki ijod an'anasi bilan yaratilgan bo'lsa, anonimlik oddiy holat hisoblanadi. Agar asar yozma ijod an'anasida yaratilgan bo'lsa, tasodif hisoblanadi. Masalan, «Farhod va Shirin», «Gul va Navro'z» kabi dostonlarini yozgan shoirlar nomi ma'lum bo'lmasa ham, an'anaviylik jihatdan ularni og'zaki ijod namunasiiga mansub deb bilish to'g'ri bo'lmaydi. Shundayqilib, anonimlik xalq og'zaki ijodida xalq vakillarining o'z xalqiga xolis, beminnat xizmat qilishi namunasi sifatida qadrlanadi.

Xalq badiiy tafakkuri hali ilk bosqichida dunyoni tabiat hodisalari, kuchlariga binoan anglashga, idrok etishga moyil va qodir edi. Bu hol o'sha real hodisalarni ajabtovur mo'jizaviylik yoki sehrilik fonida tasavvur qilishga olib keldi. Natijada, xalq badiiy tafakkurida reallik fantastikaga yo'g'rilab ko'rina boshladi. Shu tariqa folklorida shartlilik – fantastika

va hayotiylik – reallik o‘zaro singishib, tipik holga aylanib bordi. Fantastika va romanika mehnat ahliga o‘z xayoli-o‘ylarida yorqin kelajakni yaratish imkonini bergan: manzildan manzilga tezroq borish istagi – uchar gilam, G‘irot, Boychibor, Semurg‘larni, dushmandan qasos olish istagi – urto‘qmoq, bir sermaganda qirq gaz cho‘ziladigan keskir qilichni, ichi qovoqariga to‘la tarvuzni jahon ayvonidagi voqealardan voqif bo‘lish istagi – oynayi jahonnamoni, hayot ishq bilan yashash istagi – insonni yashartiruvchi yoki har qanday xastaliklardan xalos etuvchi obi hayot, sehrli olma va hokazolarni yaratganki, kishilik jamiyatining hozirgi bosqichida qachonlardir sehrlilik timsoli bo‘lgan bu obrazlar tezuchar samolyotlar, tezyurar avtomobillar, avtomat, minomyot, kashtalar, televizor va hayotbaxsh detallar tarzida reallashdi.

Folklordagi bir qator janrlarda, jumladan, maishiy-hayotiy ertaklarda, tarixiy va lirik qo‘shiqlarda voqelik ham, qahramon ham real ifodalanadi. Bu, shubhasiz, xalq oniginig mifologik tasavvurlardan qutula borib, o‘z - o‘zini anglashi ancha chuqurlashgan, oilaviy va ijtimoiy turmush tarzidagi o‘zgarishlarni teranroq idrok eta borishi tufayli nisbatan keyinroq sodir bo‘lgan hodisadir.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalq og‘zaki ijodi asarlarining qanday o‘ziga xos xususiyatlari bor?
2. An’anaviylik xalq og‘zaki ijodi asarlarini ijro etishda va matnda qay yo‘sinda namoyon bo‘ladi?
3. Ertak janrini o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra tavsiflang.
4. Xalq og‘zaki ijodida sinkretiklik tushunchasiga izoh bering.

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar:

1. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasi masalasiga doir. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. – Toshkent: Fan, 2010.

2. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. - T., 2009.
3. Madayev O. , Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T., «Sharq», 2003.
4. Safarov O., Jo'rayev M., Tursunqulov A. Folklor praktikasi. – Buxoro, 1996
5. Musurmonov E. O'zbek folklori materiallarini to'plashga oid metodik tavsiyalar. – S.: SamDU, 2005.
6. Jumanazarov U. Xalq og'zaki ijodi asarlarini tanlash, yozib olish va folklor praktikasini o'tkazish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar. – T., 1988.
7. Umurov H., Ochilov T., Azimov A., Xoliqulov J. Folklor praktikasidan metodik tavsiyalar. – Samarqand, 1981.

2-mavzu: Mif va uning badiiy talqinlari. Afsona, rivoyat, naqlarning badiiyati.

1. Eng qadimgi xalq og'zaki ijodi namunalari. Mif va uning mohiyati.

2. Ibtidoiy tasavvurlar – anemizm va totemizm haqida ma'lumot.

3. Qadimgi afsonalar. «Avesto» va undagi qahramonlarning badiiy tasnifi.

4. Afsona, rivoyat, naqlarning janr xususiyatlari. Kayumars va Jamshid haqidagi afsona.

5. Qadimgi qahramonlik eposlari (To'maris, Shiroq va Rustam haqidagi afsonalar).

Tayanch iboralar: Anemistik, totemistik qarashlar, "Avesto" – zardushtiylarning muqaddas kitobi. Afsonalar, qahramonlik dostonlari.

Darsning maqsadi. Talabalarga afsona, asotir, rivoyat, qadimgi davr xalq og'zaki ijodi haqida atroflicha ma'lumot berish.

Darsning vositalari. Ko'rgazmali visual va audial o'quv qurollari, qadimiy afsona va rivoyatlarga ishlangan rasmlar (Shiroq, To'maris, Rustam).

Darsning metodi. Blits – so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. Uning tashkil topishida o'sha davr shart-sharoiti, odamlarning mehnat va turmush tajribalari, dunyoqarash va tushunchalari hal qiluvchi rol o'ynagan. Eng avval og'zaki nasriy turning dastlabki namunalari vujudga kelgan. Ular nihoyatda sodda bo'lib, turli xildagi undov- xitoblar va voqealar bayonidan iborat bo'lgan. Mehnat jarayoni hamda ongning rivojlanishi voqea va hodisalar talqinida oddiy bayondan obrazli tasvirlashga olib keldi. Sodda va takroriy jumlar badiiy til vositalari bilan boyiy boshlagan. Oddiy so'z o'rnini ko'chma ma'noli so'z, sifatlash, mubolag'a

va o'xshatishning ilk namunalari egallay borgan. Shunday qilib, dunyoni badiiy va estetik did bilan fahmlay olish, badiiy so'z tajribalarining taraqqiyoti folklorning dastlabki janrlarini yuzaga keltirdi. Eng avval kichik-kichik naql va miflar, mehnatni yengillashtiruvchi, ruhan tetik qiluvchi, xayol og'ushiga olib kiruvchi ertak va afsonalar yaratildi, mehnat jarayonini ifodalovchi qo'shiqlarning namunalari paydo bo'ldi.

Demak, eng qadimgi folklor namunalari yozuv yuzaga kelmasdan ancha oldin paydo bo'lgan va yozma adabiyotning tashkil topishiga muhim hissa qo'shgan. Qadimiy folklor namunalari asl holida, to'la ravishda bizgacha etib kelmagan. U og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tib ijodiy ishlangan. Har bir material turli xil ijtimoiy qatlamlar ta'sirida o'zgarib, shakl va mazmunida yangi-yangi ma'lumotlar yuzaga kelgan.

Mif va uning mohiyati. Ma'lumki, mif qadimgi odamning borliq haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga olgan. Hali o'zini tabiatdan ajratib olmagan qadimgi odam o'z atrofidagi moddiy mavjudlikning paydo bo'lish sabablarini mifologik tasavvurlar vositasida izohlashga, tushuntirishga harakat qilgan. Mif qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo'lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan.

Qadimgi odamning tabiatni tushunishi va voqelikni idrok etishi g'oyat murakkab tafakkur hodisasi hisoblanadi. Ajdodlarimiz o'zini o'rab olgan moddiy olamning sir-asrorlarini tushunishga, tabiiy hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qilar ekan, butun borliqni borlig'icha qabul qilgan. Moddiy olamdagi voqelikni idrok etishda obrazlilik va poetik

ramzlardan foydalanish esa badiiy ijodga xos belgi bo'lib, voqelikka ongli hissiy munosabat bildirishga asoslanadi. Dunyodagi moddiy mavjudlikning paydo bo'lishi, muayyan tabiiy hodisalarning ro'y berish sabablari, tabiat va inson munosabati masalalari qadimgi odam ongida asotiriy tarzda talqin qilingan. Olam haqidagi ana shu eng qadimgi e'tiqodiy qarashlar asosida dastlabki mifologik tasavvurlar tizimi kelib chiqqan. Mif qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasidir.

«Totemizm» so'zi lug'at va qomusiy kitoblarda qayd etilishicha, «uning urug'i»dan olingan ekan. Shimoliy Amerikada yashovchi qabilalardan biri kishilar bilan hayvon va o'simliklarning muayyan turlari o'rtasida qon-qarindoshlik bor deb hisoblaganlar. U hayvonlar ov qilinmagan, o'ldirilmagan, go'shti yeyilmagan. O'simliklar esa e'zozlangan. Bu odat dunyodagi hamma xalqlarning e'tiqodida ham bor bo'lib, bugungi kungacha saqlanib kelmoqda.

«Fetishizm» so'zi lug'at va qomusiy kitoblarda portugalscha «feitico», fransuzcha «fetiche» – sehrli narsa ma'nosini ifodalashi qayd qilingan. Uning asosini qadimgi zamon odamlarining jonsiz narsa-predmetlarda ilohiy fazilat bor deb tushunishlari tashkil etadi. Ma'lumki, inson hayoti davomida o'zi bilmagani holda quyosh, oy, yulduzlar, tog', suv kabi narsalar bilan ham munosabatda yashaydi. Ayniqsa, quyosh, suv inson taqdirida muhim ahamiyat kasb etadi. Qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimiz o'zlaricha pichoq, non, o'choq, tandir, do'ppi, kitob, supra, ayniqsa, o'q, yoy kabi narsalarni ham muqaddas hisoblaganlar.

Fetishizm tushunchasida turli narsa-predmetlardan tashqari ranglar, tush ham saqlanib qolgan. Oq, qora, ko'k, yashil, qizil, malla kabi ranglar muayyan ma'noni bildirgan. O'zbekiston bayrog'idagi yashil, oq, ko'k, ular oralig'idagi qizil, burchakdagi oy va 12 yulduzlarning hammasida ramziy ma'nolar mujassamlashgan. Odatda, yashil yoshlik, qizil, bir tomondan to'kilgan qon, ikkinchi tomondan, qizlik g'ururi, oq hayot, qora, bir tomondan fojia, ikkinchi tomondan, buyuklik,

ulug'lik, malla yetuklik, balog'at ma'nolarini aks ettirgan.

«Animizm» lotin tilidagi «anima»dan olingan bo'lib, ilmiy adabiyotlarda jon, ruh ma'nosini anglatishi ta'kidlanadi. Animizmga binoan qadimgi ajdodlarimiz dunyodagi hamma narsaning joni bor, deb bilganlar. Ibtidoiy davrda inson tana va ruhdan iborat hisoblangan. Ruh tanani tark etganda inson o'ladi, deb o'ylashgan. Har bir narsaga bu tushuncha tatbiq etilgan. Shuning uchun mifologiyadagi totemizm va fetishizm hodisalariga ishonch bildirishni, ularning mavjudligiga bo'lgan e'tiqodiy munosabatni animizm bilan bog'lash ma'qul. Sodaroq qilib aytganimizda, odamning totemizm va fetishizm hodisalariga ishonishi uyg'un holatda animizm namoyon bo'ladi. So'zning magik – mo'jizaviy kuchidan foydalanib inson ruhiyatiga ta'sir etish, uni xastalikdan ozod qilish, tabiatiga ruhiy tetiklik bag'ishlash animizm fazilatlarini hisoblanadi. Shuning uchun xalq baxshilari deganda baxshilik, ya'ni shifo bag'ishlash ma'nosi saqlanib qolgan.

Mifologik tasavvurlar olamning yaratilishi, o'simlik va hayvonot dunyosining yuzaga kelishi, odamzotning paydo bo'lishini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, mif o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida baholangan. M.I.Steblyin-Kamenskiyning ta'kidlashicha, «Mif – bu muayyan voqelik bayoni bo'lib, unda hikoya qilingan voqea-hodisa nechog'lik uydirma bo'lmasin, yaratilgan va yashab kelgan joyida u hamisha haqiqat, real voqelik ifodasi sifatida qabul qilingan. Albatta, mifni o'rganadigan tadqiqotchi undagi uydirmaga ishonmaydi. Shuning uchun ham mif bugungi kunda haqqoniy hayotiy voqelik ifodasi sifatida anglashilmaydi. Shu tariqa tadqiqotchining mif haqidagi o'z tasavvuri, ya'ni «Mif – uydirma» degan qarashi yuzaga keladi. Yaratilgan va ommalashgan joyida mif aslida real voqelik ifodasi deb tushunilgan» (Steblyin-Kamenskiy M.I. Mif. – L: Nauka, 1976. S.4-5). O'zbek tilida qadimgi ajdodlarimizning tizimli shaklda ifodalangan, so'z (hikoya qilish), harakat (marosimiy raqslar) va tasvir (qadimiy osori-atiqalar, qoyatosh suratlari va h.k.) orqali bayon etilgan mifologik tasavvurlari o'zbek tilida «asotir»,

«mif» kabi atamalar bilan nomlanadi. XI asrda yashagan buyuk tilshunos olim Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asarida mif tushunchasi «sav» so'zi bilan ifodalangan. Bu so'z qadimgi turkiylar tilida «xabar», «maqol», «qissa», «hikoya», «so'z», «nutq» ma'nolarini anglatgan. Mahmud Koshg'ariy o'z asari uchun material to'plaganida turkiy qabilalarning mifologik tasavvurlarini ham sinchiklab o'rgangan. Zero, «Devon»da qush tuxumidan chiqqan it – «baroq» to'g'risidagi mif hamda etagan, Oltin qoziq (temir qoziq) yulduzlari haqidagi samoviy qarashlar keltirilganligi ham shu fikrni tasdiqlaydi. «Qazunuq» - qoziq. Qutb yulduzini «Temur qazunuq» deyish ham shundandir. «Temir qoziq» demakdir. Chunki osmon buning ustida aylanadi» («Devon», 3-jild, 3393-bet), - deb yozadi Mahmud Koshg'ariy. Olim «ko'k tubulg'on» so'ziga izoh berib, quyidagilarni yozadi: «Ko'k tubulg'on – bir qushning nomi. Aytishlaricha, bu qushning ikki qanotida po'lat bo'ladi va qanoti bilan toqqa urib, bir tomondan boshqa tomonga o'tadi. Bu so'zni menga o'zim foydalanib yurgan bir kishi aytdi» («Devon», 1-jild, 474-bet).

Ko'rinadiki, bu mifologik afsonada qadimgi turkiylar folklorida mavjud bo'lgan xayoliy qush to'g'risidagi xalq qarashlari o'z ifodasini topgan. O'zbek tilida qattiq patlari o'sib chiqqan qush poloponini «temirqanot bo'libdi» deb ta'riflashda ham ana shu ko'hna tasavvurlarning izi saqlanib qolganga o'xshaydi.

2. Miflarning tasnifi va tadrijiy rivoji bosqichlari.

O'tmishda yashagan ajdodlarimizning olam haqidagi tasavvurlarini o'zida jamlagan, uning dunyoqarashini ifodalagan va avloddan avlodga etkazishga mo'ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha bo'lib, asosan jonli og'zaki ijro orqali, ya'ni so'z vositasida hikoya qilib berilgan. Ya'ni mif afsona janrining badiiy shakli asosida bayon etilgan.

Mifologik tasavvurlar ibtidoiy udum va marosimlarda ritual o'yinlar sifatida namoyish qilingan. Qadimgi tasavvurlar asosida yaratilgan osoriatiqalar hamda xalq hunarmandchiligi va amaliy san'ati asarlaridagi ramziy chizgilarda ham mifik syujetlar aks ettirilgan.

Ajdodlarimizning olam, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayot xususidagi qadimiy fantastik tushunchalarini o'zida aks ettirgan miflar quyidagi turlarga bo'linadi. 1) **ibtido haqidagi miflar** (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi miflar); 2) **samoviy miflar** (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi miflar); 3) **antropogenik miflar** (g'ayrioddiy xislatga ega bo'lgan afsonaviy personajlar haqidagi miflar - masalan, Gerakl, Gilgamesh, Odami Od, Er Hubbi haqidagi miflar); 4) **kult miflari** (muayyan e'tiqodiy inonchlar bilan bog'liq miflar, masalan, hosildorlik kulti, suv kulti, o'simlik kulti, olov kulti haqidagi miflar);

5) **totemistik miflar** (totem-ajdod haqidagi qadimgi tasavvurlar asosida kelib chiqqan); 6) **kalendar miflar** (yil, oy, kun hisobi bilan bog'liq miflar - masalan, ayamajuz, Ahman-Dahman, chilla, to'qson hisobi bilan bog'liq miflar); 7) **o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar** (masalan, Siyovush haqidagi mifologik syujetlar); 8) **animistik miflar** (jon to'g'risidagi qadimgi tasavvurlarni o'zida mujassamlashtirgan miflar); 9) **manistik miflar** (ajdodlar homiyligi haqidagi miflar); 10) **dualistik miflar** (ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi kurash haqidagi asotiriy qarashlarni o'zida aks ettirgan miflar); 11) **esxatologik miflar** (olamning intihosi, oxir zamon to'g'risidagi miflar).

Insoniyat tafakkuri taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning qadimiy vositalaridan biri, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblanadi. Mifologiyaning asosini qadimgi odamning koinot, tabiat, inson, osmon jismlari, narsa va hodisalarning paydo bo'lishi haqidagi miflar tashkil etadi.

Mifologiyaning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to'g'risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo'lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik miflar, qadimgi e'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etgan totemistik, animistik va kult miflaridan tashkil topgan. Dehqonchilik madaniyati shakllangan hududlarda esa

tabiiy-iqlimiy o'zgarishlarning ramziy-metaforik talqinlari asosiga qurilgan taqvimiy (kalendar) miflar va o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar keng tarqalgan. Xususan, Osiris (qadimgi Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O'rta Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan. O'zining ilk taraqqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy inonchlardangina iborat bo'lgan mifologiya insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, jamiyat va tabiat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz va tasavvurlar silsilasini o'z ichiga olgan mukammal tizimga aylangan.

Ijtimoiy ongning animizm, totemizm, fetishizm kabi qadimiy shakllari mifologiya bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Ibtidoiy dunyoqarash tizimi sifatida shakllangan mifologiya qadimgi diniy e'tiqodlarning ilk kurtaklari, ajdodlarimizning falsafiy, axloqiy va ijtimoiy qarashlari, olam va odam hayotiga doir eng sodda tushunchalari, voqelikni ongsiz-hissiy anglash asosiga qurilgan ramziy-metaforik obrazlar, shuningdek, so'z san'ati, marosimlar tizimi va mifologik tafakkurning turli xil shakllarini o'z ichiga qamrab olgan. U qadimgi odamning borliq olamni idrok etishga doir tasavvur va qarashlarini o'zida jamlagan izchil tizim sifatida ibtidoiy mafkuraning yetakchi g'oyasi bo'lib xizmat qilgan. Mifologiya ibtidoiy insonning qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Shu bois, mifologiya folklor, yozma adabiyot, san'at va ma'naviy qadriyatlarining shakllanishi uchun zamin vazifasini o'tagan. Ezgulik kuchlarining kaos(zulmat)ni o'ziga makon qilgan yovuzlikka qarshi kurashini o'zida aks ettirgan qadimgi miflar badiiy tafakkurning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Voqelikni estetik kategoriya sifatida idrok etish hamda badiiy so'z vositasida talqin qilish an'anasi kelib chiqqach, qadimgi miflarning asosiy qismi so'z san'atining turli janrlariga singib ketgan. O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotidagi ko'plab epik syujet va an'anaviy motivlarning genetik ildizlari bevosita mifologik tasavvurlar qatlamiga borib taqaladi. Miflar «Avesto», «Iliada», «Ramayana», «Shohnoma», «Kalevala», «Alpomish», «Go'ro'g'li» kabi buyuk badiiy yodgorliklarning yaratilishida

ham salmoqli o'rin tutgan.

Qadimgi mifologik tasavvurlar va asotiriy syujetlar badiiy tafakkurning shakllanishi hamda taraqqiyotida o'ziga xos sarchashma vazifasini o'taganligi uchun ham xalq og'zaki badiiy ijodiyoti, yozma adabiyot va san'at asarlarida mifologik negizga ega bo'lgan ko'plab asotiriy personajlar uchraydi. Mifologik tasavvurlar asosida kelib chiqqan bunday obrazlar xalq xayoloti va voqelikni fantastik talqin qilish an'anasining mevasidir. Mifik obrazlar muayyan voqea- hodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo'lib, voqelik mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o'ziga ko'chirganligi uchun ham uning shakliy tajassumi hisoblanadi.

Mifik obrazlar ibtidoiy badiiy uydirma – fantaziya mahsuli bo'lib, koinot, tabiat va jamiyatdagi turli-tuman hodisalar, qadimgi odam tasavvurida mavjud bo'lgan g'ayrioddiy kuchlarning kelib chiqish sabablarini izohlashga xizmat qilgan. Badiiy tafakkur shakllangach, qadimgi mifologiyaning tarkibiy qismi sanalgan asotiriy obrazlar adabiyot va san'atga ko'chgan. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlari, «Alpomish», «Kuntug'mish», «Rustamxon» hamda «Go'ro'g'li» turkumiga mansub dostonlar, o'zbek xalq afsonalari va ertaklaridagi mifologik obrazlar shular jumlasidandir. Folklor va yozma adabiyotdagi mifik obrazlar badiiy talqinning to'laqonli chiqishi hamda poetik tafakkurning keng qamrovliligini ko'rsatish vazifasini bajaradi.

Mif qadimgi odamning ishonch-e'tiqodlari, o'y-xayollari, diniy qarashlari va ilk ijodiy izlanishlarining so'z vositasida ifoda etilgan ko'rinishlaridan biridir. Mifni ibtidoiy odam ma'naviy olamining muayyan ehtiyojlari, ya'ni o'z dunyoqarashini bayon etish zarurati yuzaga keltirgan. Voqelikni badiiy idrok etish an'anasining ibtidosi sifatida qadim zamonlarda shakllangan mifologik tasavvurlar tizimi folklordagi epik janrlarning syujet silsilasi va obrazlar tarkibining yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Demak, mifning mohiyati, turlari, o'ziga xos xususiyatlari, obrazlar tizimi, mifologik syujetlarning epik diffuziyasi va folklor asarlari tarkibidagi poetik vazifalari kabi masalalarni

o'rganish mifshunoslikning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi.

O'zbek miflarining yuzaga kelishi va shakllanish bosqichlarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1) *Ural-Oltoy qabilalarining mifologik tasavvurlari.*

Ma'lumki, tilshunoslikda «Oltoy tillari oilasi», «prooltoy tili» kabi tushunchalar mavjud. «Oltoyshunoslik nazariyasi» tarafdorlarining fikricha, turkiy, mo'g'ul-buryat, tungus-manchjur (ba'zilar koreys va yapon tillarini ham shu tarkibga kiritadilar) xalqlarining qadim ajdodlari aslida yagona bir qabilaga mansub bo'lib, ular «prooltoy tili» yoki «prooltoy shevasi»da so'zlashganlar.

Biz ham ana shu nazariyaning asosiy xulosalariga suyanagan holda turkiy-mo'g'ul-buryat-tungus-manchjur tillarida so'zlashuvchi xalqlar folkloridagi tipologik mushtaraklikni tashkil etadigan epik qatlam bu xalqlar og'zaki ijodiyoti tarixining Oltoy davriga mansub qadimiy syujetlar silsilasidan iborat, deb hisoblaymiz. Ana shu mushtarak epik an'ananing asosiy qismi arxaik miflarning qoldiq holda etib kelgan ko'rinishlari bo'lib, bu asotirlar tarixan «prooltoy *folklori*» yoki «prooltoy *mifologiyasi*»ning tarkibiy qismini tashkil etgan. Mushtarak variantlari yoki o'xshash namunalari mo'g'ul-buryat va tungus-manchjur xalqlari og'zaki ijodida ham mavjudligi aniqlangan o'zbek miflari (yoki muayyan syujet elementi, obraz, motiv tarzida saqlanib qolgan mif qoldiqlari) «prooltoy mifologiyasi»ga mansub asotirlar sirasiga kiradi. O'zbek mifologiyasi rivojining bu davriga oid folklor asarlaridan eng xarakterlisi bo'ri to'g'risidagi totemistik miflardir.

2. *Qadimgi turkiy qavmlar mifologiyasi.* O'zbek folklorida saqlanib qolgan arxaik miflarning asosiy qismi qadimgi turkiy mifologiyaning epik diffuziyasi natijasida etib kelgan. Qadimgi turkiy qabilalar og'zaki ijodiyotida olamni mifologik anglash asosida yaratilgan kosmogonik, totemistik, animistik, etiologik va etnogenetik miflar asosiy o'rinni egallagan.

3. *Zardushtiylilik bilan bog'liq mifologik tasavvurlar.*

Xalq og'zaki ijodida an'anaviy tarzda qo'llaniluvchi ajdar, dev, pari, Semurg', Jo'mard, Aranja bobo, Axriman, aranglar,

Zahhok, Siyovush, Hubbi, Ashshadarozi, Sust xotin, Haydar kabi ko'plab asotiriy obrazlarning tarixiy asoslari zardushtiylik mifologiyasiga borib taqaladi.

«Avesto» mifologiyasi va zardushtiylik rituallari negizida keyinchalik o'zbek marosim folkloridagi ayrim janrlar shakllangan. Yomg'ir chaqirish maqsadida o'tkazib kelingan Sust xotin marosimi, Amudaryo suvining mo'l bo'lishi hamda toshqin halokatining oldini olish maqsadida orolcha avliyo degan joyda shu nom bilan ataluvchi afsonaviy homiy sharafiga ho'kiz so'yib qurbonlik qilish, Navro'z bayramini o'tkazish, sumalak pishirish, bahor faslida an'anaviy gul sayllari (boychechak sayli, lola sayli, guli surx sayli, qizil gul sayli kabilar)ga chiqish, safar qochdi va oxir chorshanba marosimlarini o'tkazib, olovdan hatlash, shamol piri sifatida e'tirof etilgan Haydar yoki Ajdar boboga murojaat qilib, shamol chaqirish, sumalak pishirayotganda Ashshadarozi o'yinini tashkil etish, kelin- kuyovni olov atrofidan aylantirish, marhumlar mozoriga «qushlar haqi» deb bug'doy sepib qo'yish, daryodan o'tayotganda Hubbiga sig'inish va suvga tuz tashlash, dalaga birinchi qo'sh chiqarishdan avval ho'kizlarning shoxini moylash kabi an'anaviy marosim va udumlarimizning tarixiy asoslari bevosita zardushtiylik hamda

«Avesto» mifologiyasining e'tiqodiy inonchlar tizimidagi talqinlariga bog'lanadi.

4. Arab-islom mifologiyasi an'analari. Ma'lumki, VII asr oxirida Movarounnahr arablar tomonidan fath etila boshlangan bo'lib, bu jarayon VIII asr o'rtalarida nihoyalangan. Natijada bu o'lkaga yoyilgan islom dini O'rta Osiyoga Sharq xalqlari mifologiyasi va folklorining epik an'alariga mansub syujet, motiv va obrazlarni ham olib keldi. Garchi islom mifologiyasining tarkibi ko'pqatlamli bo'lib, o'zak miflar (arab asotirlari) hamda o'zlashtirma asotirlar (ya'ni keyinchalik fath etilgan xalqlar folklori va boshqa diniy qarashlarga aloqador miflar)ni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, uning asosini qadimgi arab qavmlarining og'zaki ijodi namunalari tashkil etgan.

Arab xalq kitoblari, rivoyat va asotirlari syujetining epik ta'siri natijasida O'rta Osiyo xalqlari folklorida ko'plab yangi

asarlar yaratilgan. Ajdodlarimizning mifologik tasavvurlari arab- islom asotirlariga oid personajlar tizimi bilan boyitilgan. Xususan, anqo, jin, g'ul, odami Od, Morut, lot, manot, Ko'hi Qof, Eram kabi mifologemalarning ilk manbayi aslida arab folkloridadir.

Demak, o'zbek mifologiyasining tarixiy asoslari ajdodlarimiz o'tmishining eng quyi bosqichlariga mansub e'tiqodiy qarashlarga borib taqaladi. Mifologik inonchlarning ilk qatlami qadim zamonlarda yashagan bobolarimizning totemistik, animistik va dualistik tasavvurlari, magik inonchlar asosida kelib chiqqan e'tiqodlari, shuningdek, tabiatni asotiriy anglash va hosildorlik g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan qadimgi kultlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Qadimgi miflarning asrlar davomidagi tadrijiy takomili natijasida ezgulik va yovuzlik kurashini aks ettiruvchi dualistik miflar, olamning yaratilishi va intihosi haqidagi xalq qarashlarini o'zida ifoda etgan kosmogonik miflar, osmon yoritqichlari to'g'risidagi astral miflar, vaqt hisobi amallarining paydo bo'lishi haqida bahs yurituvchi taqvimiy asotirlar, urug'-qabilalarning kelib chiqishini izohlashga bag'ishlangan etnogenetik miflar, g'ayrioddiy qahramonlarning sarguzashtlarini bayon etuvchi antropogenik miflar tizimi shakllangan. O'zbekistonning istiqloлга erishishi qadimgi tasavvurlar bilan bog'liq folklor asarlari, jumladan, mifologik syujet va motivlarni keng ko'lamda o'rganishga katta imkoniyatlar yaratdi. Xususan, o'zbek folklorida mifologiya va mifologik tasavvurlarning marosim folklori genezisida tutgan o'rni, mifologiyaning o'zbek xalq eposidagi o'rni va mif diffuziyasi, o'zbek folklori mifologik obrazlar tizimi keng o'rganildi. Folklorshunoslikka «O'zbek mifologiyasi» tushunchasi olib kirildi va u turkiy mifologiyaning tarkibiy qismi bo'lib, O'rta Osiyoda istiqomat qilgan qadimgi aholining e'tiqodiy qarashlari, tasavvur va inonchlarini o'zida mujassamlashtirganligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Afsona – o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimgi, an'anaviy va keng tarqalgan janrlaridan biri. Hayotiy voqelikni xayoliy uydirmalar orqali bayon etadigan, biror ma'lumot

haqida tinglovchiga xabar berish maqsadida hikoya qilinadigan og'zaki nasriy asarlar **afsona** deyiladi.

Afsona professional ijrochilikka asoslanmaydi. Uni bilgan kishi o'zi istagan shaklda aytaveradi. Demak, afsona keng ommaviy ijro etiluvchi janrdir. Afsona sof axborot beruvchilik vazifasini bajaradi. U ko'pincha biror-bir voqea-yu hodisaga kishilarni ishontirish maqsadida aytiladi. Shuning uchun ko'pchilik afsonada bayon qilingan voqelikni haqiqat sifatida qabul qiladi. Aristotel afsonalarni «Haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on hikoyalardir» deb ko'rsatadi.

Mifologik afsonalarda, asosan, yer va osmon xudolari, homiy kuchlar, pirlar, avliyolarning g'ayritabiiy ishlari, insonlarga ko'magi, mifologik pahlavonlar, yer yuzida odamning paydo bo'lishi haqida hikoya qilinadi. Ularning epizodlarida islomga qadar amal qilgan qadimgi dinlarga aloqador talqinlar uchraydi. Ibtidoiy insonlarning dunyoqarashi, tasavvur-tushunchalari, diniy e'tiqodlari namoyon bo'ladi.

Geneologik afsonalarda urug'-qabila, xalq va elatlarning kelib chiqishi va nomlanishi haqida hikoya qilinadi: laqay, do'rmon, qirg'iz urug'larining kelib chiqishi haqidagi afsonalar shular jumlasiga kiradi.

Tarixiy voqea va tarixiy shaxslar haqidagi afsonalarda o'tmishda yashab o'tgan dono kishilarning sarguzashtlari, mo'jizakor ishlari, ajdodlarimizning bunyodkorlik faoliyati, shahar va qo'rg'onlarning barpo etilishi haqida hikoya qilinadi. Bunga Buxoro Arki, Xiva qal'asi, Minorayi Kalon qurilishi haqidagi afsonalar misol bo'la oladi.

Kasb-hunarlar haqidagi afsonalarda u yoki bu kasb-hunarning kelib chiqishi, ularning piri haqida hikoya qilinadi. Aytaylik, bo'yoqchilik kasbining kelib chiqishi Hazrati Ayub, temirchilik kasbining kelib chiqishi Dovud payg'ambar nomi bilan bog'lab talqin qilingan afsonalar shu siraga kiradi.

Kichik hajmli, mazmunan sodda bayon va hikoyalar shaklida tashkil topgan afsonalar o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimgi namunalaridan hisoblanadi. Afsonalar ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lgan voqea va hodisalarni xayoliy shaklda

hikoya qiladi. Ular insoniyatning tabiat va jamiyat haqida bilish va tushunishga bo'lgan intilishi jarayonida vujudga kelgan. Shuning uchun ham afsonalar ijtimoiy hayot va madaniyat, dunyoqarash va ruhiy kechinmalar, urf- odat va tarixiy hodisalardan darak beradi.

Afsona forscha so'z bo'lib, fantastika, sehr-jodu hamda hayotiy uydirmalar asos bo'lgan nasriy hikoyalar demakdir. Bu xildagi hikoyalar Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asarida *sav* so'zi orqali ifodalangan bo'lib, juda keng ma'noni bildiradi. Bu so'z devonda hikoya hamda qissa deb izohlangan.

Afsonalarni tematik jihatdan uch xil turga bo'lib o'rganish maqsadgamuvofiq. Birinchisi – xayoliy voqea va xayoliy qahramonlar haqida hikoya qiluvchi afsonalar, ikkinchisi – tarixiy voqea va tarixiy shaxslar haqida hikoya qiluvchi afsonalar, uchinchisi jangnoma tipidagi afsonalar yoki qahramonlik afsonalari.

Xayoliy voqea va xayoliy qahramonlar haqida hikoya qiluvchi afsonalar ibtidoiy dunyoqarash, u yoki bu kuchni muqaddas bilib, unga sig'inish, e'tiqod qo'yish hamda sevgi-sadoqat kabi kechinmalar ta'sirida paydo bo'lgan «Devqal'a», «Shirin qiz», «Kalta minor», «Ilon buzgan» singari to'qima afsonalar mazkur turkumga oiddir. Bu afsonalar O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Ular insonlarning beqiyos kuchi va go'zalligini madh etadi. Bu afsonalar fantastik uydirmalar zaminida naql etilgan bo'lib, sujeti ko'proq xayoliy epizodlardan tashkil topadi va ma'lum bir tarixiy joylar, tepaliklar, qal'alar bilan bog'liq ravishda hikoya qilinadi. Qoraqum sahrosida Yorbakir, Shirvon, Shmaxa, Xalaf nomi bilan mashhur bo'lgan qal'alarning xarobalari mavjud bo'lib, ular «Shohsanam va G'arib» afsonasi, «Devqal'a» esa Sharqda mashhur bo'lgan «Farhod va Shirin» afsonasi bilan bog'lanadi.

Rivoyatlar – voqelikni hayotiy uydirmalar asosida aks ettiruvchi, sujet tizimida mifologik obrazlar uchramaydigan, voqelik talqini hududiy-etnografik lokallik kasb etishi bilan xarakterlanadigan, qadimiy asoslarga ega bo'lgan, xalq orasida keng ommalashgan folklor janridir. Ularda hayot voqeligi real aks ettiriladi. Shuning uchun o'zbek xalq og'zaki ijodining

qadimiy, an'anaviy va keng tarqalgan janrlaridan biri bo'lgan va hayotiy voqelikni hayotiy uydirmalar orqali bayon etadigan, biror ma'lumot haqida tinglovchiga xabar berish maqsadida hikoya qilinadigan og'zaki nasriy asarlar **rivoyat** deyiladi.

Rivoyatlar g'oyaviy-mavzuviy jihatdan rang-barang bo'lib, toponimik va tarixiy rivoyat kabi turlarga ajratiladi.

Toponimik rivoyatlar yana aholi yashaydigan joylar nomining kelib chiqish sabablarini izohlovchi oykonomik rivoyatlar; suv havzalari, daryo, ko'l, quduq, soy, chashma, ariq nomining kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan gidronomik rivoyatlar; tog'-u toshlar, tepaliklar, g'orlar, cho'llar to'g'risidagi oronomik rivoyatlar; mozar, qabrston nomlari, ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolarining nomi bilan bog'liq nekronomik rivoyatlar kabi ichki turkumlarga bo'linadi.

Toponimik rivoyatlarda muayyan jug'rofiy atamaning paydo bo'lishi aniq faktlar va etnofolkloriy detallar bilan tushuntiriladi, joy nomining vujudga kelish sababi izohlanadi.

Tarixiy rivoyatlarda haqiqatda hayotda bo'lib o'tgan voqealar, yashab o'tgan shaxslar to'g'risida so'z yuritiladi. Atoqli va mashhur shaxslarning hayoti va faoliyatini hikoya qilish orqali axloq va odobning ideal normalari tashviq etiladi. Jumladan, To'maris, Shiroq kabi vatanparvarlar, Ibn Sino kabi buyuk tabib, Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi olim va shoirlar, Mashrab singari ilohiy ishq yo'liga kirgan oshiq, Amir Temur kabi jasoratli va dono hukmdor, Imom Ismoil al-Buxoriy, Xoja Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Xoja Ahrori Valiy singari din va tasavvuf arboblari haqida qator rivoyatlar yaratilganki, ularni xalq hamisha sevib tinglaydi.

Rivoyat hayotiy voqealarni badiiy uydirmalar vositasida hikoya qiluvchi, realistik xarakterdagi og'zaki ijod turlaridan bo'lib, g'oyaviy-tematik jihatdan rang-barangdir. Rivoyatlar tarixiy voqealar va ayrim shaxslar bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni, ijtimoiy hayot va turmush, geografik joylar - sahro, ko'l, cho'l, dengiz, shahar, qishloq, qal'a, saroy va boshqalarning barpo bo'lishi hamda vayron qilinishi haqida hikoya qilishi

mumkin. Mazkur hikoyalar u yoki bu voqelik haqida xabar berish va uni tasdiqlash funksiyasini bajaradi.

Rivoyatlarda lutf va nazokat, aql va tadbir, ishq va vafo, yaxshilik va odamiylik kabi ilg'or g'oyalar jamiyatda uchragan zulm va zo'rlik, haqsizlik va adovat singari illatlarga qarshi qo'yiladi. Rivoyatlarni ikki turkumga bo'lish mumkin. Biri muayyan voqea va tarixiy shaxslar bilan bog'liq bo'lgan rivoyatlar, ikkinchisi toponimik rivoyatlar. Tarixiy rivoyatlar biror shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni hikoya qiladi, axloq va odobning ideal normalarini tashviq etib, muayyan faktlar haqida axborot beradi. Alisher Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Mashrab kabi olim va shoirlar, Amir Temur, Sulton Mahmud singari tarixiy shaxslar haqida yaratilgan rivoyatlar shular jumlasidandir.

Qadimgi miflar. Porloq kelajakni orzu qilib, unga umid ko'zi bilan boqqan uzoq o'tmishdagi avlod-ajdodlarimiz kishilarning qudratli rivojini oldindan sezib, ularning qobiliyatini ideallashtirgan mifologik obrazlarni yaratgan. Ana shu mifologik obrazlarning ilk bor namunalari ko'hna mif, afsonalarda naql etildi. Qadimgi davr folklor namunalari ichida mifologik tasavvurlar asosida yaratilgan afsonalar va miflar alohida o'rin tutadi.

Mif grekcha so'z bo'lib, xudolar va pahlavonlar haqidagi to'qima afsonadir. Mifologiya ibtidoiy insonning tabiatni bilishga intilishining natijasi hisoblanadi. Darhaqiqat, insonning tabiatga qarshi kurashdagi ojizligi uni noma'lum ko'ringan hodisalarga javob topishga, qandaydir tushuncha va tasavvurlar yaratishga majbur etgan. Bo'ron, zilzila, suv toshqini, sel kabi g'ayritabiiy ko'ringan kuchlar dahshatidan talvasaga tushgan inson yovuz kuchlarga qarshi kurasha oluvchi homiy izlagan. Nihoyat, yaxshilik va yomonlik haqidagi mifologik tasavvurlar paydo bo'lgan.

Olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlar ana shu tarzda yuzaga kelgan bo'lib, u o'z navbatida osmon, oy, quyosh hamda turli xil hayvonlar haqidagi xudolarni, g'ayritabiiy tasvirlangan pahlavonlar haqidagi miflarni hosil qildi. Mazkur miflar

kishilarga ruhiy kuch, tetiklik va osoyishtalik baxsh etgan, nihoyat, insoniyatni g'alabaga chorlagan. Qadimgi ertaklar, afsona, miflarning asosiy g'oyasi qadimgi davrlardagi mehnat kishilarining yukini engillashtirishga, ishning unumini oshirishlariga, to'rt oyoqli va ikki oyoqli dushmanlarga qarshi qurollanishlariga hamda so'z kuchi – «avrash», «afsun» yo'li bilan tabiatning kishilarga xatarli bo'lgan hodisalariga ta'sir etishlariga qaratilgan. Ko'rinadiki, mif zo'r kuch va qudrat, osoyishta yashash hamda yovuz kuch ustidan g'alaba qila olish haqidagi orzu- umidning yakunidir.

«Avesto»da ikki yaratuvchi kuch – yaxshilik va yomonlik Axuramazda va Axriman qiyofasida namoyon bo'ladi. Mazkur kitob g'oyasiga ko'ra, tabiat va jamiyatdagi hodisalarning barchasi yaratuvchining o'zaro kurashidan kelib chiqqan.

Axuramazda yaxshilik, yorug'lik, obodonlik va ezgu kuchlarning xudosidir. Unga qarashli narsalar inson turmushini yaxshilashga va xizmat qilishga qaratilgan. U o'z yordamchilari orqali olov, chorva, metall, yer-suv va o'simliklar dunyosini boshqaradi.

Angra Man'yu (Axriman) barcha yovuzlik va yomonlikni boshqaradi. U Axuramazdaga qarshi chiqadi va o'ziga qarashli devlar yordamida odamlarga azob-uqubat, mashaqqat, kulfat keltiradi. Axriman zo'r kuch va qudratga ega bo'lsa-da, biroq Axuramazda kabi har narsaga qodir va qobil emas, shu sababli yomonlik kuchlari yaxshilik oldida doimo mag'lubiyatga uchraydi. Yorug'lik manbayi quyosh deb ko'rsatiladi. Quyosh nuri insonga hayot bag'ishlaydi. Olov esa quyoshning bir parchasidir. Shuning uchun ham, inson olovni muqaddas hisoblab, otashkadalarda saqlar edi. Bunday otashkadalarda Xorazmda, ya'ni Jonbos qal'ada, topilgan. Demak, o'zbeklar orasida quyoshga, olovga e'tiqod qo'yib, unga topinish juda qadimdan davom etib kelgan. Mitra – quyosh va yorug'lik xudosi, Noxiti – obodonlik va farovonlik xudosi, Humo – baxt, tole va davlat xudosi, Anaxita va Xubbi (Farg'onada Er Hubbi) – suv xudosi, Mirrix – urush va g'alaba xudosi. Yomonlik kuchlari esa ajdar, dev, jin kabi salbiy miflar orqali tasvirlangan.

Ko'ramizki, ilk bor yuzaga kelgan badiiy obrazlar ibtidoiy inson orzularining naqadar hayotiy ekanligidan dalolat beradi. Bu diniy personajlarning har biri «Avesto»ga kirmasdan oldin ham madadkor ruh yoki yovuz kuch sifatida xalq o'rtasida mavjud bo'lgan.

Ardivisura Anaxita haqida mif. «Avesto»da Anaxita zabardast, xushqomat, kamarini baland bog'lagan, to'g'riso'z, marhamatli go'zal qiz sifatida namoyon bo'ladi. U kishilarga kuch- qudrat baxsh etuvchi, suvning mo'l bo'lishini ta'minlovchi ma'buda. Xudo ibtidoiy kishilar tasavvurida mavhum tushuncha, xayoliy mavjudot emas, balki u yoki bu mehnat quroli bilan qurollangan real siymo edi.

«Avesto»da shuhrat topgan qahramonlarning yovuzlik timsoliga (Aji Dahok, dev va sehrgarlar) qarshi qo'yilgan qismlar bor. Ularda tasvirlanishicha, yovuzlikka qarshi chiqqan pahlavon jang oldidan g'alaba qozonishni so'rab, muqaddas homiyga sig'inadi, iltijo qiladi: «O, marhamatli, zabardast Ardivisura Anaxita, menga madad ber, uch og'iz va uch boshli, olti ko'z va ming xil kuchlar sultoni, bahaybat Aji Dahok ustidan g'olib chiqay». Shunday ekan, bu motiv ertak va dostonlardagi qahramonlarning ajdar bilan jang qilish epizodini eslatadi. Demak, ana shu jang motivi mazkur kitob yaratilmasdan burun ham xalq og'zida mavjud bo'lgan. Kitob avtori Zaratushtra ana shu motiv shuhratidan foydalangan va uni o'z g'oyasi uchun xizmat qildirgan. Anaxita, asosan, suv va hosildorlik ma'budasi bo'lgan. Anbar ona esa Anaxitaning keyingi variantidir.

Kayumars va Jamshid haqida miflar. Kayumars haqida mif qadimgi O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Uning turli xil variantlarini qadimiy yozma manbalardan «Avesto», «Tarixi Tabariy» hamda Abu Rayhon Beruniyning «O'tmish asrlardan qolgan yodgorliklar» nomli kitobida, Firdavsiyning «Shohnoma» asarida ko'rish mumkin. Kayumars «Avesto»da, asosan, Gaya Maretan, ba'zi o'rinda esa Gaya Martan deb yuritildi. «G'iyos ul-lug'at»da esa Kayumars Gavomard deb ko'rsatiladi. Arxeolog S.P.Tolstovning fikricha, Gavomardning ma'nosi inson-buqa. U Amudaryo bo'yida yashagan. Bo'yi

daryoning u beti bilan bu betiga etgan. Gavomard – Kayumars Xorazmda yashagan.

Ushbu mifning Beruniy asaridagi bayoniga ko'ra, Axrimanning yomon qilmishlaridan xudo hayratda qoladi. Uning peshanasidan ter chiqadi. Terni artib tashlaganda, ter donasidan Kayumars tug'iladi. Xudo Kayumarsni Axriman yoniga jo'natadi. Kayumars Axriman yoniga yetib kelib, uning yelkasiga minib oladi va shu holda dunyoni aylana boshlaydi. Nihoyat, Axriman bir hiyla bilan Kayumarsni yelkasidan uloqtirib tashlaydi va uning ustiga minib olib yeyajagini aytadi. – Seni qaysi tomoningdan yeyay, – deb so'raydi Axriman. – Oyoq tomonimdan, – deb javob beradi Kayumars, – toki dunyo go'zalligidan uzoqroq bahra olib turayin. Ammo Kayumars Axrimanning u aytgan gapning teskarisini qilishini bilar edi. Axriman Kayumarsni boshi tomonidan yeya boshlaydi. Beliga yetganda Kayumarsning urug'donidan ikki dona urug' yerga tushadi. Ulardan o'simlik o'sib chiqadi. O'sha o'simliklardan bir o'g'il, bir qiz (Meshi va Meshona) paydo bo'ladi.

Mifda Kayumars yerda paydo bo'lgan birinchi odam sifatida ta'riflangan. Kayumars yaxshilik va ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi haqidagi ibtidoiy ishonchning obrazli ifodasidir. Mifning qisqacha mazmuni quyidagicha: O'tgan zamonda Nuh payg'ambar bo'yi bulutga yetadigan bir duradgor ustani chaqirib, kema yasab berishni so'rabdi. Bu odamning nomi Odami Od ekan. U nihoyatda baland bo'yli, kuchli bo'lib, daryo va dengizda baliqni ushlab, quyosh issig'iga tutib pishirib, yeb keta berar ekan. Odami Od Nuh payg'ambarini yelkasiga mindirib toqqa olib chiqibdi. Qayerda baland daraxt bo'lsa, kema uchun kesmoqchi bo'libdi. Tog'da to'rtta katta chinor bor ekan. U chinorlarni tomir-pomiri bilan sug'urib olib, o'z yelkasiga ortib, ustiga Nuh payg'ambarini o'tqazib, dengiz bo'yiga ravona bo'libdi. Odami Odning qorni hech ovqatga to'ymas ekan. Nonushtasiga bir hovuz suvga non to'g'rab yer ekan. Odami Od kemani bitiribdi. Hamma odamlarni kemaga solib, dengizga tushib, o'zi kemani torta ketibdi.

Hikoyada Odami Od odamlar ajdodi birinchi odam sifatida

namoyon bo'lgan. Mazkur naqlda qadimgi inson dunyoqarashi o'z ifodasini topgan. Od so'zi tojik va fors tilida ulkan odam ma'nosini bildiradi. Binobarin, mifologik obraz qadimiy urug'lardan birining himoyachisi, homiysi bo'lgan bo'lishi kerak. Od naqlda umumxalq manfaatini ko'zlab ish tutadi. Nihoyatda ulkan va g'ayritabiiy kuchga ega.

Xalq ijodiyotidayaxshilik va ezgulik timsoli sifatida Jamshid obrazi orqali gavdalangan. «Tarixi tabariy»dagi Jamshid afsonasi o'z mazmuni bilan Navoiy va Firdavsiy hikoyasidan biroz farq qiladi. Unda Jamshiddan tashqari yana Iblis obrazi ham bor. Tarixi Jamshidning keyinchalik Iblis makriga uchraganligini alohida qayd etib, unga ma'lum darajada afsonaviy ruh beradi. Jamshid obrazi o'zbek xalqining «Kitobi Jamshid» asarida ham saqlangan. Beruniy Jamshidning ko'p va xayrli ishlarini sanab chiqadi. Uning Navro'z bayramini tayin etganini so'zlaydi. Umuman, Jamshid mifologik obrazi xalq og'zaki ijodida, keyincha yozma adabiyotda yomonlik kuchlariga qarshi kurashda xalq najotkori sifatida tasvirlanadi, kishilarning ma'naviy g'alabasi va o'z kelajagiga ishonchini yaqqol ifodalaydi. Jamshid obrazi qadimiy afsonalarga ko'ra, Eronda eng avval hukmdorlik qilgan peshdodiylar sulolasining to'rtinchi va eng buyuk hukmdori. Shoh Tahmurasdan so'ng 700 yil podshohlik qilgan Jamshid Istaxr shahrini bunyod etib, mamlakatda behad farovonlik vujudga keltirgan, sharobni ixtiro qilib, Navro'zni yangi yil bayrami sifatida nishonlashni joriy etgan emish. U oyna (Oyinayi jam) ixtiro qilgan hamda odamlarni hayvon terisiga o'ranish o'rniga gazlamadan tikilgan kiyim kiyishga o'rgatgan, davlat tuzumini tashkil etib, aholini tabaqalarga bo'lgan. Bu oyna quyosh-u tabiatga bog'liq va aysh-u ishrat bilan uyg'unlashgan bir suratda ta'riflanadi. Go'yoki Jamshid o'z shon-u shavkati va saltanatidan mag'rurlanib ketib, xudolik da'vosini qilgan emish. Oqibatda Arabiston yarim orolidan, ehtimol, Yamandagi Od qavmidan Zahhok ismli bir hukmdor bostirib kelib, Eronni Jamshiddan tortib olgan ekan. So'ng Zahhok ikki yelkasidagi ikki ilonga mahalliy aholining navqiron o'g'illari miyasini yedira boshlabdi. Shunda o'g'illaridan ajragan bir Kova ismli temirchi

bosh ko'tarib, Zahhokni o'ldiribdi-da, taxtni Jamshid naslidan bo'lmish Faridunga olib beribdi. Faridun adolat bilan davlatni idora qilib, keksaygach uch o'g'liga mamlakatni bo'lib berish bilan Hazrat Nuhning maqomlariga erishibdi.

Jamshid sharobni ixtiro etganligi boisidan shoirlar o'rtasida «Qadahiy» (Jomi Jam) nomi bilan ham mashhurdir. Keyinchalik topilgan qadimiy hind brahmanlari afsonalariga ko'ra, bu hikoyaning hind afsonalaridan naql etilgani ma'lum bo'ladi. Haqiqatan, Zardusht brahmaniylar dinidan ajralib chiqib, alohida bir mazhab ta'sis etgani uchun vatanidan badarg'a qilinib, Eronga kelib qolgan. Shunga binoan eroniylar qadimgi hind afsonalarini o'rganishgan. Qadimiy hind afsonalarida Jamshid yoki Jomo Shaydo quyoshni anglatuvchi bir ma'bud ismi bo'lib, bu ismni tashkil qiluvchi so'zlarning birinchisi - «hukmdor» va ikkinchisi - «quyosh» ma'nosidadir, ya'ni «quyosh podshoh» demakdir.

Demak, mazkur mif didaktik mazmun kasb etgan. Umuman olganda, mif, afsona, asotir, rivoyat va boshqa qadimgi asarlarda insoniyatni yaxshilikka yetaklash, ezgulik asosida tarbiyalash bosh mavzu qilib tanlanganligini ko'ramiz. Bir so'z bilan aytganda, bu janrlar tom ma'nodagi didaktik masalalarni qamrab olgan va asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan. Hozir ham bu noyob asarlar o'z qimmatini yo'qotgan emas. Bu manbalar yozma adabiyotga ham katta xizmat qilib kelmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. O'zbek miflarining yuzaga kelishi va shakllanish bosqichlarini tavsiflang.
2. Mahalladagi qariyalardan ot, ilon va boshqa hayvonlar haqidagi hikoyalarni eshitib, yozib oling.
3. Afsona va rivoyatlarda aks etgan an'anaviy obrazlarning yozma adabiyotdagi badiiy takomilini qiyoslang.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. «Avesto» tarixiy-adabiy yodgorlik. - T.: Sharq NMAK, 2001.
2. Jo'raev M. O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar. – Toshkent, 1994.
3. Jo'raev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari. – Toshkent: Fan, 1995.
4. Jo'raev M., Shomusarov Sh. O'zbek mifologiyasi va Arab folklori. – Toshkent. Fan, 2001.
5. Jo'raev M., Narziqulova M. Mif, folklor va adabiyot. – Toshkent. O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.
6. Jo'raev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent. Fan, 2009. – B.75-96.
7. Jo'raev M., Rasulova Z. Mif, marosim va ertak. – Toshkent. Mumtoz so'z, 2014.
8. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent. Fan, 2008.
9. O'zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob. – T., 2006.
10. Jo'rayev M. O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar. – T., 1994.
11. Jumanazarov U. O'zbek folklori va tarixiy voqelik. – T.: Fan, 1991.– 230 b.
12. Madayev O., Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T., 2011.
13. O.Madayev, M. Jo'rayev, T.Sabitova, N.Muxitdinova O'zbek folklori. Darslik. T. 2022. "ZEBO PRINT". 2022.
14. Sabitova T. O'zbek xalq dostonlarining nazariy asoslari va badiiyati. Monografiya. T. "FIRDAVS SHOH", 2022.

3-mavzu: Mavsumiy folklor namunalari

1. Marosim va bayram, an'ana, urf-odat tushunchalarining mohiyati, o'zaro munosabati va farqli tomonlari.

2. Marosimlarning ijtimoiy-etnografik mohiyati va g'oyaviy-estetik vazifalari.

3. Mavsumiy marosimlar tabiati va folklori.

Tayanch iboralar: Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish va uni ilmiy tadqiq etish. Mustaqillik va xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va nashr ettirish masalalari haqida ma'lumot.

Darsning maqsadi. Xalq an'ana va marosimlarining xalq hayotida tutgan o'rni, ularning tili va badiiy xususiyatlarini yoritib berish.

Darsning vositalari. Konkret-obrazli, visual ko'rgazmali o'quv qurollari, folklorshunos olimlarning xalq og'zaki ijodiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

Darsning metodi. Blits-so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. Marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishdagi samarali vosita ham hisoblanadi. Marosim xalq san'ati va madaniyati shakllari orasida eng ulkan auditoriyani o'ziga jalb qiladigan ommaviy tadbir hisoblanadi. Marosimlar xalqning eng yaxshi an'analari, odatlari, axloqiy qoidalarini o'zida mujassamlashtirishi, saqlashi va rivojlantirishi jihatidan yoshlarni tarbiyalashda, ularning odob-axloqli bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Marosim inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy vaziyatda o'tadigan, o'z ramziy harakatlariga hamda maxsus aytim-qo'shiqlariga ega hayotiy tadbiridir.

Marosim arab tilidagi «marsum» so'zidan olingan bo'lib, 1-chizilgan; 2-rasm qilingan; 3-odat bo'lgan ma'nolarini

anglatadi. Har bir inson umri davomida turli maqsadlarda uyushtirilgan va xalq orasida odat tusiga kirgan marosimlarda ishtirok etadi. Ular to'ylardan, yig'nlardan, ma'rakalardan iborat bo'lishi mumkin. Ayni paytda, butun xalq qatnashadigan bayramlarni ham marosimlar qatoriga qo'sha olamiz.

Marosim folklori namunalari folklorning eng qadimiy janrlari sirasiga kiradi. Folklorshunoslikda marosim folklori janrlarini ikki katta guruhga ajratish an'anasi mavjud. Bu turlar quyidagi ko'rinishga ega:

- 1) mavsumiy marosimlar folklori;
- 2) oilaviy marosimlar folklori.

Mavsumiy marosimlar yil mavsumlarining almashinuvi avvali va oxiri, ma'lum bir xo'jalik turlarining boshlanib yakun topishi, ob-havo bilan bog'liq mavsumiy marosimlarni o'z ichiga oladi. Mavsumiy marosimlarning aniq vaqti, belgilangan o'tish muddatlari mavjud va ular bir oila yoki jamoaga tegishli bo'lmay butun xalq ommasiga tegishlidir.

«Mavsum» deganda, asosan, yil fasllari nazarda tutiladi. Binobarin, mavsum qo'shiqlari qish, bahor, yoz, kuz fasllari bilan bog'liq bo'ladi. Marosim esa diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan tadbir, yig'in demakdir. U bayram umumxalq shodiyonasi, tantana kun ma'nosini ifodalaydi. Ma'lum bo'ladiki, «marosim» tushunchasi «bayram» so'zi ifodalagan ma'nodan kengligi bilan farq qilar ekan. Chunki marosim bir shaxs hayotidagi muhim voqea bilan bog'lanishi mumkin. Bu tadbir oila chegarasi bilan cheklanadi. Bayramda esa umumxalq ishtiroki bo'lishi lozim. To'g'ri, biz, ko'pincha, «bayram marosimi» birikmasini qo'llashimiz mumkin, ammo bu holatda gap oilaviy marosim haqida emasligi ta'kidlanadi.

Dunyoda bironta xalq yo'qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlarni nishonlanmasin. Bayramlar butun xalq tayyorgarligi bilan o'tkaziladi. Katta shodiyonalar rejalashtiriladi.

Maxsus taomlar pishiriladi, bayram liboslari tikiladi, o'yin-kulgilar, sayillar, tomoshalar, musobaqalar uyushtiriladi. Shuning uchun milliy bayramlar tizimida xalq tarixi, milliy xususiyatlar

haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Bu tasavvurlarni oilaviy, muayyan hudud aholisi o'rtasidagi marosimlar, qolaversa, milliy urf-odatlar to'ldiradi, mukammallashtiradi.

Oilaviy marosimlar esa, aksincha, bir oila va oila a'zolari hayotidagi barcha mavsumlar o'zgarishlarni o'z ichiga qamraydi. Oilaviy marosimlar mazmuni tug'ilig', to'y va motam marosimlaridan iborat va bu marosimlarda ijro etiluvchi folklor namunalari oilaviy marosimlar tarkibiy qismini tashkil etadi.

2. Mavsumiy marosimlar. O'zbek mavsumiy marosim folklori o'z ichiga quyidagi janrlarni qamrab oladi:

1) yil fasllari bilan bog'liq marosim folklori janrlari:

a) qishki marosimlar folklori janrlari: «sherda», «qor xat». Xalqimizning qadimiy an'anasiga ko'ra, yil bo'yi mehnat qilib, kuzda dala ishlarini nihoyasiga etkazgan dehqon va bog'bonlar, shuningdek, o'z suruvini qishlovga qaytarib kelgan chorvadorlar qishi bilan turli- tuman marosimlar orqali vaqtning ko'ngilli o'tishini ta'minlaganlar. Yoshi teng bo'lgan kishilar, ya'ni hamteng, jo'ra, do'st-yorlar «teng- tengi» bilan yig'ilishib, gap-gashtak, dangana, to'kma, sherda, harfona (xalpana), o'tirishma, ziyofat, tashkil, gurung kabi turli xil marosimlarni tashkil etishgan. Ana shu xildagi o'tirishlar xalq orasida keng ommalashgan bo'lib, odatda o'ziga xos marosim tarzida o'tkazilgan.

Qish fasli bilan bog'liq mavsumiy marosim folklorining o'ziga xos qo'shiqlar silsilasini jonli ijro holatida XX asrning 80-yillariga qadar saqlab kelgan qadimiy janrlaridan biri «sherda» deb atalgan. Xalqimiz orasida «sherda» atamasining bir necha xil talqinlari bor. Samarqand viloyati cho'ponlari shevasida «sherda» so'zi «pishirilgan bir butun mol go'shtini teng bo'laklarga bo'lib oshi» degan ma'noda qo'llaniladi. Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi eski Qamay qishlog'ida yashovchi Hazratqul baxshi Xudoyberdi o'g'lining aytishicha, «sherda deganimiz, masalan, 20 kishi birlashib bir qo'yni bozor kuni so'yib, bir yarim yoki ikki kilogrammdan bo'lib olishi odati. Ular yanagi haftada men, undan keyingi haftada siz deb navbat tuzib, dastlab sherda boshlaganda qanchadan

go'sht bo'lib olingan bo'lsa, ana shu davom etib, yigirmasi ham bittadan qo'y so'yib bo'lib beradi».

«Sherda» marosimining to'liq tavsifi 1928-yilda etnograf olim M.F.Gavrilov tomonidan Zomin va Shahrison tumanlarida istiqomat qiluvchi qirq, ming, yuz, qarapchi, parchayuz urug'laridan yozib olingan. An'anaga ko'ra, «sherda» marosimi ikki xil yo'l bilan, ya'ni o'tirish uchun zarur bo'ladigan masalliq'larni birgalikda, qo'shilishib xarid qilish yoki «to'kma» usulida (shuning uchun ham M.F.Gavrilov bu marosim Toshkent atrofidagi qishloqlarda «to'kma» deb ataladi deb yozgan edi) hamda marosim ishtirokchilarining har biri galma-gal xarajat qilishi yo'li bilan tashkil etilgan. «Sherda» qish bo'yi o'tkazilishi ko'zda tutilganligi sababli bu marosimda ishtirok etadigan jo'ralar, ulfatlar yoki tengdoshlar o'zlarining ichidan bir kishini «bek» qilib saylaganlar. Bek esa o'ziga yordam beradigan «o'ng otaliq» va «chap otaliq»ni tayinlagan. Ular biror sabab bilan bek «sherda»da qatnashmay qolsa, uning vazifasini bajaruvchi o'rinbosar hisoblanishgan.

Odatda qish kirishi bilan o'tkazilgan birinchi «sherda»da «bek» saylangan. Jizzax viloyatining Forish tumanidagi Forish davlat xo'jaligining 2-bo'limida yashovchi 70 yashar Ortiqvoy Risbekovning aytishicha, bu udum «bek ko'tarish» deyilgan. Bunda «sherda»ga yig'ilgan yigitlar o'zlarining eng obro'e'tiborli jo'rasini «bek» qilib ko'tarishgach, hammalari qur to'kib o'tirishgan va ulardan biri kosagulning qo'lidan bo'za quyilgan piyolani olib quyidagi qo'shiqni ijro etgan:

*Ey begim, beklikkinangga yona bo'l,
Majlisa kirgan yigitlar dono bo'li!
Do'st kelib, dushman ketar kundir bugun,
Ey begim, qo'sh otaliq, mardona bo'l,
Begim Allayor, Allayor,
Begim Allayor, Allayor!
Ey begim, nechada bordir yoshingiz,
Hamisha davlatda bo'lsin boshingiz,
Do'st kelib, dushman ketar kundir bugun,
Hamisha Xizr bo'lsin yo'ldoshingiz,*

*Begim Allayor, Allayor,
Begim Allayor, Allayor!
Qor yog'mayin ola bo'lgan tog'lar-a,
G'unchasinda xazon bo'lgan bog'lar-a,
Kuyistonda kuyib o'tgan bedilxon,
Ustida qag'illab o'tgan g'ozlar-a,
Begim Allayor, Allayor,
Begim Allayor, Allayor!*

Forishliklar orasida urf bo'lgan an'anaga ko'ra, «sherda»da ba'zan hatto 50-60 nafar ulfatlar ishtirok etgan hollar ham bo'lgan ekan. Ana shunday ko'p kishilik «sherda»ni boshqarish, tashkil qilish va tartibli o'tkazish bekdan alohida mahorat, tajriba va qattiqqo'llikni talab qilgan. Odatda bunday «sherda»ning «bek ko'tarish» udumida yigitlar «Sallamno» qo'shig'ini ijro etib, bekning sifatlarini ta'rif- tavsif qilganlar. Xususan, Forish tumanidagi Uchma qishlog'ilik Yusuf degan yigitni bek qilib ko'targanda jo'ralari quyidagi qo'shiqni ijro etishgan:

*Yusufbek uchma soyidan,
Suhbat qurib jat oyidan,
Ellik yigitga bosh bo'lib,
Yusuf begimga Sallamno!
Ellik yigitniyam ozi,
Yarashiqqa oltin qozi,
Aning o'zi bo'lib sozi,
Bahushyoringga Sallamno!*

*Yana keldik Yusufbekka,
Erkavoyning bo'yi tikka,
Kosani sunganda bekka,
Daroz bo'yingga Sallamno!
Yasavuli Erkavoydir,
Minganlari qilich toydir,
Aning o'zi yakka boydir,
Bahushyoringga Sallamno!*

Bu marosimning o'ziga xos jihati shundaki, unda ishtirok etuvchi yigitlarning barchasi «sherda»da aytiladigan an'anaviy xalq qo'shiqlarini shirali ovoz bilan ijro etishgan. Ishtirokchilardan biri tomonidan ijro etilgan to'rtlik boshqa kishi tomonidan qaytarilmagan.

«Sherda» boshlangach, kosagul bo'za quyilgan kosani ulfatlardan biriga tutar ekan:

*Alyor bo'lsin-ay, Xo'jam yor bo'lsin-ay,
Xo'jam bergan bu davlatga
Dushman zor bo'lsin-ay! – deb qo'shiq aytgan.*

Kosani olayotgan kishi bunga javoban odatda «Ollo yor bo'lsin-ey!»degan bo'lsa-da, ko'pincha javob to'rtliklari ham aytilgan:

*Oyga o'xshaydir yuzing,
Cho'lponga o'xshaydi ko'zing,
Muncha ham yaxshi bo'lurmi,
El ichinda yulduzing.*

Turkiston, Qarnoq, Iqon, Sayram, Qorabuloqda «sherda» marosimida ijro etiladigan an'anaviy xalq qo'shiqlari «haqqonalar», «ko'nalar», «bo'zagarlar qo'shig'i» deb atalgan.

Bu joylarda urf bo'lgan an'anaga ko'ra, bekning amri bilan bo'za to'la kosani olgan kishi childirma jo'rligida «haqqona» qo'shig'ining ikki to'rtligini ijro etishi, binobarin, birinchi to'rtlik qaysi so'z bilan boshlangan bo'lsa ikkinchi to'rtlikni ham aynan o'sha so'z bilan boshlash qoidasiga rioya qilishi lozim bo'lgan. «Sherda» marosimining qadimiy an'analari o'tgan asr o'rtalariga qadar yashab kelgan bo'lsa-da, xalqimiz turmush tarzi va qadriyatlarining izchil rivoji davomida saqlanib qolmadi. Ammo bu marosimda ijro etilgan xalq qo'shiqlari keksa avlod xotirasida saqlangan bo'lib, folklor ekspeditsiyalari chog'ida «haqqona», «ko'hna» deb ataluvchi bu tafakkur durdonalarining ko'plab namunalari yozib olingan.

b) bahorgi marosimlar folklori janrlari: «boychechak xabari» yoki «boychechak sayli», «qozon to'ldi», Navro'z, «sumalak sayli»), «Lola sayli», «guli surx» sayli, «qizil gul sayli», «shox moylar», yomg'ir yog'dirish va uni to'xtatish marosimi folklori («Sust xotin», «chala xotin», «so'z xotin», «chayla qozoq» va h.k.).

Mamlakatimiz hududida an'anaviy tarzda o'tkazib kelingan gul sayllarining eng qadimiysi va keng tarqalgani «Boychechak sayli» yoki «Boychechak xabari» marosimi hisoblanadi. Tarixan magik xarakterdagi «Boychechak sayli» yoki «Boychechak xabari» marosimi qadimdan Navro'zoldi shodiyonalardan biri sifatida o'tkazib kelingan. Ba'zi joylarda bolalar bir dasta boychechakni uzun xodaning uchiga bog'lab olganlar va uni ko'tarib qishloq aylanganlar. Qadimda o'tgan «Boychechak» marosimida qish va ko'klamning kurashini ifodalovchi sahnalar bo'lgan.

«Jat» - Forishlik cho'ponlar yanvar oyini shu nom bilan ataydilar.

Bunda qish va yoz tomon ramziy jang qilib, aytim-qo'shiq kuylab bahslashganlar.

Boychechak chiqqanligi qish-qirovli kunlar ortda qolib, ko'klam yaqinlashganligini anglatgan. Shuning uchun keksa va kasal odamlar bolalar olib kelgan boychechakni yuz-ko'zlariga surtib, undan yaqinlashayotgan bahor hidini tuyganlar. Sog'omon Navro'zga yetib kelganliklariga shukrona aytib, «omonlik, omonlik, hech ko'rmaylik yomonlik, yanagi yil shu kunlarga eson-omon etaylik! Og'irligim yerga, yengilligim o'zimga», - deganlar.

Xalqimiz tafakkurining betakror mo'jizasi – Navro'z bayrami qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan muhtasham qadriyatlarimizdan biridir. Tabiat va jamiyatdagi yangilanishni o'zida ajoyib tarzda mujassam etgan Navro'z sayli xalqimiz dunyoqarashi, turmush tarzi, o'ziga xos milliy an'analari va badiiy tafakkurining har bir yutug'idan kuch olib, asrlar davomida yanada to'lishib, yangilanib, barkamollashib kelgan shodiyonadir. Navro'z bayrami sayllari yilning eng farog'atli va

saodatli davrida, ya'ni butun olam ko'klam tarovatidan yashnab ketadigan, tabiatda ham, inson ko'nglida ham yangilanish, yasharish mavsumi boshlanadigan damda bo'lib o'tadi. Odamlar qalbiga cheksiz quvonch, mehr-oqibat, ezgu umidlar baxshida etadigan yilboshi sayllari g'oyatda hayotbaxsh va, ayni paytda, bunday muhtasham qadriyatlarni ijod qilgan ulug' xalqimizning o'zi kabi umrboqiydir.

Navro'z sayli tantanalari o'ziga xos tarzda boshlanadi. Barchashahar, tuman markazlari, qishloq guzarlari va mahallalar bahoriy kayfiyat, ruhiy yangilanish, mehr-oqibat, yaratuvchilik va bunyodkorlik g'oyalarini o'zida aks ettirgan shiorlar, lavhalar, suratlar bilan bezatiladi. Sayildan bir kun oldin gul-chamanlar bilan bezatilgan mashinalarga o'rnatilgan ovoz kuchaytirgich moslamalari yordamida jarchilar yurtodoshlarimizni yilboshi shodiyonalariga taklif etadilar. Bu ezgu tantana targ'ibotida ommaviy axborot vositalari, radio va televideniye xodimlari ham faol ishtirok etadilar. Xalq o'yinlari, ko'pkari, kurash, arg'imchoq uchish, varrak uchirish an'analari bilan birga folklor-etnografik jamoalari, lapar, o'lan, alla ijrochilari, hunarmandlarning ko'rik-tanlovlari, askiyachilarning bellashuvlari, mahalla-ko'y obodonchiligi, oilalar farovonligi, mehr-oqibatlilik bilan bog'liq ko'rik-tanlovlar o'tkazildi.

Xalqimizning ko'hna e'tiqodlaridan biri bo'lmish yilboshini sumalaksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ota-bobolarimiz Navro'zga tayyorgarlikni ham sumalak pishirish uchun maysa undirishdan boshlaganlar. Navro'z bamisoli tan bo'lsa, sumalak uning joni, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Ajdodlarimiz asrlar bo'yi Navro'z oqshomi katta-katta doshqozonlarda sumalaklarni qaynatib, kelayotgan yangi yil barakali, qutli va serhosil bo'lishiga umid bog'laganlar. Sumalak pishirayotgan onaxonlarimiz qadimiy xalq qo'shiqlarini, bayt-g'azallarni aytib, bayram fayziga fayz qo'shganlar. Xalqimiz orasida sumalak pishirish bilan aloqador g'oyat qiziqarli an'ana va udumlar, e'tiqod va inonchlar bo'lgan. Ana shunday qadimiy an'analardan biri sumalak pishirish bilan aloqador «Ashshadarozi» marosimidir. Amudaryo sohillariga xos bu qadimiy marosim

va u bilan bog'liq o'yin Xorazm xalq teatri an'analarini o'rgangan san'atshunos T.Qilichev tomonidan aniqlangan. Olim 1974-yilning 10-noyabrida To'rtko'l tumanidagi «Qirqqizobod» jamoa xo'jaligida yashovchi 70 yashar Bibi momo Qoziyevadan sumalak pishirish paytida o'ynaladigan «Ashshadarozi» nomli xalq o'yinining etnografik tavsifi va qo'shiqlarini yozib olgan.

Ma'lumbo'lishicha, «Ashshadarozi» marosimi (bu o'yinning etnofolkloristik tavsifi T.Qilichevning «Xorazm xalq teatri» (Toshkent, adabiyot va san'at nashriyoti, 1988, 70-75-betlar) kitobidagi ma'lumotlar asosida bayon qilindi) sumalak pishirilayotganda tashkil etilgan. Buning uchun ikki yarim - uch metrlik chamasi uzunlikdagi tayoqning uchidan yarim metrlik pastrog'idan ko'ndalang qilib kichikroq bir tayoqcha bog'langan. Tepa qismida qo'l shakli hosil qilingan ana shu tayoqqa uzun bo'yli bir ayolning ko'ylagini kiygizishgan va uning uchiga bir ro'molni ham tang'ib odam boshiga o'xshatib qo'yganlar. Uzun bo'yli yog'och qo'g'irchoqning boshiga Xorazmcha duziy do'ppi kiygizib, ustidan oq ipak ro'mol tashlaganlar. Uzun ko'ylakli bu qo'g'irchoq «Ashshadarozi» deb atalgan. Ayollardan biri qo'g'irchoqqa kiygizilgan uzun ko'ylakning ichiga kirib oladida, Ashshadarozi ko'tarib sumalak pishirilayotgan joyga olib borgan.

Odatda, so'zga chechan, xalq qo'shiqlarini mahorat bilan ijro eta oladigan ayolga Ashshadarozi roli topshiriladi. U uzun ko'ylakli sarvqomat qo'g'irchoq kelinchakni ko'targancha davraga kirib borar ekan, sumalak sayliga yig'ilgan ayollardan biri erkakcha kiyinib o'rtaga chiqadi-da, shunday qo'shiq boshlaydi:

*Ashshadarozi mevaram,
Vaqt namozi bevaram,
O'n barmog'ini o'ynatib,
Boqqan onangga bir salom!*

Shunda Ashshadarozi avval sumalak sayliga bosh-qosh bo'lib turgan tabarruk momolarga, katxudo - kayvonilarga,

so'ngra barcha davra ahliga ta'zim qilib, salom soladi. Qiz-juvonlar uning tavoze bilan egilib salom berishini zo'r xursandchilik bilan olqishlaydilar.

Erkakcha kiyingan xotin bilan Ashshadarozi rolini bajarayotgan ayol o'rtasidagi aytishuv esa davom ettiriladi.

Xalqimizning bahor fasli bilan bog'liq an'anaviy marosimlaridan biri «halinchak uchish» yoki «arg'imchoq uchish» marosimidir. An'anaga ko'ra, bayram kunlari qiz-juvonlar to'planishib, bog'sayriga chiqqanlar. Azim o'riklarning baquvvat shoxlariga arqon tashlab, arg'imchoq – halinchaklar yasashgan, hamma navbati bilan arg'imchoq uchgan. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Tangachar qishlog'ida yashovchi Yaxshigul momo Mulla Niyozberdi qizining aytishicha, kimki Navro'zda arg'imchoq uchsa, yil bo'yi bilib-bilmay qilgan gunohlari «to'kilarmish». Shu bois kekxa momolar ham «arg'imchoq uchsak, savob bo'ladi! Og'irligimiz yerga to'kiladi, qushdek yengil bo'lamiz!» – deyishib, hazil-huzul bilan arg'imchoq uchishgan. Nabiralari esa «momolarimizning yoshiga yetaylik» degan ezgu niyatda arg'imchoqning ipidan tutib harakatlantirganlar.

Xalqimizning Navro'z bayrami bilan aloqador marosimlari sirasiga kiradigan an'anaviy «qizil gul» sayli agrar kultlar va hosildorlik g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan qadimiy umumxalq tantanalaridan biridir. «Qizil gul» sayli o'ziga xos qo'shiqlar tizimiga ega bo'lgan qadimiy mavsumiy tantanalardan biri bo'lib, har yili bahorda qizil gullar ochilgan paytda an'anaviy tarzda o'tkazib kelingan. U o'z tarkibiga xalq qo'shiqchilik san'ati, o'yin folklori, raqs, xalq teatri, hunarmandchilik, urf-odat va marosimlarni qamrab olgan ma'naviy qadriyat namunasi sanaladi.

Yomg'ir chaqirish bilan bog'liq marosimlarning keng tarqalganki «Sustxotin» deb atalgan bo'lib, bu marosimga oid ilk ilmiy qayd muallifi o'lkashunos G. Arandarenkodir. U o'zining 1877-yilda yozilgan Zarafshon vohasi aholisining metereologik qarashlariga oid bir maqolasida yomg'ir yog'dirish marosimi bilan bog'liq «Sust xotin» marosimi qo'shig'ining bir

namunasini keltirgan. Unga ko'ra, mazkur marosimda quyidagi qo'shiq ijro etilgan:

*Yomg'ir yog'sin, sust xotin,
Arpa pishsin, sust xotin,
Sigir iysin, sust xotin.*

Ko'klam qurg'oq kelib lalmiga ekilgan bug'doy o'smay qolsa, o'n-o'n besh chog'li yigit-yalanglar yig'ilishib, bir bolani eshakka teskari mindirib, qo'liga suv to'lg'azilgan kadini tutqazib qo'yishadi. Ikkita toshbaqani tutib kelib, oyog'iga ip bog'lab, eshakka osishadi. Joni og'rigan jonivorlar zorlanib ovoz chiqaradi. Eshak ustidagi bola esa qo'lidagi kadiga solib qo'yilgan naychani aylantirib, toshbaqa ovozigaga monand holda «g'urr-g'urr» deb baqiradi. Shunday qilib, yigitlar uyma-uy yurishar, har uyga borganda eshak mingan bola:

«Voy, jonim! Kuydim-ey! Kuydim-ey!»- deb qichqiradi. Xonadon sohibi bo'lsa, bir chelak suv chiqarib haligi bolaning ustiga sepadi. Yigitlar uy egasi bergan don-dun yoki boshqa biror yegulikni olib qo'shiq aytgancha boshqa hovli tomon yurishadi:

*Havo yog'mas bo'larmi,
Tomchi tommas bo'larmi,
Saksondagi kampirlarni,
Suv oqizmas bo'larmi,
Sust xotin-o, sust xotin,
Ko'ylaklari bo'z xotin.
Dehqonlarni g'am bosdi,
Omochlarni chang bosdi,
Havo yog'sin zarchalab,
Bug'doy bo'lsin shoxchalab,
Sust xotin-o, sust xotin,
Ko'ylaklari bo'z xotin.*

Ko'lbuloqlik Sa'dulla Mirsaparovning xotirlashicha, «Sust

xotin» marosimini o'tkazayotganda dehqonlar omochlarining uchini tepaga qaratib qo'yishgan. Omochning tig'iga bitta toshbaqani osib qo'yib qiynaganlar. Go'yo jonivorning qiynalganini ko'rib rahmi kelgan Xudo yomg'ir yuboradi, deb umid qilganlar. Ayollar esa uyma- uy yurishib, «Sust xotin» qo'shig'ini aytishgan. Uy egasi bug'doy chiqarib bersa, xotinlar: «Oblohu Akbar! Guldur momo, jaldir momo kelsin, yomg'ir yog'sin, hammamiz seroblikka chiqaylik!»- deb niyat qilisharkan. Marosim nihoyasida yig'ilgan don-dundan osh pishirib, elga tarqatadilar.

v) yozgi marosimlar folklori janrlari: shamol chaqirish («Yo Haydar») va shamol to'xtatish marosimlari («Choy momo», «Yallimomo»), «Haqullo». Marosimning uchinchi lokal varianti Sayram tumanining Pushkin nomli jamoa xo'jaligida qayd qilingan. Axborotchilarning ma'lumotiga qaraganda, qattiq shamolning oti «Choymomo» bo'lib, olmapishar vaqtida kuchli shamol esib, mevalarni to'kib, zarar etkazadigan bo'lganda shamolni to'xtatish maqsadida mazkur marosim o'tkazilar ekan. Marosimning barcha rituallari, asosan, uchta kampir tomonidan bajarilgan: ulardan biri o'qlog'ini minib olsa, ikkinchisi supurgi ushlab olgan, uchinchi kampir esa yig'iladigan masalliq'larni to'rvaga solib ko'tarib yurgan. Uch kampir ana shu holatda qishloqdagi har bir uy oldiga borib Choymomo qo'shig'ini aytganlar. Uy egalari xayr-sadaqa qilib chiqarib bergan narsalarni to'plab, xudoyi qilib berganlar. Axborotchi Jahon opa Imomrashidovanning eslashicha, ularning qishlog'ida istiqomat qilgan Bodomgul momo degan kampir ana shunday marosimlarda doim qatnashib kelgan bo'lib, u quyidagi qo'shiqni aytgan ekan:

*Choymomo, choy, choy, choy,
Chayilib qolsin quv shamol,
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin quv shamol!
Uga-uga beringlar,
Ugilib qolsin bu shamol.*

*Choymomolar o'libdi,
O'g'li yetim qolibdi,
Choymomoning onasi,
Amakimga boribdi,
Choymomo, choy, choy,
Chayilib qolsin quv shamol,
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin quv shamol!
Uga-uga beringlar,
Ugilib qolsin quv shamol.*

O'zbeklarning shamol chaqirish bilan bog'liq irim-sirimlari va bu e'tiqodiy inonchlar tizimi bilan aloqador magik aytim matnlarida shamolning afsonaviy homiysi – Haydar yoki Mirhaydar nomi tilga olinadi. Xirmon sovurayotganda havo dim bo'lib, somon yurishmasa, sopol yoki chinni idishlarni taqillatib, hushtak chalishgan. Shundayam shamol esavermasa, hushtak chalib turib:

*Shamolingni qo'yvor, Somoni sendan,
Bug'doyi mendan, Haydaro, Haydar,
Bolang suvga oqdi, Yugur ushlab ol!*

O'rta Osiyo turkiy xalqlari folkloridagi shamol homiysining nomi sifatida qo'llaniluvchi «Haydar» atamasining kelib chiqishi Avesto»da nomi tilga olingan shamol xudosi «Vata» - «Vata» atamasiga bog'lanadi.

O'zbek dehqonlarining an'anasiga ko'ra, bug'doyni o'rib-yig'ib olgandan keyin yanchiq paytida «chosh qurdi», «chosh oshi», «xirmon oshi», «choshning belini bog'lash», «Haqullo» kabi marosimlar o'tkazilgan. Bug'doy o'rilgach, dehqonlar arava-ulov bilan g'aramlarni xirmon joyiga tashiganlar. G'alla tashishda ishtirok etadigan yigitlar aravalarda g'aramlarni tashiyotib, «Havvor-havvor» qo'shig'ini ijro etishgan:

*Ko'z tegmasin sayrog'ingga, havvor-havvor,
Tosh tegmasin tuyog'ingga, havvor-havvor,
Asta-asta jebalagin, havvor-havvor,
Quvvat bersin oyog'ingga, havvor-havvor,
Uzoq yo'lda hamrohim, havvor-havvor,
Og'ir yukdan hinqillab, havvor-havvor,
Sola bersam cho'qqingga, havvor-havvor,
Yo'rg'alagin zing'illab, havvor-havvor.*

Bir joyga to'plangan bug'doy g'aramlarini yanchish ishi boshlanadigan kunni qashqadaryolik dehqonlar «ayaq qo'shdi» deb atashgan. Xirmonga uyulgan g'aramlarni yanchgandan keyin choshni somondan ajratish uchun xirmon sovurayotgan dehqonning yoniga kelgan kishilar xirmonchining ishi yengillashishi uchun «xirmonga baraka, xirmonga!», «mo'lchilik-ko'lchilik», «ko'p bersin, kam qilmasin» deydilar.

g) kuzgi marosimlar folklori janrlari: «qovun sayli». Xalqimizning kuzgi mavsumiy marosim folklori tizimida polizlarda turfa qovunlar g'arq pishgan paytda o'tkaziladigan «qovun sayli» alohida o'rin tutadi. Chunki o'lkamizda qovunning xilma-xil navlari o'stirilgan bo'lib, mirishkor dehqonlar bunday sayillarda o'zlari yetishtirgan yangi navlarni, eng mazali qovunlarni namoyish etishgan.

«Qovun sayli» mamlakatimizning deyarli barcha viloyatlarida an'anaviy tarzda o'tkazib kelingan. Bu sayilda turli-tuman qovunlar namoyish etilgan, yigitlar va o'smir bolalar «qovun-qovun» o'yinini o'ynaganlar. Bunda o'yinchilar ikkiga bo'linib, bir-birlariga qovunlarni otib, ularning shirinligi, tilimi tilni yorishini qo'shiq qilib kuylashgan. Aytishuv shaklidagi bu qo'shiqning har bir to'rtligi «qovun-qovunlar dedim» an'anaviy takrorlanuvchi misra bilan boshlanib, keyingi misralarda istalgan qovun nomini qo'shib ijro etilavergan:

*Qovun-qovunlar dedim,
Mazali qovunlar dedim,
Ey Shirinnovvot dedim,
Gurvak qovunlar dedim.*

*Qovun-qovunlar dedim,
Shirin qovunlar dedim,
Oq Bekzodi, ko'k Bekzodi,
Qariqiz qovunlar dedim.*

*Shirinnovvot qovunimiz,
Mazasidan tomadi bol,
Farhod bo'lib bellashamiz,
Shirin bo'lib ko'nglimiz ol.*

*O'ynang qizlar, uynang qizlar,
Bog'da gulday yashnashaylik,
Shirinnovvot bir bahona,
Oshiq ko'nglin xushlashaylik.*

Xorazm viloyati tumanlarida esa «qovun sayli»da an'anaviy «Shirinnovvot» o'yini o'ynalgan. Bu o'yinni o'ynash uchun katta ayvoni bor uy tanlangan va yigit-qizlar har xil qovunlarni olib shu uyga yig'ilishgan. Yigitlar qovunlarni ko'tarib tomga chiqishgan va ayvon tepasidan ipga bog'langan qovunlarni pastda turgan qizlar tomonga tushirishgan. Qizlar ilib olish uchun qo'l cho'zishganda ular ipni yuqori tortganlar. Shu tariqa o'yin davom ettirilgan va yigit- qizlar tomonidan lapar usulida qo'shiq aytilgan.

4-mavzu: Oilaviy marosim folklori.

1. Oilaviy-maishiy marosimlarning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Oilaviy-maishiy marosimlarning turlari.
3. To'y marosimlari folklori.
4. Motam marosimlari folklori.

Tayanch iboralar: Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish va uni ilmiy tadqiq etish. Mustaqillik va xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va nashr ettirish masalalari haqida ma'lumot.

Darsning maqsadi. Xalq an'ana va marosimlarining xalq hayotida tutgan o'rni, ularning tili va badiiy xususiyatlarini yoritib berish.

Darsning vositalari. Konkret-obrazli, visual ko'rgazmali o'quv qurollari, folklorshunos olimlarning xalq og'zaki ijodiga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

Darsning metodi. Blits-so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. Marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishdagisamaralivositahamhisoblanadi.Marosimxalq san'ati va madaniyati shakllari orasida eng ulkan auditoriyani o'ziga jalb qiladigan ommaviy tadbir hisoblanadi. Marosimlar xalqning eng yaxshi an'analari, odatlari, axloqiy qoidalarini o'zida mujassamlashtirishi, saqlashi va rivojlantirishi jihatidan yoshlarni tarbiyalashda, ularning odob-axloqli bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy marosimlar tizimi ham o'z navbatida ikki katta guruhga ajralardi:

- 1) to'y marosimlari folklori;
- 2) motam marosimlari folklori.

To'y marosimi folklori. To'y dunyoning barcha xalqlariga xos marosimdir. «To'y» atamasi «to'ymoq», «el-yurtga ziyofat bermoq» ma'nolari orqali muayyan kishi hayotidagi muhim

burilish nuqtasini anglatadi. Binobarin, to'y ham moddiy, ham ma'naviy oziqlanish marosimidir.

O'zbek to'y marosimlari nikoh to'ylari bilangina chegaralanib qolmay. balki xatna (sunnat), beshik to'yi kabilardan ham tashkil topgandir. Bu marosimlar turli munosabatlar bilan o'tkazilganligi tufayli ularda ijro etiladigan folklor janrlari ham xilma-xillik kasb etadi.

Beshik to'ylari folklori. Odatda, beshik to'yi oiladagi birinchi (to'ng'ich) farzand uchun o'tkaziladi va u tantanali kechadi. Ba'zan oilaning moddiy turmush darajasi bilan bog'liq xolda bu tartib o'zgarishi ham mumkin.

Sunnat to'yi folklori. Xalqimizda o'g'il bolalarning «qo'lini halollash», ya'ni sunnat qilish marosimining o'ziga xos folklor an'analari mavjud bo'lgan. «Sunnat» so'zi aslida arabcha bo'lib, «hamma qabul qilgan qoida, odat» ma'nosini anglatadi. Bu marosim ko'pgina joylarda «xatna to'yi» deb ham ataladi. Zero, «xatna» atamasi arab tilidagi «kesmoq», «qisqartmoq» ma'nolarini anglatuvchi «xatnun» so'zidan olinganligi uchun o'g'il bolalar jinsiy a'zosining uch qismi terisini kesish bilan bog'liq marosim ham «xatna to'yi» deb yuritiladi.

Bolani xatna qilish an'anasining tarixiy ildizlari ibtidoiy jamoa davridagi sinov-inisiatsiya rituellari, xususan, bolalarni bir yosh-jins mansubiyatidan boshqasiga o'tkazish bilan bog'liq qadimgi udumlarga borib taqaladi. Xatna qilish odati qadimiy Misr, Indoneziya, Avstraliya, Afrika xalqlarida ham kuzatilgan. Sunnat qadimiy Bobilda yashagan somiy xalqlar o'rtasida ham keng tarqalgan. Xatna O'rta Osiyoda qadimdan mavjud bo'lgan degan taxminlar bo'lsa-da, biroq u arablar istilosi (VIII)dan so'ng keng tarqalgan.

Bu marosim mamlakatimiz viloyatlarida «xatna to'yi», «sunnat to'yi», «ummat qilmoq», «huydo-huydo qilmoq», «chuk to'yi», «to'yi pisar», «chukburon», «gula qildirish», «kestirish», «chukron to'yi», «o'g'il to'yi», «nevara to'yi», «qo'l halollash to'yi» kabi nomlar bilan ataladi.

Mamlakatimizning turli viloyatlarida o'tkaziladigan xatna to'yi o'z tarkibiga mansub udumlari bilan bir-biridan farqlanib

turadi. Xorazm vohasida istiqomat qiluvchi aholi orasida xatna to'yi «maslahat palovi», «ko'rpa iyma», «bug'doy artish», «un artish», «idish tayyorlash», «xo'nayo'g'ich yo'nish», «chopon bichish», «po'ssiq pishirish», «potiya olish», «bola gizlash», «qo'l bog'lash», «bog'lov puli olish», «ko'vish gizladi», «suyunchi puli», «usta haqqi», «bola ko'rdi», «emish», «usta yo'qlov», «hormasin», «pul tutar», «xalta to'ldirar», «pul sanar», «oltin qovoq», «ko'rpa yig'ar» kabi udumlarni o'z ichiga oladi.

Surxon vohasi «o'g'il to'yi» marosimining tarkibi «ko'rpa tikdi», «kichik maslahat» yoki «kichik to'y», «maslahat oshi», «o'tin oshi» yoki «o'tin yig'ar», «qozon qurish», «non pishirar», «Bibi mushkul», «kiyit pichar», «xatmi Qur'on», «nahor oshi», «bola keldi» yoki «hayyor do'st», «bola kiyintirar», «chanki», «katta to'y», «qo'noq berish», «gula qilish», «supra qoqdi», «bola ko'rar», «xizmat oshi», «usta yo'qlandi» kabi uzvlardan tashkil topgan.

Andijon viloyatida esa «sunnat to'yi»ning tarkibida «bug'doy tozaladi», «eshik tozaladi», «supra yozdi», «o'tin oshi», «supra soldi», «supra ochdi», «maslahat oshi», «tandir qurdi», «un eladi», «novvoy soldi», «devonayi Bahouddin noni», «qozon qiyshaydi», «so'qim oshi», «so'qim yiqilmayapti», «xatmi Qur'on», «sabzi archdi», «ertalabki osh», «ko'rpa yig'di», «jiyan tovoq», «lakki», «to'polon oshi», «to'qqiz tortdi», «ot chopdi», «osh yedi», «peshdasturxon», «oqsoqol tovoq», «yigit og'a tovoq», «ot yasatti», «ulush», «bola berkitdi», «qo'l bog'ladi», «bog'landi puli», «chukron», «chukron oshi», «chukron noni», «keskilik», «kulola», «kalish berkitdi», «sovrin haqi», «to'ylik», «o'pka urushtirdi», «xo'roz so'ydi», «kurash», «bola ko'rdi», «shavla yedi», «ketar shavla», «mehmon oshi», «usta yo'qladi», «hormasin» singari udum, marosim, rasm- rusum va adadlar mavjud.

Sunnat to'yida maxsus jarchi tomonidan qishloq-mahalla ahlini to'yga chorlash udumi «jar» deb atalgan. Chortoq tumanidagi Hadikent qishlog'ida yashagan Qo'yvoshboy polvon degan kishining o'g'liga qilgan sunnat to'yiga jarchi shunday deb chaqirgan:

*Qo'yvoshboyning oshi bor,
Oltmish qo'yning boshi bor,
Bola-chaqang ola bor,
Qil jo'rjinni sola bor.*

Boysun tumanining to'da qishlog'ida uzoq yillar mobaynida jarchilik qilgan Boynazar Mustafiqulovdan yozib olingan ma'lumotga ko'ra, xatna to'yidan avval to'y egalari jarchini mehmonga chaqirib, kichikroq ziyofat berib, sarpo (odatda, chopon) kiygizadi. To'ydan bir kun oldin jarchi otga minib yurib, qishloqni aylanib chiqadi va quyidagi jar aytimini ijro etib, odamlarni to'yga chaqiradi:

*Odamlar-o, odamlar,
Bog'da bitgan bodomlar,
Chupron to'yi chachalab,
To'y qilarlar kechalab,
To'ydan keltirdim xabar,
Kelinglar xesh-u tabar!
Er o'choqlar o'yildi,
Chorqirra qo'ylar so'yildi,
Ko'pkarining solimiga,
Qo'shalab qo'chqor qo'yildi,
Kimning bo'lsa tulpori,
Qolmasin, kelsin bari!
Odamlar-u, odamlar,
Eshitmadim demanglar.
Qani, naqshni olib chiqinglar,
«Naqsh» bazmini boshlaymiz, e-he-hey!*

- deb hammani bazmga chorlagan ovozi boshlab bergan.

Nikoh to'ylari folklori. Balog'atga yetgan yigit bilan qizning o'zaro roziligi bilan oila qurishi, bir yostiqqa bosh qo'yishi, kelin va kuyovning nikohini nishonlash marosimi nikoh to'yidir. Nikoh umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan urf-odat bo'lib, ibtidoiy jamiyatning so'nggi davrida yuzaga kelgan va keyinchalik yozma tarzda qonunlashtirilgan marosim shaklini olgan.

«Nikoh» arabcha soʻz boʻlib, «er-xotinlikni shariat yoʻli bilan qonuniy rasmiylashtirish», degan maʼnoni bildiradi. («Oʻzbek tilining izohli lugʻati», 38). Nikoh toʻyi marosimi tuzilishiga koʻra uch bosqichni oʻz ichiga oladi. Birinchi bosqich – «toʻy tayyorgarligi» deb nomlanadi va bir necha xil marosimlarni oʻz ichiga oladi, yaʼni «beshik kerti», «etak yirtar», «quloq tishlalar», «atab koʻyar», «qiz tanlash», «roʻmol oʻrar», «laʼli yuborar», «sovchilik», «qiz sinov», «unashtirar», «non sindirar», «qonjigʻa tovoq», «jaloq qizartirar», «fotiha toʻyi», «yoʻl toʻsar», «shox uloq», «buqcha ochar», «hadya tovoq», «ulush yoki non-u sochiq», «qalliq oʻyin», «paxta solar» kabi uzvlardan iborat.

Ikkinchi bosqich - «katta toʻy» deb nomlanib, kelin-kuyovni nikolash va kelinni kuyovning uyiga olib ketishdan iborat marosimdir. Bu bosqich «vakil soʻrash», «kuyov sinov», «oʻtin yorar», «kuyov kiyintirar», «kuyov yor-yori», «oriyat yoʻli», «toʻqqiz tovoq», «qari ilik», «toʻn kiygizar», «uzangi bardor», «chavqi qilar», «oʻt yoqar», «ota sinov», «olovdan aylantirar», «kampir oʻldi», «ipak iluv», «soch siypatar», «oyna koʻrsatar», «oyoq bosar», «shirin suv ichirar», «it irillatar» kabi qator uzvlarni oʻz ichiga oladi va turfa rasm – rusumlarga oyligi bilan alohida ajralib turadigan asosiy tantana hisoblanadi.

Uchinchi bosqich - «toʻy yakuni» deb ataladi va «bet ochar», «kelin salom», «kuyov salom», «eshik iluv», «chimildiq uzar», «chaqiruv» kabi marosimlardan iborat. Bu marosimda, asosan, kelin-kuyovning yaqin qarindosh-urugʻlari ishtirok etadilar. Kelin- kuyov qirq kun chilla saqlaydi va chilladan chiqqach, kelinning ota-onasi oʻz qizini va kuyovini «chaqirdi» qiladi. Bu marosim xalq orasida «chaqiruv» deb yuritiladi. Ana shu marosim nikoh toʻyining yakunlovchi qismi hisoblanadi.

Sovchilarning oʻziga xos aytim-soʻzlari ham mavjud boʻlganki, bu ulardan soʻzamollikni, chechanlikni, xushmuomalalikni talab qilgan. Xususan, Boysun tumanining Qizilnov qishlogʻida yashovchi qatagʻon urugʻga mansub oʻzbeklarda sovchilikni «elchilik» deyishadi. Sovchilar qiznikiga borganda:

*Elga tushgan elchiman,
Qizga kelgan sovchiman,
Bir qorabay cho'ri so'rab keldim, - deyishgan.*

Shu tumandagi Machay qishlog'ida esa sovchilikka kelgan kishilar «biz sizning uyingizga kunda yorgani keldik» deyishgan. Bu aytim o'zbek nikoh to'yi marosimi tizimidagi «kuyov sinov» udumi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ilgari qiz tomon katta daraxtlarning kundasini yordirish orqali bo'lajak kuyovni sinab ko'rgan. Kuyovga kunda yordirish odati Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida yaqin vaqtlargacha saqlanib kelgan.

Boysun shahrining shundoq yonginasida joylashgan Sariosiyo qishlog'ida sovchilikka borgan kishilar «sizlar bizning xesh-u taboramiz, shu bois qarindoshlikni mustahkamlash uchun sizning uyingizga yovchi bo'lib keldik» - deyishar ekan. Surxondaryo viloyatida sovchilar qizning uyiga borganda «qullikka keldik», «eshik yoki hovli supurishga keldik», «qarindosh bo'lish uchun keldik», «bir farzandingizning qo'lini so'rab keldik», «bir bolangizni bizlarga farzandlikka berarsiz deb keldik», «bir farzandimiz ikkita bo'lsin deb keldik», deya gap boshlashar ekan.

Xalqimizning bevosita nikoh to'yi bo'lib o'tadigan kunda o'tkazilgan turli-tuman udum va marosimlari ham mavjudki, ularning aksariyati o'ziga xos qo'shiqlari, aytim va olqishlari bilan alohida ajralib turadi. Kuyov kelinnikiga kelganida chimildiq tutilgan va kuyov bilan uning jo'ralari chimildiq uyga olib kirilgan. Kuyov odob saqlab o'tirmay turganida kelinning otasi bilan onasi: «o'tiring kuyov, o'tiring, davlatimizning sherigisiz, qizimizni sizga topshirdik, sizni Xudoga», - deyishgach, kuyov o'tirgan. «Kuyov o'tirsin» udumiga ko'ra, kelinni olib ketish uchun kelgan kuyov yigit qaynonasining uyida chimildiqqa kirganida odob va hurmat yuzasidan o'tirmasdan tikka turaveradi. Shunda kuyovning qaynonasi kirib kelib:

*Ikki tog'ning orasidan,
Oy chiqadi lovullab,*

*Kuyov to'ra kirib kelar,
Sepichlari yalpillab.
O'tirsinar, kuyovto'ra.
Kuyov to'ra o'tirmasa,
Uylarni berdim,
Qoziqda kishnagan,
Duldulni berdim.
Qafasda sayragan,*

Shu belgilar xalq lirikasining poetik asoslari bo'lib, ular doimo mavjud bo'ladi, rudiment holiga tushib qolmaydi. Bu poetik asoslarni esa tarixiy ildizlar paydo qiladi. Xalq lirikasini yashnab turgan gulga o'xshatsak, poetik asoslar uning bizga ko'rinib turgan qismi, tarixiy ildizlar esa tomirlarini tashkil etadi va an'ana ularning har ikkisini uyg'unlashtirib turadi.

Hozirda xalq qo'shiqlarini tinglaganimizda, odatda, uning tashqi ma'nosini, juda nari borsa, poetik ko'chimlarga asoslangan mazmunini anglaymiz. Biroq xalq qo'shig'ining barcha tashqi va ichki mazmunini qirralarini izohlash uchun buning o'zi kifoya qilmaydi. Mashhur xalq qo'shig'ini ko'rib chiqaylik:

*Sunbula-yu sunbula,
O'rab olay gul bilan.
Mening ko'nglim sen bilan,
Sen ketasan kim bilan,
Qadamingga gullar sochilsin.*

Qo'shiqning tashqi – so'zma-so'z ma'nosi quyidagicha: Sunbula badiiy obraz – qo'shiq qahramonining poetik jufti, qahramon uni gullarga burkamoqchi, ammo yor ko'ngli begonada. Shunday bo'lsa-da, oshiq fidoyilik qilib, yor qadamiga gullar sochmoqchi yoki shunday bo'lishini astoydil istaydi.

Bu bandni tarixiy asoslariga ko'ra, sharhlasak, Sunbula oynning nomi bo'lib, 22-avgustdan 23-sentabrgacha bo'lgan muddatni qamrab oladi. Bu ayni pishiqchilik davri, suvlar

tinigan, maqolda aytilganidek, «Sunbularning suvi – sharob» payti bo'ladi. Demak, qo'shiqdagi Sunbula balog'atga yetgan yor ramzidir. «Sunbula burji suvrati qo'lga bug'doy boshog'ini ushlab turgan qiz shaklidir», – deydi akademik Alibek Rustamov shu oy haqidagi xalq tasavvurlarini ifodalab.

Qadimiy mifologik tafakkurda inson gulga teng, gul shakliga evrilishi, ya'ni aylanishi mumkin. Ushbu tasavvurga asoslangan poetik tafakkur insonni gulga qiyoslaydi, o'xshatadi. Mifo-poetik tafakkurga ko'ra, qo'shiqdagi gul bilan o'rab olish lirik qahramonning o'z yorini quchish istagini ifodalaydi. Yor qadamiga gullar sochish ham mifologik inonch, iz magiyasiga ko'ra yorning poyiga bosh qo'yish bilan teng. Lirik qahramon yor uni sevmasa ham, uning yo'llariga gullar sochilishini, unga ko'plab qizlar maftun bo'lishini istaydi. Qadimiy inonchlarga ko'ra, insonning izi ham uning o'rnini bosishi mumkin. Shu bois hozirgacha «Bosgan izlaringdan o'rgilay!» yoki «Qadamingizga hasanot!» deyish insonning o'zidan o'rgilish va insonning tashrifini ulug'lashga tengdir. Buning aksicha «Qadaming qursin!», «Izing o'chsin!», – deyish insonga ajal tilashdir. Xalq ongida Sunbula haqidagi tasavvurlar, ijodida maqollar va afsonalar mavjud bo'lgan va ba'zilar bizgacha yetib kelgan. Xalqimiz ana shulardan kelib chiqib, qayta poetik mushohada qilib, yuqoridagi kabi bandlarni ijod qilgan.

*O'choq boshida qumg'on,
Atrofi baland qo'rg'on.
Sevganimga yetolmay,
Yurak-bag'rim bo'ldi qon,
Qadamingda gullar ochilsin...*

*Men bu yerda o't yoqsam,
Andijonda tutun-ey.
Bu dunyoda bormikan,
Yurak bag'ri butun-ey.
Bu dunyoda bor bo'lsa,
Yurak-bag'ri butun-ey.*

*Qog'ozdan qozon yasay,
Guldan qilay o'tin-ey...*

Ma'lum bo'lmoqdaki, lirik qo'shiqlarda keluvchi obrazlar tizimi inson kechinmalari xalqning ko'p asrlik tasavvurlari, mifologik qarashlari, odat va udumlariga chambarchas bog'liq ravishda o'ta poetik ko'rinishlarda ifodalanadi.

Endi quyidagi to'rtlikka e'tibor bering:

*Oq ilon, oppoq ilon,
Oydinda yotganing qani?
Men yomondan ayrilib,
Yaxshini topganing qani?*

Qadim ajdodlarimizda oydinda yotgan oq ilonni ko'rgan odam baxtli bo'ladi, degan ishonch bo'lgan. Biroq bu deyarli sodir bo'lishi mumkin bo'lmagan vaziyat. Oshiq to'lin oy kechasida (oydinda) oppoq ilonni yotganini ko'rish mumkin bo'lmaganidek, sen ham mendan voz kechib baxtli bo'lolmaysan, demoqda go'yo.

Folklorshunoslikda lirik qo'shiqlar namunasi tilga olinar ekan, sevgi-muhabbat mavzusidagi qo'shiqlarni nazarda tutish odat tusiga kirgan. Bu o'rinda sevgi-muhabbat qo'shiqlarida his-tuyg'u, ichki kechinmalar, muhabbat hissiga ega bo'lishdan mamnunlik kayfiyati yetakchi o'rinni tutishi muhimdir. Har bir inson balog'at yoshiga yetganida muhabbat tuyg'usining paydo bo'lishidan qoniqish hosil qilmog'i lozim. Shuning uchun qizni sevish yoki sevilish, ishq savdosiga yo'liqish tashvishlari insonni shoirlikka undaydi. Binobarin, ishq-muhabbat mavzusidagi xalq qo'shiqlarini ana shu tashvish, lazzat dengizida suzgan insonlar, ya'ni yigit va qizlar yaratgan, deyishimizga to'la asosimiz bor. Bo'lmasa, xalq orasida «suygan qo'shiqchi, kuygan baxshi» kabi hikmatli so'zlarni yashab kelishiga asos topilmasdi. Lirik qo'shiqlar matnini o'rganish bu qo'shiqlarni faqat muhabbat tuyg'usini yurak qon tomirlaridan his qilgan shaxslar yaratishi mumkin, degan xulosaga olib keladi. Bir misolga murojaat

qilaylik:

*Yurakkinamning taftiga tandir qiziydi,
Ko'zginamning yoshiga o'rdak suziydi.*

Yuqoridagi misralarni xirgoyi qilib aytgan shaxs yigit yoki qiz bo'lishidan qat'i nazar, shubhasiz, muhabbat deb atalmish sirli va gashtli olam go'shasida sayr qilgan bo'lishi ajab emas.

Muhabbat qo'shiqlari odatda bir shaxs tomonidan kuy jo'rligida ijro etiladi. Ammo mashhur qo'shiqlar gap-gashtaklarda, turli munosabat bilan kichik doirada o'tkaziladigan yig'inlarda jamoa bo'lib ijro etilishi mumkin.

Ma'lumki, lirik qo'shiqlar xalq og'zaki ijodining mustaqil janri sifatida bir qator xususiyatlarga egadir:

1. Lirik qo'shiqlar deb atalmish xalq poetik she'riyatiga mansub asarlarda inson ruhiy olami, uning ishqiy kechinmalari aks etadi.

2. Agar boshqa mavzudagi qo'shiqlar, ba'zan uch (kelin salomlar), olti va sakkiz misralardan iborat bo'lsa, ishqiy mazmundagi lirik qo'shiqlar to'rt misradan tashkil topadi.

3. Biz nazarda tutayotgan lirik qo'shiqlar, asosan, to'rt misrada tugal fikr anglatish imkoniyatiga egadir:

*Dayraning ul yuzidan sel keladi,
Sel bilan ikki o'rdak teng keladi.
O'rdakka o'rdak munosib, g'ozga g'oz
Yigitga qayliq munosib, qizga noz.*

Ammo lirik qo'shiqlar qatoridan bir necha bandlardan iborat bo'lgan asar namunalari ham o'rin olgan. «Galdir», «Sumbula»,

«Omon yor» kabi qo'shiqlar shular jumlasidan hisoblanadi.

4. Agar «Bo'zchi» qo'shig'ini faqat bo'z to'quvchi kosiblar, «churiya»ni echki sog'uvchi ayollar mehnat faoliyati davomida ijro etishsa, lirik qo'shiqlar kasb, payt, o'rin tanlamaydi: ularni istalgan vaqtda istagan shaxs xohishiga

ko'ra baland ovoz bilan yoki xirgoyi qilib aytaveradi. Ma'lum bo'ladiki, lirik qo'shiqlarning ommalashuvi boshqa mavzudagi she'riy asarlardan ko'ra kengroq imkoniyatga egadir.

Ayni paytda, yosh qizlarning nigohi yigitning «Beqasam to'ni»ga, «maysadek kiprigi»ga, «marvariddek tishi»ga tushadi va go'zal qo'shiq namunasi yaratiladi. *Masalan:*

*Qoshingni qaro deydilar,
Qora qosh ukam, yor-yor,
Ko'rsat qoshingni bir ko'rayin,
Jonim ukamey, yor-yor.*

Yoki:

*Beqasam to'nlar kiyib,
Muncha meni kuydirasiz,
Gohi-gohida bir qarab,
Voy, beajal o'ldirasiz.*

Qadim zamonlardan ma'lumki, bir-birini sevgan oshiq-ma'shuqlar hamisha ham turmush qurish baxtiga muyassar bo'lavermaydilar. Shuning uchun lirik qo'shiqlarda o'ta yuqori emotsional kayfiyat bilan bir qatorda dard, hasrat, alam ohanglari ham o'rin olgandir.

Lirik qo'shiqlarda faqat go'zal yorning tashqi qiyofasi o'z aksini topadi desak, to'g'ri bo'lmaydi. Chunki shunday qo'shiqlar borki, ularda sevikli yorning chaqqonligi, mehnatsevarligi, odobliligi ham o'z ifodasini topadi:

Gulijon o'zi chaqqon, Qoqi gulini taqqan. Bir kulishi bor uchun, Oyijoniga yoqqan.

Bir qator xalq lirik qo'shiqlari yigit va qizlarning aytishuvlaridan ham iborat bo'lishi mumkin. Bu qo'shiqlarda iloji boricha yigitlar bir taraf, qizlar bir taraf bo'lib, so'z o'yinida bir-birlaridan g'olib kelishga urinadilar. Aslini olganda, bunday aytishuv qo'shiqlari yigit-qizlarga hayot go'zalligi haqida, bu go'zallikdan bahramand bo'lish haqida ma'lumot beruvchi lirik

parchalarni eslatadi:

*Ko'zingni shahlo deydilar,
Shahlo ko'z ukam, yor-yor.
Ko'rsat ko'zingni men bir ko'ray,
Jonim ukam ey, yor-yor.
Ko'zimni ko'rib nima qilasiz,
Siz akajonim, yor-yor?
Tog'da o'hu ko'zlarini,
Ko'rmabmidingiz, yor-yor?
Yuzingni qizil deydilar,
Qizil yuz ukam ey, yor-yor.
Ko'rsat yuzingni men bir ko'ray,
Jonim ukam, ey, yor-yor.
Yuzimni ko'rib nima qilasiz,
Siz akajonim, yor-yor?
Bog'lardagi qizil gulni,
Ko'rmabmidingiz, yor-yor?*

Shunday qilib, lirik qo'shiqlar asrlar davomida yosh yigit-qizlar o'rtasidagi bir-birlariga bo'lgan ehtirosli munosabatlarning badiiy ifodasi sifatida yashab keldi va yashamoqda.

Allalarni ham lirik qo'shiqlar tarkibining go'zal namunalari sifatida baholash mumkin. To'g'ri, folklorshunoslik ilmida allalarni bolalar folklori sifatida tahlil qilish an'anasi bor. Ammo, ayni chog'da, bu asarlarni lirik qo'shiqlar namunasi sifatida baholash ham xato bo'lmaydi. Chunki alla qo'shiqlarining matnini o'rganish, ularni bevosita so'z san'ati namunasi sifatida lirik qo'shiqlar qatorida baholash ma'qulligini ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, alla yosh go'dak bolalarga uxlash paytida ona yoki buvi tomonidan aytiladi. Beshikda bo'lgan chaqaloqqa allaning matnidani ko'ra kuy ohangi ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq matnini bola tushunmaydi. Ammo alla qo'shiqlarida farzand ko'rgan oilaning quvonchi, baxti, shu bilan birga, dardi, alami va orzulari aks etadi. Qo'shiqlarda, avvalo, farzandli

bo'lishning naqadar insonga quvonch bag'ishlashi e'tiborimizni o'ziga jalb qiladi. Allada shukrona keltirish, taqdir bergan omaddan qoniqish alohida o'rinda turadi. «Alla» so'zining Ollohdan kelib chiqqanligi haqidagi fikrlar ham yuqoridagi mulohazada o'z tasdig'ini topadi, deb o'ylaymiz.

2. Lirik qo'shiqlarning badiiy xususiyatlari. Lirik qo'shiq hajmining kichikligi matndagi har bir so'z zimmasiga boshqa janrlarga nisbatan ortiqroq badiiy «yuk» beradi. Poetik san'atlar orasida ramz birgina so'z orqali keng mazmun ifodalash imkoniyatiga ega. Bu esa aynan qo'shiq janrining talablariga mos keladi. Lirik qo'shiqlarda ramzning boshqa poetik san'atlarga nisbatan keng qo'llanilishini shu sabab bilan ham izohlash mumkin.

Poetik ramz qo'shiqlardagi mavhum tushunchalarni, anglatish qiyin bo'lgan nozik tuyg'ularni, turli ruhiy holatlarni bir yoki bir necha so'z orqali ifodalash imkoniyatini beradi. Qo'shiqlarda timsollar qahramonlar kechinmalarini, ma'naviy shakllarini ifodalaydi. Qo'shiqning ohangdorligini ta'minlaydi, badiiy qimmatini oshiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalq lirik qo'shig'ining belgilari nimalardan iborat?
2. Lirik qo'shiqlarning badiiy xususiyatlarini misollar yordamida tushuntiring.
3. Qardosh xalqlar xalq qo'shiqlari namunalarini topib, o'zbek xalq lirik qo'shiqlari bilan qiyoslashga harakat qiling.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. - T.: «Musika», 2010
2. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. - T.: «Mumtoz so'z», 2010
3. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. - T., 1959.
4. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. - T.: Fan, 1974.
5. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. - T.: Fan, 2010.
6. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. - T. "Sharq", 2011.

5-mavzu: Xalq dostonlari

1. Xalq dostonlari. Dostonchilik maktablari haqida ma'lumot.

2. Xalq dostonlarining mavzu doirasi.

3. Doston janri haqida ma'lumot.

4. Xalq baxshilari va baxshichilik san'ati

Tayanch iboralar: Dostonchilik maktablari haqida ma'lumot, doston ijrochilari, baxshilar haqida ma'lumot.

Darsning maqsadi. Qo'rg'on, Bulung'ur va boshqa dostonchilik maktablari va ular yaratgan dostonlar, baxshichilik san'ati haqida ma'lumot.

Darsning vositalari. Konkret-obrazli, visual ko'rgazmali o'quv qurollari, folklorshunos olimlarning xalq dostonlariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

Darsning metodi. Blits-so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. Folklorshunoslikda buni shartli ravishda *dostonchilik (baxshilik) maktablari* deb yuritiladi. Hozirgi kunda o'zbek folklorshunosligida Bulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Sherobod, Janubiy Tojikiston, Xorazm kabi poetik dostonchilik maktablari – baxshilik san'atining ajoyib markazlari aniqlangan.

1. Bulung'ur dostonchilik maktabi qahramonlik dostonlarini ijro etish bilan mashhur bo'lgan. Sodda, yuksak, o'ta an'anaviy, nisbatan arxaik bo'lgan qahramonlik eposi uslubi bu dostonchilarning poetik yo'li hisoblangan. Bulung'ur dostonchilik maktabining so'nggi talantli vakili Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955) hisoblanadiki, undan «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Malikai ayyor», «Mashriqo», «Zulfizar», «Balogardon», «Intizor», «Nurali», «Jahongir», «Murodxon», «Rustam», «Shirin bilan Shakar», «Ra'no bilan Suxangul», «Zevaxxon» kabi ajoyib dostonlar yozib olingan.

2. Epik san'atning ikkinchi bir muhim Qo'rg'on dostonchilik maktabi bo'lib, uning eng so'nggi talantli vakillari ergash Jumanbulbul o'g'li (1868-1937) va Po'ltan shoirlar (1874-1941) hisoblanadi. Bu talantli san'atkorlardan «Alpomish», «Yakka Ahmad», «Oysuluv», «Kuntug'mish», «Qironxon», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Yunus pari», «Misqol pari», «Gulnor pari», «Xushkeldi», «Hasanxon», «Chambil qamali», «Dalli», «Ravshan», «Avazxon», «Qunduz bilan Yulduz», «Xoldorxon», «Hilomon», «Berdiyor otliq», «Zamonbek», «Xidirali elbegi» kabi dostonlar yozib olingan.

3. XIX asrdamavjud bo'lganyana bir epik markaz Shahrisabz dostonchilik maktabidir. Bu maktabning so'nggi namoyandasi Abdulla Nurali o'g'li (1874-1957) XIX asrning yirik dostonchisi Rajab Shoirning Shogirdidir. Bu baxshilar dostonlarni sho'x, quvnoq, ko'tarinki ruhda aytishlari, kuylarining yoqimlilik bilan ajralib turadilar.

Atoqli xalq shoiri Islom Nazar o'g'li (1874-1953) bir tomondan, Shahrisabz, ikkinchi tomondan, Qo'rg'on dostonchilik maktabi bilan bog'liq bo'lgan. Uning ijro usuli va undan yozib olingan «Orzigul», «Sohibqiron», «Erali va Sherali», «Zulfizar bilan Avazxon», «Gulixiromon», «Kuntug'mish» kabi dostonlarga nazar tashlar ekanmiz, ularda har ikki maktab xususiyatlari yaqqol ko'rinadi.

4. O'zbekistonning janubida yashovchi ko'pgina baxshilar Sherobod dostonchilik maktabi bilan bog'liqdir. XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida yashagan bu maktabning mashhur vakili Shernazar Beknazar o'g'li bir qancha shogirdlar yetishtirgan. Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Umir Safar o'g'li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o'g'li, Mamadrayim baxshi, Bo'riboy Ahmad o'g'li, Yusuf O'tagan o'g'li kabi o'nlab dostonchilar shu maktabga birlashadi va ulardan bir qancha dostonlar yozib olingan.

5. Janubiy Tojikistonda yashovchi o'zbek-laqay baxshilari ham ijro yo'llarining badiiy tasvir vositalari jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu baxshilar Dang'ara rayonining Jorubqo'l qishlog'i bilan bog'liq. Bu erda XIX asrning II yarmi

va XX asr boshlarida Haybat Shomol o'g'li, Qunduz soqi degan mashhur dostonchilar o'tgan. Hozir ham ularning davomchilari bor. O'zbek- laqay baxshilarining dostonchilikdagi asosini «Go'ro'g'li» dostonlari turkumi tashkil etadi. Bu dostonlar o'zlarining nihoyatda mo'jazligi bilan ajralib turadi.

Dunyodagi ayrim xalqlarda o'zining tarixiga oid yirik hajmdagi katta muhim voqea bayon etiladigan janrlar bor. O'zbeklarda bu janr «doston» deb ataladi. «Doston» so'zi qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash ma'nolarini anglatadi. Badiiy adabiyotimizda, asosan, ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og'zaki ijodida baxshilar tomonidan og'zaki tarzda kuylab kelingan dostonlar. Ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlar. «Alpomish», Go'ro'g'li turkumidagi «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Malikayi ayyor», «Ravshan»; «Kuntug'mish», «Rustamxon» kabilar og'zaki dostonlar namunalari. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z», Navoiyning «Hayrat ul- abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi asarlari esa yozma adabiyotdagi dostonlar bo'lib, ularni og'zakidan ajratish lozim bo'ladi.

Og'zaki ijoddagi doston bir qator tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Professor M. Saidov ularni she'riy va nasriy parchalardan iborat matndan, musiqadan, doston aytuvchining hofizlik san'atidan va soz cherta bilishidan iborat, deb qayd etadi. Shu bilan birga, doston haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun baxshining bevosita tinglovchilar davrasida qaynab (ilhomga kirib) doston ijro etishiga guvoh bo'lish ham muhimdir. Demak, doston bo'lishi uchun baxshining tinglovchi bilan jonli muloqotini ham tarkibiy qismlardan biri sifatida baholash mumkin.

Dostonni baxshilar kuylaydilar. Qadimgi zamonlarda «baxshi» xalqona usullar bilan bemorni davolovchi tabib, ayrim hududlarda ustoz ma'nolarini anglatgan. Bugungi kunda bu so'z, asosan, xalq dostonlarini kuylaydigan san'atkorini bildiradi. Baxshi soz chertganda sozanda, she'riy parchalarni kuyga solib aytganda xonandadir.

Shuningdek, parchalarni bir zumda to'qib ketadigan shoir, dostondagi nasriy parchalarni yoddan o'qiyotganda badiiy so'z ustasi hamdir. Shoirtabiat baxshi hech qachon dostonni bir xil, ya'ni o'zgarishsiz ijro etmaydi. Professor Hodi Zarifovning ta'kidlashlaricha, bulung'urlik Amin baxshi «Alpomish» dostonini uch oy davomida tinglovchilarini sira zeriktirmay kuylagan ekan. Endi yozda yoki kuzda boshlangan doston kuzda yoki qishda nihoyasiga yetishini tasavvur qilaylik. Bir fasl muddatda doston ijro etgan baxshi biron kitobga qaramasdan shuncha gapni va she'riy parchalarni qayerdan topgan? O'sha nusxadagi dostonning hajmi qanday bo'lgan? Uch oy zeriktirmay ijro etish uchun naqadar yuksak mahorat egasi bo'lishi kerak o'sha baxshi? Bu savollarga beriladigan har bir javob o'zbek dostonchiligining beqiyos imkoniyatlarini qayta-qayta takrorlaydi, xolos. Baxshi doston aytar ekan, «Alpomish» dostonida Alpomish gapirganida Alpomish mardligini, Barchin so'zlaganida go'zal qizning yuzini ko'z oldimizda gavdalandiradi. Shuning uchun doston kechalari har bir tinglovchi uchun katta bayram bo'lgan. Bu kechalarda odamlar o'rtasidagi hamma ginaxonliklar unutilgan, turmush tashvishlari chekingan. Yosh-u kattalar, erkak-ayollarning butun xayoli dostondagi voqealar bilan band bo'lgan.

Dostonlar hajm jihatdan chegaralanmaydi. Doston ijrosi ham ba'zan soatlab, ba'zan kunlab davom etgan. Bunda doston mazmuni, baxshining mahorat darajasi muhim hisoblangan. O'zbekistonda xalq dostonlari Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Xorazm, Namangan viloyatlarida va Qoraqalpog'iston respublikasida ijro etiladi. Ijrochi baxshilar do'mbira, tor, dutor chertib, qo'biz tortib doston aytadilar. Ijro usuliga ko'ra o'zbeklarda Samarqand, Xorazm, Farg'ona (Namangan) dostonchilik an'analari mavjud bo'lib, Samarqandda ichki bo'g'iz ovozda, Xorazmda ochiq qo'shiq aytish yo'li bilan, Namanganda ochiq, ammo, musiqa asbobiga mos holda kuylanadi.

Samarqand dostonchiligida hajm jihatidan katta dostonlar nasrdan va epik she'rlardan iborat bo'ladi. Xorazm

dostonchiligida dostonlar nasriy parchalardan va lirik she'rlardan iborat bo'ladi. Bu dostonlarning hajmi katta bo'lmaydi. Namanganda ham dostonlarning hajmi kichik, ammo ularning matnlari Samarqand dostonchiligi kabi nasrdan va epik she'riy parchalardan tashkil topadi.

Samarqand dostonchiligi an'anasiga mansub «Ravshan» dostonidan nasriy parcha keltiraylik:

«Oq qiz shunday qiz edi: oti Oqqiz, Zulxumorga naq qiz. Oqqiz o'zi oq qiz, o'zi to'lgan sog' qiz, o'rta bo'yli chog' qiz, o'ynagani bog' qiz, uyquchi emas, sog' qiz, eri yo'q o'zi - toq qiz, ko'p kalondimog' qiz, yaxshi - tekis bo'z bolani ko'rsa, esi yo'q - ahmoq qiz, qorako'z, bodomqovoq qiz, sinli-siyog' qiz, o'zi semiz - turishi yog' qiz; o'yinga qulayroq qiz, to'g'ri ishga bo'layroq qiz, o'zi anqov olayroq qiz, tanasi to'sh qo'ygan keng qiz, sag'risi do'ng qiz, urushqoq emas - jo'n qiz, a'zosi bari teng qiz...».

Endi she'riy parchalarga diqqat qiling:

«Chu, deb otin uradi,

Oyog'ini tiradi.

Suvsiz cho'lda G'irko'k ot,

Irg'ib, sakrab boradi.

Suvsiz cho'lda mard Hasan,

Qattiq qistab boradi.

Obro' ber, deb yo'llarda Hasan ketib boradi».

Shuningdek, Samarqand dostonchiligiga oid she'riy parchalarda lirik mazmundagi o'rinlar ham uchraydi:

Paydo bo'ldim, ikki gavhar donadan,

Parvoz qilib uchdim manziltonadan,

O'lim uchun g'am yemayman, bo'yingdan.

Bir armonim, yolg'iz edim enamdan.

Ma'lum bo'ladiki, Samarqand dostonchiligida nasr badiiy jihatidan nazm bilan tenglasha oladi. Saj'⁸dan iborat Oqqiz

⁸ Saj' - nasriy parchalardagi so'zlarning qofiyalanib kelishi.

ta'rifida o'nlab qofiyalangan so'zlar uchraydi. Ular orasida hazil, kulgili o'rinlar ham bor. Demak, nasrda badiiy mukammallikka erishilgan. She'riy parchalar esa ikki xil bo'lar ekan. Ko'pincha ularda voqea bayon etiladi: otda chopish, jang lavhalari, savol-javoblar, ziyofat tasviri va hokazolar. Ammo ichki his-tuyg'u ifodalangan o'rinlar ham uchraydi: ro'y bergan voqeaga munosabat, ba'zan shodlik, ba'zan o'kinch tarzda ifodalanadi.

Xorazm dostonlarida holat boshqacharoq. Bu dostonlarda voqeaning bayoni, ro'y bergan hodisa tafsiloti faqat nasrda ifodalanadi. She'riy parchalarda esa lirik his-tuyg'ular aks etadi. «Oshiq G'arib va Shohsanam» dostoniga murojaat qilaylik:

«Shohsanam G'aribni birdan ko'radi-yu, yana ko'zdan yo'qotib, qayerga ketganini bilmay qoladi:

*Uchirdim shunqor qushimni,
Hech bir yerda qarori yo'q.
Vo hasrato, mahvoshimning,
To yetguncha qarori yo'q».*

«Ravshan» dostonidan olingan parcha bilan «Oshiq G'arib va Shohsanam»dan olinganini solishtirsak, nasr va she'rdagi farq aniq ko'rinadi. Endi Namangan dostonchiligi an'anasiga oid «Zamonbek»dan olingan bir parcha keltiraylik:

«Go'ro'g'li yigitlarining g'ayrati kelib, o'tday tutashib, Shodmon polvon degan yigit Mamaniyoz orqasidan quvib turgan joyi ekan:

*«Ko'ring Shodmon polvon ishini,
Uni-buni deganiga qo'ymaydi,
Bora qolib turvayidan ushlaydi,
Taqimini bir ko'tarib tashlaydi».*

Namunaning shakli va mazmunidan ma'lum bo'ladiki, nasrda ham, nazmda ham qahramonlar harakatining bayoni o'z ifodasini bir xil topgan. Bu jihatdan Farg'ona dostonchiligi Samarqand an'anasiga o'xshashdir. Yuqorida qayd etilgan

dostonchilik an'analaridan tashqari, ularning tarkibida dostonchilik maktablari ham mavjud. Bir an'ana doirasida doston mazmunidagi mohiyat saqlangan holda qahramonlar xatti-harakati, ruhiy kechinmalari yo'nalishini farqli tarzda namoyon qilish dostonchilik maktablari tushunchasini izohlaydi. Dostonchilik maktablari haqida tasavvur hosil qilish uchun quyidagi ma'lumotni keltirish o'rinlidir. Atoqli olimlarimizning ma'lumotlariga qaraganda, Fozil Yo'ldosh o'g'li Ergash Jumanbulbulning muhabbat mavzuyidagi dostonlarini, xususan, «Ravshan»ni yaxshi aytishini tan olgan.

Ergash shoir esa Fozil Yo'ldosh o'g'lining «Alpomish» dostonini aytishiga, ayniqsa, qahramonlik lavhalarining jo'shqin talqiniga qoyil qolgan ekan. Ayni paytda, Fozil Yo'ldosh Ergash shoirning «Alpomish» qahramonlik dostonini muhabbatli qilib aytishini ta'kidlagan ekan. Shuning o'zidan ma'lum bo'ladiki, Bulung'ur maktabiga mansub Fozil Yo'ldosh o'g'li ko'proq qahramonlik dostonlarini yoki dostonlardagi qahramonlik lavhalarini ijro etishga moyil bo'lgan. Demak, Bulung'ur maktabining o'ziga xosligini ham ana shu belgi bilan izohlash mumkin. Ergash Jumanbulbul o'g'li vakil bo'lgan Nurota (Qo'rg'on) maktabi namoyandalari esa ko'proq muhabbat mazmunidagi dostonlarni ijro etganlar. Demak, Nurota maktabida muhabbat lavhalarini, ruhiy holatlarni, his-tuyg'ularni ifodalashga ko'proq e'tibor berilgan. Dostonchilik maktablari haqidagi tasavvurga ana shunday belgilar vositasida aniqlik kiritiladi. Aslini olganda, keyinchalik alohida-alohida maktab sifatida shakllangan hududdan mohir baxshi yetishib chiqqan. Keyingi shogirdlar ana shu baxshi tajribasidan va ijro usulidan bahramand bo'lganlar. Natijada, bir mahalliy sharoitda aytilgan doston ikkinchisidan farqlanib borgan va maktab sifatida shakllangan.

Xalq baxshilari ijodini o'rganish ular ijro etgan dostonlar orasida diniy mavzudagi asarlar ham mavjudligini tasdiqlaydi. Bunday baxshilar mustaqillik yillarimizgacha yashirin tarzda doston aytishga majbur bo'lganlar. Mustabid tuzumdagi turli tazyiqlar baxshilar sonining nisbatan kamayib ketishiga olib

keldi. Ular doston aytishdan tashqari duoxonlik bilan ham shug'ullanganlar.

Shunday qilib, xalq dostonlari alohida mahorat bilan kuylangan markazlar shu hudud nomi bilan maktab sifatida atalgan.

«Hozirgi kunda o'zbek folklorshunosligida Bulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Qamay, Sherobod, janubiy Tojikiston, Xorazm kabi poetik dostonchilik maktablari - baxshilik san'atining ajoyib markazlari aniqlangan».⁹

Shulardan Fozil Yo'ldosh o'g'li mansub bo'lgan Bulung'ur dostonchilik maktabida ko'proq qahramonlik dostonlari badiiy jihatdan mukammal tarzda kuylangan. Bir necha versiya, o'nlab variantlari yaratilgan «Alpomish» qahramonlik dostonining Qo'ng'iro't versiyasi sifatida eng oliy va badiiy barkamol namuna - Fozil Yo'ldosh o'g'li variantining qabul qilinishi bejiz emas. Professor Hodi Zarifov qayd etgan Amin baxshi ham shu maktab vakili edi. Bu maktab shuhratiga qadimda Muhammad shoir, Sultonmurod Suyar, Rahimbulbul kabi baxshilar o'z ijodlari va ijrolari bilan munosib hissa qo'shganlar. Ular «Alpomish», «Oysuluv», «Hasanxon», «Chambil qamali» kabi dostonlarni alohida mahorat bilan ijro etganlar.

Samarqand dostonchiligida nom taratgan yana bir maktab Qo'rg'on dostonchiligi deb ataladi. Ergash shoirlarning ajdod va avlodlari shu maktab vakillari hisoblanadi. Avvalgi sahifalarda qayd etilganidek, bu maktab sohiblari dostonlarni muhabbatli qilib aytganlar. Qo'rg'on maktabida boshqalardan farqli o'laroq Sulton kampir, Tilla kampir ismli ayollar ham baxshilik san'atini egallaganlar. Ulardan tashqari, Yodgor, Bo'ron baxshi, Jasoq baxshi, Po'ltan shoirlar ijodi shu maktabda shakllangan usul bilan rivojlangan. «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Ravshan», «Kuntug'mish», «Dalli» dostonlarini ijro etish aynan shu maktab vakillariga xos edi.

Yana bir maktab Shahrisabz nomi bilan yuritiladi. Bu maktabda Xidir shoir, Ernazar shoir, Abdulla shoir kabi ijodkor baxshilar yetishib chiqqan. Bu maktabda Go'ro'g'li turkumiga

⁹ Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetikijodi. T., «O'qituvchi», 1990, 236-bet.

oid dostonlar, ayniqsa, «Malikayi ayyor» dostoni keng tarqalgan edi.

Narpay dostonchiligi maktabi ham bir qator baxshilari va dostonlari bilan o'zbek eposi rivojiga hissa qo'shgan. Narpay dostonchiligida Rajab shoirning tarbiyasida bo'lgan Islom shoir, Nurmon Abduvoy o'g'li nomlari alohida hurmat bilan tilga olinadi. Islom shoir o'z ijodida Qo'rg'on va Shahrisabz maktablari an'analarini uyg'unlashtira oldi.

Bu maktab vakillari ko'proq «Orzigul», «Sohibqiron», «Gulixiromon» kabi dostonlarni ijro etishgan.

Shernazar Beknazar o'g'li, Umir Safar o'g'li, Ahmad baxshi kabi ijodkorlar esa Sherobod dostonchilik maktabiga mansub san'atkor edilar. Ular ijodida ham Go'ro'g'li turkumi dostonlari alohida o'rin tutadi. Bu maktab vakillari, ayniqsa, «Malla savdogar», «Ollonazar Olchinbek» dostonlarini badiiy jihatdan mukammal ijro etganlar.

Janubiy Tojikistonda yashovchi Haybat Shamol o'g'li, Qunduz soqi kabilarning nomlari o'zbek baxshilari orasida hurmat bilan tilga olingan. Bu baxshilar ham Go'ro'g'li turkumi dostonlarini o'ziga xos usulda ijro etganlar.

Xorazm dostonchiligi musiqiyliigi, dostonni jo'r ovoz bo'lib ijro etilishi, doston ijrosida bir necha musiqa asboblarida jo'r bo'lishi bilan ajralib turadi. Qadimgi sayillarda, to'ylarda 3-4 baxshi chaqirilgan va har bir baxshiga alohida-alohida davra berilgan. Sayil yakunida mohir baxshi atrofidagi odamlar ko'payib, saviyasi past baxshi atrofida hech kim qolmagan. Bu odat san'atkorning o'z ustida muttasil ish olib borishga va ijro san'atini egallashga majbur qilgan. Undan tashqari, Xorazmda 40 yildan ortiq xonlik qilgan Muhammad Rahimxon (Feruz) har yili baxshi va xonandalarning ko'rigini o'tkazib, shaxsan o'zi ularga doston aytish huquqini bergan. Ijro darajasi zaif baxshini omma o'rtasida doston aytish huquqidan mahrum qilgan. Dostonchilikka bu qadar mas'uliyat bilan yondashish Xorazm dostonchiligi rivojini ta'minlagan. Bu maktabda Amat baxshi, Bola baxshi (Qurbonnazar Abdullaev), Boltavoy baxshi, Qodir sozchi, Murod baxshi, Ro'zimbek baxshi, Otaxon baxshilar

ijod qilishgan va «Bozirgon», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Qirq ming», «Oshiq Mahmud» kabi dostonlarni katta konsert dasturini eslatadigan tomosha tarzida ijro etishgan.

Xalq dostonlari yurtimizning turli hududlarida turlicha ijro etilishiga, ijro usullariga, voqealar sharhiga ko'ra, hatto, bir viloyatning o'zida ayrim-ayrim maktablarga ega bo'lishidan tashqari mazmuniga ko'ra ham bir necha turlarda tasniflanadi. Taniqli olimlardan V.M.Jirmunskiy, H.T.Zarifov, M.Saidov, T.Mirzayev, B. Sarimsoqovlarning kuzatishlaricha, xalq dostonlarini turlarga bo'lishda ko'proq ularning mazmuniga, qahramonlarning fe'l-atvoriga e'tibor qilish ma'qul. Ammo nomlari tilga olingan olimlarning har biri amalga oshirgan tasnif ma'lum darajada bir-biridan farq qilishiga qaramay, ularni quyidagicha nomlash mumkin:

1. Qahramonlik dostonlari («Alpomish»).
2. Ishqiy-romanik dostonlar («Ravshan», «Kuntug'mish»).
3. Jangnoma dostonlari («Yakka Ahmad»).
4. Kitobiy dostonlar («Sayyod va Hamro», «Oshiq G'arib va Shohsanam»).
5. Tarixiy dostonlar («Oysuluv»).

Tasnif qilishning asosi dostonlarda tasvirlangan voqealarning bosh mohiyati bilan izohlanadi. Masalan, «Alpomish» dostonida ham ishq-muhabbat, jang lavhalari, tarixiy ma'lumotlar bor. Ammo ma'lum sabab bilan ajralib ketgan xalqni birlashtirish yo'lidagi mardlik va qahramonlik asarning markaziy g'oyasini tashkil etadi. Yoki «Ravshan» dostonida ham mardlik, qahramonlik belgilari uchraydi. Lekin doston mazmunidagi asosiy fikr Ravshanning Zulxumorga bo'lgan ishqini ifodalash maqsadidagi safarini bayon qilishga bag'ishlanadi.

XALQ BAXSHILARI

ERGASH JUMANBULBUL O'G'LI

Ergash Jumanbubul o'g'li xalq dostonlarini mahorat bilan ijro etuvchi ijodkor baxshi edi. Uning yetti ajdodi shoir o'tgan va mashhur baxshilar sifatida hamisha ustozlar qatoridan o'rin

olgan, otasining Jumanbulbul nomiga ega bo'lishining o'zi bu oiladagi iste'dod egalari ko'p yetishganligidan dalolat beradi. Undan Hodi Zarif, G'ozi Olim Yunusov, Muhammad Iso Ernazar o'g'li kabi olim va ziyolilar 33 nomdagi asarlarni yozib olishgan. Uning asarlaridan namunalar va ijodi haqidagi maqolalar soni 200 ga yaqin. Ayniqsa, o'zbek folklorshunosligining asoschisi Hodi Zarifov tomonidan yozilgan maqola, ilmiy tadqiqotlarda Ergash shoirning ulkan xalq san'atkori ekani asosli tarzda misollar bilan tahlil qilingan.

Ergash Jumanbulbul o'g'li 1868-yilda Nurota tumaniga qarashli Qo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Shoir ota-bobolari shu qadar doston aytishga mohir edilarki, ularning ijro usulidagi o'ziga xoslik Ergash tug'ilgan qishloq nomini o'zbek dostonchiligidagi alohida maktab sifatida tan olinishiga sabab bo'ldi. Ergash Jumanbulbul o'g'li esa bu maktab nomini abadiylashtirishga munosib hissa qo'shdi.

1875-76-yillarda Jumanbulbul o'g'lini qishloq masjidi huzuridagi maktabga o'qishga beradi. O'qishga bo'lgan havasini hisobga olgan ota o'z o'g'lini Buxoro madrasasida o'qitadi. Natijada, Ergash shoir o'z davridagi o'nlab baxshilardan farqli ravishda o'qish- yozishni o'rgandi, Nizomiy, Navoiy, Mashrab kabi shoirlar asarlarini mutolaa qildi, hatto keyinchalik mirza (kotib) bo'lib ishladi.

Ergash shoirning shaxsiy hayotida oilaviy musibatlar ko'p bo'ldi. 18 yoshida uning otasi vafot etgan. Ukalari Abduhalil, Abdujalil, singlisi Mahkamoy yosh paytlarida dunyodan ko'z yumganlar. Shuning uchun shoirning termalarida oilaviy baxtsizlik haqidagi misralar ijodining salmoqli qismini tashkil etadi. Xususan, ukasi Abduhalil o'limi bilan bog'liq aytgan yig'ida shunday deyiladi:

Emrandi tanimda jonim, Xazon bo'ldi gulistonim, Yig'lashib yor-yoronim

Bemahal qurib bo'stonim, Qo'ldan uchdi bo'z tarlonim, Eshitinglar qadrdonim, Yolg'iz inim, suyanganim, Shunqorimdan judo bo'ldim.

Oilaviy qiyinchilik va tashvishlar baxshining umr bo'yi

Samarqand, Zarafshon atrofida qishloqma-qishloq doston, terma aytib yurishga majbur qildi. Ammo shu bilan birga bu muttasil safarlar uni odamlarga tanitdi, mashhur baxshi sifatida nom qozonishga olib keldi, baxshilik san'atining mukammal egasi, ustoz shoir bo'lib yetishishiga sabab ham bo'ldi. Ergash shoir umri davomida yana o'qituvchilik, dehqonchilik bilan shug'ullandi. Hayotining so'nggi yillarida, asosan, folklorshunos olimlarga dostonlar yozdirdi, doston aytdi, termalar yaratdi.

Har bir baxshi o'z ijodi davomida bir-ikkita dostonni alohida mehr bilan ijro etadi. Unga butun vujudini, iste'dodini bag'ishlaydi. Ergash Jumanbulbul o'g'li «Ravshan», «Kuntug'mish» dostonlarini ana shunday muhabbat bilan ijro etgan. Shuningdek, baxshi «Alpomish», «Qunduz bilan Yulduz», «Dalli», «Xushkeldi»,

«Avazxon», «Hasanxon» kabi o'nlab dostonlarni maroq bilan kuylagan. Shoir ijodiga xos xususiyatlardan biri ijrosidagi dostonlarning syujet va kompozitsiyasidagi mukammallik edi. Yozma adabiyot namunalaridan yaxshi xabardor bo'lgani sababli baxshi Alisher Navoiy dostonlaridagi mukammallikni og'zaki ijodga tatbiq etadi. Shuning uchun «Ravshan», «Kuntug'mish» dostonlaridan biron lavhani olish ham, unga qo'shish ham mumkin emas. Ma'lum bo'ladiki, har bir ishga ijodiy yondashishga o'rgangan Ergash shoir madrasada olgan bilimlarini o'zi ijro etadigan dostonlarga tatbiq etdi va xalq dostonlarining badiiy jihatdan mukammallashuviga munosib hissa qo'shdi. Ustoz olim Hodi Zarifov bu fikrni tasvir vositalaridan omonim so'zlarni qo'llashdagi shoir mahoratini dalillab shunday ko'rsatadi: «Shu jihatdan biz bilgan xalq shoirlari orasida so'zga boy Ergash Jumanbulbul o'g'lining tajnis so'zlari diqqatni jalb etadi. Biz uning tajnisli to'rtliklaridan bir nechtasini qayd etmoqchimiz:

Tog'ning adiri o'radi, O'raga qo'ylar o'radi. Uch tol qilib sanamlar, Chochini mayda o'radi».

Ustoz olim birinchi misradagi «o'radi» ko'tariladigan balandlikni, ikkinchi misrada oralab yurishni, to'rtinchi misrada soch o'rishni anglatishini ta'kidlaydi.

Muhimi shundaki, shoir o'zbek tilidagi bunday go'zal imkoniyatni alohida mashqlarda, ya'ni terma aytishlarda emas, balki qulay sharoit kelgani zahoti xalq dostonlarida ko'rsatishga uringan. *Masalan*, Ravshan dostonida Hasan safarga otlangan o'g'liga nasihat qilib shunday deydi:

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.

Nasihatim yodingda tut, yolg'izim, Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

Ergash shoir butun hayoti davomida o'z vatanini, ona yurtini sevdi, e'zozladi. Shuning uchun u qalbidagi bu muhabbatni ijro etayotgan dostonlaridagi qahramonlar xatti-harakati orqali ifodaladi. U kuylagan Go'ro'g'li turkumidagi doston qahramonlari mardligi, halolligi, to'g'ri so'zligi bilan tinglovchilarni o'ziga maftun etardi.

«Ravshan» dostonida Hasanxon dorga olib kelinayotgan o'g'lini shu zahoti qutqarmoqchi bo'lganida Jaynoq masxaraboz unga avval Ravshanni sinash kerakligini maslahat qiladi. Hasanxon rozi bo'ladi. Qoraxon podshohning mulozimlari Ravshanga o'z yurtidan, Go'ro'g'lidan voz kechsa, Zulxumorni unga berishlarini, shu yurtga

— Shirvonga Ravshanni podshoh bo'lib qolishini aytadilar. Shunda yosh yigit dor ostida mag'rur turib:

«Sen aytgan odaming, zolim, men emas, *Bir nechalar o'z holini tenglamas,*

Men o'lmasam, o'z elimdan kechmayman! Aziz boshing oyog'imga teng emas!» — deydi.

Bunday misralar doston ijro etilayotgan hududlardagi yuzlab mard o'g'lonlarning tarbiyasiga ta'sir qilgan. Shoir yurt mehri haqida

ularga ortiqcha nasihatlar qilmay yuraklariga ona diyor qimmatini naqadar ulug' ekanini singdirib qo'ya qoladi.

Professor Hodi Zarifov shoir hayotining so'nggi davri haqida hikoya qilib, baxshi o'z yurtiga borib, bir qator qo'lyozmalarni topmoqchi bo'lganini, yangi-yangi termalar, dostonlar aytib berishga va'dalar qilganini yozadi. Biroq og'ir kasallikdan shoir 1937-yil 12- may kuni vafot etadi. Zukko baxshidan qolgan badiiy meros bugungi kunda yurtimiz kelajagi uchun xizmat qilmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Ergash Jumanbulbul o'g'li qanday dostonlarni kuylagan?
2. Baxshining qaysi fazilati sizga yoqdi?
3. Maqolada keltirilgan she'riy parchalarni yodlang.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Zarifov H. Ulkan xalq san'atkori. Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o'rni (Maqolalar to'plami). T., «Fan», 1971, 8-42- betlar.
2. Husainova Z. Ergash Jumanbulbul o'g'li (bibliografiya). O'sha joyda, 180-196-betlar.

FOZIL YO'LDOSH O'G'LI

Fozil Yo'ldosh o'g'lidani yozib olingan 30 dan ortiq doston taqdir taqozosi bilan yo'qolsa-yu, faqat «Alpomish» dostoni saqlanib qolsa, zamonlar o'tib u inson el orasida buyuk baxshi nomi bilan tilga olinadi. O'g'uz, Qipchoq, Oltoy, Qo'ng'iroq versiyalariga ega bo'lgan bu dostonning 1928-yilda Mahmud Zarifov tomonidan Hodi Zarif rahbarligida Fozil Yo'ldosh o'g'lidani yozib olingan nusxasi butun turkiy xalqlar orasida qahramonlik eposi hisoblangan

«Alpomish»ning eng mukammal va badiiy jihatdan yetug'i hisoblanadi. 1952-yilda mustabid sovet tuzumi siyosatiga mos emaslikda ayblangan, 1999-yilda esa mustaqilligimiz sharofati

bilan ming yilligi nishonlangan «Alpomish»ga ham Fozil Yo'ldosh o'g'li aytgan nusxa asos bo'ldi.

Fozil Yo'ldosh o'g'li 1872-yilda Samarqand viloyati, Bulung'ur tumaniga qarashli Bo'dana hududidagi Loyqa qishlog'ida tug'ildi. Uning oilasi, asosan, dehqonchilik, qisman chorvachilik bilan shug'ullanardi.

Taqdir yosh shoirni juda erta sinovdan o'tkaza boshladi. 1877-yilda 5 yoshli Foziljon otasidan yetim qoldi. Onasining qo'liga qaram bo'lib qolgan oilaning tashvishi kundan kunga ortardi. Shuning uchun u to'qqiz yoshga to'lar to'lmas yollanib podachilik qilishga majbur bo'ldi. Bu haqda baxshi keyinchalik «Kunlarim» termasida shunday deydi:

*Olti yoshda qo'msab-qo'msab otamni, Og'ir mehnat ezdi
sho'rli enamni, Ena-bola topolmadik bir nonni, Parcha non deb
o'tgan kunlarim.*

*Yetti yoshda ortdi mening kulfatim, Sakkiz yoshda og'ir
mehnat ulfatim, Mehnat uchun sinab ko'rdim quvvatim, To'qqiz
yoshga yig'lab yetgan kunlarim. To'qqizimda bel bog'ladim
mehnatga,*

*Cho'pon bo'ldim, tushdim yana g'urbatga, Ishlab yedim, lekin
qoldim minnatga, Parcha non deb minnat chekkan kunlarim.
Do'mbiram kuyladi mening holimni,*

*Men jo'r bo'lib so'kdim boyni-zolimni, Topdim do'stlar,
shunda dardkashlarimni, Haq-nohaqli kuylab chertgan
kunlarim.*

Baxshidan yozib olingan bu termalar uning hayoti haqida ma'lum bir tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Xususan, ular vositasida biz Fozil Yo'ldosh o'g'lining baxshilar davrasiga o'z- o'zidan qo'shilib qolmaganini bilib olamiz. Baxshi uchun hayotni bilish, turmushning achchiq-chuchugini tatib ko'rish ham o'ziga xos tajriba maktabi bo'lgan. Bu maktabdan Fozil shoirning tuzukkina ta'lim olgani uning keyingi paytlarda kuylagan terma va dostonlaridan ma'lum bo'ladi. Hatto, olimlarning ma'lumot berishlaricha, Fozil Yo'ldosh yigit bo'lib ulg'aygani sari chorvachilik, dehqonchilik sirlarini egallab borar ekan, hamyurtlari orasida Loyqa qishlog'ining eng epchil

o'roqchisi nomini olishga muyassar bo'ladi. Ammo vaqt o'tgani sari yoshligida chertishni o'rgangan do'mbira unga tinchlik bermadi. Qayta-qayta baxshilar davrasida ishtirok etish esa ko'p o'tmay o'z davrining eng mashhur ustoz baxshilaridan Yo'ldoshbulbulning e'tiborini o'ziga tortdi. U mohir san'atkordan doston aytish sirlarini egalladi. Albatta, havaskor doston ijrochisidan yetuk baxshi nomiga yetishishi undan katta mehnatni, ijodda o'tadigan uyqusiz tunlarni talab qilardi. Fozil baxshidagi iroda bu talablarga javob berish uchun yetarli quvvatga ega bo'ldi. Yosh ijrochi o'z ustози va hamyurtlaridan qirqdan ortiq dostonni o'rgandi, ijod etdi. Oxir oqibatda Yo'ldoshbulbul o'z shogirdi Fozil Yo'ldosh o'g'lini baxshilikning katta sinovidan o'tkazdi. Fozildagi o'ta kuchli xotira quvvati, mehnatni sevis, o'ziga talabchanlik bu sinovdan muvaffaqiyatli o'tish imkonini berdi.

Xalq baxshisi hamisha o'z elining dardini, alamini, tashvishlarini o'z ijodida aks ettirgan. Tinglovchi omma juda og'ir va musibatli zamonlarda aynan baxshi termalaridan tasalli topgan, kelajakka umid bilan qaragan. Fozil Yo'ldosh o'g'li ham ana shunday baxshilardan edi. U atrof qishloqlarda mehnat qilib, 19 yoshida o'z ona qishlog'iga qaytgach, baxshi bo'lib nom qozondi va elining dardini termalarda bayon etdi.

1898-1908-yillarda yurtimiz tarixida tabiiy ofat ro'y bergan edi. Ekin maydonlarining hammasini chigirtka bosdi. Bu fojidan azobga tushgan baxshi hamyurtlari boshiga tushgan qiyinchiliklarni

«Chigirtka» termasida bayon etdi. Qashshoqlik avjiga chiqqani sari baxshining nolasi ham chegara bilmadi:

*Kambag'alning aqli shoshib, O'g'il qiziman kengashib,
Kecha-kunduz zor yig'lashib, Do'stlar, qaddi kamon bo'ldi.*

Aksiga olib, chor hokimiyatining zulmi ham oshib borardi.

Xalqning tashvishiga tashvish qo'shildirdi. Ko'p o'tmay Jizzaxda bosh ko'targan aholi to'pga tutildi. Bunday tashvishli voqealar Fozil shoirda yangi-yangi asarlar yaratish tuyg'usini paydo qildi. Uning «Mamatkarim polvon», «Jizzax qo'zg'oloni» kabi kichik hajmdagi dostonlari shu zaylda ijod qilindi:

*O'z holiga qo'ymay xalqni, Qayta-qayta chiqim soldi...
Urushda bo'lgan xarajat, Qaydan topib bersin elat?! Hamma
bo'lib qoldi hayron, Nechovning vatani vayron.*

«Jizzax qo'zg'oloni» dostonida Fozil shoir ko'rgan-kechirgan azob-uqubatlarini oddiy xalq tilidan sodda va ravon tarzda ifoda etishga urindi. Ammo baxshi tomonidan doimiy ravishda aytilayotgan terma va dostonlar uning an'anaviy epik asarlarni ham to'lib-toshib ijro etishga xalaqit bermadi. U «Alpomish», «Yodgor», «Shirin bilan Shakar», «Murodxon», «Rustamxon», «Malikai ayyor», «Mashriqo», «Intizor», «Balogardon», «Nurali», «Jahongir», «Farhod va Shirin» kabi qirqqa yaqin dostonni istagan paytda, tinglovchilar xohlagan o'rnidan ijro etaverish mahoratini egalladi. Ayniqsa, «Alpomish» dostoni uning eng sevgan va maroq bilan kuylagan san'at asari edi. Baxshi bu dostonni istagan hajmda soatlab, kunlab, haftalab aytishi mumkin edi. Chunki u ta'lim olgan Bulung'ur dostonchiligi maktabi aynan ana shu qahramonlik eposini kuylash bilan shuhrat topgan edi. Dostondagi qahramonlik lavhalari bilan bir qatorda ruhiy kechinmalar ifodasi ham badiiy mukammallikka yetdi. *Masalan*, dostondagi Barchinning Boychiborga murojaat qilib aytgan gaplari tinglovchilar qalbida katta taassurot qolishiga sabab bo'lishga arzigulikdir:

Qurru-yo qur, hayt-a, to'ramning oti,

*Oq to'shim — yayloving, sochim — shipirtki, Kuyganimdan
gapni gapga ulayin,*

*To o'lguncha sayising bo'p yurayin, Egam rahm aylasin
qonli yoshima, Sabab bo'lib qo'shgin dengi-do'shima, Olmosday
tuyog'ing qorday to'shima, Qurru-yo qur, hayt-a, to'ramning oti!
O'yilmay kuymasini kulbai xonam.*

*Oh urib yig'laydi mandayin sanam, Qalmoqda qolmasin
guldayin tanam, O'n ikki oy seni Boybo'ri boqdi, Gardaningga
Qaldirg'och qo'tos taqdi, Yig'latmagin Barchin gulday bebaxtdi,
Qurru-yo qur, hayt-a, to'ramning oti.*

Bu murojaat tinglovchilarni hamisha befarq qoldirmasdi. Chunki unda o'zga yurtda begona odamlar orasida umr bo'yi qolib ketishdan cho'chigan go'zal qizning otdan najot kutishi

badiiy ifodasini topgan edi.

Fozil shoir 1955-yilda o'z qishlog'ida vafot etdi.

Fozil Yo'ldosh ijod o'zbek ziyolilarie'tiborini 1922-yildanoq o'ziga jalb qildi. Dastlab G'ozim Olim Yunusov, keyinchalik V. M. Jirmunskiy, Hodi Zarifov, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Muhammadnodir Saidov kabi olimlar hozirgi paytda esa To'ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, Shomirza Turdimovlar baxshi ijodini tadqiq etishda muhim ilmiy kashfiyotlar yaratdilar. Bugungi kunda baxshidan yozib olingan terma va dostonlar, uning ijodi o'rganilgan yirik kitoblar, maqolalar soni besh yuzga yetdi.

Xullas, Fozil Yo'ldosh o'g'li o'zbek dostonchiligi san'atida mashhur dostonchi sifatida shuhrat topgan xalqimizning asl farzandidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Fozil Yo'ldosh o'g'lini nima uchun ustoz baxshi sifatida hurmat qilamiz?
2. Baxshi ijro etgan doston va termalar nomini ayting, ular haqida so'zlang.
3. Nima uchun «Alpomish» dostoni haqida ilmiy ish qilgan olimlar Fozil shoir nusxasiga murojaat qiladilar?
4. Barchinning Boychiborga murojaatini yod oling.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Zarif Hodi. Fozil shoir — mashhur dostonchi. Fozil shoir (Maqolalar to'plami). O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar, 3- kitob. T., «Fan», 1973. 5-29-betlar.
2. Jirmunskiy V. M., Zarifov H. T. Uzbekskiy narodnbiy geroicheskiy epos. Moskva. GIXL. 1947. 39-43-betlar.

MUHAMMADQUL JONMUROD O'G'LI PO'LKAN

Xalq dostonlarini hayratomuz xotirasida saqlab bizgacha madaniy meros sifatida yetib kelishiga munosib hissa qo'shgan ustoz baxshilardan biri Muhammadqul Jonmurod

o'g'li Po'lkandir. Po'lkan dostonchilik tarixida kamdan kam uchraydigan iste'dod egasi edi. U yetmishdan ortiq dostonlarni yod bilgan, o'nlab termalar ijod qilgan noyob baxshi edi. Vatanparvarlik ruhida yaratilgan uning «Temurxon podsho» dostoni keyinchalik «Chambil qamali» nomi bilan e'lon qilingan va bir necha yillar davomida o'rta maktablarning adabiyot dasturidan o'rin olgan.

Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan 1874-yilda Samarqand viloyatining Xatirchi tumanidagi Qatag'on qishlog'ida tug'ildi.

U ota-onasidan yoshligidayoq yetim qoldi. Turmush qiyinchiliklari Muhammadqulni o'n yoshga to'lganidanoq mehnat bilan shug'ullanishga majbur qildi. Taxminan, 1884-yildan boshlab tirikchilik o'tkazish maqsadida goh dehqonchilik, goh podachilik bilan shug'ullandi. Baxshilarning aksariyati podachilik bilan kun o'tkazishar ekan, do'mbira chertishni mashq qilishgan. Keng dala. Asosiy yumush qo'y-echkilarning tarqab ketmasliklariga ko'z-quloq bo'lib turishdan iborat. Shu bois kuni bo'yi vaqtning o'tishi uchun do'mbira chertishni mashq qilish ma'qul hisoblangan. Po'lkan ham turmush alamlarini do'mbira chertishdan olgan bo'lsa, ajab emas.

Undagi baxshilik iste'dodini sezgan Qo'rg'on dostonchilik maktabi vakili ustoz san'atkor Josoq baxshi Muhammadqulni o'ziga shogird qilib oladi. Shundan keyin yosh Muhammadqul hayotida o'zgarish ro'y beradi. Uning oldida hayotdan ko'zda tutgan maqsad paydo bo'ldi. Bu maqsad yosh yigitni kecha-yu kunduz mehnat qilishga chorladi. Jassoq tarbiyasida to'rt yil muttasil doston aytilish sirlarini o'rgandi. 25 yoshida baxshilik sinovidan o'tib, mustaqil baxshi sifatida nom qozona boshladi. Ammo Muhammadqul nihoyatda o'ziga talabchan inson edi. Shuning uchun mustaqil baxshi bo'lishiga qaramay o'z ustozni huzuriga tez-tez borib uning bisotidagi dostonlarning hammasini o'zlashtirmaguniga qadar tinchimadi. Nihoyat, Jassoq baxshi bilgan hamma asarlarni yod oldi, ba'zan ularga o'zining xohishi bilan ayrim yangiliklar kiritib kuylab yurdi.

Lekin hayot unga yana bir sinovni tayyorlagan edi. Otasidan meros bo'lib qolgan bir parcha yerdan keladigan daromad ro'zg'or tebratishga yetmay turgan bir paytda birinchi jahon urushida qatnashayotgan chor Rossiyasi Turkiston o'lkasidan mardikorlikka olish haqida farmon chiqaradi. Qishlog'idagi Bo'riboy ismli bir kimsa mardikorlikka beriladigan pulni to'laydi va uning o'rniga 40 yoshni qoralagan Muhammadqul front orqasida qora ishlarni bajarish uchun jo'natiladi. Bu safar natijasi sifatida baxshining «Mardikor» dostoni yaratiladi. Unda oq podshoh zulmiga, o'zbek xalqiga hech qanday aloqasi yo'q urush tashvishlariga bo'lgan norozilik o'z ifodasini topgan. Po'ltan nomi esa mardikor yurgan zamonlardan xotira sifatida unga taxallus bo'lib qoladi. Bu so'z «polk» so'zidan olingan edi.

Ammo baribir baxshining mahorat darajasi u ijro etgan an'anaviy dostonlar mezoni bilan o'lchanadi. «Alpomish», Go'ro'g'li turkumidagi «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Misqol pari», «Gulnor pari», «Yunus pari», «Avazxon», baxshi alohida mehr bilan ijro etgan «Yodgor», «Shayboniy», «Qironxon», «Kuntug'mish» kabilar shular jumlasidandir.

Har bir baxshi o'z xalqining yoshlarini tarbiyalovchi asil farzanddir. Po'ltan o'zining ustozidan Qo'rg'on dostonchilik maktabiga xos usullarni mukammal o'rgangani uchun butun ijodi davomida yoshlarni ajdodlarimiz qadriyatlariga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashga alohida ahamiyat bilan qaradi. Ayniqsa, «Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostoni bu sohada ibratlidir. Xususan, baxshi yashagan hududda Go'ro'g'lining kelib chiqishi tarixini bilishga qiziqadiganlar juda ko'p edi. Dostonda esa Go'ro'g'lining dunyoga kelishi, uning yoshligi haqida hikoya qilinadi. Xalq xaloskori — Go'ro'g'li va G'iro't qahramonligini tasvirlash esa o'zbekning ota-bobolari nechog'lik mard va jasur ekanliklarini ko'rsatish vositasi bo'lgan. Vatanni asrash, e'zozlash baxshi dostonlarining bosh g'oyasini tashkil etdi. Jumladan, «Chambil qamali» dostonidan quyidagi parcha fikrimiz dalilidir:

*Yovgarchilik bo'ldi endi, yoronlar, G'ayrat qiling turkman¹⁰
elning xotini... Qovoqlarni uyinglar, Qiz-xotinni jiyinglar, Po'pakni*

yig'ib tashlab, Sochni boshga tuyinglar. Xotinlikni qo'yinglar, Sarboz anjom kiyinglar, G'ayrat qiling ayollar.

Dostonda safarga chiqqan Go'ro'g'lining Chambilda yo'qligidan foydalanmoqchi bo'lgan dushmanga qarshi Yunus pari ayollarni safarbar qiladi. Go'ro'g'lining yo'qligini bilintirmaydi. Chambilni dushman qo'lga topshirmaydi.

Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan kuylagan dostonlar faqat mazmunan emas, badiiy jihatdan ham mukammal edi. Baxshi hayratomuz mubolag'alar, chiroyli sifatlashlar, o'xshatishlarni qo'llashda tengi yo'q edi. Jumladan, xalq maqollari uning she'riy misralariga shunday singib ketar ediki, shoir mahoratiga qoyil qolmaslik mumkin bo'lmasdi:

Ot boshiga kun tushsa, Suvliq bilan suv ichar. Er boshiga kun tushsa, Etik bilan suv kechar.

10 Bu o'rinda turkman o'zbeklarning urug'laridan biri ma'nosini anglatadi.

Po'lkan shoir hayoti va ijodi haqida folklorshunosligimiz otasi Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, Mansur Afzalov, keyinchalik

O. Sobirov, M. Saidov kabi olimlar samarali tadqiqot ishlarini olib borganlar. Undan yozib olingan va nashr qilingan terma va dostonlar soni yuzdan ortiqdir. Xullas, Po'lkan ustoz baxshilar qatoridan munosib o'rin egallashga haqli so'z san'atkoridir. U 1941 yilda vafot etdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan ijro etgan dostonlar, ularning mavzulari haqida so'zlang.
2. Po'lkan hayoti haqida hikoya qiling.
3. Shoir kuylagan dostonlardan parchalar yodlang.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Po'lkan shoir. O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 4- kitob. T., «Fan». 1976.
2. Afzalov M. Po'lkan. O'sha joyda. 10-14-betlar.
3. Jirmunskiy V. M., Zarifov H. T. Uzbekskiy narodnbiy geroicheskiy epos. Moskva. GIXL. 1947. 46-49-betlar.

4. «Go'ro'g'lining tug'ilishi», doston. Nashrga tayyorlovchi: Malik Murodov. O'zbek xalq ijodi. Ko'p jildlik. T., G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.

ISLOM SHOIR NAZAR O'G'LI

Iste'dodli ijodkor shoir — baxshilarimizdan biri Islom shoir Nazar o'g'lidir. Baxshining doston yoki termanni alohida to'ldirib aytadigan vaqti «baxshi qaynadi» deyiladi. Bunday paytda unga tashqarida ro'y berayotgan har bir voqea faqat ilhom bag'ishlaydi. Islom shoir katta bir hovuz bo'yida doston aytib ana shunday to'ldirilgan paytlaridan birida mashhur Otaniyoz shoir u haqda shunday degan ekan: «Agar shu hovuzning suvi siyoh bo'lsa, botmon qog'oz bo'lsa, necha odam yoza bersa, hovuzning suvi tamom bo'lsa bo'ladiki, lekin Islom shoirning ko'nglidan chiqqan qo'shig'i tugamaydi. Chunki Islom shoir qaynab turgan buloqday qaynab toshadi». Bunday ajoyib maqtovlarga faqat el nazari tushgan, zabardast baxshilar musobaqalarida o'ziga xos aytishuvlarning sovriniga sazovor bo'lgan san'antkorlarga muvassir bo'lishgan.

Islom shoir Nazar o'g'li Samarqand viloyati Narpay tumani Galaqassob qishlog'ida dehqonchilik va cho'ponlik bilan shug'ullangan oilada 1874-yilda tug'ilgan. Islom ham yoshligidan cho'ponlik bilan shug'ullandi. Chunki otasi Nazar Rajab o'g'li ayolmand bo'lib, ro'zg'orni tebratishga, sakkiz jondan iborat oilani boqishga qiynalgan edi. Yosh Islomning baxtiga bobosi Rajab shoir yaxshigina baxshi edi. Shuning uchun Islomning suyagi do'mbira sadolari ostida qotdi, desak, xato bo'lmas. Baxshi keyinchalik o'zining yoshlik yillarini shunday eslaydi: «Yurganim, ko'rganim dasht, cho'l, boqqanim qo'y-qo'zi, ulfatim jafokash cho'ponlar bo'ldi. Umrin bino bo'lib yoshligimda, yigitligimda yangi kiyim kiyganimni, qornim to'yib ovqat yeganimni bilmayman».

XIX asrning oxirlari XX asr boshlari yurtimizda dostonchilik san'ati alohida gullagan bir davr bo'ldi. Samarqand dostonchiligi an'anasi tarkibidagi Qo'rg'on, Bulung'ur, Shahrisabz maktablari

vakillari bu davrda tez-tez uchrashib turadilar. O'ziga xos aytishuv musobaqalari an'anaga aylangandi. Shuning uchun ham maxsus maktab darajasiga ko'tarilmagan hududlarda yashaydigan baxshilar ko'pincha mashhur maktab vakillaridan baxshilik san'atini o'rganganlar. Islom shoir ham Shahrisabz va Qo'rg'on maktabi ustozlarining doston aytish usullarini o'zlashtirdi. Savodsiz bo'lishiga qaramay kuchli xotira quvvatiga ega bo'lgan Islom ajoyib ovozi borligi uchun tez orada o'nlab doston va termalarni yod olib, 26 yoshida mustaqil baxshi sifatida shuhrat qozondi. Ayni chog'da baxshilikda juda muhim hisoblangan do'mbira kuylarini ham mahorat bilan ijro etdi. Odatda, doston boshlashdan avval baxshi tinglovchilarga do'mbira kuyini chalib beradi. Bu kuy tinglovchini doston tinglashga tayyorlaydi. Islom shoir ijro etgan kuy sadolari olimlarning eslashiga qaraganda musiqiyligi, mayinligi, serjiloligi bilan ajralib turgan ekan. Ovozning shirasi bu lazzatga qo'shimcha fayz bo'lib qo'shilgan. Shuning uchun Islom shoir aytgan 28 ta dostonning hammasini hamqishloqlari, qo'shni hududdan kelgan ishqibozlar maroq bilan tinglaganlar. Bunday martabaga erishishda Ernazar baxshi va Qo'rg'on maktabi vakili Ergash shoirning otasi Jumanbulbul, To'xtamish shoir unga ustozlik qilganlar. Mustaqil baxshi bo'lgandan keyin ham u To'xtamish shoir huzuriga borib o'z san'atiga sayqal berish harakatida bo'lgan.

Baxshi o'z yurtdoshlarining qalblaridagi fikr-mulohazalarini topa bilmasa mashhur bo'lmaydi. Tinglovchi hech qachon doston yoki termanni shunchaki eshitish uchun doston kechasiga kelmaydi. U hamisha baxshidan dunyodagi voqealar, qo'shni viloyat, tuman, qishloqlardagi yangiliklar haqida ham ma'lumotga chanqoq bo'ladi. Radio, televideniye va matbuotning boshqa turlari rivoj topmagan paytlarda xalq baxshilari ham jurnalist, ham diktor, ham boshlovchi sifatida faoliyat ko'rsatganlar. Bir necha ustoz shoir-baxshilar ishtirokidagi suhbatlar o'ziga xos ommaviy axborot vazifasini bajargan. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil shoir, Po'ltan, Islom shoir kabi iqtidorli baxshilar bu matbuot markazining

ish yurituvchilari bo'lishgan. Ular orasida Islom shoirning munosib o'rne bor. Chunki Islom shoir «Zulfizar bilan Avaz», «Gulixiromon», «Orzigul», «Kuntug'mish», «Xirmondali», «Sohibqiron», «Erali va Sherali», «Tohir va Zuhra», «Nigor va Zamon» kabi o'nlab dostonlarini aytish jarayonida yurtidagi yangilik va o'zgarishlarni, ayrim shaxslar haqidagi tanqidiy mulohazalarni ham bayon etardi. Bizga ma'lum bo'ldiki, Ergash Jumanbulbul o'g'li «Ravshan», Fozil Yo'ldosh o'g'li «Alpomish», Po'ltan shoir «Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostonlarini kuylashda mahorat ko'rsatgan ekanlar. Islom shoir Nazar o'g'lining bunday go'zal ijro etadigan dostoni sifatida «Orzigul»ni ko'rsatish mumkin. Chunki bu dostonni baxshi boshqacha bir mehr bilan kuylagan. Dostonda jahon adabiyotida asrlar bo'yi o'nlab adiblarning asarlariga an'anaviy mavzu hisoblangan otaning bexabar holda o'z qiziga oshiq bo'lish voqeasi bayon etiladi. Orzigul sovchi yuborgan shoh o'zining otasi ekanini bilgani zahoti boqib olgan otasi Ernazar yordamida Xosxona mamlakatidan bosh olib chiqib ketadi. Qarama- qarshi ruhiy kechinmalar tasviriga boy bu dostonda Islom shoir tinglovchi yodida qoladigan bir qator obrazlar yaratgan. Ayniqsa, Orzigulning Ernazar bog'bon xonadonidan chiqib ketishi lavhasida ichki tuyg'ular ifodasi e'tiborga loyiq:

*Jasadimda jonim bo'lgandi g'arib, O'lganim yaxshidir
chetlarga borib, Ushbu savdolarga jonimni berib, Ketarman
yurtimdan, otadan kechib. Yaxshi bilgin, ota-ona, ketarman,
O'zga eldan borib, makon tutarman, Qaytib¹¹ otam bilan birga
turarman, Quloq soling Orzigulning zoriga, Turgilik qilmadi
ushbu shahriga, Qaytib ota lozim qizning bag'riga?!*

Bu dostonda inson, ota, farzand, oila, burch kabi falsafiy masalalar oddiy xalq nuqtayi nazaridan tahlil etiladi, salbiy xususiyatlar qoralanadi.

Islom shoir Nazar o'g'li 1953-yil 79 yoshida vafot etdi. Uning hayoti va ijodi atoqli folklorshunos olimlar Hodi Zarifov, Muzayyana Alaviya, Mansur Afzalov, Oxunjon Sobirovlar tomonidan o'rganilgan. Islom shoirdan yozib olingan, nashr etilgan badiiy asarlar, uning ijodiga bag'ishlab yozilgan

kitoblar, maqolalar soni uch yuzdan ko'p. Baxshidan yozib olingan dostonlarni xalqimiz hamon sevib o'qimoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Islom shoirning hayoti va ijodi haqida so'zlang.
2. Baxshi qaysi dostonni alohida mehr bilan ijro etgan?
3. Islom shoir o'tmishi haqida nimalarni eslaydi?

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Jirmunskiy V. M., Zarifov H. T. Uzbekskiy narodnbiy geroicheskiy epos. Moskva. GIXL. 1947. 52-53-betlar.
2. Islom shoir va uning xalq poeziyasida tutgan o'rni. O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. T., «Fan», 1978.
3. Sobirov O. Atoqli xalq shoiri. O'sha joyda, 3-9-betlar.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalq dostonlaridan birini o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra tavsiflang.
2. Doston haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun uning qanday tarkibiy qismlari bo'lishi kerak?
3. Dostonchilik maktablarida dostonchilik an'analari haqida gapiring.
4. Dostonlar tasnifi haqida nimalar bilasiz?
5. Xalq dostonlari ijtimoiy hayotni tasvirlashda qanday ahamiyatga ega?
6. Dostonlardan namunalar o'qing, ayrim parchalarni yodlang.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. **1-jild.** «Alpomish» dostoni (Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti). Nashrga tayyorlovchi: H.Zarifov, T.Mirzayev. Mas'ul muharrir: M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 512 b.

2. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. **2-jild.** «Yusuf **bilan Ahmad**» dostoni (Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan va Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti). Nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev. Mas'ul muharrir: E.Ochilov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2015. – 556 b.

3. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari: 100 jildlik. **3-jild.** «Qironxon» dostoni (Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan va Jolg'osh Josoq o'g'li varianti). Nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev. Mas'ul muharrir: E.Ochilov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 648 b.

4. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. **4-jild.** «Alpomish» dostoni (Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan va Ergash Jumanbulbul o'g'li, Berdiyori Pirimqul o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li variantlari). Nashrga tayyorlovchilar: T.Mirzayev, M.Narziqulova. Mas'ul muharrir: M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2015. – 444 b.

5. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. **5-jild.** «Shirin **bilan Shakar**» (dostonlar). Aytuvchi: Fozil Yo'ldosh o'g'li. Nashrga tayyorlovchilar: M.Shayxzoda, M.Jo'rayev, M.Jo'rayeva, Z.Yo'ldosheva. Mas'ul muharrir R.Barakayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 540 b.

6. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. **6-jild.** «Erali **bilan Sherali**» dostoni (Islom shoir Nazar o'g'li varianti). Nashrga tayyorlovchi: T.Mirzayev, B.Mirzayeva. Mas'ul muharrir: M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 404 b.

7. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. **7-jild.** «Alibek **bilan Bolibek**» («Yusuf bilan Ahmad» qissa-dostonining yig'ma matni, Abdulla Nurali o'g'lining «Ahmad bilan Yusuf» dostoni hamda Ergash Jumanbulbul o'g'lining «Alibek bilan Bolibek» dostoni). Nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev. Mas'ul muharrir: E.Ochilov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 584 b.

8. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. **8-jild.** «Sohibqiron» / dostonlar (Islom shoir Nazar o'g'lining «Sohibqiron», Umir shoir Safarovning «Oyparcha», Zohir Qo'chqor o'g'lining «Oqbilak

oyim», Bo'ri baxshi Ahmedovning «Oyparcha» dostonlari). Nashrga tayyorlovchilar: M.Jo'rayev, M.Jo'rayeva. Mas'ul muharrir: T.Mirzayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 512 b.

9. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. **9-jild.** «Kuntug'mish» (ishqiy-romanik dostonlar). Ergash Jumanbulbul o'g'lining «Kuntug'mish», Nurmon Abduvoy o'g'lining «Kuntug'mish polvon», Bekmurod Jo'raboy o'g'lining «Xolbeka», Islom Shoir Nazar o'g'lining «Kuntug'mish va Xolbeka» dostonlari. Nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev. Mas'ul muharrir: Sh.Turdimov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 576 b.

10. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. **10-jild.** «Alpomish» / dostonlar (Bekmurod Jo'raboy o'g'li va Egamberdi Ollomurod o'g'li variantlari). Nashrga tayyorlovchi: T.Mirzayev. Mas'ul muharrir: M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 504 b.

11. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. **11-jild.** «Rustamxon» (dostonlar). Nashrga tayyorlovchilar H.Zarifov, J.Eshonqulov. Mas'ul muharrir: M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIK, 1918. – 528 b.

12. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. **12-jild.** «Orzigul» (dostonlar). Nashrga tayyorlovchilar M.Jo'rayev, M.Jo'rayeva. Mas'ul muharrir T.Mirzayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIK, 1918. – 604 b.

13. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. **13-jild.** «Qorako'z oyim» (dostonlar). Nashrga tayyorlovchi M.Jo'rayev. Mas'ul muharrir T.Mirzayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIK, 1918. – 600 b.

14. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. **14-jild:** «Yakka Ahmad» (dostonlar). Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi mualliflari T.Mirzayev, J.Eshonqulov. Mas'ul muharrir M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMU, 2019. – 416 b.

15. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. **15-jild:** «Yozi bilan Zebo» (dostonlar). Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi M.Jo'rayev. Mas'ul muharrir T.Mirzayev. –

Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – 472 b.

16. «O'zbek xalq ijodi yodgorliklari». **16-jild:** «Yodgor» (dostonlar). «Yodgor» dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li va Qora baxshi Umirov variantlari. Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi T.Mirzayev. Mas'ul muharrir M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2020. – 600 b.

17. «O'zbek xalq ijodi yodgorliklari». **20-jild:** «Alpomish» (Zohir Qo'chqor o'g'li varianti). Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi T.Mirzayev. Mas'ul muharrir M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2020. – 520 bet.

18. Madayev O., Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T., 2010. NMIK, 1918.– 600 b.

19. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. **14-jild:** «Yakka Ahmad» (dostonlar). Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi mualliflari T.Mirzayev, J.Eshonqulov. Mas'ul muharrir M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – 416 b.

20. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. **15-jild:** «Yozi bilan Zebo» (dostonlar). Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi M.Jo'rayev. Mas'ul muharrir T.Mirzayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – 472 b.

21. «O'zbek xalq ijodi yodgorliklari». **16-jild:** «Yodgor» (dostonlar). «Yodgor» dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li va Qora baxshi Umirov variantlari. Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi T.Mirzayev. Mas'ul muharrir M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2020. – 600 b.

22. «O'zbek xalq ijodi yodgorliklari». **20-jild:** «Alpomish» (Zohir Qo'chqor o'g'li varianti). Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi T.Mirzayev. Mas'ul muharrir M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2020. – 520 bet.

23. Madayev O., Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T., 2010.

6-mavzu: Qahramonlik dostonlari.

1. Qahramonlik dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari.
2. «Alpomish» dostonining variant va versiyalari.
3. «Alpomish» dostoning g'oyaviy-badiiy tahlili.

Tayanch iboralar: «Alpomish» dostoni, variant, versiya, qahramonlik dostoni.

Darsning maqsadi. Dostonchilik maktablari va ular yaratgan «Alpomish» dostonining variant va versiyalari.

Darsning vositalari. Konkret-obrazli, visual ko'rgazmali o'quv qurollari, folklorshunos olimlarning xalq dostonlariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari. Blitz-so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. O'zbek xalq dostonlari nihoyatda ko'p bo'lib, uzoq asrlar davomida yaratildi va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib keldi. Bu hol ularni muayyan turlarga bo'lib o'rganishni taqozo etadi. Dostonlar dastlab V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov, keyinroq M.Saidov tomonidan nashr qilindi. O'zbek xalq dostonlari *qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romanik, kitobiy* dostonlarga bo'linadi.

Qahramonlik dostonlari. Qahramonlik dostonlari bizgacha sof holida «Alpomish» misolida etib kelgan.

«Alpomish» – qadimiy dostonlardan biridir. U qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligini kuylovchi ulkan eposdir. Unda bir oila taqdiri misolida vaziyat taqozosi bilan bo'linib ketgan qadimiy bir o'zbek urug'ining qayta birlashishini badiiy aks ettirish orqali millat birligi g'oyalari, uning qahramonona shon-shuhrati va istiqboli, el-yurt farovonligi, oila baxti va Vatan ravnaqi uchun kurash baralla kuylangan.

Qahramonlik eposi xalq og'zaki ijodi tarixida alohida bosqich sifatida baholanadi. Uning mashhur namunasi yunonlarda «Odiseya» va «Iliada» asarlari hisoblanadi. Qirg'iz

xalqining «Manas»i ham ana shunday bosqich namunasidir. Bunday asarlarda alohida qahramonlik va mardlik namunasini ko'rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, o'zidan son va kuch jihatidan yuqori turgan dushman bilan olishuvlari aks etadi. Qahramonlik eposiga o'zbeklarda «Alpomish» dostoni misol bo'ladi. Unda yurtimizdagi milliy an'analarning shakllanishi, tashqi dushmanlarga qarshi kurash, xalq birligini saqlash, mustaqil hayotni muhofaza qilish g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Bundan ming yillar avval xalq baxshilari tomonidan og'zaki ravishda yaratilgan hamda bizgacha kuylab kelingan bu doston o'zbek- qo'ng'iro't urug'i boshliqlari aka-uka Boybo'ri va Boysarilarning farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Unda Hakimbek va Barchinning ajoyib-g'aroyib holatlarda tug'ilishi, Hakimbekning bahodirona yoshligi va birinchi bor pahlavonlik ko'rsatishi, Boysarining Boybo'ridan arazlab, qalmoq eliga ko'chishi, qahramonning yorini olib kelish uchun o'zga mamlakatga safari va qalmoq alpi Qorajon bilan do'stlashishi, raqiblari – qalmoq alplari bilan yonma-yon turib, Barchinning shartlarini bajarishi va Barchinni olib o'z eliga qaytishi, qaynatasi Boysarini qutqarish uchun ikkinchi marta safar qilganda, yetti yil zindonda qolishi, asirlikdan o'ti Boychibor yordamida qutulib, xotini Barchinning zo'ravon Ultontoz bilan bo'layotgan to'yi ustida o'z eliga kelishi hamda Ultontozni yengib, o'z hokimiyatini o'rnatishi voqealari tasvirlanadi. «Alpomish» dostonining bosh qahramoni Hakimbek – Alpomishdir. U xalqning qahramonlik orzularini o'zida mujassamlashtirgan, el-yurt farovonligi yo'lida mardliklar ko'rsata olgan bahodir, xalq dahosi yaratgan quyma obrazdir. Qadimgi davrlar va o'rta asrlarda inson beqiyos kuch-qudrat egasi hisoblangan, chunki o'sha sharoitda odamlarning ijtimoiy hayoti va tabiat hodisalariga qarshi kurashlarida jismoniy kuch hal qiluvchi rol o'ynagan. Shuning uchun ham barcha xalqlarning qahramonlik eposlarida har ishga qodir pahlavonlar, yakkama-yakka olishuvlarda g'olib chiqqan bahodirlar, vahimali ajdar va devlarni mahv eta oladigan botirlar, tish-tirnog'igacha qurollangan lak-lak dushman qo'shinini

yolg'iz o'zi yenggan alplar siymolari yaratilgan. Alpomish xuddi shunday qahramondir.

Ijodidagi eng qadimiy, badiiy jihatdan mukammal, olimlar tomonidan ko'p o'rganilgan dostonidir. Unda o'zbekning uzoq o'tmishi, rasm-rusumlari, hayot tajribasidan o'tgan an'analari, kurashlari, tashvishlari, quvonchlari o'zining badiiy ifodasini topgan. Baxshilar mahorati bu dostonni ijro etish darajasi bilan o'lchangan. Ustoz dostonchilar o'z san'atlarini ko'pincha «Alpomish»ni kuylash bilan ko'rsatganlar, hurmat topganlar. Muhimi shundaki, o'zbek millatining hayoti bir tekis ravnaq topgan paytda «Alpomish» dostonini kuylashga e'tibor katta bo'lgan. Xalqimiz hayotidagi og'ir zamonlar hukm surgan paytda bu dostonning ham boshida qora bulutlar quyuqlashgan. Hatto mustabid sovet tuzumidagi qatag'on yillarida «Alpomish»ni kuylash ham taqiqlangan, «xalqqa zarar keltiruvchi asar» - deb qoralangan (1952). Ma'lum bo'ladiki, «Alpomish» taqdiri asrlar davomida o'zbek xalqi tarixi bilan chambarchas bog'liq. XX asrning 70-yillarigacha «Alpomish» dostoni haqida bildirilgan mulohazalarning ko'pchiligi Mahmud Zarifov buyuk san'atkor Fozil Yo'ldosh o'g'lidan 1928-yilda yozib olgan nusxa asosida Hamid Olimjon qisqartirib nashrga tayyorlagan kitobga tegishli edi. Faqat 1969-yilda Berdi baxshidan Abdulla Alaviy va 1972-yilda Saidmurod Panoh o'g'lidan Shamsi Murodov yozib olgan nusxalar nashr etilgandi. O'zbekiston mustaqil bo'lganidan so'ng «Alpomish»ga bo'lgan munosabat ham o'zgardi.

«Alpomish» dostonining bir necha versiyalari, jumladan, o'zbek versiyasi ancha kech, XX asrning 20-yillarida aniqlangan. Qozoq va qoraqalpoq versiyalari XIX asr oxiri XX asr boshlarida yozib olingan. Tojik va arabcha versiyalari Panjikent, Qashqadaryo viloyati Varganza, Jeynov qishlog'idan topilgan. Ular o'zbek dostonchilik an'anasi ta'sirida yuzaga kelgan.

Avvalo, Berdi baxshi aytgan doston qayta nashr etildi. 1998-yilda Xushboq Mardonaqul o'g'li (yozib oluvchi Toshtemir Turdiyev), 1999-yilda Bekmurod Jo'raboy o'g'li (yozib oluvchi Mansur Afzalov) nusxalari alohida nashr etildi.

1998-yilda esa Fozil Yo'ldosh varianti 70 yildan keyin to'liq holda bosmadan chiqdi. 1999-yilda esa dostonning ming yillik to'yi katta tantanalar bilan nishonlandiki, bu tadbir o'zbek xalqining ajdodlar yodini ham asta-sekin o'rniga qo'yib esga ola boshlaganidan nishona bo'ldi.

Tantanalar arafasida «Alpomish» - o'zbek xalq eposi» nomli maqolalar to'plami va boshqa ilmiy kitoblar, o'nlab gazeta, jurnal maqolalari e'lon qilindi, ko'rsatuvlar tayyorlandi.

Dunyodagi qabila, urug', elat tarixda alohida xalq sifatida shakllanar ekan, bu jarayon, avvalo, qahramonlik eposi hisoblangan maxsus yirik, epik asarda badiiy ifodasini topadi. Professor Bahodir Sarimsoqov dostonimiz o'zbekning birlashuvi, mustaqil xalq sifatida paydo bo'lishida qanday o'ringa ega ekanini ta'riflab, shunday deydi: «Dastlab qabila, so'ngra elat eposi sifatida vujudga kelgan «Alpomish» dostoni keyinchalik o'zbek xalqining qahramonlik eposi sifatida tan olindi».¹⁰ Haqiqatan ham, doston matnidan juda ko'p o'tmish hayot belgilari o'rin olgan bo'lib, ularni izohlash natijasida asarning xalq qahramonlik eposi ekaniga to'la ishonch hosil qilamiz.

Dostonda qadimgi dunyoqarash belgilaridan bir qator namunalar bor. Yoy, o'q, tush, qo'riq kabilar fetish (mif haqidagi mavzuni eslang), ot, tuya, g'oz kabi hayvon va qushlar totem tushunchalar ifodasi sifatida aks ettirilgan. Hakimbek bobosi Alpinbiydan qolgan yoy yordamida Alpomish nomini oldi. Qadim zamonlarda bolalarga ism qo'yish odati bo'lmagan. Farzand voyaga yetib, bironta mardlik ko'rsatganidan keyin ism olgan.

Dostonda Hakimbek qahramonimizning katta mardlik ko'rsatguniga qadar bo'lgan muddatdagi ismi bo'lib qolgan. Shuningdek, Qorajon tushida musulmonlikni qabul qiladi. Agar dostonni e'tibor bilan o'qisak, bunga o'xshash juda ko'p lavhalarga duch kelamiz. Jumladan, Alpomishga qo'riqqa tushgan ot ma'qul bo'lmaydi. Qayta-qayta qo'riq tashlaydi. Har safar bitta ot ilinadi. Alpomish taqdirga tan beradi. Keyinchalik

¹⁰ Sarimsoqov B., «Alpomish» eposi haqida uch etyud. «Alpomish» - o'zbek xalqqahramonlik eposi» maqolalar to'plamida. T., «Fan». 1999. 115-bet.

bu ot (Boychibor) uni ko'p kulfatlardan asraydi. Alpomish Murod tepaning poyiga yetganida, shu tepaga otda to'xtamay chiqishni niyat qiladi. Tepaga chiqadi, niyati ham amalga oshadi. Ko'kaman Barchindan qimiz so'raydi. Agar Barchin qimiz bersa, unga uylanish niyati amalga oshishini o'ylaydi. Barchin qimiz bermaydi. Ko'kaman ham niyatiga yetmaydi. Dostonda bunday qadimiy tushunchalar ko'p uchraydi. Ular dostonning boshidan oxirigacha o'ziga xos fayz bag'ishlab turadi.

Ammo dostonning bosh g'oyasi, yaratilishidan nazarda tutilgan maqsad ancha yirik mezon bilan o'lchanadi.

Xususan, dostonda yosh avlod vakili Alpomish tomonidan qilingan taklif - zakot to'lash Qo'ng'iro't - Boysun elini bir-biridan ajralishga olib keladi.

Xalq ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni chuqur ilmiy tahlil asosida atroflicha izohlab o'tirmaydi. Shuning uchun uzoq kutilgan farzand - Alpomishning mulla bo'lishidagi bir belgi «zakot» tushunchasi bilan bog'lanadi. «Zakot»ni esa islom dinidagi tushuncha deb qabul qilish bir tomonlama yondashuv bo'lib, masalaga shoh adolati nuqtayi nazaridan qarash maqbuldir. Boysarining nutqida ham bu mulohaza takrorlanadi. U akasining o'g'li borligini yuziga solganini, akasiga zakot berguncha o'zga yurtida yashagani ma'qulligini aytadi. Vaholanki, islom dinida zakotdan hech kim voz kechgan emas. Aksincha, Allohning zakot berishga yetkazgani uchun shukr qilingan. Shunday qilib, Alpomish paydo bo'lguniga qadar totuv yashayotgan el endilikda bo'lindi. Alpomish esa Barchin xati vositasida Qalmoq eliga borib, o'zi unashtirilgan qizni olib keldi. Shu bahonada yurtidan judo bo'lgan el ona yurtiga qaytarildi. Natijada, Qo'ng'iro't - **Boysun** yurti bitta yurtboshi rahbarligida birlashdi va hayot kechira boshladi. Shu o'rinda qadim-qadim zamonlarda oddiy haqiqat bo'lgan ikkinchi bir masalani ham aytish lozim. Gap shundaki, uzoq o'tmish zamonlarda biron yurtning mustaqilligi va dahlsizligi u yurtga qaram bo'lgan qaysidir mamlakatning boyligi bilan ham o'lchanardi. Xalq ertaklari va dostonlarida asar qahramonining biron yurtga qilgan safari o'sha yurti o'ziga qarashli bo'lishini xohlashi

bilan bog'liq ekan, bu masalaga alohida bosqinchilik siyosatini aralashtirish to'g'ri emas. Bu o'rinda ko'proq o'z yurtining mustaqilligini ta'minlash istagi kuchli ekanini ta'kidlash ma'qulroq bo'ladi. Shuning uchun «Alpomish» ijodkorlari atayin Boysaridagi o'jarlik xususiyatini bo'rttirib ko'rsatadilar va shu bilan uning Qalmoq yurtida qolishini asoslaydilar. Aslida esa Boysarining o'zga elda qolishi Alpomishning ikkinchi safarini asoslaydi. Qizig'i shundaki, Alpomish qalmoq eli podshosi Toychixonning mamlakatini to'g'ridan to'g'ri bosib olmaydi. U Boysariga o'tkazilgan zulm, o'ziga nisbatan amalga oshirilgan xiyonat uchun Toychixonni jazolaydi. Bu yo'nalish hayotiy mantiq asosida o'z yechimini topadi. Jumladan, Tavka oyim ishqida Qo'ng'irotdan qalmoq yurtiga borib qolgan Kayqubod o'z niyatiga yetib (Tavka roziligi bilan), sevgan qiziga uylanadi va taxtning qonuniy vorisiga aylanadi. Ayni paytda, Alpomish qalmoqlar (Kashal) yurtiga o'zining odamini podshoh qiladi. Shu asnoda u go'yo o'z yurtining mustaqilligi uchun kurashgan bo'lib chiqadi. Dono xalqimizning har bir tadbiriga ana shunday, bir qarashda ko'zga ko'rinmaydigan yechimlar vositasini topish mahoratiga ham qoyil qolsa bo'ladi. Alpomishning o'z yurtiga qaytishi va Qo'ng'iro - Boysundagi adolatsizlikka chek qo'yishi tabiiy bir xulosa sifatida baholanishi mumkin.

«Alpomish» dostonida juda ko'p lavhalar bir qarashda ahamiyatsizdek bo'lib ko'rinsa-da, aslida xalq ular vositasida o'zining turmush tajribalarini ifodalagan bo'lib chiqadi. *Masalan*, Barchinoydan Alpomishga kelgan xatni Boybo'ri berkitib qo'yadi. Bu bilan Boybo'rining o'zi boshlagan yo'ldan, ya'ni Barchinga o'g'lining uylanishi va Boysunning o'z vataniga qaytishidan voz kechgani ko'rsatiladi. Voqea rivojida Qaldirg'och hal qiluvchi vazifani bajara boshlaydi. U Barchinning xatini tasodifan sandiqdan topib oladi va akasini o'z qaylig'ini olib kelish safariga otlantiradi. Bunday safar xalq qahramonlik eposining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida baholanadi. Alpomish qalmoqlar yurtiga borganida, Barchinning to'qson alp oldiga qo'ygan shartini bajaruvchilardan biriga aylanadi. *Masalan*, uning Boychibor oti poygadagi to'rt yuz to'qson

to'qqizta otga qo'shilib, besh yuzinchi tulpor bo'lib Barchin uchun boshlangan musobaqada qatnashadi. Bu bilan xalq Alpomishning hammadan baquvvat, hammadan mergan, hammadan afzal ekanligini amalda ko'rsatadi. Shuning uchun oti poygada g'olib kelganidan so'ng u yoy tortish, tanga pulni ming qadamdan urish va to'qson alp bilan kurash tushish sinovlarida qatnashib o'zini ko'rsatadi. Bu sinov ham qahramonlik eposi xususiyatlariga mos keladi.

Dostondagi Barchinoy bilan bog'liq voqealar baxshilar tomonidan alohida mehr bilan tasvirlangan. U zukkoligi, tadbirkorligi jihatidan Alpomishdan qolishmaydi. Surxayil kampirning o'g'illari Barchinoyni zo'rlik bilan xotinlikka olmoqchi bo'lganlarida, qiz alplardan birini ko'tarib yerga shunday uradiki, polvonning og'zidan ko'pik sachrab ketadi. Shundan so'nggina alplar Barchinoyga Alpomishni kutish uchun olti oy muhlat berishga majbur bo'ladilar. Barchinoy Alpomishni sevadi. Ammo Alpomish qalmoq yurtiga kelganida, unga turmushga chiqish shartlaridan voz kechmaydi. Bu lavhada xalq og'zaki ijodining yana bir xususiyati namoyon bo'ladi: Barchin o'z sevgilisi — Alpomishning hammadan ustun ekanligiga va raqiblarni yengishiga ishonar edi. U butun vujudi bilan hamma musobaqalarda (Alpomish tarafida bo'lsa ham) shartlarning haqqoniy bajarilishini kuzatadi. Birinchi shartning bajarilishida Alpomishning oti Boychibor tuyog'iga qalmoqlar mix qoqadilar. Shuning uchun Boychibor azoblanib, yaxshi yuguro olmaydi. Barchin unga murojaat qilib, poygada uning yutib chiqishi lozimligini aytib yolvoradi. Alpomish Ko'kaldosh bilan bellashayotganida, kuchlar teng kelib qoladi. Yana Barchinoy Alpomishning nafsoniyatiga tegadigan gaplarni aytib, uning kuchiga kuch bag'ishlaydi. Bu misollar Barchinoyning o'z sevgisiga sadoqatli, irodali, tadbirkor qiz ekanini ko'rsatadi.

Dostonda Barchinoy Boysarining mehribon farzandi, Alpomishning sadoqatli yori sifatida mahorat bilan talqin qilingan. Barchinoy otasini sog'inadi va uni olib kelish uchun Alpomishni qalmoqlar yurtiga jo'natadi. Ammo u yerda Alpomish zindonga tushib qoladi.

Barchinoy Alpomishning qaytishini intizorlik bilan kutadi. Farzandi Yodgorga mehribonlik ko'rsatadi. Aql-idrok bilan ish yuritadi. Ultontozning unga uylanish taklifini rad qiladi. Nihoyat, Alpomish Qo'ng'iro't eliga qaytadi va ular murod-maqsadiga yetadilar.

Dostondagi Qorajon obraziga alohida e'tibor qilishimiz kerak. Chunki Qorajon makkor Surxayl kampirning o'g'li bo'lishiga qaramay, doston davomida haqiqatni himoya qiladi. Surxayil kampir Barchinoyga sovchilikka ketayotganida Qorajon uni yo'ldan qaytarmoqchi bo'ladi. U Qo'ng'iro't elidan kelganlarning tinchligini buzmaslikka harakat qiladi. Biroq Surxayil Barchinoyni aynan unga olib bermoqchi ekanini bilganidan so'ng qarshilik ko'rsatmaydi. Surxayil o'g'li Qorajonni aldab, qo'ng'iro'tliklar oldida uni uyatga qo'yadi. Dostonda Alpomishning cho'ponlar uyida tunagan paytida ko'rgan tushini Qorajon ham ko'radi. Shu tush lavhasi orqali Qorajonning mehr-shafqatli ekanligi ta'kidlanadi. Haqiqatan ham, asarning keyingi voqealarida Qorajon butunlay Alpomish tarafida turib harakat qiladi. Alpomishning jismoniy jihatdan tengsiz pahlavon ekanini biladi va u bilan og'a-ini tutinib, umr bo'yi bu ahdgga sodiq qoladi. Hatto akalarini insofga chaqirib, Alpomishga to'siq bo'lmaslikni maslahat beradi. Biroq uning takliflarini alplar qabul qilmaydilar va kurashda halok bo'ladilar.

Dostondagi asosiy qahramonlardan biri Qaldirg'och edi. Avvalo, uning ismiga diqqat qilish kerak. Qaldirg'och o'zbek xalqida bahorning elchisi, yurtga baxt keltiruvchi qush sifatida e'zozlanadi. Alpomishning singlisiga ism qo'yishda bu tushunchalar hisobga olingan bo'lsa, ajab emas. Qaldirg'och akasining har bir tadbirini qo'llab-quvvatlaydi, o'rni kelganda, akasidan faolroq harakat qiladi. Asarda shunday bir lavha borki, unda Qaldirg'ochning bir so'zligi oqibatida keyingi voqealar davom etadi. Qaldirg'och sandiqdagi maktubni topib, Alpomishni Barchinni olib kelishga undaydi. Ammo Alpomish yoshligi tufayli Qultoydan ot ololmaydi. Chorasiz qolgan Alpomish Qalmoq yurtiga borishdan voz kechadi. Ana shu paytda Qaldirg'och akasining oriyatiga tegadigan gaplar aytadi

va unga dalda beradi. Shundan so'nggina Alpomish Boychiborga ega bo'lib, safarga o'tlanadi. Ma'lum bo'ladiki, dostondagi voqealar rivojining eng nozik nuqtasida Qaldirg'ochning aralashuvi Alpomishga kuch bag'ishlaydi. Dostonni to'liq o'qib chiqsangiz, o'zbek xalqining qadim zamonlardan buyon o'ziga xos fazilatlariga ega ekaniga guvoh bo'lasiz. Jumladan, dostonda har qanday mushkul vaziyatda ham inson o'z aql-idrokini yo'qotmasligi, biron qarorga atroflicha mulohaza yuritgan holda kelishi lozimligi uqtiriladi. Insondagi mardlik va jasorat alohida qadrlanadi, aytilgan so'zning qimmati yuqori baholanadi. Zero, o'z so'zining ustidan chiqadigan mard insongina bunday fazilatlarning qadriga yetishi mumkin.

«Alpomish» dostonining so'nggi qismlari alohida diqqatga sazovor. Alpomish o'z yurtiga qaytgach, darhol hammaga kelgani haqida jar solmaydi. O'zini tanitmagan tarzda butun tanish-bilishlari, qarindosh-urug'lari bilan birma-bir uchrashib chiqadi. Shu usul bilan ularning o'ziga nisbatan bo'lgan haqiqiy munosabatlarini bilib oladi. Alpomish birovlarining yolg'on-yashiq gaplaridan kelib chiqib, odamlarga baho berishni istamaydi. Shaxsan o'zining kuzatishlariga ishonib ish yuritadi.

Dostonda insonning ma'naviy qiyofasini belgilovchi ezgulik, haqiqiy odamlarga mehribonlik, diyonat, chidamlilik kabi oliy fazilatlar haqida xalqning fikrlari ifodalanganini ham his etamiz.

Dostonda ijobiyqahramonlarning fazilatlari salbiy qahramonlar bilan munosabatga kirishganlarida, ularga qarshi kurashganlarida ravshanroq seziladi. Bu o'rinda Boybo'ri, Ko'kaldosh va Surxayilni alohida qayd etish lozim. Xalq tasavvurida yomon xususiyatga ega bo'lish uchun, albatta, bironta odamga yomonlik qilish shart emas. Inson ba'zan o'zining hadiksirashi, cho'chishi, qo'rqqoqlik qilishi, o'z so'zida turmasligi bilan ham yomon odamlar qatoriga qo'shilib qoladi. Chunonchi, Boybo'ri ana shunday odamlardan edi. U hech kimni o'ldirmaydi, birovning haqini yemaydi, hech kimga nohaq tuhmat qilmaydi. Ammo u Barchindan kelgan xatni Alpomishga bermaydi. Alpomishning qalmoqlar yurtiga safar qilishini

istamaydi. Hatto Qultoyga Alpomishga ot bermaslik haqida buyruq beradi. Natijada, Boybo'ri maslaksiz, qo'rqqoq bo'lib qoladi. U qalmoqlar yurtida azob chekayotgan Barchinning, ukasi Boysarining, butun xalqning taqdiriga befarq qaraydi. Bu bilan o'zining yaxshi odam emasligini ko'rsatadi.

«Alpomish» dostoniningsalbiyobrazlaridanbiriKo'kaldosh edi. U jismoniy jihatdan baquvvat, kamon otish, ot choptirishga usta bo'ladi. Biroq jismoniy jihatdan tengsiz bo'lsa-da, hech kimga yaxshilik qilmaydi. Aksincha, Barchinni zo'rlik bilan xotinlikka olmoqchi va Boysari mol-mulkiga egalik qilmoqchi bo'ladi. O'zining bu maqsadiga erishishda hamisha ham mardlik yo'lidan bormaydi. U o'rni kelganda xiyonat, nomardlik qilishga ham tayyor edi. Avvalo, u to'qson alpqa zo'rlik ko'rsatib, ularni qo'rqitmoqchi bo'ladi. Barchinning birinchi sharti, ya'ni ot poygasi davom etayotganda esa Qorajonning oyoq-qo'llarini bog'latib tashlaydi. Boychiborni so'yib yubormoqchi bo'ladi. Bu taklifi o'tmagandan keyin ot bechoraning oyoqlariga mix qoqtiradi. Ammo Boychibor Alpomishga sadoqatini ko'rsatib, ancha ildamlab ketgan Ko'kaldoshning otiga yetib oladi. Shunda Ko'kaldosh Qorajonning yelkasiga musht urib, Boychiborning g'olib chiqishiga to'sqinlik qiladi. Lekin o'z maqsadiga yeta olmaydi. Xalq og'zaki ijodida yovuz kuchlarning ramzi sifatida ishtirok etuvchi obrazlardan biri yosuman, yalmog'iz kampirdir. «Alpomish» dostonida ana shunday qora niyatli obraz sifatida yetti alpning onasi Surxayil yaratilgan. Surxayil kampir o'ta makkor, o'zining yovuz niyatiga yetish uchun butun aqlini ustalik bilan ishga soladigan razil shaxs edi. Aslini olganda, Qo'ng'iro't yurtidan ko'chib kelgan Boysari boshliq qabila bilan Toychixon xonlik qilayotgan qalmoqlar o'rtasidagi nizoning birinchi sababchisi Surxayil edi. U o'z maqsadini yashirincha amalga oshirishga usta edi. Barchinni o'g'illaridan biriga olib berish bahonasi bilan Boysarining butun mol-mulkiga egalik qilmoqchi bo'lib, Toychixondan sovchilikka borishga ruxsat oladi. U qatnashgan har bir lavhada ayyorlik, g'iybat hukm suradi. Dostonning ikkinchi qismida Alpomishni zindonband qilishda ham u faol qatnashadi. Boysarini qutqarish uchun

kelgan Alpomish bilan qirq yigitni hiyla bilan mast qiladi va hammasini o'ldirtiradi. Keyinchalik Tavka oyimning Alpomish zindonigacha lahm kovlatganini ham Surxayil fosh etadi. Qalmoqshohning qo'ng'irotliklarga qarshi urush qilishlarida ham Surxayilning ishtiroki bor edi. Xullas, dostondagi salbiy obrazlarning asosiysi Surxayil kampir edi. U asarning oxirida Alpomish tomonidan jazolanadi. Xalq doston vositasida Surxayl, Ko'kaldosh, Ultontoz kabi munofiq odamlar, albatta, o'z jazolarini olishlari muqarrar ekanini yana bir bor ko'rsatib o'tadi.

Dostonda Alpomishning kuch-qudrati, uning bahodirlik salohiyatini tasvirlashga alohida e'tibor berilgan. U yetti yoshida bobosi Alpinbiydan qolgan o'n to'rt botmonlik sari yoydan otib, Asqar tog'ining cho'qqisini uchirib yuborganligi uchun ham alp ataladi. Yakkama-yakka olishuvda Qultoy va Qorajondan g'olib chiqadi. Uning kuch-qudrati Barchin shartlarini bajarishda, qalmoq alplari bilan kurashda, ayniqsa, yorqin namoyon bo'ladi. Doston maishiy hayot detallariga boyligi, real epizodlarni keng qamrab olganligi bilan alohida ajralib turadi. Masalan, baxshi yetti yillik tutqunlikdan keyin Alpomishning o'z yurtiga qaytishida uni qarindoshlari, cho'ponlar, yilqichilar, karvonlar, turli toifadagi kishilar bilan uchrashtirish orqali mamlakatdagi ahvol bilan tanishtiradi, odamlarning qahramonga va uning raqibi Ultontozga munosabatini yaqqol gavdalantiradi. Bu lavhalar Alpomishni ideal qahramon va oddiy inson sifatida har jihatdan xarakterlab beradi. Yo'ldagi uchrashuvlarda Ultontozning zo'rlik bilan Barchinni olish uchun to'y qilayotganligini bilgan Alpomish Qultoy qiyofasida to'yxonaga keladi. To'yxonada Alpomish Ultontoz tomonidan kamsitilgan va o'g'li hajrida alam tortayotgan ota-onasiga hamdardlik qiladi, haqoratlangan o'g'li Yodgorning boshini silaydi, Ultontozga xushomadgo'ylik qilgan bakovul va oshpazlarning ta'zirini beradi, o'zining kuch-qudratini, Barchinga hamda oilasiga sodiqligini yana bir bor namoyish etadi.

Dostonning Alpomishdan keyingi yetakchi obrazlaridan biri Barchindir. U o'zbek eposida har tomonlama mukammal

ishlangan ayol obrazi hisoblanadi. Dushmanlarning «qirq mingini bir deb sanab qirishga» tayyor turgan jasur Barchin siymosida qahramonlik dostonlariga xos alp qiz haqidagi an'anaviy tushuncha ham o'z ifodasini topgan. Qizdagi jasurlik, mardlik va dovyuraklik, o'z kuch- qudratiga ishonish uni Toychixon alplari zo'rlik bilan olib ketmoqchi bo'lgan holatlar tasvirida yaqqol gavdalanadi. Barchin faqat jasur va dovyurak bo'lib qolmay, unga uylanmoqchi bo'lgan yigitdan ham salohiyat va bahodirlikni talab qiladi. Bu jihatdan uning Alpomish va to'qson alp oldiga to'rt shart (yoy tortish, ming qadamdan tanga pulni urish, poyga, kurashda to'qson alpni yengish) qo'yishi xarakterlidir. Qahramonlik va mardlikni tarannum etuvchi Barchin shartlari dostonida badiiy go'zal tasvirlangan. Fozil shoir xalqning boy ijodiy tajribasini, turmushdagi eng mayda ikir-chikirlarni ham juda yaxshi biladi, har bir detalni chuqur mushohada qiladi hamda o'z o'rnida qo'llaydi. Bu shartlarning bajarilishida Barchin bevosita bo'lmasa-da, bilvosita ishtirok etadi. U kurashda Ko'kaldoshni yiqitishga qiynalgan Alpomishga ma'naviy madad beradi. Yoki poygada Ko'kaldoshning oti Ko'kdo'nandan o'za olmagan Boychibor Barchinning «quryuayt» degan ovozi eshitishi bilan marraga birinchi bo'lib yetib keladi.

«Alpomish» dostoni 1922-yildan beri o'zbek folklorshunoslari tomonidan xalq baxshilar og'zidan yozib olib kelinmoqda. Hozirgacha uning 40 dan ortiq variantlari yozib olingan. Ularni aytib bergan baxshilar ulkan dostonchilardir. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan shoir, Berdi baxshi va boshqa baxshilardan alohida-alohida kitoblar tarzida to'la ravishda yozib olingan. Boshqa baxshilardan esa variantlarning parchalari nashr etilgan. «Alpomish» dostoni «Alpamis», «Alpamis botir», «Alip-Manash» nomlarida qoraqalpoq, qozoq, oltoy xalqlarida doston holida, «Alpomsho», «Alpomsho va Barsin suluv» nomlarida tatar va boshqird xalqlarida ertaklar shaklida yozib olingan va nashr etilgan. Demak, «Alpomish» dostoni turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan eposdir. Har bir xalq unga o'zining milliy dostoni sifatida munosabatda bo'lib,

o'rganib kelmoqda. Olimlarning xulosalariga ko'ra, barcha milliy versiyalar va ularning variantlariga nisbatan ham olganda Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti badiiy yuksak va mukammal dostonidir.

«Alpomish» dostoni qadimiy qahramonlik eposining yorqin namunalaridandir. «Alpomish» dostoni yigirma sakkiz xalq baxshisidan o'ttiz uch marta yozib olingan.

«Alpomish» dostoni qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urug' birligini kuylovchi ulkan eposdir. Doston qo'ng'iroq urug'i boshliqlari - aka-uka Boybo'ri va Boysarilarning farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Unda bo'lajak qahramonlar - Alpomish va Barchinlarning ajoyib-g'aroyib holatlarda tug'ilishi, Alpomishning bahodirona yoshligi va birinchi bor pahlavonlik ko'rsatishi, Boysarining Boybo'ridan arazlab qalmoq eliga ko'chishi, qahramonning yorini olib kelish uchun o'zga mamlakatga safari va Qorajon bilan do'st tutinishi, raqiblari - qalmoq alplari bilan yonma-yon turib, Barchinning shartlarini bajarishi va yorini olib o'z eliga qaytishi, qaynatasi Boysarini qutqarish uchun ikkinchi marta safar qilganda, yetti yil tutqunda qolishi, asirlikdan oti Boychibor yordamida qutulib, o'z eliga xotini Barchinning zo'ravon Ultontoz bilan bo'layotgan to'yi ustiga kelishi hamda raqibini yengib, o'z hokimiyatini o'rnatishi voqealari tasvirlanadi.

«Alpomish» dostoni badiiy jihatdan ham xalqimiz og'zaki ijodidagi eng mukammal asarlardan biridir. Fozil Yo'ldosh o'g'li mohir va tajribali baxshi bo'lgani uchun asardagi voqealarni bayon qilishda shoshilmaydi, har bir lavha ishtirokchilarining tashqi qiyofasini, ichki dunyosi, atrofdagi tabiat manzaralarini, voqea-hodisalarni izchil ta'riflaydi. Tomoshabin ko'z oldida jonli voqea tasvirini hosil etadi. Qahramonning xatti-harakatlarini dalillashga alohida e'tibor beradi, shuning uchun ham tinglovchi ko'nglida doston mazmuni bilan bog'liq yechilmagan jumboq qolmaydi.

«Alpomish» dostoni mubolag'a, o'xshatish, sifatlash kabi badiiy vositalarga juda boydir. *Masalan*, Alpomishning yoshligi bilan bog'liq mana bu lavhani olaylik: «Hakimbek yetti yoshga

kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyni qo'lga ushlab ko'tarib tortdi, tortib, qo'yib yubordi. Yoyni o'qi yashinday bo'lib ketdi, Asqar tog'ining katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozi olamga ketdi». Lug'atlarda og'irlik o'lchovi sifatida qayd etilgan «botmon» O'rta Osiyo xalqlari orasida 2 puddan 16 pudgacha vaznga ega ekani ko'rsatilgan. Agar har bir pud 16 kilogrammga teng ekanini nazarda tutsak, 14 botmon 224 kilogramm bo'ladi. 7 yoshli Hakimbekning turli metall ma'danlardan quyilgan (birichdan bo'lgan) shu qadar og'ir yoyni ko'tara olishi, unga mos o'q joylashi va o'qni otib, katta tog'ning cho'qqisini uchirib yuborishi tinglovchida hayrat uyg'otadi. Ammo tinglovchi mazkur voqeaning sodir bo'lganiga mutlaqo shubha bildirmaydi. Chunki Hakimbekning dunyoga kelishini ilohiy kuchlar bashorat qilgandilar, Shohimardon pirining o'zi qalandar qiyofasida kelib, Boybo'ring yangi tug'ilgan o'g'liga Hakimbek deb nom qo'ygandi. Mubolag'ali o'rinlar Hakimbek, to'qson alplarning tog'dek gavdalari, Barchin, Qaldirg'ochning go'zalligi tasvirida, botirlarning kurashlarida, otlarning poygasida juda o'rinli yaratilgan. Dostonda ajoyib o'xshatishlarni ham uchratamiz:

*Ostingda bedoving halloslar qushday,
Achchig'ing chillali muzlagan qishday.*

Bu satrlarda uzoq masofani bir zumda bosib o'tadigan Boychibor qushga, Alpomishning g'azabi butun atrofni muzlatib yuboradigan qishga o'xshatilyapti.

Dostonda:

*Davlat qo'nsa, bir chivinning boshiga,
Semurg' qushlar salom berar qoshiga.
Ot chopsa gumbirlar tog'ning darasi,
Urushda bilinar mardning sarasi
- kabi hikmatli so'zlar tez-tez uchraydi.*

Ma'lum bo'ladiki, «Alpomish» dostonining o'ta qiziqarli voqealardan tashkil topgan mazmuni so'z san'atining go'zal badiiy vositalari bilan bezatilgan holda tinglovchiga taqdim etilgan. Shuning uchun ham doston asrlar osha xalqimiz tomonidan sevib tinglanmoqda va o'qib kelinmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. «Alpomish» dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan variantini o'qing.
2. Dostondagi qahramonlarning har biri haqida alohida-alohida so'zlang.
3. «Alpomish» dostonida o'zbek xalqining o'tmish hayotiga oid qanday belgilar saqlanib qolgan.
4. Dostondagi asosiy g'oya va asarni yaratishdan xalq nazarda tutgan maqsad haqida so'zlang.
5. Dostondan parchalar yodlang.
6. «Alpomish» dostonidan olgan taassurotlarim» mavzusida insho yozing.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Mirzayev T. «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari. –Toshkent: «Fan», 1979.
2. Bulbul taronalari. E.Jumanbulbul o'g'lining doston va termalari. 5 tomlik. – Toshkent: «Fan», 1973.
3. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. **1-jild. «Alpomish»** dostoni (Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti). Nashrga tayyorlovchi: H.Zarifov, T.Mirzayev. Mas'ul muharrir: M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 512 b.
4. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. **4-jild. «Alpomish»** dostoni (Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan va Ergash Jumanbulbul o'g'li, Berdiyev Pirimqul o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li variantlari). Nashrga tayyorlovchilar: T.Mirzayev, M.Narziqulova. Mas'ul muharrir: M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 444 b.
5. O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. **10-jild. «Alpomish»** /

dostonlar (Bekmurod Jo'raboy o'g'li va Egamberdi Ollomurod o'g'li variantlari). Nashrga tayyorlovchi: T.Mirzayev. Mas'ul muharrir: M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 504 b.

6. «O'zbek xalq ijodi yodgorliklari». **20-jild: «Alpomish»** (Zohir Qo'chqor o'g'li varianti). Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi T.Mirzayev. Mas'ul muharrir M.Jo'rayev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2020. – 520 bet

7. Alpomish. O'zbek xalq qahramonlik dostoni. – T.: «Sharq», 1998.

7-mavzu: Go'ro'g'li turkumidagi dostonlar.

1. Qardosh xalqlar adabiyotida «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlar tasnifi.

2. O'zbek xalq dostonlarida «Go'ro'g'li» turkumi.

3. Dostonning qisqacha g'oyaviy talqini.

4. Dostonning tili va badiiy xususiyatlari.

Tayanch iboralar: «Go'ro'g'li» dostoni hamda uning qardosh xalqlar xalq og'zaki ijodidagi versiyalari haqida ma'lumot.

Darsning maqsadi. «Go'ro'g'li» dostoni va uning o'zbek xalq og'zaki ijodidagi tutgan o'rni.

Darsning vositalari. Konkret-obrazli, visual ko'rgazmali o'quv qurollari, folklorshunos olimlarning «Go'ro'g'li» dostoniga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

Darsning metodi. Blits-so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. «Go'ro'g'li» dostonlari xalq dostonchiligida har biri mustaqil yashagan va ayrim-ayrim nomga ega bo'lgan asarlar silsilasi, muayyan omillar bilan bir-biriga birlashgan kattakon turkum bo'lib, Yaqin va O'rta Sharqda juda keng tarqalgan. Bu turkum o'zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq, tatarlarda Go'ro'g'li; turkmanlarda Go'ro'g'li, Ko'ro'g'li, Karo'g'li; ozarbayjon, gruzin, turk va boshqalarda Ko'ro'g'li nomi bilan shuhrat qozongan.

«Go'ro'g'li» turkumi dostonlari kattakon ikki tarmoqqa bo'linadi. Fanda biri Zakavkaze va Yaqin Sharq versiyalari (ozarbayjon, arman, gruzin, turk va boshqalar) deb yuritilsa, ikkinchi O'rta Osiyo versiyalari (o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, turkman, tojik va boshqalar) deb ataladi. Bu ikki tarmoq o'zaro muayyan umumiylikka ega bo'lsa-da, dostonlarda qamrab olingan voqelik, epik an'ana va bosh qahramonga berilgan baho, ularning hajmi, sostavi, kuylanish va tarqalish xususiyatlari

jihatidan bir-biridan pirinsipial ravishda farq qiladi.

Demak, ozarbayjon versiyasida konkret shaxs va davr bilan bog'liq voqealar tengsiz kuch-qudrat va shijoat, olijanob insoniy fazilatlar ideali nuqtayi nazaridan kuylanadi. Ammo bunda umumlashtirish va ideallashtirish muayyan davr va tarixiy voqealarni inkor etish darajasida emas, balki u (xalq ideali) konkret biografik detallar va hayotiy lavhalar bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

O'rta Osiyo versiyalari, xususan, o'zbek variantlarida esa umumlashtirish va ideallashtirishning juda yuqori darajasini ko'ramiz. Bunda qahramonona o'tmish konkret tarixiy voqealar aspektida emas, balki mislsiz romanik lavhalarda, xalqning beqiyos ideallari ko'lamida tasvirlanadi. Hamma narsa – hayot ham, xalq turmushi ham, tarixiy voqelik ham, mavjud zamon yetishtirgan qahramonlar ham ko'tarinki romanik bo'yoqlarda, bepayon badiiy ideal tasavvurlarda, cheksiz obrazlar girdobida gavdalanadi. Ana shu bepayon ideallik va cheksiz romanika bu dostonlarni yanada real, hayotiy, xalqqa yaqin va davrimizga hamohang qilgan.

O'zbek dostonlarida Go'ro'g'li turkman va o'zbeklarning begi, qonuniy hukmdor, o'z xalqi, vatani uchun qayg'uruvchi va uni turli dushmanlar bosqinidan himoya qiluvchi dono murabbiy, ko'plab xalq botirlarini tarbiyalab yetishtirgan yengilmas bahodir sifatida tasvirlanadi. Bosh qahramonga berilgan mana shu bahodan kelib chiqib, Chambil yurtining afsonaviy hukmdori Go'ro'g'lining bahodir qirq yigiti bilan birgalikda ona yerining xavfsizligi va ozodligiga tahdid soluvchi qo'shni podsholiklarga qarshi olib borgan kurashi butun xalq harakati, Chambil eli, qabila ozodligi urushi tarzida namoyon bo'ladiki, bu o'zbek eposidagi asosiy masaladir.

O'zbekistonning Xorazmdan bo'lak yerlarida tarqalgan «Go'ro'g'li» dostonlari ham alohida mustaqil bir versiyani tashkil etib, hajmining kattaligi, «monumentalligi» bilan ajralib turadi. Har ikki versiyada bosh qahramonning umumiy faoliyatida va bir qancha motivlarda o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Ammo alohida olingan dostonlarda o'xshashlik deyarli yo'q, ya'ni

birida bo'lgan doston (masalan, «Xirmon dali») ikkinchisida, ikkinchisidagi (masalan, «Ravshan») birinchisida mavjud emas. Versiyalar orasida bu darajada prinsipial ayirmalarning mavjudligi turkumga birlashgan dostonlarning muayyan qismi ikki joyda, ikki xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yaratilganligi va mustaqil rivojlanishda davom etganligini ko'rsatadi.

«Go'ro'g'lining tug'ilishi va bolaligi» dostoni ko'p planli asar bo'lib, unda G'iro't biografiyasiga oid ham ajoyib ma'lumotlar bor. Bu ma'lumotlarga ko'ra, qahramonni emizgan baytal bilan Xuroson ko'lidan chiqib kelgan ayg'irdan («suv oti»dan) urg'ochi qulun tug'iladi. Bu qulun uch yashar bo'lgach, Go'ro'g'li Rayhon arabning dong'i ketgan tulporidan nasl olishga harakat qiladi. Natijada uchinchi ot – G'irko'k tug'iladi. G'irko'k yetti kunlik bo'lganda onasi o'ladi. Go'ro'g'li unga turli hayvonlarning sutini berib tarbiya qiladi. Go'ro'g'li bilan G'iro't orasida juda ko'p o'xshashliklar bor: dostonda har ikkalasi ham uchinchi naslgacha tilga olinadi. Ikkalasi ham yetim; ikkalasi shirxo'ra va hokazo. Bu bilan qahramon va uning jangovar oti o'rtasida eposga xos ajoyib bir aloqa yuzaga keltiriladiki, bu butun turkum bo'ylab izchil davom etadi. Dostonda yosh qahramonning chiltonlar bilan uchrashuvi, kelajak yo'lining oldindan belgilanishi, epik Chambil yurtining bunyod etilishi, Yovmit eliga xon qilib ko'tarilishi kabi voqealar juda qiziqarli tasvirlanadi. Shoxdorxon va Ravshan, Ravshan va Urayxon, Rayxon va Go'ro'g'li to'qnashuvlarida butun turkumga xos bo'lgan ijobiy va salbiy sifatlar namoyon bo'ladi. Turkumning ushbu birinchi dostonidayoq o'zbek «Go'ro'g'li»siga xos bo'lgan cheksiz fantaziya, ko'z ilg'amas geografik va etnografik kengliklar to'la namoyon bo'ladi. Bu hol, ayniqsa, «Yunus pari», «Misqol pari», «Gulnor pari» dostonlarida yanada yorqin ko'rinadi. Bu asarlar Go'ro'g'lining uylanishi va shu bilan bog'liq qahramonliklariga bag'ishlangan.

«Go'ro'g'li» siklidagi dostonlarda parilar podsholigi, undagi saroy va oilaviy hayot inson turmushining ko'rinishi sifatida keng va hayotiy lavhalarda tasvirlanadi. Dostonlarning tuzilishi an'anaviy andoza asosida bo'lib, o'rni bilan o'zaro

almashinib turadigan nazm va nasriy matnlar tashkil qiladi. Dostonlardagi she'rlar, asosan, 7, 8 va 11 hijoli barmoq vaznida bo'lib, turoqlarning o'zgarib turishi, band tuzilishi va qofiyalanish shakliga ko'ra o'ziga xos xususiyatga ega.

«Go'ro'g'li» turkumi dostonlari xalq hayoti, turmushi va maishatini, orzu-umidlari va g'oyalarini, axloqiy-estetik va ijtimoiy qarashlarini keng hajmda tasvirlovchi eposdir. «Go'ro'g'li» turkumidagi anchagina dostonlar qahramonning asrandi farzandlari Hasan, Avaz, nevaralari Nurali, Ravshan va evarasi Jahongirlarning qahramonona sarguzashtlariga bag'ishlangan bo'lib, bular ham o'zaro muayyan turkumlarni tashkil qiladi.

Bu ichki turkumlar asrandi farzandlarining olib kelinishini tasvirlovchi dostonlar (Hasanxon, Avazxon) bilan boshlanadi. Hasan va Avazning o'z taqdiri bor. Ularning har biri turkumda muayyan o'rin tutadi. Hasanxon turkumda faqat bir doston «Dalli»ning bosh qahramoni sifatida ishtirok etadi. Avazxon esa butun bir dostonlar «Balogardon», «Intizor», «Bo'tako'z», «Qunduz bilan Yulduz»,

«Malikayi ayyor» va boshqa turkumning bosh qahramonidir.

Bir so'z bilan aytganda, «Go'ro'g'li» siklidagi dostonlar o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan bo'lib, o'z muxlislariga egadir. O'zbek xalqi Go'ro'g'li va uning yigitlari haqida qator termalar yaratgan. Bu termalarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki,

«Go'ro'g'li» turkumi dostonlari o'zbeklar orasida bir necha versiyada tarqalgan. Bu versiyalarni chuqurroq o'rganish va qiyosiy tahlil qilish kelajakdagi amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalardan biridir.

Ma'lum bir epik qahramon, uning avlodlar va safdoshlari hayotidan hikoya qiluvchi dostonlar silsilasi turkumlikni tashkil etadi. Turkumlikka kiruvchi dostonlar bir-birining izchil davomi bo'lmay, har biri alohida-alohida voqealar asosiga qurilishi ham mumkin. Bu o'rinda epik qahramonlar, epik makon va zamon umumiyligiga amal qilinadi. Folklorshunoslar turkumlikka ega

dostonlarni mazmuniga ko'ra biografik, nasliy va geografik kabi turkumlarga ajratib o'rganishadi.

O'zbek xalqi epik ijodida Go'ro'g'li va uning asrandi o'g'illari, safdoshlari hayotidan hikoya etuvchi dostonlar majmuasi alohida o'rin tutadi. «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi dostonlarda Go'ro'g'lining tug'ilishi, bolaligi, uylanishi, Avazxon va Hasanxonlarni asrab olishi, Avazxon, Hasanxon, ularning o'g'illari – Ravshan, Nurali, Sherali, keyingi avlod – Jahongirlarning hayotidan tortib, bosh qahramonning bir yuz yigirma yoshida g'orga kirib g'oyib bo'lib ketgungacha bo'lgan voqealar aks etadi. «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi har bir doston o'zicha mustaqil xarakterga ega va ularning har biri el orasida alohida-alohida kuylanib kelingan. «Go'ro'g'li» turkumi tarkibi g'oyatda murakkab, kuylanish va ijro sharoitlarida o'zaro mustaqil va har biri alohida yagona syujetga ega bo'lgan bu silsila dostonlar Go'ro'g'li va G'iro't obrazlari, Chambil mamlakati kabi asosiy nuqtalarda, shuningdek, qirq yigit, Soqibulbul, Hasanxon, Ahmad sardor singari an'anaviy obrazlar, ularning g'ayriqutblari tasviri orqali bir-birlari bilan birlashsalar-da, bosh qahramonning muntazam epik biografiyasi emas, balki uning dovruqli afsonaviy hayotining ko'pdan-ko'p epizodlari tasvirlaridan iborat. «Go'ro'g'li» dostonlari o'tgan asrning boshlaridan turli yillarda, turli baxshilar tomonidan yozib olingan. «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Go'ro'g'lining bolaligi», «Zaydinoy», «Yunus pari», «Misqol pari», «Gulnor pari» dostonlari atoqli baxshi Po'ltan shoirdan ketma-ket yozib olingan bo'lsa, taniqli shoir-qissaxon Rahmatulla Yusuf o'g'li yigirma turkumning yigirma uch dostonini (yozilmaganlari bilan birgalikda o'ttiz dostonning) o'zicha ketma-ketligini belgilab, to'rt jild qilib, Folklor arxiviga topshirgan. Turkum dostonlarining soni haqida ham baxshilar o'rtasida har xil fikrlar mavjud. Ularning ko'pchiligi «Go'ro'g'li qirq dostondir», – deyilar. Nurotalik Bekmurod Jo'raboy o'g'lining «Avazning arazi» dostonida kuylashicha, uning ustozlari Go'ro'g'lini «Oltmish to'rt doston qip ta'rif etgan». Janubiy Tojikistondagi o'zbek baxshilarining (soqilarining) naql qilishicha, XIX asrda

yashagan mashhur dostonchi Qunduz soqi Go'ro'g'lini bir yuz yigirma shoxa (doston) qilib aytar ekan. Shunda ham Go'ro'g'li o'lganda, Yunus pari: «Bedoston o'tgan, to'ram», – deya yig'i bergan ekan. Folklorshunoslikda esa «Go'ro'g'li» turkumi qirq dostonan iboratdir, degan fikr qat'iy lashgan. Keyingi kuzatishlar turkumga kiruvchi dostonlar soni yetmishdan oshishini ma'lum etdi. «Go'ro'g'li» turkumi dostonlari hozirgi o'rganilish holatida quyidagilardan iborat: 1. Go'ro'g'lining tug'ilishi. 2. Go'ro'g'lining bolaligi. 3. Zaydinoy (Zulxumor, Go'ro'g'lining Rayhon arab qizini olib qochib kelishi). 4. Chortoqli Chambil. 5. Yunus pari. 6. Misqol pari. 7. Gulnor pari. 8. Qirq yigit bilan qirq qiz. 9. Soqibulbul. 10. Hasan ko'lbar. 11. Doniyorxo'ja – yozib olinmagan. 12. Shodmonbek – yozib olinmagan. 13. Berdiyor otaliq. 14. Xidirali elbegi. 15. Zamonbek. 16. Hilomon (Elomon). 17. Xoldorxon (Go'ro'g'lining Qirimga borishi). 18. Shohdorxon. 19. Shoqalandar. 20. Xushkeldi. 21. Rayhon arab. 22. Bektosh arab – yozib olinmagan. 23. Govdaro'z dev. 24. Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi. 25. Ro'zaxon. 26. Yosqila. 27. Ahmad sardor va Hasan shoh – yozib olinmagan. 28. Ahmad sardor va Avazxon – yozib olinmagan. 29. Ahmad sardorning suyagi – yozib olinmagan. 30. Ahmad sardorning o'limga buyurilishi. 31. Hasanxon (Go'ro'g'libekning Hasanxonni olib kelishi). 32. Chambil qamali. 33. Dalli. 34. Avazxon (Go'ro'g'libekning Avazxonni olib kelishi). 35. Gulqizoy. 36. Gulqizoyning vafoti. 37. Intizor. 38. Malika ayyor (Gulshanbog', Tarkibadaxshon). 39. Mashriqo. 40. Zulfizar. 41. Xoldor buvish – yozib olinmagan. 42. Oydinoy – yozib olinmagan. 43. Bo'tako'z (Oqbilak oyim yoki Oqchishboyning qizi). 44. Qunduz bilan Yulduz. 45. Balogardon. 46. Avazxonning arazi (Avazxonning dor ostidan qutqarilishi). 47. Avaz o'g'lonning Rumga qochishi. 48. Avazxonning o'limga hukm etilishi. 49. Sarvinoz. 50. Girdob. 51. Xonimoy. 52. Oyto'ra va Mastura. 53. Avaz va Gulton. 54. Oltin qovoq. 55. Zayidqul (Sakson nor). 56. Gulixiromon. 57. Zarnigor. 58. Avaz va Oyzaynab. 59. G'irotning o'g'irlanishi (Misqol pari va Avazxon) – yozib olinmagan. 60. Og'a Yunusning olib qochilishi. 61. Ravshan. 62. Nurali. 63. Nuralining yoshligi. 64. Sumbulsoch

beka. 65. Balxuvon. 66. Jorxon maston. 67. Nurali va Qari Ahmad. 68. Nuralining yutilishi. 69. Malla savdogar. 70. Nurali va semurg'. 71. Sherali. 72. Sheralining uylanishi (Oynigor). 73. Jahongir. 74. Jahongirning yoshligi (Shahidlar darasi). 75. Ero'g'li (Shahidnoma, Go'ro'g'lining o'limi, Go'ro'g'lining g'oyib bo'lishi). Hozirgacha yozib olinmagan va bugungi kunda unutilib ketgan sakkiz dostonni («Doniyorxo'ja», «Shodmonbek», «Bektosh arab», «Ahmad sardor va Hasanxon», «Ahmad sardor va Avaz», «Xoldor buvish», «Oydinoy», «G'irotning o'g'irlanishi» kabilarni) ushbu ro'yxatga kiritilsa turkum dostonlarining soni saksondan oshadi¹¹.

«Go'ro'g'li» dostonlarining bu xil turkumlikdan iborat ekanligi dunyo epik merosida noyob hodisa sifatida baholanadi va o'zbek xalqining poetik iqtidori, yaratuvchanlik quvvatining naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi.

«Go'ro'g'li» turkumi dostonlari xalq hayoti, turmushi va maishatini, orzu-umidlari va g'oyalarini, axloqiy-estetik va ijtimoiy qarashlarini keng hajmda tasvirlovchi eposdir. «Go'ro'g'li» turkumidagi anchagina dostonlar qahramonning asrandi farzandlari Hasan, Avaz, nevaralari Nurali, Ravshan va evarasi Jahongirlarning qahramonona sarguzashtlariga bag'ishlangan bo'lib, bular ham o'zaro muayyan turkumlarni tashkil qiladi.

Bu ichki turkumlar asrandi farzandlarining olib kelinishini tasvirlovchi dostonlar (Hasanxon, Avazxon) bilan boshlanadi. Hasan va Avazning o'z taqdiri bor. Ularning har biri turkumda muayyan o'rin tutadi. Hasanxon turkumda faqat bir doston «Dalli»ning bosh qahramoni sifatida ishtirok etadi. Avazxon esa butun bir dostonlar

«Balogardon», «Intizor», «Bo'tako'z», «Qunduz bilan Yulduz»,

«Malikayi ayyor» va boshqa turkumning bosh qahramonidir.

Bir so'z bilan aytganda, «Go'ro'g'li» siklidagi dostonlar o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan bo'lib, o'z muxlislariga

¹¹ Qarang: Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. - T.: Fan, 1981. -B.65-90.

egadir. O'zbek xalqi Go'ro'g'li va uning yigitlari haqida qator termalar yaratgan. Bu termalarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki,

«Go'ro'g'li» turkumi dostonlari o'zbeklar orasida bir necha versiyada tarqalgan. Bu versiyalarni chuqurroq o'rganish va qiyosiy tahlil qilish kelajakdagi amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalardan biridir.

Savol va topshiriqlar.

1. «Go'ro'g'lining tug'ilishi va bolaligi» asarining dostonlar siklida tutgan o'rni.
2. «Go'ro'g'li» dostoni ginezisi va ijro an'anasi.
3. «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlaridagi obrazlar tizimining voqealar rivojidadagi o'rni.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: «Mumtoz so'z», 2010.
2. Mirzayeva S. O'zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. – T.: «Fan», 2004.
3. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – T.: «Fan», 2006.
4. Musurmonov E. O'zbek xalq dostonlari. – SamDU,
5. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Dostonlar. – Toshkent: «Fan», 1969.
6. O'zbek xalq dostonlari. 1-2 tom. – Toshkent: «Fan», 1956-1957.

8-mavzu: Romanik dostonlar.

1. «Kuntug'mish» dostonining yaratilish tarixi.
2. Dostonning o'ziga xos xususiyatlari.
3. «Kuntug'mish» dostonida sevgi va vafo ifodasi.

Tayanch iboralar: «Kuntug'mish» dostoni hamda undagi obrazlar tahlili, an'anaviy motiv, mifologik tafakkur.

Darsning maqsadi. «Kuntug'mish» dostoni va uning o'zbek xalq og'zaki ijodidagi tutgan o'rni.

Darsning vositalari. Konkret-obrazli, visual ko'rgazmali o'quv qurollari, folklorshunos olimlarning «Kuntug'mish» dostoniga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

Darsning metodi. Blitz-so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. Romanik dostonlarning tuzilishi nihoyatda murakkab. Qahramonlik dostonlarida romanik elementlar bo'lganidek, romanik dostonlardan qahramonlik elementlari, jangnomalar xususiyatlari ham mustahkam o'rin olgan. Hatto, bir dostonda bir necha tema baravar ishlangan bo'lishi mumkin. Shularni hisobga olib, bu tip dostonlarni:

a) qahramonlik-romanik;

b) ishqiy-romanik;

v) maishiy-romanik dostonlar kabi ichki turlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Qahramonlik-romanik dostonlarda («Rustamxon», «Yakka Ahmad», «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi bir qancha asarlar) qahramonlik yo'nalishi ustun tursa, ishqiy-romanik dostonlarda («Kuntug'mish», «Go'ro'g'li» turkumining so'nggi xalqalari) sevgi mojarolari, sarguzashtli voqealar tasviriga alohida e'tibor beriladi. Maishiy-romanik yoki ijtimoiy-maishiy dostonlarda («Sohibqiron»,

«Orzigul», «Erali bilan Sherali» va boshqalar) maishiy turmush bilan bog'liq turli-tuman tafsilotlarni batafsil tasvirlash yetakchilik qiladi. Bu xil dostonlarda xalqimiz va baxshilarning dunyoqarashlari yanada yorqinroq aks etgan.

«Kuntug'mish» dostoni o'zbek xalq dostonlari orasida g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlardan biridir. Dostonning yozib olingan va ijro etilgan variantlari juda ko'p. Uning xilma-xil ko'rinishdagi variantlari ko'pligining boisi shundaki, ilgari baxshilarning iste'dodiga, ushbu dostonni qanday aytishiga qarab baho berilgan, natijada barcha baxshilarimiz «Kuntug'mish» dostonini to'la o'zlashtirishga intilganlar. Dostonning Ergash Jumanbulbul o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Nurmon Abduvoy o'g'li, Egamberdi Ollamuroddan yozib olingan variantlari mavjud. Muhabbat insonni ezgulikka yetaklaydi, sevgan kishi har qanday qahramonlikka qodir hisoblanadi. Biz o'rgangan «Kuntug'mish» dostoni sevishganlar haqida chiroyli asar, uning janrini ishqiyyat qahramonlik dostoni, deb belgilash mumkin. Chunki Kuntug'mish dostonida katta qahramonliklar ko'rsatadi: yurtga qiron keltirgan ajdarni yengadi, tosh bostirib qo'yilgan kigiz ostidan chiqib ketadi. Bu qahramonliklar shunchaki o'zini ko'rsatish emas, avvalo, xalqni ajdar ofatidan qutqazgan bo'lsa, sevikli yori, bolalarini deb g'oyat tang bir holatda yovlari o'rab-chirmab, ustidan tosh bostirib ketgan kigiz orasidan xalos bo'lib chiqadi.

Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha: No'g'ay yurtida Avliyoyi Qoraxon ismli, Qilichxon laqabli podsho bo'lib, Kuntug'mish uning yolg'iz o'g'li bo'ladi. Kuntug'mish o'n to'rt yoshga to'lguncha ilm-u hunar o'rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O'n to'rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko'pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o'rganadi, xullas, har tomonlama komil shahzoda bo'lib yetishadi. Zangar degan shaharning Buvraxon degan podshosi bo'lib, uning Shoir va Tohir ismli vazirlari bor edi. Vazirlar birlari bilan juda inoq edilar, ular: «Bizlarga farzand bersa, o'g'il bo'lsa qo'lqanot bo'lsin, qiz bo'lsa do'st bo'lsin», deya niyat qilar edilar. Kunlardan bir kuni shoir vazirning xotini qiz ko'radi. Tohirning oilasida o'g'il tug'iladi. Qizning otini Xolbeka, o'g'ilning otini Xolmo'min qo'yishadi. Lekin Xolmo'minning onasi to'satdan vafot etadi, o'g'il go'dakni Xolbekaning onasi emizishga majbur bo'ladi, natijada ular «shirxo'ra» (bir onani

emgan) bo'lib,

«nikoh yurmaydigan» bo'lib qoladilar. Xolbeka o'n to'rt yoshga yetgach, uning husni kamoli ovozası olamga yoyiladi. U go'zal, ayni paytda aqlli, nard o'yiniga mohir qiz bo'lib yetishadi. Unga barcha mamlakatlardan sovchilar kela boshlaydi. Xolbeka sovchilarga:

«Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o'yinini qo'yaman, o'ynayman, yutsa tegaman, yutdirsa so'yaman», deb shart qo'yadi. Hatto, shahar podshosi Buvraxonga ham shu javobni aytadi. Podsho g'azablanib, shaharga Xolbeka deb kelgan odamni tutib qatl qildirishga farmon beradi, shunday qilsam to'rt-besh yildan keyin menga tegishga majbur bo'ladi, deb o'ylaydi. Syujet ijobiy va salbiy qahramonlar kechinmalari ortidan favqulodda badiiy lavhalarga boy izchillikda bayon etilgan voqealar bilan boyitilgan. Asarda boshqa asarlarga qaraganda an'anaviy motivlardan tush motivi va islomiy motivlarning o'rni katta. Islomiy motivlar Avliyoyi Qoraxon, Kuntug'mish, mulla kabi obrazlarda hamda Qur'oni Karimga do'stlar qasami, tush tasviri, chiltanlar tasviri kabi voqealar rivojida namoyon bo'ladi.

Xolbeka va Kuntug'mish tush ko'radilar, ular tushlarida bir-birlarining qo'liga uzuk taqishib, uylangan emishlar. Shundan so'ng Xolbeka bir mohir suratkashga o'z rasmini chizdiradi va uni sandiqqa solib, No'g'ay yurtiga oqizib yuboradi. Sandiq oqib borib daryo sohilida ov qilib yurgan Kuntug'mish qo'liga tushadi. Kuntug'mish Xolbeka visoliga yetish uchun Zangar yurtiga otlanadi, bu yurtga kelib Xolbeka bilan topishadi, so'ng ko'p sarguzashtlarni boshidan kechiradi: Buvraxon qo'liga tushib, o'limga hukm qilinadi, dahshatli ajdarni o'ldiradi, xiyonatkor Azbarxo'ja tufayli xotini, egizak o'g'illaridan vaqtincha judo bo'ladi. Doston so'ngida xotini, farzandlari Gurkiboy va Mohiboy, otasi Qoraxon bilan topishadi.

Dostonning bosh qahramoni - Kuntug'mish yolg'iz, erka o'g'il bo'lishiga qaramasdan aqlli, bilimli, jasoratli, elga g'amxo'r, xotini, bolalariga mehribon, vafodor yigit. Kuntug'mish va Xolbeka bir mo'jiza bilan Buvraxon jazosidan omon qolib,

sahroda och, tashna qolishganda hayotdan umidini uzgan yori Xolbeking «Meni tashlab ketaver, yo'qsa o'zing ham halok bo'lasan», degan iltijosiga «Bir g'ayrat qil, yo'limiz yaqin qoldi», deb dalda beradi, unga vafodorligini quyidagicha bayon qiladi:

Polat nayza qor ostida yotarmi, Temir nayzang egovlasang o'tarmi,

Sening to'rang nomardlardan emasdir, Mard o'g'lon sevdigin tashlab ketarmi?

Kuntug'mish o'z maqsadiga sodiq, har qanday sharoitda tushkunlikka tushmaydigan inson. U nomsiz, poyonsiz tog' darasidan vataniga boradigan yo'lni rosa izlaydi, bu orada egizak farzandli bo'ladi, ular uch yoshga to'lganda ham biror bir el daragini topolmaydi. Xullas, Kuntug'mish fe'l-atvorida siz havas qiladigan, ergashadigan insoniy sifatlar juda ko'p. Dostonni sinchiklab mutolaa qilsangiz, bunga o'zingiz amin bo'lasiz.

Xolbeka siymosi ham dostonda baxshi bobomiz tomonidan alohida mehr, iliqlik bilan tasvirlangan. U o'z so'zida turadigan, barcha hunarlarga mohir qiz. O'zi qanchalik bir ishga mohir bo'lsa, bo'lajak jufti halolidan ham shuni talab qiladi. Shuma'noda Xolbeka o'z xulqi va fazilatlarini bilan har jihatdan Kuntug'mishga teng va munosib bo'lgan inson. U haqiqiy muhabbatni tan oladi va unga ishonadi, e'tibor bering: u o'z suratini chizdirib, Kuntug'mish yurtiga yuborar ekan, agar «Shu ko'rgan tushim rahmoniy bo'lsa, oshiq-ma'shuqlik avvaldan pok bo'lsa, Xudoyo xudovando shu sandig'im senga omonat, to'radan boshqasiga tegmasin», – deydi. Xolbeka ham oriyatli, g'ururi baland qiz. Garchi u Kuntug'mishni tushida sevib qolgan, uchrashganda esa yigitni ko'rib biroz muddat ixtiyorini yo'qotgan bo'lsa-da, uning husniga talabgor barcha shoh-u shahzodalarga bergan va'dasi, ya'ni faqat nard o'yinida g'olib chiqqanga tegaman, degan fikridan qaytmaydi. Kuntug'mish men uchun mashaqqat chekib kelibdi, deb unga tegib ketavermaydi, o'zi ko'ngil qo'ygan yigitning el-yurt oldida ham yuzi yorug' bo'lishini istaydi.

Dostonda Kuntug'mishning o'g'illari Gurkiboy va Mohiboy xarakterlari ham chiroyli va ta'sirchan tasvirlangan. Gurkiboy

bosiq, vazmin, aql bilan ish ko'radigan bola bo'lsa, Mohiboy biroz shaddod, biroz quv yigit. Biroq ikki aka-uka bir-birlariga mehribon, ota-onalariga fidoyi yigitlar. Ular mehnatsevarlik va aql bilan ish ko'rganlari uchun boshlariga tushgan qiyinchiliklarni yengadilar.

Asarda Azbarxo'ja, Buvraxon, Zamonqul, Xolmo'min kabi qahramonlar qiyofasi o'ziga xos tarzda yoritilgan. Azbarxo'ja dastlab Kuntug'mish bilan do'stlashadi, so'ng o'z manfaatini deb unga xiyonat qiladi. Buvraxon o'ziga bino qo'ygan, qahri qattiq podsho, biroq uning ko'ngilchan ekanligini ham ko'ramiz. Buvraxon avval Kuntug'mish va Xolbekani o'limga mahkum etadi, keyinroq esa xiyonati tufayli mashaqqatlarga duch kelishganini eshitib, ularni afv etadi. Azbarxo'jani jazolaydi. Dostondagi Qosim, Xolmo'min, Mullavachcha, Zamonqul va boshqa obrazlar ham asarda o'z o'rniga ega, ularsiz Kuntug'mish va Xolbeka taqdirini tasavvur qilish qiyin.

Ijobiy qahramonlar	Salbiy qahramonlar	Dostonda joy nomlari	Hayvon nomlari
Kuntug'mish	Azbarxo'ja	No'g'ay	humo
Xolbeka Xolmo'min Gurkiboy Mo- hiboy	Zamonqul Kampir enaBu- vraxon	Zangar Mug'ol Zarchaman Olatog' Oqsuv.	to'yma ajdar bo'ri baliq
Qoraxon Qosim			

Umuman, Kuntug'mishning dostondagi hayoti qahramonlik bilan kechadi. Uning Xolbeka visoliga yetishish uchun uzoq safarga o'tlanishi, yo'lidagi barcha to'siq-g'ovlarni yengishi haqiqiy insoniy jasorat, fidoyilikdir. Dostondagi Xolbeka, Gurkiboy va Mohiboy harakatlarida ham qahramonlik belgilari mavjud. Axir Xolbekaning sevgan yori, bolalari uchun jonini berishga tayyorligi, Gurkiboyning ukasi uchun o'zini fido qilishga shayligi (uning dor ostidagi so'zlarini eslang) qahramonlik emasmi?!

Birgina «Kuntug'mish» dostoni emas, boshqa dostonlarda

ham asar personajlari turli qahramonlik namunalarini ko'rsatadilar, bu qahramonliklar odamlarning og'irini yengil qiladi, el-yurtga ro'shnolik keltiradi. Baxshi bobolarimiz sevib kuylagan «Kuntug'mish» kabi ishqiy-qahramonlik dostonlari bizni muhabbatdek ezgu tuyg'ularni qadrlashga undaydi, fidoyilik, qahramonlikka chorlaydi, chunki ishq- muhabbat, qahramonlik, jo'mardlik doimo egizak tushunchalardir.

Savol va topshiriqlar.

1. «Kuntug'mish» dostonini «Alpomish» dostoni bilan qiyoslang.
2. «Kuntug'mish» dostonida an'anaviy motiv va timsollar tasnifi.
3. «Kuntug'mish» dostonida mifologik tafakkur ildizlari.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. [https://n.ziyouz.com/books/uzbek_xalq_ogzaki_ijodi/Ergash%20Jumanbulbul%20o'g'li%20\(aytuvchi\).%20Kuntug'mish%20\(doston\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_xalq_ogzaki_ijodi/Ergash%20Jumanbulbul%20o'g'li%20(aytuvchi).%20Kuntug'mish%20(doston).pdf)
2. Eshonqul J. Folklor va obraz. Qarshi: «Nasaf». 2004
3. Kuntug'mish. Doston. – Toshkent: «Yangi yo'l». 2019.
4. Musurmonov E. O'zbek xalq dostonlari. – SamDU, 2005.
5. O'zbek xalq dostonlari. 1-2 tom. – Toshkent: «Fan», 1956-1957.

«Ravshan» dostoni

1. «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlar silsilasi va «Ravshan» dostoni.
2. «Ravshan» dostoni g'oyaviy-badiiy tahlili.
3. «Ravshan» dostonida obrazlar tizimi.

Tayanch iboralar: «Ravshan» dostoni, obrazlar tizimi, she'riy san'atlar, badiiy tasvir vositalari, an'anaviy motiv, mifologik tafakkur.

Darsning maqsadi. «Ravshan» dostoni va uning o'zbek xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni.

Darsning vositalari. Konkret-obrazli, visual ko'rgazmali o'quv qurollari, folklorshunos olimlarning «Ravshan» dostoniga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

Darsning metodi. Blits-so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. «Ravshan» dostoni g'oyaviy-badiiy jihatdan ishqiy-sarguzasht dostonidir. U 1928-yilda birinchi bo'lib Hodi Zarif tomonidan Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan va 1941-yilda nashr ettirilgan.

Ergash shoir «Ravshan»ni otasi Jumanbulbuldan, u esa ustozi Kichik Bo'rondan o'rgangan. Bu doston ham «G'o'ro'g'li» turkumiga mansub.

«Ravshan» pok va samimiy muhabbatni kuylovchi, maqsadga erishish yo'lida mardlik va botirlikni ulug'lovchi, zulm va adolatsizlikni qoralovchi asardir. Bu dostonning sayqal topib, badiiy go'zal asar shaklini olishida Jumanbulbul va Ergash baxshilarning alohida xizmatlari bor.

Dostondagi obrazlar:

Asosiy obrazlar	Epizodik obrazlar
Ravshan Zulxumor Hasanxon	Aka-uka kallar Oqqiz Shirvonlik kampir

Go'ro'g'li Qoraxon Avazxon Gulqiz Xondalli	Besh yuz sarboz Maston kampir
--	----------------------------------

Taqdiriga bitilgan Zulxumorni qo'lga kiritish niyatida olis yo'lga yakka o'zi chiqqan Ravshan yoshligi, soddaligi tufayli osongina bandi etilib, zindonga tashlanadi. Ammo u qo'rqqoqlik qilmaydi. Yigitlik sha'niga dog' tushirmaslikka intiladi. Qoraxon a'yonlarining dinini o'zgartirish haqidagi taklifini rad etib, o'z e'tiqodidan, dinidan kechmasligini aytadi. Muhabbat uchun chekilgan iztirob iymon yo'lidagi azobga aylanadi. Chin muhabbat egasi bo'lgan botir yigit o'limdan hayiqmaydi. Dostonda Ravshan hech qanday kamchiliksiz, har jihatdan yetuk odam sifatida tasvirlanmaydi. Uning ojizligi, g'o'rli, tajribasizligi tufayli xatolar qilishi, aldanishi haqqoniy ko'rsatiladi. Hasanxon – Go'ro'g'lining tarbiyasini olgan dongdor polvon. Zulxumor mayna orqali yo'llagan maktubni olgan Hasanxon G'irotda uch oylik yo'lni yigirma kunda bosib o'tadi. Dostonda shu o'rinlar nihoyatda hayajonli, ta'sirchan va go'zal ifodalangan.

Doston she'riy san'atlarga, badiiy tasvir vositalariga juda boy. Zulxumorning qiyofasi, fe'l-atvori, tabiat manzaralari yuksak mahorat bilan chizilgan. Zulxumorning bog'i tasvirini o'qisangiz, ulkan e'tibor ila parvarishlangan, shohona ko'hlik va qasrli so'lim maskan, jannatday bir oromjoy ko'z o'ngingizda namoyon bo'ladi. Yoki Shirvon bozorining 145 misralik tasvirini olaylik. Dostonda sershovqin, to's-to'polon Sharq bozorining o'ta tabiiy, jozibador tasviri berilgan. She'riy parchalar anvoyi poetik tasvir vositalariga nihoyatda boy qofiyalar bilan mohirona ziynatlangan. «Ravshan» dostoni qofiyali nasr (saj') ning go'zal namunasidir. Deyarli har bir nasriy parcha qofiyali. Dostonning vazni ham o'ziga xos.

She'riy qismi, asosan, yetti, sakkiz va o'n bir bo'g'inli barmoq vaznida. Baxshi qahramonning ruhiy holati, his-hayajoni, voqea rivojining sur'atiga ohangdosh, ayni shu holatga

mos tasvir yo'sinini topadi. Sakkiz bo'g'inli vazn urush va jangovarlik holatiga juda mos keladi. Asarda tasvir etilayotgan voqea yo harakat sur'ati tezlashgan holatlarda esa yetti bo'g'inli she'rlardan foydalaniladi. Bunday o'rinlarda tinglovchi o'zini go'yo asar qahramoni bilan yonma-yon ot qo'yib borayotganday his etadi. Shoir qahramonlar ruhiy holatini chuqur his etadi va uni doston tinglovchilariga ham yuqtira biladi. Dostonning tili sodda, rang-barang. Unda adabiy tilimizni boyitishga xizmat qiladigan so'z va atamalar juda ko'p. Ko'plab misralarda xalq maqollari va hikmatli so'zlari o'rinli qo'llangan.

Badiiy adabiyot hayotni, undagi insonlarning ruhiy holati, o'y-fikrlarini aks ettiradi. Hayothamish insonlarning tirikchiligi, mehnat faoliyati, kurashi, his-tuyg'ulari, kechinmalaridan iborat. Adabiyotning tasvir mavzusi, avvalambor, insondir. Inson tasviri yo'q, u ko'zda tutilmagan joyda badiiy adabiyot ham bo'lmaydi. Shunga ko'ra adabiyotshunoslik ilmida markaziy o'rinni egallovchi tushuncha ham obraz, qahramon yoki personaj tushunchasidir. Obraz – timsol tushunchasining keng va tor ma'nolari mavjud. Keng ma'nodagi timsol tushunchasi ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatrsa, tor ma'noda badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi. Biz bu o'rinda timsol tushunchasining ko'p qo'llaniladigan tor ma'nosi haqida fikr yuritamiz. Yozuvchi hayotni badiiy timsollar orqali tasvirlaydi. Shuning uchun ham biror badiiy asar o'qiganimizda unda aks ettirilgan voqelik ongimizda shu asarda tasvirlangan kishilarning obrazlari orqali muhrlanib qoladi. Siz «Ravshan» dostonini o'qib chiqdingiz. Buning natijasi o'laroq, Ravshan, Zulxumor, Hasanxon, Aynoq, Jaynoq, Ersak, Tersaklarning mahorat bilan chizilgan timsollari, Shirvon bozori, Zulxumorga qarashli bog'ning ajoyib-g'aroyib manzaralari xotirangizda mahkam o'rnashib qoladi.

«Ravshan» badiiy jihatdan g'oyat pishiq ishqiy-sarguzasht dostonidir. Xalq orasida u o'tgan asrda ham mashhur bo'lgan.

«Ravshan» otashin va samimiy muhabbatni kuylovchi, pok va haq islomiy e'tiqod yo'lida sobit tura oladigan iymonli kishilarni madh qiluvchi, ezgulikni, mardlik va botirlikni

ulug'lovchi, zulm va zo'ravonlikni, adolatsizlikni qoralovchi asardir. Suyukli xalq shoiri Ergash Jumanbulbul o'g'lining ulkan mehnati, iste'dodi hamda dostonni yozib olgan folklorshunos va noshirlarning og'ir mehnati tufayli avlodlarga meros bo'lib qolgan «Ravshan» dostoni kitobxonlarni mustahkam islomiy e'tiqod, chin va pokiza muhabbat, or-nomus, e'tiqod, qahramonlik, ota yurt va xalqqa sadoqat ruhida tarbiyalaydi.

Shuningdek «Qunduz va Yulduz», «Malikayi ayyor», «Orzigul» kabi dostonlar poetikasi tahlili orqali romanik dostonlarga xos xususiyat va belgilari ochiladi. Romanik dostonlarning yetakchi motivlari, ularning qahramonlari, syujet tiplari, badiiy tasviriy vositalari, g'oyaviy qatlamlari tahlil qilinadi. «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Bahrom va Gulandon», «Ibrohim Adham qissasi» kabi dostonlar asosida folklor-adabiyot, adabiyot- folklor tadrijiy o'tish bosqichlarini, bu dostonlarning xalq badiiy estetik tafakkuri rivojidadagi o'rni va xizmatlari ko'rsatiladi, folkloriy tafakkurning qonuniyatlari borasida so'z yuritiladi.

Savol va topshiriqlar.

1. «Ravshan» dostonining «Go'ro'g'li» turkum dostonlar siklida tutgan o'rni.
2. «Ravshan» dostonida an'anaviy motiv va timsollar tasnifi.
3. «Ravshan» dostonida mifologik tafakkur ildizlari.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Go'ro'g'li. O'zbek xalq dostonlari. Aytuvchi: Rahmatilloh Yusuf o'g'li. Nashrga tayyorlovchi: To'ra Mirzayev va Z. Husayinova. Toshkent: «Sharq», 2006. –B. 448

1. Ravshan. Xalq og'zaki ijodi namunalari. Toshkent. «Yangi yo'l», 2019.

2. Turdimov Sh, «Go'ro'g'li» dostonlarining geniziyasi va tadrijiy bosqichlar. - Toshkent : Fan, 2011.

3. Turdimov Sh. Etnos va epos. - Toshkent: O'zbekiston, 2012.

4. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. - Toshkent: Fan, 2006.
5. Eshonqul J. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. - Toshkent: Fan, 2011
6. Eshonqul J. Folklor va obraz. – Qarshi «Nasaf». 2004
7. Musurmonov E. O'zbek xalq dostonlari. – SamDU, 2005.
8. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Dostonlar. – Toshkent: «Fan», 1969.
9. O.Madayev, M. Jo'rayev, T.Sabitova, N.Muxitdinova O'zbek folklori. Darslik. T. 2022. "ZEBO PRINT". 2022.
10. Sabitova T. O'zbek xalq dostonlarining nazariy asoslari va badiiyati. Monografiya. T. "FIRDAVS SHOH" , 2022.

9-mavzu: Romanik dostonlar tahlili “ORZIGUL” DOSTONI.

1. «Orzigul» dostoni g‘oyaviy-badiiy tahlili.
2. «Orzigul» dostonida obrazlar tizimi.

Tayanch iboralar: «Orzigul» dostoni, obrazlar tizimi, she’riy san’atlar, badiiy tasvir vositalari, an’anaviy motiv, mifologiya.

Darsning maqsadi. «Orzigul» dostoni va uning o‘zbek xalq og‘zaki ijodida tutgan o‘rni hamda tarbiyaviy ahamiyati.

Darsning vositalari. Konkret-obrazli, visual ko‘rgazmali o‘quv qurollari, folklorshunos olimlarning «Orzigul» dostoniga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

Darsning metodi. Dostonni o‘qitishda faol metodlardan foydalanish. An’anaviy ma’ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. «Orzigul» dostoni g‘oyaviy-badiiy jihatdan ishqi-y-sarguzasht va axloq-odobga bag‘ishlangan dostondir.

Ko‘lami keng epik mersimizni doston kuylash sirlarini mukammal egallagan yetakchi dostonchilarsiz tasavvur etolmaymiz. Chunki avlodlarimizning yashash va kurash tarixi, urf-odati, rasm- rusumi, san’at va madaniyati badiiy aks ettirilgan nodir namunalarni avaylab-asrab bizgacha yetkazishda ularning xizmati bebahodir. Doston janri taraqqiyot bosqichlarini belgilashda dostonchi- larimiz sulolasiga mansub Islom shoir Nazar o‘g‘li kabi baxshilarning individual uslubi diqqatga sazovardir. Islom shoir Nazar o‘g‘li (Mansur Afzalov nashrga tayyorlagan) “Orzigul” dosto- nini sevib kuylagan va bu asar shoirning repertuaridan mustahkam o‘rin olgan. Doston g‘oyaviy yetuk, badiiy go‘zal va mazmunan pishiq asardir. Unda ertak motivlari esa xalq fantaziyasining ta’siri yaqqol seziladi. Bevosita sehrli-fantastik ertak zamini- da yaratilgan “Orzigul” dostonining asosiy g‘oyaviy-tematik yo‘na- lish Qoraxon podshohning o‘z qizi Orzigulga oshiq bo‘lib qolishi va xalqning

bunday razillikka qarshi munosabati tasviridan iboratdir. Syujet chizig'ida hayot uchun eng muhim bo'lgan to'qnashishlar, qarama-qarshiliklar, asar qahramonlarining ma'naviy dunyosi, ichki kechinmalari aks etadi. Doston voqealari dramatism- ga boy bo'lib, barcha keskin voqqa-hodisalarni Xosxona - Oqtosh mamlakati, shuningdek, Qoraxon - Orzigul, Suvonxon - Sultonxon- lar o'rtasidagi kolliziya birlashtiradi. Undagi qahramonlar va personajlarning taqdiri nihoyatda og'ir vaziyatlarda kechadi.

Ma'lumki, xalq dostonlarining ko'pida o'tmishda og'ir hayot havosini chekkan mehnatkash xalqning xonlar, beklar zulmiga qarshi cheksiz nafrat-g'azabi kuylanadi. Ushbu dostonda ham Orzigul obrazi orqali xotin-qizlarning o'tmishdagi qora kunlari, ularning chekkan azoblari va unga qarshi kurash o'z ifodasini topgan. Dostonning syujeti boshidan oxirigacha podshoh Orzigul- ni qo'lga kiritish uchun harakat qiladi. Orzigul esa Qoraxonning o'z otasi ekanligini bilganligi uchun ham doim undan qochadi va azob-uqubatlarni chekadi. Dostondagi syujet liniyasi va g'oyasi qahramonlik, gumanizm, or-nomus uchun kurash va dushmanga nafrat motivlari bilan rivojlantiriladi.

Dostonda Qoraxon podshoh farzand tug'ilishidan oldin ovga ketayotib xotiniga "agar qiz tug'sang so'yaman", deydi. Afsuski, qiz farzand tug'ildi. Shu o'rinda dostondagi dramatismni kuchaytiruv- chi xalq ertaklariga xos bo'lgan lozim bo'lmagan shartlilik kirib keladi. Tug'ilgan chaqaloq qiz bola bo'lgani uchun ham mamlakat taxtininng vorisi bo'la olmaydi. Endi murg'ak go'dak va onani shodlik emas, dahshatli o'lim kutmoqda. Biroq xalq estetikasi bunday razillikka yo'l bermagani uchun shartlilik qonuniyatiga amal qilinib, kambag'al bog'bon xohlamasa ham bir lagan tilla evaziga uning o'g'lini shoh qiziga almashtirishadi. Bunday almash- tirishni shoir sosial tengsizlik orqali asoslamoqchi bo'ladi. Chunki podshohning xotini Barnogul gul va qizchasining hayotini qutqarib qolish uchun xohlagancha mol-dunyo sarflashi mumkin. Ernazar bog'bon esa kambag'al, mehnatkash bir kishidir.

Islom Shoir "Orzigul" dostonining ekspozitsiyasini jiddiy

to'qnashuvlar bilan emas, balki sosial tengsizlik nuqtai nazaridan asoslab, ko'rsatib beradi. Endi xalq dostoniga arzigulik ulkan insoniy muammo, katta sosial masala, ya'ni hayotiy konflikt yuzaga kelishi shart. Bunga doston boshidagi voqealar zamin hozirlamoqda. Mana doston uchun asos bo'lgan konflikt yuzaga keldi, ya'ni oradan ko'p yillar o'tib, bog'bon boqib olgan qiz - Orzigul bog' aylanib yurganda, Qoraxon podshoh tasodifan uni ko'rib qolib sevib qoladi. Syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan asarning tuguni mavjud bo'ldi.

Oradan o'n sakkiz yil o'tganda ham qarimagan podshohning bo'y yetgan qizga oshiq bo'lishi tinglovchini hayratga soladi. Tinglovchi o'z ko'nglida insoniyat uchun isnod dahshatli holni yuz bermasli- gini qo'msaydi, u dostondagi keyingi voqealarni sabrsizlik bilan kutadi. Voqeaning mantiqidan kelib chiqadigan bo'lsak, mamlakat podshosining o'z farzandi bo'lmish go'zal Orzigulni sevib qolishi insoniy fojia, o'ta dahshatli hol-ku?! Ana shunday og'ir vaziyat mantiqan o'z nomus bokiraligini himoya qilgan, tengi bilan kolishiga bel bog'lagan Orzigulni kimlar himoya qilishi kerak? U bu fojiadan qutilish uchun qanday tadbirlar qo'rmog'i darkor? Chunki Qoraxon podshohning qayerga qo'lini uzatsa yetadigan kuchi bor. Shu ondayoq voqealar dramatik tus oladi, konflikt tobora chu- qurlashadi, syujet voqealari rivojlantiriladi. Qoraxon boshliq guruhlar o'z yovuz niyatlariga yetish uchun qanchalik zulm-zo'rlikka harakat qilsalar, Orzigul tomon shunchalik aql va tadbirkorlik bilan ish tutadilar. Hatto qiynoqlarning kulminasion nuqtasiga chiqilganda ham oqila va dovyurak Orzigul o'z irodasini, or- nomusini qo'ldan boy bermay, har qanday qiyinchiliklarga chidam, matonat bilan dosh beradi va yengadi.

Dostonda adolatsizlikni qoralash va yaxshilik, haqiqat, ezgu- likni kattiq turib himoya etish muhim o'rin tutadi. An'anaga ko'ra finalda yovuz kuchlar mag'lub bo'lib, sof niyatli murud maqsad- lariga yetadilar. Doston kompozisiyasining birinchi bosqichida asar syujeti uchun asos bo'lgan konflikt, mana shu konfliktni yuzaga keltiruvchi voqealarda epik shartlilik aktiv amal qiluvchi qonuniyat sifatida namoyon bo'ladi.

Kompozisiyadagi ikkinchi bos- qich Oqtosh mamlakatining podshohi Sultonxonning o'g'li Suvon- xon bilan Orzigulning Qushqanot qal'asidagi uchrashuvi bilan tugaydi. Bu epik tasvir nuqtai nazaridan shart. Biroq mana shu shartlilikning yuzaga chiqishini ta'minlashda tasvirda tush motivi, qahramonga safarda hamroh bo'lib unga maslahat beruvchi yaqin do'sti bo'lgan epik ot, ilohiy kuch-Xizr va kiyik ishtirok etadi- lar. Agar yuqorida aytgan shartlilik to'g'ridan-to'g'ri amalga osh- ganda, u holda eposdagi tasvir prinsiplariga mos tushmagan va bayon qilinayotgan voqealar sistemasidagi har bir halqa asos- lanmagan bo'lar edi. Mana shu voqealar bog'lanishini asoslovchi motivlar epik tasvir nuqtai nazaridan shartlilik sanaladi.

Dostonning ijobiy qahramonlari yuksak go'zallik va baxt- saodatga erishi uchun mardlik, matonat va jo'shqin hayrat-shijoat ko'rsatib, har qanday qiyinchiliklar, to'siqlar oldida ham umid- sizlikka tushmay harakat qiladilar. Suvonxon Qo'shqanotda Orzi- gul bilan uchrashadi. Bu uchrashuvni ilohiy kuchlar vositasida Orzigul bilan, ammo Suvonxon bundan bebaxar. Ana shuning uchun uni xabardor asar syujetiga tush motivi kiritiladi. Suvonxon singlisini tushida ko'rib, qaysi manzildan izlashni bilmaydi. Bu haqda do'sti Sarimirsxo'rga Suvon va uning taqdiri haqida Hizr xabar beradi. Qizning ishq i Suvonxonning yuragidan joy olib, qirq yigiti bilan izlashga ketadi. Tush motivining poetik funk- siyasi Orzigul va Suvonxonning taqdirini birlashtiradi.

Tush motivi syujetni shakllantiruvchi badiiy usul bo'lib, ke- lajakni oldindan ko'rish, taqdirni belgilash haqidagi qadimiy tasavvurlar, iloxiy kuchlar-pirlar to'g'risidagi mifologiya e'tiqodlar bilan bog'liqdir. Tushdan hayotiy ma'no izlash, tush e'tiqodlar bilan bog'liqdir. Tushdan hayotiy ma'no izlash, tush ta'bi- rini schish an'anasi o'sha davrdayoq turmushda muhim rol o'ynagan. Tush motivining doston kompozisiyasidagi estetik tabiati hakida folklorshunos olim To'ra Mirzayev shunday yozadi: "Tush motivi asosan qadimgi insonlarning tush haqidagi magik qarashlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan bo'lib, keyinchalik bu qarashlar kishilarning estetik talablari natijasida epos

tarkibidan mustahkam o‘rin olgan. Mana shuning uchun ham bu motivning tarixiy izlari o‘ta qadimiy bo‘lib, eposda u kuchli estetik funksiyani baja- radi. Xabar tush motivida hamma vaqt ramziy xarakterda beriladi”.

Shunday qilib, Suvonxon o‘zining sevgilisini tushida ko‘ra- di-yu, ammo uni qaysi manzilgohdan izlashni bilmaydi. Bu haqda xabar berish uchun uning do‘sti Sarmiroxo‘r, unga esa ilohiy obraz - Xizr tushiga kirib aytib beradi. Shuningdek, eposda qahramon- ning qutblar tanlashidagi shartlilik qonuniyati amal qiladi. Bunda ham vaqt bir qutb, bir yo‘l, ya‘ni maqsadga eltadigan yo‘l nazarda tutiladi. Mana shuning uchun ham Suvonxon o‘z yigitlari bilan Qo‘shqanotda ekanligini biladiyu, lekin Qo‘shqanotning o‘zi qayerda ekanligini bilmaydi. Mana endi dostonga yangi motiv - to‘g‘ri yo‘ldan boshlab boruvchi kiyik obrazi kirib keladi. Suvon- xon uchragan kiyikni quvlab, sheriklari orqada qoladi. Nihoyat ikki sevrishganlar uchrashadilar. Shu o‘rinda aytish kerakki, qiz bilan yigitning belgilangan manzilda uchrashishida boshqa shaxs- lar ishtirok etmasligi shart. Bu eposning o‘ziga xos universal motiv bo‘lib “Orzigul” dostonida ham kiyik uchrashi, qahramon otining boshqalardan ilgarilab ketishi shartlilik funksiyasi asosida sodir bo‘ladi.

Har bir epizodda epos qonuniyatiga xos har xil shartlilik- lar amal qiladi. Masalan, dostonidagi tush motivlari, doston qahramonining farzandsizligi, qahramon safarda hamroh bo‘luvchi ot, uni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi kiyik kabi epik shartlilikni ta‘minlaydigan vositalar borki, bu xususiyatlar o‘zgacha namoyon bo‘ladi. Bu haqda taniqli folklorshunos bilan Bahodir Sarimso- qovning maqolasida to‘la ma‘lumot olish mumkin.

Umuman, dostonidagi epik shartlilik, o‘rni bilan sabab- oqibat munosabatlari asar syujetida ustun mavqega ega bo‘lgan. Chunki dostonda sexrli-fantastik ertaklarga xos bo‘lgan motivlar ustun turadi. Dostonning syujeti xronikal xarakterga ega bo‘lib unda xalq ideali muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dostonning syujeti

rivojida shartlilik katta o‘rin tutadi. Dostonda asar syujeti va kompozision qurilishi, qahramonlarni harakatga keltiruvchi, uning g‘oyaviy-badiiy asosini tashkil etuvchi epik-ma‘naviy xarakterdagi konflikt hisoblanib, unda syujetning hamma tarkibiy qismlari o‘z o‘rnida, real kartinalarda jozibali tasvirlangan. Ayniqsa, syujet voqealari rivojida tush motivlari juda o‘rinli berilgan.

“Orzigul” dostonining kompozision strukturasi nihoyatda original bo‘lib, syujetni shakllantiruvchi motivlar bir-birlari bilan ulanib ketgan ma‘lum bir xalqni tashkil qilgan. Doston chuqur xalqchilligi, til boyligi, ya‘ni so‘z qo‘llash san‘atining yaxshi namunasi bo‘lib, badiiy jihatdan pishiqligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

«MALIKA AYYOR» DOSTONI

1. «Malika ayyor» dostoni g'oyaviy-badiiy tahlili.
2. «Malika ayyor» dostonida timsollar tizimi.

Tayanch iboralar: «Malika ayyor» dostoni, timsollar tizimi, she'riy san'atlar, badiiy tasvir vositalari, an'anaviy motiv, mifologiya, fantastika, g'aroyib mifologik holatlar.

Darsning maqsadi. «Malika ayyor» dostoni va uning o'zbek xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni hamda sof fantastikaga oid asar ekanligini tushuntirish.

Darsning vositalari. Konkret-obrazli, visual ko'rgazmali o'quv qurollari, folklorshunos olimlarning «Malika ayyor» dostoniga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

Darsning metodi. Dostonni o'qitishda faol metodlardan foydalanish. An'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. «Malika ayyor» dostoni g'oyaviy-badiiy jihatdan garoyib fantastik sarguzashtlarga va tilsimli voqealarga bag'ishlangan dostonidir.

«Malika Ayyor» ham «Go'ro'gli» turkumiga kiradigan ko'plab dostonlardan biridir. Asar baxshi Fozil Yo'ldosh tomonidan kuylangan. Doston an'anaviy ravishda muhabbat va ishqiy sarguzashtlar bilan boshlangan va butun asar davomida sevgiga doir kechinmalar tasvirlangan bo'lsa-da, aslida unda imon-e'tiqod, or-nomus, insoniy iroda, topqirlik, chidam singari ezgu ma'naviy sifatlar hamda bunday fazilatlarga ega bo'lish uchun odam o'tishi zarur sinovlar tasvirlanadi. Bu dostonida qiyinchiliklarni yengib o'tishda Go'ro'gli ko'proq yukni zimmasiga olgan bo'lsa-da, eng tahlikali sharoitlarda ham Shozargar (asli ismi Hasan) va Avaz bilan birgalikda faoliyat ko'rsatganligi tasvirlanadi. Go'ro'gli Avazni safarga jo'natishga jo'natib qo'yib, ortidan o'zi Shoqalandar qiyofasida yo'lga chiqadi. U Torkiston shahri haqidagi aniq ma'lumotlarni Baymoqdev qo'lida yetti yil xizmat qilib

kelayotgan bola orqali bilib oladi. Dostonda ruhiy olamning cheksiz qudrati, ilohiy ishonch, e'tiqodning kuchi *Shoqalandar va Hasan zargar* obrazlari orqali yorqin tasvirlangan. Ayniqsa usta zargar Shozargarning mahorati Malikaga *sher yasab berishda* yaqqol ko'rinadi. Avazbekning Malika saroyiga kirib borishida ham *Shozargarning* maslahati qo'l keladi. Dostonda o'zbek yigitlariga xos eng oliyjanob fazilatlar Avaz timsolida aks etgan deyish mumkin. Bu dostonda xalq maqol, matal va qo'shiqlaridan juda o'rinli foydalamlangan. «Yo'li bo'lgan yig'itning yangasi oldidan chiqadi», «Er-tilagan yerda aziz», «Chaqirilmasa boruv yo'q, chaqirgan yerdan qoluv yo'q», «Yo'l uzoq bo'lsa ham poygasi sovuq» singari maqollar personajlarning ayni vaziyatdagi ruhiy holati va ijtimoiy o'rnini ifodalaslihi jihatida katta ahamiyat kasb etadi. "Ushbu. damning damlarini dam dema, Shukur qilgin, davlatingni kam derna" misralari ham ushbu dostonda uchraydi.

Darslikda keltirilgan doston parchasining qisqacha mazmuni quyidagicha: «Go'ro'gli Chambil elida podshohlik qilar, uning Soqibulbul degan otboqari ham bor ekan, Bir kuni Go'ro'gli qirq yigiti, Hasani, Avazi va amaldorlari bilan suhbatlashib o'tirib otboqariga G'irko'k otini egarlab olib kelishini va Shakar ko'lga borib parranda ovlashini aytadi. Soqibulbul: «Hozir safar oyi, bu vaqtda safardan omon kelish mushkul», - deganda, Go'ro'g'lining jahli chiqadi, uni ko'tarib yerga uradi, bundan qo'rqqan otboqar G'irko'kni olib keladi.

Go'ro'g'li otini minib, Zebitcho'ldagi Shakar ko'lga borib, parrandalarni ovlab qaytib kelayotganida bir qo'rg'on ko'rib qoladi. U qo'rg'onning ichiga kirib qarasa, go'zal manzara: olmalar, gullar, bulbullar... Bir to'da qushlar yig'ilib, o'rtada bir laylakni sozanda qilib, aytirib turishgan ekan. Shu payt osmondan bir ko'k kaptar uchib keladi va pariga aylanadi. Go'ro'g'li unga oshiq bo'lib qoladi, paridan qayerdanligini so'raydi. Pan Shahri Shabistondan bo'lishini, onasining oti Sipar pan, otasining oti Qosimxon, shahrining oti Torkiston ekanligini aytadi. Shundan so'ng, pan bir ag'anaydi-da, kaptarga aylanib uchib ketadi. Go'ro'g'li yurtiga qaytib kelib, qirq eshikli

chillaxonasiga kirib xafa bo'lib yotib oladi. Oradan hafta - o'n kun o'tadi.

Go'ro'g'lining **Ahmad Sardor** degan tog'asi unga xiyonat qilmoqchiligini Avazjon eshitib qoladi va otasini ogohlantiradi. Avazning o'zi esa Go'ro'g'lining hasratlarini eshitib, G'irotgga minib, Torkistonga Malika parini izlash uchun otlanadi. Go'ro'gli Malika Ayyorning gapini, ya'ni malikaning yurtigacha oltmish yil yo'l yurishini aytib, Avazning qaytib kelish muddatini aytib ketishini so'raganda, Avaz o'n olti oyda qaytib kelishini aytadi va yo'lga jo'nab ketadi.

Ahmad sardor Asad va Shodmon degan merganlani Avazni o'ldirish uchun yuboradi. Asad va Shodmon **G'ajdim** va **Majdim** degan otlarini minib, Palapon tog'iga yetadilar va Avazni kutib yotadilar. Avaz kelganda ular o'q uzishadi, ikki o'qdan Avaz omon qoladi. Merganlar Avazni aldab, uni sinab ko'rganliklarini aytib, unga yo'ldosh bo'ladilar. Qirq kecha-kunduz yo'l yurishib, Badbaxt degan cho'lga, Ochgaza Darband degan toqqa yetib keladilar. Shunda Avaz bir qora narsaning kelayotganini ko'rib qoladi. Kelayotgan dushman fil mingan ekan. Avaz undan kimligini so'raydi. U odam Arbotin degan joydan kelayotganini, ismi **Maqotil** ekanligini, Go'ro'g'lini o'ldirishga, uning G'irot otini, Avaz o'g'lini olib kelishga ketayotganligini aytadi. Buni eshitgan Avaz o'zini tanishtiradi. Ular orasida jang bo'lib, Avaz Maqotilni o'ldiradi. Avaz yo'lda davom etganda oldidan Maqotilning lashkari chiqadi, Avaz ular bilan to'qnashadi va yarador bo'ladi. Asad va Shodmon merganlar «Go'ro'g'li keldi» deb dushrnanlarni aldaydi, dushmanlarning ustiga bostirib boradi, dushmanlarning o'lgani o'ladi, qochganlari qochadi. Merganlar Avazga yetib olishadi. Avazning yarasiga *ayiqning o'tidan, kiyikning kindigidan, toshbaqaning tuxumidan* dori tayyorlab qo'yishadi. Uchovi yana qirq kecha-yu, qirq kunduz yo'l yurishadi. Beldoz degan bir qirga yetib, o'sha yerda to'xtashadi. Avaz tepani aylanib yurganda bir g'orni ko'radi va g'orga kirib qirq devning mast bo'lib yotganligini ko'radi. Bu devlarning kattasini **Yaproqdev** deyishar ekan. Avaz Go'ro'g'li degan so'zni aytgandan so'ng, devlarning aqli

shoshib, hol-ahvol so'rab ketishadi Devlar Avazdan «yolg'iz keldingmi?» deb so'rganlarida yo'ldoshlari borligini aytadi. Devlardan biri ularni chaqirish uchun borayotganida Asad va Shodmon qo'rqqanlaridan qocha boshlashadi. Shunda dev qaytib kelib, ularning qo'rqib qochayotganlarini aytganda, Avaz yolg'ondan ular qo'rqmasliklarini, har biri 90 dev yeyishini aytadi, yolg'ondan ularning oti hurkib qochayotganini bahona qiladi va o'zi borib ularni olib keladi. Yaproqdev Avazdan qayoqqa va nima uchun ketayotganini bilgach, ularga yordam beradi. Avaz, Asad va Shodmonni uchta olmaga, otlarini uch to'rg'ayga aylantirib, 10 kecha-yu, 10 kunduz uchishadi. Devlar ularni yigirma yillik yo'lga olib borib qo'yadilar. Bir tilsimot bilan Avaz, merganlar va otlari o'z asliga qaytariladi. Yaproqdev o'z yurtining chegarasida ular bilan xayrlashib orqaga qaytadi.

Avaz va merganlar yo'l yurishib, Gulshan chorvog'iga yetadilar. Avaz ichkariga kirganda olma va anjir yemoqchi bolganda ular osmonga chiqib ketadi. U hayron bo'lib yo'lda davom etadi va uch ko'shkka yetadi. Pastki ko'shkda osh damlanib turgan ekan, Avaz qozonning ustiga o'zini tashlaganda kapgir uning qo'ltig'idan chiqib, yuqoridan kelib, Avazning manglayini yoradi. Avaz hayron bo'lib, bu yerning egasini ko'rib ketish uchun qozon boshida yonboshlab, yotaveradi. Bu joy Gulqiz degan panning makoni edi. Uning Gulzamon degan oshpazi bor ekan. U Gulqiz bilan tanishganda Gulqiz «*Chambil elidan bo'lsangiz Yunus Misqolning joni -dili, Go'ro'g'lining o'gli bolsangiz mening ammamning o'gli bo'lasiz ekan*» - deb, Avazning hurmatini joyiga qo'yadi. Bu makon bilan qo'shni uchta dev bolib, kattasining oti Qizildev ekan. Bu yerdagi devlar ham Avazga qarindosh chiqadi, rosa ziyofat qilishadi va Avazdan maqsadini so'raydi. Qizildev: «*Torkiston degan shahar bu yerdan yetmish yillik yo'l keladi, uni faqat Bayrnoqdev degan tog'angiz biladi*», - deydi. Qizildev ularga yordam qiladi, bir tilsimot bilan uchovini olma, otlarini to'rg'ay qilib, o'n to'rt kunlik yolga uchib boradi. Otda yurilsa, u yergacha o'n to'rt yillik yo'l bo'ladi. Avaz, Shodmon va Asad yo'l yurib, Qizilqum degan joyga yetib keladi. Ular bir qalandarga duch kelishadi. U o'zini Chin -Mochin xoni,

ismini Shoqalandar deb tanishtiradi. U ham Malika Ayyorni izlab yurgan ekan.

Ikkinchi qalandarni Shozargar (asl ismi Hasan) deyishar ekan. U o'zini Rum elidan deb tanishtiradi. Shozargar Tillaqizni izlab yurgan ekan Sho-qalandarning qo'lida bir so'ta bo'lib, u sehrli kuchga ega boladi. Ikki qalandar ham Asad va merganlarga qo'shiladi.

Ular yol yurishib, Ko'klamtog' degan joyga yetib borishadi. Yana yo'l yurishadi, Avaz, Shoqalandar va Shozargar yer tagiga tushishadi. Malika Ayyorning Torkiston shahriga yetib borishadi. Malikaning bir sheri boladi. Ular sherni o'ldirib qo'yishadi. Shoqalandar Qosimshohga o'zining nomini "Yo'lchi" deb aytadi. Shozargar qirq kun muddatda sher yasab berishlarini aytadi va kerakli narsalarni olib, ziyofatga berilishadi. Muddatning oxirgi kuni kelganda Shozargar bir tilla sher yasaydi. Sherning murvati boladi, uning ichiga Avaz joylashib oladi. Malikaga kanizaklar "*Buvishim*" deb murojaat qilishadi. Malika Xadicha degan kanizini dugo-nasi Tilliqizning oldiga jo'natadi va uning ham sher yasatib olishini aytadi. Lekin Tillaqiz rad etadi. Shozargar uzukka aylanadi uni Oqdevshoh top'b oladi. Otasi uzukni Tillaqizga olib kelib beradi. Malika uzukni taqqanda loyiq boladi, uzuk gapira boshlaydi. Tillaqiz uzukni to'qsonta ichkima-ichki qutiga solib qo'yadi. Shunda Shozargar bir tilsimot bilan sichqon bolib, to'qson qutini teshib chiqadi. Shozargar boshqa balolardan ham qutilib chiqadi. Tillaqiz taqdirga tan berib u bilan birga ketadi.

Avaz merganlarni topadi va Malikani olib ketadi. Shoqalandar esa Zebit shahrining shahzodasi Mahmudjon (Baymoqdev qo'lidagi bola) ni devlar qo'lidan qutqaradi, unga Gulqiz parini olib berishadi va hammalari o'z uylariga qaytib ketishadi. Go'ro'glining roziligi bilan Malika Ayyorni Avazga turmushga berishadi».

10-mavzu: Xalq ertaklari.

1. Ertak janri haqida umumiy ma'lumot.
2. Sehrli, fantastik va uydirma ertaklar.
3. Hayotiy-maishiy ertaklar.
4. Hayvonlar haqida ertaklar.
5. Hajviy ertaklar.
6. O'zbek milliy adabiyotida adabiy ertak janri.

Tayanch iboralar: ertak janri, qo'shaloqlashtirish usuli, animizm, totemizm haqida ma'lumot.

Darsning maqsadi. ertak janrining mavzu doirasi, xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni, ularning tili va badiiy xususiyatlarini yoritib berish.

Darsning vositalari. Konkret-obrazli, visual ko'rgazmali o'quv qurollari, folklorshunos olimlarning ertak janrlarga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

Darsning metodi. Blits-so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. Ertak termini Mahmud Koshg'ariyning XI asrda yozilgan «Devoni lug'otit turk» asarida *etuk* shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Hozir folkloristik termin sifatida ertak so'zi qabul etilgan bo'lsa-da, Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida matal deb yuritiladi. Buxoro atrofidagi rayon va qishloqlarda, shuningdek, boshqa yerlardagi ikki tilda (o'zbek va tojik tillarida) so'zlashuvchi aholi orasida ushuk deb ataladi. Xorazmda varsaki, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak termini ham ishlatiladi. O'zbeklar orasida ertak, matal, cho'pchak terminlaridan boshqa yana hikoya, afsona, o'tirik, tural kabi atamalar uchraydi. Alisher Navoiy asarlarida afsona, ertak va masal ma'nolarida cho'rchak so'zi ishlatilganki, u ham cho'pchak so'ziga to'g'ri keladi.

Cho'pchak kichik hikoyalarni to'plash, hikoya qilish,

topish, izlash ma'nosida bo'lgani uchun ba'zan topishmoq o'rnida ham qo'llangan. **Ertak** xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, katta-yu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo'lgan janridir. Ular juda uzoq o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlar, marosimlari asosida paydo bo'lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng oliyjanob insoniy fazilatlar haqidagi orzu-o'ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Ertaklar professional ijrochilikka asoslangan. O'tmishda ertaklar yilning ma'lum davrida, belgilangan paytda ijrochilik salohiyatiga ega bo'lgan yoshi ulug', dono, hurmatli va e'tiborli kishilar tomonidan aytilgan. Odatda, bunday professional ijrochilar ertakchi deb yuritiladi.

Xalq ertak aytmoqqa jiddiy qaragan. Shu haqdagi nuqtayi nazarini «Ertak ermak emas, ertakchi og'ziga kelganini demas» maqolida ifodalagan. Ertak ertakchi tomonidan yo bir kishiga, yo butun bir jamoaga qarata aytiladi. Bunda aytish mohiyatan ijroga teng. Aytaylik, ertakchi tinglovchilar diqqatini qozonmoq uchun ertak mazmuniga mos ruhiy holatlarga kiradi, ertak sirli olamini ta'minlash uchun ovoz jilosiga, yuz va gavda harakatlariga (mimika va pantomimikaga) alohida e'tibor beradi, ertakni baqirib-chaqirib aytmaydi, balki goh shivirlab, goh ovozini ko'tarib, ko'zlarini har xil holatga solib, yumshoqlik bilan samimiy hikoya qiladi. Hayvonlarga xos ovozlarni taqlid qilsa, mifologik obrazlar ovozi vahmkor ohangda bo'lishini ta'minlaydi. Shu taxlitda butun bir ertakni bir o'zi ijro etadi, asardagi ruhiy olamni o'z kechinmalari bilan to'ldiradi va hayajonbaxshligini ta'minlaydi. Shu ijro xususiyatiga ko'ra ertak ijrochiligi xalq yakka aktyor teatrini eslatga-da, aslida har qanday dekoratsiyalardan va boshqa sahnaviy atributlardan xoliligi bilan undan farq qiladi.

Ishlab chiqarishning dehqonchilik turi yetakchilik qilgan davrlarda ertak, odatda, dehqonlarning dala yumushlari tugagan paytda kuz va qish mavsumlarida, uzun va zerikarli oqshomlarda aytilgan va bu o'ziga xos an'ana tusini olgan.

Ertakchilik oqshomlari shomdan tonggacha davom etgan. Shundandirki, xalqning o'zi bu hodisani «Doston kunda aytiladi, ertak tunda» degan maqolida maxsus ta'kidlab qo'yishni unutmagan.

Garchi ertak eng qiziqarli nuqtasiga – kulminatsiyasiga kelib qolganiga qaramay, tong otgan zahoti uni aytishdan to'xtanilgan. Xususan, sehrli-fantastik ertaklar ijrochiligida bunga qat'iy amal qilingan. Sababi sehrli-fantastik ertaklarda mavjud dev, pari, ajina singari qorong'ulik olamining mavjudotlari yorug'lik olamiga chiqib, insonlarga, ayni paytda ertak tinglovchilariga ziyon-zahmat yetkazishlari mumkin degan e'tiqod tufayli shunday yo'l tutilgan. Qolaversa, ertaklarga xos sirlilikning yo'qolishidan, uning moddiy hayot qobig'iga singib ketishidan qo'rqilgan. Shomdan boshlanuvchi qorong'ulik tonggacha hukmron bo'lganligidan ertaklar olamiga xos sirlilikni kuchaytirgan omilga aylangan. Ertakning kechqurun aytilishi an'anasi aslida ana shu asosda qaror topgan.

Ertaklarning ayrim qismlari bevosita dramatik harakat yordamida ijro qilinadi. Bunday ijroga amal qilinmasa, ertakning badiiy-estetik qimmati pasayadi. Ertaklar ijrosi uch xil usulda tashkil etilishi mumkin:

- a) teatrlashtirilgan shaklda;
- b) deklamatsion shaklda;
- v) ohangga solingan shaklda.

Ertaklarda va ular ijrochiligida tayyor qolipga aylangan an'anaviy birikmalar juda ko'p uchraydi. Ular o'quvchi va tinglovchini qiziqtirishdan tashqari, voqealarni bir-biriga bog'lashda, uzoqni yaqin qilishda muhimdir. Chunonchi, «qirq hujra bor, hujraning qirqinchisiga kirma», «qilichni bir silkitdi, qilich qirq gaz cho'zilibdi», «endi so'zni boshqa tomondan eshiting», «shohning qahri kelib, ilonday zahri kelib», «oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor, shirindan shirin so'zi bor», «suv ichsa tomog'idan, sabzi yesa biqinidan ko'rinadi», «kulsa – og'zidan gullar sochilar, yursa-oyog'idan tilla sochilar», «yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, tog'-u sahro, cho'l yurib...» kabilar shular jumlasidandir.

Ertak ijrochiligining o'ziga xos tabu-taqiq va irimlari bor. Chunonchi, ertakchi ertak aytayotganda eshikni mahkam tambalagan, o'choqqa olov yoqqan, yoniga achchiq va keskir narsalar, shuningdek, non, suv, tosh singari narsalarni qo'ygan.

O'zbekistonning turli joylarida ertakchilik maktablari bo'lgan. Ularda ustoz ertakchilar o'zlariga munosib shogirdlar tayyorlagan. Shogirdini ertak aytish san'atining nozik qirralari bilan tanishtirgan va unga ertak ijrochiligining sir-sinoatlaridan maxsus saboq bergan.

Ertak epigrafi, an'anaviy kirish qismi va boshlamasi ertakchining mahoratini baholashga xizmat qiladi, ular, asosan, saj' orqali yaratilgan bo'lib, ertak ohangdorligining jozibasini ta'minlaydi, ertakka ta'sirchanlik baxsh etib turadi.

Mahmud Koshg'ariy «Devoni lug'otit turk» asarida biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish ma'nosini «etuk» so'zi anglatishini yozadi. Olim bu so'z aslida biror narsani hikoya qilishdan olingani haqida xabar qiladi. O'zbeklar qadimgi paytlardagi voqealarni tafsilotlari bilan aytib berishni «ertak» deb ataganlar. Atamaning qadimiyligini qozoq, qirg'iz, turkman xalqlarida ham bu so'z aynan shu ma'noda qo'llanilishidan bilsa bo'ladi. Ertak yurtimizda shu qadar ko'p va xilma-xil mavzularda tarqalganki, ayrim hududlarda uni o'zlaricha ataganlar. Xususan, ayrim joylarda «shuk», «ushuk», «matal», «cho'pchak», «cho'r-chak» deb ham yuritilgan. Bizning ertaklarimiz mavzusiga, til vositalaridan foydalanish usuliga, voqealar tizimiga ko'ra shartli ravishda uch yirik turlarga bo'linadi:

1. Hayvonlar haqidagi ertaklar.
2. Sehrli ertaklar.
3. Maishiy ertaklar.

Bulardan tashqari ertaklarning bir xil turlari bor bo'lib, ular asosan hajm, mavzu, maqsad jihatidan bolalar folkloriga oid ertaklarni tashkil etadi.

Afsona, rivoyatlar matnini ijro etishda alohida tayyorgarlik talab qilinmasligini aytib o'tganmiz. Ertaklarni ijro etishda ham maxsus iste'dodga ega bo'lish u qadar shart emas, ammo xalqimizda ertak aytish an'anasi alohida ertakchilarning

ijrolari jozibasi qiziqishni kuchaytirishi bilan ajralib turishini tasdiqlaydi. Qo'qondan Zavonbibi Sarimsoqova, Toshkentdan Sharif Musaev, Xorazmdan Mahfura Sobirova, Andijondan Murodilla Ziyodov, Namangandan Abdullaxo'ja kabi yuzlab mashhur ertakchilarning nomlari ular yashagan hudud atrofida mashhur bo'lgan. Ertakchilar o'z ijrolarini alohida vaziyatlarda amalga oshirganlar. Natijada, ertak aytish an'anasi shakllangan. Ular ertak aytishdan oldin oldilariga tuz, isiriq, taroq, supurgi, suv, non kabi narsalarni qo'yib chiqqanlar. Ijro davomida esa ulardan ko'rgazmali ashyo sifatida foydalanganlar va ertak ta'sir kuchini oshirishga uringanlar. Ertakchilarning kasb-korlari ham ertak mazmuniga aloqador bo'lgan. Masalan, chevar ertakchi aytgan asarlarda chevar; mulla ertakchilar aytgan namunalarda ilmga aloqador qahramonlar ishtirok etgan. Bu bilan ijrochilar o'z kasblarini ham yo'l-yo'lakay targ'ib qilish maqsadini nazarda tutgan bo'lishlari mumkin.

Hayvonlar haqidagi ertaklar. Miflar mavzusida totem tushunchasi haqida ma'lumot bergan edik. Uzoq qadimgi zamonlarda ajdodlarimiz tuya, ot, ayiq, bo'ri, ilon, qaldirg'och kabi hayvon va qushlarni o'zlariga homiy deb bilganlar. Bu hayvon va qushlar avval miflarda, keyin afsona, rivoyatlarda qahramon sifatida ishtirok etganlar. Ertaklar yaratila boshlaganda esa mazkur an'ana bu janrga ham meros bo'lib o'tgan. Shuning uchun hayvonlar haqidagi ertaklarning yaratilish davrini ularda obraz sifatida ishtirok etayotgan hayvon va qushlar nomiga, voqealar tavsifiga va harakat doirasiga qarab belgilash mumkin. *Masalan*, «Quyosh yerining pahlavoni» ertagida ona ayiq Rustamni parvarish qiladi, uning hayotida alohida o'rin egallaydi: Rustam va otasi yamoqchi cholga qo'lidan kelganicha yaxshiliklar qilib, dushmandan asraydi. O'zbek xalq ertaklari haqida maxsus o'rganish ishlarini olib borgan Mansur Afzalov «Ilon og'a» ertagini alohida ajratib ko'rsatadi. «Ilon-kuyov niqobini olsa, insonga aylanadi. Qiz ilonning niqobini kuydirib yuborsa, u kaptar bo'lib uchib ketadi. Ilon og'aning onasi va xolasi yalmog'iz kampir bo'ladi. Ular Ilon og'a bilan qizga ko'p to'sqinlik qiladilar. Lekin Ilon og'a va qiz o'z tadbirlari orqali

yalmog'iz kampirni yengib, murod-maqсадlariga yetadilar»¹².

Bu misollarda ayiq va ilonning yovvoyi hayvon sifatidagi belgisi emas, balki, totem tushunchasi ta'siridagi insonga homiylik qilish xususiyati yetakchilik qiladi. Ma'lum bo'ladiki, qadim zamonlarda totem hayvon sifatida e'zozlanuvchi jonivorlar ishtirok etgan ertaklar bu janrga mansub qadimiy asarlar sifatida baholanishi mumkin ekan.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning yana bir turini ulardagi belgilarni izohlashga atalgan asarlar tashkil etadi. Bunday ertaklarning yaratilishi go'yo qarg'aning nima uchun qora ekanini, kiyikning dumi nega to'mtoq ekanini yoki nima uchun musichaning ko'kragi chakichlangandek ko'rinishini izohlashga bag'ishlangan asarlarni eslatadi. Ular qatoriga «Kiyik bilan kadi», «Xo'roz bilan tulki» kabi namunalarni kiritish mumkin.

«Kadi kiyikni qo'rqitadi. Kiyik kadidan o'ch olmoqchi bo'ladi va uni dumiga bog'lab cho'ktiradi. Kadi kiyikni suv tagiga tortadi, kiyik-qirg'oqqa. Oxiri kiyikning dumi uzilib, to'mtoq bo'ladi. Kiyik dumi yo'qligini masxara qilgan barcha kiyiklarning dumini bir-biriga bog'lab, «mergan kelyapti», - deb qochadi. Dumi bog'liq kiyiklar turli tomonga qochadilar va dumlaridan judo bo'ladilar. Shunday qilib, kiyiklarning dumlari to'mtoq bo'lib qolgan». Ertak kiyiklar dumining kaltaligiga javob tariqasida paydo bo'lgan¹³.

Boshqa xalqlar og'zaki ijodidagi ertaklarda ham turli hayvon va boshqa jonzotlarning tashqi ko'rinishi, ularning xususiyatlari haqida ana shunday ertaklar yaratilgani ma'lum. Jumladan, yoqut, tuva, qirg'iz ertaklarida bunday holat alohida ko'zga tashlanadi. Taxmin qilishimiz mumkinki, dono xalqimiz bu ertaklarni yosh bolalar tomonidan takror va takror aytiladigan «nima uchun?» savollariga javob tarzda ermak qilib yaratgan.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning aksariyati bevosita bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda vujudga kelgan. Ularda bo'rining vahshiyliги, tulkinining ayyorligi, otning

¹² Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetikijodi. T., «O'qituvchi», 1990. 192-bet.

¹³ Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. T., «Fan» 1964. 25-bet.

insonga do'st ekani alohida bo'rttirib ko'rsatiladi. Ertaklardagi bunday xususiyat ko'proq ma'rifiy ahamiyatga ega bo'ladi. Biz bilamizki, yosh bolalar yovvoyi hayvonlarni faqat rasmlarda, hayvonot bog'larida ko'rganlar. Fikr yuritilayotgan asarlar bu hayvonlar haqida bola tasavvurini kengaytiradi, aniqroq ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. «Ikki boyqush», «Ilonning ishi zahar solmoq», «Qarg'a bilan qo'zi» kabi asarlar shular jumlasidandir. Hayvonlar haqidagi ertaklarning ayrimlari majoziy mazmunga egadir. Bunda ertaklarda ishtirok etadigan qahramonlar hayvon, qush bo'lsa ham, asar mazmuni bevosita insonlar o'rtasidagi munosabatni izohlashga qaratilgandir. Jumladan, do'stlikning inson hayotidagi ahamiyati, yaxshilikka hayotda hamisha ham yaxshilik qaytmasligi yoki aql- idrok vositasida har qanday mushkul vaziyatning yechimini topish mumkinligi aks ettiriladi. «Susambil», «Tulki bilan bo'ri», «Hiylagar bedana» ertaklari shular jumlasidandir. *Masalan*, birinchi marta tulki go'sht tishlab ketayotgan bo'riga qarata: «Bo'rivoy qayerdan kelyapsan», - deganda, bo'ri: «Popdan», - deb og'zidagi go'shtni tushirib yuboradi. Aynan shu voqea ikkinchi marta takrorlanganda bo'ri: «G'ijduvondan», - deb go'shtni og'zida saqlab qoladi. Kulgili vaziyat bilan yo'g'rilgan bunday ertaklarning zaminida insonlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlari o'z ifodasini topgan. Shunday qilib, hayvonlar haqidagi ertaklar asosan, xalqimiz tomonidan to'qimalar asosida yaratilgandir. Ertaklardagi hayvonlarning so'zlashuvlari ularni hayotiyashtiradi. Bu ertaklar ko'proq ma'rifiy maqsadni nazarda tutgan holda ijod qilingan. Ular qadim zamonlarda ham, hozirgi kunda ham yosh bolalarni hayvonlar olami bilan tanishtiruvchi ma'rifiy, tarbiyaviy asarlardir.

Sehrli ertaklar. O'zbek xalq ertaklarining salmoqli qismi sehrli ertaklardan iboratdir. Mashhur va taniqli folklorshunos olimlarning ta'kidlashicha, turli xalqlar ijodida uchraydigan ertaklar orasida eng bir-biriga o'xshash mazmunga ega ekani sehrli ertaklardir. Bunday ertaklarni, ko'pincha, asar qahramoniga nimaningdir yetishmasligi, qahramonning bu narsaga ega bo'lishi, qandaydir ishni taqiqlash, kuchli raqibning

mavjudligi, xavfli safarga chiqish kabi lavhalar birlashtirib turadi. Eng muhimi sehrli ertaklarda turli mo'jizalar, afsungarliklar, fantastik tasvirlar yetakchilik qiladi. Chunonchi, Hamid Olimjon «Oygul bilan Baxtiyor» dostonining boshlanishida aytgan: «o'zi uchar gilamlar», «o't bog'lagan qanotlar», «beqanot uchgan otlar», «qiz bo'lib ochilgan gul», «so'ylaguvchi devorlar», «bola bo'p qolgan chollar» kabi misralar aynan sehrli ertaklar ta'rifiga to'g'ri keladi.

Sehrli ertaklarda mifologik dunyoqarash belgilari alohida, aniq seziladi. Chunki uzoq qadim zamonlarda totem hisoblangan ilon, semurg' va fetish hisoblangan yer, quyosh, suv kabi tushunchalar an'ana bo'lib mazkur ertaklarga o'tgan. Natijada, «Semurg'», «Devbachcha», «Yalmog'iz», «Mehrigiyo», «Mohistara», «Ur to'qmoq» kabi namunalar xalq orasida ajdodlarimizning fantastik xayolga berilishi mahsuli sifatida shuhrat topdi. Avvalgi mavzularda qayd etganimizdek, televidenie, telefon, masofa orqali boshqariladigan qurilmalar, samolyot, avtomobillarning paydo bo'lishi ko'p jihatdan sehrli ertaklardagi orzular natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Sehrli ertaklar mavzularining xilma-xilligi bilan ham e'tiborni o'ziga jalb qiladi. Ularda turli sarguzashtlar, mo'jizaviy hayot tasviri, adolatning g'alaba qilishi, insoniy fazilat madhi keng o'rin olgan. Bunday asarlarda, ayniqsa, tasvir san'atlaridan mubolag'adan qayta-qayta foydalaniladi. Eng muhimi tinglovchi yoki kitobxon mubolag'alarning birontasiga shubha bilan qaramaydi. *Masalan*, «Mohistara» ertagida yugurayotgan kiyik oyog'i ostidan dur-u gavharlar sochiladi. «Ota vasiyati» ertagida tutatqi tutatilgani zahoti kenja o'g'il qarshisida anjomlangan ot paydo bo'ladi. Ammo bunday mo'jizalarning sodir bo'lishi hech kimda shubha uyg'otmaydi.

Sehrli ertaklarda tilsimli narsa - predmetlar haqida ham fikr yuritilgan. *Masalan*, daryoga aylangan oyna, changalzorga aylangan taroq kabi tasvirlarga keng o'rin beriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sehrli ertaklar xalqning nisbatan qadimgi ijod mahsulidir. Ularda inson xayoli naqadar cheksiz ekani namoyon bo'ladi. Shuningdek, ajdodlarimiz

turmush qiyinchiliklaridan tashvishga tushgan paytlarida bu asarlar ularga umid bag'ishlagan. Ularda kelajakka ishonch ruhini uyg'otgan. Mazkur ertaklarni so'z san'atining mukammal namunalari sifatida baholash uchun ham asos yetarlidir.

Maishiy ertaklar. O'zbek xalq ertaklari qatorida bevosita kundalik hayotda ro'y berayotgan voqealar asos qilib olingan ertaklar ham bor bo'lib, ular maishiy ertaklar atamasi bilan yuritiladi. Bunday ertaklarda amaliy harakatlar, insondagi chegaralangan jismoniy kuch, ilm va hunarga bo'lgan munosabat, shaxsning ma'naviy qiyofasi haqida hikoya qilinadi. Ko'pincha ro'y bergan adolatsizlikning oxir natijada mag'lubiyatga uchrashi, oqil va dono shaxsning baxtga erishuvi, haqoratlangan qizning yorug' yuz bilan hurmatga ega bo'lishi haqidagi voqea-hodisalar maishiy ertaklar mazmunini tashkil etadi. *Masalan*, «Uch og'a-ini botirlar» ertagidagi Kenja botir saroy g'iybati oqibatida nohaq jazolanadi. Ammo uning sabr, sadoqat bilan qilgan harakatlari o'zining ijobiy natijasini beradi. «Ozodachehra» ertagida Ozodachehra ne-ne malomatlarga qolmadi. Unga yovuz kuch ne-ne tuhmat toshlarini otmadi. Ammo uning chidam bilan adolatsizlikka dosh berishi oxiri yaxshilikka olib keldi. Qizig'i shundaki, maishiy ertaklarda tasvirlangan hodisalar har bir inson hayotida ro'y berishi mumkinligi bilan e'tiborni o'ziga tortadi. Maishiy ertaklarning muhim jihatlaridan biri ularda tarbiyaviy yo'nalishning aniq ifodalanishi bilan ham belgilanadi. *Masalan*, «Uch og'a-ini botirlar» ertagida mo'ysafid ota o'z o'g'illarini baquvvat qilib o'stiradi, ertak yoshlarda har qanday vaziyatda o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash va bu imkoniyatdan samarali foydalanish tuyg'usini shakllantiradi. Ota o'z farzandlarini safarga otlantirar ekan, yigit kishining hayotida zarur bo'lgan yana uchta maslahat beradi: «To'g'ri bo'ling, bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang, uyatga qolmaysiz. Dangasa bo'lmang, baxtsiz bo'lmaysiz». Agar ota tarbiyasining va maslahatlarining mohiyatini tahlil qilsak, ularda haqiqiy hayotga tayyor bo'lishi lozim insonning asosiy fazilatlari aks etganiga ishonch hosil qilamiz. Aslini olganda, ertakning to'liq matni uning

boshlanishida bayon etilgan nasihat va maslahatlar shartiga bag'ishlangan. Uch og'a-ini botirlar mard, jasur yigit bo'lishi bilan birga ziyrak inson ham edilar. Ularning biron xatti-harakatlarida biz kamchilik topa olmaymiz. Ammo shu bilan birga ular biron harakatni asossiz amalga oshirmaydilar ham. Bu ertakda oddiy xalqning tashvishsiz hayot kechirishga bo'lgan munosabati ham o'z ifodasini topgan. Shuning uchun uch og'a-ini botirlar podshoh saroyidagi halovatli hayotdan oddiy mehnat bilan turmush kechirishni afzal ko'radilar.

Maishiy ertaklarga ham, umuman, ertak janriga mansub bo'lgan sehrli tasvir va mubolag'a begona emas. *Masalan*, «Uch og'a-ini botirlar» ertagida aka-ukalarning sher, ajdar va qirq qaroqchi bilan olishuvida o'ziga xos g'ayritabiiy tasvir mavjuddir. Ammo bu tasvir «Uch og'a-ini botirlar» ertagining mazmunida alohida, muhim hal etuvchi ahamiyat kasb etmaydi. Agar sehrli ertaklardan afsun, mo'jiza, jodu, sehr belgilari olib tashlansa, bu asarlarning mazmun mohiyatiga katta zarar yetkazilgan bo'ladi. Ularning yaratilishidan nazarda tutilgan sehr amalga oshmay qoladi. Bu amallarni hayotiy- maishiy ertaklarda qo'llasak, asar mazmuniga keskin zarar yetmaydi. Sehrli va hayotiy ertaklar o'rtasidagi farq ham shundadir.

Shunday qilib, maishiy ertaklarda xalq ertaklarining boshqa turlaridan farqli ravishda oddiy hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqealar haqida ibratga loyiq hikoyalar o'rin oladi.

Maishiy ertaklarning qahramonlari millatimizning oddiy vakillaridan deyarli farq qilmaydi. Faqat ular o'zbekning ramziy farzandlari sifatida ertak ishtirokchilariga aylanadilar. Hayotiy ertaklar xalq farzandlariga imon, vijdon, erk, idrok, qanoat, aql- zakovat haqida tarbiyaviy tushunchalar berish bilan ahamiyatlidir.

Xalq ertaklarida bir qator umumiy xususiyatlar mavjuddir. Bu xususiyatlar ko'proq ertaklarda badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishida ko'zga tashlanadi. Xususan, ertaklar hamisha «bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda...» kabi jumla bilan boshlanadi va «murod maqsadlariga yetibdi» jumlasini bilan

yakunlanadi. Ertaklarda tasvirning ta'sirli chiqishi uchun go'zal qizlar yuzi o'n to'rt kunlik oyga o'xshatiladi. Yigitlar esa dunyoda tengi yo'q va jasur botirlarga qiyoslanadi. Bu janrga mansub asarlarda hamisha qilichlar keskir, dasturxonlar ochil, xumlar qaynama xususiyatlarga ega bo'ladilar. Ertaklarimiz o'xshatish, sifatlash va mubolag'alarga boy so'z san'ati namunasidir.

Ertak janri epik turg'a xos janr sifatida syujet kompozitsiyasi tarkibi mukammallik va izchillikni talab etadi. «Uch og'a-ini botirlar» ertagi ham ana shunday murakkab kompozitsiyaga ega asar. Ertakda qo'shaloqlashtirish usulida keltirilgan qoliplovchi hikoyalar epik turdagi asarlar nazariyasida sayyor syujetlar xususiyatini taraqqiy etishiga zamin bo'ldi.

Shunday qilib, o'zbek xalq ertaklari so'z san'atining epik janriga mansub bo'lib, shakl jihatidan, asosan, nasriy ko'rinishga egadir. Bu janr namunalarida xalq hayotining turli masalalari ibratli yechimi bilan o'z ifodasini topadi. O'zbek ertaklari hayvonlar haqida, sehrli, maishiy turlarga bo'linadi va ularning matn mazmunlari, ishtirok etadigan qahramonlari, hikoya qilinayotgan voqealarning bayon usuli, hayotni tasvirlash yo'llari bilan farqlanadi. Ertaklar o'zbek xalq madaniy merosining muhim namunalari hisoblanadi.

O'zbek milliy adabiyotida adabiy ertak janri. O'zbek adabiy ertaklari ijodkorlari xalq yaratgan ertaklaridagi syujet, motiv, obraz va badiiy tasvir vositalariga ko'r-ko'rona yondashmadilar, balki yozma adabiyot qonun-qoidalarini me'yoriga amal qilingan holda eng yuksak g'oyalarini ifodalovchi original adabiy ertaklar ijod etdilar. O'zbek adabiy ertaklarining nodir namunalari sifatida H. Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor», «Semurg'», «Jannat», Elbekning «Kapalak», «Kambag'al yigit», «Ochil dasturxon», «Erksiz folchi», «Go'zal qiz», Sh.Sa'dullaning «Ikki sandiq», «Tulki bilan Turna», «Ohangrabo», Muxtorning «Adolat», Q. Hikmatning «Ko'milgan oltin», «Vaysaqi xotin va tadbirkor ovchi», «Chovkar», «Ilonshoh va uning amaldori ari haqida ertak», Q. Muhammadiyning «Qo'ng'izboy bilan sichqonboy», «Chivin urishqoq bilan shamol botir», «Ayyor tulki va badnafs bo'ri», «Xan botir», Y.Qurbonning «Laylak bilan

qarg'a», «Eshak va tuya», «Xiyonat va jazo», «Haqqul bilan Alim», T. G'oyipovning «Qo'lsiz rassom», «Sirli qopqa», A. Obidjonning «Ikki ertak», T. Ubaydulloning «Muqaddas gul», M. Rahmonning «Hiyla», «Qora ko'ylak» va shunga o'xshash boshqa ko'plab asarlarni keltirish mumkin. Bulardan tashqari, «Guliston», «Saodat», «Mehnat va turmush», «Gulxan», «G'uncha» jurnallari va «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Toshkent oqshomi» kabi gazetalarida adabiy ertaklar tez-tez chop etilishi ushbu janrga bo'lgan qiziqishni ifodalaydi.

Jahon xalqlari orasida ertak ijod qilmagan biror bir xalqni uchratish qiyin. Folklorning bu janri insoniyat yaratgan eng qadimgi so'z san'atlaridan biridir. Hali yozuv, badiiy adabiyot so'z san'ati vujudga kelmagan kishilikning urug'chilik jamiyati davrlaridayoq inson atrof-muhit, real borliqqa nisbatan munosabatlarini. Eng yuksak ezgu-maqсадlarini ertaklar vositasida aks ettira boshlagan.

Xalq ertaklarining yozma adabiyotga ta'siri, shubhasiz, katta ahamiyat kasb etib kelgan. Xususan, xalq ertaklarining badiiy so'z san'atidagi roman janridan kichik hikoya janrigacha, dostondan oddiy to'rtlik she'rgacha bo'lgan ta'siri to'g'risida adabiyotshunoslik va folklorshunoslik sohalarida yuzlab tadqiqotlar yaratildi. Xalq ertaklari, birinchidan, folklorning boshqa janrlari, xususan, yirik epik asarlar shakllanishi, ikkinchidan, yozma adabiyotning rivojida muhim rol o'ynagan manba hisoblanadi.

Xalq ertaklari folklorning boshqa janrlari singari umumjahon yozma adabiyotining shakllanishi va rivojida muhim rol o'ynagan manbalardan biridir.

Chunonchi, novella, ballada, poema, masal kabi janrlarning shakllanish manbalarini tadqiqotchilar xalq ertaklari an'analari bilan bog'lab talqin etadilar¹⁴. Xalq ertaklarining yozma adabiyotga ta'sirini ko'rsatishda adabiy ertak janri yorqin misol

¹⁴ Шайкин. Сказка и навелла. Автороф. канд. Дисс. Алма-ата, 1974; Иброҳимов М. Ўзбек балладаси. "Фан". Тошкент, 1974. Гаспаров М. Л. Античная литературная басня. Изд-во. "Наука". М., 1971. Холматов Ш. "Масал жанри ҳақида". "Ўзбек тили ва адабиёти". 1966. №8. Т. Абдуқулов. Болалар поэмачилигининг тараққиёт тенденциялари. "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали. 1976. №5

bo'la oladi.

Adabiy ertak janri yozma adabiyotning boshqa janrlari kabi zamon va makon mohiyatini adabiy estetik prinsiplarida badiiy aks ettirishi bilan rivojlanib bormoqda.

Xalq ertaklaridan yozma adabiyot vakillarining ta'sirini o'rganishi masalasida ikki usul yaqqol ko'zga tashlanadi:

1. Yozma adabiyot vakili o'z asarida xalq ertaklarining ayrim motiv, obrazlari va detallaridangina foydalanadi, ularni o'z maqsadiga mos ravishda ijodiy o'zlashtiradi. Bunday asarlarda folklor an'analari sezilib tursa-da, ijodkor qaysi ertaklardan foydalanganligi murakkab bo'lib, bu tip asarlariga Alisher Navoiy, Lutfiy, Bobur, Gulxaniy kabilarning ijodidagi bolalar kitobxonligiga oid namunalarini ko'rsatish mumkin.

2. Yozma adabiyot vakili o'z asarini xalq ertaklari uslubida yaratadi va xalq ertaklariga xos badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi. XX asrning 30-yillari oxirlarida yaratilgan barcha adabiy ertaklar bu tipga misol bo'la oladi. Ko'pgina o'zbek adabiyotida bolalar uchun yaratilgan adabiy ertaklar folklor va yozma adabiyot munosabatining eng yuksak ko'rinishi deyilsa, xato bo'lmaydi.

XIX asrning oxirgi yillariga qadar davr o'zbek folklori va yozma adabiyoti bir-biri bilan uzviy bog'liq holda hayotni badiiy- romanik real aks ettiribgina qolmay, balki biri-ikkinchisining rivojlanishi, yangi shakl va yangi mazmun bilan boyishiga yordam berdi. Chunonchi, mumtoz o'zbek adabiyotining rivojida yuqori bosqich bo'lgan XV asrlardayoq folklor, xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lmish ertaklar, afsonalar va rivoyatlar ta'sirida xalqchil shoirlar va ijodkorlar yirik epik asarlar va gumanizm bilan sug'orilgan lirik manzuma asarlar yaratdilar. Bundan tashqari, xalq og'zaki ijodi jonkuyarlari xalq baxshilari, ayrim iste'dodli kishilar ertaklar ta'sirida baxshiyonalar yozdilar. Bunday hodisa folklorshunoslik ilmida «xalq kitoblari» degan atama bilan nomlanadi.

Xalq kitoblarining vujudga kelishi folklor bilan yozma adabiyotning bir-biriga ijodiy ta'siri ikki yo'nalishda namoyon

bo'lganini isbotlaydi.¹⁵ Xalq ommasi ijodkorligi bilan yozma adabiyot o'rtasidagi o'zaro bog'lanishning badiiy namunalarini «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Tohir va Zuhra» kabi xalq kitoblari misolida ko'rish mumkin. Folklor an'alaridan bahramand bo'lgan Alisher Navoiy o'z navbatida g'oyaviy-badiiy yuksak dostonlari bilan xalq ijodiyotiga ham ta'sir ko'rsatdi. «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» dostonlarini xalq kitoblari tarzida Umar Boqiy tomonidan (XVIII-XIX asrlar) qayta ishlangan variantlarini tekshirgan folklorshunos olim Mansur Afzalov «Farhod va Shirin» dostoni syujeti bir necha asrlar davomida xalq og'zida kuylab kelinadi. Chunki bu kitoblar mehnatkash ommaning asrlar davomidagi orzu-umidi, erkin hayot, tinch mehnat, baxtiyorlik, Vatan mudofaasi va suv uchun kurash kabi masalalarni ifoda etib kelgan. Shuning uchun bu doston xalq ijodkorlari repertuaridan ham mustahkam o'rin olgan,¹⁷ deb ta'kidlaydi.

Xalq ertaklaridan ijodiy bahramand bo'lib, yirik polotnodagi asarlar yaratish an'anasi o'zbek adabiyotining rivoji uchun an'analardan biri hisoblanadi. Navoiy ijodi esa buning yorqin dalilidir. Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotida poeziya yetakchi rol o'ynaydi. Klassik shoirlar Yevropada urf bo'lgan ertaklar yaratish an'anasi yo'qligi tufayli o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari xalq ertakchilik an'alariga xos eng muhim motiv va elementlarni romanik dostonlariga organik singdirib yuborgan edilar.

Xalq og'zaki ijodidagi miflardan keyingi bosqichda afsonalar, diniy qo'shiqlar va, nihoyat, inson turmush kechinmalarini badiiy ramz, timsollar bilan ifodalovchi xalq ertaklari va marosim folklorning paydo bo'lishi, badiiy yozma adabiyot san'ati rivoji bilan imkoniyat vujudga kelgan edi.

Badiiy adabiyotning asosiy manbasi bo'lgan folklor yozma adabiyotning doimiy ijodiy oziqlanish vositasidir. Shuning uchun har qanday yozma adabiyot, avvalo, miflar, ertaklar, marosimlar poeziyasi ta'sirida shakllangani va rivojlangani tabiiydir. Uning yorqin isboti sifatida qadimgi grek adabiyotini

¹⁵ В. М. Жирмунский. Х. Т. Зарипов. Узбекский народной героической эпос. М., 1947. Стр. 297.

ko'rsatish mumkin¹⁶.

Shuning uchun yozma adabiyot ham shakllangan davrdan uzoq paytgacha qahramonlarni ideallashtirishda folklor yo'lidan bordi. Misol uchun Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonini ko'rsatish mumkin. «Saddi Iskandariy» dostonini yaratishda shoir xalq orasida mavjud bo'lgan «Iskandar Zulqarnayn», «Shoxli Iskandar»¹⁷ va «Doro bilan Iskandar»¹⁸ ertaklari motivlariga e'tibor bergan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Chunki, xalq orasida Aleksandr Makedonskiy nomi bilan bog'liq turli mazmundagi afsona, rivoyat va ertaklar mavjud.

O'zbek xalq ertaklarida biridan ikkinchisiga ko'chib yuruvchi barqaror formulalar, badiiy tasvir vositalari adabiy ertaklar yoki mumtoz adabiyotimizda yaratilgan dostonlarda ham mavjuddir. Yozma adabiyotning muayyan jamiyatning asosiy g'oyaviy maqsadni ifoda etish imkoniyatlari folklor asarlariga qaraganda ajralib turuvchi xususiyatga ega bo'lganligi tufayli xalq ertaklari ta'sirida yuzaga kelgan asarlar muallifi ertakchiligi an'analaridan foydalanganida yozma adabiyot qonun-qoidalari mezoniga qat'iy amal qiladi. Chunonchi, xalq ertaklarining ekspozitsiyasida qo'llaniluvchi vaqt, o'rin-joy, hamda makonni ifoda etuvchi initsial formulalar adabiy ertaklarda har doim ishlatilavermaydi. Masalan, ertakka xos medial formula qahramonga aloqador predmet, harakatlar va syujet voqealari rivoji, kulminatsiyasi, nihoyat, xotimasida ishlatilgan.

«Layli va Majnun» dostonida Majnunning sahroda uzoq yo'l yurishi, hayvonlar bilan do'stlashishi, savdogarlar bilan uchrashuvi, Navfal bilan munosabatlari kabi epizodlar ertaklardagi «Ular ko'p yurdi, yo'l yursada mo'l yurdi, suvsiz aro cho'l yurdi», «Qahramon kecha- yu kunduz yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, cho'lma-cho'l, tog'ma-tog' yurib, oxiri bir baland toqqa yetib kelibdi.» («Qahramon ertagi») kabi tashqi medial formulalarga o'xshab ketadi. Chunonchi, Navoiy ijodiga faqat o'zbek folklororigina emas, balki sharq

¹⁶ Қаранг: “Фарход ва Ширий”(достон) “Фан” Т., 1966 йил, 5-бет.

¹⁷ Алимухамедов А. Антик адабиёт тарихи, Тошкент. Ўқитувчи, 1969.

¹⁸ Ўзбек халқ эртаклари. Ўз.адабий нашр, 2 том, Т., 1964.

xalqlari, xususan. Eron, arab, hind ertaklari ham ta'sir etgan. Sehrli fantastik ertaklardagi qahramonning tug'ilishi, voyaga yetishini tasvirlovchi barqaror formulalar «Farhod va Shirin» dostonidagi Farhod obrazining yuzaga kelishi uchun ta'sir ko'rsatgan. Fikrni yana asoslashda o'yidagi misolni keltirish mumkin. Navoiy ham xalq ertaklaridagi kabi qahramon va uning raqibi, qahramon va mifodemonik personajlar (devlar, ajdaholar, parilar va h.k.) o'rtasidagi kurashni falaklarga monand formulalar orqali tasvirlaydi. (Farhodning sarguzashti bilan bog'liq epizodlarni eslaylik). Xalq ertaklariga xos bunday formulalarning Navoiy dostonlarida ishlatilishi shoirning dostonlari kelgusi avlod uchun muhim san'at asariga aylanib qolishida muhim rol o'ynaydi. Yozma adabiyotning xalq og'zaki ijodi bilan genetik aloqasi o'zbek mumtoz taraqqiyoti uchun ham xos bo'lib, bu an'analar Navoiydan keyingi davr badiiy adabiyot san'atida davom etib, yangi davr, o'zbek milliy istiqloli ham holat yangicha yashab kelayotir.

Adabiy ertak janrining ilk shakllari o'tmish adabiyotimizda Navoiy, Lutfiy, Bobur, Rabg'uziy, Poshshaxo'ja, Gulxaniy, Yaqiniy va boshqa ijodkorlar yaratgan dostonlar, hikoyatlar, nomalar shaklida yetib keldi. O'zbek milliy adabiyotida yaratilgan adabiy ertak ko'rinishiga monand asarlarni uch guruhga ajratish mumkin:

a) Axloqiy-didaktik adabiy ertaklar; (Rabg'uziy va Poshshaxo'ja ertaklari)

b) Ijtimoiy-falsafiy adabiy ertaklar; (Navoiyning «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai Sayyor», «Saddi Iskandariy», «Lison-ut-tayr» asarlari).

v) Maqol-ertaklar (Gulxaniyning «Zarbulmasal», Yaqiniyning

«Sozlar munozarasi», Hamzaning «Toshbaqa bilan chayon» kabi asarlari).

Mumtoz adabiyotga xalq ertaklari ta'siri munosabatlari masalasi alohida o'rganilishi kerak bo'lgan ilmiy mavzu bo'lgani sababli biz xalq ertaklarining adabiy jarayoni munosabati tarixini Alisher Navoiy ijodidagi ayrim asarlar yordamida eslatib

oʻtdik, xolos. Chunki adabiy ertak janri oʻzbek adabiyotida tasodifiy yoki sunʼiy holda birdaniga paydo boʻlib qolgan hodisa emasligi, u hozirgi kunga qadar formal jihatdan doston yoki boshqa janrlar tarkibida yashab kelganligini asoslashdan iboratdir. Oʻtmishda yaratilgan xalqchil madaniy merosga nisbatan izchil munosabat va hayotdagi ijtimoiy- madaniy taraqqiyot yozma adabiyotda turli janrlarning rivojlanishi uchun imkoniyatlar berdi. Oʻzbek adabiyotidagi adabiy ertak janri ana shunday evolyutsion oʻzgarishlar jarayoni mahsuli sifatida toʻla shakllandi va ayni chogʻda bolalar adabiyotining ommaviy janriga aylandi.

Xalq ertaklarining soʻz sanʼatkorlari ijodiga organik jihatdan taʼsir etishi qonuniy holdir. Buni oʻzbek adabiyotining H.H.Niyoziy, Fitrat, Choʻlpon, A. Qodiriy, A. Avloniy, M. Soʻfizoda singari milliy uygʻonish davri vakillari va ulardan keyin adabiyotimiz shon- shuhratini olamga yoygan H. Olimjon, G. Gʻulom, Oybek, A. Qahhor, Uygʻun, M. Shayxzoda, Mirtemir, K. Yashin kabilar, shuningdek, ikkinchi jahon urushidan keyingi faoliyatini xalq ogʻzaki ijodi taʼsisiz tasavvur etib boʻlmaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ertak janrini folklorning oʻziga xos xususiyatlariga koʻra tahlil qiling.
2. Ertaklarda qoʻshaloqlashtirish usuli va uning badiiy adabiyotdagi oʻrni.
3. Oʻzingiz yashaydigan hududdagi qariyalardan ertaklar yozib oling. Ularni qaysi ertaklar turiga mansub ekanligini belgilang.
4. Ertak janrida sinkretiklik qanday namoyon boʻladi?

Mustaqil oʻqish uchun adabiyotlar:

1. “Oʻzbek xalq ijodi yodgorliklari”. **17-jild: “Suv qizi”** (sehrli ertaklari). Tuzuvchi va soʻzboshi muallifi M.Joʻrayev. Masʼul muharrir T.Mirzayev. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 2019. – 444 b.
2. “Oʻzbek xalq ijodi yodgorliklari”. **18-jild: “Tirnogʻi**

tilla qiz” (sehrli ertaklar). Tuzuvchi va so‘zboshi muallifi M.Jo‘rayev. Mas‘ul muharrir Sh.Turdimov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2020.– 438 b.

3. “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari”. **19-jild: “Sumbul qush”** (sehrli eortaklar). Tuzuvchi va so‘zboshi muallifi M.Jo‘rayev. Mas‘ul muharrir: Z.Rasulova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2020. – 420 b.

4. Yusupov J. Xorazm ertagi va hayot haqiqati. T.: «Fan», 1997. Afzalov M. I., O‘zbek xalq ertaklari haqida. T., «Fan». 1964.

5. Yusupov J. Xorazm ertagi va hayot haqiqati. T., «Fan». Oltin olma. Hayotiy ertaklar. Birinchi kitob. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1966.

6. Oyjamol. Hayotiy ertaklar. Ikkinchi kitob. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1969.

7. Gulpari. Namangan ertaklari. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1969.

8. Kulsa – gul, yig‘lasa – dur. Ertaklar. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983.

9. Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T., 2011.

10. O.Madayev, M. Jo‘rayev, T.Sabitova, N.Muxitdinova O‘zbek folklori. Darslik. T. 2022. "ZEBO PRINT". 2022.

11. Sabitova T. O‘zbek xalq dostonlarining nazariy asoslari va badiiyati. Monografiya. T. "FIRDAVS SHOH", 2022.

11-mavzu: Mehnat qo'shiqlari va termalar

1. Xalq qo'shiqlari va ularning turlari haqida ma'lumot.
2. Mehnat qo'shiqlari (qo'shchi qo'shig'i, o'rim qo'shig'i, "Xo'p-hayda" qo'shig'i, yorg'ichoq qo'shig'i, sog'im qo'shig'i, hunarmandchilik qo'shig'i).
3. Mavsum-marosim va urf-odat qo'shiqlari (alla, "Sust xotin", lapar, o'lan, yig'i-yo'qlovlar, termalar).
4. Qo'shiqlarda ramzlar.

Tayanch iboralar: Janrlar tasnifi, qo'shiqlar va ularning turlari, mehnat, mavsum, marosim qo'shiqlari.

Darsning maqsadi. O'zbek xalq og'zaki ijodi janrlari va xalq qo'shiqlari haqida talabalarga ma'lumot berish.

Darsning vositalari. Ko'rgazmali, audial, vizual o'quv qurollari.

Darsning metodi. An'anaviy ma'ruza, suhbat, aqliy hujum, qisqa test savollari.

Darsning mazmuni. Badiiy adabiyotda bo'lganidek, folklor asarlari ham tuzilishi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlarga ko'ra o'zaro o'xshash hamda farqli tomonlarga ega bo'lib, muayyan guruhlarini tashkil etadilar. Bunday farqli va o'xshash tomonlarni ko'rsatish uchun fanda adabiy turlar va janrlar terminlari qo'llaniladi. Adabiy tur va janrlar hayotni badiiy tasvirlash shakli sifatida tarixan shakllangan bo'lib, ularning paydo bo'lishi, taraqqiyoti, o'rin almashishi va inqirozi adabiyot va folklor tarixida yetakchi jarayon hisoblanadi.

Inson kayfiyati hayotdagi vaziyatlar ta'sirida o'zgarib turadi. Ob-havo, ona tabiatdagi fasl o'zgarishlari, oiladagi munosabatlar, do'stlarning totuvligi, hatto, notanish odamning bir og'iz so'zi sizning kayfiyatingizni ko'taradi yoki tushiradi. Xursand bo'lgan paytingizda sho'x qo'shiq aytgingiz, raqsga tushgingiz keladi. Noxush damlarda ko'proq jim turib xayol surishni ma'qul ko'rasiz. Bunday daqiqalarda mungli kuy ham sizga tasalli beradi, og'iringizni biroz yengil qilganday bo'ladi. Ana shunday holat bizning qalbimizda lirik kechinmalarning

paydo bo'lishi uchun zamin tayyorlaydi: qo'shiq yaratishga sabab bo'ladi. Haqiqiy she'r faqat chuqur ehtiroslar, favqulodda ro'y bergan va inson ruhiga ta'sir ko'rsatgan turmush lavhalari orqali yaratiladi. Bu asarlar ichki kechinmalarga boy bo'ladi. Shuning uchun ular she'riy yoki nasriy shaklda yozilishidan qat'i nazar lirika namunasi deb ataladi. Shunday qilib, atrofda ro'y berayotgan voqea-hodisaga nisbatan ichki his-tuyg'ular vositasida munosabat bildirilgan asarlar lirika atamasi bilan yuritiladi. Bu so'z aslida, «lira» – yunonistondagi qadimiy musiqa asbob nomidan olingan bo'lib, his- tuyg'u, ichki hayajon bilan bog'liqlik ramzi sifatida tushunilgan.

Xalq og'zaki ijodidagi qo'shiqlar ham lirik asarlardir. Chunki ularda insonning ichki his-tuyg'ulari, kechinmalari aks etadi.

Qo'shiq Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» (1074) asarida «qo'shug'» shaklida uchraydi va she'r, qasida (biron kimsa yoki narsaga atalgan she'r) ma'nosini anglatadi.

Qadim zamonlarda «shlok», «takshut», «ir» (yir), «kug» kabi atamalarning ham nazm, she'r, ya'ni ma'lum darajada qo'shiq janriga aloqasi bo'lgan.

Qo'shiq haqida ma'lumot berilgan hamma adabiyotlarda uning

«qo'shmoq» fe'lidan hosil bo'lgani aytiladi. Qo'shiq atamasining kelib chiqishi qanchayin sodda tuyulmasin, og'zaki ijodimizdagi bu janr juda murakkab ruhiy kechinmalarni ifodalashga xizmat qiladi. Qo'shiqning janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Unda inson kechinmalari, quvonch va iztiroblari, qalb so'zlari aks etadi.

2. Qo'shiq shaklan she'riy tarzda bo'ladi. O'zbek xalq qo'shiqlari, asosan, barmoq vaznida, ba'zan aruzda yaratiladi.

3. Ko'pincha, xalq qo'shiqlari to'rt misradan iborat bo'lib, tugal ruhiy holatni ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, bir necha bandlardan iborat biron mavzuga bag'ishlangan qo'shiqlar ham bo'lishi mumkin. Ayni choqda 6,8 misrali namunalar ham uchraydi. Ular (a-b-a-b) yoki (a-a, b-b,

v-v, g-g); to'rt misralilar esa (a-a-a-b); (a-b-a-b), (a-a-a-a); (a-a-b-b) va boshqacha ko'rinishda qofiyalanadi.

4. Qo'shiqning kuyi bo'ladi va ana shu kuy jo'rligida ijro etiladi.

Qo'shiqlarimiz tarixiga bir nazar

Xalq qo'shiqlari uzoq tarixga ega. Chunonchi, turkiy xalqlar og'zaki ijodida, hatto, eramizdan avval ham qo'shiq janriga mansub asarlar borligi ma'lum. Nisbatan keyingi namunalar esa Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asaridan ham o'rin olgan. Mahmud Koshg'ariy yozib olgan qo'shiqlar, asosan, mehnat (ov) qo'shiqlari, qahramonlik, mavsum-marosim va lirik asarlardan iborat. *Masalan,*

*Yigitlarig ishlatu,
Yig'ach yamish irg'atu,
Qulan, kiyik avlatu,
Bazram qilib avnalim.
Mazmuni:*

*Yigitlarni ishlataylik, Daraxt(lar)dan meva(lar)ni
qoqtiraylik, Qulon, kiyik ovlataylik, (So'ng) bayram qilib
quvnaylik.*

Bu qo'shiqda ajdodlarimizning mehnat jarayoniga bo'lgan munosabati aks etgan. Bir ko'rinishda qo'shiqchi ro'y berayotgan voqealarni bayon qilayotganga, daraxtlardagi mevalarni qoqib yig'ish, qulon, kiyikni ovlash harakatini tasvirlayotganga o'xshaydi. Ammo e'tibor bilan she'r matni mazmunini his qilsak, unda ro'y berishi lozim hodisaga munosabat yetakchi ekanini sezamiz. Jumladan, qo'shiq matnida jamoa bo'lib mehnat qilishga, har bir ishni ko'tarinki ruhda bajarishga, mehnat samarasidan bahramand bo'lishga chaqiriq aniq bilinib turibdi. Shuning uchun ham to'rtlikni lirika namunasi sifatida baholashimiz, mazmunan esa mehnat qo'shiqlari qatoriga qo'shishimiz mumkin. Keyingi to'rtlikka murojaat qilaylik:

*Takra olib akuralim,
Atgin tushib yukaralim,
Arslanlayu kukaralim,
Kuchi anin kavulsin.
Mazmuni:*

*(Dushman) atrofini o'rab, qamal qilamiz, Otdan tushib
yuguramiz, Arslondek na'ra tortamiz, Uning kuchini quritamiz.*

To'rtlikda qadimgi turkiy xalqlar vakillarining dushman ustidan g'alaba qozonish rejasi aks etgan. Bizningcha, bor- yo'g'i shu to'rt misrada uchta harbiy usul ifodalangan. Birinchidan, dushman qo'shinini qamal holida tor-mor qilish, ikkinchidan, otdan tushib ovoz chiqarmay hujumni uyushtirish va, uchinchidan, raqibni ruhiyatiga ta'sir qilgan holda na'ra tortib talvasaga solish. Ammo bu reja ham voqeaning oddiy bayoni tarzida emas, emotsional ko'tarinki ruhiy vaziyatda ifodalangan. Shu bilan birga misralardagi mazmun endi oddiy kundalik mehnatni emas, jang sharoitini anglatmoqda.

*Endi quyidagi to'rtlikka e'tibor bering:
Yoy qish bilan qarishti,
Ardam yosin qurishti,
Chirik tutub ko'rishti,
O'qtag'ali o'trushur.*

Mazmuni:

Yoz qish bilan qarama-qarshi bo'lishdi, (ularning har biri) maqtanish yoyini qurishdi, Qo'shin tuzib (bir-birini) ta'qib qilishdi, (Yoy) otish uchun (bir-biriga) yaqinlashdi.

Yuqoridagi misolda Mahmud Koshg'ariy har yili tabiatda bo'lib o'tadigan manzara haqidagi qo'shiq namunasini keltiradi. Yil fasllaridagi o'zgarishlar hozirgi paytlardagidek odamlarni loqayd qoldirmagan. Yoz o'z fazilatlarini, qish esa o'z ijobiy tomonlarini birma-bir sanab o'tishga tayyor. Agar yozning otgan o'qida aholining issiq kunlarda yayrash, ekin ishlari bilan shug'ullanishi, rizq-ro'z jamlash faoliyatlari qayd etilsa,

qish o'z navbatida o'zi hukmron bo'lgan davrda qirg'in-barot urushlarning to'xtashini ta'kidlab o'q otadi. Har ikki faslning ijobiy va salbiy tomonlari tilga olinadi.

Muhimi shundaki, «Devoni lug'otit turk»da mavsumiy qo'shiqlar bilan bir qatorda marosim bilan bog'liq lirik parchalar ham o'rin olgan. Xususan, olim aza marosimida aytiladigan qo'shiqlardan namunalar keltiradi:

*Ulishib eran bo'rlayu,
Yirtin yaqa urlayu,
Siqrib uni yurlayu,
Sig'tab ko'zi o'rtilur.*

Mazmuni:

*Mardlar yig'lab, bo'ridek uvlashdilar, Yoqalarini yirtib
baqirishdilar, Faryod chekdilar, Qattiq yig'idan ko'zlari xiralashib,
(go'yo) parda bosdi.*

Keltirilgan qo'shiqda Sug'd elining botir farzandi Alp Er

To'nga (Afrosiyob) o'limidan keyingi voqealar haqidagi his-tuyg'ular o'z ifodasini topgan. Agar bu jasur va mard o'g'lonning eramizdan avval yashab o'tgan Iskandar Makedonskiyga qarshi kurashib yurtini himoya qilganini nazarda tutsak, mazkur qo'shiqlarning tarixi, taxminan, ikki ming yildan ziyod ekani, ayni chog'da marosim qo'shiqlari ham boshqa mazmundagi qo'shiqlar singari uzoq o'tmishga egaligi ma'lum bo'ladi. Xalq marosimlari qatoridan to'ylar ham hamisha yetakchi o'rin egallagan edi. El-yurt bor ekan, jamoa bo'lib yashash bor ekan, to'y qilish odati ham bo'ladi. Xalq bu marosimni o'tkazishga katta tayyorgarlik ko'rgan. Chunki to'y har bir insonning hayotida juda muhim hisoblangan tarixiy lavhalardan, kelgusi umidlardan tashkil topadi. Tabiiyki, shuning uchun ham to'y marosimi o'yin- kulgilar, raqslar, teatrlashtirilgan sahnalardan iboratdir. Ularning asosini o'lan aytishlar, yor-yorlar tashkil etadi. Mumtoz adabiyotimiz vakillarining badiiy ijodiga nazar tashlasak, ba'zan o'sha asarlardan namunalar uchraganiga guvoh bo'lamiz. *Masalan*, Alisher Navoiy «Xamsa»ning beshinchi

dostoni «Saddi Iskandariy»da Iskandarning uylanish to'yida o'lan aytish va yor-yor kuylash bilan tomoshalar ko'rsatilganini ta'kidlaydi:

*Mug'anniy tuzub chinga vaznida chang,
Navo chekki, hay-hay o'lang, jon o'lang!
Desang senki: jon qardoshim yor-yor!
Men aytayki, munglug' boshim yor-yor!*

Albatta, biz o'tmishda o'lan aytishlar, yor-yorlar qaysi kuyda ijro etilganini, qay yo'sinda amalga oshirilganini bilmaymiz. Ammo Alisher Navoiy keltirgan shugina misoldan hozirgi o'lanlar va yor- yorlar ham juda uzoq tarixga ega san'at namunalari ekanini tasavvur qilishimiz mumkin.

Albatta, qadimgi xalq qo'shiqlarining ham eng go'zal namunalari ishq-muhabbat mavzusi aks etgan lirik qo'shiqlardan iborat. Chunki ularda yetakchi maqsad inson tabiatidagi abadiy fazilat hisoblanmish muhabbat tuyg'usini ifodalash bilan uyg'unlashgandir. Insoniyat tarixida ajdoddan keyin avlod dunyoga keladi. Zamonlar o'tadi. Hayot rivoj topadi. Ota o'rnida farzand turmush chambaragini aylantiradi. Ammo har bir avlod vakili muhabbat tuyg'usini o'zicha boshidan kechiradi. Bu tuyg'u inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish jihatdan zamon o'zgarishi qoidalariga bo'ysunmaydi. Ehtimol, shuning uchun Mahmud Koshg'ariy bundan ming yil oldin yozib olgan ishqiy mavzudagi lirik qo'shiq kuni kecha qaysidir tumanda yosh yigit kuylagandek tasavvur uyg'otadi:

*Bulnar meni ulas ko'z
Qara mengiz, qizil yuz,
Andin tomar tukaltuz,
Bulnap yana o'l qochar.*

Mazmuni:

Bu mas ko'zli (sevgilim), Qora xoli va qizil yuzi bilan (meni asir qildi). Yonoqlaridan shirinlik tomib, meni asir qildi-yu, Lekin

keyinidan (tutqich bermay), mendan qochib ketadi.

Xalq qo'shiqlarining lirik turlari zamon o'tishi bilan boshqa mavzudagilardan kam o'zgarishlarga duch keladi. Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonida keltirgan quyidagi parchaga e'tibor qiling:

Mengizlari gul-gul, mijjalari xor, Qaboqlari keng-keng, og'izlari tor.

Bizningcha, buyuk shoirimiz bu parchani bevosita xalq og'zaki ijodiga mansub qo'shiqdan olgan yoki juda bo'lmaganda o'sha qo'shiqqa mos holda ijod qilgan.

Shunday qilib, qadimgi qo'shiqlar mazmun jihatdan turli mavzularni o'zida aks ettiradi. Bu namunalar til jihatdan bugungi kundagilardan farq qilishiga qaramay, shaklan hozirgi qo'shiqlarga o'xshashdir. Ularning hammasini inson ichki kechinmalarini ifodalash xususiyati birlashtirib turadi. Chunki bu lirik asarlarda bevosita hayotda ro'y berayotgan hodisa emas, balki ana shu hodisaga his-tuyg'ular orqali munosabat bildirish yetakchidir. To'la ishonch bilan aytish mumkinki, o'zbek xalq qo'shiqlarining bugungi kunda el orasida ijro etilayotgan namunalari asosini qadimgi zamonlarda omma orasida yashagan qo'shiqlar tashkil etadi. Va nihoyat, qo'shiq xalqimizning quvonchli va tashvishli kunlarida, mehnat qilish jarayonida unga hamisha hamroh bo'lgan. Binobarin, xalq qo'shiqlarini millatimiz tarixining go'zal kuzatuvchilari deyishimiz mumkin.

Qo'shiqlar tasnifi

Hozirgi paytda ham qo'shiqlar xalq hayotiga hamrohdir. Ularda mehnat, tarixiy voqealarga munosabat, mavsum-marosimdagi urf odatlar, qolaversa, yosh yigit-qizlarning ishqiylar kechinmalari o'z ifodasini topadi. Shu jihatdan xalq qo'shiqlarimizni quyidagi turlarga bo'lib o'rganishimiz va tahlil qilishimiz mumkin:

1. Mehnat qo'shiqlari.
2. Mavsum-marosim qo'shiqlari.
3. Lirik (ishqiylar) qo'shiqlar.
4. Tarixiy qo'shiqlar.

Mehnat qo'shiqlari. Boshqa xalqlarda bo'lgani kabi mehnat jaryonini o'zida ifodalashi bilan mashhur. Ma'lumki, o'zbek xalqi asrlardan buyon dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib keladi. Mehnat esa o'ziga yarasha tashvishdan, irodalilikni namoyish qilishdan, ba'zan insonning o'zini majburlashidan iborat bo'ladi. Ayniqsa, kun davomida doimiy ravishda bir xil zerikarli harakat qilish odamni toliqtiradi, qilinayotgan ishni to'xtatmagan holda ovunish choralari topishga majbur qiladi. Ana shunday damlarda eng samarali yechim qo'shiq aytishdan iborat bo'ladi. Tanob-tanob yerga don sochish yoki bug'doy o'rish, chelak-chelak sut sog'ish, metr-metr gilam to'qish faqat aytishga oson. Aslida bu ishlar dehqon, sut sog'uvchi, gilam to'quvchidan katta jismoniy kuch va malaka talab qiladi. Shuning uchun ajdodlarimiz har bir ishni qo'shiq bilan bajarib ham mehnatning samarali bo'lishini, ham qilinayotgan ishni zerikmasdan bajarish yo'lini o'ylab topganlar. Xalqimiz orasida yashab kelayotgan mehnat qo'shiqlari bajariladigan ish sohalariga qarab uch xil bo'ladi:

1. Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari.
2. Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari.
3. Kasb-hunar bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari

Ajdodlarimiz madaniyati merosi bo'lmish «Avesto»da shunday parcha bor:

«Zardusht iloh» Ahura Mazdadan so'radi:

Ey Ahura Mazda! Zaminni hammadan ham baxtiyor qiluvchi zot kim?

Ahura Mazda javob berdi:

Ey Zardusht! Kimki uni yaxshilab haydasa va ziroatga tayyorlasa!..

Ey Zardusht! Kimki g'alla eksa, u haqiqatni ekadi...»¹⁹

Demak, ota-bobolarimiz yer yuzidagi eng qadim zamonlardan buyon dehqonchilik bilan shug'ullanib kelayotgan xalq ekan. Dehqonchilik bilan shug'ullanish esa ijtimoiy hayotning ma'lum pog'ona bosqichlari bosib o'tilgandan keyin paydo bo'ladi. Demak, bizning ajdodlarimiz o'sha paytlarda

¹⁹ Mahmudov T. «Avesto» haqida. «Guliston» jurnali, 1999 yil, 4-son, 24-bet.

ham madaniyat o'chog'iga aylangan hududlarda yashaganlar va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Ehtimol, shuning uchun ham Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asarida bog'dan mevalar terish haqidagi qo'shiqlar uchraydi. Xalq og'zaki ijodi asarlarini to'plash ekspeditsiyalarida dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlaridan ko'plab yozib olinishi bu tur qo'shiqlarning xalq hayoti bilan juda yaqin ekanini yana bir bor isbotlaydi:

*Shoxlari bir quloch-quloch,
Shoximga qo'nar qaldirg'och.
Yuray desam, voy, qornim och,
Men qo'shga qanday yarayin.
Ho'kizginam, bo'yniginang ezildi,
Ko'zginangdan yoshlar qator tizildi.
Bo'yinturuq bilan omoch tortmasang,
Sening bilan menga go'rlar qazildi.*

Dehqonchilik qo'shiqlarida yil-o'n ikki oy mobaynida olib boriladigan mehnat jarayoni bosqichma-bosqich o'z ifodasini topadi. Ularda yer haydash, dalaga yangi yil hosili uchun bug'doy sepish, unib chiqqan va boshoqlari yetilgan bug'doylarni o'rish, ularni yanchib donini ajratish kabi har bir jarayon, albatta, qo'shiq aytish bilan qo'shib amalga oshirilgan. Agar bu qo'shiqlarda faqat dehqonning bajarayotgan mehnati aks etgan, desak, xato bo'ladi. Chunki har bir qo'shiqda dehqon albatta o'zining ichki kechinmalarini, hayot tajribasidan olgan taassurotlarini, turmush tashvishlarini bayon etishga urinadi. Qo'shiq aytuvchi kishi sahnada san'atkor emas, balki dalada ham oddiy ijrochi, ham tinglovchi sifatida namoyon bo'ladi. Aslini olganda, uning qo'shiqlarini yer haydayotgan yoki bug'doy yanchayotgan ho'kizi eshitadi, xolos. Dehqonga ho'kizidan boshqa tinglovchining keragi ham yo'q. Chunki u dilidagi his-tuyg'uni o'ziga o'zi aytadi va shu yo'l bilan qilayotgan ishini yengillashtiradi, ko'ngliga taskin beradi.

Bu qo'shiqlarda ho'kizni erkalash, unga biron kimsaga

murojaat qilgandek munosabatda bo'lish, uning tilidan qo'shiq to'qib o'zining dardini ifodalash tuyg'usi yetakchilik qiladi. Ho'kiz: «Yuray desam, voy, qornim och», — deganida, dehqon nomidan gapiradi. Aslida dehqonning qorni och emasmi?! «Men qo'shga qanday yarayin», — deganda, ko'proq dehqon o'zini nazarda tutmayaptimi?!. Shu o'rindayoq omoch tortayotgan ajdodimiz ho'kizni erkalashga tushadi. Uni «Ho'kizginam» deb siyladi. O'z taqdirini ho'kizning qismati bilan teng ekanini: «Sening bilan menga go'rlar qazildi» kabi misralar vositasida ifodalaydi. Quyidagi qo'shiqqa e'tibor bering:

*«Xo'p hayda-yo, xo'p hayda,
Qalqon qulog'im, hayda,
Temir tuyog'im, hayda
Ostingda bosgan donni
Oyog'ing qilsin mayda».*

Demak, bug'doyni «po'stidan judo qilayotgan ho'kiz» dehqon uchun eng qadrdon kishisidan ham azizroqdir. Shu sababli «qalqon qulog'im», «temir tuyog'im» sifatlashlari yaratilgan. Hatto bir qo'shiqda:

*«Jilviragan qoshingni mayda-yo, mayda,
Surmalayin jonivor, mayda-yo, mayda» deyiladi.*

Bu qadar e'zoz, bu qadar go'zal fikrlarning bayoni ho'kizga qaratilganiga ishonging ham kelmaydi. Ammo bu hayot haqiqati edi. Dehqon uchun ho'kiz hayot va mamot masalasi edi (A. Qahhorning «O'g'ri» hikoyasini eslang). Shuning uchun ham yuzlab qo'shiqlarda, ayniqsa, «qo'sh» va «mayda» qo'shiqlarida bobo dehqonlarimiz ho'kizning fazilatlarini maqtab kuylaganlar. O'rim qo'shig'ida esa tasvir markaziga o'roq chiqadi. Endi o'roqning olmosligi, o'tkirligi ta'riflanadi. O'roq shu qadar keskirki, bug'doyni o'rmasdan turish mumkin emas:

*O'rog'im olmos,
O'rimdan qolmas,
Sira ham tolmas,
O'rmasam bo'lmas.*

«Yorg'ichoq» qo'shiqlarida ham qo'shiqchi yorg'ichoqqa murojaat etadi. U bilan gaplashadi, hasratlashadi, dardini to'kadi. Natijada yorg'ichoq dehqonning his tuyg'usini samimiy bayon qilish vositasiga aylanadi:

*Yorg'ichoq yalpoqqina,
Un qilar oppoqqina,
Yorg'ichoq xir-xir etar,
Mushtdakkina xamir etar.
Yorg'ichog'im guldur-guldur,
Bo'g'zim to'la oppoq undir,
Boy bobomning xonadoni,
Ikkimizni yeydir-yeydir.*

Ma'lum bo'ladiki, yil fasli o'zgaradi, dehqonning muomala qiladigan narsasi (ho'kiz, o'roq, yorg'ichoq) o'zgaradi, ammo qo'shiqning yaratilishidan nazarda tutilgan maqsad (og'ir mehnatni yengillatish, ichki his tuyg'uni ifodalash) o'zgarmaydi. Har qanday vaziyatda ham xalq hayotining badiiy ifodasi sifatida qo'llanadi.

Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari, asosan, sog'ish jarayoni aks etgan lirik parchalardan iboratdir. Ular sigir, echki, qo'y kabi hayvonlarni sog'ish paytida aytiladi. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar kabi sog'im qo'shiqlari ham tinimsiz bir xil harakat jarayonini nisbatan yengillashtirishga xizmat qilgan. Ikkinchi tomondan, sog'ilayotgan sigir ham aytilayotgan qo'shiqqa bora- bora o'rgangan. Qo'shiqni eshitganida o'zini ancha tinch tutgan va ko'proq sut bergan. Shuning uchun «ho'sh-ho'sh»larda sog'uvchi kimsa sigirni erkalgan, unga shirin-shirin so'zlarni aytgan:

*Ho'shim molim-govmishim,
Emchaklaring sog'mishim,
Oralab yeding o'tingni,
Iyiblab bergin sutingni.
Seni siylab boqayin,
Ko'zmunchoqlar taqayin,
Quralay ko'z govmishim,
Tuyoqlari kumushim.
Zotli molim ho'sh-ho'sh,
Sutli molim ho'sh-ho'sh.*

E'tibor bersak, dehqonchilikda ho'kiz «temir tuyog'im» deb erkalangan edi. Endi sigir «quralay ko'z», «tuyoqlari kumushim» deb atalyapti. Har qanday holatda ham inson bu erkalashlarni ho'kiz yoki sigir tushunib yetmasligini yaxshi biladi, ammo qo'shiq ijrosidagi tovush tovlanishining, ohangning hayvonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga ishonadi.

Turey-turey qo'shiqlari qo'ylarni sog'ish paytida aytilgan. Qorako'lchilikda qimmatbaho teri olish uchun qo'zilar tug'ilganidan ko'p vaqt o'tmay so'yilgan. Sovliqlardan sut olish esa keyin ham davom etavergan. Ona qo'yni sog'ish bilan bolasidan ajralgan sovliqning qismati nisbatan yengillashgan. Shuning uchun turey- tureylarda ona qo'yning qo'zidan ajralganiga hamdardlik bildirilgan, unga achinish tuyg'usi ifodalangan:

*Bolalilar bosh bo'lar, turey-turey,
Bolasizlar yosh bo'lar, turey-turey,
Kelar yili tuqqaning, turey-turey,
Qo'zingga yo'ldosh bo'lar, turey-turey.*

Boshqa xalq qo'shiqlari singari turey-tureylarda ham erkalash, qo'shiq ohangini qo'yga muloyim yetishiga harakat qilish aniq seziladi. Uning aqlli ekani, egasiga yordam berishga tayyorligi ta'kidlanadi. Hatto bog'da ochilgan gul bilan teng ko'riladi. Bu o'rinda qo'y sog'ishning xalq turmushi tarixida juda

uzoq qadimgi zamonlarga borib taqalishini ham yodda tutish kerak. «Alpomish» dostonida Boysari Barchin qizini maktabdan chiqarib oladi. «Qizimga Ko'kqamish ko'lida qo'y sog'dirib, chorvadorlik ilmini o'rgatayin, qo'y sog'moqqa usta bo'lsin», — deydi. Demak, ko'chmanchi qabilalarda qo'y sog'ish alohida ko'nikmani talab qilar ekan. Shuning uchun ham bu ish bilan shug'ullanadigan odamlar asrlar davomida sog'iladigan qo'ylar bilan qanday muomalada bo'lish sirlarini egallaganlar. Shirin so'zlar bilan qo'ylarning ko'ngliga yo'l topishga uringanlar:

*Esli molim-oqilim, turey-turey,
Yelkamdagi kokilim, turey-turey,
Shuncha molning ichida, turey-turey,
Bog'da ochilgan gulim, turey-turey.*

Chorvachilikda churiya qo'shiqlarining ham o'ziga xos o'rni bor. Avvalo, sog'iladigan sigirga, qo'yga, echkiga alohida-alohida qo'shiq yaratilishiga e'tibor beraylik. Ho'sh qo'shiqlari qo'y sog'ishda aytilmaganidek, turey-tureylar va churiya-churiyalar sigir sog'ishda aytilmagan. Tabiiyki, hayvon uchun qanday qo'shiq aytib sog'ish baribir emasmi?— degan savol tug'iladi. Ha, hayvon uchun baribirdir. Ammo egasi uchun bunday emas. Gap shundaki, chorvador xalq har bir qo'y yoki echkiga o'ziga xos munosabatda bo'ladi. Ular hatto sigirning qaysi rangni yaxshi ko'rishini, qaysi qo'shiqni ijro etganlarida ko'proq sut berishini bilganlar:

*Og'ziginangda o'ting bor, churey-churey,
Yelinginangda suting bor, churey-churey,
Sersoqolim jonivor, churey-churey,
Kerilib turgan buting bor, churey-churey.*

Churiyalardagi «og'ziginang», «yelinginang», «sersoqolim» kabi so'zlarga e'tibor bering. Nega «og'zing» yoki «yelining» deb qo'ya qolinmagan. Avvalgi tur qo'shiqlardagi kabi bularda ham echkini erkalash, uning tabiatiga moslashish harakati seziladi:

*Shoxlaring bor bir minora, churiya-churiya,
Minora qushlar qo'nara, churiya-churiya,
Bolang olib iskasang-a, churiya-churiya,
Kuygan yuraging qonar-a, churiya-churiya.*

Xullas, chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar xalqimizning qadimdan bu kasbni egallab kelganidan, chorvachilikning sir-sinoatlaridan xabardor ekanliklaridan dalolat beradi. Xalq har bir hayvonga xuddi odamdek muomalada bo'lgan. Uni erkalagan, maqtagan, ta'riflagan, sifatlagan. Eng muhimi, bu shirin so'zlarning hayvonlarga ijobiy ta'sir qilishiga ishongan.

«Ho'sh», «Turey-turey», «Churiya-churiya» qo'shiqlarini chorvadorlar ichida yashagan shoirtabiat odamlar to'qishgan. Bu qo'shiqlarda so'z san'atining boshqa namunalarida bo'lganidek turli badiiy san'atlardan foydalanilgan. Xususan, «esli molim», «qalam qoshing», «zotli molim» kabi sifatlashlar; «qozon-qozon suting bor», «aqlisan, donosan», «shoxlaring bor bir minor» kabi mubolag'alar; «Yelkamdagi kokilim», «bog'da ochilgan gulim» kabi istioralar; «qalam qoshing suzilsin», «sutliligingni bildirgin» kabi jonlantirishlar qo'llangan. Qo'shiqlarning qofiyalanishiga ham alohida e'tibor berilgan. Bu tasvir vositalari qo'shiqlarning estetik qimmatini oshiradi, alohida joziba bag'ishlaydi.

O'zbekxalqi qadimdan hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan. O'zbekiston hududida ishlab chiqarilgan shohi atlaslar, banoras to'nlar, amaliy san'at namunalari, to'qilgan gilamlar butun dunyoga mashhur bo'lgan. Qadimda o'z hunari bilan nom taratgan ustalar o'z shogirdlaridan kasbiy ko'nikmalar qatori she'r o'qish, qo'shiq aytish, biron musiqa asbobida kuy chalishni ham talab qilganlar. Ularning fikricha, har tomonlama yetuk bo'lmagan inson, ayniqsa, estetik zavqi yo'q kimsa bironta hunarni ham uquv bilan o'zlashtira olmas ekan. Shuning uchun xalqimiz orasida turli kasb bilan shug'ullanayotgan odam borki, qo'shiq aytadi, askiya aytadi, musiqa chaladi. Bu fazilat unga o'zi ishlab chiqarayotgan narsaning go'zal ko'rinishga ega bo'lishini ta'minlaydi. Qo'shiq bilan tayyorlanayotgan narsaga ustaning

mehri quyiladi.

O'zbek xalq mehnat qo'shiqlarining salmoqli qismini kashta tikish, bo'z to'qish, charx yigirish kabi faoliyat bilan qo'shib turli ohangda ijro etiladigan she'r namunalari egallaydi. Jumladan, ularning eng qadimgilaridan biri charx qo'shiqlari hisoblanadi. Bugungi kun tekstil sanoati paydo bo'lmasidan avval paxtaning chigiti qo'lda ajratib olinar va paxta momig'idan charxni aylantirish vositasida ip yigirilardi. Ayollar kecha-kunduz ip yigirish bilan shug'ullanib, tayyor bo'lgan iplardan gazlamalar to'qishardi. Bu mehnat jismonan ortiqcha kuch talab etmasa ham, o'ta zerikarli va unumsiz edi. Mehnat azobini yengillashtirish uchun charx qo'shiqlari aytilgan:

*Charx yigirib, charx yigirib,
Shul qo'lginam toladir,
Agar shuni yigirmasam,
Bolalar och qoladir.*

Har bir zerikarli va mashaqqatli mehnatning ham chegarasi bo'ladi. Ammo agar odam bevosita charxda ip yigirish orqali kun ko'rsa, unga bu azobli mashg'ulot chegarasizdek bo'lib tuyulgan. Ana shunday daqiqalarda odam o'ziga o'zi chorasiz, najotsiz bir shaxs bo'lib ko'ringan. Qo'shiqda bu holat shunday kuylangan:

*Charxginam, ey charxginam,
Yurakkinam olasan,
Ayt-chi, sen bu yurtlardan,
Qachongina yo'qolasan?!*

Xalq qo'shiqlari, asosan, she'riyatning barmoq vaznida to'qilgan. Barmoq vaznidagi she'rlarda misradagi bo'g'inlar soni asosiy she'riy o'lchov bo'lib qoladi. *Masalan*, birinchi to'rtlikdagi 1- va 3- misralari 8 bo'g'indan, 2- va 4- misralari 7 bo'g'indan iborat. Ammo ba'zan aruz vaznida to'qilgan qo'shiqlar ham uchraydi. Aruz vaznidagi she'riy misralarda cho'ziq (yopiq) va

qisqa (ochiq) hijo (bo'g'in)lar ma'lum tartibda oldinma-keyin keladi. Quyidagi parchaga e'tibor bering:

*Charxginam sarparasi sakkiz tugun,
Sakkizoy ketgan og'am kelsin bugun.*

Bu misralar aruz vaznining ramali musaddasi mahzuf bahrida aytilgan. Ammo xalq qo'shiqlarida biz aruz vazni qoidalariga mukammal amal qilgan holda to'qilgan she'rlarni ko'p uchratmaymiz. Taxmin qilish mumkinki, odatda bunday misralar mumtoz she'riyat bilan shug'ullangan yoki mumtoz she'riyatdan xabardor farzandlar tomonidan yaratilgan bo'lishi mumkin. Xalq she'riyatining asosiy vazni barmoq deb belgilanishida bunday holatlarni ahamiyat jihatidan ikkinchi darajali deb hisoblaymiz.

O'rmak qo'shiqlari gilam to'qish paytida ijro etilgan. Ma'lumki, o'zbek gilamlari va sholchalari gul bezaklarining rang- barangligi, murakkab chizgilarga boy ekanligi, o'zining pishiq-puxta to'qilishi bilan shuhrat topgan edi. Deyarli hamma viloyatlarda ayollar to'qigan gilamlar ham turmushga uzatiladigan qizlarga sep, ham ro'zg'ordagi biron kamchilikni to'ldirish vositasi bo'lgan. Qo'shiq esa ana shunday murakkab jarayonni yengillatgan. Agar bir o'rinda bu hunarning azobi bayon etilsa, ikkinchi o'rinda to'g'ridan to'g'ri his-tuyg'u o'z ifodasini topgan:

*O'rmagimga o'ray-yo,
Men boshimga qaray-yo,
O'rmakkinam o'ngin deb,
Endi sendan so'ray-yo.*

Boshqa bir to'rtlikda esa ommaviy muammolar ham qo'shiqchi diqqat markazida turgan:

*O'rmagim yotibdi o'ralib,
Men yuribman kerilib,*

*Qaynonam qaramaydi,
O'rmagimga o'yirilib.²⁰*

Bo'zchi kosiblar soatlab bir xil qo'l va oyoq harakatlari bilan shug'ullanganlar. Ular bu harakatlarga shu qadar o'rganib ketgan edildarki, bo'z to'qiydigan qurilma — do'kon bo'lmasa ham qo'llari bevosita aynan o'sha shakllarni hosil qilaveradigan darajaga yetgandi. Shuning uchun bo'zchi qo'shiq aytganida yoki askiyaga qo'shilganida o'zini juda erkin tutgan. Natijada qo'shiq aytishdan bo'zchi estetik qoniqish hosil qilgan:

*Bo'z to'qiyman, qirog'ini o'xshatib,
Mokki otaman qo'lg'amni qaqshatib,
Bozordagi shohilardan yaxshiroq
Nafisdan o'xshagan bo'zim yaxshidir.*

Yuqoridagi qo'shiqda bo'zchining o'z mehnatiga baho berishi ham ifodalangan, deyishimiz mumkin. Ma'lumki, bo'z paxta ipidan to'qilgan. Bunday matoni odatda kambag'al, iqtisodiy jihatdan yaxshi ta'minlanmagan odamlar sotib olganlar. Bo'zning pishiq va ayni paytda mayin chiqishi bo'zchi mahoratiga bog'liq bo'lgan. Uzilgan ipni o'sha zahoti ulash, mokkini ustalik bilan otish, mato to'qiydigan qurilma — do'konni bir maromda ishlatish mahsulotning sifatli chiqishini ta'minlagan. Binobarin, bo'zchi ham ish faoliyatiga zehn bilan qarashga, ham kayfiyatini yaxshi tutishga uringan. Ammo turmush tashvishlari unga har doim salbiy ta'sir qilgan. Quyidagi qo'shiqqa o'xshagan namunalar ana shunday damlarda aytilgan:

*Do'kon uyga kirsam, tanam qaqshaydi,
Sovuqlarda o'lmay qolsam, yaxshiydi.
Qarish tillaga ketsa yaxshiydi,
Shunday mening bo'zim arzon ketarmi.*

Do'kon, ya'ni bo'z to'qiydigan qurilmali uyga kirishdanoq

²⁰ O'g'irilib-o'g'irilib, qayrilib.

kun bo'yi qilinadigan mashaqqatli mehnat azobi bo'zchiga tinchlik bermagan. Qish kunlari esa qo'l-oyoqlarining ishlashi yanada qiyinlashgan. Bunday ko'ngilsiz vaziyat qo'shiqlarda aks etmasligi mumkin emasdi.

Marg'ilon, Qo'qon shahridagi keksa bo'zchilar bilan bo'lgan suhbatimizda ular bo'z qo'shiqlarini doimiy ravishda xirgoyi qilmasliklarini ham qayd etganlar. Ish paytida ular «Galdir», «Omonyor», «Sumbula» kabi qo'shiqlarni, askiya payrovlarini aytishar ekan. Bu holat boshqa mehnat sohalari bilan shug'ullanuvchi odamlar uchun ham taalluqlidir. Xususan, gilam to'qiydiganlar faqat o'rmak, ip yigiruvchilar faqat charx qo'shiqlarini aytishgan ekan, degan tasavvur hosil bo'lmasligi lozim. Ularning har biri o'ziga yoqqan qo'shiqni xirgoyi qilgan. Ammo baribir tabiatan she'r to'qiy oladigan tug'ma shoir odamlar o'z kasblariga atab qo'shiq yaratganlar.

Shunday qilib, mehnat qo'shiqlari haqida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Mehnat qo'shiqlari qaysi mavzuda yaratilganidan qat'i nazar lirik asarlar hisoblanadi. Ularda qo'shiqchining hayotiy voqealarga bo'lgan munosabati his-tuyg'ular orqali aks etadi.

Xalqimizning mehnat qilishi, chorvachilik, dehqonchilik, kasb-hunar bilan shug'ullanishi qanchalar tarixiy bo'lsa, qo'shiqning yaratilishi ham shunchalik tarixiydir.

Turli sohadagi faoliyat bilan shug'ullangan ajdodlarimiz mashaqqatli va zerikarli mehnat jarayonining samarasini oshirish maqsadida maxsus o'z kasb-hunarlari bilan bog'liq qo'shiqlar kuylaganlar.

Mehnat qo'shiqlarida turli hayvonlarni va ish qurollarini erkalash, ularga murojaat qilish, ularni jonlantirish xususiyati yetakchilik qiladi.

Mehnat qo'shiqlarining tili sodda, kuyi yengil, fikrni ifodalash usuli oddiy bo'lib, asosiy maqsad ish faoliyatini osonlashtirish, qo'shiq aytuvchi shaxs ruhiy holatini ko'tarishga qaratilgan bo'ladi.

Mavsum-marosim qo'shiqlari xalq poeziyasining tarkibiy qismini tashkil etadi. Bu qo'shiqlar xalqimizning qadimiy

ommaviy bayramlari, oilaviy rasm-rusumlar bilan bog'liqdir. Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asaridan ma'lum bo'ladiki, mavsum va marosimlarga oid xalq qo'shiqlarining tarixi qadim o'tmish zamonlarga borib taqalar ekan. Shu paytlardan buyon mavsumlar almashdi, marosimlar muttasil o'tkazildi. Bu marosimlarda qo'shiqlar aytiladi.

Dunyoda birorta xalq yo'qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlarni nishonlamasin. Mavsumlar, diniy e'tiqodlar, tarixiy voqea-hodisalar, milliy udumlar xalq bayramlari mazmunini tashkil etadi. Binobarin, bayramlarning o'tkazilishiga qarab, ulardagi so'z bilan bog'liq lavhalar mundarijasiga qarab o'sha xalqning tarixi, milliy xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Chunki bunday xalq shodiyonalarida raqsga tushiladi, qo'shiqlar aytiladi, milliy liboslar kiyiladi, turli o'yinlar o'ynaladi, taomlar pishiriladi, tomoshalar uyushtiriladi.

Olimlarning ma'lumot berishlaricha, mavsum-marosimga oid o'zbek xalq bayramlarining tarixi minglab yillar bilan o'lchanar ekan. Ularning ayrimlari yil fasllarining qulay yoki noqulay kelishi bilan ham bog'liq bo'lgan. *Masalan*, yil quruq kelib, yomg'ir yog'masa, «yomg'ir chaqirish» marosimi («Sust xotin»); bug'doy, sholi boshhoqlari yetilgan paytda shamol ularni payhon qilsa, shamol to'xtatish («Choy momo»); don mahsulotlarini shopirish paytida shamol bo'lmasa, shamol chaqirish («Yo Haydar»); yil sovuq kelsa, quyoshga topinish; umuman, omadsiz yilda qurbonlik keltirish marosimlari o'tkazilgan. Al-Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida «Navro'z», «Ramush og'am», «Boboxvora» kabi o'ndan ortiq mavsum- marosim bayramlari xususida ma'lumot beriladi. Xalqimiz tarixiy va keyinchalik paydo bo'lgan bayramlardan hozirgi paytda quyidagilarni nishonlayotganini qayd etish mumkin:

1. Mustaqillik bayrami — O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat deb e'lon qilinishi nishonlanadigan kun.

2. Mehrjon — quyosh ma'nosini anglatib, kun va tunning kuz faslidagi teng kelishida nishonlanadi.

3. Iyd ramazon — ro‘za oyining tugallanish munosabati bilan

nishonlanadigan bayram.

4. Iyd qurbon — iyd ramazondan 70 kun keyin qurbonlik keltirish marosimi.

5. Navro‘z — yangi kun, ya‘ni yangi yilning boshlanishi.

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari xalq qalbidan o‘rin olgan sumalak, qulupnay, gilos, qovun sayillarida ham yurtdoshlarimiz guruh-guruh bo‘lib ko‘ngil ochish yig‘inlarini o‘tkazganlar va o‘tkazmoqdalar.

Umumxalq bayramlari bilan bir qatorda oilaviy marosimlar (to‘ylar va aza) ham o‘zbeklar maishiy hayotda muhim o‘ringa ega. Oilaviy doirada o‘tkaziladigan bu rasm-rusumlarning hammasida qo‘shiq jo‘rligi yonma-yon turadi.

Sobiq sovet tuzumi davrida xalq qadriyatlari qatori so‘zning mo‘jizaviy quvvatini inkor etish odati an‘ana tusiga kirgan edi. Ruhiy dunyoning murakkab sir-sinoatlari mutlaq inkor etilar edi. Natijada xalqimizning asrlar bo‘yi davom etib kelayotgan yomg‘ir chaqirish, shamol to‘xtatish, shamol chaqirish, qurbonlik qilish orqali mushkul vaziyatni yumshatish kabi mavsum va marosim amallariga nopisandlik munosabati paydo bo‘lgandi. Ammo hamma gap shundaki, yuqorida nomlari qayd etilgan marosimlarning urf-odatlar sifatida o‘tkazilishi xalq hayotida ijobiy natijalar bergan. Shuning uchun ham xalqimiz mavsum va marosim odatlariga katta hurmat bilan qaragan va ularni muttasil ravishda o‘tkazib kelgan.

Yomg‘ir chaqirish marosimi, odatda, bahor faslida o‘tkazilgan. Olimlarning ta‘kidlashicha, bu marosimlar, ayniqsa, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududlarida ommaviy tus olgan. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, hatto yomg‘ir chaqirish odatimiz qadimgi

«Avesto»da madh etilgan, sharaflangan, osmon suvlari tangrisi Tishtriyanning xalq o‘rtasidagi boshqacha nomlanishidan iborat ekan.

Dehqonchilik rivojlangan mahalliy joylarda yomg‘irning o‘z vaqtida bo‘lishi juda muhim ahamiyatga egadir. Qurg‘oqchilik

dehqonchilik bilan shug'ullanadigan aholiga katta kulfat keltirgan. Shuning uchun odamlar "Sust xotin" mavsumiy odatni topishgan. Qizig'i shundaki, bu joyda istiqomat qiladigan yurtdoshlarimiz "Sust xotin" marosimi o'tkazilgandan so'ng haftalab yomg'ir yoqqani haqida o'nlab misollar keltirishadi. Shuning uchun ham xalq bunday marosimlarning o'tkazilishiga puxta tayyorgarlik ko'rgan, har bir amallarga rioya qilishni odat tusiga kiritgan.

"Sust xotin" qo'shig'i shunday boshlanadi:

*Sust xotin, suzma xotin,
Ko'lankasi maydon xotin!
Yomg'ir yog'dir ho'l bo'lsin,
Yer-u jahon ko'l bo'lsin.*

Yuqoridagi misoldan ma'lum bo'ladiki, qo'shiqning bosh maqsadi yomg'ir yog'dirish homiysi bo'lgan Sust xotining murojaat qilish orqali dehqonchilik uchun qulay sharoit yaratishdan iboratdir. Qo'shiq davomida yomg'ir yog'ishidan qurg'oqchilikning yo'q bo'lishi, kuzda yerga sepilgan bug'doylarning bosh tortishi, ya'ni boshoq chiqarishi kuylanadi. Bu qo'shiqda tabiat manzarasi bilan aloqador misralarni ko'plab uchratamiz. Ko'klamda odamlarning o'ynab-kulishi, shaftolilarning barg yozishi, atrof maysalar bilan bezanishi, ajoyib gullarning ochilishi tasviri orqali ajdodlarimiz ona yurtga bo'lgan muhabbatini ifodalagan bo'lishlari ham ehtimoldan holi emas:

Yomg'ir yog'di, ho'l bo'ldi! Yer-u jahon ko'l bo'ldi!
Shaftolilar barg yozdi, Sust xotin, suzma xotin.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yashovchi mahalliy aholi «Sust xotin» marosimiga, asosan, ayollar tayyorgarlik ko'rishini va marosim ishtirokchilari ayollardan iborat bo'lishini alohida ta'kidlaydilar. Albatta, bu marosimga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda mahalla ayollarining o'zaro

yanada yaqinlashuvini, bir- birlari bilan iliq munosabatda bo'lishlarini ham e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi.

Mavsum-marosim qo'shiqlaridan «Choy momo» marosimida aytiladigan namunalar ham o'zlarining qadimiyligi bilan e'tiborga loyiqdir. «Choy momo» marosimi dehqon yetishtirgan hosilga zarar yetkazuvchi tinimsiz davom etayotgan qattiq shamolni to'xtatish vaqtida o'tkaziladi. Bu marosimni «Sust xotin» kabi O'zbekiston viloyatlarida keng tarqalgan, deya olmaymiz. Olimlar «Choy momo» marosimini Chimkent viloyatining Sayram tumanida ko'proq o'tkazilib turilishini ta'kidlaydilar. «Choy momo» marosimida asosan quyidagi qo'shiq ijro etiladi:

*Choy, choy, Choy momo,
Choy momosi o'libdi,
O'g'li yetim qolibdi,
Bosa-bosa beringlar.
Bosilib qolsin bu shamol,
Uga-uga beringlar,
Ugilib qolsin quv shamol,
Oblo-hu, oblo-hu,...*

Shamol chaqirish marosimi ham ajdodlarimizning qadim zamonlarda o'tkazgan odati hisoblanadi. Bu marosim haqida folklorchi olim B. Sarimsoqov faqat bitta qo'shiq saqlanganini ta'kidlaydi. Muhammad payg'ambarning kuyovi Hazrat Aliga Haydar nomi bilan murojaat qilinadi va shamolni qo'yib yuborishi so'raladi:

*Haydar, ota-onang o'libdir, Moli senga qolibdir.
Bolang suvga oqibdir, Shamolingni qo'yvor.*

Xullas, «Yomg'ir chaqirish», «Shamol chaqirish», «Shamol to'xtatish» kabi mavsumiy qo'shiqlarning xalqimiz orasida hozirgi paytgacha yashab kelayotgan dehqonchilik kasbining o'zbeklarda ham qadimiyligini, ham xalqimizning ajdodlar

yaratgan qadriyatlariga cheksiz hurmat bilan qarashini isbotlaydi. Ajdodlar merosiga ehtirom bilan munosabatda bo'lish esa xalqimiz kelajagiga umid bilan qarashimiz uchun ishonch hosil qiladi.

O'zbek xalqining og'zaki ijodida oilaviy marosimlarning o'tkazilishi ham nazarda tutilgan. Ayniqsa, to'y marosimi, to'ylardagi o'lan aytishlar, yor-yorlar, kelin salomlar poetik ijodimizning mumtoz namunalari bo'lib qolgan. Yor-yorlar matni bilan tanishar ekanmiz, ularda yosh oilaning kelajakda baxtli bo'lishi, oila qurayotgan yoshlarning bir-biriga sadoqatligi xususida umidlar bildirilganligiga amin bo'lamiz. Yor-yorlarda yosh yigit va qizning yangi hayot bo'sag'asiga qadam qo'yayotgani alohida ta'kidlanadi. Hayot tajribasi oilaviy turmush totuvlikdan boshlansa, inoqlik yetakchi bo'lsa, keyingi hayot ham yomon o'tmasligini ko'rsatgan. Shuning uchun kuyov-kelinning inoq turmush boshlashi bu tur qo'shiqlarda qayta-qayta tilga olinadi:

*Shoyi ko'ylak yengiga
Tut qoqaylik yor-yor,
Kelin-kuyov ko'ngliga
O't yoqaylik yor-yor.*

Xalq qo'shiqlarini yozib olish tajribasi shuni ko'rsatadiki, yor-yorlar xalq orasida boshqa mazmundagi qo'shiqlardan kengroq ommalashgan. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodidagi hamma janrlardan ko'ra qo'shiq o'zining tez yaratilishi bilan ajralib turadi. Bu fikr yor-yorlarga ham taalluqlidir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, shoirlik iste'dodiga ega bo'lgan yor-yor ijrochisi to'yning o'tkazilish sharoitiga qarab yangi-yangi to'rtliklarni to'qib ketavergan. Natijada, aynan to'y o'tkazilayotgan paytdagi vaziyatlar ham qo'shiq matnida o'z ifodasini topgan:

*Qish kunida sovuq yeb,
Horib keldik yor-yor,*

*Achchiq-tirsiq kerakmas,
Koyib keldik yor-yor.*

Ammo yor-yorlarning ayrim-ayrim namunalari qanday mazmunda bo'lishidan qat'i nazar oxir-pirovardida yosh oilaga baxt tilangan.

*Taxta-taxta ko'prik
Taxting bo'lsin yor-yor,
Payg'ambarning qizidek
Baxting bo'lsin yor-yor.*

To'g'ri, lirik janrga xos bo'lgan his-tuyg'ularni ifodalash jarayonida qo'shiq ijrochilari o'zlarining hayotlaridan o'rin olgan ayrim noxush holatlarni ham ifodalashdan tortinmaganlar. Bunday qo'shiq namunalarida qizning yoshi katta odamga turmushga chiqayotgani, yashash jihatidan juda uzoq manzilga uzatilayotgani kabi lavhalar ham o'z aksini topgan:

*To'yda qizlar o'ynashib,
Ko'ngli to'lsa, yor-yor,
Yosh boshiga er qildi,
Chol ham bo'lsa, yor-yor.
Yoki quyidagi to'rtlikka e'tibor bering:
Uzoqqa borgan qizning
Rangi sariq, yor-yor,
Ko'zidan oqqan yoshi,
Misli ariq, yor-yor.*

Ammobevositato'yningo'tkazilishsharoitiniko'zoldimizga keltirsak, chor-atrofdagi o'yin-kulgilarga e'tiborning kuchliligini nazarda tutsak, yuqoridagi qo'shiqlarda aks ettirilgan qayg'u-alamlar to'y ishtirokchilariga u qadar katta ta'sir ko'rsatmasligi ham o'z-o'zidan ravshan bo'ladi. Marosim qo'shiqlaridan yor-yorlar bir qator badiiy jihatdan mukammalligi bilan ajralib turadi. Xususan, bu qo'shiqlarda parallelizm tasvir san'atining

namoyon bo'lishi ko'proq uchraydi. *Parallelizm* deganda, tasvirlanayotgan bir voqea- hodisani ikkinchi bir voqea- hodisaga qiyoslash nazarda tutiladi.

Masalan:

*Tokchadagi qaychini
Zang bosibdi yor-yor,
Yangi tushgan kelinni
G'am bosibdi yor-yor.*

Yoki:

*Tog'da toychoq kishnaydi,
Ot bo'ldim deb, yor-yor.
Uyda kelin yig'laydi,
Yot bo'ldim deb, yor-yor.*

Yuqoridagi misollarda tokchadagi qaychining zang bosishi bilan kelinning g'am bosishi, toychoqning ot bo'lib kishnashi bilan qizning o'z oilasidan yot bo'lib ketishi qiyoslangandir. Bunday tasvir san'ati parallelizm hisoblanadi.

Yor-yor qo'shiqlarining qofiyalanish tarzi ko'pincha (a-b-a-b) tarzda va ba'zan (a-b-v-b) tarzda bo'ladi.

Yor-yorlar matnini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu qo'shiq turlari mehnat va mavsum-marosim qo'shiqlaridan qofiyalanishdagi mukammallik bilan ham ajralib turar ekan. Jumladan, yor-yorlarda «baxt», «taxt», «somon», «omon», «alvon», «polvon» kabi chiroyli qofiya misollarini uchratamiz. Bu qo'shiq turlari misralararo olti-yetti bo'g'indan iborat bo'lib, turoq tizimi 4+3, 5+2 tarzida belgilangan, Masalan:

*Qat-qat ko'rpa ustida,
Piyolaman, yor-yor.
Yorga salom bergani,
Uyalaman, yor-yor.*

Kelinsalomlar ham marosim qo'shiqlarining tarkibiy

qismini tashkil etadi. An'anaviy kelin salomlarning boshlanish qismida Allohga, Muhammad payg'ambarimiz (s.a.v.) ga, Chahoryorlarga, avliyo va anbiyolarga murojaat qilish alohida o'rin tutadi. Agar, umuman, xalq qo'shiqlarini har bir qo'shiqsevar shaxs ijro etaversa, hatto yor-yorlarni ham to'rt-besh odam aytishi mumkin bo'lsa, kelinsalomlarni bitta qo'shiqchi va ba'zan ikkita qo'shiqchi ijro etishi odat tusiga kirgan. Kelinsalom marosimi to'y marosimidan alohida ajralgan holda o'tkaziladi. Odatda, bu rasm orqali kelinsalom ijrochisi o'z mahorati bilan yig'inga alohida fayz kiritishi mumkin bo'ladi. Ehtimol, shuning uchun ham kelinsalom ijrochilari mazkur qo'shiqlarda yumor detalidan unumli foydalanishga urinadilar.

Masalan:

*Husayni uzumning g'o'rasi,
Kuyov bolaning jo'rasi,
Kuyov jo'ralariga bir salom.*

Albatta, bunday kulgili o'rinlarga jiddiy munosabatda bo'lish to'g'ri emas. Kelinsalom marosimini o'tkazish jarayonini ko'z oldimizga keltirsak, bunday qo'shiq namunalari hech qanday asorat qoldirmasligiga ishonamiz. Chunki aynan shundan keyin quyidagi namuna keltiriladi.

*Yursa yo'lni to'ldirgan,
O'tirsa so'zni bo'ldirgan,
Qaynonasiga bir salom.*

Kelinsalomlar boshqa qo'shiqlardan farqli o'laroq uch misradan iborat bo'ladi. Dastlabki ikki misra o'zaro qofiyalanib keladi. Uchinchi misra esa «bir salom» so'zlari bilan yakunlanadi.

Masalan:

*Qora papoq yarashgan,
Qizlar izidan qarashgan,
Kuyov bolaga bir salom.*

Marsiyalar

Ma'lumki, hayot faqat bayramlardan, xursandchilikdan, sayillardan, to'y-tomoshalardan iborat emas. Inson hayotida ko'ngilsiz voqealar ham ro'y berib turadi. Ular qatoridan eng musibatli o'rin tutgani o'limdir. Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asarida Afrosiyob — Alp Ertunganing xotirasiga bag'ishlangan marsiyalarning borligini aytib o'tgan edik. Insonning o'limiga bag'ishlangan she'riy asarlar «marsiya» deb ataladi. Ular ham lirik asarlar hisoblanadi, chunki bu qo'shiqlarda vafot etgan odamning xotirasini ifodalab ichki his-tuyg'ularni bayon etish yetakchi o'rinni egallaydi.

Marsiyalarning asosiy vazifasi hayotdan ko'z yumgan shaxsning butun fazilatlarini esga olib, ro'y bergan musibatga munosabat bildirishdir. Shuning uchun ota, ona, aka, uka, bola kabi qarindosh-urug'lik munosabatlari marsiyalarda alohida tilga olinadi. Hayotdan ko'z yumgan shaxs marsiya aytuvchi tomonidan «suyangan tog'», «ishongan bog'», «osmondagi yulduz», «hayotdagi yorug' kunduz» kabi go'zal so'zlar bilan bezatiladi. Marsiya matnlarida o'kinch, hasrat ifodasi alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, farzandning ota- onasiga ko'ngildagidek xizmat qila olmagan haqidagi o'kinch, aka va ukaning turmush taqozosi bilan qadriga yetmagani haqidagi hasrat bayoni marsiyaning mazmunini tashkil etadi.

Masalan:

*Aytmay desam bo'lmaydi,
Dog'ingiz o'ti qo'ymaydi,
Ishongan bog'im, voy otam,
Suyangan tog'im, voy otam.*

Yoki:

*Hovlimdagi giyoh bo'ling, voy onam,
Har kun sizni iskayin, voy onam,
Yana qaytib bino bo'ling, voy onam,
Doim sizni eslayin, voy onam.*

Matndan aniq sezilib turibdiki, marsiya aytuvchi shaxs butun ijodiy mahorati imkoniyatidan mukammal foydalangan holda qalbidagi dard, hasratga har bir tinglovchini befarq qoldirmaslikka harakat qiladi. Yurtimizning ayrim hududlarida maxsus marsiya aytuvchi ayollarning borligi fikrimizga dalil bo'la oladi.

Shunday qilib, mavsum-marosim qo'shiqlari haqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Mavsum va marosim qo'shiqlari o'zbek xalq og'zaki poetik ijodining eng qadimiy namunalaridir.

Xalq maishiy hayotidagi har bir bayram, har bir marosim, ma'lum davrdagi mavsumlar alohida-alohida, aniq mavzuni ifodalovchi mazmunga ega.

Mavsum-marosim qo'shiqlari ba'zan ommaviy tarzda ijro etishga mo'ljallangan bo'lishi bilan birga maxsus tayyorgarlik ko'rgan ijrochilar ijodini ham inkor etmaydi.

Xalqimizning o'tmish madaniy merosiga, qadriyatlarga bo'lgan munosabat mavsum-marosim qo'shiqlarida alohida ko'zga tashlanadi.

Mavsum-marosim qo'shiqlari badiiy mukammallik jihatidan so'z san'ati namunalari talabiga to'liq javob beradigan she'rlardan iboratdir.

Termalar

Xalq baxshilari tinglovchilar o'rtasida yirik hajmdagi dostonlarning ijrosini boshlashdan oldin o'ziga xos mashq qilib oladilar. Bunday mashqlar, odatda, ikki yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchidan, baxshi qo'l barmoqlarini do'mbiradastasi bo'ylab erkin harakat qilishi uchun kuy ijro qiladi. Kuylar hazin ohangda bo'lib, tinglovchilar ularni tinglash jarayonida butun hayotlarini, quvonch va tashvishlarini xayoldan o'tkazadilar.

Agar tinglovchi baxshini tanimasa, kuy baxshi va tinglovchi ko'ngli o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi. Ikkinchidan, baxshi ovozini charxlash uchun she'riy parchalardan tuzilgan qo'shiq aytadi. Qo'shiqlarda shoirning hayoti, turmushda ro'y berayotgan voqealar, ba'zan kulgili hodisalar, dostonlarning eng

qiziq o'rnidan lavhalar va baxshining tinglovchilarga murojaati aks etadi. Bunday ijrolarning muddati cheklanmagan bo'ladi. Ba'zan qisqa, ba'zan esa uzoqroq vaqt davomida baxshi «nima aytay?» mazmunidagi savol bilan atrofdagi yurtdoshlarining e'tiborini o'ziga tortadi.

Folklorshunoslikda ana shunday she'riy parchalar termalar atamasi bilan yuritiladi. Termalar ta'rifi quyidagicha: «Pandanasihat, odob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta'rifi yoki tanqidiga bag'ishlangan baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 satrdan, 150-200, ba'zan undan ham ortiq misralargacha bo'lgan lirik, liroepik she'rlarga *terma* deyiladi».²¹

Terma atamasi o'zining nomi bilan izohlanadi. Ular, asosan, baxshilar tomonidan aytiladi va ijrochi-ijodkor bisotidagi dostonlardan, hayoti haqida o'ylab qo'ygan gaplardan teriladi. Ba'zan bunday parchalar «Doston terish» deb ham yuritiladi. Baxshi - mezbonning uni kutib olishi, tinglovchilarning dastlabki muomalalari va munosabatlaridan ilhomlanib, vaziyat taqozosi bilan yo'l- yo'lakay terma to'qib ketishi ham mumkin.

Masalan, 2000-yilning qish kunlaridan birida O'zbekiston Milliy universiteti magistrleri bilan Bo'kada yashovchi Chori baxshi Xo'jamberdiev huzuriga mehmonga borilganda, baxshi qo'shni qishloqqa to'yga ketgan ekan. Ertalab soat 10 dan 2 gacha uni kutishga to'g'ri keldi. Baxshi uyga qaytganidan so'ng magistrlar «Alpomish» dostonidan parcha aytib berishni iltimos qilishdi.

Chori og'a dostonni boshlashdan avval yaqin yarim soat vaqt mobaynida mehmonlardan kechga qolgani uchun uzr so'rash mazmunida terma aytdi. Termada kecha o'tgan to'y tafsiloti, Toshkentdan kelgan mehmonlarning ta'rifi, yurtimizdagi o'zgarishlar o'z ifodasini topdi. Keyinchalik ma'lum bo'ldiki, baxshi terma aytish davomida «Alpomish» dostonini maroqli kuylash rejasini tuzish bilan band bo'lgan ekan. Chunki termada aytiladigan parchalarni kuylash mohir baxshi uchun hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

²¹ Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., «O'qituvchi». 1990. 169-bet.

«Alpomish» esa har qanday iste’dodli ijrochini ham doston aytishdan oldin, obrazli qilib aytsak, safardan oldin aniq maqsadni belgilashga, rejani asoslab olishga majbur qiladi.

Baxshilarning va folklorshunos olimlarning ta’kidlashlaricha, termalarning eng ko’p tarqalgan ko’rinishi «nima aytay?» hisoblanadi. Bu jarayon, asosan, tinglovchi va baxshi o’rtasida ruhiy ishonch tug’dirish va aloqa bog’lash maqsadida amalga oshiriladi. Unda xalq dostonlaridagi o’ta qiziq lavhalar, qahramonlarning sarguzasht va taqdirlari esga olinadi:

*O’n beshida oydan to’lgan,
Olmosini belga solgan.
Go’ro’g’liga xizmat qilgan,
Qirq yigitni girdga olgan,
So’rab o’tdi Avaz polvon,
Avazxondan aytaymi.*

Yuqorida qayd qilganimizdek, termalarda ijodkorning hayotidan olingan lavhalarga ham keng o’rin beriladi. Bunday termalar ijrosida baxshi ko’pincha tinglovchilarga murojaat qilib, o’zini ular bilan bir yurtidan ekanligini, taqdiri xalqning qismati bilan uyg’un ekanini ta’kidlaydi. Yo’l-yo’lakay do’mbirasiga do’stidek munosabatdaligini aytib o’tadi. Tinglovchilarni kuldirish maqsadida do’mbirasini qaysarlikda ayblaydi, ba’zan tarasha qilib yoqib yubormoqchi bo’ladi:

*Nomard yigit bu majlisga bo’ylamas,
Avji kelsa Nurmon gapni o’ylamas,
Yorib yoqsam biror choydush qaynamas,
Senday yog’och o’tin bo’lgan do’mbiram .*

Xalqimizning asil farzandlari, yurti uchun fidoyilarcha xizmat qilgan taniqli ustozlarimiz Abubakir Divayev, Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G’ozi olim Yunusov, Mansur Afzalov kabi ziyolilar harakati bilan yozib olingan o’nlab termalar orqali

biz o'tmishda ijob etgan baxshilarning tarjimayi hollari haqida ma'lumot olamiz. Chunki baxshilar ko'pincha aynan termalarda o'zlarining boshlaridan kechgan voqealarni bayon qilganlar. Jumladan, Ergash shoir o'z otasiga bag'ishlangan termalardan birida shunday deydi:

*Har kim ko'rsa, qoyil bo'ldi o'ziga,
Ham ishqivoz bo'ldi aytgan so'ziga,
Bir aytganin kim eshitsa, havas qip,
So'zi yoqib elning o'g'il-qiziga,
Shuytib o'tgan u zamoni Bulbulning
Goh shodlikman umri o'tgan, goh g'amda,
Goh el bilan birga yig'lab, har yerda,
Doston aytib elning ko'nglin yupatgan,
Bulbul oti ma'lum bo'lgan har yurtida,
Shuytib o'tgan u zamoni Bulbulning.*

Ba'zan termalarda shoir hayotiga oid juda nozik lavhalar muhrlanib qolganiga amin bo'lamiz. Professor Hodi Zarif bergan ma'lumotlarga qaraganda, Jumanbulbul o'g'li Ergashni maktabdor O'tamurodning qizi Ziynatoyga uylantirgan. Ammo baxshi yashaydigan hudud an'anasiga ko'ra kelin to'ydan keyin ikkinchi to'y o'tgandan keyingina kuyovnikiga kelar ekan. Afsuski, birinchi to'ydan keyin Jumanbulbul vafot etadi. Ergashning keyingi to'yga mablag'i yetmaydi. Chunki otasidan qolgan arzimasi bor- yo'q narsalarni ham qarz evaziga olib ketishadi:

*Bo'lib-bo'lib olib ketdi haqini,
Biz bilmaymiz haqi bor yo yo'g'ini,
Zoti yo olismi, bizga yaqini,
Bariga haq berib turgan kunlarim.*
Ergash hayotida juda murakkab holat ro'y beradi:
*Xotin qoldi otasining uyida,
Men bilmayman ne gaplar bor o'yida,*

*Ko'p va'dalar bo'lgan edi to'yida,
Uyalib, borolmay yurgan kunlarim.*

Ma'lum bo'ladiki, termalar baxshilar hayotining o'ziga xos badiiy solnomasi sifatida yaratiladi. Bu xususiyat faqat Ergash shoirga emas, umuman, baxshilar ijodiga xosdir. Jumladan, Fozil shoir o'zi haqida shunday deydi:

*Olti yoshda qo'msab-qo'msab otamni,
Og'ir mehnat ezdi sho'rli enamni,
Ena-bola topolmadik bir nonni,
Parcha non yeb, yig'lab o'tgan kunlarim.*

Bu to'rtlikdan biz Fozil Yo'ldosh o'g'lining otasidan juda yosh yetim qolganini, turmushi og'ir o'tganini bilamiz. Yoshlik qiyinchiliklari keyinchalik «Kunlarim» termasida aks etgan.

Baxshio'zyurtiningtashvishalamlarini,xursandchiliklarini kuylovchi xalq arbobi hisoblanadi. Uning do'mbirasi el qon tomirining urushiga hamohangdir. Shuning uchun ayrim termalarda O'zbekistonimiz tarixiga oid ma'lumotlar ham saqlanib qolgan. Professor Hodi Zarifovning qayd qilishicha, 1898-1908-yillarda O'rta Osiyo hududini chigirtka bosgan. Xalq nochor ahvolda qolgan. 1908-yilda Fozil shoir «Chigirtka» sarlavhali qo'shiq yaratib kuylab yurgan. Unda quyidagi misralar bor edi:

*Bozorchidan shayton qaytib,
Biriga uch baho aytib,
O'ttiz olib, to'qson sotib,
Davlatmandlar qabon bo'ldi.
Kambag'alning aqli shoshib,
O'g'il-qizman kengashib,
Kecha-kunduz zor yig'lashib,
Do'stlar qaddi kamon bo'ldi.*

Bu qo'shiq-termada yurtimiz boshidan kechgan musibatli

kunlar badiiy aksini topgan. Ular vositasida bugungi kun kishisi o'ziga xos tushunchalarga ega bo'ladi. Baxshilar tomonidan kuylab kelingan «Do'mbiram», «Kunlarim», «Nima aytay?», «Go'ro'g'li», «Bormi jahonda» kabi termalarning hammasida ham ma'lum darajada real tarixiy voqealar, xalqning kechinmalari ifodalangan. Ularni yaratishda Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'ltan shoir, Islom shoir, Umir Safarov, Bola baxshi (Qurbonnazar Abdullayev), Rahmatilla Yusuf o'g'li, Qodir baxshi, keyinchalik Shoberdi baxshi, Chori baxshi Xo'jamberdiev, Qahhor baxshi ijodi muhim ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, termalarni xalqimiz og'zaki ijodidagi mustaqil janr sifatida baholash mumkin. Ular xalq hayotining badiiy ifodasi sifatida yaratiladi. Baxshilar termalar orqali ayrim hududda yashagan yurtdoshlarimiz hayoti haqida bizga ma'lumot beradilar. Termalarning xalq dostonlari va haqqoniy hayot o'rtasidagi aloqa bog'lovchi vositachilik ahamiyati alohida muhimdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Qo'shiq tarixi haqida nimalar bilasiz.
2. Mehnat qo'shiqlarining qanday turlari bor?
3. Mavsum-marosim qo'shiqlarida xalqimiz hayotining qaysi jihatlari o'z aksini topadi.
4. Xalq qo'shiqlarining timsollar olamini tahlil qiling.
5. Oilangizdagi yoki mahallangizdagi qariyalardan xalq qo'shiqlarini yozib oling, yodlang.
6. Xalq termalarining xususiyatlarini sanab bering, ularni izohlang.
7. Termalarning amaliy ahamiyati haqida so'zlang.
8. Qaysi baxshilar termalar yaratishda faol ishtirok etganlar?
9. «Termalar va hayot» mavzuyida og'zaki hikoya qiling.
10. Termalardan namunalar yodlang.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit-turk. Turkiy so'zlar devoni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
2. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. T., «Fan» 1959.
3. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. T., «Fan» 1986.
4. Еникеева А.Р. Этнопедагогический потенциал музыкального фольклора в системе народной художественной культуры. – М.; Берлин: Директ Медиа, 2017. – С. 120.
5. Gulyor. Farg'ona qo'shiqlari. – T., G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1967.
6. Oq olma, qizil olma. Qo'shiqlar. – T., G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1972.
7. Boychechak. Qo'shiqlar. – T., G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1983.
8. Sobitova T. Xalq ijodi saboqlari. – T. "MUMTOZ SO'Z", 2011.
9. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T., «O'qituvchi». 1990. 169-173-betlar.
10. Hodi Zarif. Ulkan xalq san'atkori. Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o'rni. (Tadqiqotlar). – T., «Fan». 1973. 8-39-betlar.
11. Hodi Zarif. Fozil shoir – mashhur dostonchi. Fozil shoir (Tadqiqotlar). T., «Fan». 1973. 5-29-betlar.
12. Gulyor. O'zbek xalq ijodi turkumi. Qo'shiqlar. G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. – T., 1967., 49-102 betlar.
13. Sh.Turdimov Xalq qo'shiqlarida ramz .Fan. -T., 2020
14. O.Madayev, M. Jo'rayev, T.Sabitova, N.Muxitdinova O'zbek folklori. Darslik. T. 2022. "ZEBO PRINT". 2022.
15. Sabitova T. O'zbek xalq dostonlarining nazariy asoslari va badiiyati. Monografiya. T. "FIRDAVS SHOH" , 2022.

12-mavzu. Bolalar folklori.

1. Bolalar xalq og'zaki ijodining janr turlari va ijro usullari.
2. «Ramazon», «Boychechak», «Oq terakmi, ko'k terak» qo'shiqlarining ijro yo'llari.
3. Bolalar o'yinlari va ularning mazmuni.
4. Bolalar folklorining tili va badiiy xususiyatlari.

Tayanch iboralar: Xalq og'zaki ijodida bolalar folklori va uning ijro yo'llari, mavzu doirasi haqida ma'lumot.

Darsning maqsadi. Bolalar folklori, janr turlari, onalik folklorining o'zbek folklorida tutgan o'rni, ularning tili va badiiy xususiyatlarini yoritib berish.

Darsning vositalari. Ko'rgazmali o'quv qurollari, folklorshunos olimlarning bolalar folklori janrlariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

Darsning metodi. Blits-so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. Har bir inson bolaligidan boshlab o'zi bilmagan holda katta odamlarning e'tibori qaratilgan mo'jizaviy mavjudotga aylanadi. Kattalar unga ism qo'yadilar, beshikka belaydilar, allalar aytadilar, qo'lchalariga ovoz chiqaruvchi o'yinchoqlar tutqazishadi. Biroz gap eshitadigan bo'lgani zahoti ovunmachoqlar aytishadi. Keyinchalik esa farzand topishmoqlar, ertaklar, qo'shiqlar olamiga kirib xalq rasm- rusumlari, og'zaki ijodi og'ushida ulg'aya boradi.

Xalq qadim zamonlardan farzandlarning ma'naviy va jismoniy tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaragan. Agar allalar, ertaklar uning ma'naviy dunyosini boyitsa, turli o'yinlar: quvlashmachoq, bekinmachoq, chillak, varrak uchirish kabilar jismonan chiniqtirgan. Yosh bolalar alohida e'tiborga loyiq xalqlarda esa ular uchun maxsus badiiy so'z namunalari yaratilgan. O'zbeklar ana shunday xalqlar qatoridan munosib o'rin oladilar. Tez aytishlardan tortib allalargacha, topishmoqlardan tortib sanamachoqlargacha bevosita yosh

avlod tarbiyasiga bag'ishlangan bolalar folklori janrlarini, namunalarini tashkil etadi.

O'zbeklar bolalar folkloriga oid asarlarni bir necha asrlar oldinoq hozirgi zamon pedagogikasi talablarini his etgandek yaratganlar. Aslida xalq bu talablarni o'zicha hisobga olgan. Pedagogika fani esa ularni keyinchalik kashf qilgan. Xususan, bolalar uchun yaratilgan asarlarning tili sodda, mazmuni esa esda qoladigan bo'lishi lozim. Shuningdek, bu asarlar, albatta, tarbiyaviy ahamiyat kasb etgani holda, bolalarda xalqiga, vataniga, qadriyatlariga, ajdodlariga hurmat ruhini shakllantirishi kerak. Bunday namunalar farzandlarimizning ma'rifiy ozuqasi hisoblanadi. Bo'rining yirtqichligini, tulkinning ayyorligini ular dastlab o'zlariga atalgan ertaklardan bilib oladilar. Ayni paytda, bunday asarlar bolada go'zallikka intilish tuyg'usini uyg'otishga ham mo'ljallangan bo'ladi. *Masalan, oy – o'n to'rt kunlik yoki hiloldek; qiz go'zal, chiroyli, o'n to'rt kunlik oydek; yigit mard, jasur, pahlavon, hunarli kabi o'xshatish va sifatlashlar bilan yonma-yon tasvirlanadi. Natijada, bolalar folklori bilan aloqada bo'lgan yosh farzand ularni tinglash yoki o'qish barobarida o'zbekning o'zbekona tarbiyasi bilan tanishib boradi va o'zbek bo'lib voyaga yetishadi.*

Bola tug'ilgani zahoti dunyodagi eng mehr bilan aytiladigan qo'shiqni eshitadi. Alla ana shu qo'shiq hisoblanadi. Sevimli shoirimiz Cho'lpon alla haqida shunday degan edi: «Bir bola uxlamasa, alla aytadilar. Bola tez uxlab ketar. Chunki ul andin bir lazzat his qilur». Bu ifodada allaning eng muhim fazilati – bola ruhiga ta'siri aks etgan. Keksalarimiz allaning sadolari bola ruhiga imyon, vataniga muhabbat, xalqiga hurmat, o'zi tug'ilgan oilaga izzat bo'lib quyilishini ko'p aytganlar. Alla atamasi olimlarning ta'kidlashlaricha, ovutib uxlatish ma'nosini berar ekan. Ayni chog'da bu so'zning «Alloh»dan olinganligi ham ta'kidlanadi. Alla deyarli hamma xalq og'zaki ijodida bor. Uni ruslar «kolbibelnaya», gruzinlar «nanina» deb atashadi. Alla qo'shiqlari matnida bir nechta mavzular ifodalanadi: 1) onaning farzand ko'rganiga shukrona keltirishi; 2) onaning farzandiga baxt- saodat tilashi, uning kelajagi porloq bo'lishini Allohdan

so'rashi; 3) o'zining his-tuyg'ularini, ba'zan turmushidan hasrat qilishlarini bayon qilishi. Ammo allaning matnida qanday mazmun ifodalanishidan qat'i nazar farzand ko'rgan ayolning bolasiga bo'lgan muhabbati ustivorlik qiladi.

Alla aytish an'anasi bizga uzoq o'tmishdan meros bo'lib keladi. Akademik shoirimiz G'afur G'ulom so'z mulkinging sultoni Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoniga bergan sharhida Farhodning beshigi atrofida yig'ilishib: «Yuz ohang bilan alla aytar edilar», - deydi. Yodimizda bo'lishi kerakki, dunyoda o'z kashfiyotlari, she'r va dostonlari bilan mashhur bo'lgan hamma odamlar go'dakligida alla eshitib ulg'aygan. Alladagi fazilatlarni Abu Ali Ibn Sino ham alohida ta'kidlagan. Xususan, shifokor alloma allaning bola ruhiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini alohida uqtiradi.

Tabiiyki, beshikda tebranayotgan go'dak allaning so'zlarini idrok etolmaydi. Bola uchun, allaning kuyi, ijro usuli ahamiyatliroqdir. Ona shuning uchun allani berilib, butun vujudi bilan bolasiga ruhan ta'sir ko'rsatishga urinib aytadi. Ayni paytda, alla matni onaning umidlar ifodasi, ba'zan hasrat qilish usuli, ko'pincha dil so'zlarini bayon qilish shakli sifatida qadrli bo'ladi.

O'zbek bolalar folklorini ilmiy jihatdan tadqiq qilgan olim, filologiya fanlari doktori, professor O. Safarov allalarning mazmunva kompozitsiyajihatidan bir nechaturlargabo'linishini ko'rsatib o'tgan. Jumladan, ular orasida parokanda allalar, voqeaband allalar, maishiy allalar, tarixiy allalar bor bo'lib, har biri boshqasidan ma'lum darajada farqlanadi. Parokanda allalarda matndagi bandlarda o'zaro bog'liqlik bo'lmaydi. Har bir to'rtlik o'zicha mustaqil mazmunga ega bo'ladi:

*Men seni alla qilay, alla.
Ko'tarib katta qilay, alla.
Alla jonning rohati, alla,
Uyqu ko'zning rohati, alla.
O'rik yog'och beshiging, alla,
O'rgilib ketsin onang, alla.*

*Tut yog'ochdan beshiging, alla,
Termilib o'tsin onang, alla.*

Yuqoridagi bandlarni o'rin almashtirib aytsa ham bo'laveradi. Chunki ularning har biri alohida alla matnidan iboratdir.

Voqeaband allalarda esa ona aytayotgan alla matnida o'ziga xos bog'liqlik seziladi. Ularni avvalgi namunalardek oldinma-keyin aytish mumkin emas. E'tibor qiling:

*Past-pastgina tepadan,
Toydim-tushdim-o, alla.
Qo'limga qaychi olib-o,
Senga qo'zichog'im-o,
Chopon bichdim-o, alla.
Yenglari tor kelmasin deb,
Qo'lingga qarab-o, alla.
Chopon bichgan qo'limni-yo,
Mening toylog'im-o, alla,
Oyi bordir-o, alla,
Jonim bolam-o, alla.*

Ko'rinib turibdiki, endi bu alladagi misralarning o'rnini almashtirib ijro etish mumkin emas. Chunki bu allada matndagi mazmun bir butun bo'lib, misralarning oldinma-keyin, ma'lum tartibda kuylanishini talab qiladi.

Maishiy allalarda esa ona ko'proq alla aytish sababi bilan o'zining dardini bayon qilishga urinadi.

*Shaftoli shoxiga zor, alla,
G'aynoli bargiga zor, alla.
Men dadangga intizor, alla,
Ko'z tutarman beqaror, alla.*

Umuman, alla-onaning farzandi bilan his-tuyg'ular orqali munosabatda bo'lish vositasi. Ular lirik asarlar sifatida

kuylovchilarning ichki kechinmalarini ifodalaydi. Shuning uchun ham chaqaloqni estetik tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bolalar folklorining yana bir janri ertaklardir. Tabiiyki, bu ertaklar kattalar folkloridagi namunalardan syujetdagi va tildagi soddalik bilan ajralib turadi. Ularning matnlari ham hajm jihatdan qisqa bo'ladi. Ishtirok etadigan qahramonlar - obrazlar esa ko'pincha hayvonlardir. Kattalar yosh bolalarga bag'ishlangan ertaklar orqali bir qator maqsadlarni nazarda tutganlar. Jumladan, bunday ertaklar bolalarni ovutishga, ayrim yovvoyi va uy hayvonlari, qushlar haqida ma'lumot berishga, ularning nutqini o'stirishga, uxlashdan oldin tinch-sokin kayfiyatni hosil qilishga qaratiladi. Boladagi ezgulikka intilishni shakllantiradi, rivojlantiradi.

Masalan, «Qarg'a bilan Qo'zi» ertagida qarg'a qo'zini yemoqchi bo'ladi. Qo'zi qarg'aga tumshug'ini halollab olishini maslahat beradi. Qarg'a daryo bo'yiga tumshug'ini halollash uchun keladi. Shu bilan qarg'ani daryo ko'za uchun kulolga, kulol ko'za qilish uchun tuproqqa, tuproq tuproq qazish uchun kiyikka, kiyik shoxini sindirish uchun tozi itning egasi Po'latvoy akaga, Po'latvoy aka tozi kuch to'plashi uchun sigir sutini olib kelishga va hokazo Toshvoy akaga, o'tga, ustaga, ko'mirga jo'natishibdi. Oxiri qarg'a o'roqni olib uchib ketayotganida o'roq qarg'aning qanotini kesib ketibdi va u o'libdi. Eng muhimi, qarg'a o'zining qora niyatiga yetolmaydi. Ammo ertakning oxiridagi qarg'aning so'zlari bilan tanishsak, bolalar eslashi uchun qiziq bir monolog hosil bo'lganini ko'ramiz:

Qarg'a bu yerdan ham uchib o'shal ko'mirchilarning oldiga borib:

– Ko'mirchi aka, ko'mirchi aka, bering ko'mir, ilsin o'roq, o'ray quroq, yesin sigir, bersin sut, ichsin tozi, quvsin kiyik, tashlasin shox, qaziy tuproq, qilsin ko'za, olay suv, chayqay tumshuq, semiz, a'lo, yeyman qo'zi, – debdi.

Agar e'tibor bersak, qarg'aning bu monologida ertakning boshidan oxirigacha mazmuni to'la singdirilganiga guvoh bo'lamiz. Yosh bola bu ertakni eshitar ekan, hayotidagi hamma voqea-hodisalar bir-biri bilan uzviy aloqada ekaniga tushunadi.

Yakka shaxs, yakka kasb hech qachon hayotdan ajragan holda yashay olmaydi. Ertakchi daryo, kulol, tozi, kiyik, dala, ko'mirchi – hammasi qo'zi tarafida. Qo'zi esa beg'uborlik, tozalik ramzi sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun qo'zini yemoqchi bo'lgan qarg'aning o'zi o'lib ketadi. Bolalar folkloriga oid deyarli hamma ertaklarda ana shu yo'nalish yetakchi hisoblanadi.

Maishiy ertak «Uch og'a-ini botirlar»da esa asar mazmuni va mohiyati kekxa otaning uchta o'g'luga safar oldidan bergan uchta maslahatida o'z ifodasini topadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. To'g'ri bo'ling - bexavotir bo'lasiz.
2. Maqtanchoq bo'lmang - uyatga qolmaysiz.
3. Dangasa bo'lmang - baxtsiz bo'lmaysiz.

Maslahatlar ma'nosidan ham ma'lum bo'lib turibdiki, ular aslida har bir o'zbekning farzandiga qiladigan nasihatidan iboratdir. Binobarin, ular bevosita bizlarga ham taalluqlidir. Ertak matni esa ana shu pand-nasihatning badiiy ifodasini tashkil etadi. Shuning uchun ham bolalar ertaklarida ortiqcha xayoliy fantaziyalar kattalar folkloridagi kabi bo'lmaydi. Bolalar ertagi faqat soddaligi, tilining ravonligi bilan emas, hayotga yaqinligi bilan ham e'tiborni o'ziga tortadi.

Xullas, bolalarga atab yaratilgan ertaklar ko'p jihatdan xalq pedagogikasi tamoyillari aks etgan badiiy so'z namunasi.

Bolalar qo'shiqlarining ham kattalar aytadigan mehnat, mavsum-marosim, lirik qo'shiqlardan farqli jihatlari bor. Jumladan, bolalar qo'shiqlari ko'pincha mavsumiy xususiyatlarga ega bo'lib, ko'pincha qo'l-oyoq harakatlari bilan ijro etiladi. «Boychechak», «Oftob chiqdi olamga», «Oq terakmi, ko'k terak», «Chitti gul», «Laylak keldi, yoz bo'ldi», «Yomg'ir yog'aloq» kabi o'nlab qo'shiqlar bolalar qo'shiqlari namunalaridir.

Bu qo'shiq misralaridagi bo'g'inlar soni 6-8tadan oshmaydi. Misralar soni esa 6, 8, 10 va undan ortiq bo'lishi mumkin. Bolalar qo'shiqlari o'z mazmuniga ko'ra yilning to'rt faslida aytilishi mumkin. Bahor faslidagi tabiatning uyg'onishi yosh bolalar ruhiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Qish bo'yi

qorayib ketgan qorlarning erib ketishi, dalalarning ko'm-ko'k maysalar bilan qoplanishi, meva daraxtlarining gullashi - hammasi bolalarning ichlariga sig'may qo'shiq aytishlariga sabab bo'ladi. «Boychechak» qo'shig'i ana shunday paytlarda aytiladi. Uni yakkaxon qo'shiqchi boshlab beradi, ko'pchilik naqarotiga qo'shilib aytadi:

*Boychechagim boylandi,
Qozon to'la ayrondi,
Ayroningdan bermasang,
Qozon-tovog'ing vayrondi.*

Naqarot:

*Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.*

Filologiya fanlari doktori, professor O. Safarovning ta'kidlashicha, yoz mavsumida bolalar issiq kunlarning kelishidan quvonib, cho'milish kunlariga, mevalarning pishishiga atab qo'shiqlar aytishgan²²,

*Shaftoli pishdi,
Tagiga tushdi.
Xomini uzdim
Dadam urishdi.*

Yoki:

*Laylak keldi yoz bo'ldi,
Qanoti qog'oz bo'ldi,
Laylak boradi toqqa,
Quloqlarida halqa.
Halqani opqochaylik,
El boshiga sochaylik.
Elning murodi kulsin,
Laylak balandroq uchsini.*

²² Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. T., «O'qituvchi». 1985. 143-b.

Shuningdek, qish faslida qor kurash paytida ham bolalar tabiatdagi bunday o'zgarishlarga mos qo'shiqlar kuylashgan:

*Qor yog'di gupillatib,
Qor buva to'qillatib.
Kirib keldi maktabga,
Soqolini selkillatib.*

Bolalar qo'shiqlarida chumchuq, qirg'iy, qarg'a, kaklik, musicha kabi qushlarga va echki, qo'zi, quyon, it kabi hayvonlarga atab yaratilganlari ham ko'p uchraydi:

*Ag'am-bag'am tishini ko'rdim,
Yugurganda tilini ko'rdim,
U chopardi dukur-dukur,
Quyon ekan harom o'lgur.*

Ma'lum bo'ladiki, bolalar tomonidan ijro etiladigan qo'shiqlar ko'proq yil fasllariga, qush va hayvonlarga bag'ishlangan bo'lib, ularda ko'pincha qo'shiqda aks etgan bahor, yoz, qish yoki narsa- predmetlarga nisbatan munosabatlar badiiy ifodasini topadi.

Tez aytishlar bolalar folklori tarkibiga nisbatan keyin qo'shilgan janr hisoblanadi. Olimlarning fikricha, tez aytishlar avvallari alohida janr sifatida «tutal», «chalg'ituv», «chalish», «adashish» atamalari bilan mashhur bo'lgan. «Tez aytish» esa nisbatan keyingi atamadir. Vaqt o'tgani sari bu janr kattalardan bolalar folkloriga ko'chgan. Qadimgi tez aytishlardagi so'zlarning ko'pligi bu fikrning to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. Gap shundaki, tez aytish qoidasida namuna to'liq aytib bo'linmagunicha nafas olish mumkin emas. Son jihatdan shu qadar ko'p so'zli tez aytishlar borki, ularni yosh bola ayta olmaydi. Shuning uchun bu tez aytishlar avvaliga katta yoshdagi odamlar o'rtasida keng tarqalgan bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelingan. Tez aytishning ikkinchi qoidasi matndagi tovushlarni aniq talaffuz qilish kerakligi bilan belgilanadi.

Tez aytish hozirgi paytda bolalarning ayrim tovushlarni talaffuz qilishdagi kamchiliklarini yo'qotish jarayonini tezlashtiradi. *Masalan*, ko'pincha bolalar «r» tovushi talaffuzida qiynalishadi: «l» tovushi bilan chalkashtirishadi. Shuning uchun tez aytishdagi bir nafasda matnni to'liq aytib bo'lish qoidasidan qat'i nazar «r» va «l» tovushlari talaffuzini to'g'ri amalga oshiruvchi tez aytishlarni ularga o'rgatish foydalidir:

*Charxim chakalak,
Tanobi charxim chakalak.
Charximda gunoh yo'g'u,
O'zim hakalak.*

Shuningdek, faqat «r» tovushi talaffuziga bag'ishlangan matnlardan ham foydalanish mumkin:

*«Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir tup turp.
Bir tup tut, bir tup turpning tomirini turtib turibdi.
Bir tup turp, bir tup tutning tomirini turtib turibdi.
Bir tup tutning tomirini turtib turgan bir tup turpning
tomirini bir tup tutning tomiri turtib turibdi.
Bir tup turpning tomirini turtib turgan bir tup tutning
tomirini bir tup turpning tomiri turtib turibdi».*

Albatta, so'z soni jihatidan ko'p bo'lgan tez aytishlarni bolalar ijro qilishga qiynalishlari mumkin. Shuning uchun kichik matnli tez aytishlardan boshlash ma'qul hisoblanadi:

«Bir tup tut, To'rt tup turp».

Yoki:

*«Oq choynakka ko'k qopqoq,
Ko'k choynakka oq qopqoq».*

Yoki:

*«Qishda kishmish pishmasmish,
Pishsa kishmish qishmasmish».*

Ta'kidlash lozimki, xalq orasida ko'p so'zli tez aytishlar

ijrosi kengroq ommalashgan. Ularning matnlarida yumor belgilari ham singdirilgani uchun tinglovchilarda alohida qiziqish uyg'otadi.

Masalan:

«Namanganda bor ekan bir usta Musa puch pista purush. O'sha usta Musa puch pista purushning oltmish uch pud puch pistasi bor ekan. Oltmish uch pud puch pistasi bo'lsa ham, o'sha usta Musa puch pista purush, oltmish uch pud puch pistasi bo'lmasa ham, o'sha usta Musa puch pista purush».

Bunday namunalar xalqimizning faqat til boyligimizga emas, so'zlarning tiniq talaffuziga ham katta e'tibor bilan qaraganligini dalillaydi. Olimlarning aniqlashicha, yuzta namunadan 18 tasi «sh», 17 tasi «m», 15 tasi «k», 10 tasi «s», 8 tasi «j» va «ch», 7 tasi «g'» va «q» tovushlariga asoslangan bo'lib, «l», «m», «g», «d», «z» tovushlariga asoslanganlari nisbatan kam ekan. Yana aytish mumkinki, xalq ijodidagi bu janrdan ilhomlanib, shoirlarimiz ham ko'plab tez aytishga asoslangan she'rlar yozmoqdalar, televideniye va radioda ko'rsatuv, eshittirishlar tashkil etilmoqda.

Xullas, tez aytish o'zbek xalqining bolalar tarbiyasida hatto talaffuz ko'nikmalarini oshirishga naqadar e'tibor bilan munosabatda bo'lganligini bildiradi.

Katta yoshdagi o'smirlar orasida sanamalarni bilmaydiganlar bo'lmasa kerak. Chunki yoshlik chog'imizda hammamiz ikkiga bo'linib o'ynaladigan musobaqalarda qatnashganmiz. Quvlashmachoq, bekinmachoqlarda ishtirok etganmiz. Sanamalarning matnlari bir nechta maqsadga qaratilgan bo'ladi. Avvalo, sanamalardagi qofiya, o'xshatish, istiora, sifatlashlar yosh o'gil-qizlarda estetik didni rivojlantirishga, ularning har bir harakat, har bir so'zni go'zal talaffuz qilish ko'nikmasini egallashlariga ko'maklashadi. Ikkinchidan, hayot murakkabliklari bilan ilk bor to'qnashtiradi: qaysi guruhda ishtirok etishini uning xohlashidan qat'i nazar hal qiladi. Sanamada qatordan chiqish o'yin boshining hisobni kimdan boshlashiga bog'liq ekanini anglatadi. Uchinchidan, sanash tartibi haqida ko'nikma hosil qiladi. Ayniqsa, maktab

yoshiga endi to'lgan bolalar uchun bu xususiyat muhim hisoblanadi. *Masalan*, «Bir ikki o'n olti, o'n olti deb kim aytdi, o'n olti deb man aytdim, ishonmasang sanab boq» sanamasida talaffuzdagi zarblar soni o'n oltita bo'lib, har bir zarbdan so'ng yerga bittadan chiziq tortilsa, umumiy son o'n oltiga teng bo'ladi. Aytilishidagi qulaylik, eslab qolishning osonligi, yerga chiziq tortish harakati bolada qiziqish uyg'otadi va juda bo'lmaganda o'n oltigacha sanash ko'nikmasini tez o'zlashtirishga olib keladi.

Olimlarning ta'kidlashlaricha, sanamalar faqat o'zbek bolalari orasida emas, umuman turli xalq bolalarida ham ko'p tarqalgan janr hisoblanadi. Jumladan, ruslarda «schitalka», tojiklarda «shumurak», turkmanlarda «sanavoch», tatarlarda «sanashu» deb ataladi. Ularning ko'pchiligi she'riy tarzda ijro etiladi. O'yinning boshlovchisi — onaboshi sanama aytib, davradagi bolalarni bittalab chiqargunga qadar uning matnini hamma ishtirokchilar yodlab oladilar:

*Qovun palak, Guvak otdi.
Guvak emas, Chuvak otdi.
Chuvak qovun Shirin ekan,
Safdan chiqsin Qo'lim tekkan.*

Bolalar folklori tadqiqoti bilan shug'ullangan olim O. Safarov o'zbek bolalar folklorida salkam 800 misrani tashkil etuvchi 150 dan ortiq sanamalar bor ekanligini ko'rsatib o'tadi. To'g'ri, gap sanamalarning soni va hajmining kattaligida emas. Ammo baribir bu raqamlar sanamalar sohasida ham folklorimiz naqadar boy ekanligini tasdiqlaydigan dalil hisoblanadi. Ular orasida yurtimizning deyarli hamma hududlarida bolalar tomonidan qayta-qayta aytiladiganlari ham ko'p.

Masalan:

*Chori chambar Bori anbar.
-Ona qizi qayda?
-Ola-bula tog'da.
Tog'man zuvman, Kumush bolg'a.
Onavosh yonbosh Guldur gup.*

Shunday qilib, bolalar folklorining tarkibiy qismi bo'lmish sanamalar ham yosh avlodlarning ulg'ayishida boshqa janrlar kabi estetik, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyat kasb etar ekan.

Demak, o'zbek bolalar folklori janrlar rang-barangligi, asarlar badiiyati va son ko'lamini jihatidan kattalarning og'zaki ijodi qatoridan munosib o'rin olishga loyiqdir. Bolalar folklori namunalari o'zbekning o'z farzandi tarbiyasiga, binobarin, xalqining, yurtining kelajagiga o'ta mas'uliyat bilan yondashganini va qanchalar e'tibor bilan qaraganini ko'rsatadi. Bu e'tibor o'z navbatida umuman xalqimiz ongida ajdodlar xotirasiga hurmat tuyg'usining kuchli bo'lishiga olib kelgan. Qadriyatlarimizni e'zozlash, tariximizga hurmat bilan qarash allalar ohangi bilan jismimizga singib ketgan. Ertaklar orqali o'tmishdagi yurtdoshlarimizning hayot tarzi bilan tanishganmiz. Tez aytish, topishmoq, sanamalar, qo'shiqlar bilan ovunganmiz. Oxir- oqibatda bu asarlar bizning ruhan, tabiatan o'zbek bo'lib voyaga yetishimizga xizmat qilgan. Bu an'ana, ayniqsa, mustaqillik yillarida yana keng ommalashdi. Binobarin, asrlar oldin yaratilgan bolalar folklori namunalari bugungi kunda ham o'z vazifasini bajarmoqda.

Bolalar tomonidan yaratilgan og'zaki ijod namunalari bolalar folkloriga kiradi. Ba'zan bolalar uchun kattalar ham bolalar folklorini yaratganlar. Bular «Alla» qo'shiqlari, ertaklar, tez aytishlar, topishmoqlar, o'yin qo'shiqlari, o'yinlar, ermaklar va boshqalar. Bolalar o'yinlari va o'yin bilan aytiladigan qo'shiqlarning ko'plari yil fasllari bilan bog'langan. «Boychechak», «Oftob chiqdi olamga», «Chittigul», «Laylak keldi, yoz bo'ldi», «Qurbaqa», «Qaldirg'och» singari qo'shiqlarni bolalar tom boshlarida, dalalarda, qishloq ko'chalarida aytishadi. Ular bahorning kelishi, qushlarning uchib kelishi, suvlarda qurbaqalarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

«Yomg'ir yog'aloq» qo'shig'i esa dehqon bolalarini quvontirgan bahor yomg'irining yog'ishini tasvirlaydi. Bolalar yilning hamma faslida o'yin bilan shug'ullanadilar. O'yin ham, qo'shiqlar ham bolalarning aqliy ham jismoniy kamolotga yetishiga yordam beradi. Bolalar qo'shiqlari katta tarbiyaviy

ahamiyatga ega bo'lib, ularning intizomli, jasur va boshqa ijobiy sifatlarini tarbiyalaydi. Xalq og'zaki ijodida bolalar qo'shiqlari ham marosim va urf-odatlar bilan bog'liq bo'lgan. Shulardan biri «Boychechak»dir. Bu qo'shiqda bolalar boychechak o'simligini dala-qirlardan qidirib topgach, hovlima-hovli yurib qo'shiq aytganlar. Xonadonlar esa qo'shiq aytgan bolalarni turli xil yemishlar bilan ziyofat qilganlar.

Ijodkor xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardan oq ishongan. U o'zining eng noyob asarlarini so'z mo'jizasi bilan bunyod keltirgan.

Bolalar folklori kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosini uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlarning butun bir tizimi tarzida tarkib topgan bolalar folklori bolalarda eng yaxshi fazilatlarini – vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ularini kattalar bilan birga tabiat hodisalarida kurashish va qiyinchilikni yengish malakasini tarbiyalaydi. Bolalar folklorini yaratishda kattalar ham, bolalar ham baravar hissa qo'shishgan. Kattalar bolalarni erkalash she'rlarini yaratishganki, alla, aytim, olqish, ovutmachiq, qiziqmachiq singari erkalash xususiyatlariga ega bo'lgan bu janrlar onalik folklori tarzida ifodalangan.

Onalik folklori keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, poetik namunalarda erkalash xususiyati yetakchidir. Shu mantiqqa asoslanib, onalik folklorida va poetik asarlar silsilasini nasriy asarlar guruhidan ravshanroq ajratish niyatida onalarni erkalovchi she'rlari deb ham atash mumkin. O'z navbatida erkalash she'riyatiga mansub namunalarning ijro maqsadi, o'rni va bola yoshi, saviyasiga ko'ra guruhlarga bo'linadi. Birinchi guruhga mansub qo'shiqlar bolaning beshikdagi davri bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ularni beshik qo'shiqlari deyishadi. Allalar, aytimlar, olqishlar, anashunday xususiyatlarga ega. Beshik qo'shiqlari bola uch yoshga to'lgunga qadar aytiladi. Allalar ijtimoiy-estetik qiymatiga ko'ra, birinchidan, bolalarni uxlatishdan iborat, ikkinchidan - tarbiyaviy estetik mohiyat kasb etishdan iborat. Beshik qo'shiqlarida eng ko'zga ko'rinadigan mavzu – bola ta'rifi. Ona o'z bolasini o'zi bilgan yaxshi so'zlar

bilan ta'riflaydi.

*Qo'zi boqqan qo'y etsin,
Topganimga to'y yetsin .
To'y-to'ylarga ulansin,
Davlat boshingga o'rnashsin.
Alla-yo, alla.*

Ikkinchi guruhga oid qo'shiqlar bola tug'ilganidan to 10-11 yoshga to'lguncha ijro etiladigan aslida beshik bilan bog'lanmagan onalik mehri tarovatidan yuzaga kelgan badihalardir. Bular suyish qo'shiqlari bo'lib, erkalatmalar, ovutmachochlar, qiziqmachochlardan tarkib topgan.

Aytim-olqishlar erkalovchi ruhdagi rasm-rusum bo'lib, aksariyati, asosan, bolalarning beshik davriga oid turli-tuman marosimlarda ijro etiladi. Chaqaloq beshikka solinganda, cho'miltirilganda, birinchi qadamini bosganda, sochi birinchi olinganda, bolaga isiriq tutatilganda, xullas, shunday rasm-rusumlarning mazmuniga yarasha aytim-olqishlari mavjud. Bolaga yangi kiyim kiydirish qutloviga aylangan quyidagi aytim-olqishga e'tibor berish lozim.

*San bir yillik,
Man ming yillik,
Kiya-kiya to'zdiraylik,
Dugonalarimdan o'zdiraylik.*

Erkalamalar. Erkalamalar kichkintoylar g'ashlanganda, baqirib-chinqirib yig'laganda, betoqatligi oshganda aytilib, kayfiyatning ko'tarinkiligini oshirish uchun ijro etiladi.

*O, shugina, shiringina,
Munchagina, tunchagina
Kunchagina, shunchagina,
Yashnab turgan kunchagina.*

«Yasha», «balli», «ofarin», «rahmat» kabi erkalovchi, olqishlovchi soʻzlar ham bolaga quvonch bagʻishlaydi.

Ovutmachhoqlar. Onaning bola bilan boʻlgan munosabatlarida juda qadim zamonlardagi odatlarning izlarini koʻrishimiz mumkin. Bular kishilarning tirikchilik shakllari, turli xil anʼanalari bilan birga, ularning oʻz davrida animistik, totemistik tushunchalarda boʻlganliklarini tasdiqlaydi. Biz bu tushunchalarni baʼzi keksalarning harakatlari vaqtida kuzatamiz. Masalan, ona bolani beshikka belayotganida oʻng qoʻli bilan qovoʻzni tekislab, keyin bolani yotqizayotib, shunday soʻzlarni aytadi:

Egalari kirsin, bobovlari qochsin.

Bolani beshikdan yechib olayotganda esa: uyquasi beshikda qolsin, – deydi. Diqqatimizni ikki narsa oʻziga jalb qiladi, biri beshikning egasi bola. Bolani beshikka belaguncha bu joyda, vaqtincha, boshqa bir narsa egallab turibdi. Egasi kelganda u joyni boʻshatishi kerak. Ikkinchi, uyqu boladan ajrab, beshikda qolishi kerak ekan.

Mahmud Koshgʻariyning nazari ham bu faktni ham chetlab oʻtmadi – isiriq. Isiriq deyilganda «Ey jin, es-hushingni yoʻqot, - deyilgani boʻladi» deb izoh beradi olim.

Ovutmachhoqlarning maʼlum bir turkumi onalarning qilgan harakatlarida oʻlchovlik vazifalarini ham oʻtaydi. Masalan, ona beshikdagi bolani yechib olar ekan, oʻng bilagidan gʻoz koʻtarib:

«Oʻs, oʻs», – deydi, yana chap bilagidan koʻtarib: «Oʻs, oʻs», – deydi.

Ovutmachhoqlar yana bolarning tinchlantirish ehtiyojini qondiruvchi maqtovlardir.

*Vuy-vuy, shuginani kim urdi,
Vuy-vuy, shuginaga kim lab burdi.
Yigʻlama oppoqqinam,
Boshimdagi qalpoqqinam.*

Tez aytishlar va topishmoqlar. Tez aytishlar yoki soʻz oʻyinlari oʻzbek folklori turlaridan biri boʻlib, ayrim nutq

tovushlarining ko'p qaytarilishi yoki tovushlarning so'z va iboralar tarkibida murakkab joylashishiga asoslanadi. Tez aytishlar vositasida bolalar ona tilidagi tovush va so'zlarni ravon, burro, aniq talaffuz etishni, tovushlar ohangdorligini, so'zlarning nozik ma'nolarini his va idrok qilish, aniqlash va ilg'ab olishni mashq qiladilar.

*Qishda kishmish pishmashmish,
Pishsa kishmish qishmashmish.*

O'zbek folklorida tez aytishlar, so'z o'yinlari qadim zamonlardan beri bor. Lutfiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida ham so'z o'yinlarini uchratishimiz mumkin. Navoiy tuyuqlari haqida so'z yuritar ekan, uning ildizlari xalq poeziyasi janrlaridan kelib chiqishiga ishora qilib, tuyuqlarni «yor-yor»,

«qo'shiq»lar bilan bir o'ringa qo'yadi. Tajnis va iyhom - ikki va undan ko'p ma'noli so'z san'ati deb ta'riflaydi. Aksariyat tez aytishlar talaffuzi bir-biridan katta farq qildigan fonemalar asosida, jumladan, «sh», «l», «r» undoshlari asosida tuziladi. Masalan: «Lola arralaydi, Sora allalaydi».

Bu birinchi turkumga kirgan tez aytishlar yordami bilan uch- to'rt yoshga kirgan bolalarning «r», «sh» tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishi yoki «l» va «s»ga almashtirib yuborishi ma'lum bo'ladi.

Ikkinchi bir turkum tez aytishlar borki, unda bolani ayrim tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish bilan birga, bolaning xayolini bir joyga yig'ishga, jumlaning mantiqiy urg'usini aniqlab olishga jalb qilinadi.

Masalan: Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir bir tup turp. Bir tup tut bir tup turpning tomirini turtib turibdi, bir tup turp bir tup tutning tomirini turtib turibdi.

Ko'rinib turibdiki, misoldagi «tut», «turp» so'zlarini to'g'ri talaffuz qilishdan tashqari, jumladan to'g'ri takrorlash, tutning va turpning turgan o'rni va holatlarini yodda saqlab qolish kerak.

Tez aytishlar kichik va maktab yoshidagi bolalar nutqida ayrim nutq tovushlarni buzib talaffuz etish hollarini tuzatishga, to'g'ri so'zlaydigan bolalarda esa adabiy talaffuz normalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Bolaga tish chiqishi bilan bog'liq irimlarda esa «yordamchi» so'zlar bo'lmay, bunda xalq og'zidagi afsonalar aytiladi, ba'zi odatiy ishlar qilinadi. Onalar qozonda bug'doy qovurib, chaqaloqning ustidan sochadilar, «chaqaloqning tishlari xuddi bug'doydek chiroyli chiqsin, deyishadi. To'plangan bolalar bug'doy qovurmoqchi bilan mehmon qilinadi. Ba'zan bu odatni bug'doy sochishib «nasibalik bo'lsin» deb tushuntiradilar. Chorvador joylarda chaqaloqning tishi chiqish vaqtida otga mindirib olishadi, «ot tishi chiqadi» deyishadi. Agar qo'yg'a mindirilsa «qo'y tish» chiqar ekan.

So'z o'yinlari. O'zbek xalqining askiya, tuyuqlar, qochirimlar, bahri bayt singari og'zaki ijodlarida so'z o'yinlari asosiy rol o'ynaydi. Bolalar juda yoshligidan boshlab kattalar og'zidan eshitgan ona tili boyligimizni juda ustalik bilan namoyish qilishning guvohi bo'ladilar. Ayni vaqtda bolalar bir so'zning bir necha ma'nosini tushunishni mashq qiladilar. Keyinchalik o'zlari ham so'z o'yini singari so'z- jummalari to'qiydilar. Masalan, bolalar kattalardan mana shu so'z o'yinlarini eshitadi:

*Qizarib pishgan olmadi,
Olmadan nega olmadi,
Olmagani xo'b bo'bdi,
Endi kelsa olma, de.*

Bu xalq og'zida aytilib yurgan to'rtlik tajnis asosida qurilgan, mumtoz adabiyotda tuyuqning o'zi. Bola buning aynan o'ziga o'xshash boshqa bir variantini «to'qib» bera olmaydi, balki o'z kuchiga qarab, to'rtlik emas, balki ikki yo'ldan iborat so'z o'yini ijod qildi.

*Olmaxon, olmani ol, ma!
Olmani olmaxondan olma.*

Bu yerda olma soʻzi avval buyruq, keyin inkor maʼnosida qoʻllangan. Misralarda soʻz oʻyini ham shu ikki xil maʼno berish asosida qurilgan boʻlib, unda bolaning shu soʻz maʼnolarini farqlay olishi talab etiladi.

Bolalar qoʻshiqlari. Kishilar oʻz mehnatlarini, turmushdagi barcha voqealarni qoʻshiq bilan bezaganlar. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodiyoti boyliklari ichida kattalardan bolalarga meros qoladigan qoʻshiqlarning salmoqli turi mehnat qoʻshiqlaridir:

*Oq sigir, koʻk sigir,
Qani tezroq boʻl sigir,
Doni menga, Somoni senga, Xoʻp, toʻp.*

Kattalarning bolalarga aytib beradigan, keyinchalik bolalarga meros boʻlib qoladigan yana bir qoʻshiqlar turkumi Mahmud Koshgʻariyning «Devonu lugʻotit turk»idan to bizning davrimizgacha aytilib kelingan jonli va jonsiz personajlar bahsidir.

*Oq sholi, koʻk sholi,
Oq sholini oqlaylik,
Koʻk sholini koʻklaylik,
Niyozbekka saqlaylik.*

Xalq oʻrtasida suv haqida juda koʻplab afsonalar, qoʻshiqlar, ertaklar yaratilgan. Oʻzbek xalqining eng yaxshi orzulari suv bilan bogʻlangan. Bu umumxalq ruhidan bolalar ham chetda qolmaganlar. Ularning oʻyin va ashulalarida ham suv, tabiat hodisalari mavzusi bor. Ulardan biri yomgʻir haqidadir.

*Yomgʻir yogʻaloq,
Echki sogʻaloq,
Boyning oʻgʻlini Qorni dumaloq.*

Qoʻshiqning bir necha variantlari mavjud:

*Yomg'ir yog'aloq,
Yam-yashil o'tloq,
Endi ekinlar,
Chiqarar quloq.*

Buxoro viloyatinig o'zbek va tojik tillari asosida shirin-shakar qilib» Yomg'ir-yomg'ir bor-e, bor-e yoqqaningni ko'ray», – deyishadi. Farg'onada yosh qizlar «Yomg'ir yog', sochim o's!» deb qichqirishadi. Surxondaryoda esa yomg'ir yoqqanda aytiladigan shunday qo'shiq bor:

*Yomg'ir yog'sin,
O'ralar to'lsin,
Sur xotin,
Sur xotinga suv kerak,
Qozon to'la un kerak.*

Bunda yomg'irning «qozon-qozon un» keltirishi ochiqdan ochiq aytib qo'yiladi. Don-un, un-non. Bolaga esa non kerak. Qor haqida ham qo'shiqlar bor. Qadim zamonda qor kambag'allik, ochlik, yupinlik ramzi edi. Qorni yog'ishi inson irodasidan tashqari hodisa, odamning unga itoat qilishdan boshqa chorasi yo'q deb tushunilardi. Shuning uchun Qor xatlar: «Qor yog'dirgan xudoyimning o'zi» so'zlari bilan boshlanar edi. Qorda qolgan odam nochor odam sifatida tasvirlanadi. Ko'pincha, chol va kampirlar tilga olinardi.

«Qolgan ishga qor yog'ar» maqollari esa omadsizlikdan, ishning yurishmasligidan darak berardi. Qo'shiqlardan bir misol:

*Qor yog'adi guppillab,
Ammam kelar cho'kalab,
Ko'rpacha soling yonimga,
Ammam kelsa uyimga*

Bahor fasli kelishi bilan bolalar o'yinlarini boshlab

yuboradilar. O'g'il bolalar osmonga varrak uchiradilar. Qiz bolalar sochlariga bargak taqadilar. Bolalar tol chiviqclarini qo'l bilan uqalab, asta po'stini shilib, o'zlariga sivizg'alar yasaydilar. Kichkintoylar xivichlarni «toy» qilib minishadilar. Boychechak bolalarning birinchi qo'shig'iga sazovor bo'ladi. Ular bu qo'shiqni baland ovoz bilan bab- baravar aytadilar.

*Boychechagim boylandi,
Qozon to'la ayron di,
Ayroningdan bermasang,
Qozonlaring vayron di.
Qattiq yerdan qazlab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak.
Boychechakni tutdilar,
Tut yog'ochga osdilar.
Qilich minan chopdilar,
Baxmal minan yopdilar.*

O'zbek va tojik etnografiyasining, folklorining tadqiqotchisi professor E.M.Peshchereva suhbat vaqtida nega «boychechakni tutdilar, tut yog'ochga osdilar» deyilishiga diqqatimizni tortdi. Haqiqatan ham, qadim Sharqda tut daraxti muqaddas daraxtlardan biri deb hisoblangan. O'zbeklarda mazkur e'tiqodga ko'ra daraxtning «egasi bor» deb hisoblanadi, ehtiyot qilinadi, uning tanasidan xotinlar sochini tarash uchun taroq, bola belaydigan beshik qilinadi. Boychechak xalq orasida ramziy timsol bo'lsa kerak. Negaki u xuddi odam singari tasvirlanadi. Uni «tutadilar», «tut yogochga osadilar», «qilich bilan chopadilar», «baxmal bilan yopadilar». Bunday ishlar bundan 2-3 ming yil ilgari qadim Misr, Yunonda ham bo'lganini etnograf tarixchilar biladilar.

Boychechak bolalar tushunchasida ijodiy timsol, u yoshlik, jo'shqinlik ramzi. U o'zbek bolalari og'zidan yozib olingan bir variantda boychechakni qilich bilan chopish «kamlik qiladi», uni «bolg'a» bilan uradilar va keyin qilich bilan chopadilar. Demak, u yana «isyonkor» ham ekan. O'zbek xalqida biror kishi o'z

kuchi bilan qiynalib o'sgan bo'lsa, «axir, u qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechakning o'zi-da!» deyishadi. Buning hammasi boychechak mehnatkash kishi timsoli ekanidan dalolat beradi. Toshkent viloyatida:

*Boychechagim, boychechak,
Etagim to'la boychechak.*

Yoki:

*Boychechagim bolasi, Qulog'ida donasi,
Donasini olay desam, Yugurib chiqdi onasi.*

Bahor faslida «Chitti gul» qo'shiqlari ham aytilib kelingan. Bu qo'shiq bilan bolalar qo'shiqqa mos harakatlar bilan o'ynaydilar, qo'shiq ohangi o'yinga o'lchov mezon bo'lib uni yetaklaydi. O'yin esa qo'shiqning mazmunini to'ldiradi. Unga harakat bag'ishlaydi. Bola bir vaqtda o'yindan ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan rohatlanadi. Qo'shik ijrosini ko'z oldimizga keltirib ko'raylik. Qizlar juft-juft bo'lishib, kaftlarini bir vaqtda bir-biriga urib, aylanishib, yana urishtirib qo'shiq aytadilar. «Chitti gul-o, chittigul», deyilganda qizlar yuzma-yuz turadilar. Qo'llari ma'lum tartib bilan bir-birlariga qarsillab tegib, chiroyli ohang kasb etadi. «Hay-yu, chittigul, hay-yu chittigul» deyilganda qizlar bir xil maqom bilan turgan joylarida gir aylanadilar.

*Chitti gul-o, chittigul,
Hay-yu chitigul,
Chitti gulga gul bosay,
Bir yonini yonbosay,
Hay-yu chittigul,
Hay-yu chittigul,
Qo'ling qo'lbog'dan bo'lsin,
Beling belbog'dan bo'lsin,
Hay-yu chittigul,
Hay-yu chittigul.*

Yoz faslida «Laylak keldi, yoz bo'ldi» qo'shig'i o'proq aytiladi. Bu qo'shiq kunlarning isishidan, ekinlarning unishidan, qushlarning kelishidan, ariqlarda suvlarning to'lib oqishidan, bola ko'nglida quvonch uyg'otadi.

Bolalar ota-onalaridan laylak haqida ko'p ertaklar, afsonalar eshitganlar. Ular laylakni yoz faslining elchisi sifatida tasavvur etadilar.

*Laylak keldi, yoz bo'ldi,
Qanoti qog'oz bo'ldi,
Laylak boradi toqqa,
Quloqlarida xalqa.
Xalqasi tushib qoldi.
O'tirdi yig'lamoqqa.
Laylak keldi, ilon qoch,
Bola chaqang olib qoch,
Yangi to'ning kiyib qoch.
Eski to'ning tashlab qoch.*

Qo'shiqning bolalar qo'shig'iga xos yana bir tomoni bor: Qo'shiq oxiri kutilmaganda «ilon qoch» to'rtligi bilan tugallanadi. Avvalo, ilonni bola yomon ko'radi, ilon bor joyda cho'milolmaydi.

Ikkinchidan, laylak ilon yeydi, shuning uchun qochish kerak. Uchinchidan, yoz bo'lib, laylak kelishi vaqtidan ilon tullab, po'st tashlaydi. Bu qo'shiq fasl izining ko'rinishidir. Qo'shiqning variantlari ko'p. Ba'zi qo'shiqlarda laylak «opa» deb ataladi va unga hazil- mutoyiba bilan murojaat qilinadi:

*Laylak opa,
Boshinga kapa,
Takiyam suvga tushib ketdi.
Olib bering, jon opa!*

«Oftob chiqdi olamga» qo'shiqlari bir turkum she'rlarini tashkil qiladi. Aslida qo'shiq oftobning chiqishi bilan bolalar,

kattalar quvonchiga bag'ishlangan bo'lsa-da, bora-bora u maishiy tus olib ketadi. Bolalarning pishiqchilik - arpa, bug'doy pishishi, yantoq, quvray, ajriq qurib, o'tin bo'lishi, qozontandirlarda non yopilishi, bolarning to'yib non yeyishi imkoni haqida qo'shiq aytilishi kutiladi.

*Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga,
Xola, xola, kulcha ber!
Xolam dedi: o'tin ter!
O'tin terdim bir quchoq,
Kulcha yopdi bir o'choq.
O'g'liga berdi yog'liq kulcha,
Menga berdi kuyuk kulcha.*

Bola termalari. Bola hayotida qo'shiq, o'yin, mashg'ulotlardan tanaffus bo'lmaydi. Yuqorida keltirib o'tilgan qo'shiqlardan ham mukammalroq, voqealari murakkabroq qo'shiqlar bor. Biz ularni xususiyatlaridan kelib chiqib, afsonaviy qo'shiqlar, voqeaband bola termalari, deb atasak ham bo'ladi. Negaki bolalarning jo'shqinligi va izlanuvchanligi, sabrsizligi va harakatchanligi to'lib-toshgan, ularning sermahsul fantaziyasi bilan ham yo'g'rilgan. O'zbek bolalari aytadigan «Osmondagi oy», «Asakaning yo'lida» singari qo'shiqlar dialog shaklidagi qo'shiqlar sarasiga kiradi.

*Osmondagi oy,
Saydazim boy, Nima yeyapsan?
Olma yeyapman.
Olmangdan tashla
Acham urushadi.
Achang o'lsin.
Xudo saqlasin.
Hovlingni supur,
Lo'li o'ynasin,
Qozoningni yuv,
Go'ja qaynasin.*

O'zi kichig-u, ichida qancha xalq hikmati borligiga diqqat qiling: olma yeyayotgan kishining davlati Toshkentdagi mashhur savdogar Saydazimboynikidan kam emas. Qizg'anchiq «acha»ning boridan yo'g'i yaxshi; hovli supurilsa, to'y bo'ladi, to'yda lo'lilar o'yin ko'rsatishadi; qozon yuvilishining ham xosiyati bor ichi to'lib, ovqat qaynaydi. Ovqatning ham go'jasi qaynasin (palov, shovla, halim pishsin deyaotgani yo'q!) Negaki faqat go'ja qaynasagina, bolalar to'yib-to'yib icha oladilar.

«Tepdim sandiq ochildi» qo'shiqlari voqeaband qissa tariqasida aytiladigan qo'shiqlardan biridir. Bu qo'shiqning bir necha variantlari to'planib, Elbek tomonidan nashr ettirilgan.

*Tilla sandiq ochildi,
Tagiga bodom sochildi.
U bodomni terolmay,
Qanotlari qoqildi.
Qanot bering uchaylik,
Oq saroyga tushaylik*

Qo'shiq 24 yo'ldan iborat va o'yinning sharti ham bayon qilingan. Qo'shiqda bola fantaziyasi e'tiborga olingan. Bunday qo'shiqlar bolalar qo'shiqchiligining takomillashmagan yuqori darajadagi shakllar bo'lib, qo'shiqchilikning avvalgi yoki keyinchalik ko'riladigan mayda termalari bosqichini o'tgandan keyingina yuzaga kelgan, deyish to'g'ri bo'ladi.

Bolalar o'yin folklori. Xalq ijodi namunasi hisoblangan bolalar o'yinlari o'z tarkibida muayyan ritmik izchillikka asoslangan xatti-harakat, ramziy ma'no kasb etuvchi etnografik detallar, poetik folklor namunalari, ohang va tomoshaviylik elementlarini yaxlit holda mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Bolalar o'yinlari ajdodlarimiz tafakkurining eng qadimgi elementlaridan biri bo'lgan ibtidoiy rituallar va marosimlarning tarkibiy qismi sifatida juda qadim zamonlarda yuzaga kelgan. Davrlar o'tishi bilan bunday marosimlar tarkibidagi o'yinlar o'zining rituallik xususiyatini yo'qotib, oddiy tomosha unsuri yoki ko'ngilochar vositasiga aylangan.

Bolalar o'yinlarining muayyan bir qismi bevosita qadimgi odamning o'z turmush tarzini badiiy talqin etish ehtiyoji tufayli bevosita mehnat qilish jarayonida shakllangan. Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, shuningdek, qadimgi hunarmandchilik, ajdodlarimizning kundalik turmush tarzi bolalar o'yinlarining kelib chiqishiga asos bo'lgan dastlabki va asosiy ijtimoiy manbalar sirasiga kiradi.

Ajdodlarimiz – qadimgi turkiy qavmlarining turmush tarzi ovchilik, chorvachilik bilan bevosita bog'lik bo'lgan. Ko'chmanchilikka asoslangan turmush tarzi ajdodlarimizdan o'z farzandlarini yaxshi chavandoz, qarag'ay mergan, kuragi yer ko'rmagan pahlavon qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Shuning uchun ot o'yinlari, poyga, tirandozlik musobaqalari kurash, tuya, qo'chqor, xo'roz urushtirish qadimdan keng rasm bo'lgan edi. Ana shu an'analar asosida asrlar davomida o'zbek bolalar folklor o'yinining badiiy tizimi shakllangan. Bolalar o'yin folkloriga oid manbalar to'plash quyidagi davrlarni o'z ichga oladi:

1. XI asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davr.
2. XIX asrning oxiri XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davr.

3. XX asr 30-yillaridan to bugungi kunga qadar bo'lgan davr. Bolalar o'yinlari haqidagi ilk ma'lumot XI asrda yashab o'tgan mashhur turkiyshunos olim M.Koshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» asarida qayd etilgan. Turkiy qavmlar orasida to'p bilan o'ynaladigan qadimiy o'yinlardan biri «Chavgon» keng rasm bo'lgan. Bolalarning o'yin tanlashdagi didi va o'yin turlari yillar o'tib o'zgarib bormoqda. Ushbu o'yinlarda vatanparvarlik ruhi yaqqol ko'rina boshladi. Bu o'yinlar xalq bilim va tajribasini yillar davomida mukammallashgan ko'rinishidir.

«Navro'zjon» qo'shig'i navro'z faslining erkalatib aytilishidir. Bunday vaqtlarda bolalarning bahorgi o'yin-kulgilari asosida qo'shiqlar yaratiladi. O'g'il va qiz bolalar orasida yaqin kunlarga «To'p», «To'p tosh», «Chittigul» kabi o'yinlar bo'lardi. Bu o'yinlarning har birining o'ziga xos qo'shiqlari bo'lib, ular o'yin jarayonida bir bola yoki ko'pchilik

tomonidan ijro etiladi. Topishmoqlar ham bolalar o'yinining bir turi hisoblanadi. Topishmoqlar bola taqdirida muhim o'rin tutgan, uning intellektual o'sishida faol ishtirok etgan, xalq pedagogikasining qo'shiqlar, ertaklar singari o'z xususiyatlari bilan ulardan farq qiladigan poetik, aqliy mashg'ulotlaridan biridir. Bolalar topishmoqlarni topishda qatnashar ekan, o'zini qurshab turgan olamni kuzatishga, tabiat hodisalarini bilib olishga, ularga bo'lgan o'z munosabatini bildirishga o'rganadilar. Bolalar folklorida tez aytish ma'lum tovushlarni takrorlash orqali amalga oshiriladi. Bir so'z bilan aytganda, bolalar folklori bolalar adabiyotining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

O'yinga chaqirish – shahar va qishloq bolalari, odatda, kechqururlari to'planib, gaplashib o'tiradilar, ertaklar aytadilar. Turli xil o'yinlar o'ynaydilar. Shunday paytlarda bolalarni to'plash, o'yinlarni uyushtirish, ayrim bolalar tomonidan tashabbuskorlik ko'rsatish talab qilinadi. Shahar joylarida o'yinga quyidagicha chaqiriladi.

*Tokchaga bug'doy sepuvdim,
Undimikin-o, undimikin?
Mashrabboy uydan chiqmaydi,
Yotdimikin-o, yotdimikin?*

Qishloq joylarda esa keskinroq, murosasizroq ravishda chaqiriladi:

*Tomda tovuq qotarmi,
Ayroningdan tortarmi?
O'yin yoqmas bolalar,
Nomozshomdan qotarmi,
Kel-xo, kel!*

Bolalar folklori navqiron avlodning psixologiyasi xususiyatlarini, badiiy ijodkorligi salohiyati va imkoniyatlarini ifodalagan, unda bolalarning voqelikka munosabatlari, estetik qarashlari va rang-barang tuyg'u-kechinmalari muhrlangan.

Savol va topshiriqlar:

1. Bolalar folklorining kattalar folkloridagi asarlardan qanday farqlari bor?
2. Bolalar folkloridagi janrlar haqida alohida-alohida soʻzlang.
3. Bolalar folkloridan namunalar ijro etishni oʻrganing.

Mustaqil oʻqish uchun adabiyotlar:

1. Поэтика детского стиха в её отношении к детскому фольклору. С. М. Лойтер. – Петрозаводск: Изд-во Петр ГУ, 2005. – 214 с.
2. Hojiyeva O. Alla / Panohim: Sheʼrlar va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 1998.
3. Jahongirov Gʻ. Oʻzbek bolalar folklori. – T., «Oʻqituvchi», 1975. 1985.
4. Safarov O. Oʻzbek bolalar poetik folklori. T., «Oʻqituvchi». Boychechak. Qoʻshiqlar. T., Gʻ. Gʻulom biyot va sanʼat nashriyoti, 1984.
5. Razzoqov X., Mirzayev T., Sobirov O., Imomov K. Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi. – T.: «Oʻqituvchi», 1980.
6. Husainova Z. Oʻzbek topishmoqlari, – T.: «Fan» 1966.
7. Jumaboyev M. Oʻzbek va chet el bolalar adabiyoti. – T.: «Maʼnaviyat», 2001.
8. Afzalov M. Oʻzbek xalq ertaklari haqida. – T.: «Fan», 1974.
9. Qodirov M. Xalq qoʻgʻirchoq teatri. – T.:»Fan», 1972.
10. Jahongirov Gʻ. Oʻzbek bolalar folklori. – T.: «Oʻqituvchi», 1975.
11. Madayev O., Sobitova T. Xalq ogʻzaki poetik ijodi. - T. «Sharq», 2011.
12. O.Madayev, M. Joʻrayev, T.Sabitova, N.Muxitdinova Oʻzbek folklori. Darslik. T. 2022. "ZEBO PRINT". 2022.
13. Sabitova T. Oʻzbek xalq dostonlarining nazariy asoslari va badiiyati. Monografiya. T. "FIRDAVS SHOH" , 2022.

13-mavzu. Lirik qo'shiqlar

1. Qo'shiq – lirik janr.
2. Lirik qo'shiqlarning badiiy xususiyatlari.

Tayanch iboralar: Lirika, qo'shiq, turmush, an'anaviylik,

Darsning maqsadi. Maxsus tur janrlarining xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni, ularning tili va badiiy xususiyatlarini yoritib berish.

Darsning vositalari. Ko'rgazmali o'quv qurollari, folklorshunos olimlarning kichik janrlarga bag'ishlangan ilmiy- tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish, lirik qo'shiqlardan misol keltirish.

Darsning metodi. Blits-so'rov, an'anaviy ma'ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, xalq qo'shiqlarining hamma turi qaysi mavzuni yoritishidan qat'i nazar, lirik asarlar namunasi hisoblanadi.

Qo'shiq – lirik janr. Lirik qo'shiqlar, asosan, to'rtliklar sifatida shakllangan bo'lib, ma'lum ohang yo'llari ularni ijro jarayonida so'zlar bilan birlashtirib turadi. Lirik qo'shiqda vazn, ohang, kuylovchi kechinmalarini, o'y-xayollarini, hissiyotlarni ifodalovchi turli badiiy ko'chimlar qo'llanilib, so'z, ohang, kuylovchi va tinglovchida tug'iluvchi xayolot qo'shiqni so'z san'atining mo'jizasiga aylantiradi. Xalq qo'shiqlarining boshqa janrlari kabi lirik qo'shiqlar ham tarixan magik-ritual ahamiyatga ega bo'lib, maishiy- etnografik hodisadan badiiy-estetik hodisaga aylanguncha uzoq tadrijiy yo'lni bosib o'tgan. Ammo lirik qo'shiqlarning bu kungi holatini hayotda yashayotgan insonning quvonch-u g'ami, turmush achchiq-chuchuklarini totib ko'nglidan kechirayotgan ruhiy iztiroblari va hayajonlarining kuylanuvchi in'ikosi deb aytish mumkin.

Lirik qo'shiqlar ham folklorning barcha janrlariga tegishli bo'lgan og'zakilik, jamoaviylik, an'anaviylik, variantlilik qonuniyatlari asosida rivojlanadi, kuylanadi, keng omma orasiga yoyiladi, avloddan avlodga o'tib an'analashadi. Har

qanday iste'dodli qo'shiq – jamoaviy ijod mahsuli. Ammo bu holat el orasida mashhur iste'dodli, professional qo'shiq ijrochilari bo'lganligini, ularning ijro mahorati, iqtidori sabab qo'shiqlar go'zal shaklda bizgacha yetib kelganligini inkor qilmaydi. Xalq qo'shiqchilari qanchalik iste'dodli, badihago'y bo'lmasin, an'ana qonuniyatlariga bo'ysunganlar. Lirik qo'shiqlarda ustuvor ko'rinish olgan poetik ramzlar tizimi, turli badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishi va ular asosida yuzaga chiquvchi voqelik, hatto lirik qahramonning dunyoqarashi, qalb kechinmalari ham an'anaviy xarakterga ega bo'ladi, Masalan, xalq lirikasida qizil sifatlashi hech qachon erlarga nisbatan qo'llanmaydi. Agar qo'llangan bo'lsa, u sun'iy o'zgartirilgan ko'rinishdir.

Lirik qo'shiqlar paydo bo'lishini ayrim mutaxassislar feodalizmga chaqirgan bo'lgan davr, ba'zilar feodalizm bilan bog'laydilar. Mustaqil lirik qo'shiqlarning janr sifatidagi paydo bo'lishi, shubhasiz, tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlariga xosdir, chunki lirika inson o'z shaxsini tanigan, o'zini shaxs sifatida anglagach, o'zini olam ichra yana bir olam deb bilgan va tashqi obyektiv olamga yangicha qaragan sharoitlarda paydo bo'ladi.

Ammo bu ta'rif og'zaki lirikaning paydo bo'lishini to'la ta'riflay olmaydi. Sababi, yuqorida aytilganidek, xalq qo'shig'ining lirik qahramoni umumlashma tipligi, an'anaviy poetik tafakkur mevasi ekanligidadir. Aytaylik, yor-yorlarda kelinchak haqida juda ko'p kuylashadi. Bu maqtoqlar, tilaklar ayni paytdagi kelinchakka ham, uning bir paytlar kelin bo'lgan buvisiga ham, kelajakda kelin bo'ladigan nevarasiga ham taalluqlidir.

Shubhasiz, xalq lirik qo'shig'i nisbatan keyin paydo bo'lgan janr hisoblanadi, ammo unda uzoq o'tmishning izlari mavjudligini, lirik obrazlar qayta-qayta mushohada qilinganligini, hozir ham ma'lum darajada mifologik tafakkur bilan bog'liqligini inkor etmaydi. Xalq lirikasining qadim tasavvurlar, marosimlar bilan bog'liqligi uning juda qadimiyligini ko'rsatadi.

Mavzu ko'lamini bevosita ishq-muhabbat kechinmalari bo'lgan lirik qo'shiqlar an'anaviy qo'shiq janrlarining boshqa ko'rinishlaridan farqli ravishda xalq turmushining barcha sohalarida erkin kuylanadigan, o'yin, biron marosim bilan bog'liq bo'lmagan namunalarni qamrab oladi, ayni paytda, hajviy yo'nalishdagi qo'shiqlar ham ushbu janr tarkibiga kiradi. Bu janrda sevgi mavzusi va oilaviy munosabatlar, turmush tashvishlari ifodasi birinchi o'rinda turadi.

Rus folklorshunosi V.P.Anikin marosim xalq lirikasining genezisini: a) lirik syujetning shakllanishi; b) xalq qo'shiqlarida lirik «men»ning paydo bo'lishi; d) maishiy turmushning poetiklashuvi (poetik mushohada qilinishi) bilan bog'laydi. Shu belgilar xalq lirikasining poetik asoslari bo'lib, ular doimo mavjud bo'ladi, rudiment holiga tushib qolmaydi. Bu poetik asoslarni esa tarixiy ildizlar paydo qiladi. Xalq lirikasini yashnab turgan gulga o'xshatsak, poetik asoslar uning bizga ko'rinib turgan qismi, tarixiy ildizlar esa tomirlarini tashkil etadi va an'ana ularning har ikkisini uyg'unlashtirib turadi.

Hozirda xalq qo'shiqlarini tinglaganimizda, odatda, uning tashqi ma'nosini, juda nari borsa, poetik ko'chimga asoslangan mazmunini anglaymiz. Biroq xalq qo'shig'ining barcha tashqi va ichki mazmunini qirralarini izohlash uchun buning o'zi kifoya qilmaydi. Mashhur xalq qo'shig'ini ko'rib chiqaylik:

*Sunbula-yu sunbula,
O'rab olay gul bilan.
Mening ko'nglim sen bilan,
Sen ketasan kim bilan,
Qadamingga gullar sochilsin.*

Qo'shiqning tashqi – so'zma-so'z ma'nosi quyidagicha: Sunbula badiiy obraz – qo'shiq qahramonining poetik jufti, qahramon uni gullarga burkamoqchi, ammo yor ko'ngli begonada. Shunday bo'lsa-da, oshiq fidoyilik qilib, yor qadamiga gullar sochmoqchi yoki shunday bo'lishini astoydil istaydi.

Bu bandni tarixiy asoslariga ko'ra, sharhlasak, Sunbula oyning nomi bo'lib, 22-avgustdan 23-sentabrgacha bo'lgan muddatni qamrab oladi. Bu ayni pishiqchilik davri, suvlar tinigan, maqolda aytilganidek, «Sunbularning suvi – sharob» payti bo'ladi. Demak, qo'shiqdagi Sunbula balog'atga yetgan yor ramzidir. «Sunbula burji suvrati qo'lga bug'doy boshog'ini ushlab turgan qiz shaklidir», – deydi akademik Alibek Rustamov shu oy haqidagi xalq tasavvurlarini ifodalab.

Qadimiy mifologik tafakkurda inson gulga teng, gul shakliga evrilishi, ya'ni aylanishi mumkin. Ushbu tasavvurga asoslangan poetik tafakkur insonni gulga qiyoslaydi, o'xshatadi. Mifo-poetik tafakkurga ko'ra, qo'shiqdagi gul bilan o'rab olish lirikqahramonning o'z yorini quchish istagini ifodalaydi. Yor qadamiga gullar sochish ham mifologik inonch, iz magiyasiga ko'ra yorning poyiga bosh qo'yish bilan teng. Lirik qahramon yor uni sevmasa ham, uning yo'llariga gullar sochilishini, unga ko'plab qizlar maftun bo'lishini istaydi. Qadimiy inonchlarga ko'ra, insonning izi ham uning o'rnini bosishi mumkin. Shu bois hozirgacha «Bosgan izlaringdan o'rgilay!» yoki «Qadamingizga hasanot!» deyish insonning o'zidan o'rgilish va insonning tashrifini ulug'lashga tengdir. Buning aksicha «Qadaming qursin!», «Izing o'chsin!», – deyish insonga ajal tilashdir. Xalq ongida Sunbula haqidagi tasavvurlar, ijodida maqollar va afsonalar mavjud bo'lgan va ba'zilar bizgacha yetib kelgan. Xalqimiz ana shulardan kelib chiqib, qayta poetik mushohada qilib, yuqoridagi kabi bandlarni ijod qilgan.

*O'choq boshida qumg'on,
Atrofi baland qo'rg'on.
Sevganimga yetolmay,
Yurak-bag'rim bo'ldi qon,
Qadamingda gullar ochilsin...*

*Men bu yerda o't yoqsam, Andijonda tutun-ey.
Bu dunyoda bormikan, Yurak bag'ri butun-ey.*

*Bu dunyoda bor bo'lsa, Yurak-bag'ri butun-ey.
Qog'ozdan qozon yasay, Guldani qilay o'tin-ey...*

Ma'lum bo'lmoqdaki, lirik qo'shiqlarda keluvchi obrazlar tizimi inson kechinmalari xalqning ko'p asrlik tasavvurlari, mifologik qarashlari, odat va udumlariga chambarchas bog'liq ravishda o'ta poetik ko'rinishlarda ifodalanadi.

Endi quyidagi to'rtlikka e'tibor bering:

*Oq ilon, oppoq ilon,
Oydinda yotganing qani?
Men yomondan ayrilib,
Yaxshini topganing qani?*

Qadim ajdodlarimizda oydinda yotgan oq ilonni ko'rgan odam baxtli bo'ladi, degan ishonch bo'lgan. Biroq bu deyarli sodir bo'lishi mumkin bo'lmagan vaziyat. Oshiq to'lin oy kechasida (oydinda) oppoq ilonni yotganini ko'rish mumkin bo'lmaganidek, sen ham mendan voz kechib baxtli bo'lolmaysan, demoqda go'yo.

Folklorshunoslikda lirik qo'shiqlar namunasi tilga olinar ekan, sevgi-muhabbat mavzusidagi qo'shiqlarni nazarda tutish odat tusiga kirgan. Bu o'rinda sevgi-muhabbat qo'shiqlarida his-tuyg'u, ichki kechinmalar, muhabbat hissiga ega bo'lishdan mamnunlik kayfiyati yetakchi o'rinni tutishi muhimdir. Har bir inson balog'at yoshiga yetganida muhabbat tuyg'usining paydo bo'lishidan qoniqish hosil qilmog'i lozim. Shuning uchun qizni sevish yoki sevilish, ishq savdosiga yo'liqish tashvishlari insonni shoirlikka undaydi. Binobarin, ishq-muhabbat mavzusidagi xalq qo'shiqlarini ana shu tashvish, lazzat dengizida suzgan insonlar, ya'ni yigit va qizlar yaratgan, deyishimizga to'la asosimiz bor. Bo'lmasa, xalq orasida «suygan qo'shiqchi, kuygan baxshi» kabi hikmatli so'zlarni yashab kelishiga asos topilmasdi. Lirik qo'shiqlar matnini o'rganish bu qo'shiqlarni faqat muhabbat tuyg'usini yurak qon tomirlaridan his qilgan shaxslar yaratishi mumkin, degan xulosaga olib keladi. Bir misolga murojaat

qilaylik:

*Yurakkinamning taftiga tandir qiziydi,
Ko'zginamning yoshiga o'rdak suziydi.*

Yuqoridagi misralarni xirgoyi qilib aytgan shaxs yigit yoki qiz bo'lishidan qat'i nazar, shubhasiz, muhabbat deb atalmish sirli va gashtli olam go'shasida sayr qilgan bo'lishi ajab emas.

Muhabbat qo'shiqlari odatda bir shaxs tomonidan kuy jo'rligida ijro etiladi. Ammo mashhur qo'shiqlar gap-gashtaklarda, turli munosabat bilan kichik doirada o'tkaziladigan yig'inlarda jamoa bo'lib ijro etilishi mumkin.

Ma'lumki, lirik qo'shiqlar xalq og'zaki ijodining mustaqil janri sifatida bir qator xususiyatlarga egadir:

1. Lirik qo'shiqlar deb atalmish xalq poetik she'riyatiga mansub asarlarda inson ruhiy olami, uning ishqiy kechinmalari aks etadi.

2. Agar boshqa mavzudagi qo'shiqlar, ba'zan uch (kelin salomlar), oltiva sakkiz misralardan iborat bo'lsa, ishqiy mazmundagi lirik qo'shiqlar to'rt misradan tashkil topadi.

3. Biz nazarda tutayotgan lirik qo'shiqlar, asosan, to'rt misrada tugal fikr anglatish imkoniyatiga egadir:

*Dayraning ul yuzidan sel keladi,
Sel bilan ikki o'rdak teng keladi.
O'rdakka o'rdak munosib, g'ozga g'oz
Yigitga qayliq munosib, qizga noz.*

Ammo lirik qo'shiqlar qatoridan bir necha bandlardan iborat bo'lgan asar namunalari ham o'rin olgan. «Galdir», «Sumbula», «Omon yor» kabi qo'shiqlar shular jumlasidan hisoblanadi.

4. Agar «Bo'zchi» qo'shig'ini faqat bo'z to'quvchi kosiblar, «churiya»ni echki sog'uvchi ayollar mehnat faoliyati davomida ijro etishsa, lirik qo'shiqlar kasb, payt, o'rin tanlamaydi: ularni istalgan vaqtda istagan shaxs xohishiga ko'ra baland

ovoz bilan yoki xirgoyi qilib aytaveradi. Ma'lum bo'ladiki, lirik qo'shiqlarning ommalashuvi boshqa mavzudagi she'riy asarlardan ko'ra kengroq imkoniyatga egadir.

Ayni paytda, yosh qizlarning nigohi yigitning «Beqasam to'ni»ga, «maysadek kiprigi»ga, «marvariddek tishi»ga tushadi va go'zal qo'shiq namunasi yaratiladi. *Masalan:*

*Qoshingni qaro deydilar,
Qora qosh ukam, yor-yor,
Ko'rsat qoshingni bir ko'rayin,
Jonim ukamey, yor-yor.*

Yoki:

*Beqasam to'nlar kiyib,
Muncha meni kuydirasiz,
Gohi-gohida bir qarab,
Voy, beajal o'ldirasiz.*

Qadim zamonlardan ma'lumki, bir-birini sevgan oshiq-ma'shuqlar hamisha ham turmush qurish baxtiga muyassar bo'lavermaydilar. Shuning uchun lirik qo'shiqlarda o'ta yuqori emotsional kayfiyat bilan bir qatorda dard, hasrat, alam ohanglari ham o'rin olgandir.

Lirik qo'shiqlarda faqat go'zal yorning tashqi qiyofasi o'z aksini topadi desak, to'g'ri bo'lmaydi. Chunki shunday qo'shiqlar borki, ularda sevikli yorning chaqqonligi, mehnatsevarligi, odobliligi ham o'z ifodasini topadi:

Gulijon o'zi chaqqon, Qoqi gulini taqqan. Bir kulishi bor uchun, Oyijoniga yoqqan.

Bir qator xalq lirik qo'shiqlari yigit va qizlarning aytishuvlaridan ham iborat bo'lishi mumkin. Bu qo'shiqlarda iloji boricha yigitlar bir taraf, qizlar bir taraf bo'lib, so'z o'yinida bir-birlaridan g'olib kelishga urinadilar. Aslini olganda, bunday aytishuv qo'shiqlari yigit-qizlarga hayot go'zalligi haqida, bu go'zallikdan bahramand bo'lish haqida ma'lumot beruvchi lirik parchalarni eslatadi:

*Ko'zingni shahlo deydilar,
Shahlo ko'z ukam, yor-yor.
Ko'rsat ko'zingni men bir ko'ray,
Jonim ukam ey, yor-yor.
Ko'zimni ko'rib nima qilasiz,
Siz akajonim, yor-yor?
Tog'da ohu ko'zlarini, Ko'rmabmidingiz, yor-yor?
Yuzingni qizil deydilar,
Qizil yuz ukam ey, yor-yor.
Ko'rsat yuzingni men bir ko'ray,
Jonim ukam, ey, yor-yor.
Yuzimni ko'rib nima qilasiz,
Siz akajonim, yor-yor?
Bog'lardagi qizil gulni, Ko'rmabmidingiz, yor-yor?*

Shunday qilib, lirik qo'shiqlar asrlar davomida yosh yigit-qizlar o'rtasidagi bir-birlariga bo'lgan ehtirosli munosabatlarning badiiy ifodasi sifatida yashab keldi va yashamoqda.

Allalarni ham lirik qo'shiqlar tarkibining go'zal namunalari sifatida baholash mumkin. To'g'ri, folklorshunoslik ilmida allalarni bolalar folklori sifatida tahlil qilish an'anasi bor. Ammo, ayni chog'da, bu asarlarni lirik qo'shiqlar namunasi sifatida baholash ham xato bo'lmaydi. Chunki alla qo'shiqlarining matnini o'rganish, ularni bevosita so'z san'ati namunasi sifatida lirik qo'shiqlar qatorida baholash ma'qulligini ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, alla yosh go'dak bolalarga uxlash paytida ona yoki buvi tomonidan aytiladi. Beshikda bo'lgan chaqaloqqa allaning matnidan ko'ra kuy ohangi ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq matnini bola tushunmaydi. Ammo alla qo'shiqlarida farzand ko'rgan oilaning quvonchi, baxti, shu bilan birga, dardi, alami va orzulari aks etadi. Qo'shiqlarda, avvalo, farzandli bo'lishning naqadar insonga quvonch bag'ishlashi e'tiborimizni o'ziga jalb qiladi. Allada shukrona keltirish, taqdir bergan omaddan qoniqish alohida o'rinda turadi. «Alla» so'zining Ollohdan kelib chiqqanligi haqidagi fikrlar ham yuqoridagi mulohazada o'z tasdig'ini topadi, deb o'ylaymiz.

Lirik qo'shiqlarning badiiy xususiyatlari. Lirik qo'shiq hajmining kichikligi matndagi har bir so'z zimmasiga boshqa janrlarga nisbatan ortiqroq badiiy «yuk» beradi. Poetik san'atlar orasida ramz birgina so'z orqali keng mazmun ifodalash imkoniyatiga ega. Bu esa aynan qo'shiq janrining talablariga mos keladi. Lirik qo'shiqlarda ramzning boshqa poetik san'atlarga nisbatan keng qo'llanilishini shu sabab bilan ham izohlash mumkin.

Poetik ramz qo'shiqlardagi mavhum tushunchalarni, anglatish qiyin bo'lgan nozik tuyg'ularni, turli ruhiy holatlarni bir yoki bir necha so'z orqali ifodalash imkoniyatini beradi. Qo'shiqlarda timsollar qahramonlar kechinmalarini, ma'naviy shakllarini ifodalaydi. Qo'shiqning ohangdorligini ta'minlaydi, badiiy qimmatini oshiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalq lirik qo'shig'ining belgilari nimalardan iborat?
2. Lirik qo'shiqlarning badiiy xususiyatlarini misollar yordamida tushuntiring.
3. Qardosh xalqlar xalq qo'shiqlari namunalarini topib, o'zbek xalq lirik qo'shiqlari bilan qiyoslashga harakat qiling.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. - T.: «Musika», 2010
2. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. - T.: «Mumtoz so'z», 2010.
2. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. - T., 1959.
3. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. - T.: Fan, 1974.
4. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. - T.: Fan, 2010.
5. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. - T. "Sharq", 2011.
6. O. Madayev, M. Jo'rayev, T. Sabitova, N. Muxitdinova O'zbek folklori. Darslik. T. 2022. "ZEBO PRINT". 2022.
7. Sabitova T. O'zbek xalq dostonlarining nazariy asoslari va badiiyati. Monografiya. T. "FIRDAVS SHOH", 2022.

14-mavzu. Xalq maqollari va topishmoqlar.

1. Maqol – mantiqiy mushohada namunasi va dono gap, donishmandlik mahsulidir.
2. Topishmoq, jumboq, matal, cho‘pchak deb nomlanuvchi janr.
3. Maqol, topishmoq janrlarining mavzu doirasi va badiiy talqini.

Tayanch iboralar: maqol, topishmoq, jumboq, matal, tabzug’.

Darsning maqsadi. Maxsus tur janrlarining xalq og‘zaki ijodida tutgan o‘rni, ularning tili va badiiy xususiyatlarini yoritib berish.

Darsning vositalari. Ko‘rgazmali o‘quv qurollari, folklorshunos olimlarning kichik janrlarga bag‘ishlangan ilmiy- tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

Darsning metodi. Blits-so‘rov, an‘anaviy ma‘ruza, suhbat, qisqa test sinovlari.

Darsning mazmuni. So‘z san‘atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo‘lishi bilan yuzaga kela boshladi. Maqol – mantiqiy mushohada namunasi, odob va axloq qoidalarini jamuljam etgan dono gap. Ular qadimdan xalq donishmandligi, aql-idroki, fikr-o‘ylarining ifodasi sifatida yashab kelganlar; sinalgan, turmush tasdig‘idan o‘tgan tushunchalarni ifodalab, unga qanot baxsh etganlar. Maqollar ta‘lim-tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega. U kishilarni ogohlantiradi (*«Birovga kulma zinhor, senga ham kulguvchilar bor»*), maslahat beradi (*«Yo‘l bilmasang, yo‘l so‘ragin yurgandan, gap bilmasang, gap so‘ragin bilgandan»*), tanbeh berib, tanqid qiladi (*«Cholni ko‘rib buvam dema»*), mehnatni ulug‘laydi (*«Ishlaganning og‘zi oshga tegar, ishlamaganning boshi toshga tegar»*), hajviy kulgi ostiga olib, fosh etadi (*«Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kular»*) va boshqalar. Ko‘ramizki, maqollarda chuqur mazmun, mehnatkash ommaning donoligi, milliy an‘ana, uzoq asrlik hayot tajribalari,

tabiat va jamiyat

hodisalari haqida fikri, bahosi, mehnat yakunlari mujassamlashgan. Shuning uchun ham maqollar uzoq umrli bo'ladi. Maqollarda har bir tarixiy davr, ijtimoiy-siyosiy voqealar ma'lum darajada o'z izini qoldiradi. Shuningdek, yangi-yangi maqollar yaratilib, so'z san'ati xazinasi boyiyveradi.

Xalq o'zining hayotiy tajribasidan olgan xulosalarini, falsafiy mulohazalarini maqollar orqali ifodalagan. O'zbek maqollari mavzu jihatdan xilma-xil va rang-barangdir. Ayni chog'da, ular yaratilishi jihatdan juda qadimiy zamonlarda yashagan ajdodlarimiz ijodining mahsulidir. Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devoni lug'otit turk» asarida kitobni «hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar» bilan bezaganligini aytadi. Haqiqatan ham, «Devoni lug'otit turk»da uch yuzga yaqin xalq maqollari berilganki, turkiy xalqlarning madaniy merosiga voris sifatida har bir o'zbek ular bilan faxrlansa arziydi. Yana shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, 80-yillarning oxirlarida O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti xodimlari tomonidan 13 mingga yaqin maqollar alifbo bo'yicha tartiblashtirilgan holda nashr ettirildi. Bu misol ham o'zbek xalqining naqadar ulkan va bebaho madaniy merosga ega ekanligini dalillaydi. Hech ikkilanmasdan alohida qayd etish lozimki, bunday ulkan xazinaga dunyodagi kamdan kam xalqlar ega bo'lishi mumkin. Hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki, bironta shoirtabiat inson qattiq ehtirosga berilgan paytida o'nlab qo'shiq to'qib tashlashi mumkin. Ammo bitta maqolning badiiy jihatdan mukammal tarzda shakllanishi va xalq qalbidan joy olishi uchun o'nlab yillar, ko'p vaqtlar zarur bo'ladi. Ana endi Mahmud Koshg'ariy turkiy so'zlarning lug'ati misolida keltirgan uch yuz maqolga va 13 mingdan ortiq bu janr namunalariga baho berib ko'raylik. Ma'lum bo'ladiki, bu qadar soni ko'p va badiiy mukammal xalq hikmatli so'zlarini ijod qilish faqat dono, zukko, har bir hayot voqeasini mulohaza laboratoriyasidan o'tkaza olgan ajdodlarimizgagina nasib etishi mumkin.

Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini badiiy jihatdan

mukammal ifodalovchi hikmatli soʻzlardan iboratdir. Maqollarda ifodalanishi lozim boʻlgan fikr va mazmun keng qamrovli boʻladi. Bizning fikrimizcha, har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratli voqea roʻy bergan va bu voqea oʻta zukko, sinchkov dono ajdodlarimiz vakili tomonidan kuzatilishiga sabab boʻlgan. «Devoni lugʻotit turk»dan olingan quyidagi misollarga murojaat qilaylik: «Besh qoʻl barobar emas», «Hoʻkizning oyogʻi boʻlguncha, buzoqning boshi boʻlgan yaxshiroq», «Ot kuragidagi yagʻir bolalariga meros boʻlib qoladi», «Quduqda suv bor, ammo it burni tegmaydi».

Maʼlum boʻladiki, yuqoridagi har bir misolni yillar davomida tajribadan oʻtgan, uning haq ekanligiga ishonch hosil qilingan, badiiy jihatdan mukammallashib borgan namuna sifatida qabul qilish mumkin. «Devoni lugʻotit turk»da «savlashmoq» soʻzi berilgan. Buning otalar soʻzini eslamok maʼnosini anglatishi aytiladi. Taxmin qilish mumkinki, bundan ming yil avval ajdodlarimiz maqollarni «sav» deb ataganlar. Keyinchalik Alisher Navoiy ijodida maqol atamasi «masal» tarzida beriladi: «masaldurkim — uyqu oʻlimdir».

«Masal» atamasining XX asr boshlarigacha qoʻllanib kelingani maʼlum. Oʻtgan asrning ikkinchi choragidan boshlab maqol soʻzi tez-tez uchray boshlaydi. XX asr yarmidan esa faqat maqol tarzida qoʻllandi.

Xalq maqollari mukammal badiiy ijod namunasi sifatida adabiyotshunoslar, folklorshunoslar tomonidan oʻrganilgan. Jumladan, bugungi kunimizdan deyarli ming yil avval Mahmud Koshgʻariy oʻzining «Devoni lugʻotit turk» asarida koʻplab maqollardan namunalar keltirdi va xalqimiz ijodida maqol janrining uzoq tarixga ega ekanligini isbotlab berdi. Olimlar qadimgi shohlardan Abos Safoviy amri bilan maqol va matallarimiz bir joyga jamlangani haqida maʼlumot beradilar. Afsuski, bu majmua bugungi kunda yoʻqolgan. Oʻtgan asrda oʻnlab maqollar toʻplami eʼlon qilindi. «Oʻzbekcha otalar soʻzi» (1924), «Maqollar va hikmatli soʻzlar» (1939), «Otlar soʻzi — aqlning koʻzi» (1947), «Oʻzbek xalq maqollari» (1978), «Oʻzbek xalq maqollari» (2 jildlik, 1987—1988) kabilar shular

jumlasidandir. Ularni to'plash, nashrga tayyorlash, tadqiq etishda avval Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G'ozi Olim Yunusov, G'ulom

Zafariy; keyinchalik Mansur Afzalov, Oxunjon Sobirov, Zubayda Husainova, G'ani Jahongirov, Rajab Jumaniyozov, To'ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, Malik Murodov, Ibrohim Haqqulov, Asqar Musaqulov, R. Zarifov kabi olimlar munosib hissa qo'shdilar.

Maqol arab tilidagi «qavlun»dan olingan bo'lib so'z tushunchasini anglatadi. Demak, maqol atamasini hikmatli so'z ma'nosida qabul qilish mumkin.

Xalq og'zaki ijodi haqida ilmiy ish olib borgan dunyodagi hamma olimlar maqollarda millatning dunyoqarashi, hayot va tabiat voqealariga bo'lgan munosabati aks etganini alohida ta'kidlaydilar. Haqiqatan ham, agar o'zbek maqollari namunalari murojaat qilsak, bu fikr juda to'g'ri ekaniga ishonchimiz komil bo'ladi. «Tulki o'z uyasiga qarab hursa, qo'tir bo'ladi» maqolida ajdodlarimizning o'z vataniga bo'lgan hurmati, vatanni talash emas, himoya qilish kerakligi haqidagi fikri aks etgan. «Kim tutunni qo'zg'otsa, o'ziga tutaydi» maqolida esa har bir ishni hamjihatlik bilan amalga oshirish kerakligi ta'kidlanadi. «Baxt belgisi ilmdir» misolida xalqimizning minglab yillar davomida ilmga bo'lgan munosabati o'z ifodasini topgan.

«Shoshqaloq pashsha, sutga tushadi»da har bir ishni mulohaza bilan o'ylab bajarish nazarda tutiladi. «Til bilan bog'langan, tish bilan ochilmas» maqolida bir tomondan vafodorlikka chaqirish mazmuni aks etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan odamlar, oilalar, mamlakatlar o'rtasidagi nizolar muzokara yuritish yo'li bilan hal etilishi kerakligi uqtiriladi. Bu maqollarning har birida hayot-mamot masalalari, insonning tabiati, bag'ri keng odamgina el orasida hurmatga sazovor bo'lishi qayta-qayta ta'kidlanadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, maqolning el orasida keng tarqalishi ularda haqiqat ifodasi bilan aloqadordir. Agar maishiy hayotda biron narsa predmetning ishlatilishi to'xtatilsa, ma'lum

muddatdan so'ng ana shu narsa nomi ishtirokidagi maqol sekin-asta iste'moldan chiqadi. Jumladan, «Choriq», «Xoqon» kabi so'zlar tilimizda kam ishlatilgani sababli bularning ishtirokidagi maqollar ham yo'qolib ketgan. Yoki O'zbekistonning deyarli hamma viloyatlarida «Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda» maqoli keng tarqalgandir.

Ammo Xorazm hududlarida yashaydigan yurtodoshlarimiz bu maqolni o'z ma'nosida ishlatmaydilar. Chunki Xorazmda yer osti suvlari yer qatlamiga juda yaqin joylashganligi tufayli bu viloyatda dehqonchilik tajribasida kuzda ekin maydonlari haydalmaydi.

Ma'lum bo'ladiki, xalqimiz tomonidan qo'llanadigan har bir maqol hayot tajribasidan o'tgan, zamonlar sinoviga bardosh bergan so'z san'ati namunasidir.

Xalq maqollarining o'z va ko'chma ma'nolari bor. Turmushda ro'y bergan voqea-hodisa natijasida paydo bo'lgan vaziyatdan kelib chiqqan holda millatimiz vakili biron maqolni o'z fikrini tasdiqlash maqsadida keltirishi mumkin. Ammo mazkur maqolning o'z yoki ko'chma ma'noda qo'llanganligini ro'y berilayotgan voqeani aniq ko'z oldimizga keltirish orqali aniqlaymiz. Masalan, agar Farg'ona vodiysidagi dehqon qaysi bir sabab bilan kuzda yer haydamagan bo'lsa-yu, bahorda qayta-qayta ekin maydonini haydagani bilan yaxshi hosil olmasa, yuqorida aytilgan maqol o'z ma'nosida qo'llangan bo'ladi. Ammo biron shaxs tomonidan biron tadbirning amalga oshirilishi kechiktirilsa va keyingi harakatlar natija bermasa ham «Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda» maqoli misol sifatida qo'llanilishi mumkin. Endi bu namuna ko'chma ma'noni anglatadi. Shu bilan birga aytish mumkinki, maqollar mazmuniga ko'ra ko'chma ma'noda ko'proq qo'llaniladi. «Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamas», «Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas», «Burgaga achchiq qilib ko'rpa kuydirma», «Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin» kabi hikmatli so'zlar ko'pincha ko'chma ma'nolarda ishlatiladi.

Turli xalqlar og'zaki ijodidagi maqollarni o'rganish bu janr namunalari mazmunan deyarli hamma xalqlarda bir xil

takrorlanishini ko'rsatmoqda. Ammo bunday yaqinlikni bir xalq ikkinchi xalqdan maqolni o'zlashtirganligi bilan izohlash to'g'ri bo'lmaydi. Bizningcha, bunday yaqinlikni oddiy turmush tarzining o'xshashligi, insonlar hayotidagi munosabatlarning yaqinligi va, umuman, hayotning ko'p holatlarida bir xil vaziyat hosil qilishi bilan izohlagan ma'qulroq. *Masalan*: «Ilon chaqqan arqondan qo'rqar» (ingliz), «Kuygan mushuk sovuq suvdan qo'rqar» (fransuz), «Jo'jani tuxum ochilgandan so'ng sana» (ingliz), «Bigizni qopda yashirib bo'lmas» (rus) maqollari, «Qo'rqqanga arqon ilon ko'rinar», «Sutdan kuygan qatiqni puflab ichibdi», «Jo'jani kuzda sanaymiz», «Oyni etak bilan yopib bo'lmas» kabi o'zbek maqollari bilan o'xshash ma'noni bildiradi.

Matallar ham shakl va mazmun jihatdan maqollarga juda o'xshash janr hisoblanadi. Ularning matni, hajmi, badiiyligi jihatdan maqollarga yaqinligini juda ko'p olimlar tasdiqlaganlar. Hatto, ko'pincha matal atamasi maqol bilan almashgan holda qo'llanilishi ham ko'zga tashlanadi. Matallar so'zlovchi nutqining ta'sirchanligini oshiradi, shaklan go'zallashtiradi. Ammo maqol bilan matalni janr jihatdan o'ziga xos xususiyatlari borki, ularni hamisha bir-biridan farqlagan holda tasavvur qilish mumkin. Gap shundaki, maqollarda hayotda ro'y bergan bir voqeaga umumlashtirilgan holda hukm chiqariladi. Bu hukm tasdiq yoki inkor ma'nosini bildiradi. Ayni paytda, xalq maqollari mazmunan tugal fikrga ega bo'ladi va ular alohida qo'llanilsa ham ma'no anglataveradi. Matallar esa so'zlovchi nutqi tarkibining biron muhim qismi sifatida ishlatiladi. Matallarni alohida qo'llash mumkin bo'lmaydi, chunki ular mazmunan tugal fikr anglatmaydi. *Masalan*: «Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi» jumlasini olaylik. Agar «ilon inidan chiqadigan» matali bu jumladan olib tashlansa, uning o'rniga yaxshi so'zini qo'yish mumkin. Natijada, «Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi» jumlasini «falonchi yaxshi gapirdi»ga teng bo'ladi. Ammo «ilon inidan chiqadigan» so'z birikmasi alohida qo'llanganda mustaqil ma'no anglatmaydi. Shu bilan birga «yaxshi so'z bilan ilon inidan, yomon so'z

bilan qilich qinidan chiqar» maqolini ham esga olish mumkin. Mazkur misoldagi «ilon inidan» soʻzlariga diqqat qilaylik, chunki bu soʻzlar mustaqil qoʻllanganda boʻlak fikr anglatuvchi maqolning tarkibiy qismidir. Maʼlum boʻladiki, maqol va matal aslini olganda xalq hayotida tutgan oʻrni, maishiy vaziyatlarni ifodalash darajasi bilan bir-biriga yaqin turar ekan. Faqat ularning biri tarixan maqol boʻlib shakllanishga ulgurgan, ikkinchisi esa matal sifatida yashayvergan. Demak, maqol va matallar bir-biriga shakl va mazmun jihatdan yaqin turadi, ammo maqollar nisbatan mustaqil janr boʻlsa, matalda bu mustaqillik koʻzga tashlanmaydi.

Maqollar tematikasi. Oʻzbek xalq maqollari dunyodagi boshqa xalqlarda boʻlgani kabi mavzu jihatidan xilma-xil va rang-barangdir. Ular mazmuniga vatan, xalq, mehnat, oila, oliy insoniy fazilatlar kabi inson hayotida muhim hisoblangan masalalar haqidagi hukmlarsingdirilgan. Shuninguchun hambaqollarni xalqning ogʻzaki qomusibilantenglashtirishodattusigakirgan. Mahmud Koshgʻariyning «Devoni lugʻotit turk» asaridan oʻrin olgan maqollarda ham vatanparvarlik, mehnatsevarlik, hamjihatlik, mardlik, vafodorlik kabi gʻoyalar oʻz ifodasini topgan. Bu maqollarning xalq hayotida tutgan oʻrni va ahamiyati shu jihatdan ham muhimki, ularda inson maishiy hayotidagi hamma lavhalarga mos hikmatli fikrlar bayon etilgan. Ikkinchi tomondan, bu asarlarda, oʻzbek xalqining xalq sifatida, millat sifatidagi oʻziga xosligi, oʻzbekona tabiat belgilari bilan ham tanishish mumkin boʻladi. *Masalan*, «Devonu lugʻotit turk»da «Ogʻilxonada buzoq tugʻilsa, ariq boʻyida oʻt unadi» degan mazmundagi maqol bor. Bu maqolda har bir mavjudot, shu jumladan, inson oʻz rizqi bilan dunyoga kelarmish degan fikr aytilgan.

Ajdodlarimiz mazkur maqol namunasi orqali oʻzlaridan keyingi avlod vakillariga bagʻrikeng inson boʻlishni, bironing muvaffaqiyatiga hasad qilmaslikni, har bir shaxs oʻz hayoti davomida faqat oʻzining rizqini yeyishi mumkinligini vasiyat qilgandek boʻladi. Bu bilan xalqning tarbiyasiga, feʼli va atvoriga oid mulohazalar bayon etiladi. Uzoq oʻtmishimizda yaratilgan

maqollar orasida insonning hayotida amalga oshirgan har bir savobli amali ham, har bir yomonligi ham el dilidan o'chmas iz qoldirishi bayon etiladi. Quyidagi maqolga e'tibor beraylik: «Ot kuragidagi yag'ir bolalariga meros bo'lib qoladi».

Ma'lumki, o'zbek xalqining asrlar davomida hayotiy asos bilan tasdiqlangan tajribasi har bir insonning oxir pirovardida nasliga tortishini tasdiqlagan. E'tibor berish kerakki, bu yerda gap mutlaqo iqtisodiy ta'minlanganlik, zodagonlik yoki qullik, cho'rilik haqida borayotgani yo'q. Bu yerda gap insonning o'z millatdoshlariga yaxshilik qilishga moyilligi, har xil g'iybatchilikdan uzoqligi, kechirimliligi, hotamtoyligi haqidadir. Haqiqatan ham, hayot tajribasi oilaviy muhitning bola tarbiyasiga ta'sir etishi bilan birga qon orqali nasldan naslga o'tishini ham tasdiqlamoqda. Binobarin, xalq maqollarida ana shunday chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lgan fikrning o'rin olishi tabiiydir.

O'zbek xalqi doston, ertak, naql va rivoyatlarda odamlar o'rtasidagi nizolarni hamisha tinch yo'l bilan hal etishni tasvirlagan. Shuning uchun, avvalo, xalq maqollarida ham insonlar o'rtasidagi munosabatning iliq bo'lishi lozimligi qayta-qayta takrorlanadi. «Et tirnoqdan ayrilmas», «Tog' tog'ga qovushmaydi, odam odamga qovushadi», «Otasi achchiq olma yesa, o'g'lining tishi qamashar», «Keng to'n to'zimaydi, kengashli ish buzilmaydi» kabi maqollar shular jumlasidandir.

Ayni chog'da xalq bu maqollarda aytilgan fikrlarga amal qilinmagan holda ish tutilganidan keyingi holatni ham e'tibordan chetda qoldirmagan. Faraz qilaylik, et tirnoqdan ayrildi va odam odamga qovushmadi: o'rtada nizo paydo bo'ldi. Bu muammoning yechimi ham xalq maqollarida o'z ifodasini topgan, chunonchi, xalq, avvalo, uzoq vaqt mobaynida o'rtadagi kelishmovchilik davom etishi har ikki tarafga ham zarar keltirishini ta'kidlaydi. Jumladan, «Bo'linganni bo'ri yer, ayrilganni ayiq», «Bir kun urush bo'lgan uydin qirq kun baraka ko'tarilar», «Bir kunlik isitma, qirq kunlik kuchni olar» kabi maqollarning mazmuni ana shunday vaziyatni izohlaydi. Demak, ajdodlarimiz bizni zudlik bilan ahil bo'lishga, ittifoqli turmushga, o'rtadagi nizolarni

ko'tarishga chorlaganlar va muammoli vaziyatning yechimini tezroq topishga undaganlar. Ammo bu yechim aql, farosat bilan topilishi tavsiya etilgan. Yo'qsa, «o't alanga bilan o'chirilmas», «qon qon bilan yuvilmaydi» kabi maqollar yaratilmas edi.

O'zbek xalqi tabiatan halol mehnatni quvvatlab kelgan. Pora olish, harom yo'l bilan boylik orttirish hamisha qoralangan. Natijada, el-yurtning poraxo'rga, o'g'riga, xiyonat yo'li bilan topilgan mol- davlatga bo'lgan munosabatini bildiruvchi maqollar yaratilgan. Xususan, bir maqolda «Pora do'zax eshigini ochadi» deyilsa, boshqalarida «Poraxo'rning tavbasidan qo'rq, mug'ombirning yig'isidan» kabi asarlarga duch kelamiz.

Xalq maqollarining matni bilan tanishar ekanmiz, xalqimiz el farzandlarining bir-biriga hamkor, halol, pok bo'lishi bilan birga mard, vatanparvar, ilmni sevuvchi shaxs darajasiga ko'tarilishini ham xohlaganligiga ishonamiz. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng uzoq o'tmishda yashab o'tgan o'nlab olim va allomalarning nomlari, asarlari, kashfiyotlari haqidagi dalillar qayta tiklandi. Natijada, «Olim bo'lsang, olam seniki», «Olimdan ot qoladi, nodondan dod», «Ota-onasini tanimagan tangrisini tanimas» kabilardagi fikrlar tasdiqlandi.

Albatta, inson hayoti bevosita oila bilan bog'liq. Oiladagi turmushning totuvligi har bir oila a'zosining taqdiriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oilasi notinch odamning xayoli turg'un bo'lmaydi. Bunday sharoitda tarbiyalangan bolalar ham har tomonlama insoniy yetuklikka erisha olmaydilar. Shuning uchun ham xalq maqollari qatoridan «Oila ahil bo'lsa, omad o'z oyog'i bilan kelar», «Oila tinch – yurt tinch», «Oila qo'sh, ustunli ayvon», «Husn to'yda kerak, mehr kunda» kabi namunalar o'rin olgan. Ma'lum bo'ladiki, asrlar davomida xalqimiz o'zining dunyoqarashini ijobiy fazilat va nuqsonlarga bo'lgan munosabatini, ezgulik va yovuzlik haqidagi fikr va mulohazalarini o'z maqollarida ifoda etgan. Bu hikmatli so'zlar har bir o'zbek farzandi uchun ota-bobosidan qolgan pand-nasihat sifatida qabul qilinmog'i lozimdir. Chunki yuqorida misol sifatida keltirilgan maqollarning o'zi ham ming-ming yillar davomida

ajdodlarimiz hayot tajribasidan o'tib, zamon sinovlariga bardosh bergan holda bizgacha yetib kelgan. Xalq maqollari asrlar davomida o'zining shakl va mazmun jihatdan benazirligi bilan buyuk va taniqli adiblar e'tiborini jalb qilib keldi. Yusuf Xos Hojibdan tortib Muqimiygacha, Alisher Navoiydan tortib Abdulla Qahhorgacha xalq maqollaridan samarali foydalanganlar. Hatto xalq o'zi yaratgan maqollaridan doston, ertak, rivoyat va naqllarda unumli foydalangan. Jumladan, Alisher Navoiy lirikasida «Chiqmag'on jong'a umid», «It uyub qoldi-yu, ko'chdi karvon», «Men firoqdin desam, ul der Iroqdin»; Bobur ijodida:

«Bo'lib turur ikki ko'zim yo'lida to'rt», «Men edim saningdek, sen bo'lg'oysen maningdek»; Abdulla Qahhor ijodida «Otning o'limi, itning bayrami», «Quruq qoshiq og'iz yirtar»; «Alpomish» dostonida «Sulton suyagini xo'rlamas», «Elakka borgan xotinning ellik og'iz gapi bor» kabi maqollar ko'plab uchraydi.

Folklorshunoslik ilmida shoir va yozuvchilar tomonidan xalq maqollarining asar matnida keltirilishi folklorizm deb ataladi. Bu holat ijodkorning xalq og'zaki ijodiga bo'lgan munosabati ijobiy ekanini tasdiqlaydi.

Xalqimiz yaratgan maqollar mazmun jihatdan chuqur bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan ham mukammaldir. Ularda go'zal o'xshatishlar, tovushdoshlik, mubolag'alar, majoziy obrazlar yetakchi o'rinni egallaydi. «Ona bilan bola – gul bilan lola» maqolida o'xshatish badiiy san'ati qo'llangan. Maqolning mazmunida ona bilan bolaning gul bilan lolaga o'xshatilishi nazarda tutiladi. «Olim bo'lsang, olam saniki» maqolida «l», «m», «s» tovushlari alliteratsiya- tovushdoshlik holatini vujudga keltirgan. Endi «Boy boyga boqar, suv soyga oqar» maqoliga diqqat qilaylik. Bu maqolda «boyga» va «soyga» so'zlari ichki qofiyani, «boqar» va «oqar» so'zlari tashqi qofiyani tashkil etadi. Qizig'i shundaki, har ikkala qofiyadosh so'zlarda ham faqat bitta tovushda farq seziladi. Bu esa maqolning badiiy jihatdan mukammalligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni chog'da «b», «o», «e», «r», «s» kabi tovushlar vositasida tovushdoshlik holati vujudga keltirilgan. Ma'lum bo'ladiki,

xalqimiz yaratgan maqollar faqat mazmun jihatdan emas, badiiy jihatdan ham ajoyib soʻz sanʼati namunalari sifatida baholanishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Xalq maqollari asrlar davomida oʻzbek xalqining hayot tajribasini badiiy jihatdan ifodalovchi soʻz sanʼati namunalari sifatida yashab keldi.

Xalq maqollari ming yil davomida shoir va yozuvchilar tomonidan badiiy asarlarga kiritildi va folklorizm namunasi sifatida soʻz sanʼatidan oʻrin oldi.

Mahmud Koshgʻariyning turkiy soʻzlarga izoh berish maqsadida keltirgan maqollari oʻz davrida oʻrta asr olimi tomonidan dastlabki oʻrganish obyekti boʻlgani sifatida baholanishi mumkin. Keyinchalik esa bu anʼana oʻzbek folklorshunos olimlari tomonidan rivojlantirilganini eʼtirof etish joizdir. Bu olimlar koʻp asrlik madaniy merosimizdan munosib oʻrin olgan otalar soʻzini toʻpladilar, ilmiy tahlildan oʻtkazdilar, nashrdan chiqardilar va xalqqa taqdim etdilar.

Maqollar mundariyasi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, maʼnaviy masalalarga oid mavzulardan iboratdir. Ularda oʻzbekning vataniga, xalqiga, mehnatga, ilmga, hunarga, oilaga, mardlikka, ahillikka boʻlgan munosabatlari oʻzining badiiy ifodasini topgan.

Badiiy jihatdan mukammallik maqollarning asosiy fazilatlaridan biri hisoblanadi. Oʻxshatish, tovushdoshlik, sifatlash, istiora, majoz kabi badiiy sanʼatlar keng qoʻllanilganligi bilan ular oʻquvchi diqqatini oʻziga jalb etadi.

Maqollar uzoq oʻtmishda boʻlgani kabi bugungi kunda ham mustaqillikka erishgan oʻzbek xalqining yosh avlodini ajdodlar havas qilgan barkamol inson darajasiga yetaklovchi asosiy tarbiya vositalaridandir.

Maqollar koʻp jihatdan matallarga oʻxshasa ham, ularning har qaysisi oʻziga xos xususiyatga ega. «Temirni *qizigʻida bos*», «Yovni *ayagan yara yer, kaltagini sara yer*», «Birlashgan oʻzar, birlashmagan toʻzar», «*Er yigitga ikki nomus – bir oʻlim*» kabilar tom maʼnoli maqollar boʻlib, ularning mazmunida tugal fikr,

umumiy xulosa bor. «Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi», «Tosh qattiqmi, bosh», «Ko'rgan bilan eshitgan bir emas», «Ayozxon, haddingni bil» kabilar esa matallar hisoblanadi. Chunki ularning mazmunidan umumiy xulosa, tugal fikr anglashilmaydi, balki xususiy belgining o'zigina ifodalangan.

Darhaqiqat, «Temirni qizig'ida bos» maqolida faktlar jamlanib, tugal fikr, umumlashma ma'no kelib chiqqan. Nasihat, o'git hamma ishni o'z vaqtida bajarishga qaratilgan bo'lib, ma'no nihoyatda keng.

«Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi» matalida esa tugal, umumlashma ma'no yo'q, xulosa ko'rinmaydi, faqat xususiy ma'no ifodalangan, xolos. Shunday qilib, maqol chuqur va keng ma'noli, ibratomuz, tugal fikr anglatga, matal juz'iy belgi anglatuvchi ta'sirchan nutq bezagidir.

Maqollar xalq tushunchasi, hayot tajribalari, mulohazalarining umumlashma xulosasigina bo'lib qolmay, haqiqatning obrazli ifodasi, u yoki bu masala ustidan chiqarilgan hukm hamdir. Maqol hajmi ixcham, qisqa bo'lib, puxta ishlangan, keng ma'noni ifodalovchi obrazli nutq namunasidir. Biror jumla, gap shaklida kelgan maqolda ortiqcha so'z bo'lmaydi. Har bir so'z aniq, o'z o'rnida ishlatilgan va ahamiyatli bo'lib, o'ziga xos ritm, ohang, tuzilishga ega.

O'zbek xalq maqollari uzoq davrlar davomida yashab, alohida janr sifatida shakllandi, avloddan avlodga, og'izdan og'izga o'tib kelmoqda. O'tmish madaniy yodgorliklarda maqollar ko'plab uchraydi. XI asr qomusi hisoblangan Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asarida keltirilgan maqollarda o'sha zamon ruhi, dunyoqarashi, kishilarga, mehnatga munosabatning turli xil shakllari o'z ifodasini topgan. Bu maqollar qadimgi turk urug'lari va qabilalari orasida keng tarqalgan bo'lib, ularning turlari bizgacha yetib kelgan.

Maqollar tarixiylik xususiyatga ega. Ular ko'pincha tarixiy voqea va hodisalar ta'sirida vujudga kelgan. Shuning uchun ham maqollarning g'oyaviy mazmunida xalq hayotining turli xil tomonlari o'z aksini topgan. Ma'lumki, turkiy xalqlar qadimdan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan.

Binobarin, ba'zi bir maqollar chorvachilik va dehqonchilik bilan bog'lanadi. Ulardaxalqning mehnattajribalari umumlashtiriladi.

Mo'g'ullar istilosi davrida (XIII asr) Chingizxon zulmi juda ko'p naql, matal, afsonalarning yaratilishiga sababchi bo'lgan. O'sha davrda to'qilgan maqollarda tarixiy faktlar ham ko'zga tashlanadi.

Ayni chog'da zulm va zo'rlikka qarshi ochiqdan ochiq norozilik, isyonkorlik ruhi bilan sug'orilgan maqollar ham yaratildi.

Maqollar, asosan, o'z va ko'chma ma'nolarni ifodalaydi:

«Ilon chiqqan ola arqondan qo'rqrar», «Bo'rining qulog'i ovda». Bu xildagi maqol va matallar ma'lum bir voqea, hodisa bilan bog'liq holda ishlatiladi, aytilmoqchi bo'lgan fikr majoziy ma'noda, kinoya tarzida ifoda etiladi.

Maqol shaklan qisqa bo'lib, voqelikni yoyiq holda ifoda qila olmaydi. Binobarin, maqollarda voqelikni siyiq va ixcham ifodalaydigan aniq va hayotiy obrazlar mavjudki, ular umumiy mulohazalarning yakunidan kelib chiqqan xulosani ko'chma ma'nolarda belgilash imkonini beradi, «Sen bo'rini ayasang, bo'ri seni talaydi», «Jo'jani kuzda sana». Birinchi maqolda «bo'ri» orqali qonxo'r dushman, yovuz niyatli kishi obrazi gavdalansa, ikkinchi maqolda har bir ishda xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak, deyilmoqchi. Ba'zan u yoki bu maqol topishmoq singari tuzilgan bo'lib, voqelik qiyos qilish, solishtirish orqali aniqlanadi: «Yoz yomg'iri loy bo'lmas, o'g'ri aslo boy bo'lmas».

Maqollar tuzilish jihatdan nihoyatda sodda va ixcham. U ko'pincha sodda gapdan iborat bo'ladi: «Til – tig'dan o'tkir», «Insofsiz – imonsiz». Ega va kesimdangina tashkil topgan mazkur maqollarda asosiy mazmun lo'nda ifodalangan. Ularning har birida o'z yoki ko'chma ma'noli obrazlar qarama-qarshi qo'yiladi:

«G'amsiz boshim – g'avg'osiz boshim», «Ot aylanib qozig'ini topar, suv aylanib yorig'ini topar». Birinchi gap ikkinchi gap mazmunini takrorlab, uni izohlaydi yoki, aksincha, ikkinchi gap birinchi gap mazmunini ta'kidlab izohlaydi. Mazkur

maqollarda kelgan qarama- qarshi bo'laklar o'zaro mos tarzda qofiyalashgan. «Usti yaltiroq – ichi qaltiroq», «Ish yoqmasga it boqmas» kabi maqollarda esa birinchi bo'lakka urg'u tushishi bilan yaxlitlanib obraz yaratadi, ikkinchi bo'lak esa, birinchi bo'lakning kesatiq mazmunli izohi bo'lib, obraz xarakterini aniqlaydi. Ular mantiqan bir butun obrazlikni tashkil etadi.

Maqollarda qofiyalanish ham o'ziga xosdir:

«Jondan kesmasang, jonona qayda, tog'ga chiqmasang, do'lona qayda», «Mehnat – mehnatning tagi rohat». Ko'ramizki, turli xil shaklga ega bo'lgan bo'laklar o'zaro qofiyadosh so'zlar bilan bog'landi. Har bir maqolda asosiy mazmunni ifoda etgan so'z qarama-qarshi yoki o'ziga mos tushgan so'z bilan qofiyalanadi: «Ko'cha xandon, uy zindon», «Qo'li ochiqning yo'li ochiq».

Maqollarda vazn, ritm, qofiya, ohangdorlikning quyma birligi katta rol o'ynaydi. Binobarin, ko'pchilik maqollar she'riy formada kelib, ba'zan bir misra yoki bir baytdan, ba'zan esa to'rt misradan tashkil topadi. Misralardagi takror so'zlar ohangdorlikni yanada oshiradi:

Yaxshi otga bir qamchi, Yomon otga ming qamchi.

Yaxshi topib so'zlar, Yomon qopib so'zlar.

Maqollarda sifatlash, o'xshatish kabi badiiy tasvir vositalari va omonim, antonim so'zlardan foydalanish ularning badiiyligini yanada oshiradi, ifodalangan fikrning tinglovchiga tez yetib borishini ta'minlaydi.

Maqollar donishmandlik ramzi. Ular o'quvchi va tinglovchilarni fikrni chuqur, ixcham, aniq va obrazli qilib ifodalashga o'rgatadi, kishilarni, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita vazifasini o'taydi.

Xalq hamisha yoshlarning ziyrak, yaxshi xotirali, fikrlovchi inson bo'lishini istagan. Agar xalq dostonlari, ertaklarini o'qisangiz, asar qahramonlari turli sinovlardan o'tishiga guvoh bo'lasiz. Bu sinovlarning bir turi jismoniy kuch talab qilsa, ikkinchi xili aql, idrok bilan hal etiladi. Jumladan, shunday

ertaklar borki, ularda ma'shuqa qizlar turmushga chiqadigan yigitlari oldiga shaxmat o'ynash, jumboqli savollarga javob berish shartini qo'yadilar. Ular orasida dunyoda eng og'ir narsa nima? Kim ertalab to'rt oyoqlab, kunduzi ikki, kechqurun uch oyoqda yuradi? Dunyoda to'rtta narsa yo'q, ularni ayting. Nima uchun daraxt soyasida soyabon tutish kerak, kabi jumboqlar bor. Og'ir narsa filga yoki kitga o'xshaydi. Ammo savolning javobi — ot. Chunki faqat ot yugurganda, yer larzaga keladi. Yoki odam go'dakligida to'rt oyoqlab, yoshligida ikki oyoqlab, qariganda uch oyoqlab, ya'ni hassa bilan yuradi. Dunyoda to'rtta narsa yo'q: osmonning ustuni, hovuzning qopqog'i, oshpichoqning qini, ko'rpaning yengi. Shuningdek, daraxt soyasida dam olayotgan odam qushlarning chiqindisidan asranish uchun soyabon tutadi kabi javoblarni berish kutiladi. Aslini olganda, bu sinovlarning hammasi o'ziga xos topishmoqlardan iboratdir.

Xalq orasida topishmoq, jumboq, ba'zan matal, topar, cho'pchak kabi terminlar bilan yuritilib kelingan topishmoq janri o'zbek folklorida qadim zamonlardan hozirgacha yashab kelmoqda va rivojlanmoqda. Uzoq o'tmish davrlarda topishmoq insonni o'rab olgan muhit va tabiatning turli-tuman hodisalari haqidagi tushunchalarining badiiy ifodasi sifatida maydonga kelgan. Tog' va o'rmonlar, daryo va ko'llar, cho'l-u biyobon, yer va osmon, quyosh va oy, yulduz va fasllar, zulmat va yorug'lik, toshqinlar, chaqmoq va momoqaldiroq, hayvonot olami, oila-ro'zg'or jihozlari, dov-daraxt, mehnat qurollari va boshqalar haqida kollektiv ijodning mahsuli bo'lib to'qilgan topishmoqlar avloddan avlodga o'tib, katta va kichikka hayot, tabiat sirlari haqida o'ylashni, bilishni o'rgatib kelganligi bilan g'oyat ahamiyatlidir.

«Topishmoq so'zi «top» buyruq fe'liga «ish-moq» yasovchilari qo'shilishi bilan chigal, murakkab, belgi-xususiyati yashirin berilgan biror noma'lum narsani topish mazmunini ifodalaydigan yasama otga aylangan. Tabiat va jamiyat hodisalari kishilar oldiga ko'p murakkab jumboqlar, muammolar qo'ygan. Insonning o'sha masalalarni topishi, sirli bo'lib ko'ringan narsalarning tub, haqiqiy mohiyatini ochishi uchun aql-idrok

va o'tkir did talab qilingan.

Topishmoqlar xalq og'zaki ijodida eshituvchilardan ongli ravishda yashirilgan, berkitilgan narsa, hodisalarning asosiy mazmunini topish, yechishning o'ziga xos poetik formasidir. Janrning taraqqiy etish tarixi M.Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asarida qayd etilgan qadimgi turkiy xalqlarning **tabzug'** janriga borib taqaladi. Tabzug' bu so'z, narsa-buyum jumbog'i bo'lib kishilik jamiyatida olib borilgan muzokaralarda narsa-buyumlarda jumboqlar – mohiyat taqdim etilgan. Narsa-buyumlar zamiridagi ma'no voqea- hodisaga nisbatan munosabat va xulosa bildirishga asos bo'lgan. Ushbu janrning badiiy talqini yozma adabiyot namunalaridan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridagi uch oyoqli kursi manzarasi tasvirida, Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonida Iskandar va Eron shohi o'rtasidagi muzokaralar tasvirida gavdalangan.

Topishmoqlar og'zaki ijodning ommaviy va maxsus janrlaridan biri. Ularning uslubi metafora (istiora), ko'chim, kinoya, qochiriq yo'li bilan so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatib, yashirilgan narsa, hodisalarning belgilariga ikkinchi bir narsa, hodisalarning belgilarini qiyoslash, imo-ishora qilishdan iboratdir. Topishmoqlarning shu xususiyati haqida qadimgi yunon filosofi Aristotelning: «Juda yaxshi metafora tuzish yo'li», – deyishi bejiz emas.

Topishmoq aytish qadimgi zamonlardan boshlab turli xalqlarning hayoti, ijtimoiy shart-sharoitlari, dunyoqarashlari, urf- odatlari, mifologik tasavvurlari bilan bog'liq bo'lgan. O'zbek xalqi ham boshqa qardosh xalqlar kabi kuz va qish kechalari g'o'za chuvish, charx yigirish, olacha to'qish kabi qo'l mehnati bilan bajariladigan turli-tuman ishlar davomida topishmoq aytishgan. Topishmoq aytish qaysi bir xalqda bo'lmasin, u aql-ziyraklik musobaqasi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgi vositasi. Topishmoq aytish, asosan, yoshlarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi bilim- tushunchasi, idroki va mulohazalarini kengaytirish uchun zarur tarbiya vositalaridan biri bo'lgani tufayli ular soddadan murakkabga,

osondan qiyinga borish usulida yaratilgan. Topishmoqlar orasida maktab yoshigacha bo'lgan bolalar osonlik bilan topa oladiganlari bo'lgani kabi katta yoshdagi bolalar, hatto, turmush tajribasi ko'p kishilarning ham boshini qotirib, o'ylashga majbur qiladiganlari ham bor. Masalan, «Otdan baland, itdan past», «Qoziq ustida qor turmas» kabi *egar*, *tuxum* haqidagi topishmoqlar xalq orasida keng tarqalganligidan topishmoq aytilib bo'linmay, eshituvchilar uning javobini topa oladi. Ammo «Uzundan uzoq, havoga tuzoq» (*tutun*) kabi topishmoqlar ancha o'ylantirib qo'yadi. Topishmoqni hamma – kattadan kichik aytadi, uni topishda ham ko'pchilik ishtirok etadi.

Xalq orasida nisbatan ko'p topishmoq biladigan kishilar topishmoqchi, jumboqchi ham deb yuritiladi.

Topishmoqlarda savol tarzida aytiladigan fikrlar ma'lum bir badiiy shaklga tushgan bo'ladi. Ular xuddi maqollar kabi ixcham, quyma, ta'sirchan formada yaratiladi. Badiiy tafakkur mevasi bo'lgan topishmoqlarda fikr timsoliy yo'l bilan ifodalanadi, uning savol va javobini ichki mantiqiy qiyoslash boshqarib turadi.

Topishmoq aytuvchi qanoat hosil qilguncha shu tariqa savol-javob davom etadi. Javob topa olmagan shaxsning deyarli barcha tana a'zolari «sotib olinadi». «Sotdim-oldim»da kishining ko'zini – jin chiroqqa, burnini – hushtakka, boshini – toshga, og'zini – o'raga va boshqa a'zolarini turli-tuman narsalarga o'xshatib, masxara qilinadi. Ko'rinib turibdiki, topishmoq aytishish mehnat ahlining o'ziga xos ko'ngil ochishi, xursandchilik qilishining bir yo'lidir. Topishmoq aytish orqali davrada ajoyib xushchaqchqlik, ruhiy ko'tarinkilik paydo bo'ladi.

Topishmoqlarni yaxshi biladigan keksalarning guvohlik berishicha, topishmoq aytish kechalari juda maroqli o'tgan, ayniqsa, yoshlarga tarbiyaviy-ta'limiy jihatdan katta foyda yetkazgan.

Ayrim topishmoqlar maqollik xususiyatiga ham ega bo'ladi. Masalan, «Hammaga to'n tikaman, o'zim yalang'och» (*igna*) topishmog'i chuqur ijtimoiy mazmuni bilan ajralib

turadi. O'zgalarning, to'g'rirog'i, boy-amaldorlarning foydasiga kechasi- yu kunduzi tinmay mehnat qilib, o'zi quruq qolgan, och-yalang'och, muhtojlikda yashagan mehnatkashlar ommasining og'ir, achinarli ahvoli g'oyat obrazli ifodalangan. Lekin igna va ish haqidagi boshqa bir topishmoqni («Kichkina xotin, lachagi uzun») bunday deb bo'lmaydi. Unda ayollar mashg'uloti ko'zda tutilganligini payqash qiyin emas.

Topishmoqlarda hokim sinf tabaqasiga mansub kishilarning nomlari ishlatilishi ham bejiz emas. Masalan, «Abdullaxon – beustixon» (*bit*). «Tokchama-tokcha, Samatjon boyvachcha» (*sichqon*). «Hovuz yonida Sulton boyvachcha» (*qurbaqa*). Bunday topishmoqlarning umumiy mazmunida zaharxanda, piching bor. Birinchi topishmoqda xalqning qonini so'rib, zolimlikda nom chiqargan Buxoro xoni Abdullaxonning nomi nafrat bilan tilga olinmoqda. Ikkinchisida tekinxo'rlik, zararkunandalik, tayyorga ayyor, ucharlik sichqon obrazi misolida qaysi bir Samatjon degan qallobga tenglashtiriladi. Sulton boyvachcha esa odamlarni ishlatib, faqat o'z jonining huzurini biladigan, o'zini koyitmaydigan bir amaldorga nisbat berilganligi aniq.

Topishmoqlarda topilayotgan narsaning belgisi bo'rtib ko'rsatiladi. Buning sababi shundaki, topishmoqda o'xshatilayotgan narsaning belgisi aynan o'sha narsada yanada aniqroq, yorqinroq namoyon bo'ladi. Masalan, lampochkaning qorong'ulikni qisman yoritishini kuchaytirib ko'rsatish uchun uning yorug'lik kuchi kunduzning yorug'ligiga qiyoslanadi: «Nur sochadi yulduzdek, tunni qilar kunduzdek». Chumolilarning mehnatkashligi, ularning tartibli harakati, darhaqiqat, kishilarning hayratiga sabab bo'ladi. Biroq qumursqalar nihoyatda mayda hasharot bo'lganligi sababli ularning bunday faoliyati har doimo ham ko'zga tashlanavermaydi. Quyidagi topishmoqda bu narsaga urg'u berish va kishilar ko'z o'ngida haybatli tasvirni yaratish maqsadida ular karvonga o'xshatilayapti: «Qora-qora, qorakarvon, erta-yu kech tashir don».

«Gul tagida olifta ashulachi» topishmog'ida bulbulga

sha'ma qilinmoqda. Ma'lumki, bulbul o'zining chiroyli sayrashi, go'zalligi va gullarni sevishi bilan boshqa qushlardan ajralib turadi. Qushning bu jihatlarini bo'rttirib ko'rsatish uchun u rang-barang mato parchalaridan ko'ylak kiyib, turlicha maqom va noz-ishvalar bilan kuylaydigan olifta ashulachiga qiyoslanmoqda.

Ayrim topishmoqlarning qofiyalari topishmoqda yashiringan narsa nomiga qofiya yoki omonim so'z bo'lishi mumkin:

Yedirib, yedirib, o'zi yer. (Yer)
Uyog'i alang, bu yog'i alang,
O'rtasida ola to'palang. (Chang)

Bunday topishmoqlarning tuzilishi, qo'llangan qofiyalarning ohangdorligi, ularning javobini topuvchining mushkulini biroz bo'lsa-da, osonlashtiradi. Shuningdek, ayrim topishmoqlardagi qofiya topiladigan narsa nomi bilan aynan qofiya bo'lmasa-da, biroq ohangdosh bo'lishi mumkin:

Cho'pchagim cho'pchak, Oltin belanchak,
Otli qizning onasi, Haligacha kelinchak. (Qo'g'irchoq)
Anora, minora, O'ng qo'lga qo'nara. (Piyola)

O'zbek xalq topishmoqlarining ko'pchilik qismini metaforik topishmoqlar tashkil etishini aytib o'tdik. Topishmoqlarning so'roq mazmunidagi masala-topishmoqlari ham mavjud bo'lib, unga misol tariqasida yuqorida keltirganimiz g'ozlar haqidagi topishmoq mansubdir. Bundan tashqari o'zbek xalq topishmoqlari orasida topishmoq-maqol, topishmoq-o'yin, topishmoq-tez aytish, topishmoq -qo'shiq, topishmoq-ertak kabi turlari bor.

Topishmoqlar tuzilishi jihatidan ba'zan nasriy, ko'pchilik hollarda she'riy shaklda bo'lib, ularda ma'lum bir musiqiylik, zarb, turoq, vazn, qofiya kabi she'riyatning formal talablariga amal qilingan. Qofiya, vazn topishmoqning silliq, ixcham, ohangdor,

esda qoladigan bo'lib tuzilishini ta'minlashga xizmat etadi. Masalan: «To'rt oyoqli, temir tuyoqli» (ot).

Topishmoqlar bir savol-javobli (bir predmetli) bo'lish bilan birga, ko'p savol-javobli (ko'p predmetli) ham bo'ladi. Bunday topishmoqlar ko'pchilik hollarda yaxlit she'riy parcha tarzida tuziladi:

*Tog'da talaymonni ko'rdim, Suvda sulaymonni ko'rdim,
Tuzsiz pishgan oshni ko'rdim, Yumalab yotgan toshni ko'rdim.
(Bo'ri, baliq, sumalak, toshbaqa.)*

Ba'zan topishmoqlarning bir nechasi nazm ipiga tizilgandek bo'ladi va ularning javoblari ham shu tarzda bo'lishi talab etiladi:

*Qamish uchi qaltiroq, uni toping, dilbarim, Igna uchi
yaltiroq, uni toping, dilbarim, Sassiqlik ko'lda it hurar, uni toping,
dilbarim, Taqir-tuqur taqiravon, uni toping, dilbarim, Ichidagi
mehribon, uni toping, dilbarim...*

Topishmoqlar folklorning boshqa janrlari bilan mahkam bog'liq. Ular epik asarlarda tez-tez uchrab turadi. Hatto, maxsus topishmoqli ertaklar ham mavjud. Bunda topishmoqlar epik asarlar uslubiga moslashadi. Asosan, doston va ertak qahramonlari orasidagi dialoglarda ishlatiladi, ya'ni jumboqli savolga asarning asosiy qahramonining javobi tarzida qo'llaniladi. Bunday savol-javobli topishmoqlar dostonlarda qahramonlarning aql-farosatini sinash, ma'lum shartlarni bajarishda, qobiliyatini bilishda ishlatiladi. Bu xil savol-javobli topishmoqlar «Oshiq Oydin», «Oshiq Alvand», «Xirmon dali», «Yozi bilan Zebo» dostonlarida, Maxtumquli va Durdi Qilich aytishuvlarida tez-tez uchrab turadi. «Alpomish» dostonining Po'ltan shoir aytgan variantida Barchinning jumbog'iga Alpomishning bergan chiroyli javobi mavjud. Topishmoqlar ertaklarda ham qahramonlarning aql-farosatini, serfahmligini, achchiq hayot tajribalarini boshdan kechirganligini bilish maqsadida ishlatilgan.

O'zbek xalq og'zaki ijodida kichik hajmdagi nasriy asarlar ichida latifa va loflar bir lahzalik kulgi uyg'otishi, kishilarga zavq bag'ishlashi bilan ajralib turadi. Ularda voqelik mo'jaz

shaklda, daf'atan hozirjavoblik bilan aks ettiriladi. Latifa va loflarning bunday o'ziga xos xususiyati aytuvchi – latifago'y va lofchidan alohida mahorat talab etadi. U so'zlarga urg'u berish yoki qochiriq, kosa tagida nim kosa borligiga shama qilish kabi zehnni o'tkirlashtirish uchun qo'llanadigan barcha tasvir vositalarini ishga soladi. Latifago'y va lofchilar talantli, hayotiy tajribaga boy kishilar bo'ladi. Qadimgi insonlar so'zning magik qudratiga ishonganlari tufayli olqish va qarg'ishlarga ishonadilar. Olqish va qarg'ishlar so'z magiyasiga asoslangan marosim folklori namunalari hisoblanadi. Chunki ular tarixan maxsus marosimlar aytimlari sifatida shakllangan va taraqqiy topgan. Lekin bora-bora ular marosim bilan aloqadorligini, asosan, yo'qotgan. Biroq hozir ham olqish va qarg'ishlarning ayrim namunalari marosimlar paytida ijro etilishi kuzatiladi.

Olqishlar kishilarga yaxshilik, ezgu niyat, xotirjamlik, qut- baraka, sog'liq tilash maqsadida aytiladi. Ular kishilarning ruhini ko'tarib, yaxshilikka da'vat etadi. Shuning uchun janr nomi turkiy tillarda «maqtash», «sharaflash», «yaxshi istaklar bildirish» kabi ma'nolarni anglatuvchi qadimgi turkcha «ol» fe'li o'zagidan yasalgan

«olqish» atamasi bilan yuritiladi. Atama «ol» o'zagiga -qi buyruq mayli hamda -a (sh) harakat nomi yasovchi qo'shimchalarning qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Olqishlar o'z ijro o'rniga, vazifasiga va poetik tabiatiga ega. Ularni shu xususiyatlariga ko'ra talab qilingan o'rinda yoshi nisbatan ulug'roq kishilar tomonidan aytiladigan kundalik maishiy olqishlariga, an'anaviy marosimlar tarkibida ijro etiluvchi olqishlarga bo'linadi.

Kundalik maishiy olqishlar ijtimoiy turmush bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson faoliyatining deyarli barcha tomonlarini mazmunan qamrab olganligi bilan diqqatni tortadi. Shunga ko'ra, ularni ijro o'rni va ijro maqsadiga qarab, yana ichki turlarga bo'lish mumkin. Binobarin, biror kishi boshqa biror shaxs bilan uchrashib qolganida, bir-birlarini tanish-tanimasliklaridan qat'i nazar hol-ahvol so'rashishdan oldin o'zaro bir-birlariga yaxshi tilak- istak bildirishlari, yuzlariga

fotiha tortib sog'lik-omonlik istashlari uchrashuv olqishlari sifatida e'tirof etiladi. Uchrashuv olqishlari kishilarning bir-birlariga nisbatan hurmat-ehtiromlarini namoyon etadi. Ular shaxsning axloqiy tarbiyasi darajasini ko'rsatib beradi. Masalan, «Omin, qadam yetdi, balo yetmasin, Tinchlik, omonlik, xotirjamlik bo'lsin» aytimi uchrashuv olqishi hisoblanadi. Shundan keyingina uchrashgan kishilar bir-birlaridan holahvol so'rashishga o'tadilar.

Olqishlar silsilasida dasturxon olqish aytimlari alohida mavqega ega. Ular uch holatda: a) dasturxon atrofida tanovul qilish uchun o'tirishgan vaqtda; b) ovqatlanib bo'lingach, dasturxonni yig'ishtirib olayotganda; v) dasturxonda qolgan ovqat qoldiqlari-yu, non ushoqlarini qoqayotganda aytilishi o'ziga xos odat tusiga kirgan. O'zbek xalqi – pazandalik hadisini olgan xalq. Uning milliy taomlari juda ko'p va rang-barangdir. Qadimdan har bir taom yeyilgach, unga bag'ishlab maxsus olqish aytilgan. Jumladan, go'shtli taomlarni iste'mol qilgach: «Olti urug'ning oshin bersin, Luqmoni Hakim yoshin bersin. Qushday quyib bersin, tovday uyib bersin, Ollohu akbar», –deyilgan. Bunday olqishlar, asosan, chorvadorlik bilan shug'ullanuvchi aholi o'rtasida tarqalgan.

Dehqonlar o'rtasida qovun yegandan keyin aytiladigan olqishlar alohida: «Shirin sharbat yoki ozod, manzil obod, payg'ambari xudoga salavot, ekkanning, tikkanning, yeganning otasiga rahmat, Ollohu akbar» kabi. Ko'rinib turibdiki, bunday olqishlarda, asosan, dehqonning xayrli va saxovatli mehnati ulug'lanadi. Dehqonga uzoq umr, kuch-quvvat tilanadi. Shu istak dehqon barobarida qovunni yeganlar uchun ham tegishli ekanligi alohida uqtiriladi.

Kishilar biror ishni boshlashdan oldin ham, uni yakunlagandan keyin ham, albatta, olqish aytishlari o'ziga xos odat tusini olgan. Aytaylik, biror imorat qurishdan oldin yoki uni qurib bo'lgach, ichiga ko'chib kirganda, albatta, olqish aytiladi. Yoki yerga ekin ekkanda ham, hosilni yig'ishtirib olayotganda ham olqish aytish an'anaviydir. Bunday olqishlarda, odatda, shu ishlarning piri sanalgan mifologik personajlar nomiga murojaat

qilinadi. Ulardan homiylik ko'rsatib, madad berishlari so'raladi. Masalan, imorat qurish ustachiligida Nuh alayhissalom nomiga, dehqonchilikda hosildorlik kulti Hazrati Xizr yoki Bobo dehqon nomiga murojaat qilinib olqish aytiladi.

Kishilar biror yoqqa safarga chiqishdan oldin kekxa otaxon va onaxonlarning oq fotihasini olishga harakat qiladilar. Safar olqishlari hozirgacha yaxshi saqlanib qolgan. Ularda safarga chiquvchi uchun omad tilash, manziliga eson-omon yetib, yana o'z jigarlarining oldiga sog'-omon qaytib kelishi tilanadi.

Odamlar yangi oyni ko'rganlarida maxsus olqishlar aytadilar. Bunday olqishlarning kelib chiqishida ibtidoiy insonlarning Oy kulti, umuman, kosmogonik tasavvur-tushunchalari, qarashlari asos bo'lgan. Yangi oyni ko'rganda «Oyni ko'rdim, omonlik» yoki

«Oy ko'rdim, omon ko'rdim, oxiratda iymon ko'rdim» aytimlarini aytadilar.

Shuningdek, yangi kiyim-kechak kiyganda aytiladigan maxsus olqishlar ham bor. Ularda kiyimga qarata «sen bir yillik, men ming yillik» deyiladi-yu, kiyimning o'ng etagi o'ng oyoq tagiga olinib, uch marta tepkilanib qo'yiladi. Bu bilan insonning jamiyki narsalardan, har qanday boylikdan ulug'ligi va ustunligi ta'kidlanadi.

Qabrston yonidan o'tayotgan kishi, albatta, dafn qilingan marhumlar ruhiga olqish aytib o'tadi. Bu ham xalqimiz orasida axloqiy normaga aylangan xatti-harakatlardan biridir. Bunday olqishlarning genetik ildizi ibtidoiy insonlarning ruhga aloqador animistik tasavvurlariga borib taqaladi. Bunday vaziyatda «Yotganlarning arvohi shod, yotgan yeri yaxshi bo'lsin» aytimi aytiladi. Shundan so'ng unga bog'lab «Qur'on»ning ixcham oyatlarini qo'shib qiroat qilish an'anaga aylangan.

Xalq orasida azaga borganda aytiladigan olqishlar alohida guruhni tashkil etadi. Ularda marhum ruhiga tinchlik, xotirjamlik, jannatdan joy tilash ma'nolari yetakchilik qiladi.

Xalqimiz orasida to'y marosimlariga aloqador olqishlarning ajoyib namunalari uchraydi. Ularning mazmunini to'yning xarakteri belgilab turadi. Beshik to'ylarida chaqaloq sharafiga,

sunnat to'ylarida to'ybolaga, nikoh to'ylarida kelin-kuyovga qarata olqishlar aytiladi. Masalan, kelin-kuyovlar uchun «Omin, qo'shgani bilan qo'sha qarisin, uvali-juvali bo'lishsin, ollohu akbar» deya alqansa, to'ybolaga «Omin, to'ylarga yetishtirsin, to'ybolaning umri uzoq, to'rt muchasi sog' bo'lsin, katta kishi bo'lib yursin, Ollohu akbar» deya yaxshi istak bildiriladi.

Xalqimiz og'zaki ijodining kichik janrlaridan biri topishmoqlardir. Bu janr ko'proq bolalarni kuzatuvchanlikka, hayotni mukammalroq bilishga, sinchkovlikka o'rgatadi. Ammo topishmoqlar folklorda faqat yosh bolalargagina taalluqli deb hisoblash to'g'ri emas, chunki topishmoq aytish va topish musobaqalarida kattalar ham qiziqish bilan ishtirok etaveradilar. Hatto olim Z. Husainovanning ma'lumot berishicha, uzun qish kechalarida urchuq yigirgan va olacha to'qigan xotinlar, Samarqand atrofida boshqa qishloqlardan to'yga kelib xonadonlarga bo'lingan mehmonlar o'zaro chaldirmoq (tez aytish), jumboq, ya'ni topishmoq aytishishgan. O'tgan zamonlarda topishmoqlarni qish faslida uzoq kechalarni zerikmay o'tkazish uchun aytganlar. Topishmoq aytgan odamning topishmog'iga javob topilsa, u musobaqada yutqazgan, topilmasa g'olib chiqqan hisoblangan. Har ikki holatda ham mag'lub bo'lgan taraf yo g'azal aytgan, yoki biron hayvonga taqlid qilib ovoz chiqargan, yo qo'shiq kuylagan, yoki biron jismoniy ish qilgan: suv olib kelgan, qor kuragan, eshik supurgan va hokazo.

Ma'lumki, badiiy tasvir vositalari qatorida istiora san'ati ham muhim o'rin egallaydi. Istiora so'zi «ko'chim» ma'nosini beradi. Agar biz do'stga nisbatan: «Mening arslondek do'stim bor», - desak, o'xshatish san'atini qo'llagan bo'lamiz. Ammo «dek» qo'shimchasini va «do'stim» so'zini qoldirib, «arslonim bor» - desak, istiora san'ati yaratiladi. Topishmoqlarda ana shu san'at yetakchilik qiladi. Chunki biron narsa ikkinchi bir narsaga istiora san'ati vositasida o'xshatiladi va eng muhim xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

Masalan: «Yer tagida oltin (tilla) qoziq» topishmog'ini olaylik. Bu topishmoq matnida yashiringan narsaning uchta

muhim belgisi qayd etilgan:

1. Yer ostida ekani.
2. Oltinning rangida, ya'ni sariq ekani.
3. Qoziqqa o'xshashligi.

Bu belgilar orqali biz topishmoqning javobi sabzi ekanini topamiz. Matndagi «qoziq» so'zi esa istiora san'atiga misol bo'lib kelgan.

Topishmoqlar shakl jihatidan nasriy va she'riy bo'ladi:

1. Tomdan tuxum irg'itdim. (do'l) – nasriy topishmoq.
2. U yoqqa o'tdim, bidingmi? Bu yoqqa o'tdim, bidingmi?

Oq quvrayning²³ boshini, Chertib o'tdim, bidingmi? (shamol) - she'riy topishmoq. Topishmoqlar xalq orasida jumboq, topmacha, top-top, cho'pchak, matal, masala, ushuk atamallari bilan atab kelinadi. Ilmiy asarlarda «topishmoq» termini «top» buyruq fe'liga «ish» harakat nomini hosil qiluvchi shakl va «moq» qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'lgan, deb ko'rsatiladi. Natijada «topishmoq» so'zi xalq og'zaki ijodidagi alohida janr nomini bildirgan.

Keyingi paytlarda shevalardagi yuqorida ko'rsatilgan atamalar deyarli yo'qolgan. Asosan, «topishmoq» nomi saqlanib qolgan. Xalqimiz orasida «Kichkina dekcha, ichi to'la mixcha» (anor), «Qoziq ustida qor turmas» (tuxum), «Otdan baland, itdan past» (egar) kabi mashhur topishmoqlar bor. Ammo «Qoragina popish, devolga yopish» (kaltakesak), «Qizil yulg'unning tagida Qizlargul opam yotibdi» (qirg'ovul) kabi u qadar keng ommalashmagan va topish anchayin mushkul bo'lgan topishmoqlar ham bor. Ba'zan bitta narsaga atab bir necha topishmoqlar yaratilgan:

1. Yer tagida ho'l gavron.
2. Yer tagida yog'li qamchi.
3. Ko'prik ostida yog'li hasip.
4. Uzun ichak, uchi tugunchak.

Bu topishmoqlarning hammasida topilishi lozim bo'lgan narsa ilondir. Matnlarni diqqat bilan o'qisak, ularning mohiyati jihatidan bir-biriga juda o'xshash ekani aniq sezilib turibdi.

²³ Oq quvray — cho'l-dashtlarda o'sadigan, mayda

Shuningdek, bitta topishmoq matniga bir nechta narsa javob bo'lib kelishi ham mumkin. *Masalan*: «Uzun terak ichi kovak» topishmog'ining javobi aslida qamish hisoblanadi, ammo bu topishmoqqa ba'zan kuva, ba'zan miltiq, ba'zan mo'ri javob sifatida qabul qilinaveradi: qamishning ichi kovakligi kuvaga, miltiqqa, mo'riga o'xshaydi. Lekin baribir «Uzun terak, ichi kovak»ning haqiqiy javobi qamishligicha qoladi. Chunki kuva, miltiq, mo'ri bilan ichi kovak bo'lgani bilan matndagi «Uzun terak» so'zlariga u qadar mos kelmaydi.

Topishmoq aytish musobaqasida yashiringan narsani aniqlash uchunbirnecha savollar berish an'anasi ham bo'lgan. Javob axtaryotgan taraf aytuvchidan «joni bormi, yo'qmi?» «yeyiladimi?», «o'sadimi, usta yasaydimi?» kabi savollar berib narsa nomini topishga uringan.

Z.Husainova Namangan viloyatida yashovchi Muborak Ubaydulla qizidan yozib olgan bir matnda topishmoq topa olmagan odam qanday so'zlar bilan uyaltirilganini qayd etadi: Mag'lub taraf shahar bergan. G'olib taraf shaharni olgan va o'z javobini berishda shunday degan: «shahar, unda boru munda kel, kelib mening qoshimga yiqil, ikkalamiz ketaylik. Sen ham keta berib, tap etib bir xaloga tushding. Men ham keta berib, jarang etib bir tillaxonaga tushdim. Bir devona:

«Hey do'st», - deb keldi. Men bir olovkurak tilla chiqarib berdim, meni chol ko'chada alqab-alqab ketdi. Sen bording-u, bir olovkurak go'ng chiqarib berding, seni chol qarg'ab-qarg'ab ketdi. Men ham bir otga mindim, sen bir yag'ir eshakka minding. Kunjaradan non qilib eshakning yag'iriga kunjarani tegizib, yalab-yalab ketding. Men bordim shinni bilan murabboga nonni tegizib, yalab-yalab ketdim. Hay topmasang, men topay, og'zingga katta bir tappini yopay».²⁴

Birovni kamsituvchi o'ziga xos yuqoridagi nutq bilan tanishgan odam topishmoqni topa olmagan kishiga qanchalar qattiq dashnom berilganiga amin bo'ladi. Undagi ot – eshak; yag'ir – shinni so'zlari tazod (qarshilantirish) tasvir vositasi sifatida keltirilgan. Topishmoq aytuvchi o'zining mavqeyi

²⁴ Husainova Z.O'zbek topishmoqlari. T., «Fan», 1966. 17-bet.

uni topa olmagan odamdan qanchalar baland ekanini qayta-qayta ta'kidlaydi. Uning ustiga bu gaplar bir uy odam o'rtasida aytilishini hisobga olsak, vaziyat yana murakkablashadi. Shuning uchun topishmoqlarning javobini topish insonning g'ururi, oriyati bilan bog'liq bo'lgan. Binobarin, g'alaba muvaffaqiyat, mag'lubiyat esa katta tashvish hisoblangan.

Bu esa musobaqa ishtirokchilarini ko'p ma'lumotlarni yodda saqlashga, har bir so'zga e'tibor berishga, ayni paytda qiziq-qiziq savollar o'ylab topishga o'rgatgan.

Topishmoq aytishda shahar berish an'anasi bo'lgan. Javob topa olmagan taraf shahar berib, o'zining mag'lub ekanini tan olgan. Shahar so'zi arab tilidan olingan. Z.Husainovanning yozishicha, bu so'z e'lon qilish, mashhur qilish, ma'lum qilish ma'nolarini anglatgan. Demak, shahar berish so'zining asl ma'nosi topishmoq javobini topa olmagan odamni elga ma'lum qilish bilan izohlanadi.

Xalq orasida yashab kelayotgan topishmoqlar bir jumboqli va ko'p jumboqli bo'lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan sabzi, ilon javob hisoblangan topishmoqlar bir jumboqli. Ularda faqat bitta narsaning belgilari haqida ma'lumot beriladi. Shunday topishmoq namunalari ham borki, matnda bir nechta narsa topish talab qilinadi. *Masalan:*

Tog'da tilaymonni ko'rdim, Suvda sulaymonni ko'rdim, Tuzsiz pishgan oshni ko'rdim, Yumalab yotgan toshni ko'rdim.

Bu topishmoqning javobi — bo'ri, baliq, sumalak, toshbaqa. Yoki yuqoridagi sahifada keltirilgan dunyoda to'rtta narsa yo'qligi haqidagi topishmoq ham ko'p jumboqli hisoblanadi.

Topishmoqlar haqida ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan

Z.Husainova ba'zi topishmoqlarda istiora san'ati qo'llanmasligini, faqat arifmetik hisoblash orqali javob topilishini aytib o'tadi. *Masalan:* «Bir to'da g'oz uchib borar ekan. Bir g'oz ro'para kelib:

«Ey yuz g'oz, sog'-salomat bormisiz», – debdi. Unda ulardan biri aytibdi: «Biz yuz g'oz emasmiz, yana biz miqdori g'oz bo'lsa va yana bizning yarmimiz miqdori va yarmimizning yarmi bo'lsa, u vaqtda sen qo'shilsang, yuz g'oz bo'lamiz», –

debdi. Havodagi g'oz qancha ekan?

Javobi $36 + 36 + 18 + 9 + 1 = 100$

O'zbek topishmoqlarining bugungi kunda bizgacha yetib kelgan matnlarini o'rganish, yaratilish davri jihatdan ikki xil namunalar borligini tasdiqlaydi. Ko'pchilik asarlar an'anaviy topishmoqlardan iborat.

Ularning tili ham, yashiringan narsa ham aksari maishiy hayotda uchraydigan predmetlardan iborat bo'ladi. Jumladan, mo'ri, qozon, o'choq, baqa, qushlar va hokazolar ana shunday namunalar qatoriga kiradi. *Masalan:*

«Yamog'i bor, yirtig'i yo'q, Qaychilamay qiygan

Ignalamay tikkan» (ola sigir terisi).

XX asrda fan-texnika taraqqiyoti bilan yangi topishmoqlar ham yaratildi. Ularda kitob, radio, telefon, samolyot kabi narsalarni topish talab qilinadi. *Masalan:*

«O'zi oddiy bir karnay, Tili yo'q, so'zlar hay-hay, Dunyoning to'rt burchidan, Xabar beradi tinmay» (radio).

Bunday topishmoqlarda fan-texnika yangiligi aks etgani sababli ular maktab o'quvchilari uchun ham tavsiya etildi. Natijada, yangi topishmoqlarni ommalashtirish ishlarida ham ma'lum ijobiy siljishlar amalga oshirildi. Yana topishmoqlarning yaratilishida an'anaviy namunalarining ahamiyati katta. Ko'pincha ularning matniga biroz o'zgarish kiritish bilan yangi topishmoq vujudga kelgan. Xalq topishmoqlari badiiy jihatdan ham yuksak so'z san'ati namunasi hisoblanadi. Ular badiiy tasvir vositalarining qo'llanishi jihatidan boy va rang-baranglikka ega. Avvalo aytish kerakki, shakl jihatdan topishmoqlar maqollar kabi ixchamdir. Ayrim olimlar ta'kidlashicha, topishmoq va maqollarning yaratilishi davr jihatidan bir-biridan u qadar farq qilmaydi. Shuning uchun ham asrlar davomida matn qayta-qayta ishlanganda topishmoqlarning badiiyati mukammal darajaga yetgan. Topishmoq janrining asosiy tasvir vositasi metafora, ya'ni istiora ekani aytiladi. Demak, askiya janrini iyhom san'atisiz, topishmoqlarni istiorasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Bu janrda xalq og'zaki ijodidagi boshqa turlarda uchramaydigan tasvir vositasi bor. Hatto mazkur san'atning

aniq nomi ham folklorshunoslikda qayd etilgan. Faqat ayrim belgilari bilan uni talmeh san'atiga yaqin deyish mumkin. Ma'lumki, talmeh – nazar solmoq ma'nosini anglatadi. Unda xalq tarixidagi mashhur ismlar, joylar yoki vohalar eslab o'tiladi.

Masalan:

Agar Farhodning Shirin bo'lsa, Majnunlarning aylosi Nasib etmish menga gulshan aro gullarning Ra'nosi.

Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidan olingan Anvarning she'rida Farhod, Shirin, Majnun, Laylo talmeh san'atiga misol bo'ladi. Topishmoqlarda ham turli munosabatlar bilan turli ismlar uchraydi. Ularning tarixan mashhurliqi qayd etilmagan. Ammo matnlarda bu ismlar, albatta, qandaydir ma'no kasb etadi va shartli ravishda talmeh san'atiga yaqin turadi.

Masalan:

«Soriboy akam ichkari, «Soqollari tashqari». (sabzi, makkajo'xori).

Topishmoqdagi «Soriboy akam» bir tomondan sariq so'zini eslatadi va sabzi, makkajo'xorini topish uchun belgi vazifasini o'taydi. Shuningdek, «Tokchama-tokcha, Samatjon boyvachcha» (sichqon), «Osmoni resmon, Mulla Abdurahmon – beustixon» (bit) kabi matnlarda ham ismlar uchraydi. Taxmin qilib aytish mumkinki, shunday namunalar qayd etilgan hududlarda ismlar topishmoq aytuvchilar o'rtasida mashhur bo'lgan bo'lishi mumkin.

Xalq topishmoqlarida tazod (qarshilantirish) san'ati namunalari ham uchraydi:

«Osh ichida tosh, Tosh ichida osh». (sumalak, toshbaqa). Bu matnda hatto qofiya san'atining murakkab ko'rinishi tarse' (misralardagi hamma so'zlarning qofiyalanishi) ham o'rin olgan.

Topishmoqlarning matnida asosiy e'tibor, maqsad mazmunga qaratiladi. Ammo she'riy topishmoqlarda qofiyadosh so'zlarning tanlanishiga alohida e'tibor berilgan:

«Olti tegirmon toshi, Oltin egarning qoshi, Uni topgan kishining, Yuz yigirmada yoshi» (tish).

E'tibor bersak, «tosh», «qosh», «yosh» faqat bir tovush bilangina farqlanuvchi shakldosh so'zlardan iboratdir. Topishmoqlardagi bunday fazilat ularning so'z san'ati talablariga to'liq javob bera olishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, topishmoqlar xalq og'zaki ijodining kichik janrlaridan biri bo'lib, mohiyat jihatidan millat vakillarining ziyrak, sinchkov, kuzatuvchan bo'lishlari uchun xizmat qilar ekan.

Topishmoqlar xalq hayotida ma'lum e'tiborga ega bo'lgan narsa-predmetlar nomini topishga bag'ishlanadi va ahamiyatli hisoblanadi.

Badiiy jihatdan mukammallik xalq topishmoqlarining fazilatlaridandir.

Bugungi kun topishmoqlarida fan-texnika yangiliklari ham munosib o'ringa ega.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalq maqollarining o'ziga xos janr xususiyatlari haqida so'zlang.

2. Maqollarning o'z va ko'chma ma'nolari deganda nimani tushunasiz?

3. Maqollar va matallar o'rtasidagi farq haqida so'zlang.

4. Yozma badiiy adabiyotda adiblar xalq maqollaridan qanday vaziyatlarda foydalanadilar?

5. «Xalq maqollarini bilaman» mavzuyida ijodiy musobaqa o'tkazing.

6. Xalq topishmoqlarining boshqa janrlardan farqli xususiyatlari haqida so'zlang.

7. Istiora badiiy tasvir vositasining xalq topishmoqlaridagi o'rnini izohlang.

8. Topishmoqlar aytish va ularni topish bo'yicha o'quv guruhlaringizda musobaqa o'tkazing.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., «O'qituvchi», 1990.

91—99-betlar. 2.. Jo'rayeva M. O'zbek folklorida topishmoq. – Toshkent:

2. «Fan», 2011.

3. O'zbek xalq maqollari. Ikki jildlik. T., 1988, 1989.

4. Husainova Z. O'zbek topishmoqlari. – Toshkent: «Fan», 1966.

5. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., «O'qituvchi». 1990. 100—108-betlar.

6. Topishmoqlar. O'zbek xalq ijodi. Ko'p jildlik, T., 1983

7. O'zbek xalqlar maqollari. T.: «Fan», 1978.

8. O'zbek xalq topishmoqlari. T.: «Fan», 1978.

9. Будур Н.В., Иванова Э.И., Николаева С.А., Чеснокова Т.А. Зарубежная детская литература. – Москва: Академия, 1998. – 123 б.

10. Turdiyeva Kavsar. Topgan topaloq: maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun. – Toshkent: Bekinmachoq-Plyus, 2001.

11. Ermat, Nabijon. 99 Tez aytish va topishmoqlar [Matn] N.Ermat. – Toshkent: "Muharrir" nashriyoti, 2019.

12. Abdurahmon Akbar. G'aroyib avtobus: quvnoq she'rlar, ertak va topishmoqlar, adabiy saboqlar. – Toshkent: «O'qituvchi» NMIU, 2012.

13. O.Madayev, M. Jo'rayev, T.Sabitova, N.Muxitdinova O'zbek folklori. Darslik. T. 2022. "ZEBO PRINT". 2022.

14. Sabitova T. O'zbek xalq dostonlarining nazariy asoslari va badiiyati. Monografiya. T. "FIRDAVS SHOH" , 2022.

15-mavzu. Askiya. Latifa va loflar.

1. Askiya janri tabiati va o'ziga xos ijro xususiyati.
2. Askiyalarning mavzusiga ko'ra turlari.
3. Askiya janrining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
4. Latifalarning janriy tabiati va bosh qahramoni.
5. Lofning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Tomosha san'ati.

Tayanch iboralar: janr, satira va yumor, lof, latifa.

Dars maqsadi: O'zbek va jahon folklorshunosligining yangi yutuqlari, lof va og'zaki drama janrlari borasidagi ilmiy xulosalarini, mavjud materiallarga tayangan holda lof va og'zaki dramalardan namunalar o'rganib qiyoslash.

Darsvositalari: Ko'rgazmali o'quv qurollari, folklorshunos olimlarning folklor janrlariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, risola va monografiyalarini talabalarga namoyish qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Blits-so'rov, an'anaviy ma'ruza, dars mazmunini tushuntirish, matn bilan tanishtirish, matn tahlili, dialog va suhbat, savol-javob.

Darsning mazmuni. Askiya – o'zbek folklorigagina xos janr. Bu janr boshqa xalqlar folklorida uchramaydi. Shu jihatiga ko'ra askiya o'zbek folklorida alohida diqqatni tortadi hamda o'zbek folklorining milliy o'ziga xos tarkibini belgilaydi. O'zbeklarning xalq og'zaki ijodidagi ko'p janrlar boshqa xalqlarda ham bor. Ertak, doston, qo'shiq, maqol, matal, topishmoq, tez aytish kabilar shular jumlasidandir. Ammo bizda yana shunday janr ham borki, boshqa xalqlarda uchramaydi. Bu askiyadir. Askiya tilimizning juda boy imkoniyatlarga ega ekanini ko'rsatadigan janrdir. Eng muhimi, askiyani aytish, uni o'ylab topish, uni tushunib yetish oson emas. O'zbeklar – ana shunday fazilatga ega xalq.

Askiya o'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janri hisoblanadi. Unda o'zbek tilining boyligi, so'zlarning ma'nodorligi, ko'rinishdan sodda bo'lib tuyulgan jumlaning kezi kelganda odamni haddan tashqari mushkul vaziyatga tushirib

qo'yishi mumkinligi va, ayni paytda, o'ylab topilgan ikkinchi bir javob — jumla bilan mushkul holatdan chiqish yechimi topilgani namoyon bo'ladi.

Hayotda bevosita chiroyli topilgan so'z bilan bog'liq ibratli lavhalar tez-tez uchrab turadi. Bunday lavhalar ona tilimiz imkoniyatlari qanchalar cheksiz ekanini isbotlovchi daqiqalarni vujudga keltiradi: aytilgan so'zning ma'no qirralari kengligini dalillaydi. Keyinchalik bu go'zal lavhalarning ayrimlari tildan tilga o'ta boshlaydi. Aslini olganda, askiyaning vujudga kelishi, shakllanishi tilimiz boyligi namoyon bo'lgan ana shunday lavhalarga asoslanadi. *Masalan*, kunlardan bir kun dutorchi qizlar ansambli ishtirokchisi Sanobar ismli xonanda musiqa mashqi o'tkaziladigan xonaga birinchi bo'lib keladi va ustoz G'anijon Toshmatovdan:

«Qizlar kelishmadimi?» — deb so'raydi. Tabiatan askiyachi ustoz shogirdiga qarab: «Kelishgani kelishdi!», — deb javob beradi. Ustoz san'atkor javobida askiyaning juda muhim jihati aks etgan. Chunki G'anijon aka o'z javobida, birinchidan, mashg'ulotga kelgan qiz yagona Sanobar ekanini ta'kidlagan bo'lsa, ikkinchidan, shogirdining qaddi-qomati kelishganini lutf qiladi. Bu kichik dialogda xalqimiz og'zaki ijodiga oid askiya janrining asosiy belgisi — so'z o'yini bo'lib o'tganini qayd etish mumkin.

Bu san'at bilan maxsus shug'ullangan olim Rasul Muhammadiyevning ma'lumot berishicha, askiya o'zbeklar orasida qadimdan keng tarqalgan ekan. Xususan, XV asrda yashagan shoir Zayniddin Vosifiy o'z xotiralarida Hirot shahrida Mirsarbaraxno, Burxoniy Gung, Hasan Voiz, Said G'iyosiddin, Sharfiy, Xalil sahhob, Muhammad Badaxshiy kabi o'tkir so'z ustalari borligini aytib o'tgan. Keyinchalik esa Qo'qon xonligi hududida bu san'at yana rivojlandi, xalq orasida mashhur bo'ldi. Ayniqsa, Yusufjon qiziq Shakarjonov, M.Tillaboyev, Erka qori Karimov, J.Sultonov, G'.Toshmatov, T.Aminov A.Qozoqov, U.Abdullayev, M.Rahimov kabi mashhur so'z ustalari askiya san'atini rivojlantirishda munosib hissa qo'shganlar. Bugungi kunda ham askiyaning mohir ustalari o'z faoliyatlari bilan xalqqa

manzur namunalar yaratmoqdalar. Yurtimizning mustaqillik, Navro'z, Hosil va boshqa bayramlarida, xalq sayillarida yirik ommaviy tomoshalarga askiya fayz kiritmoqda. Ayni paytda, ulfatlarning yig'ilishlari, gap-gashtaklar, to'y marosimlari askiyabozlik bilan qizimoqda.

Askiya arab tilidan olingan so'z bo'lib, "zakiy" — "sof fikrli", "o'tkir zehnlil" degan ma'nolarni anglatadi. «Azkiyo» so'zning ko'plik shaklidir. Xalq jonli tilida «askiya» tarzida talaffuz qilinadi.

Askiya aytishdan bosh maqsad odamlarni kuldirish bo'lsa ham, aslida askiya aytuvchilar o'zlarining so'zga ustaliklarini, hozirjavob ekanliklarini atrofdagi yurtdoshlariga ko'z-ko'z qilishni ham nazarda tutganlar. Shuning uchun ham mashhur askiyabozlar el orasida alohida hurmatga sazovor bo'lishgan.

Tilimiz boyligidan foydalanib atrofdagi odamlarni kuldirishda bir necha usullardan foydalanilgan. Ulardan biri askiyabozlar tomonidan omonim so'zlarni qo'llash hisoblangan.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda *iyhom* san'ati mavjud bo'lib, u kamida ikki ma'noga ega bir shaklli so'zning shoir tomonidan she'riy misrada keltirilishi orqali yaratiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub quyidagi baytga e'tibor qiling:

Labing bag'rimni qon qildi, ko'zimdan qon ravon qildi.
Nechun holim yamon qildi, man undan bir so'rorim bor.

Bu baytda «so'rorim» *iyhom* san'atiga misol bo'ladi. Chunki bu so'z bir o'rinda «so'ramoq», ikkinchi o'rinda «so'rmoq» (o'pmoq) ma'nosini anglatadi.

Omonim so'zlar xalq og'zaki ijodidagi she'riy parchalarda ham uchraydi. Xususan, Ergash Jumanbulbul aytgan bir to'rtlikda shunday deyiladi:

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil bolam,
yomonlikni ot.

Nasihatim yodingda tut farzandim, Yolg'iz yursa, chang
chiqarmas yaxshi ot.

Ko'rinib turibdiki, to'rtlikdagi uch marta qo'llangan «ot» so'zi uch xil ma'noni anglatadi. Birinchi qatorda «ism», ikkinchi

qatorda «otmoq» (fe'l), to'rtinchi qatorda xalqimizning sevimli hayvoni «ot» nazarda tutiladi. Keyingi misolda xalq shoiri iyhom emas, *tajnis* san'atidan foydalangan. Chunki bir shakldagi ko'p ma'nodagi so'zlarning o'zaro qofiya bo'lib kelishi tajnis deb ataladi. Askiyada esa ko'proq iyhom san'atidagi so'z o'yini yetakchilik qiladi. Ba'zan bu san'at shu qadar murakkablashib ketadiki, uni tezda anglab olish juda qiyin bo'ladi. *Masalan*, olim Rasul Muhammadiyev o'zining 1962-yilda e'lon qilgan «Askiya» kitobida quyidagi matnni keltiradi:

«Qodirjon aka:

— Ikromiddin, bu yoqqa qarang, bizga pishirishingiz bitta osh, qovoq ham solasiz-a!

Ikromiddin:

— Qodirjon aka, sizlardaqa aziz mehmonlarga atab har xil ovqat qilganmiz: bu sho'rva, osh qovoq-da.

Amin buva:

— Mulla Ikrom, Qodirjon akadan tashvish qilmang, bu kishiga osh qovoqdan olinsa bo'ldi.

Qodirjon aka:

— Amin buva, ajoyib xushfe'l odamsiz-da, indamay olaverasiz: oshga qovoq solinmaydi deb.

Amin buva:

— Siz ham tushuraversangiz-a, qovoqdan osh yaxshi deb. Qodirjon aka:

— Siz ham indamay tushiraversangiz-a, oshdan qovoq yaxshi deb.

Qodirjon aka:

— Biroz u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tiringlar, boshqa ovqat qilaman: qovoqsiz!»

Yuqoridagi matnni zehn bilan o'qisak, «qovoq» so'zi bir necha marta ham insonning yuzidagi qosh osti qism — qovoq, ham poliz ekini qovoq ma'nosida kelgan. Oxirgi jumlada esa hatto xalq orasida qovoq so'zining «befahm»ga teng ma'nosi beriladi va «qovoq siz», ya'ni «befahm» odam tushunchasi anglashiladi. Shunday qilib, askiyada mana shu yo'sinda so'z o'yini o'z ifodasini topadi.

Askiyada kulgi hosil qiladigan ikkinchi usul askiyabozlar laqablarining tilga olinishi hisoblanadi. Ammo haqiqiy askiyabozlar laqabni askiyaga shunday singdirib yuborar edilarki, natijada hech kimning ko'ngli og'rimasdi, savol-javobni esa hammaga lazzat beruvchi hazil deb qabul qilishardi. R. Muhammadiyev safar paytida ro'y bergan bir voqeani eslaydi. Mashhur hofiz Mamayunus (laqabi kal) do'sti Erka qorini (ko'zi ojiz) askiyaga tortar ekan, qori akaning ko'zi ojizligiga shama qilib:

— Turing, qori aka! Ko'r otga (kurortga) keldingiz! — dedi.

— Erka qori yostiqdan boshini ko'tarar ekan, shoshib-pishib, paypaslanib derazadan tashqariga qaragan bo'ldi-da, darhol yuzini Mamayunus aka tomonga burib:

—Hovliqmay qoling, Mamayunus! Sho'rtepa-ku! – dedi.

Matnni tahlil qilishda bu askiyaning mavzuyi, ya'ni payrovi laqab bilan bog'liqligi ayon bo'ladi. Mamayunus Erka qori kelgan manzilni «ko'r ot» deb atash bilan do'stining ko'zi ojizligini ta'kidlayapti. Erka qori bo'lsa o'rnidan turdi, deraza pardasini ko'tardi va nihoyatda zukkolik bilan «Sho'rtepa» so'zini topdi. Bu so'z Mamayunus akaning savolidan zakiyroq – go'zalroq hisoblanadi. Ayniqsa, Mamayunus akaning kal ekanini bilgan odamlargina bu javobdan kulishi mumkin edi, xolos. Chunki issiqdan terlash, bosh kiyimni olishdan keyin shabada tegishi bilan boshning qurishi oxir- oqibatda Sho'rtepani eslatadi.

Askiyada kulgini hosil qilish usullaridan yana biri mavzuga aloqador so'zdagi tovushlarni atayin buzib talaffuz qilish hisoblanadi. *Masalan*, yuqoridagi askiya matnida Mamayunus aniq qilib, «ko'r ot» degan. U «ko'r» so'zidagi «o'» tovushini «u»ga yaqin talaffuz qilish bilan birga bu tovushni biroz cho'zgan, natijada aslida «kurort» so'zi talaffuzda «ko'r ot»ga yaqin aytilgan va kulgi hosil qilgan. Askiyada «kishmish» (uzum) – kishimishi (odam); chanqoq (suvsiz) – chang qoq (changini qoqish); sovliq (urg'ochi qo'y) – sog'liq (salomatlik) tarzida talaffuz qilinadi va kulgi yaratiladi. O'zbek xalqi farzandlari askiyani sevadilar va uning imkoniyatlaridan

foydalanib, o'zlarining hordiqclarini chiqaradilar. Askiya og'zaki ijodimizning alohida janri bo'lishi bilan birga uning tarkibida ham kichik atamalar bor.

«Payrov», «o'xshatdim», «gulmisiz, sunbulmisiz», «bilganlar unday deydi» kabilar shular jumlasidandir.

Payrov askiya aytuvchilar tanlagan mavzudir. Xususan, sayil, to'y, gap-gashtaklarda askiya aytishga shaylangan san'atkorlar askiya boshlanishidan oldin mavzu belgilaydilar. Tarafma-taraf askiyabozlar kitob, imorat, dehqonchilik, shaxmat, ona tili, qo'shiqlar va hokazo mavzulardan birini tanlaydilar. *Masalan*, shaxmat haqida askiya qilishga kelishilgandan so'ng birinchi navbatda donalar teriladi, oq yoki qora tarafda o'ynash hal etiladi, shundan keyin sipohlarning yurishi boshlanadi. Bu jarayonning hammasi tilda, so'z o'yinlari vositasida amalga oshiriladi. Askiya biron tomonning mot bo'lishi bilan yakunlanadi. Yoki paxta payrovi boshlansa, yer paxta ekishga tayyorlanadi, paxta ekiladi, yagana qilinadi, sug'oriladi, chekanka qilinadi, paxta gullaydi, nishonalaydi, terim boshlanadi, davlatga topshiriladi, hatto, gazlama to'qilib, undan turli kiyimlar, ko'rpa- yostiq tayyorlanadi. Demak, askiyaboz so'z o'yini qilishi bilan birga tanlangan mavzuning mukammal yechimini topgan bo'lishi ham kerak. Shundagina askiya talabga javob bergan hisoblanadi. Undan tashqari, askiya bo'layotgan joyda tinglovchilar ham mavzuni qabul qilishlari lozim. Tomoshabin askiyani tushunmasa, unday askiya ham muvaffaqiyatsiz yakunlanadi. Ehtimol, shuning uchun askiyabozlar mavzu tanlashga e'tiborsiz qaramaydilar. Ular ko'pincha to'y egasining kasbiga qarab to'y qatnashchilariga qanday mavzu ma'qul bo'lishini aniqlaydilar. Mashina, tabobat, dehqonchilik, savdo mavzulariga murojaat ana shu tarzda amalga oshadi.

Askiyaning qadimgi shakllaridan biri «Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz» hisoblanadi.

Masalan:

- Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?!
- Aytganingizman.

– Andijonni yo'lida adashib qolib: «oyim», – deb yig'lab yurganmisiz.

– Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?!

– Aytganingizman.

– Man-ku «oyim», – deb yig'lab yuribman. Siz oyingizni Uchqo'rg'ondan topganmisiz?

Yuqoridagi matnda askiyabozning birinchisi raqibini Oyim qishlog'ini axtarayotganini aytib kulgi hosil qilsa, ikkinchisi o'zbeklarda gap talashib qolgan odamning «Onangni Uchqo'rg'ondan ko'rsataman», – deb do'q urishiga shama qilyapti. Har ikki savol- javobda ham o'rin- joy nomi, askiyachining onasi tilga olinyapti va kulgili vaziyat vujudga keltirilyapti.

Endi e'tiboringizga «O'xshatdim» askiyasidan bir namuna havola qilamiz.

Nasriddin:

— Eshon, ho Eshon, sizni o'xshatdim. Odilxo'ja:

– Kimga?

Nasriddin:

– Musobaqa komissiyalariga ko'rinmay chap berib yurgan brigadirga.

Odilxo'ja:

– Nima qilardim? Nasriddin:

– G'o'za parvarishi ayni qizigan chog'larda shaharda qovun tushirib yurardingiz.

Bu matnda askiyaboz g'o'za parvarishi paytida o'z ishiga sovuqqonlik bilan qaragan brigadirlarni tanqid qilishga kirishgan. Tekshiruvchi komissiyadan qochib tutqich bermagan brigadirning ahvoli tang ekani qayd etilishi bilan birga «qovun tushirish» iborasi ham qo'llangan. Mazkur ibora ko'ngilsiz ish qilib qo'ygan odamga nisbatan aytiladi. Xullas, askiya o'zbek xalq og'zaki ijodidagi milliy tilimiz imkoniyatlaridan samarali foydalanish mahsuli sifatida vujudga kelgan va shakllangan janrdir. Unda o'zbek tilining ma'nodosh so'zlarga boyligi, ba'zan tovushlarni o'zgartirish vositasida ham omonim so'zlar hosil qilish mumkinligi namoyon bo'ladi. Askiya xalq

farzandlarining kulgi yaratish imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanganliklarini dalillaydi.

Askiya, asosan, to'y-tomoshalarda, xalq yig'inlarida, sayllarda, bayramlarda ijro etiladi. U so'zga chechan, hozirjavob, hazil-mutoyibaga moyil, zakovatli, topqir, badihago'y kishilar ma'naviy musobaqasidir. Shuning uchun askiya professional ijroga moslashgan. Askiya ijrochilari askiyaboz, askiyachi deb yuritiladi. Askiya aytishuvida har kim ham ishtirok etavermaydi, chunki askiyachilikda so'z o'yiniga usta, so'z va jumalardagi ko'chma ma'noni ilg'ab olishga qodir, hozirjavob, shama va piching qila bilish san'atkorligiga ega bo'lish talab etiladi. Zero, askiya so'z va jumalardagi tagdor kesatiq, istehzo, piching, pisanda, mazax, shama va boshqa yumorga moyil rang-barang ko'chma ma'nolarni ilg'ab olib unga munosib javob topa bilishdan iborat so'z o'yini san'atidir.

Askiya tarafma-taraf bo'lib ijro etishga asoslangan. Tarafma- taraf bo'lib askiya aytishni boshlagan askiyabozlarni tinglovchilar ommasi kuzatib turadi va tomonlardan qay biri mantiqli, ilmoqli luqmasi bilan ustun kelmasa, kulgi, qahqaha bilan ularni ma'qullab, chapak chalib, olqishlab turadi. Shu xususiyati tufayli askiya tomonlar tortishuviga aylanib boradi.

Tomoshabinlarning qarsagi va olqishini askiyabozning tortishuvda zarur va kerakli so'zlarni topa bilishi va ularni o'z o'rnida mahorat bilan ishlata olishi belgilab turadi.

Askiyaning badiiy qurilishi tugallangan ikki fikrning bir-biriga qarshi qo'yilishidan tashkil topadi. Undagi har bir fikr o'ziga xos tugunga va yechimga ega bo'ladi. Qarshi qo'yilayotgan fikrlar o'zaro bir-birini inkor etishi yoki tasdiqlashi, yoxud kuchaytirishi kerak.

Har bir askiya asosida satira va yumor teng yotadi. Chunki askiyada, albatta, ikki xil kulgi tug'iladi. Ya'ni tomonlardan biri yaramas illatlarni ochish uchun ramziy yoki ko'chma ma'nodagi so'z va iboralarni qo'llaganda zaharxanda (satirik kulgi) ko'tarilsa, shu paytda uning fikri qaratilgan ikkinchi tomondagi askiyachilardan biri noqulay holatga tushib qoladi. Bu kulgi – yengil, beg'ubor yumoristik kulgini tashkil etadi.

Bunday kulgini hosil qilish uchun kinoya ishlatiladi, u yoki bu soʻz, ibora kuchaytiribroq, boʻrttirib qoʻllaniladi. Raqib tomon askiyachisi kulgili narsa yoki hodisalarga qiyoslanadi.

Askiyaning har xil turlari mavjud. Shulardan eng keng tarqalgan, anʼanaviylashgani **payrov**dir.

Payrov - muayyan mavzu atrofida ijro etiladi. Masalan, mevalar nomi, kino nomlari, parranda, qushlar, fasllar, badiiy asarlar nomi payrovlarga mavzu qilib keltirilishi anʼanaga aylangan.

Payrovlarning hajmi ixcham, syujeti sodda boʻladi. Payrovda biror-bir soʻz, atama chertib aytiladi va u garchi oʻz maʼnosida qoʻllanayotgandek tuyulsa-da, aslida koʻchma maʼnoni boʻrttirib ifodalab keladi.

Payrovda belgilangan mavzudan uzoqlashmaslik shart. Bu payrovda bellashayotgan, tortishayotgan tarafkash askiyabozlar uchun maʼlum qoidaga aylangan. Shuning uchun askiyaboz belgilangan mavzudan uzoqlashsa, pala-partish soʻz aytsa, payrov buzilgan va yengilgan hisoblanib, askiya toʻxtatib qoʻyiladi.

Payrovda yana askiyachining «raqib»iga aytgan soʻz va jumlası koʻchma maʼno kasb etishi shart. Shuningdek, askiyachi oʻz nutqida turli badiiy tasvir vositalaridan ham unumli foydalana olmogʻi lozim.

Askiya payrovlaridan askiyaboz oʻz «raqibi»ning feʼl-saviyasiga, xulq-atvoriga, qiliqlariga, tashqi koʻrinishiga, portretiga mos laqabni topa olishi va ularni soʻz oʻyini orqali shama qilib oʻtishi kerak. Bularning bari payrov askiyaning tabiatini belgilab turadi.

Askiyaning ichki turlarini «Boʻlasizmi?», «Oʻxshatdim», «Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?», «Safsata», «Qofiya», «Radif» kabi kichik, ixcham, savol-javob shakliga ega boʻlgan namunalar tashkil etadi.

Payrovga nisbatan oldinroq shakllangan askiyaning bu turida dialog kompozitsion asos hisoblanadi. Ulardagi savol-javoblarning har biri kichik hajmdagi epizodlardan tashkil topadi.

«O'xshatdim», «Bo'lasizmi?», «Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?» tipidagi askiyalar bir xil xarakterda bo'lib, ularda o'xshatish orqali bir-birini tanqid qilish shakli namoyon bo'ladi. Tanqidga mo'ljallangan askiyaboz kulgili narsalarga – jonivorlarga, gul turlariga o'xshatiladi. Unga qarshi tomon ham shu xilda javob qaytaradi. Ularda satira, tanqid alohida o'rin tutadi. «Safsata» tipidagi askiyalarda tarafkashlarning piching yo'lida aytgan hazili namoyon bo'ladi. Askiyaning yana bir turi «Tutal», «Rabbiya» shakllari hisoblanadi. Ular, asosan, to'y-sayillarda, bayramlarda, gap-gashtak va choyxonalarda ijro etiladi.

«Tutal» va «Rabbiya» ko'pincha she'riy yo'lida aytilishi bilan askiyaning boshqa turlaridan ajralib turadi. Askiyaning tutal usulida yumshoq kulgi hukmronlik qiladi.

Askiya professional ijroga asoslangan janrdir. Xalq orasida hatto o'tkir didli askiyachilar yashab o'tganligi ma'lum. Jumladan, marg'ilonlik Yusufjon qiziq Shakarjonov (1869-1959), qo'qonlik Erka Qori Karimov (1880-1956), Mamayunus Tillaboyev, Komiljon Rahimov (1905-1964), Oxunjon qiziq Huzurjonov (1903-1967) va boshqalarni eslatish mumkin.

Xullas, askiya ijtimoiy hayot hodisalari, ayrim siyosiy muammolar, odamlarning turmush tarzi, o'zaro muomalamunosabati, yaxshi-yomon odatlari, orzu-istaklari asosida yaratiladigan ixcham va kulgili asarlardir. U aytuvchi va tinglovchilarga cheksiz zavq-shavq, ta'limiy-tarbiyaviy ozuqa baxsh etadi, kishilarni hozirjavoblikka, badihago'ylikka yetaklaydi.

Xalq hayotini, turmush tarzini o'ziga xos tarzda tasvirlovchi folklor namunalaridan yana biri **latifal**ardir. Latifalarning asosida yengil mutoyiba va o'tkir hajv yotadi. Ular hajman muxtasar, mazmunan ixcham bo'ladi. Yakka ijroda aytiladi. Xalq hajviyoti va mayin yumorga asoslangan latifalarda hayot haqiqati uydirma, so'z o'yini, kinoya va qochirimlar vositasida aks ettiriladi. Latifalar yechimida satira va yumor hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yechim tasodifan ko'tarilgan kulgi-qahqaha yoki so'z o'yiniga asoslanadi. So'z o'yini latifa kulminatsiyasini

tashkil etadi. Nasriddin Afandi latifalarning yetakchi qahramoni hisoblanadi.

Latifa – arabcha “lutf”, “latif” soʻzlaridan olingan boʻlib, “nozik”, “nafis” maʼnolarini anglatadi. Latifa aytuvchilar latifagoʻy deyiladi. Latifalar xalq orasida keng tarqalgan boʻlib, xalq ogʻzaki prozasining voqeaband, hajman kichik, yumoristik xarakterdagi xalq hajviyoti janrlaridan hisoblanadi. Latifalar juda qadimiy boʻlishiga qaramay, ularning Nasriddin nomi bilan bogʻlanishi nisbatan keyingi davrlarga xosdir. XIX asrning II yarmida ozarbayjon yoki turk tilidan qilingan latifa tarjimalarining tarqalishi bilan oʻzbek latifalari qahramoni nomini Xoʻja Nasriddin nomi siqib chiqargan va barcha latifalar uning nomi bilan bogʻlangan. Shundan keyin barcha latifalar «Afandi latifalari», «Nasriddin Afandi» yoki qisqagina qilib «Afandi» deb yuritila boshlagan.

Latifalar xalq ogʻzaki ijodining hajm jihatidan kichik nasr koʻrinishida yaratiladigan kulgili ommaviy janri hisoblanadi. «Latifa» atamasi arabcha “lutf” soʻzidan olingan boʻlib, “nozik fikrlash”, “yaxshilik qilmoq”, “muruvvat koʻrsatmoq”, “sharaflamoq” kabi maʼnolarni anglatadi. Turkiy xalqlarda latifa janri boshga xalqlardagi kabi juda qadimda yaratilgan. Olimlar bunday janr namunalariining ayrimlari hatto IX–XI asrlarda yaratilganligini koʻrsatib oʻtishgan. Professor Hodi Zarifovning qayd etishicha, latifalarning bevosita Nasriddin afandi nomi bilan bogʻlanishini, asosan, Oʻzbekistonda matbaaning paydo boʻlishi bilan, Nasriddin afandi latifalarining kitob tarzida nashr ettirilishi bilan izohlash mumkin. Haqiqatan ham, inson hech qachon kulgisiz yashamaydi. Kulgi mehnat qilishni osonlashtiradi, zerikarli mehnatni qiziqarli mashgʻulotga aylantiradi, vaqt oʻtishini tezlashtiradi. Shuning uchun qadim zamonlardagi hokimlar qiziq-qiziq voqealarni kulgili tarzda ijro etadigan odamlarni oʻz saroylariga taklif qilganlar, ularga alohida lutf koʻrsatganlar. Chunki latifalar yengil kulgu bilan adabiy-estetik, yumoristik ahamiyatga egaligi bilan birga, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy muammolari achchiq haqiqatini fosh etishi bilan satirik ahamiyatga ega.

Hayotda har bir voqea-hodisadan kulgili vaziyat hosil qilishga mohir odamlar ko'p uchraydi. Ular o'zlari ishtirok etayotgan voqealarni juda sinchkovlik bilan kuzatadilar, fikran xulosalaydilar va atrofdagilarning tabassumini paydo qila bilgan tarzda so'zlab beradilar. Tarixda Rashiddin Vatvot, Alisher Navoiy, Binoiy, Mashrab, Muqimiy, keyinchalik A.Qodiriy, G'.G'ulom, A.Qahhor, M.Shayxzoda, S.Ahmad, E.Vohidov, O'.Hoshimov, O.Matchon hayotlarida kulgili voqealar ko'p bo'lgan. Shoir va yozuvchilar bu hodisalar ta'sirida yumoristik, ba'zan lirik asarlar yaratganliklari haqida ma'lumotlar ko'p. Masalan, O'tkir Hoshimov o'zining shingil hikoyalaridan birida kunlardan bir kun taniqli yozuvchimiz Said

Ahmad bilan safarda bo'lganligini yozadi. Poyezdda ketishayotganida Said Ahmad O'tkir Hoshimovga muxlislar tortiq qilgan guruchdan o'zining xaltasiga solayotganini ko'rib qoladi. Yosh yozuvchi nima uchun ustozidan bunday qilayotganini so'rganida Said Ahmad «Men ovsarman», – deb javob bergan ekan. Shunda O'tkir Hoshimov:

«Agar ovsar bo'lsangiz, nima uchun o'zingizning xaltangizdagi guruchdan menikiga solmaysiz», – debdi. Said Ahmad: «Unda jinni bo'lar edim», – deb javob bergan ekan. Bunday latifanamo hodisalar uzoq tarixda ham ko'plab ro'y bergan, albatta. Mana bir misol:

Qadim zamonlarda davr allomalaridan birini yoqtirib qolgan podsho o'z imoratining qarshisiga olim uchun bolaxonali uy qurib beradi. Alloma dono va ilmli odam ekan. Ammo uning tashqi qiyofasi juda xunuk ekan. Kunlardan bir kun podsho tong pallasida o'z tarafida to'yib nafas olayotsa, qarshidagi bolaxonadan olimning qiyofasi ko'rinibdi. Shunda podsho uning xunukligiga urg'u berib:

–Mavlono, ko'chaning narigi betida bir eshak turibdimi? – debdi. Alloma shu zahoti hech ikkilanmay:

–Yo'q, taqsir, men bu tomonga katta ko'zgu oyna qo'ydirganman, – degan ekan. Ma'lum bo'ladiki, yuqorida qayd qilingan hikoyadagi voqeaga monand hodisalar keyinchalik latifalarning yaratilishiga sabab bo'ladi.

Turli xalqlar latifalarining matnlarini o'rganish tarixan yashash hududi va tarzi jihatidan bir-biriga yaqin millatlarda shakl va mazmunan deyarli bir xil latifalarning mavjud ekanligini tasdiqlamoqda. Jumladan, o'zbek xalqining Nasriddin afandi, Mulla Nasriddin, Xo'ja Nasriddin degan nomlar bilan mashhur bo'lgan latifa qahramoni hindlarning Birbol, turkmanlarning Mirali, qozoqlarning Aldarko'sa, arablarning Juxa kabi qahramonlari bilan o'xshashdir. Bu qahramonlar haqidagi asarlarda podshohlar, amaldorlar, qozilar, bolalar, oila kabi mavzularning alohida-alohida turkum tarzida kelishining o'zi ham fikrimizning dalilidir. *Masalan*, Birbol latifalarida kunlardan bir kun shoh Akbar unga bir qaltis hazil qilishni va bu hazilning kechirimi undan ham qaltisroq bo'lishini topshiradi. Birbol bu topshiriqni qabul qiladi. Oradan bir necha kun o'tganidan so'ng Birbol hech kim yo'q vaqtida podshohning belini chimchilab oladi. Shoh g'azab bilan: «Bu nima qilganing», – deb so'raganida, Birbol:

«Kechirasiz, shohim, sizni malikam deb o'ylabman», – deb javob beradi. Qizig'i shundaki, aynan shu mazmundagi latifa o'zbeklarda ham, turkmanlarda ham, ozarbayjonlarda ham mashhurdir. Bunday holat latifalarning o'ta yashovchanligini, xalq tomonidan sevib qabul qilinishini dalillaydi.

O'zbek Nasriddin Afandi latifalarida bosh qahramon o'ta hozirjavob, o'ta zukko, o'ta dono va tadbirkor inson sifatida gavdalanadi. Hayotda uni mot qiladigan hodisa yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Chunki dono va mutafakkir Nasriddin Afandi qiyofasida butun xalqning, butun millatning so'zga chechanligi, zakiy, ya'ni nozik fikrlashi o'z ifodasini topgandir. Latifalarning e'tiborli, tinglovchini o'ziga jalb qiluvchi fazilati shundan iboratki, ularda savol-javob qilayotgan taraflar bir-birini butkul yechimi topilmas vaziyatda qoldirishga urinadilar. Bu ko'rinishdagi eng og'ir qismat, asosan, Nasriddin Afandi peshonasiga muhrlab qo'yilgandir. Nasriddin Afandining so'zga chechanligi shundan iboratki, u hamisha vujudga kelgan vaziyatda o'ta chiroyli tarzda yechim topib o'z qismatiga yengillik bag'ishlaydi. Bir misolga murojaat qilaylik: Kunlardan

bir kun Afandi saroyga kelgani zahoti podsho uni suhbatga jalb qilibdi: «Bugun tunda, – debdi podsho, – afandi bilan ikkalamiz tush ko‘rdik». Afandi rizolik alomatini ko‘rsatibdi. Podsho davom etibdi: «Afandi bilan men tushimizda yosh mushuk bolasiga aylanib qolibmiz. Osmondan bir kalxat tushib ikkalamizni ikki changaliga olib parvoz qilibdi. Ammo shu yaqin orada paydo bo‘lgan burgutning hamlasidan qochib, ikkalamizni changalidan bo‘shatib yuboribdi. Men shinni o‘raga tushibman, Afandi nopok o‘raga tushibdi». Shunda saroydagilar Afandi ustidan kulganday bo‘lib, qah-qaha ko‘tarishibdi. Afandi hech ikkilanmasdan: «Shohim, tushimizning qolgan davomini ham ayting-da, – debdi. Birdan aytilgan gapdan sarosimaga tushgan podshoh ikkilanib: «Xo‘sh-xo‘sh, davomida nima bo‘lgan edi? – deb so‘rashga majbur bo‘libdi. Afandi: «Siz shinni o‘radan chiqdingiz, men nopok o‘radan chiqdim, to‘g‘rimi?» – debdi.

–Ha-ha, – debdi podsho, – juda to‘g‘ri.

Shunda afandi: «Men sizni yaladim, siz meni yaladingiz» – deb javob bergan ekan.

Ma‘lum bo‘ladiki, Nasriddinning vaziyatni to‘g‘ri baholashiga va favqulodda to‘g‘ri yechim topishiga tasanno aytmasdan ilojimiz yo‘q. Afandi latifalari matnini o‘rganish qahramonimizning o‘zbek tilini, uning boy imkoniyatlarini, qochirimlarini juda yaxshi his qilishini dalillaydi. Nasriddin bir ko‘rinishda soddagina bo‘lib, tilimizning go‘zal jihatlarini namoyish qilib qo‘yadi:

–Kunlardan bir kun Afandi katta bir amaldorni «Siz ahmoqsiz», – deb haqorat qilgan ekan, amaldor uni qoziga boshlab boribdi. Qozi amaldorning xizmatini Afandiga tushuntirib, so‘zining oxirida «siz ahmoq odam emassiz»,– deyishini buyuribdi. Afandi qozining buyrug‘ini shu zahoti bajarib: – «Siz ahmoq, odam emassiz», – debdi.

Yuqoridagilardan ma‘lum bo‘ladiki, Afandi latifalarida biz o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan kulgini sevish tabiatiga guvoh bo‘lamiz.

Ammo Afandi latifalarida qahramonimizning yana bir xususiyatini ham ko‘rishimiz mumkin. Bu xususiyat Afandining

o'ta soddaligi bilan belgilanadi. Endi biz bu qahramonning turmushdagi murakkab vaziyatlarni singdira olmaydigan, o'z boshiga va nomiga mos kelmaydigan darajadagi o'ta go'lligi bilan tanishamiz: Afandi ko'chada ketayotib, kichkina bir ko'zgu-oyna topib olibdi. Uni qo'lga olar ekan o'z aksini ko'rgan zahoti: – E, kechirasiz, oyna siznikimidi, – deb tashlab ketibdi. Savol tug'iladi. Bu latifalarning yaratilishidan xalq qanday maqsadni ko'zda tutgan bo'lishi mumkin. Gap shundaki, xalqimiz ijtimoiy hayot tashvishlaridan zerikkan ba'zi paytlarda shunchaki ko'ngil xushligi uchun ham kulgi yaratish istagini bildiradi. Bu mazmundagi latifalardan murakkab vaziyat izohlarini axtarish to'g'ri emas. Ularni xalq faqat bir yengil kulgiga tashnalligi tufayli yaratgan, xolos. «Kunlardan bir kun tunda Afandi suv olmoqchi bo'lib, quduqqa chelak tashlasa, quduq tubida oy ko'rinibdi. Afandi xotinini chaqirib, arqon olib kelishini buyuribdi. U arqon bilan quduqdan oyni chiqarmoqchi bo'lgan ekan-da. Quduqqa tashlangan arqon qaysidir ildizga ilinib qolibdi. Afandi zarb bilan arqonni tortgan ekan, chalqanchasiga yiqilib tushibdi. Nogoh uning ko'zi osmondagi oyni ko'rgani zahoti: «Xayriyat, chiqarib olibman- ku», – debdi».

Afandi latifalari xalqimiz og'zaki ijodidagi kulgi yaratuvchi hajm jihatidan kichik, go'zal durdonalar hisoblanadi.

Lof o'zbek o'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos, alohida mustaqil janrlaridan biridir. Uning tabiatida epiklik va dramatiklik o'zaro uyg'unlashib ketganligi tufayli lof epizodik og'zaki drama namunasi sifatida ko'zga tashlanadi. Loflar sahnaga mo'ljallangan, satira va yumoraga asoslangan, tomoshabinlar guruhining mavjud bo'lishini taqozo etadigan asarlar bo'lib, ular o'ziga xos ijro usuliga ega. Loflar askiyalar kabi so'zga chechanlik va hozirjavoblikni talab etadi. Harakatning kontrast asosida qurilganligi-yu kuchli mublag'aga asoslanishi bilan alohida ajralib turadi.

Loflar kishida bir lahzalik kulgi uyg'otib, unga cheksiz zavq-shavq bag'ishlashi bilan diqqatga sazovordir. Ularning syujeti dialog asosida quriladi. Lof aytish mublag'ali savol(epizod) ga undan kuchliroq mublag'aviy mantiqiy javob qaytarishdan

iborat soʻzga chechanlik musobaqasi shaklida namoyon boʻladi.

Lofchilarning soʻzamollik bobidagi tortishuvi bevosita lofni yuzaga keltiradi. Loflar hech qanday kirishlarsiz boshlanadi. Syujet yechimi esa latifalarnikidek favqulodda yuz beradi.

Loflar odatda ikki qismdan tashkil topadi: birinchi qismida biror voqea yo hodisa boshlovchi tomonidan boʻrttirilgan holda bayon etilsa, ikkinchi qismida esa ikkinchi lofchining undanda oshirib-topilgan javobi keltiriladi. Shu tariqa loflar syujeti birikib, yaxlit kompozitsiyali asarni tashkil etadi.

Lof, asosan, **qiziqchi va askiyabozlar**, shuningdek, talantli, hayotiy tajribaga boy kishilar orasida shakllangan va ijro etilgan. Lofchilik, lof urish, lof aytish, lofbozlik oʻz sajiyasiga binoan xalq ogʻzaki sanʼatining askiya, qiziqchilik masxarabozlik, latifagoʻylik turlariga juda yaqin turadi.

Lofchilar ustoz-shogirdlik munosabati orqali maxsus tayyorgarlikdan keyin yetishib chiqqan. Hozir soʻzga chechan kishilar tomonidan u keng ijro etilaveradi. Lof kishilarning oʻzaro suhbatida ham tez-tez ishlatiladi. Bu esa loflarning kelib chiqish tarixi ijtimoiy zaruriyat bilan bogʻliqligini koʻrsatadi.

Loflar xalqimiz ogʻzaki ijodining kulgi yaratuvchi nasriy janri boʻlib, bu jihatdan latifa va askiyaga yaqin turadi. Bu soʻz maʼno jihatdan haddan tashqari boʻrttirilgan, mahorat bilan toʻqilganyolgʻongap, mubolagʻa, maqtanchoqliktushunchalarini anglatadi. Maʼlumki, deyarli har bir shaxs tabiatida oʻziga qarashli narsa yoki xususiyatni boshqalarnikidan boʻrttirib koʻrsatish xislati bor. Ayniqsa, yosh bolalar oʻzlarining onalarini hamma onalardan chiroyli, otalarini hammadan kuchli koʻrishni istaydilar. Bolaligimizdagi aynan shu xususiyat ulgʻayganimizda ham bizni tark etmaydi. Natijada, biron voqea-hodisani hikoya qilganimizda avvaliga oz-oz, vaqt oʻtgani sari koʻp-koʻp toʻqima lavhalarini oʻylab topamiz. *Masalan*, baliqchilar oʻzlari tutgan bir qarich baliqlarini quloqlab, dehqonlar oʻzlari yetishtirgan qovun-tarvuzlarni pudlab oʻlchagilari keladi. Shunday qilib, ogʻzaki ijodimizdagi lof janri uchun zamin hozirlanadi.

Xalq ogʻzaki ijodidagi bir necha janrga mansub asarlarda lof-mubolagʻa badiiy tasvir vositasi sifatida oʻrin olgan.

Jumladan, «Alpomish» dostonida yetti yoshli Hakimbek Alpinbiydan qolgan o'n to'rt botmon yoyni ko'tarib, o'q uzadi va Asqar tog'ining cho'qqilarini uchirib yuboradi. O'n to'rt botmon yoy eng kichik o'lchov bilan hisoblaganda ham bir tonnaga yaqin og'irlikni tashkil qiladi. Tog'ning cho'qqilarini uchirib yuboradigan yoyni tasavvur qilish ham oson bo'lmasa kerak. Xalq dostonlari va ertaklaridan o'rin olgan mubolag'ali lavhalar ko'p jihatdan loflarga yaqin turadi. Ammo loflar faqat mubolag'ali o'rinlardangina iborat bo'lmaydi. Loflar o'ziga xos fikr musobaqasidir. Ularda ikki taraf ishtirok etadi. Birinchi taraf g'ayritabiiy mubolag'a vositasida o'ziga tegishli narsaning lofini qiladi. Hamma gap ikkinchi tarafning javobiga bog'liq bo'ladi. Chunki ikkinchi taraf birinchi lofchining fikriy mubolag'asini inkor qilmaydi. Aksincha, tasdiqlaydi. Ammo keyingi lofchi mohir askiyaboz va Nasriddin Afandi kabi shunday javob topadiki, avvalgi lofchi bu javobdan lol qoladi. Shuning uchun ham hech ikkilanmay askiya, Nasriddin Afandi va lof namunalaridagi odamni hayratga tushishga majbur qiladigan, kuldiradigan javoblarni o'ziga xos fikriy kashfiyotlar deb qabul qilish mumkin. Xalq og'zaki ijodidagi jamoalik xususiyati ko'proq folklor asarlarining keng ommalashuvida, ularning mukammallashuvida namoyon bo'ladi. Lekin baribir bu so'z san'ati namunalari qaysidir ijodkor shaxs tomonidan yaratiladi. Va vaqtning o'tishi, birinchi ijodkor nomining ma'lum emasligi oqibatida mazkur asarga jamoa, ya'ni xalq muallif bo'lib qoladi. Shuning uchun ham boshqa asarlar kabi loflar ham, umuman, o'zbek xalqining zukkoligi, hozirjavobligi, mohir ijodkor ekanligini dalillaydi.

Loflar ko'pincha qiziqchilik va askiya aytish bilan shug'ullanadigan odamlar davrasida ijro etiladi. Shuning uchun bir lofchi ikkinchisi bilan lof aytishni boshlagani zahoti musobaqaga kirishadi. *Masalan*, qiziqchilik va askiyada ustoz san'atkor hisoblangan marg'ilonlik Yusufjon qiziq mohir askiyaboz Mamajon maxsum bilan lof aytishib qolishibdi:

Yusufjon qiziq:

– Marg'illonning yeri xo'b yer-da, bir bosh uzumi ikki

zambar keladi-ya!

Mamajon maxsum:

– Tokini Andijondan parxish qilib olib kelgandirsiz- da, – debdi. Bu misolda Mamajon maxsum fikriy jihatdan Yusufjon qiziqni yengdi. Chunki parxish qilingan tokning ildizi Andijonda qoladi. Demak, Mamajon maxsum o'zining viloyatidagi yer serhosilligini Marg'ilonnikidan ustun qo'rgan.

Yana bir misolga e'tibor qiling:

Bir lofchi ikkinchi bir lofchining uyini taqillatdi. Lofchi chiqib so'radi:

– Men bilan chandishaman deysan, yoshing nechada?

– Odam Atodan yetti muchal kattaman, – deb javob berdi chaqirib kelgan lofchi. – Bu javobdan ikkinchi lofchi ho'ngrab yig'lay boshladi.

– Nega muncha to'lib yig'layapsiz?

– Sen tug'ilgan yili mening bir uylik-joylik o'g'lim o'lgan edi, shu esimga tushib ketdi, – dedi ikkinchisi.

Mazkur lofda eshikni taqillatgan lofchi shunday bir vaqt belgisini tilga oldiki, undan oldingi muddatni topish mumkin emasdek tuyuladi. Chunki Odam Ato, umuman, odamzodning birinchi vakili hisoblanadi. Birinchi lofchi o'zini Odam Atodan ham yetti muchal oldin tug'ilganini, ya'ni undan sakson yoshdan ko'proq katta ekanini aytdi. Ikkinchi lofchi esa birinchi lofchi tug'ilgan yili uyli-joyli o'g'li o'lganini eslab yig'lay boshladi. Demak, ikkinchi lofchi birinchi lofchidan kamida qirq yosh katta ekanini ta'kidlamogda.

Loflarda xalq maishiy hayotdagi turli lavhalar, voqea-hodisalar yuzasidan paydo bo'lgan o'z mulohazasini kulgi asosida bayon qiladi.

Shu bilan xalqning mazkur holatlarga nisbatan munosabatini ham bilib olish mumkin bo'ladi. *Masalan*, ba'zan ikki tanish nogoh uchrashgan paytda dunyodagi hamma yumushlarini esdan chiqarib soatlab gaplashib qoladi. Loflarning birida bu haqda shunday deyilgan:

«Toshkentdagi bir mashhur lofchi Andijondagi do'stinikiga kelib, uni lof bilan mot qilmoqchi bo'ladi. Eshigini taqillatsa,

haligi do'sti ustiga po'stin, boshiga telpak, oyog'iga etik kiyib chiqib qarshi oladi.

lofchi. Ha, saratonda bu nima qilganing? — deb so'radi toshkentlik Sen bilan bo'ladigan suhbat qizib ketib, shu bilan qishga kirib qolsak, sovqotib qolmay deb, bir yo'la kiyinib chiqdim, – deb javob beribdi andijonlik lofchi.

Agar biz o'rgangan adabiyot namunalarini sinchiklab kuzatsak, ularda ham adiblar loflardagi usuldan foydalanishganiga guvoh bo'lamiz. Bunday namunalarda asar mualliflari munozaraga kirishgan ikki qahramondan birining topqirligini, zukkoligini ko'rsatadi. *Masalan*, Alisher Navoiy yozgan «Farhod va Shirin» dostonidagi Xisrav bilan Farhod o'rtasidagi munozarada Farhod zolim shohning har bir savoliga mantiqli javob beradi.

Dedi: «Qay chog'din o'lding ishq aro mast».

Dedi: «Ruh ermas erdi tang'a payvast».

Xisrav qarshisida turgan Farhodni mensimay, uning qachondan ishq dardiga muhtalo bo'lganini so'raydi. Bu so'roqda Xisrav o'zining Farhoddan ancha oldin Shiringa ko'ngil qo'rganini ta'kidlash ma'nosi ham yo'q emas. Ammo Farhodning javobi Xisravni mot qiladi. Chunki Farhod o'z gapida ishq dardiga tug'ilmasdan oldin muhtalo bo'lganini aytgan edi. Alisher Navoiy bu lavhada xalq og'zaki ijodidagi loflardan foydalangan bo'lsa ajab emas.

Shunday qilib, loflarda o'zbekning kulgiga moyil xalq ekani yana bir bor namoyon bo'ladi. Loflar xalqimizning zukkoligini, fikrlash chegarasi beqiyos ekanligini, so'zga chechan va hozirjavobligini dalillovchi janrlardan biri hisoblanadi.

Tomosha san'ati

So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. Masxaraboz, qiziqchi va qo'g'irchoqbozlar tomonidan yaratilgan, ular ijrosida, an'anaviy xalq teatri, spektakl sifatida avloddan avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan dramatik asarlar og'zaki badiiy ijodning maxsus turini tashkil etadi. Og'zaki dramalar an'anaviy xalq

teatrining asosiy repertuari hisoblanadi.

Xalq orasida og'zaki tarzda yaratilgan va xalq san'atkorlari tomonidan sahnada namoyish etiladigan folklor asarlari **og'zaki drama** deb ataladi. Og'zaki drama – xalq ijodining mustaqil janri sifatida juda qadim zamonlarda shakllangan. U turli xil o'yin-kulgilardan, dramatik holatlardan, har xil qiyofaga kirgan tomoshachilarning monolog va dialoglaridan, sahna harakatlari, ovoz ohanglaridan tashkil topadi.

Og'zaki dramani **folklor teatri** deb ham yuritadilar. Davr uchun muhim axloqiy normalar, ijtimoiy muammolar xususida tomosha ko'rsatish og'zaki dramaning asosiy vazifasi sanaladi. Bundan tashqari, og'zaki drama o'z ichiga turli xil o'yin, to'y, bazz, marosim, sayllarni hamda ertakchi, baxshi, qissaxon va roviylarning ijrochilik san'atini ham qamrab oladi.

Og'zaki dramani sahnada **professional qiziqchi** va **masxarabozlar** ijro etadi. Shu sababli, odatda, u askiyaboz, qiziqchi, masxarabozlar yashagan joylarda tashkil topgan hamda satira va yumorga asoslangan.

Og'zaki drama tomoshalarida ko'pincha hayot qiyinchiliklari, turmush muammolari, sinfiy munosabatlar keskinligi xususida to'xtanilgani bois ularda ijrochilar harakati kontrast asosida qurilgan. Fosh etish san'ati tomoshabinga ma'naviy zavq bag'ishlagan.

O'zbek folklorshunosligi og'zaki dramani masxaraboz va qiziqchilar teatri hamda qo'g'irchoq teatriga bo'lib o'rganadi. Masxaraboz va qiziqchilar teatrida dramaturgiya, sahna bezagi, qiziqchi aktyorlar, musiqa asosiy o'rin tutadi. Sirasini aytganda, masxarabozlik va qiziqchilik asrlar davomida shakllangan og'zaki an'anadagi professional teatr hisoblanadi. Uni havaskorlik harakatidan farqlovchi xususiyati ham an'anaviy xalq teatri sanalganligi bo'lib, XX asrning boshlaridayoq yuzaga kelgan yevropacha tipdagi o'zbek professional teatrining sarchashmasiga aylanganligidir.

O'zbek an'anaviy xalq teatri o'ziga xos dramaturgiyaga ega. Bu **og'zaki drama** deyilib, undagi personajlar o'z individual qiyofasiga, mijozi (temperamenti)ga, aql-u zakovatiga, hissiyot

va kechinmasiga, tanasi va unga mos harakatlariga ega. Bu teatrning ijrochi artisti masxaraboz (masxara), qiziqchi (qiziq) va taqlidchi (muqallid) nomlari bilan yuritiladi.

«Masxaraboz» arabcha soʻz boʻlib, “kulish”, “mazax va taqlid qilish” maʼnolarini anglatadi. Arablar istilosidan soʻng tilimizga oʻzlasha boshlagan esa-da, arablarning oʻzlari komik aktyorni

«muhabbiz» deb ataganlar. Shunday boʻlsa-da, «masxara» soʻzi oʻzbek tilida ham komik aktyor, ham kulgili hajviy tomosha maʼnosida qoʻllaniladi. Taxminan XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlaridan eʼtiboran arabcha «masxara» soʻziga fors-tojik tilidagi «bozi» (oʻyin) soʻzidan «i» tovushi qisqargan holatda «boz» shaklida qoʻshilib,

«masxaraboz» istilohi bunyod etilgan. Lekin aktyor maʼnosida ham masxara, ham masxaraboz istilohlari baravar qoʻllanib boravergan. Shu ixtisosdagi ijrochilar nomlari esa shu istiloh bilan sifatlangan holda yuritilishi anʼanaviy tus olgan. Binobarin, masxaraboz yoki masxara xalq teatrining komik aktyori boʻlib, mazax vositasida voqeani muayyan matnga solib, hajviy tomosha koʻrinishida ijro etib beruvchi kulgi ustasi sanaladi.

Oʻzbek anʼanaviy xalq teatri uch lokal guruh doirasida tashkil topgan va rivojlangan: Bular Buxoro masxarabozligi, Xorazm masxarabozligi va Fargʻona qiziqchiligidir.

Buxoro masxarabozligi ikki tipga boʻlingan: birinchisi, qishloq masxarabozligi boʻlib, koʻpincha 3-5 kishidan iborat holda tomoshalar koʻrsatgan. Ular kichik guruhdan tarkib topganlari sababli kichik hajmdagi, maishiy mavzudagi tomoshalarni koʻrsatishda soʻzga emas, asosan, harakatga va mimikaga zoʻr berib ijro etishgan.

Shahar masxarabozligida ham, asosan, mehmonxonalarda kichik hajmli maishiy komediyalar oʻynalgan boʻlsa-da, sayillarda, katta toʻylarda yirikroq tomoshalarni namoyish etishgan. Shahar masxarabozligida, ayniqsa, buxorolik Toʻla masxara (1842-1916) toʻpi ajralib turgan. U, xususan, salbiy personajlarga ijtimoiy tavsiflar berib, ularni fosh etishda

ayricha mahorat ko'rsatgan.

Xorazm masxarabozligida «Xatarli o'yin» turkumi ko'p o'ynalgan. Bunda dialog, kuy, qo'shiq, raqs va muallaq, pantomimadan unumli foydalanilgan. Ular orasida, ayniqsa, Quvvat kalta, Boltaqul masxara, Matyoqub ko'r, aka-uka Eshmat va Do'smatlar shuhrati butun Xorazmni tutgan.

Xalq teatrining keng rivoj topgani Farg'ona qiziqchiligi bo'lib, ular, asosan, Qo'qon va Marg'ilon shaharlari va ularning atrofida yashagan Zokir eshon (1815-1885), Sa'di Maxsum, Mulla Hoshim, Usmon qiziq, Abulhasan Qashg'ariy, Marasul qora, Normat og'zi katta, Abduaziz qiziq, Bahromboy, Hasan bukri, Kalsariq, Mo'min qishloqi, Rizo kiyik, Rahimbek hez, Davlat novcha, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Oxunjon qiziq Huzurjonov, Tesha qiziq, Muhiddin qiziq Darveshov, Zaynobiddin qiziq, Hojiboy Tojiboyev va boshqalar tomonidan muvaffaqiyat bilan davom ettirilgan. Bulardan tashqari dorbozlar, huqqibozlar va nayrangbozlar ham xalq teatrining xodimlari sanalib, ular tarkibida yana sozanda o'yinchilar ham bo'lgan.

Xalq teatri tomoshalari ikki xil ko'rinishda tashkil etilgan. Aytaylik, ba'zi tomoshalar ma'lum matn (og'zaki dramaturgiya) asosida ikki yoki uch aktyor ijrosida tashkil etilsa, ba'zilarida faqat birgina aktyor matnni ijro etib bergan. Bu yakka aktyor teatri deyilgan. U matndagi ijobiy va salbiy obrazlarni bir o'zi ijro etgan. Yoki u turli qushlar, jonivorlar ovozig, xatt-harakatiga taqlid qilib, pantomimalar ko'rsatgan. Pantomimalar ma'lum va taniqli shaxslarning fe'l-atvori, qiliqlariga taqlid qilib ham yaratilgan. Biroq xalq teatrlarida ko'pincha og'zaki hikoyalar insenirovka qilingan. Masalan, «Namoz», «O'lik yuvish» kabi insenirovkalar shular jumlasidandir.

Masxarabozlar, asosan, erkaklardan iborat bo'lgan. O'tmishda Buxoro, Xorazm va Farg'onada maxsus masxarabozlar teatrlari mavjud bo'lgan. Ularda buxorolik aka Buxor, To'la va Gadoy masxarabozlar, farg'onalik Yusufjon qiziq Shakarjonov, Orifjon Toshmatov singari professional qiziqchi va masxarabozlar faoliyat ko'rsatgan.

Qiziqchilar orasida xotin-qizlar ham bo'lgan. Xotin-

qizlarning qiziqchilik teatri mustaqil faoliyat yuritgan. Ular shakl va mazmuniga ko'ra masxarabozlar teatriga o'xshagan. Xotin-qizlar teatrining muhim belgilari shundaki, uning ijrochilari va tomoshabini faqat ayollardan iborat bo'lgan. Erkak kishi rolini ham ayollar erkakcha kiyinib, soqol-mo'ylov yasab ijro etadi. O'z tomoshalarini erkaklardan uzoqroq, chetroq, pana joylarda namoyish qilganlar. Xalqimiz orasida professional qiziqchi ayollardan samarqandlik Zulfi Suydiyeva, piskentlik Kuydiniso Rasulmatova, toshkentlik Salomat Mutalova kabilarning nomlari mashhurdir.

Qiziqchi ayollar o'z tomoshalarida zolim, bevafo erlarning kirdikorlari, kundoshlik azobi, sof muhabbat haqida tomoshalar ko'rsatganlar. Jumladan, «Bozorda to'lg'oq tutib qolgan xotin»,

«Cho'pon va uning xotini», «Kundoshchilik», «O'sma qo'yish» kabi og'zaki dramalar xotin-qizlar teatrida mahorat bilan ijro etilgan.

Og'zaki dramatik asarlar yo monolog, yo dialog shaklida yaratiladi. Ularni ijro etuvchi qiziqchi va masxarabozlar turli ovoz ohanglari, qiliqlar, shartli harakat va pantomimalarni bajarib, turli xushchaqchaq va hazil qo'shiqlarni aytib, raqsga tushib, voqealar rivojini ta'minlab borganlar. Shu orqali ajoyib ta'sirchan sahna asari yuzaga kelgan.

Og'zaki drama va pyesalarda, komediyalarda xalqning qochirimlaridan, xalq iboralaridan ustalik bilan foydalanganlar. Personajlar nutqida ko'chma ma'noli so'zlarni, iboralarni ko'p ishlatganlar. Personajlar xarakterini ochib berishda zid qo'yish san'atidan unumli foydalanilgan. Voqealarning bo'lib o'tgan o'rni va vaqti aniq ifodalanmay, keng badihago'ylikka erishilgan.

Qo'g'irchoq teatri ham xalqimizning qadimiy og'zaki teatri sifatida qaror topgan an'anaviy san'atdir. Uning qadimiyligini Umar Xayyom (1048-1123) ning tubandagi ruboiysi ham tasdiqlaydi:

Mo lo'batakonemu falak lo'batboz, Az ro'i haqiqat, na ki az ro'i majoz. Bozicha hamekunem bar nat'i vujud, Aftem ba sanduqi adam yak-yak boz.

Bu ruboiy Sh.Shomammedov tarjimasida

shunday jaranglaydi:

Bizlar qo'g'irchoq'-u, falak qo'g'irchoqboz, Bu so'zim chin so'zdir, emasdir majoz.

Yo'qlik sandig'iga bir-bir tushamiz, Vujud palosida o'ynagach biroz.

Qo'g'irchoq vositasida biror hayotiy voqelikni ko'rsatish niyatida qo'g'irchoqlarni o'ynatuvchi, ya'ni boshqarib turuvchi kishilar **qo'g'irchoqbozlar** yoki **korfarmonlar** deb yuritiladi. Ular sahna oldida yo sahna ortida turib, qo'g'irchoqlarning o'zaro munosabatiga aralashadilar, aniqrog'i, ularni harakatga solib, o'zaro munosabatga kirishuvlarini ta'minlaydilar. Har bir qo'g'irchoqning ruhiyatiga, ko'rinishiga moslab ovoz beradilar, bunda ovozni turlantirish uchun tillari tagiga maxsus safil (kichkina plastinka moslama) qo'yib oladilar. Binobarin, qo'g'irchoqlarni jonlantirib, voqelik mantig'iga mutanosib harakatga omuxta ovozda so'zlash uchun korfarmon (qo'g'irchoqboz)larda alohida aktyorlik iste'dodi shakllangan bo'lmog'i zarur. Qolaversa, ularning o'z leksikasi mavjuddir. So'z ularning asosiy quroli hisoblanadi. Ular jonli xalq tilidan ustalik bilan foydalanib, qo'g'irchoq ijro etayotgan personajning individualligini ta'minlaydilar.

Qo'g'irchoqbozlik san'ati sirlari esa o'tmishda avloddan avlodga o'tishi uchun korfarmonlar o'z hunarlarini bolalariga o'tkazish asosida an'anaviylik kasb etgan. Buning uchun esa o'tmishda yurtimizda qo'g'irchoqbozlar alohida mahallalarda yashagan, hatto, chetdan qiz ham olmagan va chetga qiz ham chiqarmay, o'z kasblarini farzandlariga o'rgatishgan. Faqat ko'rsatgan tomoshalaridan tushgan daromad evaziga ro'zg'or tebratishgan. Buxoroda O'g'lon darvozasi mahallasida qo'g'irchoqboz va sozandalarning yuzga yaqin oilasi yashagani ma'lum. Toshkentda ham Ko'kcha, Sebzor, Beshyog'och va Shayxontohur dahalarida qo'g'irchoqbozlar oilalari istiqomat qilishgan.

Qo'g'irchoq teatri o'ziga xos o'yin-kulgi vositasi bo'lib, xalqning ijtimoiy-maishiy turmush tarzi, axloq normalari, turli munosabatlarini satira va yumor orqali namoyish etish san'ati

sanaladi. Qo'g'irchoq teatrining tarixiy-genetik ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Uning ilk ildizlari ajdodlarimizning o'tmishdagi urf-odatlar va marosimlariga bog'liq bo'lib, ibtidoiy insonning tabiat hodisalari oldida o'zini ojiz sezib, turli ma'budlarga sig'inishi, tabiiy ko'ringan hodisalarni ta'riflash maqsadidayasalgan ramziy shakllarga, totemsanalgan hayvonlar qiyofasini aks ettiruvchi niqoblarni kiyib ritual raqsga tushishi hodisalari pirovardida qo'g'irchoq teatri yuzaga kela boshlagan. Tadqiqotchilarning aniqlashicha, qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi dunyodan o'tgan ajdodlarni teatrlashtirilgan holda yodga olish marosimi asosida yuz bergan. Bu marosim qoidasiga ko'ra, marhumning eng yaqin kishisi uning niqobini kiyib, xuddi o'sha marhumga o'xshab va o'xshatib gapirgan, harakat qilgan. Keyinchalik esa bu marosim o'zidagi urfiy belgilarini yo'qotib, oddiy tomoshaga aylana borgan, ibtidoiy-mifologik ishonchlarning kuchsizlanishi va yo'qola borishi natijasida mazkur ramziy shakllar qo'g'irchoqbozlar qo'liga o'tib, tanqidiy vazifani ado eta boshlashi tufayli qo'g'irchoq teatri shakllangan. Qo'g'irchoq teatrining mavzulari kengaya boshlashi oqibatida niqoblar arsenali ham turfalashib ko'paya borgan. XI-XII asrlarda O'rta Osiyoda qo'g'irchoq teatri juda tez rivojlangan. Temuriylar davriga kelib qo'g'irchoq teatri yanada gullab-yashnaganki, buni Alisher Navoiyning «Xamsa» asarida odamlar hayotini qo'g'irchoq teatriga o'xshatib ta'riflagani ham yaqqol tasdiqlaydi. Qolaversa, XV asrda yashagan Husayn voiz Koshifiy «Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati» asarining to'rtinchi fasli ikkinchi qismini maxsus «Qo'g'irchoqbozlar bayonida»gi sarlavha bilan xalq qo'g'irchoq teatrining tabiati va turlarini tavsiflashga bag'ishlangani bejiz emas.

Ayni zamonda qo'g'irchoq teatrining uch ichki turi keng taraqqiy etayotir:

1. «Chodir jamol» qo'g'irchoq teatri. Bunda qo'g'irchoqlar qo'lga kiyilib, barmoqlar vositasida harakatga keltirilgan. Bu teatrdan, asosan, uch ko'rinishli «Polvon Kachal sarguzashtlari» xalq komediyasi o'ynalgan. O'z-o'zidan

ayonlashayotirki, bu teatrning (komediyaning ham) bosh qahramoni Kachal polvon hisoblanadi.

«Kachal» soʻzining lugʻaviy maʼnosi “kal” boʻlib, koʻchma holda «maymoq, qaltiroq, qoʻrqoq» degan maʼnolarda qoʻllanilib, istehzo va pichingni ifodalaydi.

«Chodir jamol»da oʻynovchi qoʻgʻirchoqbozning kamida 20 ta qoʻgʻirchoqʻi boʻlgan. Spektakl jarayonida shulardan 8-12 tasini qoʻlga kiyib, 4-6 epizodni namoyish qilgan. U, asosan, kunduzi oʻynalganligi sababli «Roʻz bozi» deb ham atalgan.

Professor M.Qodirov «Chodir jamol»da 100 dan ortiq qoʻgʻirchoq qatnashganini taʼkidlab, ularni tubandagicha toʻrt guruhga taqsimlab tasvirlaydi:

1. *Satirik personajlar*: rais, yasovul, sudxoʻr, hoji kampir, tergovchi, koʻknori, dalli-sovchi...

2. *Xalq tiplari*: oʻzbek, rus, qozoq, yahudiy, turkman, Abram mujik va Oygiz Shura.

3. *Sanʼat ahli*: sozanda, yallachi, masxaraboz, raqqosa, dorboz, maymunboz, toshboz...

4. *Hayvonlar va afsonaviy maxluqlar*: yalmogʻiz kampir, ajdaho, shayton, Qoravoy it va boshqalar.

Bu personajlarning har biri betakror qiyofaga ega va xalq komediyasida oʻzigagina xos ijtimoiy-estetik vazifani bajarishlari tufayli asarning gʻoyaviy-badiiy maqsadini ochishga xizmat qilgan va tomoshabinlarga zavq va saboq berishgan.

2. «Chodir **xayol**» **qoʻgʻirchoq teatri**. Bu hozir zamonaviylashtirib **marionetka teatri** deyiladi. «Chodir xayol» teatrida qoʻgʻirchoqlar harakati iplar yordamida amalga oshiriladi. Qora iplarga bogʻlangan qoʻgʻirchoqlar kechasi qora parda fonida harakatlantirilgani uchun iplari koʻzga tashlanmaydi va qoʻgʻirchoqlar goʻyo oʻzi harakatlanayotganday koʻringani uchun tomoshabinlarda katta qiziqish hamda estetik zavq uygʻotgan. Bu teatrdan, asosan,

«Sarkardalar» xalq komediyasi oʻynalgan.

«Chodir xayol»da ham 100 ta qoʻgʻirchoq – personaj mavjud. P.A.Kamarov kolleksiyasida shulardan 47 tasi mavjud, qolganlari esa hanuzgacha nomaʼlum.

«Chodir xayol» spektaklida voqea, asosan, xon saroyida kechadi. Shu vajdan unda harbiylarni ifodalovchi qo'g'irchoq-personajlar ko'p. Chunonchi, yasovul, sarbozlar va xalq komediyasining bosh qahramoni Yo'ldosh yasovul shu silsilaga kiradi. Shuni ta'kidlash joizki, «Chodir xayol» spektaklida kamida 50 tacha qo'g'irchoq ishtirok etganligi tufayli ularni ip bilan boshqarish zaruriyatga aylangan. Bu tomosha, asosan, kechqurun o'ynalganligi tufayli «Shab bozi» deb ham yuritilgan.

3. «Fonus **xayol**» **yoki soya qo'g'irchoq teatri.** Bu teatrdagi tomoshalar qo'g'irchoq yoki qo'l barmoqlarining soyasini devorga tushirib, turli-tuman shakllar hosil qilish orqali namoyish qilingan. Qo'g'irchoq teatri jahon xalqlarining barchasida mavjud umumfolkloriy hodisadir. Har bir xalqning o'z milliy ruhiyatini ifodalovchi milliy qahramoni bor. Endilikda xalqona qo'g'irchoq teatrlari ham professional teatrlarga aylana bormoqda. Ular qo'g'irchoq teatrlari arboblarning xalqaro ittifoqi (UNIMA) atrofiga uyushganlar. UNIMAning esa hozirgacha XII kongressi va qator festivallari bo'lib o'tdi. Ularda qo'g'irchoq teatrlari taraqqiyotining o'ziga xos tamoyillari belgilanib, ijro mahoratini tobora takomillashtirish va tajriba almashtirishga qaratilgan tanlov-ko'riklar ijobiy natijalar bermoqda. Shunday festivallardan biri 1969-yilda Toshkentda o'tkazilib, o'zbek qo'g'irchoq teatrini rivojlantirishga kuchli ta'sir ko'rsatdi. O'shanda respublikamizda birgina qo'g'irchoq teatri poytaxtda faoliyat ko'rsatardi, bugunga kelib Andijon, Samarqand, Buxoro va boshqa bir qator viloyatlar markazlarida ham qo'g'irchoq teatrlari faoliyat ko'rsata boshlagani quvonarli holdir, albatta.

Xullas, xalq qo'g'irchoq teatri kattalar va ayniqsa, bolalarning sevimli teatri sifatida professional qo'g'irchoq teatrlariga aylangungacha uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tdi.

Qiziqchi va masxarabozlar teatri. Xalq teatrida bosh ijodkor masxaraboz, qiziqchi va qo'g'irchoqbozlardir. Ular ham yaratuvchilik, ham ijrochilik, ham tashkilotchilik vazifalarini bajaradi. «Qiziqchi», «masxaraboz» atamalari har joyda har xil ma'noda qo'llaniladi. Bu ikki atama orasida bir-biriga yaqinlik

bo'lsa-da, o'ziga xos ma'nolari bor. Nutqi, hajviy xatti-harakatlari bilan odamlarni kuldirib yuruvchi, oddiy, sho'x va hazilkash kishilar ko'pincha qiziqchi deb yuritiladi. Odamlarni kuldirishni o'zlariga hunar qilib olgan va maxsus kiyinib, yuzlarini bo'yab, sayil, to'y-bazm, bayramlarda tomosha ko'rsatib yuruvchi kishilar masxaraboz deb atalgan.

Masxaraboz va qiziqchilar orasida o'z san'atini puxta egallagan va uni xalqqa manzur qilgan mashhur ustalar bilan bir qatorda, bu ishga onda-sonda aralashadigan havaskorlar ham bo'lgan. Mashhur qiziqchi va masxarabozlar sayil va to'ylarda o'z kasb-hunarlarini namoyish etganlar. Qiziqchilarning asl nomi bilan bir qatorda, ular ijro etgan qahramonlarning kasb-hunarleri ham ilova tarzida ularning ismiga qo'shilgan. Qiziqchi va masxarabozlar rol ijro etibgina qolmay, xalq teatrida rejissorlik vazifasini ham bajargan.

Og'zaki dramaturgiya. Xalq teatrlari og'zaki dramaturgiyasida dramatik harakat, sahnaviy o'yin matn bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning birini ikkinchisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xalq pyesalarining «O'yin» deb atalishi ham uning mana shu xususiyatidan kelib chiqqan. Og'zakilik xalq ijodining, jumladan, masxarabozlar dramasiining yetakchi xususiyatlaridan biridir. Xalq teatrida qishloq ko'chasi, shahar bozori, hovli yuzasi sahna bo'lsa, tabiat manzarasi, daraxtzor, sahro sahna bezaklari vazifasini bajaradi. Ijroda esa dialog, ishora, harakat, pardozi aniq va yorqin bo'lmog'i kerak. Bundan tashqari, tomoshabinlar sahnadagi gap, harakat va imo-ishorani hayajon bilan qabul qilgan holda o'z his-hayajonlarini ham izhor etadilar.

Og'zaki dramaning ahamiyatli tomoni shundaki, u jamiyatdagi illatlarni fosh etadi. Ularda, asosan, boylar, sutxo'rlar va savdogarlar qattiq hajv ostiga olinadi. Hajviy kulgi tanqidning ta'sirli ko'rinishidir. Kulgi qanchalik asosli va kuchli jaranglasa, tanqid shuncha zo'r va o'tkir bo'ladi. Unda hayotda g'ov bo'ladigan hamma narsa fosh etiladi. Yumor u yoki bu voqea-hodisalarni ko'proq tuzatish va yaxshilashga, yo'qotishga xizmat qiladi. U do'stona xayrixoh kulgidir.

Og'zaki satirik komediyalarda amaldorlar, boylar, o'g'rilar, qimorbozlarni fosh etish markaziy o'rinda turadi. Xalq satirasining o'tkir tig'i illatlarni fosh etishga qaratilgan.

Qo'g'irchoq teatri. Qo'g'irchoqbozlik eng qadimgi davrdan boshlab xalq orasiga keng tarqalgan dramatik shakl bo'lib, unda turli obrazlar yog'och o'yinchoqlar, uni o'ynatuvchi va o'rgatuvchi, o'yin boshlovchilar ijro etadi. Qo'g'irchoq o'yini, asosan, bolalar, yoshlar orasida namoyish qilinadigan o'yin-kulgi vositalaridandir. Shuningdek, qo'g'irchoq teatri tomosha, to'y, bozor kabi yig'inlarda ijro qilingan. Hozirgi kungacha o'tmishda yaratilgan qo'g'irchoqbozlik ma'lumotlari turli manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. Ularning ayrim matnlari «Kachal polvon», «Sarkardalar»,

«Tegirmonchining uylanishi» kabilardir. Bu tomoshalar hozirgi kunda deyarli o'ynalmaydi. «Oftobxon va Mohtobxon» komediyasida ko'p zamonlardan beri xalqni aldab kelgan duoxon va avliyolar o'tkir hajv, kulgi bilan masxara qilinadi. Qo'g'irchoq teatrini tashkil etish juda murakkab bo'lib, ijrochilardan chidamli mehnat talab qilingan. Ko'rsatiladigan tomosha mavzulari tomoshabinlarning didi, zavqiga qarab belgilagan. Ular hayot hodisalari, kishilarning o'zaro munosabatlarini yog'och qo'g'irchoq obrazida aks ettiriladi. Ular bisotidagi asosiy kulgi chiqarish vositasi so'z o'yinlaridir. Qahramonning xususiyatlarini ochishda lutf – qochirim yo'llari bilan birga, birdan ortiq ma'no ifodalaydigan so'z va gaplarni ishlatish ham muhim o'rin tutgan.

Qo'g'irchoqbozlar ham o'z ijrosi jarayonida keng tarqalgan an'anaviy tomoshalar qatorida zamon ruhiga moslab yangi-yangi dramalar ijod qiladilar. Ular xalq orasida mashhur bo'lgan ba'zi ertak, hajviy hikoya va latifalar mazmunidan ham tez-tez foydalangan.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalq latifalarida Nasriddin afandi obrazi haqida ma'lumot
2. Latifalarda kulgi yaratish usullarini izohlang.

3. Mubolag'a san'atining loflardagi o'rniga baho bering.
4. Latifa va loflarning umumiy xususiyatlari haqida gapiring.
5. O'zbek folklorining o'ziga xos janri – askiya janrida improvizatorlik va jamoaviylik xususiyatini tahlil qilib bering.
6. Nima uchun askiya faqat o'zbek xalq og'zaki ijodiga xos janr hisoblanadi?
7. Payrov, gulmisiz, o'xshatdim kabi askiyalar haqida nimalar bilasiz?
8. Askiyada kulgi hosil qilish uchun qanday usullardan foydalanishadi?
9. She'riy yo'lda yaratiladigan askiyalar badiiyati xususida fikr yuriting.
10. Askiyada mavzu tanlash jarayoni haqida so'zlang.
11. Askiyalarda matniy an'anaviylikni mavzulariga ko'ra tahlil qiling.
12. Farg'ona qiziqchilik maktabining o'ziga xos xususiyatlarini farqlang.
13. Xalq teatri personajlarini turlariga ko'ra tasniflang

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Ro'zimboev S. Yusuf masxaraboz. – Urganch, 1995.
2. Farg'onalik qiziqchilar. – T.: «Mehnat», 1994.
3. Sarimsoqov B., Safarov O., Imomov K., Mirzyaev T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: «O'qituvchi», 1990.
4. Bobolardan qolgan naqlar To'plab, nashrga tayyorlovchilar: M.Jo'raev, U.Sattorov. – T.: «Fan», 1998.
5. Jo'raev M., Shomusarov Sh. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. – T., 2001.
6. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. – T.: «Fan», 1981.
7. Latifalar. O'XI. Ko'p tomlik, – T.: G'ASN, 1971.
8. Oxunjon qiziq hangomalari. – T.: «Meros», 1993.
9. Ro'zimboev S. Yusuf masxaraboz. – Urganch, 1995.
10. Farg'onalik qiziqchilar. – T.: «Mehnat», 1994.
11. B.Sarimsoqov, O.Safarov, K.Imomov, T.Mirzyaev O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: «O'qituvchi», 1990.

12. Bobolardan qolgan naqlar. To'plab, nashrga tayyorlovchilar: M.Jo'raev, U.Sattorov. – T.: «Fan», 1998.
13. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. – T.: «Fan», 1981.
14. Latifalar. O'XI. Ko'p tomlik, – T.: G'ASN, 1971.
15. Oxunjon qiziq hangomalari. – T.: «Meros», 1993.
16. Muhammadiyev R. Askiya T, O'zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1962.
17. Askiya. O'zbek xalq ijodi turkumi. T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1970.
18. Askiyada ijrochilik mahoratini oshirish yo'llari, (metodik tavsiyanoma). Tuzuvchilar: M. Jo'rayev, T. Sobitova. T., 1985.
19. Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar san'ati. – T., «Fan», 1971.
20. Qodirov M. Xalq qo'g'irchoq teatri. –T., «Fan», 1972.
21. O.Madayev, M. Jo'rayev, T.Sabitova, N.Muxitdinova O'zbek folklori. Darslik. T. 2022. "ZEBO PRINT". 2022.
22. Sabitova T. O'zbek xalq dostonlarining nazariy asoslari va badiiyati. Monografiya. T. "FIRDAVS SHOH" , 2022.

II QISM. ILOVALAR

O'ZBEK FOLKLORIDAN NAMUNALAR

Maqollar

Ona yurtning omon bo'lsa, Rang-u ro'ying somon bo'lmas.
Betashvish bosh qayda, Mehnatsiz osh qayda.
Bilmagandan bilgan yaxshi, To'g'ri ishni qilgan yaxshi.
Olim bo'lsang, olam seniki.
Hunarmandning noni butun.
Aytar so'zni ayt, Aytmas so'zdan qayt.
Ko'pdan quyon qochib qutilmas.
Haq so'zga o'lim yo'q.
Boriga rozi bo'l, Yo'g'iga sabr qil.
Hisobini bilmagan, Hamyonidan ayrilar.
Aql yoshdan, Bola boshdan.
Odob oltindan qimmat.
Bola aziz, odobi undan aziz.
Serjanjal uyda baraka yo'q.
Qobil o'g'il ot mindirar, Noqobil o'g'il otdan indirar.
Besh panjangni og'zingga tiqma. Dangasaning vaji ko'p.
Yomonga bosh bo'lguncha, Yaxshiga yo'ldosh bo'l.
Ko'ngli ochiqning qo'li ochiq, Qo'li ochiqning — yo'li.

Matallar

Alifni kaltak deydi.
Atorning qutisida ham yo'q gaplar.
Betga chopdi.
Bilsa hazil, bilmasa chin.
Bor otangga, bor onangga.
Igna tashlasang, yerga tushmaydi.
Oyog'ingni qo'lingga olib yugur.
Popugi pasayib qoldi.
Tomdan tarasha tushganday.

Topishmoqlar

Ko'k ko'ylakka qo'l yetmas.

O'yib oldim izi yo'q.

Novcha yigit tom teshar.

Otlari har xil, Yoshlari bir xil.

Suvga tushsa suv bo'lmaydi, Loyga tushsa, loy bo'lmaydi.

Uzun terak yiqildi, Uchi mening qo'limda, Zag'izg'oni sayraydi, Sochi mening qo'limda.

Tog'da talaymonni ko'rdim, Suvda sulaymonni ko'rdim, Dumalab yotgan toshni ko'rdim, Tuzsiz pishgan oshni ko'rdim.

Rivoyat va hayot

Bir qishloq chekkasidagi g'arib kulbada tul ayol Bibish ismli go'zal qizi bilan kun kechirar ekan. Bir kuni Bibish ertalab ko'za ko'tarib buloq boshiga borganicha, qaytib kelmabdi. Yolg'iz farzandini kutaverib toqati tugayozgan ona buloq boshiga chiqsa, qizidan dom-darak yo'q. Ovozi boricha qichqiradi, tog'lardan aks - sado keladi, ammo Bibishdan esa sado eshitilmaydi. Ona shu paytda daradan qo'y haydab kelayotgan cho'pon yigitdan so'raydi:

— O'g'lim, Bibishim suvga chiqib ketganicha darak- asari yo'q, mabodo ko'rmadingmi-a?

Cho'pon yigit:

— Begona besh-olti otliq qop ichida chinqirib yig'layotgan kimsani o'ngarib ketayotgandi. O'sha Bibish bo'lib chiqmasin tag'in, debdi.

Onaizor uvvos tortib yig'lab, odam o'g'rilarini yer tepib qarg'abdi. Shunda bu mudhish xabarni eshitgan Bibishning sevgan yigiti o'g'rilaridan o'ch olish payida uni qidirib ketibdi. Ammo ma'shuqasini topolmay qaytib kelibdi. Onaizor yolg'iz jigarbandini istab kecha-kunduz «Vo Bibish» deb yig'lagandan ikki ko'zi ko'r bo'lib, oxiri omonatini topshiribdi. Zohidlar bo'lsa, qizni bachchaduzaklar emas, balki u juda suluv bo'lganidan dev-parilar olib ketishgan degan ovoza tarqatibdilar.

Shu-shu qishloq «Vobish», buloq esa «Vobish bulog'i» deb atalibdi.

Loflar

Yusufjon qiziq:

— Marg'ilonning yeri xo'p yer-da, bir bosh uzumi ikki zambar keladi-ya!

Mamajon maxsum:

— Tokini Andijondan parxish qilib olib kelgandirsiz-da!

Bor, baraka top

Kecha bozordan qo'y sotib oluvdim, so'ysam, ichidan oltita «bor, baraka top» chiqdi.

Yong'oq mag'zi va tuyalar

Bir lofchining eshagi yag'ir bo'lib qolibdi. Unga birov yong'oq mag'zini qo'ying, – debdi. Yong'oq mag'zini qo'ygan ekan, mag'iz ko'karib daraxt bo'lib ketibdi, shig'il meva qilibdi. Yong'oqlarni qoqish uchun kesak otsa, kesaklar sira yerga tushmas emish. Bir kun chiqib qarasa, kesaklar tarvuz tugibdi. Bir tarvuzni pichoqlagan ekan, o'zi ichiga tushib ketibdi. U yoq-bu yoqqa qarasa bir lofchi o'nta tuyani yetaklab kelayotgan emish. Nima qilib yuribsiz, deb so'rabdi.

— Bultur yuzta tuya yo'qotgan edim, endi o'ntasini topdim.

Siz nima qilib yuribsiz?

— Pichoq yo'qotdim, — deb javob beribdi haligi lofchi.

— Yuzta tuyamni topolmayapman-u, siz pichoq topa olasizmi,

— debdi keyingi lofchi.

Boshi osmonda yurardi

Bir kuni ikki lofchi uchrashib qolishibdi.

— Rahmatlik otamning bo'yi chunon uzun ediki, boshi osmonda yurardi, — debdi bir lofchi.

— O'shanda otangizning boshiga biror narsa tegib turarmikan?

— deb so'rabdi ikkinchisi. Haligi lofchi bulutni aytyapti, deb o'ylab:

— Ha, tegib turar ekan, — desa, ikkinchi lofchi:

— O'sha tegib turgan narsa rahmatlik otam kiygan to'nning etagi edi, — debdi.

Qo'l soat

Ikki lofchi uchrashib qolishibdi. Biri ikkinchisiga maqtana boshladi:

— Bir qo'l soat oldim, kattaligi Minskda chiqadigan yuk mashinasining g'ildiragidek keladi. Uyga borsang ko'rasan, strelkasiga sigir bog'lab qo'yibman.

— Jon o'rtoq, o'sha soatdan to'rttagina topib ber, yangi kastyum tiktirayotgan edim, tugma qilib qadab olaman.

Latifalar

Siz uyda yo'qsiz-ku?

Afandining bolalik chog'ida bir kuni otasi bunday dedi:

— Bugun bir odam mendan pulini qistab keladi. Men uyda berkinib o'tiraman, sen ularga, dadam uyda yo'q, deb javob bergin, xo'pmi?

— Bordi-yu, ular meni aldab, uyga kiraman deyishsa- chi?

— Uyga kirishmaydi. Kim kirsam ham, dadam uyda yo'q, degin, men uyda yo'qman, vassalom — gap tamom, uqdingmi?

— Xo'p, dada, aytganingizni qilaman! Otasi uyga kirib ketdi. Afandi darvozaga qaragancha supada o'tirar edi. Otasi uy ichida turib chaqirdi. Afandi unga javob bermadi. U chaqiraverib zerikkanidan o'g'lim o'ynab chiqib ketibdi, shekilli, deb, chiqib qarasa, Afandi darvozaga qaragancha o'tiribdi.

— Chaqira berib ovozim bo'g'ildi-ku, eshitmadingmi? — dedi xunob bo'lib otasi.

— Nega eshitmay, eshitdim, kar emasman.

— Eshitgan bo'lsang, chaqirganda nega uyga kirmading?

— Uyda yo'qman dedingiz-ku, kimning oldiga kiraman, — dedi Afandi.

Mah-mah, jonivor

Afandi ariq bo'yida o'tirib, qo'y kallasini yuvar edi. Kalla suvga tushib oqib ketdi. Darrov Afandi bir tutam o'tni yuldi-da:

— Mah-mah, jonivor, — deb qichqirdi. Chuchvara tugab qoladi

Afandi yoshligida ota-onasi bilan chuchvara yer edi. Chuchvara issiqlik qilib, Afandining og'zi kuydi, ko'zlaridan

yosh tirqirab ketdi. Bu ahvolni ko'rgan otasi unga aytdi:

— Nasriddin! Sovutib yesang o'lasanmi?! Afandi ko'z yoshlarini artar ekan, javob berdi:

— Men-ku sovutib yeyin deyman, ammo sizlar sovutmasdan yeb, chuchvara tugab qoladi, deb qo'rqaman.

Chakkaga qo'ngan pashsha

Afandi yoshligida ham Afandi ekan. Bir kuni u yig'lab turgan ekan, dadasi:

— Nega yig'layapsan? — deb so'rabdi.

— Akam bitta pashshani urib o'ldirdi, — debdi Nasriddin.

— Iya, pashshaga rahming kelyaptimi? — ajablanibdi dadasi.

— Pashsha mening chakkamga qo'nib turgan edi-da, — debdi Afandi.

O'g'rilar xizmat

Afandi uyqusi qochib, xayol surib yotgan edi, bir o'g'ri devordan oshib tushib, sheriklariga asta eshikni ochib berdi. O'g'rilar uydan, hovlidan durustroq bir narsa topolmay chiqib ketishayotgan edi, Afandi boshini ko'tarib dedi:

— Jon birodarlar, sizlarga bir xizmat: eshikni ichidan zanjirlab ketinglar, boshqa o'g'rilar ham ovora bo'lib kirib yurmasin.

Qo'shnilar eshitdi

Afandining qozoni suvga tashlangan²⁵, u uyida, hozir qo'y go'shtlik qaynatma sho'rva bo'lsa edi deb, xomxayol qilib o'tirgan edi. Shu vaqtda qo'shnisining o'g'li kosa ko'tarib kirib qoldi.

— Pochcha! — dedi u Afandiga.

— Agar sho'rva qiladigan bo'lsalaring, ayamga bir kosa berar ekansiz, toblari yo'q.

— Bu uyda bir narsani orzu ham qilib bo'lmaydi, darrov qo'shnilar eshitadi, — dedi Afandi o'z-o'zicha.

Yaxshiyam ishonmaganim

Afandi uzoq bir yurtga sayohatga borib, qaytishida yo'l ustidagi qalin to'qayzorda salqinlanib o'tirgan edi, bir sipohi³¹

²⁵ Qozoni suvga tashlangan — bir necha kundan buyon ovqat qilinmaydi ma'nosida;

kelib, afandidan soʻradi:

— Qayoqdan kelayotibsiz?

— Shu yurtga sayohat qilib kelgan edim, safar qarib, endi yurtimga ketayotibman.

— Qalay, bizning shaharlar sizga maʼqul boʻldimi?

— Menga maʼqul boʻlmadi. Shaharlaringiz iflos, qarovsiz, pashshasi koʻp, narx-navo qimmat...

— Odamlari qalay?

— Odamlari juda qoʻpol, xasis, firibgar, ochkoʻz ekan.

— Bu shaharning begi toʻgʻrisida nimalar deysiz?

— Shahari shu boʻlsa, uni begi nima boʻlardi. Anchagina zolim, maishatparast odam, deyishadi.

Sipohining²⁶ rangi-quti oʻchdi, moʻylovini burab, Afandiga koʻzlarini chaqchaytirdi:

— Men shu shaharning begiman! Afandi darrov soʻrashgani qoʻl berdi:

— Salomatmilar?.. Shahar toʻgʻrisidagi gaplarga yaxshiyam ishonmaganim...

Baxilga zoriqmayman

Bir baxil Afandidan soʻradi:

— Siz ham pulni sevasizmi?

— Albatta! — dedi Afandi.

— Nega endi?

— Chunki, — dedi Afandi, — pulim boʻlsa, senga oʻxshagan baxilga zoriqmayman.

Podshoning inʼomi

Podsho bir marosimda atoqli odamlarga toʻn kiygizdi va Afandini masxara qilish uchun unga eshakning toʻqimini berdi. Afandi baland ovoz bilan minnatdorchilik bildirib maqtandi.

— Sizlarga bozordan kelgan toʻn kiygizdilar, menga kelganda mehrlari oshib ketib, oʻzlarining kiyimlarini inʼom qildilar.

Eshakdan farqi qancha

Afandi bir kuni saharda hammomga tushgan edi, qorongʻida paypaslanib borib, supada oʻtirgan bir kishining

²⁶ Sipohi — harbiy askar.

yoniga o'tirib qoldi. O'tirgan odam mamlakatning podshosi edi. Afandining yaqin o'tirganiga achchig'i kelib:

— E befarosat odam, sen bilan eshakning orasida qancha farq bor? — dedi.

Afandi darrov ikki orani qarichlab ko'rib:

— Ko'p emas, ikki qarich ekan, xolos, — dedi.

Uzaygan kun

Afandi maktabda o'qib yurgan edi, domlasi bir kuni undan so'radi:

— Nasriddin! Kun necha soat?

— Bu kun yigirma besh soat, — deb javob berdi Afandi.

— Yigirma to'rt soat! — deb domla o'shqirgan edi, Afandi yana bo'sh kelmadi:

— Kecha, kun bir soat uzaydi, deb aytmadingizmi? — dedi Afandi.

Men ham yong'oqdan qolmay

Afandi ketayotib, bir to'p bolalar o'ynab turgan joydan chiqib qoldi. U bolalarni bir sinamoq uchun ularning oldiga borib:

— Bolalar, mana bu ko'cha boshida yong'oq qoqilyapti, dedi.

— Bolalar duv etishib, o'sha tomonga chopib ketishdi.

Afandi

— Men ham yong'oqdan quruq qolmay, — deb bolalarning orqasidan yugura ketdi

Xolis xizmat

Afandi bola edi. Bir notanish kishi uning qo'liga yigirma tiyin berib dedi:

O'g'lim, menga bitta non keltirib ber, qolgani o'zingga. Bir oz o'tgach, Afandi qaytib keldi-da, issiq non kavshab turib:

Mana o'n tiyiningiz, non bittagina qolgan ekan, — deb javob berdi.

Ertak

Buxoro shahrining chetrog'ida qorako'l bilan savdo qiladigan savdogar yashar ekan. Uning ismi Jo'rabek ekan.

Jo'rabekning shaharda o'n bitta hovlisi, G'urbun qishlog'ida o'n ikki tosh tegirmoni, qirq tanob bog'-chorbog'i, ikkinchi qishloqda o'n ikki tosh tegirmoni, o'ttiz ming qo'yi, ming bosh ot, tuyasi, sigir-buzoqlari bo'lgan ekan. Savdogarning Olimjon degan yolg'iz o'g'li bor ekan. Lekin otasining davrida ot surib, jo'ralari bilan kayf-safo qilib yurgan o'g'ilning hunari yo'q ekan. Ota-onasining hunar o'rgan, deb qilgan nasihatlariga unga sira kor qilmas ekan.

Oradan ancha yillar o'tibdi. Jo'rabek savdogar bir kuni o'g'lini chaqirib vasiyat qilibdi:

— Olimjon o'g'lim, butun mol-u davlatimning merosxo'ri sensan. Ammo menga ravshanki, men ne azobda yig'gan davlatni nes-nobud qilib tugatasan. Shuning uchun oxirgi vasiyatimni unutma. Shu hovlimizni ham sotasan. Ammo esingda bo'lsin, sotishdan oldin hovliga bittagina tandir qurgin. Mabodo tandir qurmasang, hovlining narxi arzon ketadi. Sen ko'p vaqt safarda bo'lasan. Ehtiyotdan deb dilimdagini aytib qo'yyapman, — debdi. Olimjon otasining aytganini bajarishga va'da berib, qirq jo'rasi bilan sayohatga chiqib ketibdi.

Yo'lda ular xaloyiqni yig'ib voizlik qilayotgan maddohni ko'rishibdi. Quloq solsalar, maddoh:

— Ey xaloyiq, kim yuz tillo bersa, men bir hikmatli gap aytaman, bu hikmat umr bo'yi unga asqatadi, — deyayotgan emish.

Ammo buncha pul hech kim bermabdi. Olimjon yuz tillo chiqarib maddohga beribdi. Maddoh Olimjonning qulog'iga sekingina: «Oshiq ma'shuqasini sevsin, gapim shu. Ammo bu sirni hech kimga aytmagin», debdi. Olimjon pulni berganiga pushaymon bo'lib, uyiga qaytibdi. Otasi bilan hol-ahvol so'rashibdi-yu, lekin haligi sirdan og'iz ochmabdi.

Boyvachcha bir haftadan keyin yana jo'ralari bilan ovga chiqib ketibdi. Ovdan qaytayotib:

— Kim menga yuz tillo bersa, bitta hikmatli gapim bor, shuni aytaman, — deyayotgan maddohni ko'rishibdi. Olimjon shoyad yaxshi gap aytsa, deb yuz tillo chiqarib beribdi. Maddoh Olimjonning qulog'iga: «Ajali yetmasa chivin ham o'lmaydi, bu

sirni hech kimga aytma», – deb shivirlabdi.

Ko'p o'tmay savdogar qazo qilibdi.

Katta-katta xarajat qilaverib, asta-sekin otasidan qolgan merosni, hatto bog'-u chorbog', tegirmonlarni sotib yuboribdi. Oxiri navbat o'zi yashayotgan hovliga kelibdi. Jo'rabek savdogar hayotligida Olimjonga bir zargarning go'zal, oqilona qizini olib bergan ekan. Kelin eriga: «Otangizning vasiyatlari esingizdami, tandir qurmay hovlini sotmang», – deb eslatibdi. Olimjon: «Ha, darvoqe, esimda», deb bozorga tushib tandir sotib olibdi. Tandır qurishga jo'ralarini chaqirgan ekan, ulardan birortasi ham yaqin kelmabdi. O'zi g'isht tashibdi, o'zi loy qoribdi. Qorong'i tushguncha ishlab, zo'rg'a tandirni quribdi. Juda charchab, holdan toyib, supaga borib o'tirib, hashamatli hovliga bir qarabdi-da, xotiniga: «Bir tandirni quraman deb shuncha charchadim. Axir, bu marmar toshlarni, bu yog'och, g'ishtlarni, bezaklarni otam rahmatlik qanday tashib keltirgan ekan?» – debdi.

Olimjon do'stlaridan qarz olishga qaror qilibdi va jo'ralarinikiga yo'l olibdi. Ammo birinchi jo'rasi o'g'liga: «Agar Olim bo'lsa, otam uyda yo'qlar deb ayt», – deb tayinlab qo'ygan ekan. O'g'li chiqib: «Otam uyda yo'qlar, bilmayman qayerga ketganlar», – deb javob beribdi. Xullas, Olimjon qirq jo'rasining uyidan ham quruq qaytibdi. Uyiga hech narsasiz qaytishga or qilib, Qoraqum cho'liga chiqib ketibdi. Ko'p yo'l yuribdi, oxiri uzoqdan katta alangani ko'ribdi. Yaqinroq borsa, bir quduqning ichidan alanga chiqayotganmish. Olimjon och qolib, suvsab, madori qurib, shu quduqning yonida uxlab qolibdi. Tongda shovqin-surondan uyg'onib ketibdi. Savdogarlar tuyalarini cho'ktirib, yuklarini tushirayotgan ekanlar. Ular har safar tuyalarini shu quduq suvidan sug'orar ekanlar. Bu safar suv o'rniga alangani ko'rib dahshatga tushibdilar. Chunki bir qultum ham suv qolmagan ekan. «Kimki quduqqa tushib, suv chiqarib bersa, har birimiz yuz tillodan beramiz», deyishibdi.

Olimjon o'ylab turib: «O'sha maddoh, ajali yetmasa chivin ham o'lmaydi, degan edi-ku. Qo'rqqoqa yov qo'sha ko'rinadi. Tavakkal qilib ko'ray» – debdi-da, quduqqa tushishga rozilik

bildiribdi. Savdogarlarning har biri yuz tillodan beribdi. O'n ming tillodan to'planibdi. Olimjon qirq gaz chuqurlikka tushibdi. Quduqning tubi tekislik bo'lib, bir eshik bor ekan. Eshikni ochib qarasa, katta bir bog' bo'lib, anvoyi xil mevalar pishib yotganmish. Bog' o'rtasidagi supada ikki yigit choy ichib o'tirgan ekan. Yigitlardan birining tizzasida bir pari, ikkinchi yigitning tizzasida qurbaqa o'tirgan emish. Olimjon ularga yaqin kelib, salom beribdi va muddaosini aytibdi. Yigitlar baravariga:

— Ey notanish yigit, senga savolimiz bor. Mening tizzamda qurbaqa, uning tizzasida pari o'tiribdi. Qaysi biri chiroyli? Ana shu savolga javob bersang, suv beramiz, — debdilar.

Olimjonning yodiga maddoh aytgan gap tushibdi-da:

— Har kimning didi o'zida. Har bir oshiq o'z ma'shuqasini sevsin, — debdi. Shu payt qurbaqa chiroyli bir qizga aylanibdi, husni jamoli hamma yerni munavvar etibdi. Ikkala yigit Olimjonga: — Oliyjanob yigit ekansan, senga suv beramiz, mayli, anavi anordan ham ol! — debdilar.

Olimjon qirq bitta anor terib olib, ro'moliga tugibdi-yu, quduqdan yer yuziga chiqibdi. Uning ortidan suv otilib chiqaveribdi, savdogarlar ham, tuyalar ham qonib suv ichishibdi. Keksa savdogar Olimjonga to'plangan tillolarni beribdi-yu, duo qilib unga bunday debdi:

— E o'g'lim, sen bechora ekansan, kel, men bilan savdogarlikka bor. Puling ham ko'payadi, uzoq yurtdan mol olib kelib, o'z shahringda foydasiga sotarsan.

— Boy ota, taklifingiz ma'qul, lekin xotinim uyda yolg'iz. Pulsiz qolgan. Agar ruxsat bersangiz, uyimga borib kelsam, — debdi Olimjon. Savdogar unga o'z otini beribdi. Olimjon anorlarni va ming tilloni olib, Buxoro qaydasan, deb uyiga yetib kelibdi. Xotiniga anor bilan pullarni berib, bo'lib o'tgan voqealarni aytibdi. Xotini xursand bo'lib, Olimjonga oq yo'l tilab qolibdi. Olimjon savdogarlarning oldiga yetib boribdi. Ular uzoq Urusiya mamlakatiga jo'nab ketibdilar.

Olimjon savdo-sotiq bilan yuraversin-u, endi gapni xotinidan eshiting.

Xotini anorning birini kesibdi. Qarasa, anorning ichi yoqut

tosh ekan. Zargarning qizi emasmi, u darrov bu qimmatbaho toshni tanibdi. Bir dona anorning ichidan chiqqan yoqutlarni xaltachaga solib, zargarga eltibdi. Zargar yoqutlarning har birini tilloga chaqib olibdi, dono xotin o'zicha: «Pul-oltin ko'payib ketdi. Endi qo'ldan ketgan mol-u mulkni qaytarib olishim kerak», — debdi-yu, rais, qozi, oqsoqollarga murojaat qilibdi. Qozi, oqsoqollar juvondan:

— Mulklarni sotib olishga puling yetadimi? — deb so'rabdilar. Olimjonning xotini:

— Pulim yetib ortadi. Men mulklarni sotib olaman, lekin o'sha yerda yashayotgan odamlarning o'zlari mulkdan foydalanaversinlar, — debdi.

Oqsoqollar bir-birlariga ajablanib qarabdilar. Qozikalon raisga:

— Bor, puli yetsa, mulklarini qaytarib olib ber, — deb buyuribdi.

Shunday qilib, ayol eri sotib yuborgan o'nta hovli, qirq tanob bog'-chorbog', tegirmon va mollarini qaytarib olibdi. O'zi yashayotgan hovlini yangi binolar qurib kengaytiribdi. Ammo sotib olgan mol-mulklari o'sha odamlarning qo'lida qolaveribdi. Bu orada ayol o'g'il ko'ribdi. O'g'liga otasi safarga ketgani uchun Safar deb ism qo'yibdi.

Ona-bola badavlat, tinch yashayversinlar-u, endi gapni yana Olimjondan eshiting.

Olimjon o'sha savdogar bilan Urusiyaning ko'p shaharlariga boribdi, yo'lda olgan mollarini sotib, noyob va nodir mollardan sotib olibdi. Oradan to'qqiz yil o'tib ketibdi. Oxiri ular Buxoro tomon yo'lga chiqibdilar. Bir necha oy yo'l yurib, Olimjon qorong'i tushganda Buxoro darvozasi tomonga qirq tuya mol bilan yetib kelibdi. Darvozabon qorong'u tushgandan keyin ulov bilan shaharga qo'ymas ekan. Olimjon tuyalarini darvoza oldida cho'ktirib, o'zi shaharga kirib, hovlisiga yetib boribdi. Ammo hovlisini tanimabdi, darvoza qulflangan ekan, tomga chiqib qarasa uylar antiqa qilib bezatilgan, tillo qandil yonib turganmish. Xotining yonida esa bir yigit yotganmish. Safar endi o'nga chiqqan bo'lsa ham norg'ul yigit bo'lgan ekan.

Olimjon qilichini qinidan sug'urib, uyga bostirib kiribdi. Xotini erini tanibdi-yu, darrov yugurib borib qilichga yopishibdi:

— Otasi, avval surishtirmay, keyin pushaymon bo'lmang. Axir siz ketganda homilador edim, bu o'g'limiz Safar-ku, — debdi.

Olimjon o'g'lini uyg'otib peshonasidan o'pibdi. Xotini unga bo'lib o'tgan voqealarni so'zlab beribdi. Olimjon nodonlik qilib, shuncha yil judolikda yurganiga afsuslanibdi va xotinidan juda ham minnatdor ekanligini aytibdi.

Bundan buyon mol-u dunyoga do'st bo'ladigan jo'ralarga yaqinlashmayman, deb tavba-tazarru qilibdi. Olimjon xotini, o'g'li Safarboy bilan birga yashab, davrini surib, murod-u maqsadiga yetibdi.

Mehnat qo'shiqlari

Qo'sh qo'shig'i

Ola ho'kiz, targ'il ho'kiz,
Shudgor tanobin tortib o'z,
Qo'sh haydaymiz bahor va kuz,
Atrofimiz dala va tuz,
Yur jonivor, xo'sh jonivor.
Qo'sh yotadi Hulkar botsa,
Ish boshlaymiz tonglar otsa,
Qadam tashlab asta-asta
Oldingga bossin payvasta, Yur jonivor, xo'sh jonivor.

Xo'p mayda qo'shiqlari

Mayda desam, xo'p deydi, mayda-yo, mayda, Xo'pga ko'nglim ko'p deydi, mayda-yo, mayda. Mayda qilib bo'lgan so'ng, mayda-yo, mayda. Peshonamdan o'p deydi, mayda-yo, mayda.

Mehmonxonang vassasi, mayda-yo, mayda, Qizil gulning dastasi, mayda-yo, mayda, Aytsam ado bo'lmaydi, mayda-yo, mayda, Maydajonning qissasi, mayda-yo, mayda.

Sog'in qo'shiqlari

Ot oyog'in ot bosar churey-churey,
Oq yuzindan gard bosar churey-churey, Agar shuytib

sog'dirmasang churey-churey, Qassoblar butingdan osar,
churey-churey.

Og'ziginangda o'ting bor churey-churey, Yelinginangda
suting bor churey-churey, Sersoqoling jonivor churey-churey,
Kerilib turgan buting bor, churey-churey.

O'rim qo'shiqlar

O'rim payti — rizq payti, Dangal o'rib tashlaymiz, Istiqlol
shukrin aytib, Davron surib yashaymiz. O'rog'im olmos,
O'rimdan qolmas,

Sira ham tolmas, O'rmasam bo'lmas.

Mavsum-marosim qo'shiqlari

Tog'da toychoq kishnaydi, Ot bo'ldim deb yor-yor.

Uyda kelin yig'laydi, Yot bo'ldim deb yor-yor. Yig'lama qiz,
yig'lama, To'y seniki, yor-yor.

Ostonasi tillodan, Uy seniki, yor-yor.

Tog'dan tutgan archani, Sakkiz denglar, yor-yor. Sakkiz
qizning sardori, Keldi denglar yor-yor. Sakkiz qizning sardori
Biz bo'lamiz, yor-yor. Sakkiz bog'da ochilgan, Gullolamiz, yor-
yor.

O'lanlar

O'lanlarning avval boshi — tamal toshi, To'y oldidan
tortganim so'qim oshi, Hadding bo'lsa, qani kelib o'lan boshla,
Bu elatning man-man degan keksa-yoshi! Baland-baland
tog'larning qori bo'lar, O'ngirida burgut, lochin sori bo'lar,
O'lanchilar manmansirab kerilmaydi,

Er og'asi — mard yigitning ori bo'lar.

Kelin salomlar

Bismillodan boshlaymiz, Oshga piyoz tashlaymiz, Qozon
osgani eringan, O'g'il tug'dim deb kerilgan Salom, salom, yana
salom Avval xudoga salom.

Ko'cha to'la qo'y bergan, Mashina to'la to'y bergan, Salom,
salom, yana salom, Qaynotasiga salom.

Salom, salom, yana salom, Qaynonasiga salom.

Oshga solgan ilikday, Qosh-u ko'zi pilikday Salom, salom,
yana salom, Ovsinlariga salom.

Tomga pichan tashlagan, Orqa-o'ngin qashlagan, Salom,

salom, yana salom, Amakisiga salom.

Marsiyalar

Aytmay desam bo'lmaydi, Dog'ingiz o'ti qo'ymaydi,
Ishongan bog'im, voy otam, Suyangan tog'im, voy otam.
Qaldirg'ochning qanotiga, Qil bog'lagan, voy otam, Borsa kelmas
joylarga Bel bog'lagan, voy otam!

Lirik qo'shiqlar

Havoni bulut bosdi, Oyni ko'rmasam bo'lmas, Yuraklarni
g'am bosdi, Yorni ko'rmasam bo'lmas. Yosh bolalar o'ynaydir,
Tol yog'ochdan ot qilib.

Oshiq yigit yig'laydir, Suyganini yod qilib. Suv kelar guldird-
guldird, Suyganim qizil guldird. Suyganim topilmasa, O'lganim
o'shal kundir. Olma guli gul emas,

Taqsam chakkamda turmas, O'zganing yori yor emas,
Birpas yoningda turmas.

Yorim keladi yashnab, Zar kokilini tashlab, Xipcha belini
ushlab, Shakar labini tishlab.

Termalar

Bizning hovli yo'lingiz, Chimyon alak to'ningiz. Borish-
kelish qilmaysiz, Kimdan qoldi ko'nglingiz. Eshik oldi gulhovuz,
Gul tergali kelibsiz. Gulni bahona qilib, Yor ko'rgali kelibsiz.
Qoshingni qarosiga Xol bo'lay orasiga,

Aslo rahming kelmaydi, Birovning bolasiga.

Qaldirg'och qaro bo'lur, Qanoti ola bo'lur, Yoshlikda bergan
ko'ngul, Ayrilmas balo bo'lur.

Asakaning yo'lida Kallak urgan toli bor. Mening yorim
labida Sedonadek xoli bor. Yoraman, hay yoraman, Yorginam
bo'lsin omon. Bevafo dunyoda do'stlar, O'tgusi yaxshi-yomon.

Askiya

Kunlardan bir kuni mashhur ustoz askiyachi Amin buva,
askiyachi Qodirjon aka do'stlari bilan Ikromiddinnikiga qovun
sayliga mehmonga borishdi. Suhbat davomida quyidagi askiya
tug'ildi:

Qodirjon aka:

— Amin buva, hu anavi oshpazni ko'rdingizmi, qovoq
oshga kerak deyapti.

Amin buva:

— Qodirjon, avval meva-chevalardan olsangiz-chi, darrov qovoqsiz bo'lsin demasdan.

Qodirjon aka:

— Bo'lmasa, yoz mevalaridan siz ham yeb-yeb oling, qovoq oshsiz ketasiz.

Amin buva:

— Ho, Ikromiddin, Ikromiddin uka hoy! Qodirjonni gaplarini eshityapsizmi? Ataylab shahardan chiqib qovoqoshsiz ketmaylik deydilar, oshqovoqdan qovoqosh qilib qo'ya qoling.

Qodirjon aka:

— Ikromiddin, bu yoqqa qarang, bizga pishirishingiz bitta osh, qovoq ham solasiz-a!

Ikromiddin:

— Qodirjon aka, sizlardaqa aziz mehmonlarga atab har xil ovqat qilganmiz: bu — sho'rva, osh qovoqda.

Amin buva:

— Mulla Ikrom, Qodirjon akadan tashvish qilmang, bu kishiga osh qovoqdan olinsa bo'ldi.

Qodirjon aka:

— Amin buva, ajoyib xushfe'l odamsiz-da, indamay olaverasiz: oshga qovoq solinmaydi, deb.

Amin buva:

Siz ham indamay tushiraversangiz-a, qovoqdan osh yaxshi, deb.

Qodirjon aka:

— Siz ham indamay tushiraversangiz-a, oshdan qovoq yaxshi, deb.

Amin buva:

— Siz ham indamay tushiraversangiz-a, qovoq oshmi, osh qovoqmi, deb.

Qodirjon aka:

— Siz ham indamay tushiraversangiz-a, osh qovoqdan yaxshi bo'ladi, deb.

Amin buva:

— Siz ham indamay tushiraversangiz-a, qovoqdan osh

bo'ladi, deb.

Qodirjon aka:

— Nafsi buzuqlik qilib, Ikromiddin pishirgan oshni paqqos yeb tashlasangiz-a, osh qovoqdan ketadi, deb.

Ikromiddin:

— Qo'yinglar qovun sayiliga kelgansizlar, bunaqa sovuq gapirmanglar, qayoqdan ham tansiq ovqat qilaman dedim, biroz u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tiringlar, boshqa ovqat qilaman: qovoqsiz!

Alpomish **(dostondan parchalar)**

Kunlardan bir kun Hakimbek kitob o'qib o'tirib, baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi. Boybo'ribiy shunda o'g'li Alpomishdan:

— Kishi nimadan baxil bo'ladi, nimadan saxiy bo'ladi? — deb so'radi. Unda o'g'li turib aytdi: «Vaqt- bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joyi bor bo'lsa, ko'nglini xushlab jo'natsa, bul odam saxiy; agar joyi bor turib, joy yo'q, ko'ndirmay jo'natsa, bul odam baxil... Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan».

Bu so'zni Boybo'ri Hakimbekdan eshitib, fikr qilib: «Men o'n olti urug' Qo'ng'iro't elining ham boyi bo'lsam, ham shoyi bo'lsam, men kimga zakot beraman. Mening davlatimda yolg'iz inim Boysari baxillikka chiqib ketmasin», — deb, o'z ko'nglida: «Boysaribiy ukam menga zakot bersa kerak ekan» — deb o'yladi. O'ylab o'n to'rt mahramni buyurdi: — Boysariga boringlar, Boysari o'z rozichiligi bilan bir tirraqi uloqni zakot deb menga bersin, zakot o'rniga o'tar-da, Boysari baxil bo'lib, baxillikka chiqib ketmasin.

Boysaribiy o'n ming uyli Qo'ng'iro't eli bilan ko'chib borib, Ko'kqamish ko'lida eliboylik qilib, mollarini semirtirib, yaylovda yayrab yotib edi. O'n ming uyli Qo'ng'iro't elining sop²⁷ degan boyvachchalari bilan yig'ilib, bir yerga jam bo'lib, bir baxmal o'tovni tikib, shu o'tovning ichida hamma boyvachchalar bilan

²⁷ Sop — Zap boyvachchalari, borib turgan boyvachchalari.

qimiz ichib, shag'al mast bo'lib, o'z kayf-safosi bilan o'tirib edi. Ana shunda (otining bo'yniga) tilla qo'tos taqilgan o'n to'rt mahram Boybo'ridan Boysarini so'rab qoldi. Shundagi boyvachchalar bularning kelganini bilib, eshikka chiqib, mahramlarning otini ushlab qoldi. Mahramlarni ichkariga olib kirdi. Boysaribiy bularga joy ko'rsatdi. Mahramlar kelib javob-salom qilib o'tirdi. Mahramlar savolga javob berib, aytdi: — Biz akangdan kelgan zakotchi bo'lamiz, bugun bizlar sening molingni zakot qilamiz. «Zakon qilinglar, bersa zakotini olib kelinglar» — deb yuborgan, — dedi.

Bu so'zni mahramlardan eshitib, Boysari ko'ngliga og'ir olib aytdi: — Ey, bizning molimiz shu vaqtgacha zakot bo'lmagan, endi akamiz o'g'illi kishi bo'lib, darrov bizning molimizni zakot qiladigan bo'libdi-da. Zakot degan gapni eshitib, bu gap botib ketib, oldidagi o'zining odamlariga buyurdi: — Ushla bachchag'arlarni, — dedi.

Boyvachchalar mahramlarni bitta-bitta ushlab qoldi. Yettovining qorniga qoziq qoqib o'ldirdi. U (ettovining) quloq-burnini kesib, o'zlariga yegizib, otiga chappa mingizib, otining ustiga tortib boylab:

«Mana buni zakot deb aytadi», — deb Qo'ng'irot tarafiga qarab haydab yubordi.

Shunchalik ishni qilsa ham Boysaribiyga zakot degan gap nihoyatda o'tib ketgan ekan: «Endi biz o'z elimizda sig'indi bo'lib, o'z akamizga o'zimiz zakot berib (yuradigan bo'lsak), bu elda bizning turgiligimiz qolmadi» — deb o'n ming uyli Qo'ng'irot eliga qarab:

«Endigi maslahat nima bo'ldi?» — deb so'rab, bir so'z deb turgan yeri ekan:

Oh urganda ko'zdan oqar selob yosh, Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh. Barchinoyim bo'y yetgandir qalamqosh, Zolim bilan hargiz bo'lmanglar yo'ldosh. Qo'ng'irot eldan molga zakot kelibdi, Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh!

Qursin Hakimbegi, mulla bo'libdi, Bezakot mollarni harom qilibdi.

Qo'ng'irot eldan molga zakot kelibdi, Maslahat ber, o'n

ming uyli qarindosh! Dardli qul dardimni kimga yoraman,
Ayriliq o'tiga bag'ri poraman.

Munda elga sig'indi bo'p turaman, O'z akamga qanday
zakot beraman?! Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh! Xazon
bo'lib bog'da gullar so'libdi, Shum falak boshimga savdo solibdi.

Boybo'ridan molga zakot kelibdi, Maslahat ber, o'n ming
uyli qarindosh! Xudo deyin, yaratganga jilayin, O'z akamga
qanday zakot berayin, O'z akamga o'zim zakot berguncha,

Boshqa yurtida juz'ya²⁸ berib yurayin, Maslahat ber, o'n
ming uyli qarindosh! Boybo'ridan bizga mahram kelibdi, Zakot
debdi, bir bidahat² qilibdi,

Muna elda men ham bekman, to'raman, Har na qismat
yozilgandan bilaman.

Azaliy taqdirga nimish²⁹ qilaman, O'z akamga qanday
zakot beraman?! O'z akamga o'zim zakot berguncha, Qalmoq
borib juz'ya berib yuraman.

Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh! Sen eshitgin
Boysarining tilini,

Akam bizga minnat qildi ulini³⁰. Sabil qilib ketay **Boysun**
elini,

Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh! Jafo tig'i bugun
jondan o'tadi, Boybo'rining so'zi bizni o'rtadi.

Zakotchilar jabr ko'rib ketadi, Maslahat ber, o'n ming uyli
qarindosh! Boybo'ridan o'n to'rt mahram kelibdi, Zakot degan
gapni ma'lum qilibdi.

Ustima kiyganim yashil-ko'k edi, Bunday so'zlar ilgaridan
yo'q edi. Boybo'ridan bunday so'zlar keb edi, Maslahat ber, o'n
ming uyli qarindosh, Zakot degan bu ellarda yo'q edi.

Ana shunda Boysaribiy bu so'zlarni aytdi. Turgan
xaloyiqdan hech bir sazo chiqmadi. Shu majlisda bir Yartiboy
oqsoqol degani bor edi. Majlisda kun bo'lsa, to'rdan joy tegmay,
piyoladan choy tegmay, bo'sag'aning oldida kavushga joy
bermay, kavush bilan aralashib it yiqilish qilib, poyga betda
yotar edi. To'rda o'tirgan kattaman deb yurganlarning hech

²⁸ Juz'ya — jon boshidan olinadigan soliq; ² bidahat — bid'at.

²⁹ Nimish — nima ish.

³⁰ Ulini — o'g'lini.

bir qaysisidan gap, sazo chiqmagandan keyin, poyga betdan Yartiboy o'rnidan turib, maslahat shulda, deb Boysarining so'ziga javob berib, Boysariga qarab bir so'z deb turibdi:

Maslahat bermaymiz Boysaribiyga, Osilmaymiz Boyburining doriga.

Biring aka, biring uka, Boysari, Maslahatni, shohim, o'zing bilasan. Xudo deyik, yaratganga jilaylik, Nor kesar, olmosni belga cholayik, Shohim, sizga ne maslahat berayik?!

Nodon ko'ngling har xayolga bo'lasan, Muna elda o'zing ulug' to'rasan.

Har na qilsang shohim o'zing bilasan, Maslahat deb o'zing xafa bo'lasan... Boybo'ridan elga zakot kelibdi,

Bu gap senga qattiq savdo bo'libdi, Yartiboy der shunday javob beribdi, Odamlar ko'ngliga og'ir olibdi, Zakot degan gapi o'sal bo'libdi.

Maslahatni, shohim, o'zing bilasan, Bu turgandan so'rab nima qilasan. Biring aka, biring uka, Boysari, Nima bo'lsa bizdan yaxshi bilasan. Sen eshitgin Yartiboy nolishini, Ko'zdan to'kma bunda selob yoshini. Yig'ibsan oldingga qancha kishini, Bilolmadik Boybo'rining ishini.

Maslahatni shohim o'zing bilasan, Biz ham bu gaplarni og'ir olamiz. Og'ir olgan bilan nima qilamiz, Shohim, sizga ne maslahat beramiz?!

Boysaribiy Yartiboydan bu so'zni eshitib, tag'i o'zi turgan odamlarga qarab bir so'z dedi:

Quloq soling Boysarining tiliga, Ko'chib ketay men ham Kashal eliga.

Davlat qo'nsa bir chivinning boshiga, Semurg' qushlar salom berar qoshiga. Banda ko'nar tangri qilgan ishiga, Quloq soling Boysari nolishiga.

Qalmoq borib qo'nsam Chilbir dashtiga... Turarim yo'q Boysin-Qo'ng'irot eliga, O'z elim deb yana bunda turgancha,

O'z akamga o'zim zakot bergancha,

O'z akamdan bunday xo'rlik ko'rgancha, Qalmoq borib juz'ya bersam bo'lmaymi? G'arib bo'lib ko'zdan yoshim tizildi,

Diyda giryon bo'lib bag'rim ezildi, Ichim kuyib, yurak-bag'rim ezildi,

Zakot deydi, mening ko'nglim buzildi. Boybo'ri der bilmaganim bildirdi, Do'st yig'latib, dushmanini kuldirdi. Zakot degan gapni akam chiqarib, Mening toza ulsizligim³¹ bildirdi.

O'z akamga o'zim zakot bergancha, Boshqa yurtida sig'indi bo'p yurayin, Qalmoq borsam, juz'ya berib ko'rayin...

Boysaridan bu so'zni Yartiboy eshitib, Yartiboy ham Boysariga qarab bir so'z dedi:

Ushbu damning damlarini dam dema, Boshing eson, davlatingni kam dema, Sen ketar bo'lsang qalmoq yurtiga, Bul elatni qolar deb ham g'am yema.

Qayga ko'chsang, bizlar birga boramiz, Qaysi elga borsang, birga yuramiz.

Jahonni sayr etib, o'ynab-kulamiz, Bolalarni jahongashta qilamiz.

Qayda borsang, birga-birga boramiz, To o'lguncha sening bilan bo'lamiz, Boybo'rini bizlar nima qilamiz. Hamma ham sendayin ko'zini yoshlab, Zakot deb chiqardi bir ishni boshlab, Qaysi elga borsang, yurgin sen boshlab, Ketarmiz Boysinni bularga tashlab, Boybo'ribiy qolsin ko'nglini xushlab... Xazon bo'lib bog'da gullar so'ladi, Bunda qolgan odam tayin o'ladi,

Fe'li ketib, zakot ham deb turibdi, Qolganning molini tortib oladi, Bul Boybo'ri ajab ishni qiladi, Bul elat sening bilan bo'ladi,

Qayga borsang, birga-birga boradi...

Yartiboy oqsoqolning aytgan so'zi o'n ming uyli Qo'ng'irotd elining katta-kichigining bariga ma'qul tushdi. Hammasi: — Yartiboy oqsoqol rost aytadi, — dedi. — Boybo'rining fe'li ketdi, o'z inisini bilmadi, Boysariga zakot soldi, bu o'z inisidan zakot olsa, bizlardan tortib olsa ham oladi, buning fe'li qaytgani ma'lum: Boysari ko'chib ketsa, bizlarni Boybo'ri sira qo'ymaydi, tortib olsa ham zakotni oladi: endi Boysari ko'chsa, bizlar ham ko'chib ketaylik, Boysari o'lik yerda

— o'lik, tirik bo'lsa — tirik, Boysin- Qo'ng'irotd yurtini Boybo'riga bo'shatib berayik, **Boysun** - Qo'ng'irotd yurtini bir

³¹ Ulsizligim — o'g'ilsizligim.

o'zi yoylab olsin,

— dedi. O'n olti urug' Qo'ng'iro't elidan o'n ming uyli ekin ekmoqni bilmaydigan jiliboylar ayrilib, Boysariga qo'shildi. Bular hammasi boy, qo'yli, tuyali, molining soni yo'q edi, bularning ichidan moli yo'q degan kambag'alining qirq ming tuyasi bor, qo'yning sonini - adadini³² o'zlari ham bilmas edi. O'ra-o'ra, bir qo'ra, ikki qo'ra, o'n qo'ra qo'y, deb sanagani shul edi. Yilqibon mollarini bir uyur falon to'qayda yuribdi, ikki uyur falon to'qay yerda yuribdi, deb edi. Sonini sanamoqni hech qaysisi bilmas edi. Bular qishdan yozga ekin ekmay, mol- boylik qilar edi. Shuning bilan ovqatlarini o'tkazar edi. Boysarining yilqisining soni shul edi: to'qson to'qay yilqisi bor edi. To'qson to'qay degani — yilqisi har yerlarda to'qaylarda, tog'larning darasida, to'qayli yerlarda yoyilib yurar edi. To'qaylarda yilqisi yoyilib yurgani uchun Boysaribiyning to'qson to'qay yilqisi bor, der edi. Lekin yilqisining — molining sonini hech kim bilmas edi. Moli ko'p edi.

Boybo'ribiyning Boysariga zakot ber deganini eshitib, **Boysun**

— Qo'ng'iro't boylariga bu ish juda og'ir keldi. Boysari ko'chsa, biz ham ko'chamiz, — deb hammasi cho'ponlarga, yilqichilarga, tuyachilarga, hamma dahmardalariga ko'chamiz, — deb odam buyurdi. «Bu **Boysun** yaylovidan, bu to'qaylardan qo'ylaringni, tuyalaringni, yilqilaringni — hammasini haydanglar. Qalmoq yurtiga, Kashal eliga qarab yo'l boshlab yura bersin», — deb xabar yubordi. Hammasi Boysin-Qo'ng'iro't elini tashlab Qalmoq yurtiga jo'nab ketmoqchi bo'lib, dobirlashib³³ hammasi birdan, katta-kichik, yosh- qari — bari bir-biriga xabar qilib, ko'cha ber, — deb vag'ir-shag'ir, uylarini buzib, tualarga ortib, ayollari ham o'z yuki-yobini bo'g'ib, bo'g'cha- bo'g'larini chog'lab, to'polon bo'lib, shovqin-g'alag'ur bo'lib qoldi. O'n ming uyli Qo'ng'iro't talato'p bo'lib, Kashal eliga, Qalmoq yurtiga qarab, ha, deb ko'cha berdi...

Qalmoq yurtiga ko'chib borgandan so'ng Barchin Alpomishga xat yozmoqchi bo'ldi.

Barchin o'n ming uyli Qo'ng'iro'tning yigitidan o'n yigitni

³² Sonini-adadini — sonini sanog'ini.

³³ Dobirlashib — shovqin-suron, tapir-tupur.

saylab oldi, otasining to'qson to'qay yilqisidan o'n otni saylab oldi, otlarni sovitib tamom qildi. Shunda shunday arza yozdi Barchin: «Olti oychilik yo'lga keldim, qalmoqning eliga keldim, zo'r yovning qo'lida qoldim, olti oyga muhlat oldim, mendan umidi bo'lsa Alpomish kelsin, bo'lmasa javobimni bersin». Arzani o'n boyvachchaga topshirdi, otlarni egarlab, choqlab, yaxshi bor, deb bir so'z aytib turgan ekan:

Kechani munavvar qilar to'lgan oy, Savashli kun tortiladi parli yoy, Kashalda talashda qoldi Barchinoy, Borsang salom o'ynab o'sgan ellara, Ko'kqamishday mazgil joyim, cho'llara. Qalmoqlar yig'latdi menday sanamdi, Yuragimga to'lgan dog'-u alamdi (r), Albatta, so'ranglar maktab jo'ramdi, Mug'oyib so'z aytar menday mushtipar, Kecha-kunduz shabgir torting xizmatkor Jilovdoring bo'lsin imom, chiltanlar, Boysun yurtida qolgan qavm-u qardoshim. Musofirlik yurtida gangdi boshim,

Menga hamdam bo'lolmadi hech kishim, Mendayin munglikning ko'nglin bo'ladi. Qalmoq bari qayg'u, zulm soladi,

Olti oyga Barchin muhlat oladi, Qalmoq elda musofir bo'p jiladi... Oshiqning fahmidur qorong'u kecha, Yig'lasam, holima yig'lar bir necha,

Kecha-kunduz tinmay yuring, boyvachcha, Borsang salom o'ynab-o'sgan ellarga.

Kecha-kunduz tinmay yo'lni olinglar, Biy boboma bul xabarni beringlar.

Katta-kichik hamma duo qilinglar, Elda qolgan qarindoshni ko'ringlar So'z aytar sizlarga mendayin sanam, Qalmoqda qolmasin guldayin tanam, Qalmoqning zulmidan yig'ladi enam...

Qo'ng'irot elda bordir necha sirdoshim, Hamdam bo'lib birga yurgan yo'ldoshim, Og'a-inim, elimda dengi-dushim,

Xizmat qiling, onson bo'lg'ay bul ishim. Bu so'zni aytib Barchin duo qiladi, Ulug'-katta bari yig'ilib keladi,

Qo'l ochib bularga duo qiladi,

Elchi bo'lib Qo'ng'irot elga jo'nadi. Ot beliga chopar mindi, Barchinning arzasin oldi,

Hamma duo qilib qoldi,

Arzachilar yo'lga kirdi, Qo'ng'irot elga yo'lni boshlab,

Bedov boradi angg'ishlab, Choparlarning ko'nglin xushlab
Qamchi yurgandir qulochlab, Ostidagi arabi otlar

Yo'lda yurar yashin tashlab, Bedov otga qamchi chotdi.
Urgan qamchi simday botdi, Choparlar qistab yo'l tortdi, Necha
adir, beldan o'tdi, Choparlar qilib g'ayratdi, Kecha-kunduz
shabgir tortdi³⁴

Otlar qarsoqday qotgan, to'qson kecha-kunduz yo'l tortgan,
balki choparlar Qo'ng'iro't eliga Boybo'ring davlatxonasiga
yetgan, ot ustidan turib salom berdi. Bularni ko'rib Boybo'ri
aytdi: — Bular qanday odam ekan, beadablik bilan salom berdi
menga.

Choparlar boyagi arizani chiqarib berdi. Arizani o'qib ko'rib
bildi: kelgan Barchinning chopari ekan. O'n mahramni buyurdi,
choparlarni bitta-bitta otdan ko'tarib oldi, choparlarga xizmat
qildi, bu arizani hech kimga bildirmay, olib borib sandiqqa solib
tashladi. Choparlar yigirma kun yotdi, xo'p izzat-ikrom qilib,
qildi ziyofatdi, ko'p qildi xizmatdi. Bergan arizasidan hech bir
shobir³⁵ bo'lmadi. Choparlar jo'naymizga tushdi, choparlarga
zar-zebar in'om berib, xush kelibsan qilib, yo'lga solib, choparga
shunday gap aytib tayin qildi: — Bundan ketgancha, Qo'ng'iro't
muzofotidan o'tgancha, Qalmoq viloyatiga yetgancha, yo bir
o'tinchiga, yo bir podachiga, yo cho'lda yurgan cho'ponga:

«Biz Barchinning kelgan chopari bo'lar edik», — deb
og'zingdan chiqarsang, odam buyuraman, keyiningdan quvib
yetadi, boshingga qamchi chotadi³⁶, badaningni bo'zday qilib
yirtadi, olib kelib dorga tortadi, og'zingdan chiqarmay ketgin...

Bu so'zni eshitib, choparlar: «Sira ham og'zimizdan
chiqarmaymiz» — deb yo'lga kirdi. «Xo'p gapni gapirdi, xohi
bor, xohi borma, bizdan xizmat-da, borgan-bormaganing bilan
nima ishimiz bor, ketsa, sening kelining ketadi, qalmoq olsa,
sening iningning qizini oladi, bizdan ketadigan bir yo'l yurgan
xizmatimiz- da» — deb yo'lga ravona bo'ldi. Bular jo'nab ketdi.
Jo'naganiga ham necha kun o'tdi...

Alpomishning Qaldirg'och degan singlisi bor edi. Qirqin

³⁴ Shabgir tortdi — bedor bo'ldi.

³⁵ Shobir — ovoz;

³⁶ Qamchi chotadi — qamchi bilan uradi;

kanizlari bilan bir sandiqni ochib ko'rayotib edi, bir xat chiqdi: o'qib ko'rdi.

Barchin chechasining xati. «Tunovgi o'n chopar bu xatni olib kelgan ekan, buni bildirmay otam sandiqqa solib qo'ygan ekan. Yuringlar bek akamga borayik, bu xatni berayik, qancha g'ayrati bor ekan, sinayik», — deb Hakimbekning qoshiga keldi. Xatni berdi...

Qaldirg'ochoyim akasiga qarab, bir so'z aytib turgan ekan: ...Mard yigitning moli talash bo'larmi, Er yigitning yorin qalmoq olarmi, Barchin checham talash bo'lib qolarmi, Senday beklar bu³⁷ bexabar turarmi?

Kelar debdi, sendan umid qilibdi. Olti oy qalmoqdan muhlat olibdi, Insof qib badbaxtlar muhlat beribdi. Umid tortib senga arza kelibdi,

Xat ko'tarib o'n boyvachcha kelibdi. Anglamang otama xatni beribdi, Otam xatni bul sandiqqa solibdi, Endi bilib singling olib kelibdi,

Mungluq singling senga arz qib turibdi...

Bu so'zni (Alpomish) eshitib: — Yayov boramizmi esa? — dedi. Qaldirg'och oyim: — To'qson to'qay yilqing bor, yayov borib, mingani oyoq-ulov topmay yotibsanmi? Egar-abzalni olsang, yilqiga Qultoyning qoshiga borsang, ko'nglingga yoqqanini xohlab minib keta bersang, — dedi.

Shunday qilib, kiyintirib keskin qilichlarni beliga bog'lab, Arpali qo'lidan otlana berdi. Alpomishning Alpinboy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan parli sari yoyi bor edi.

«Mabodo dushmanning yurtida yoy tortishadigan kun bo'larmi, odam bilmaydi, kerak bo'lib qolarmi», — deb yoini egarning qoshiga solib oldi.

Qaldirg'och akasini otlantirib, ot anjomini choqlab, yaxshi bor, deb bul so'zni aytib turdi:

Qayda borsang Shohimardon yor bo'lsin, O'nakkimom³⁸, chiltan jilovdor bo'lsin. Dushmanlaring ko'rsa zor bo'lsin,

Sog' borib, salomat kelgin, bek og'a.

Men mungluqman, ko'zda selob yoshimdi (r), Bundan

³⁷ Bu — mazkur o'rinda «bundan» ma'nosida qo'llangan.

³⁸ O'nakkimom — o'n ikki imom.

borib olgin gul buvishingdi, Qo'ng'irotda elda qilgin o'tirishingdi,
Esga olgin menday emikdoshingdi...

Bu so'zni eshitib, Hakimbek Qultoy bobosi bilan,
Qaldirg'och singlisi bilan xushlashib, bir so'z deb turgan ekan:

Men ketarman yorim izlab, Bu jarohat bag'rim tuzlab.
Yolg'izman, bo'taday bo'zlab, Bobom Qultoy, xush qol endi.
Ketsin mendan ohu voyim, Obod bo'lsin, mazg'il joyim, Duo
qilgan, qiblagoyim, Otam Qultoy, xush qol endi, Yor savdosi
keldi g'olib,

Men ketarman boshim olib, Bilman necha kun yo'l yurib,
Qalmoq borarman axtarib, Qalmoq borib yorim ko'rib, Otam
Qultoy xush qol endi...

Toychi viloyatida, Qalmoq muzofotida, Chilbir cho'lida
Murodtepa degan tepasi bor edi, had (ili baland tepa edi, ustidan
qanotli qush uchib o'tolmas edi, har qanday odam chiqib, oyoq
osti qilib ketolmas edi. Shu tepani ko'rib, Alpomish irim chekib:
«Shu tepaga otimni solayin, irkilmay³⁹ tepaga otim chiqib ketsa,
borgandan yorimni olaman, chiqolmasa borib nima qilaman,
borgan bilan bekor ahmoq bo'laman, peshonamni shu yerda
sinab ko'raman», — dedi. Otni tepaga to'g'ri qildi, tuyog'idan...
qirq ming otning duburi paydo bo'ldi. Alpomish ko'nglida yorini
olmasa ham olgancha bo'lib qoldi. Tepaning ustiga chiqib qarasa,
o'n ming uyli Qo'ng'irotda eli ko'rinib turibdi, otni kovdonga
qo'ya berib, tepaning boshida yonboshlab, Boysarining uyiga
tiklab yotabardi...

Qorajon⁴⁰ Murodtepaning ostiga kelib qoldi. Shunda
tepaning boshiga qaradi. Tepaning boshida Yusuf tal'atli,
Rustam sifatli, chopqir otli birov yonboshlab yotibdi. «Bu
bizning Qalmoq viloyatining odami emas, bunday yigitlar

³⁹ Irkilmay — tortinmay (bu o'rinda qiynalmay, to'xtamay ma'nosida qo'llangan)

⁴⁰ Qalmoqlar yurtida to'qson alp-pahlavonlar bor edi. Ularning yettitasi aka-
uka bo'lib, eng kichigining ismi Qorajon edi. Ularning onasi Surxayil kampir
Barchinni o'z o'g'illaridan biriga olib bermochi va qo'ng'irotda- larga ham
hukmini o'tkazmochi bo'ladi. To'qson alp Barchin oldiga borib, turmushga
chiqishini so'raganlarida, Barchin ulardan olti oy muhlat olib, Alpomishga
xat bilan chopar yuborgan edi. Alplar Alpomishning kelishini bilib, galma-
gal yo'l poylashardi. Bu safar Qorajon Alpomishning yo'liga xabar olgani
chiqadi va Alpomishga duch keladi.

Qalmoq yurtida bo'lsa, beklikda, podsholikda bo'lar edi. Ilgaridan ham birdi-yarim ko'zimga tushar edi. Magar qirq chiltan... qavm-qarindoshini tushimda ko'rsatib, meni do'st qilgan, Qo'ng'irotdan kelayotgan Alpomish degan qobil bachcha shul bo'lmasa», — deb Alpomishga qarab, bir so'z deb turgan ekan:

Ostingda yuz alvon o'ynaydi oting, Dushmanni o'rtaydi shohlik shavkating, Yo'l bo'lsin, bekvachcha, qayda borasan? Ostingda bedoving halloslar qushday.

Achchig'ing chillali muzlagan qishday, Norkalla kelgansan, chuyda qo'shmushday, Norkalla polvonim, qaydin bo'lasan?

Yuragingda bordur g'ussa-alaming, Xurjuningda balki qur'on-kaloming, Sipohi satangim, qaydin bo'lasan? Qiyg'ir degan qush o'tirar qiyoda, Jasading bor Rustamdan ham ziyoda, G'ayratingdan shohlar yurar piyoda, Xabar ber bekvachcha qayda borasan? Tepaning boshga senga qarayman,

Borar joying men ham sendan so'rayman. Jamoling o'xshaydi osmonda oyga, Qoshingni o'xshatdim egilgan yoyga, Jasading o'xshaydi bo'z qarchig'ayga, Yonboshlab yotishing ming qo'yli boyga, Boyvachcha sifatlim, qaydin bo'lasan?..

Qorajondan bu so'zni eshitib, Alpomish ham Qorajonga qarab, bir so'z deb turgan ekan:

Meni bilsang Qo'ng'irotlarning og'asi, Boshimda bor edi zardan jig'asi.

Yoz bo'lsa yaylovim Amu yoqasi, Meni bilsang, Qo'ng'irotda elining to'rasi. Ko'kqamish ko'lidan suqsur uchirdim, Suqsurni izlagan lochin bo'laman.

Bog'larim zumraddan, changalim po'lat, Boysindan quyulgan shunqor bo'laman. Boyligidan bedov otni boylagan, Tangqa tashlab Olatog'ni yoylagan, Kambag'ali qirq ming gala haydagan, Shul galada bizning bir moya kelgan, Moyaning yo'qchisi, nori bo'laman.

Qorajon Alpomishdan bu so'zni eshitib, Alpomishning so'zini ko'ngliga og'ir oldi. «Qalmoqlarga kelgan balo bo'laman», — degani Qorajonga botib ketgan edi. «Qanday bo'lsa ham ko'tarilma, loppi o'zbek ekan», — deb Alpomishni sinab, bir

soʻz deb turgan ekan:

Uchirgan suqsuring Oykoʻl koʻribdi, Toʻqson gʻajir oʻrtaga olib turibdi.

Yosh oʻgʻlonsan bekor halak boʻlasan, Gʻajirlar ilojin qanday qilasan?

Bekor halak boʻlib bunda kelasan, Gʻajirlar changida tayin oʻlasan, Holing bilmay sen ham sarson boʻlasan, Har bir soʻzni bunda loppi urasan.

Ular yoʻlga yurgan tentak boʻlasan, Osmondan tushganday boʻlib kelasan, Anglamaysan, koʻtarilib turasan, Lof urib sen ham menga qarading, Moyacham deb soʻngra mendan soʻrading, Soʻrading, moyangdan darak berayin, Bilganimni senga aytib berayin, Namoyang yuribdi Chilbir dashida, Ming besh yuz tillalik ovsar boshida, Koʻrdim toʻqson alpning toy-taloshida, Nar-moyang shu kunda dovriq ustida... Alplar bilan koʻrsang savash qilasan, Ayribil moyangdan sarson boʻlasan.

Bul alplarga nima iloj qilasan, Yoʻliqqan soʻng sen zoʻrligin bilasan, Bekor halak boʻlib bunda kelasan.

Bu soʻzni Qorajondan eshitib, Alpomish koʻngliga ogʻir olib:

«Toʻqson togʻdan oʻtib, buning uchun mehnat tortib, bul qalmoqlarning alpi bilan aralashib qolib, baloga yoʻliqib yurgan ekan, bu qalmoq menga bilib gapirgandir, borib sharmanda boʻlguncha, bormay shu yerdanoq qaytib keta bersammikan», — dedi.

Alpomish koʻngliga ogʻir olganini bilib, tanimagan kishi boʻlib, men seni birovga oʻxshatib turibman, deb Qorajon bir soʻz aytib turgan yeri:

Bildim qoʻngʻirotlik zotingni, Malakdayin suratingni, Qovdon yegan otingni,

Men birovlarga mengzadim.

Moyacham deb soʻrganingni, Galman javob berganingni, Rustam kabi mujgoningni, Men birovlarga mengzadim. Shirin suxanli tilingni, Bilagingdagi zoʻringni.

Panjasi uzun qoʻlingni, Men birovlarga mengzadim. Kallasi katta boshingni, Haq deb chiqqan nolishingni, Burgutday

o'tirishingni Men birovlariga mengzadim. Jasad-u tana to'shingni, Imo bilan kulishingni, Qiyilgan qalam qoshingni, Men birovlariga mengzadim, Bu so'zni eshitib, Alpomish: «Meni sen kimga mengzading», deb bul ham bir so'z so'rab turgan ekan: Bilsang qo'ng'irotlik zotimni Malakdayin suratimni, Qovdon yegan otimni, Qalmoq, sen kimga mengzading? Badbaxt, sen kimga mengzading? Moyacham deb so'rganimni, Galman javob berganimni, Rustam kabi mujgonimni, Ahmoq, sen kimga mengzading? Shirin suxanli tilimni, Bilagimdagi zo'rimni, Panjasi uzun qo'limni, Qalmoq, sen kimga mengzading?

Qorajon aytdi: — Men seni ko'rganim yo'q, sening bilan hamsuhbat bo'lganim yo'q, men ham xotiningga talashib yotgan to'qson alpning biri bo'laman... Qirq chiltan qavm-u qarindoshingni tushimda ko'rsatib, sening bilan meni do'st qildi. Ul sababdan bilaman.

— Do'st bo'lgan bo'lsang esa yaqin bo'lib qolgan ekansan, tepaning ustiga chiqqin, ko'rishayik.

Qorajon aytdi: — Bu tepaning ustiga chiqadigan kamolga yetishganim yo'q, sen tepadan tushgin, men ko'rishayin.

Otni yetaklab, tepadan tushib kela berdi. Qorajon: — Do'stim bilan ko'rishgin, — deb mahramlariga amr qildi. Mahram xalqi nozik keladi, qo'l uchidan ko'rishayotir. Alpomish qalaysan, deb siqinqirab yubordi, mahramlarning panjasi bir-biriga yopishib, qapishib, yanchilib ketdi. Qorajon bilan Alpomish yoydi qulochdi, ikkovi xulqi muhabbat bilan ko'rishdi: — Qalaysan, do'stim, omonganmi? — deb siqinqirab yubordi. Qorajonning yetti qobirg'asi sindi, ishi tindi, tappa tushib yotib qoldi. Alpomish aytdi: — Nima qildi, do'stim?

Qorajon sir bermagan kishi bo'lib: — Bola kunda tutadigan quyonchiq kasalim bor edi, shul vaqt tutib qoldi, dedi. Alpomish aytdi:

— Belgili kasal bo'lsa, tuzalib ol esa. Qorajon aytdi: — Rostingni aytgin, shul ko'rishganingmi, yo urishganingmi?

Alpomish aytdi: Nima qildinglar, urishaman, ko'rishganim edi. — Ko'rishganing shul bo'lsa, urishganing qanday ekan, — deb Qorajon bir so'z deb turibdi:

Qo'lni qisib mahramimni qochirding, Belim qisib qovirg'amni shishirding, Do'stim, sening zo'rligingga qoyilman, Senday beklar Qo'ng'irot eldan keladi, Sho'ri qisgan senga duchor bo'ladi.

Bu senga yo'liqqan qalmoq o'ladi, Sening bilan kim barobar bo'ladi, Ostingda irg'iydi bu arg'umog'ing, Egarning qoshida oltin sadog'ing, Borgandan tegadi bodom qabog'ing, Irg'itsang Boychiboringni, Borgandan olasan Barchin yoringni, O'ldirasan bunda dushmanlaringni, Men ham ko'rdim senday zo'raborimni, G'am bilan sarg'aydi guldayin diydor, Bir nechalar o'z holidan bexabar,

Hech kim bo'lmas sening bilan barobar, Yangi bo'ldim senday polvonga duchor, Bekor ahmoq bo'lib yurur qalmoqlar, Senday zo'rga sira bo'lolmas duchor...

Alpomish Qorajonnikida mehmon bo'lib yotdi.

Qorajon qildi ziyofatdi, yugurib qilib yotir xizmatdi. Erta - merta tong otdi, kun choshka haddiga yetdi. Alpomish turib aytdi:

— Qorajon, bizning bunda kelib yotganimni Boysari ne bilsin, sen Boysarinikiga tomon borib kelsang, bir xabarini bilib kelsang, qizini bizga beradiganday bo'lsa, sovchi bo'lib kelsang, qanday bo'lsa, mening kelganimni bir bildirib kelsang.

Qorajon: — Men qanday ot minib borayin? — dedi.

— Mayli, qanday ot minib borsang.

— Sening oting charchab kelgan, o'zimizning otimni minib bora qolayin.

— Sen o'z otingni minib borsang, hamishagi kelib talashib yurgan qalmoq, — deb ishonmaydi. Belgim shu: mening otimni minib borgan.

Qorajon xayr, deb Boychiborni minib oldi, qamchi bilan qo'yib-qo'yib yubordi, qamchi o'tib ketdi, xonning Chibori lo'killab yo'rtdi... Qorajon sovchi bo'lib boryapti...

Barchin aytdi: — Alpomish kelsa kelibdi-da, Alpomish keldi deb, men Alpomishning etagidan ushlab keta berayinmi? Bu alplar ham umid bilan olti oyga muhlat bergan. Har kim maydonga ot soladi, otini o'zdirgan odam oladi. Har kimning

o'z ko'ngli o'zidan qoladi. Mening to'rt shartim bor, shu to'rt shartimni qilgan kishimga tegaman. Xohi Alpomish qilib olsin, xohi qalmoqlarning biri qilib olsin. Shu so'zimni xon to'ramga aytib bor, — deb bir so'z aytib turgan ekan:

Ot chopsa gumbirlar tog'ning darasi, Botirni ingratar nayza yarasi.

Kelgan bo'lsa Qo'ng'iro't elning to'rasi, Qirq kunlik yo'l Boboxonning orasi. Boboxon tog'idan poyga qilaman,

Ko'zdan yoshim munchoq-munchoq tizdirsa, Qo'shqanotning quyrug'ini suzdirsa, Boboxondan poyga qilib o'zdirsa,

Oti ildam boyvachchaga tegaman, Mendayin oyimning holin bilganga, O'sha yurtdan mehnat tortib kelganga, Dushmanlarga qora kunni solganga, Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga, Men tegaman shul yoyandoz polvonga. Mendayin oyimning holin bilganga, Meni izlab osha eldan kelganga, G'anim ko'rsa qiyomat kun solganga O'sha yurtdan izlab halak bo'lganga, Ming qadamdan tanga pulni urganga, Men tegaman shul qarag'ay merganga, Savash bo'lsa, bul shubonib chiqqanga, Kurash qilib to'qson alpni yiqqanga, Men tegaman nor bilakli polvonga, Shul so'zimni aytib borgin to'ramga,

Zog' ham bo'lsa qo'na bersin gulshanga⁴¹⁴⁶. Bab-barobar qildim yaxshi-yomonga, Men tegaman to'rt shartimni qilganga, Aytib borgin izlab kelgan sultonga,

Otin toblab kela bersin maydonga, Xabar bergin bari qalmoq dushmanga, Talab qilsa, bari kelsin maydonga,

Hech qaysi ham qolmasin-da armonda...

Barchinning poygasiga yig'ilgan ot to'rt yuz to'qson to'qqiz ot bo'ldi. Boychibor bilan to'ppa-to'g'ri besh yuz bo'ldi: Sinchilar besh yuz otdan bo'lagini ko'rib qaytarib yubordi: — Bu otlar bo'lmaydi, bu uzoq yo'l, bu otlar yo'lda qoladi, ichi kuyib bekorga o'ladi, egasi ham sarson bo'ladi, — dedi...

...Alpomishning tanidan Qorajon poygaga bormoqchi bo'ldi... Alpomish chodirda o'tirib qoldi. Qirq besh kunda

⁴¹ Zog' ham bo'lsa qo'na bersin gulshanga — bu o'rinda Barchin: «Menga uylanish niyati bor har qanday kimsa, kim bo'lishidan qat'i nazar, shartlarimni bajarish uchunmaydonga chiqaversin», — demoqchi.

kelar, deb vaqtini xushlab turdi... Poygachilar yo'l yurdi, poygachilarning borayotgani:

Ne qalmoqlar sherday bo'lib, Har yag'rini qirday bo'lib, Besh yuz otli birday bo'lib, Qistab yo'lda to'bichoqni.

Ot boshini qo'yib olar, Yaqin qilmoqqa uzoqni. Ot chopishsa uzoq yo'lga, Bir-biri kirmaydi tilga, Qamchi urib Boychiborga, Qorajon ham borar birga,

Yo'ldosh bo'lgan satta zo'rga. Qorajonni mazax qilar, Sho'xlik qilib o'rtaga olar, Barchin oyimning ustidan Xo'b o'rlashib talash bo'lar, Borayotir lolovlashib,

Galasi daryoday toshib, Bir xili o'tday tutashib, Badbaxt cho'lda ahalashib, Qorajon otini qo'shib,

Bir surinib Chibor turar Endi juda yo'rg'a bo'lar,

Ko'p qalmoqlar hadik qilar: «Kun-bakun yursa ochilar, O'zbekning oti hiylagar». Gumon qildi ko'p qalmoqlar: «Hayvon ham bo'lsa jodugar, Yo'llarning tanobin tortar, Bu otdan hamma bexabar. O'zarmikan shul ukag'ar? Farqlamaydi aqli yo'qlar». Shunday bo'lib yo'l yuradi, Zilning tog'iga boradi. Qalmoq shunday ayriladi, Qalmoq ketdi o'yni o'ylab, Ko'ngliga kelganin so'ylab: «Boboxonga yetarmiz, deb, Tumshuq bilan o'tarmiz deb, Tekis yo'lman ketarmiz», deb, Qorajon ayrilib qoldi, Zil tog'in beliga soldi. Bir yo'la bilan bora berdi... Azamatlar olmos boylar dastiga, G'anim tushar kam davlatning xastiga, Ostidagi Chibor otni o'ynatib, Qorajon chiqdi Zil tog'ining ustiga. Toqqa chiqib Alp Qorajon qaradi, Yo'lda to'zib qalmoq ketib boradi, Bu tog'dan enkayib nomdor jo'nadi, Mazmuni qalmoqlar keyin qoladi. Yo'lning to'tasiman qichib boradi, Necha adir, beldan o'tib jo'nadi... Chu, deydi Chiborga g'ayrat qiladi, Qalmoqdan ilgari ketib boradi, Ko'rinmaydi qalmoqlarning qorasi, Borayotgan Qorajonday to'rasi. Yaqin qoldi Boboxonning orasi.

Boboxon tog'iga yetib Qorajon otga dam berib yotdi. Qalmoqlar tumshuqni aylanib boryapti. Bir nechasi: «Qorajon ko'rinmadi», bir nechasi: «Otlarning to'zonida cho'biri bilan to'balashib yurgandir-da. Qorajon o'zbekning otini baland olgan, u o'zbekning tani bo'lgan, qachon Qorajon hisobda bor, u ham o'zbekning biri bo'lib sarson bo'lgan», — deb

qalmoqlarning oldi hafta — o'n kun deganda Boboxon tog'iga yetdi. Keyin chuvalib, hali ham kelmayapti, juda ham o'ldik, deb boryapti. Ko'rsa, Qorajon Boboxon tog'ida yotibdi, poyga qo'yadigan yerga boribdi...

Boychiborni mingan Qorajonning o'zlaridan tez fursatda o'zib ketganini ko'rgan alplar darg'azab bo'ladilar. Ko'kaldoshning buyrug'i bilan Qorajon va Boychiborni arqon bilan bog'lab, Boychiborning oyog'iga mix qoqib tashlaydilar. Poygachilar uzoqlashganidan so'ng Qorajon qattiq harakat qilib arqonlarni uzib tashlaydi. Keyin otning oyog'ini yechadi va akalarining ketidan ot soladi. Ko'p o'tmay Boychibor oyog'iga qoqilgan mixlarning azobiga qaramay poygada ishtirok etayotganlarga yetib oladi, ulardan bitta-bitta o'za boshlaydi. Oxiri Ko'kaldoshning Ko'kdo'nani bilan kuch sinashadi. Ko'kaldosh poyga davomida Qorajonni urib otdan qulatmoqchi bo'ladi. Ammo Qorajon ham anoyilardan emasdi. Bu voqeani uzoqdan kuzatib turgan Barchinoy Boychiborning poygada o'zib keta olmayotganini ko'radi. Uning oyog'iga mix qoqilganini bilmagan Barchinoy Boychibordan tezroq yugurishni yolborib iltimos qiladi. Ot egasining yori iltimosi bilan yanada harakatga tushadi va poygada g'olib chiqadi.

...Xonning Chibor oti poyganing oldini olib, shashti bilan kelib, baxmal o'tovni yetti marta aylanib, otning tizginini ushlab Qorajon to'xtatdi. Barchinning kanizlari yig'ilib ketdi. Qorajonning otning ustidan olib, gilamning ustiga solib, bardor-bardor qilib ko'tarib, baxmal uyga kirgizib ketdi, qizlar otni yeldirib, sovitib turibdi, olib kelib yakka mixga boyladi, teri qotdi. Barchin kelib, otni ko'rdi. Ko'zlarini ipak ro'mollar bilan surtdi, changi, terin ushatdi. Tuyog'idagi mixlar ozor berib, xonning Chibor oti tappa tushib yotdi. Tuyog'idagi mixlarni ko'rib, Barchin bir so'z deb turibdi:

Mung'oyib yig'laydi menday mushtipar, Ot egasi bu mazgilda bexabar.

O'sal ishlar otga qilgan qalmoqlar, Mening uchun azob tortgan Boychibor, Bu hayvonga dushman qoyil qolibdi, Chin tulpor-da, shu azobman kelibdi, Shuncha jarohatman xizmat

qilibdi, Qirq kunchilik yo'ldan poyga bo'libdi, Shuncha yo'ldan shu jabrman kelibdi. Qalmoq juda qabohat ish qilibdi,

Ko'p azob beribdi xonning dushmani, Po'latni eritar qizlarning dami, Barchinoyim ko'rib o'ylab turadi, Urgan mixi yalpoq tizga boradi, Chorsisin tuyoqqa yozib soladi,

Gul mixlarni tishlab sug'urib oladi...

Bu so'zni aytib, otga mehribonlik qilib banot⁴² to'rvaga yemni ilib, ko'chib borgan qo'ng'irotlar jam bo'lib-yig'ilib, poygaga ketgan qalmoqlar ham kelib, bir kam to'qson alp gurullashib turib, «Alplar bilan o'zbakning polvoni yoy tortishar emish», — deb ovoza bo'lib, hamma tomoshamonlar⁴³ yig'ilib, Oyna ko'liga, Chilbir cho'liga to'lib, yoyandozlik qilmoqchi bo'lib, bu yoy tortishmoqdagi so'zi:

Qizu juvon saf-saf bo'lib turadi, Barchinning ustida talash bo'ladi. Gurullashib necha alplar keladi, Buni ko'rib bir xil qizlar kuladi: «Bir xotin deb bari shunday qiladi, Xotin topmay yurgan sho'rli keladi». Olis yo'lga nishonani quradi, Nishonani urgan odam oladi. Qalmoq alplar beri qator bo'ladi, Men urarman, deydi ko'ngil qiladi, Bir-biriga alplar navbat beradi.

Parli yoyni bir qo'liga oladi, Shiqirlatib endi yoyni tortadi, Yoyning o'qi bu g'uvillab ketadi, Biri pastdan, biri baland o'tadi. Bir xilining o'qi yetmay yotadi, Achchiqlanib yoyni buklab tortadi, Ushlagan parli yoy sinib ketadi, Ikkam to'qson alpi tortib o'tadi. Ko'kaldoshga endi navbat yetadi, Ahmoq qalmoq yoyni qo'lga oladi.

«Barchinoyim bu meniki bo'ladi». Yoyiga Ko'kaldosh o'qni soladi, Nishonaga qarab to'g'ri qiladi. Bor urdim, deb endi yoyni tortadi, Qo'lda yoyi cho'rtta sinib ketadi. Ko'p qalmoqlar pushaymon qip yotadi, Endi navbat Alpomishga yetadi. G'amli kunda tortar edi ohu voy, Bandam desin, rahm aylasin bir xudoy, O'n to'rt botmon birichdandir parli yoy, Parli yoyni shunday qo'lga oladi, Ko'rgan qalmoq bari hayron qoladi, Rabbim deydi, endi yoyni tortadi, Nishonaga o'qi to'g'ri ketadi. Nishonani urgan shunday turadi(r), Bekning yoyi endi omon qoladi. Bu shart bilan qalmoq so'zi bo'lmadi, Ming qadam yerni qadamlab

⁴² Banot — baxmal, duxoba.

⁴³ Tomoshamon — tomoshatalblar, tomoshabinlar.

ko'radi, Tanga puldan bul nishona qiladi, Yoyni qo'yib, miltiq otmoq bo'ladi, Ko'p deb qalmoqlarga navbat beradi, Avval qalmoqlarga navbat keladi. Qalmoqlar nechovi miltiq otadi, Saksonman — to'qsonga o'qi yetadi, Qaysi otsa yo'lda qolib ketadi, Alp Ko'kaldosh juda g'ayrat qiladi, Qalmoqning aytgani sira bo'lmadi. Otgan o'qi hech bir go'rga bormadi, Alp Ko'kaldosh shunday ko'zlab ko'radi. Besh yuz qadam yerga o'qi boradi, Ko'kaldoshning ko'nglidagi bo'lmadi. Qalmoqlardan navbat o'tib boradi, Necha qalmoq xo'p tan berib turadi. Alpomishga tag'i navbat keladi. Bek Alpomish xasta ko'nglin xushladi, Yig'ilgan dushmanning sirin foshladi. Anjom, miltig'ini qo'lga ushladi, Qarab nishonani otib tashladi.

Ko'rib bu qalmoqlar hayron qoladi: «Ilgaridan mashq qip yurgan balodi(r), Ming qadamdan tanga pulni uradi, Bul o'zbek hadisga o'zi balodi(r), Hali yolg'iz ko'p ishlarni qiladi, Har ish ham qo'lidan buning keladi. Kelgan shartning barin udda qiladi, Buning bilan kim barobar bo'ladi?» Barcha qalmoq shu so'zni aytib turadi:

«Bul ham bir alp ekan, juda zo'rabor, Qalmoq yurtida yo'qdir bunga barobar. Mingan oti tulpor ekan Boychibor, Yolg'iz o'zi ko'p ishlarni bitirar, Ko'rgan qalmoq hammasi hayron qoldi, Uch shartning oldini shul o'zbek oldi, Endi shartdan bori bir kurash qoldi...»

Uch shart o'tdi, kurash taraddudini qilib yotibdi. O'n ming uyli Qo'ng'irotdami, qancha qalmoqning odami yig'ilib, Chilbir cho'liga, Oyna ko'liga tomoshamon to'lib, rasta-rasta, dasta-dasta qur tortib o'tirdi. Tomoshamonlar: «Kurashini ko'ramiz. Toychixonning alpi bilan Qo'ng'irotdan kelgan o'zbeklarning alpi kurash qiladi, kurash juda qiziq bo'ladi, kurashda qaysisi zo'rlik qilsa, o'zbekning qizini oladi», — deb bari jam bo'ladi. Ko'kaldosh bosh bir kam to'qson alpi bilan bir tarafdin qator bo'lib o'tirdi. Alpomish bilan Qorajon bir tarafdin o'tirdi, o'rtada ancha yerni ochib qo'yib, changigan yerlarga suv urib, Qorajon o'rnidan turib, bir xil kiyimlarni chechib qo'yib, kurash kiyimini kiyib, belini bo'g'ib shunday aylana berdi. Qalmoqlar aytdi: «O'zimizdan chiqib Qorajon ham balo bo'ldi. Mudom

o'zbekning yordamini oldi». Bu yoqdan Qo'shquloq alp degan alp maydonga kirdi. Bu alplarning kurashayotgandagi so'zi:

Jafolarga tushib endi tanda jon... Taraf tortib bu maydona Qorajon. Qalmoq bari Qorajonga qaradi,

«Bu Qorajon bir baloni qiladi, O'zimizdan bizga yov bo'p qoladi» Qorajonning bir akasi bo'ladi,

Taraf bo'p Qo'shquloq polvon jo'nadi,

«Qani men ham Qorajonni ko'ray deb, Juvonmargni bilganimday qilay deb, Boshimdan oshirib yerga uray», — deb,

Chechinib bu qalmoq keldi maydonga, Qorajonga alplar taraf qiladi, Qo'shquloq ham shunday bir zo'r balodi(r), Kurashda, ta'rifi shunday bo'ladi: Shomurti shoxalab har yoqqa ketgan, Uchida sichqonlar bolalab yotgan, Izdan tushgan pishak oltoyda yetgan, Shunday qalmoq qo'lin bulg'ab keladi, Qorajonbek xasta ko'nglin xushladi, Juppay qilib yoqasidan ushladi, Do'stamon qip uni qoqib tashladi, Qo'shquloqning shunday aqli shoshdi, Qumni qopib endi yerga yopishdi, Yana ham bir qalmoq keldi maydonga, Odam tushmas¹ buning aytgan tiliga, Besh yuz quloch arqon yetmas beliga, Duchor bo'ldi Qorajonning qo'liga, Ushlagandan otdi Chilbir cho'liga, Ko'tarilib tag'i qalmoq kiradi, Qorajonbek o'zi yolg'iz turadi, Bunga duchor bo'lgan qalmoq o'ladi... Qorajonbek: — Baring kel, — deb turadi, Ikkam to'qson alpni nobud qiladi, Bu alplardan bir Ko'kaldosh qoladi, Alp Ko'kaldosh yolg'iz o'zi qolibdi, O'zga alplarning bari o'libdi, Qorajon bariga g'olib kelibdi, Kun namozgar, endi kech bo'p qolibdi, Kurashga ul zamon javob bo'libdi, Odam tarqab mazgiliga boribdi... Tong otganicha maslahatda bo'libdi... Bir oqshomni shunday qilib o'tkizdi, Namoz vaqti ertamertan tong otdi, Choshkada yig'ilib ketganlar kepti... «Kurash qiziq bo'lar», — deb ham turibdi, Kechagiday bari kelib saf tutdi.

Shunda ketgan tomoshamon bari yig'ilib, «Kechagidan ham bugun qiziq bo'lar, alplarning zo'ri olishar», — deb turdi. Kecha qanday bo'lsa, bugun ham shunday bo'lib o'tirdi. Qorajonga Alpomish turib aytdi: — Bugun tushmaysanmi, maydonga bugun talab qilmay turibsan?

— Bunga ham tush desang, tushaman, tushgan bilan bundan omon topmayman, lekin bu haddili zo'r, bunga tushsam,

ikki boshdan o'lamani. O'zim o'lgandan keyin sening bergan davlatingni nima qilaman. Bizning siri holimiz bir-birimizga ma'lum, ilgaridan ham to'qayda ayiqday olishib yotgan odam edik, ularni ilgari ham yiqitar edim, endi... ushlagandan otib yuborayapman, qanday bo'lsa bir qalmoq qolibdi, bunga tushib o'lgandan bir nima chiqarmi, g'ayrating bo'lsa, ko'rsat endi, — deb turibdi.

Alpomish chechinib: — Xayr, unday bo'lsa, deb maydonga talab qila berdi. Ko'kaldosh alp turib aytdi: — O'zbek! Sen bunday bo'yni yo'g'onlik qilma, g'aribi go'riston bo'lib o'lma, hali ham qo'ygin, yoringdan umid qilma, halak bo'lib kelgan yo'lingdan qolma, shu alplar o'lsa, o'lsin, o'zbekning qizi bechatoq bo'lib yolg'iz o'zimga qolsin, deb turib edim, seni ilgaridan ham hisob qilganim yo'q edi.

Bu so'zni eshitib Alpomish Ko'kaldoshga qarab, bu ham bir so'z deb turgan ekan:

Har kim o'z eliga bekmi, to'rami, O'zi o'lmay kishi yorni berami?

Buncha so'zni lof urmagin, sen qalmoq, Kel endi maydonga turgin, yo ahmoq... Bu so'zni Alpomish aytib turadi.

Achchiqlanib bu Ko'kaldosh turadi. Chechinib, shu zamon belini bo'g'ib, Minorday bo'p⁴⁴ bu maydonga kiradi. Ko'rgan odam bari hayron qoladi,

Biz bilmaymiz qanday zamon bo'ladi. Ikkovi maydonda aylanib turdi.

Tomoshamon ko'z yugurtib tikildi. Hamma bu alplarga tiklab turadi, Sherday qaysar qo'l bulg'ashib keladi, Tuproqlar changiydi, to'zon bo'ladi, Ikkovi belma-bel bo'lib oladi.

Belma-bel olishsa ayrit bo'ladi.

Zo'r deganing ma'lum bo'lib qoladi. Shunday bo'ldi anga haqning farmoni, Ko'p bo'ladi g'amli qulning armoni. Harchandki chirpindi Boysinning xoni, Yiqmoqqa kelmadi bekning darmoni, Zo'r ekan Ko'kaldosh juda bema'ni, Zo'r qilib, ingranib shundayin shunqor, Ko'kaldosh ham bo'ldi xonga barobar, Shudgordayin bo'lib qoldi bu yerlar, Juda ham olishdi bu ikki qaysar...

⁴⁴ Bo'p — bo'lib.

O'n ming uyli Qo'ng'irotni qizlari bilan, Barchin kanizlari bilan tomosha qilib, bularning olishganini ko'rib, Hakimbekka qarab bir so'z deb turgan ekan:

Ochilar bahorda bog'larning guli, Gulni ko'rsa mast bo'p sayrar bulbuli. Narmoda bo'libsiz biy bobom uli, Yiqolmasang, bizga bergin navbatdi, Juda keldi Barchin yoring g'ayrati, Ushlagandan ko'kka otmay ne bo'пти? Yiqolmasang, to'ram navbat tilayin, Erkak libosini o'zim kiyayin,

Bor kuchimni bilagima jiyayin, Bu qalmoqni pora-pora qilayin, Bu so'zlarni aytdi gul yuzli dilbar, Ikki polvon bo'lib turur barobar,

Ko'p so'zlarni Barchin suluv aytadi, So'zi Alpomishga botib ketadi,

Jafo tig'i bu kun jondan o'tadi, Ayрилиq xanjari bag'rin yirtadi, O'tdayin tutanib shunqor ketadi, G'ayrati g'ayratga bekning yetadi. Yor so'ziman sherdil bo'lib ketadi, Chirpib Ko'kaldoshni ko'kga otadi, Ancha yer havoga chiqib ketadi.

Xaloyiqlar ko'kka boqib qaradi. Olchi-chikka bo'lib shunday aylanib, Alp Ko'kaldosh bu osmondan keladi, Kallasiman kelib yerga uradi...

Shunday bo'lib Ko'kaldosh ham o'ladi... To'y bo'ldi Barchin oyimcha,

Olmoqchi Hakim bekvachcha, Yig'ilishgan satta norcha, Ko'pkarini chopib yotir Aralashib sop boyvachcha.

To'y beradi ko'p kungacha, Ulog'iga talashib turur Katta serka ola pocha.

Behad qo'y-u so'qimlarni so'yadi, Kunda hamma qolmay oshga to'yadi, Kuniga uzmasdan uloq beradi, Chiqarganlar⁴⁵ tanga-tilla oladi, Chavandozlar katta unum qiladi, Qirq kungacha uzmay to'yni beradi, O'yinchi nag'magar — bari keladi, O'zbek shoirlari aytib turadi,

Kelgan odam sira quruq qolmadi, Hammasi ham ancha narsa oladi, Qirq kundan qay to'ylar axir bo'ladi, Bir nechalar uyga tarqab jo'nadi...

Shunday bo'lib, bu orada qirq kun o'tdi, qirq kungacha

⁴⁵ Chiqarganlar — bu o'rinda uloqda, ko'pkarida g'olib chiqqanlar ma'nosida qo'llangan.

maslahat qilib yotdi. Qirq kundan keyin maslahatni bir yerga qo'yib, Boysari qoldi. O'n ming uyli Qo'ng'irot Barchin bilan ketmoqchi bo'ldi. Barchinni uzatmoqchi bo'lib kuyovga, «Erga ko'rsatdi» degan rasmlarini qilib, bir qo'yni so'yib, choshka vaqtida uyga chaqirib, yaxshi sarpoylar Hakimbekka yopib, Barchinni uzatayotgandagi so'zi:

Chechanlar eplaydi gapning epini, Shu zamonda besh yuz norni cho'karib⁴⁶, Ortadi Barchinning qilgan sepini, Barchinoy yig'laydi ko'nglin bo'ladi, Enasiman otasiga qaradi, Qarab tursa elat ko'chib boradi, Suyanchi yo'q, ota-ona qoladi, Bular qolishiga Barchin yig'ladi, «Ota ne bo'ldi?» — deb zo'rlab qaradi, Quloq solmay Boysari o'rlab turadi.

Bir yo'rg'a ustiga Barchin minadi, Barchinoyim endi ketib boradi... Boychiborni Hakimga olib keladi, Qorajonman Hakimxon otlanadi.

Bedov mingan ot-abzalin shayladi, Kelganlar eliga talab ayladi, Cho'ponlar qur-haytlab qo'yni haydadi, Eliboylar qilib yotir dovriqni, Haydadi cho'ponlar chori, sovliqni, Kashaldan Boysinga talab ayladi, Kelgan elat bundan ko'chib boradi...

Bolalar folkloridan namunalar

Bir, ikki, uch, to'rt, Besh, olti, yetti, sakkiz, To'qqiz, o'n... O'n-u o'n, Tulkiga to'n,

Tulkining to'nining bahosi, Bir-ikki so'm!

Bir anor, ikki anor; Uch anor — uchginasi,

To'rt anor — to'rtginasi. Besh anor chambarda, Oltisi omborda...

Alag'ay-palag'ay, Uchdi-yu ketdi! Bir tup tut, Tutning tagida Bir tup turp.

Tut turpni turtib turibdimi? Turp tutni turtib turibdimi?

Boychechak Boychechagim boylandi, Qozon to'la ayrondi, Ayroningdan bermasang, Qozonlaring vayrondi.

Qattiq yerdan qazilib chiqqan boychechak, Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak! Boychechakni tutdilar, Tut yog'ochga osdilar. Qilich bilan chopdilar, Baxmal bilan yopdilar.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak, Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak!

⁴⁶ Cho'karib — cho'kka tushirib.

Laylak keldi yoz bo'ldi Laylak keldi yoz bo'ldi, Qanoti qog'oz bo'ldi.

Laylak boradi toqqa, Quloqlarida halqa.

Halqasi tushib qoldi, O'tirdi yig'lamoqqa:

–Men Bibi hoji edim, Qizlarga boshchi edim.

Qizlar o'yin tushganda, Men nog'orachi edim.

Bir kun nog'oram buzildi. Tanoblari uzildi, Qorbuving dastidan Qanotlarim suzildi.

Oq terakmi, ko'k terak (aytishma o'yinlar)

— Qamar, qamar qamchini, Qovurg'aning yanchini.

Oq terakmi ko'k terak? Bizdan sizga kim kerak?

— Kichkina Salim kerak.

— Biz boyagi hovlida, Bo'lib tarafma-taraf, Navbat bilan aytishdik, Taraf-tarafa qarab,

Oq terakmi, ko'k terak? Bizdan sizga kim kerak?

— Bizga kerak maktabda Eng a'lochi Alisher,

Oq terakmi, ko'k terak? Bizga Alisher kerak.

Marosim folkloridan namunalari

Sust xotin

Sust xotin, suzma xotin Ko'lankasi maydon xotin! Yomg'ir yog'dir, ho'l bo'lsin, Yer-u jahon ko'l bo'lsin, Maysalar quloq yozsin,

Sut-u qatiq mo'l bo'lsin. Naqorat:

Yomg'ir yog'dir, ko'l bo'lsin, Qurg'oqchilik yo'q bo'lsin, Arpa bug'doy bosh tortsin, Kayvonilar osh tortsin.

Yomg'ir yog'dir ho'l bo'laylik, Biz ham senga jo'r bo'laylik. Ko'klamda o'ynab-kulib

Ham sho'x-u ham zo'r bo'laylik. Naqorat:

Yomg'ir yog'di, do'l bo'ldi! Yer-u jahon ko'l bo'ldi!

Shaftolilar barg yozdi Dunyo to'la gul bo'ldi. Sust xotin, suzma xotin.

Yo Haydar

Haydar ota-onang o'libdir, Moli senga qolibdir.

Bolang suvga oqqandir, Shamolingni qo'yvor.

GLOSSARIY

Abas – behuda, bekorga, befoyda.

Abgor bo'lmoq – xarob bo'lmoq, yomon ahvolga tushmoq, nochor bo'lmoq.

Abjil – epchil, chaqqon.

Abjush – quyma, yetti marta eritib quyilgan qattiq jism.

Abro' navbahor – bahor buluti, ko'klam bulutiday.

Abyot – bayt, she'r.

Adad – son-sanoq, chek, miqdor.

Aftoda – darmonsiz, zaif, ahvoli xarob kishi.

Akobir – ulug' kishilar, eng hurmatli zotlar. **Al** – qo'l.

Alam – tug', bayroq.

Alhosil – shundan keyin.

Andalib – bulbul.

Andiz – ko'kati iste'mol qilinadigan o'simlik.

Angushtarin – uzuk.

Aqrab – chayon. Folklor asarlari hamda mumtoz adabiyotda ma'shuqaning qoshi chayonning egilgan nishiga o'xshatiladi.

Aqrabo – yaqin qarindoshlar, eng yaqin kishilar.

Arg'umcha – arg'imchoq, arqon.

Arganak – panjara, g'ov.

Arsh – osmonning eng baland joyi, eng yuqori maqom.

Arvat – xotin, ayol.

As'hob – do'stlar, o'rtoqlar; Muhammad payg'ambarni ko'rgan, uning payg'ambarligini tan olgan va dastlab islomni qabul qilgan kishilar, sahobalar.

Ashk – ko'z yoshi.

Atrof-jonib – tevarak-atrof.

Axtar – yulduz.

Ayrit – aniq, ma'lum.

Azmi roh – katta yo'l.

Bad olmoq – shubha qilmoq, ishonmay qaramoq.

Badrak – qul, xizmatkor, yetim.

Bakovul – oshpaz yoki oshxona boshlig'i.

Bakovul – to'y-hashamlarda taom tayyorlovchi oshpaz,

dasturxonchi, kurash, poyga, ko'pkari kabi musobaqalarni boshqaruvchi kishi, qadimda hukmdorlarga ovqat tayyorlash ishiga bosh-qosh bo'ladigan va taomni avval o'zi tatib ko'radigan kishi.

Balli – belgili, ma'lum.

Baydoq – bayroq.

Bismil – so'yilgan, bo'g'izlangan.

Bo'yla – bunday, bunaqa.

Borgoh – xon saroyi, maxsus ijizat bilan kiriladigan joy, podshoh qabulxonasi.

Bosturqi – yaydoq ot ustida yopib qo'yiladigan qalin mato, "bostiriq" deb ham yuritiladi.

Boyakbor – birdaniga, bir martada, to'satdan.

Boz – yana, tag'in.

Buqcha – kiyim-kechak va boshqa matodan tayyorlangan narsalarni o'rab tugilgan qiyiqcha, tuguncha.

Burov – duradgorlarning yog'och yoki taxtani teshishda ishlatadigan ish quroli, teshuvchi asbob.

Burunch – guruch.

Buytib – bunday etib, bunday qilib.

Behbud – yaxshi bo'lish, salomatlik; yaxshilik tomonga o'zgargan, sog'lom, xushhol.

Behroq – yaxshiroq, durustroq, afzalroq.

Beriyo – ikkiyuzlamachi, munofiq, riyokor, qallob odam.

Beyik – baland, yuqori.

Chaga – qum, barxanning qumi.

Chalpak – xamirni yupqa qilib yoyib yog'da pishiriladigan

Chang so'z – ovoza bo'lgan gap-so'z.

Chanli – qadar (-gacha qo'shimchasiga ma'nodosh so'z).

Chavkon//Chavgon – uchi egri qilib tayyorlangan maxsus tayoq bo'lib, shu tayoq va to'p bilan ot ustida o'ynaladigan jamoaviy sport o'yini.

Chiqon – dugona, tengdosh qiz.

Chitmoq – chimirmoq.

Cho'g' – ko'p.

Cho'ntiq – mayib, jismoniy kamchilikka ega bo'lgan,

to'mtoq.

Cho'rak – xamir qorish paytida unga sut, yog' qo'shib pishiriladigan uy noni.

Chobuksuvor – tez chopuvchi, ildam, mohir chavandoz.

Chopovul – XIV – XIX asrlarda O'rta Osiyoda dushman tomonga qo'qqisdan hujum qilib, uni parokandaga uchratishdan iborat harbiy usul nomi sifatida qo'llanilgan bu tarixiy harbiy atama "dushmanga to'satdan hujum qilib, o'lja keltiruvchi suvoriylar guruhi" ma'nosida ham qo'llanilgan.

Chori – to'rt yashar qo'y.

Choroyna – to'rt parcha temirni biriktirib yasaladigan harbiy libos bo'lib, zirhli kiyim ustidan ko'krak va yelkaga taqiladigan bu himoya moslamasi o'q va tig' zarbidan saqlanish uchun badanga o'rab bog'langan.

Choshmoq – adashmoq, yanglishmoq.

Cherik – qo'shin, lashkar.

Dahboshi – o'nta navkarga boshchilik qiluvchi, o'nboshi.

Dali – devona, jinni, tentak; bebosh, asov, quv.

Darband – o'tkil, dovon, oshuv, bel.

Dastor –salla.

Davir – otning belidan sag'risigacha yopiladigan yopiq.

Dayrabot – past tekislik, daryoning atrofi.

Dildoda – ko'ngil ovlovchi.

Diri – tirik

Do'g'ma – cho'ridan bo'lgan o'g'il.

Do'ramoq – tug'ilmoq, dunyoga kelmoq.

Do'vsar – devga monand, bevga o'xshagan, boshi devning boshiday bo'lgan pahlavon.

Domangir – da'vogar, birovdan ginasi, xafa bo'lgan joyi bor kishi.

Dovul//Dobil – ilgari ovchilar, to'pchi qorovullar hamda harbiylar uchun mo'ljallangan, teridan yoki po'latdan yasalgan maxsus nog'ora. Jang paytida maxsus kishilar – dovulbozlar ana shu nog'oralarni chalishgan.

Doyi – tog'a.

Dudala – dudala bo'lmaysiz.

Duyum – ikkinchidan, ikkilamchi.

Degra-dosh – tevarak-atrof.

Ehrom – hajga boruvchilarning maxsus kiyimi, nina tegizilmagan ikki parcha gazlamaning biri bo'yin va chap elkaga, ikkinchisi tananing beldan pastki qismiga o'raladi.

Elanmayin – yalinmayin.

Farsah – xalqimiz orasida qo'llanilgan masofa o'lchovlaridan biri bo'lib, eskicha hisobda "bir tosh" yoki "sakkiz chaqirim", yangicha hisobga ko'ra esa 6 km.ga teng masofa o'lchovi; "farsang" deb ham yuritiladi.

Fatorat – tarqab ketmoq.

Firdavs – bog', jannat bog'i.

G'oli – gilam.

G'ul – aybdorning bo'yni va oyoqlariga kiygizib qo'yiladigan temir kishan.

Gajakdor – gajagi bor, zulfli, gajakli.

Gala – boquvchi qaydalgan tuyalar to'pi.

Ganda – yomon.

Gaza – tog'ning ikki cho'qqisi oralig'i.

Gazik – bora, marta.

Gum – daryo yoki soy kabi oqadigan suvning eng chuqur joyi, chuqurlik.

Gurji – jussasi kichik kuchuk.

Gurt – bo'ri.

Hamnishin – suhbatdosh, hamsuhbat.

Hisor – qal'a, qo'rg'on.

Hovva – ha.

Hovzi kavsar – jannat bulog'idan hosil bo'lgan hovuz.

Ilg'or – qo'shinning oldingi qismi, avangardi.

Ilki – qo'li.

Ishjo – shijoatli

Istionat – suyanish, tayanch, dalda, dalil.

Izolanib – uyalib.

Jangg'ildi – adashdi.

Jangg'irdi – yangradi.

Javhar – qimmatbaho tosh, eng qimmatli, bebaho narsa;

qimmatbaho toshlarning umumiy nomi.

Jayilma – daryo yoki soyning suvi yoyilib keng boʻlib oqadigan joyi.

Jaynamoq – yashnamoq.

Jazaba – oʻzini yoʻqotish darajasidagi asabiylik holati.

Jazoyil – miltiq turi, engil toʻr.

Jazoyil – miltiqning bir turi, kichik toʻp.

Jigʻa – bosh kiyimida taqiladigan, ukpar va boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezatiladigan ziynat buyumi.

Jovidon – boqiy, abadiy, doimiy.

Jubba – koʻylak bichimida tikiladigan keng yengli paxtalik ustki issiq kiyim.

Jununvash – telbanamo, jinniga oʻxshash.

Jelak – ikki yengining uchi tikilib va oʻrtasidan ip tasma bilan tutashtirilgan, bosh va elka qismiga kashta tikilgan ayollarning astarsiz yaktaksimon ustki yopingʻichi.

Jez – mis, rux va qalay qotishmasidan hosil boʻlgan metall.

Kacha – kigiz, namat.

Kaj – egri, qiyshiq, teskari, chappa.

Kajava – uy hayvonlari ustidagi soyabonli oʻtirgʻich; ot, xachir, fil, tuya kabi hayvonlar ustiga yoki yoniga oʻrnatilgan va odam olib yurishga moslashtirilgan oʻrindi.

Kajrav – teskari yuruvchi, qingʻir-qiyshiq, egri, teskari, notoʻgʻri ishlarni qiluvchi kishi.

Kallapoʻsh – doʻppisimon shaklda tikilgan bosh kiyimi, doʻppi.

Kalon – katta, ulkan.

Kant – qishloq, manzilgoh.

Kapsan – dehqonlar xirmon koʻtarganda choshdan ulush olish; gʻalladan ulush olishda ishlatiladigan idish.

Kas – kishi, odam, shaxs.

Kavkab – yulduz.

Kirovka -- sovut ostidan kiyiladigan, metallardan yoki boshqa qattiq narsadan tayyorlangan nimchaga oʻxshash kiyim.

Kishvar – mamlakat, oʻlka, viloyat.

Koʻkan – qoʻzi-uloqlar qator qilib bogʻlab qoʻyiladigan

ilmoqli arqon.

Ko'kpar – ko'pkari, uloq.

Ko'luk – yuk tortuvchi jonivor, ot-ulov.

Ko'pchik – egar ustiga qo'yiladigan maxsus yostiq.

Kon – ko'p, mo'l.

Kuffor – kofirlar.

Kulli – hamma, barcha.

Kuma – erto'la.

Kundal – zar iplar bilan to'qilgan qimmatbaho mato.

Kurdi a'zam – bu birikmaning lug'aviy ma'nosi "behisob kurd lashkari" demakdir. Doston matnida "son-sanoqsiz, behisob lashkar" ma'nosida qo'llanilgan.

Kus – katta nog'ora.

Kushod – ochiq, ochilgan, bo'shatilgan; ochilish, bo'shash.

Lachak – oq doka yoki surp matodan tayyorlangan kekxa ayollar bosh kiyimi.

Lak – qadimda qo'llanilgan miqdor o'lchov birliklaridan biri bo'lib, "yuz ming" degan ma'noni anglatgan, ya'ni bir lak – yuz ming demakdir.

Lo'k – katta gavdali yirik erkak tuya.

Losh – o'lgan narsaning jasadi, o'limtik.

Lungi – hammomga kirganda tananing beldan pastki qismini berkitish uchun o'raladigan yoki son va belga bog'lanadigan mato.

Mag'oliba – ustun kelmoq, g'alaba qilmoq.

Mahofa – ayollar tushib yuradigan, atrofi o'ralgan kajava.

Mahosil – mo'ylovdor kishi, shop mo'ylovli sarboz.

Mangzar – o'xshar.

Manozil – manzillar.

Mardi zanon – erkak va ayol.

Matamoq – qoramol, eshak, ot, qo'y yoki echkilarni bo'ynidan tirtashtirib bog'lab qo'ymoq.

Matlab – tilak, istak.

Mirg'azab – mahbus va bandilarni jazolaydigan mirshab, kaltaklab tergov qiladigan navkar, zindon nazoratchisi.

Miroxur – qadimda O'rta Osiyo xonliklarida

saroy otxonalariga boshchilik qilgan mansabdor, bosh otboqar.

Miskin – bechora, faqir, gʻariblikdan ogʻir ahvolga tushib qolgan, baxtsiz kishi.

Mohi – baliq.

Mohitobon – ravshan nur sochuvchi oy.

Mor – ilon.

Mosuvo – undan boshqa, boʻlak; butunlay mahrum boʻlgan, judo boʻlgan, ayrilgan.

Moya – urgʻochi tuya.

Mujdahid – xushxabar etkazuvchi, suyunchli xabar beruvchi.

Mukarrar – qayta-qayta, ust-ustiga, takror-takror.

Murchamiyon – chumoli beliday ingichka bel.

Murt – moʻylov.

Murtazo – tanlangan, saylangan.

Muxannas – xunasa.

Muzofot – viloyat.

Muztarib – iztirobda qolgan, qarorsizlangan, rohatsizlangan, tinchi yoʻqolgan, hayajonli ahvolga tushgan.

Megʻan – menga.

Mehtara – suv solinadigan mesh, sanoch.

Nagʻmador – sozanda.

Nahor – dostonida bu soʻz “nonushta”, “taom” maʼnosida qoʻllanilgan.

Narmoya – xalq orasida bu soʻz nomardlik qilgan, oʻz lafzidan qaytgan kishiga nisbatan ishlatilgan boʻlib, “xunasa” maʼnosini bildiradi.

Navozish – yaxshilik qilish, ardoqlash, iltifot koʻrsatish, siylash, marhamat qilish, mehribonlik, erkalash.

Nayrangboz – hiylakor, koʻz bogʻlovchi, fokus koʻrsatuvchi.

Nokom – maqsadiga etmagan, bebahra, mahrum, nochor, noiloj.

Noyib – o‘rinbosar, yordamchi.

Noymit – epchil, chaqqon, uddaburon; mug‘ombir.

Nek – yaxshi, go‘zal.

O‘kcha – oyoqning tovon qismi.

O‘kuz – ho‘kiz.

Odog‘li – unashtirilgan, atab qo‘yilgan, atashtirilgan.

Og‘och – yog‘och, daraxt.

Oq moya – oq tuya.

Oshoq – quyi, past.

Otaliq – qadimda xon saroyida hukmdor maslahatchisi lavozimidagi kishi; gap-gashtak va to‘kma o‘tirishlarini boshqaruvchi

– bekning yordamchisi.

Palang – qoplon, yo‘lbars.

Paraxat – rohat, farog‘at, osoyishtalik.

Parcha – zar ip aralashtirib to‘qilgan qalin mato, kimxobning bir turi.

Paykon – kamon o‘qi, kamon o‘qining uchi, o‘q uchidagi metall tig‘.

Payom – xabar, darak.

Po‘ta – matodan qilingan belga bir necha marta aylantirib o‘raladigan belbog‘.

Porso – yomon ishlardan o‘zini saqlovchi, xudojo‘y kishi.

Poy – oyoq.

Poylab berdi – bo‘lib berdi, ulashib chiqdi.

Purxun – dardchil, dardga to‘la, qonga to‘la.

Qalamro‘yi – o‘z ixtiyorida bo‘lgan, y a ‘ n i o‘zining hukmronligi hududidagi yerlari.

Qarchig‘ay – kalta qayrilma tumshuqli, tirnoqlari uzun va o‘tkir, ovga solinadigan yirtqich qush.

Qarqara – qizlar boshiga taqishi uchun qushlarning pati qadab tayyorlanadigan bezak buyumi.

Qasaba – uzun dokadan ayollar boshiga baland qilib o‘rashi uchun qo‘yiladigan maxsus tutqich va unga o‘ralgan ro‘mol.

Qo‘ch – qo‘chqor.

Qoralaman – qora olaman.

Qoraldi – qoraydi.

Qorovul – qo‘shinning oldida boradigan alohida guruhi, avangardi. Ularning asosiy vazifasi qo‘riqchilik xizmatini bajarish, harakatdagi qo‘shinning oldida nimalar bo‘layotganligi haqida axborot berish va kuzatuvchilikdan iborat bo‘lgan.

Qulon – otdan kichikroq, eshakdan kattaroq, ko‘proq eshakka o‘xshab ketadigan yovvoyi hayvon.

Quyushqon – egarning oldinga siljimasligi uchun ot yoki eshakning dumi ostidan aylantirib, egarga birlashtiriladigan qayish.

Rabiya – bu so‘z fors-tojik tilidagi “rabudan” fe‘li asosida yasalgan bo‘lib, “tortuvchi”, “eltuvchi”, “ko‘taruvchi”, “yo‘l boshlovchi” ma‘nolarini bildiradi.

Rishvat – pora.

Rizvon – bu so‘zning lug‘aviy ma‘nosi “rozilik” bo‘lib, ma‘joziy ma‘noda “jannat” tushunchasini ham anglatadi.

Registon – qumloq, qumli joy, mayda tosh to‘shalgan qumlik maydon.

Sabz – yashil, ko‘kalamzor.

Sadpora – yuz bo‘lak, yuz pora.

Safo – yorug‘lik, ravshanlik, porloqlik, xursandlik, poklik.

Sang – tosh.

Sard – sovuq.

Sargashta – boshi aylangan, hayron, lol, sargardon.

Saricha//Saraja – ikki otni yonma-yon bog‘lab, kasalni yotqizish uchun o‘rtasiga belanchak singari tutilgan mato.

Sarimdan – boshimdan.

Sarkashlik – o‘jarlik, bo‘yin bo‘lmaslik, bo‘ysunmaslik, itoatsizlik.

Savg‘ot – sovg‘a.

Sayg‘oq – qo‘sh tuyoqli, kavsh qaytaruvchi cho‘l va dashtlarda yashovchi sut emizuvchi jonivor.

Shab – tun, kecha.

Shabgir – tun bo‘yi uxlamaslik, tunda yurmoq, kechasi hujum qilmoq.

Shag'al – chiyabo'ri.

Shahboz – shunqor, lochin; sariqbosh lochin; ko'chma ma'noda "mard, tanti, jasur yigit".

Shahsuvor – mohir chavandoz; pahlavon, bahodir.

Shamxol – barchaga tegishli, umumiy.

Sharobi antahur – aslida "sharoban tahuro" bo'lib, mo'minlarga jannatda ulashiladigan sharob. Rivoyatlarga qaraganda, mo'minlar jannatda sharoban tahurdan ichsalar, allohning diydoriga musharraf bo'lisharkan.

Shavroz – bu lug'aviy birlik aslida "shab-ro'z" tarzidagi juft so'z bo'lib, "kecha-kunduz" degan ma'noni anglatadi.

Shikor – ov.

Sho'ra – zaxlangan, ya'ni sho'rlangan yerlarda o'sadigan yovvoyi o'simlik.

Sho'rida – (aslida "sho'riyda") hayajonlangan, besaranjom, jo'shqin; bechora, sho'rlik.

Shohpar – qanotning uzun qismi.

Shol – yungdan to'qilgan qalin mato.

Shotir – jilovdor, podsho otining jilovida yuruvchi navkar.

Shuyla – shunday, shunaqa.

Sichrab – sapchib, sakrab. **Siforish** – buyurtma.

Sifoyish – taskin bermoq.

Siyindim – sig'indim.

So'vsan – qimmatbaho mo'ynali yirtqich hayvon, suvsar.

Sochoq – sochiq; dasturxon.

Sog' ilki – o'ng qo'li.

Sohibg'izo – taom egasi.

Soraldi – sarg'aydi.

Suhangar – so'zga chechan kishi, so'z ustasi, so'zlovchi, shoir.

Suju – chuchuk.

Suluk – yo'l tutish, yaxshi yo'lga kirish, ravshanlik; so'fiylarning tariqat yo'li.

Suman – "yasmin" so'zining qisqargan shakli bo'lib, oq, sariq rangli xushbo'y isli gul" ma'nosini bildiradi.

Secha – chumchuq.

Seg'an – senga.

Tabl – teri qoplab ishlangan va urib chalishga mo'ljallangan katta nog'ora, dovul.

Tamiz – sog'lom fikr, fahm-farosat.

Tavallo – yolvorish, umid qilish, yalinib so'rash, iltijo qilish.

Tig'a – burchak, chet. **Tiljag'ozing** – tilginang. **Tiri boron** – o'q yomg'iri. **To'li** – to'la, to'liq.

Tomir-tuvg'oni – qavm-u qarindoshi, tug'gan-tug'ishgani.

Toppot – oftob, quyoshning tafti.

Tovshan – tovushqon, ya'ni quyon.

Tug' – yog'och dastasiga o'rnatilgan qo'tos, ho'kiz yoki ot dumidan va yarim oy tasviridan iborat bayroqsimon belgi; bayroq, a'lam.

Tukirak – tupuk.

Tungluk – uyning tepasidagi tuynuk.

Teva – tuya.

Ukpar – bolalarning bosh kiyimiga chatib qo'yiladigan ukki pati.

Ulli-kichi – katta-kichik.

Uloq – ulov, miniladigan jonivor.

Ustixon – suyak.

Vaj – sabab, bois.

Vallamat – o'ziga qaram kishilarni moddiy jihatdan ta'minlab turuvchi, ularga ne'mat beruvchi shaxs

Vas-vas qilmoq – yo'ldan ozdirmoq.

Xachir – ot bilan eshak(hangi)dan urchigan yuk tashuvchi uy hayvoni.

Xiromon – latif, noz bilan yuruvchi, noz-tamanno bilan chiroyli qadam tashlaydigan.

Xob – uyqu.

Xonaqoh – masjidning namoz o'qiladigan keng va katta xonasi; mahalla, qishloq masjidlarining tomi gumbazli yoki tekis bo'lgan qishki qismi; darveshlar makoni.

Xurdikalon – bu qo'shma so'z "Yusuf bilan Ahmad" dostonida "katta-kichik" ma'nosida ishlatilgan.

Yalov – bayroq, tug‘.

Yaqog‘a – chetga, qirg‘oqqa.

Yasovul – xonliklar davrida yuqori lavozimdagi kishilarga, amaldorlarga xizmat qiluvchi kichik mansabdor, xonlarning shaxsiy xizmatkori, soqchi yoki posbon.

Yasov – saf, qator.

Yaxtiliq – yorug‘lik.

Yaylog‘ – yaylov, chorva mollari o‘tlaydigan joy, o‘tloq.

Yazdon – xudo, tangri.

Yig‘nab – yig‘ib, to‘plab.

Yobon – dala, shahardan tashqaridagi joy, dasht.

Yoli – kabi, singari.

Yorti – yarim.

Yos – motam marosimi.

Yoxti – yorug‘.

Yozdurdi – qo‘yib yubordi, xalos qildi.

Zamlamoq – majburlamoq, nasihat qilmoq, maslahat bermoq.

Zamzama – biror qo‘shiq, ashulani past ovozda sekin kuylash, xirgoyi qilish.

Zang – dog‘, g‘ubor.

Zarafshon – zar sochuvchi, yarqirovchi, oltinday toblanuvchi.

Zinda – tirik, hayot.

Zot – narsa, buyum.

Zov – tog‘ etaklari va daralardagi tik jar, katta o‘yiq.

Zulfi siyo – ayollarning ikki chekkasidan tushib turgan qora kokili, qora soch.

Zulfiqor – hazrati Alining ikki damli, ya‘ni ikki tarafi ham keskir bo‘lgan mashhur qilichi.

Zuljalol – azamat va eng buyuk, buyuklik egasi.

Zunnor – musulmon davlati hududida istiqomat qiladigan boshqa dinga e‘tiqod qiluvchi kishilar musulmon emasligi belgisi sifatida beliga taqib yuradigan, charmdan yasalgan yoki ma‘lum bir rangdagi jundan eshib to‘qilgan maxsus chizimcha-belbog‘.

MUNDARIJA

KIRISH. Xalq ogʻzaki ijodi soʻz sanʼati sifatida. Xalq ogʻzaki ijodining oʻziga xos xususiyatlari	3
--	---

I qism.

Mustaqillik davrida “Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi”ni oʻrganishning yetakchi masalalari. Folklor maʼnaviy tarbiyaning poydevori. Xalq ogʻzaki ijodi soʻz sanʼati sifatida.....	24
--	----

Mif va uning badiiy talqinlari. Afsona, rivoyat, naqlarning badiiyati	47
---	----

Mavsumiy folklor namunalari.....	68
----------------------------------	----

Oilaviy marosim folklori	83
--------------------------------	----

Xalq dostonlari.....	96
----------------------	----

Qahramonlik dostonlari.....	124
-----------------------------	-----

“Goʻroʻgʻli” turkumidagi dostonlar.....	140
---	-----

Romanik dostonlar.	148
-------------------------	-----

Romanik dostonlar tahlili.....	159
--------------------------------	-----

Xalq ertaklari.....	170
---------------------	-----

Mehnat qoʻshiqlari va termalar.....	188
-------------------------------------	-----

Bolalar folklori.....	222
-----------------------	-----

Lirik qoʻshiqlar.....	249
-----------------------	-----

Xalq maqollari va topishmoqlar.....	258
-------------------------------------	-----

Askiya. Latifa va loflar.....	289
-------------------------------	-----

II qism. ILOVALAR

Oʻzbek folkloridan namunalar	320
------------------------------------	-----

Glossariy	359
-----------------	-----

QAYDLAR UCHUN

TOJIXON SABITOVA

O‘ZBEK FOLKLORI

Darslik

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 21.04.2024 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi. “Cambria”
garniturası. Hisob-nashr tabog‘i. 23,375.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 22.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.